

MILLIY IQTISODIYOTNI INNOVATSION SHAROITIGA O'TISH DAVRIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA ZAMONAVIY MEHNAT BOZORI





Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami

I qism

19-noyabr 2025-yil

Toshkent 2025

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

“O‘ZBEKISTON DEMOGRAF OLIMLARI” UYUSHMASI

MILLIY IQTISODIYOTNI INNOVATSION SHAROITIGA O‘TISH DAVRIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA ZAMONAVIY MEHNAT BOZORI

mavzusidagi
respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

MATERIALLAR TO‘PLAMI
I qism

2025-yil 19-noyabr

Toshkent - 2025

«Milliy iqtisodiyotni innovatsion sharoitiga o‘tish davrida raqamli transformatsiya va zamonaviy mehnat bozori» respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami I qism. –T.: TDIU 2025. – 492 b.

Ushbu to‘plam « Milliy iqtisodiyotni innovatsion sharoitiga o‘tish davrida raqamli transformatsiya va zamonaviy mehnat bozori» mavzusida bo‘lib, unda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida demografiya va mehnat iqtisodiyotiga oid muammolar, hududlarda ishsizlikni kamaytirish va migrasiyani tartibga solishning dolzarb masalalari, moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali aholi turmush farovonligini ko‘tarishning ustuvor yo‘nalishlar, O‘zbekiston iqtisodiyotini yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi raqamli transformatsiya, demografik salohiyatlardan foydalanish istiqbollari kabi mavzularga oid tadqiqot ishlari va ilmiy qarashlari aks ettirilgan materiallar bayoni keltirilgan.

To‘plamga iqtisodiy muammolar bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan etakchi xorijiy va mahalliy oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqot muassasalarining mutaxassislari, ilmiy xodimlari, doktorantlari, mustaqil izlanuvchilari hamda iqtidorli talabalari, vazirlik va korxonalarning rahbar xodimlari va mutaxassislarining ilmiy izlanishlari natijalari kiritilgan.

To‘plamda keltirilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar, keltirilgan me’yoriy - huquqiy hujjatlarning haqqoniyligi, bildirilgan fikr - mulohazalar va takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Mas’ul muharrir: i.f.d., prof. S.K. Xudoyqulov

Tahrir hay’ati:
i.f.d., prof. B.X. Umurzakov
i.f.d., prof. A.S. Usmanov
i.f.d., prof. A.M. Qodirov
i.f.d., prof. F.I. Isayev

Taqrizchilar:
i.f.d., prof. X.X. Mamadaliyeva
g.f.d., prof. Z.N. Tojiyeva

Tashkiliy guruh a’zolari:
M.I. Asqarova
M.A. Bahriddinova

ISBN 978-9910-625-03-9

© *“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ITM, 2025-yil*

KIRISH

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi “Milliy iqtisodiyotni innovatsion sharoitiga o‘tish davrida raqamli transformatsiya va zamonaviy mehnat bozori” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmonini ijro etishga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, Prezidentimiz tomonidan izchil olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy davlat siyosatlarining zaminida aholining miqdoriy o‘sishi va uning turmush sifati va darajasi eng dolzarb masalalar qatorida turibdi. Bundan tashqari “O‘zbekiston -2030” strategiyasining ustuvor yo‘nalishlarida “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish” va bu orqali zamonaviy mehnat bozoriga mos kadrlar tayyorlash maqsad qilib olingan. Raqamli transformatsiya global va mintaqaviy darajada iqtisodiy o‘sish, innovatsiyalar va mehnat resurslarining raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omilga aylanib borayotgan bir vaqtda hududiy mehnat bozorlarini rivojlantirishni ham talab qiladi.

Zamonaviy mehnat bozorining tendensiyalari, xususan, so‘nggi yillarda kuzatilayotgan joylardagi raqamli o‘zgarishlar, iqtisodiyotning tezkor texnologik o‘zgarishlariga bog‘liq bo‘lib, raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini samaradorligini oshirish va yashil texnologiyalarni joriy etish asosida iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishini rag‘batlantirmoqda, bu mintaqaviy iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirishga yordam beradi.

Konferensiya ishi quyidagi masalalarni o‘z ichiga oladi:

1. Raqamli transformatsiya borasidagi davlat siyosati va raqamli transformatsiya ekotizimini shakllantirish;

2. Innovatsion faoliyat jarayonida moliyaviy holatni tahlil qilish va prognozlash, moliyaviy oqimlarni boshqarish;

3.Hududlarda raqamli transformatsiyalardan foydalanish orqali takomillashtirilgan mahsulotlar, xizmatlarni tashkil etish;

4. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida zamonaviy mehnat bozorining rivojlanishi.

Bunda milliy iqtisodiyotni yanda rivojlantirishni ta’minlash doirasida bir qancha maqsadlar belgilangan bo‘lib uni amalga oshirish avvalo iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish bilan bog‘liqdir. Pirovardida barcha masalalar aholi farovonligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Shunday ekan professor-o‘qituvchilar, mutaxassislar, ilmiy xodimlar, izlanuvchilar o‘z ilmiy-amaliy takliflari bilan ishtirok etishdi.

Mazkur konferensiyani tashkil etish va o‘tkazishga o‘z hissasini qo‘shgan barchaga o‘z tashakkurimni izhor etaman. Umid qilamizki, bu kabi konferensiyalar “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazida har yili an’ana tarzida tashkil etib boriladi.

“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi direktori,
i.f.d., prof. ***Xudoyqulov Sadirdin Karimovich***

MUNDARIJA

1-SHO‘BA
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA BORASIDAGI DAVLAT SIYOSATI VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH

Qodirov Abdurashid Madjitovich
Hududiy rivojlanishning yangi konseptual modeli va demografik prognozlash asoslari... 13
Исаджанов Абдували Абдурахимович
Барқарорликни таъминлашда сунъий интеллектнинг роли..... 16
Aynakulov Muxitdin Abduxamidovich
Gender inklyuziyasi va raqamli siyosatning o‘zaro uyg‘unlashuvi: davlat tashabbuslari samaradorligi tahlili..... 19
Tashmatov Rustam Xusanovich
Raqamli transformatsiya va davlat mulkini boshqarishda korporativ boshqaruv samaradorligi..... 22
Максудова Шахиста Якубовна, Мурадов Ботир Хаят
Финансовый рынок актуальные проблемы промышленных аспектах в новой стратегии Республиканский Узбекистана..... 26
Sodikov Zokir Rustamovich
Barqaror rivojlanishda tashqi ekologik zararlarni ichkilashtirishning ahamiyati..... 30
Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna
Raqamli ekotizimlarni rivojlantirish istiqbollari..... 33
Xojaev Azizxon Saidaloxonovich, Azizjonov Shohruxbek Shuxratjon o‘g‘li
O‘zbekistonda bank tizimining raqamli transformatsiyasi va uning milliy iqtisodiyotga ta’siri..... 36
Мусабеков Джорабек Хакимджанович, Воронин Сергей Александрович
Развитие цифровых технологий в банковской системе Республики Узбекистан .. 40
Umarova Malika Baxtiyarovna
Tijorat banklarini transformatsiyalashda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash uslubiyotini takomillashtirish..... 42
Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li
Gat texnologiyalari asosida o‘zbekistonda migratsiya va mehnat resurslariga oid xarita ishlab chiqish yo‘nalishlari..... 46
Metyakubov Azamat Djumanazarovich
Qurilish materiallari sanoatida raqamli transformatsiya siyosatini amalga oshirish va uning ishlab chiqarish samaradorligiga ta’siri..... 48
Karimova Iroda Abdusattarovna, Qobilov Javohir Kabil o‘g‘li
Raqamli transformatsiya borasidagi davlat siyosati va raqamli transformatsiya ekotizimini shakllantirish..... 50
Xusniddinov Yorqinjon Muxiddin o‘g‘li
O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning dolzarb holati va rivojlanish tendensiyalari..... 54
Omonov Sardor O‘lmasovich
Raqamli transformatsiyaning ahamiyati va uning kapital bozoriga ta’siri..... 58
Uktamov Madadjon Uktam oglu, Abdurakhmanova Nozima
The role of artificial intelligence and big data technologies in state governance: Uzbekistan’s experience..... 61

Ismoilov Alisher Jobir o‘g‘li
Raqamli transformatsiya sharoitida qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining mintaqaviy mehnat bozori rivojlanishiga ta’siri..... 63
Yusufjanov Temurbek Abdumannob o‘g‘li
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik subyektlarida autsorsing faoliyatini takomillashtirish mexanizmlari..... 67
Gafurov Anvar Bazarbayevich
O‘zbekiston respublikasida raqamli transformatsiya siyosati ahamiyati..... 70
Сайдуллаев Шахзод Шерзодович
Тренды и влияние глобализации на международный рынок IPO..... 73
Абдулов Дамир Рустамович
Theoretical foundations for the formation of an effective tax administration mechanism..... 76
Zokirova Feruza Ravshanovna, Kasimova Gulnora Ismoilovna
Masofaviy malaka oshirish kurslarini raqamli ekotizimga aylantirish: nazariy va amaliy asoslar..... 79
Aliyeva Gozzal Aliyevna
Raqamli texnologiyalarni boshqarishdagi muammolarni yechish yo‘llari..... 81
Oripov Abdumalik Abdusalomovich, Ibroximov Muhammadsodiq Xokim o‘g‘li
Raqamli transformatsiya ekotizimini shakllantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligining o‘rni..... 83
Сайдалиева Дилдора Собир кизи
Влияние цифровой трансформации на динамику бедности и социально-экономического неравенства в условиях инновационного развития Узбекистана 86
Шатохина Светлана Юрьевна
Трансформация механизмов регулирования городской среды на основе цифровых решений и принципов устойчивого развития..... 89
Хувайдуллаева Ирода Хусниддин қизи, Маматханова Зиёда Хуснутдин қизи
Корхона ва ташкилотларни трансформациялашда сунъий интеллектнинг ўрни..... 92
Rizayeva Nilufar Oblakulovna
Raqamli transformatsiya sharoitida kichik biznes subyektlarini rivojlantirish..... 95
Omonova Shohista Ikrom qizi
Fiskal siyosatda raqamli transformatsiya..... 98
Fazliddinova Zulxumor Akramjon qizi
Hududiy iqtisodiyotni boshqarishda prognozlash va modellashtirish texnologiyalari 100
Mamatojiyeva Sarvinoz Dilshodbek qizi
Sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlarini boshqarish..... 103
Ablatov Ulug‘bek Majitovich
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash strategiyasini shakillantirish..... 105
Еникеева Алсу Гумеровна
Ўзбекистонда рақамли экотизимларни ривожлантиришда бизнес, давлат ва таълим интеграцияси..... 107
Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich
Raqamli iqtisodiyot milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishtirishning muhim sharti sifatida..... 109
Toshpulatov Murodulla Sobirjon o‘g‘li
Biznes sub’ektlarining fond bozoridagi ishtiroki..... 113

Джулибеков Нурмат Каршибекович, Жулиева Гулноз Юлдашевна
Государственная политика цифровой трансформации и формирование экосистемы цифровой трансформации «зелёная» экономика республики Узбекистан, перспективы развития..... 116
Maxmudova Nodiraxon Jumaboy qizi
Korxonalarda risk boshqaruvini raqamli transformatsiya sharoitida takomillashtirish..... 119
Abdullayev Habibullo Asadulla o‘g‘li
Sun’iy intellektning mehnat bozoriga ta’siri: imkoniyatlar va xavf-xatarlar 121
Ro‘ziyeva Zarnigor Otabek qizi, Zohidjonova Gulnura Zuxriddin qizi
Davlat boshqaruvida raqamli transformatsiya jarayonlarini takomillashtirish mexanizmlari..... 124
Xusniddinov Yorqinjon Muxiddin o‘g‘li
O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning dolzarb holati va rivojlanish tendensiyalari..... 126
Abdullajonov Davronjon
Farg‘ona vodiysida yashil tadbirkorlikni moliyalashtirish va qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari tahlili..... 131
Soxibova Muslimaxon Xolmatjon qizi
Ziyorat turizmi resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiya jarayonlarining roli: yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish va madaniy merosni saqlash imkoniyatlari..... 134
Kodirov Aqliddin Xakim o‘g‘li
Soliq nazoratini tashkil etishda raqamli transformatsiya siyosatining o‘rni va ta’siri 138
Yormonqulova Nargiza Ikromjon qizi
Hududlarda raqamli transformatsiyalardan foydalanishni takomillashtirish: Farg‘ona viloyati misolida..... 140
Qazaqov Tolibjon Sharifjon o‘g‘li
Barqaror rivojlanish konsepsiyasida hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari..... 143
Tusunova Shamsiya Saidburxon qizi
Raqamli transformatsiya sharoitida sog‘liqni saqlash tizimida sun'iy intellekt samaradorligini baholash va uning mehnat bozoriga ta'siri..... 145
Мирзаев Саибджан Собитович, Рахмонова Мафтуна Бобокул кизи
Национальная политика цифровой трансформации как фактор развития инновационной экосистемы..... 147
Xalikchayeva Sadokat Ilxomjonovna
Raqamli transformatsiya sharoitida soliq bazasini aniqlash metodologiyasiga ta’sir etuvchi omillar tahlili..... 150
Hakimov Ulug‘bek Furqat o‘g‘li
Soliq qarzdorligini boshqarishda raqamli transformatsiyaning o‘rni..... 152
Jahongirov Kamoliddin Asomiddin o‘g‘li
Ta’lim turizmini rivojlantirishda raqamli transformatsiyaning o‘rni va imkoniyatlari..... 155
Toshpulatova Malika Ulug‘bek qizi
O‘zbekistonning jahon savdo tashkilotiga a’zolik jarayonida raqamli savdo siyosatini takomillashtirish yo‘nalishlari..... 158
Хакимджанова Сурайё Хабибуллаевна
Навигация по цифровым рубежам: роль государственной политики в стимулировании инноваций и устойчивого роста..... 162
Isakov Musoxon Yusupdjanovich
Qurilishda raqamli transformatsiya borasidagi davlat siyosati..... 165

Kodirov Aqliddin Xakim o‘g‘li
Soliq nazoratini tashkil etishda raqamli transformatsiya siyosatining o‘rni va ta’siri..... 168
Ummataliyev Umarali Jasurbek o‘g‘li
The impact of artificial intelligence and automation on organizational culture: the experience of uzbek companies..... 171
Махамаджанов Мухаммадали Музаффарович
Внедрение инноваций в электронную коммерцию в целях повышения качества предоставления финансовых услуг в Республике Узбекистан 173
Abdullayev Abbosjon Xasanboy o‘g‘li, Bahromova Ruhshonaxon Burxonjon qizi
Davlat siyosatida raqamli transformatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari va raqamli ekotizimni takomillashtirish masalalari..... 175
Туйчиева Шохсанамхон Абдухолик кизи
Роль инноваций в формировании эффективного и конкурентоспособного рынка труда..... 177
Muzaffarova Shahriniso Abduhamedovna
Raqamli transformatsiya borasidagi davlat siyosati va uning amalga oshirilishi 181
Абдухамидова Фазилат Баходир қизи
Факторы, определяющие намерение пользователей оформлять подписку в условиях цифровой экономики..... 184
Комекбаева Айжамал Арсланбай кызы,
Кадиралиева Айгерим Бауыржан кызы
Электронное правительство как инструмент повышения эффективности государственного управления..... 186
Oripova Madina Alisher qizi
The role of state policy in accelerating digital transformation..... 189
Baxtiyorova Durdona Davronbek qizi
Digital platforms and their role in modern business development 191
Allambergenova Rawshan Tilepbay qizi
The role of digitalization in the improvement of small businesses in Uzbekistan..... 193
O‘ktamova Dilnozaxon Umidjon qizi
Interagency integration of state institutions in implementing the digital transformation policy:analysis of Uzbekistan’s experience and international practices 196
Temirov Abdulaziz Alimjanovich
The role of dividend policy in the activities of commercial banks..... 199
Mirzayev Muhammadjon Muhammadayub o‘g‘li
Artificial intelligence in strengthening cybersecurity within digital transformation ecosystems..... 202
Abdiqayumov Khasan Khamzaali o‘g‘li
The contribution of small business and private entrepreneurship to sustainable economic growth in Uzbekistan..... 205
Rahmonova Durdona Ilhomjon
Opportunities for the development of small business activities in the context of digital transformation..... 206
Abdunazarov Elyor Erkin o‘g‘li
Milliy iqtisodiyotni innovatsion sharoitiga o‘tish davrida raqamli transformatsiya va zamonaviy mehnat bozori..... 209
Xamidova Munira Abduvali qizi
Innovatsion iqtisodiyot sharoitida moliyaviy holatni tahlil qilish va moliyaviy oqimlarni samarali boshqarishning iqtisodiy asoslari..... 211

Usmonov Abdulaziz Xusnitdin o‘g‘li
Yashil iqtisodiyotda ekologik innovatsiyalarni tadbirkorlik faoliyatiga integratsiya qilishning institutsional mexanizmlari..... 214
Saidnazarov Firdavs Abdulloyevich
Raqamlashuv sharoitida korxonaning moliyaviy strategiyasini shakllantirish va amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari..... 218
Makhmudov Asliddin Sirojiddin o‘g‘li
Issues of ensuring the security of the banking system in the financial market of Uzbekistan..... 221
Абдуллаев Хуршиджон Назруллаевич
Вопросы совершенствования экологического аудита посредством цифровой трансформации..... 223
Berkinov Odilbek Alisher o‘g‘li
Aholini ish bilan bandligini oshirishda imtiyozli kreditlarning roli..... 225
Karimova Iroda Abdusattarovna, Qobilov Javohir Kabil o‘g‘li
Raqamli transformatsiya borasidagi davlat siyosati va raqamli transformatsiya ekotizimini shakllantirish..... 227
Ismoilov Abdulxoliq Muxiddin o‘g‘li
Yashil iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarni qo‘llash va menejment samaradorligini oshirish..... 231
Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich
Raqamli iqtisodiyot milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishtirishning muhim sharti sifatida..... 234

2-SHO‘BA
INNOVATSION FAOLIYAT JARAYONIDA MOLIYAVIY HOLATNI TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH, MOLIYAVIY OQIMLARNI BOSHQARISH

Усманов Анвар Саидмахмудович
Концепция развития человеческого капитала..... 239
Мамадалиева Хафиза Холдаровна
Ўзбекистондаги демографик ўсиш ва иқтисодий ўзгаришлар..... 241
Носиров Илхом Аббосович
Инновационные стратегии и их влияние на финансовое состояние компании..... 245
Muminova Elnoraxon Abdukarimovna, Jo‘rayev Asadbek Anvarjon o‘g‘li
Korxona innovatsion rivojlanishi sharoitida moliyaviy barqarorlikni tahlil qilish, natijalarni prognozlash hamda moliyaviy oqimlarni boshqarish mexanizmlari 248
Пулатов Дилшод Хақбердиевич, Махкамова Шахло Юлчиевна
Инновацион фаолият жараёнида маданият ва телевидениени молиялаштириш..... 250
Пулатов Дилшод Хакбердиевич, Махкамова Шахло Юлчиевна
Кам таъминланган оилалар бюджетида дори-дармон харажатлари улуши таҳлили (социологик тадқиқот натижалари)..... 254
Qalmuratov Baxtiyar Seytmuratovich
Qoraqalpog‘iston respublikasida sanoat mahsulotlari prognoz qiymatlarini ishlab chiqish va istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash..... 257
Абдуллаев Зафаржон Алижонович
Бизнес субъектларининг молиявий барқарорлигини таъминлаш масалалари..... 260
Абдуллаев Зафаржон Алижонович, Иномжонова Феруза Алижоновна
Агробизнес субъектларининг инновацион фаоллигини ошириш..... 262

Алиева Сусанна Сейрановна, Абдугаффорова Макнуна Ахмаджон кизи
Вопросы финансовой грамотности при формировании личного бюджета 265
Махмутходжаева Луиза Сайфулловна
Взаимосвязь стратегического планирования и финансового прогнозирования в контексте реализации стратегии «Узбекистан – 2030»..... 269
Юсупова Дилдора Тураджановна, Хасанова Садокат Баходир кизи
Совершенствование ценовой политики как фактор управления финансовыми потоками и обеспечения устойчивости текстильного предприятия 271
Kenjayev Ikrom Ergashboyevich
Investitsiyalar jalb qilishning asosiy mexanizmlari..... 274
Akbarova Shoxida Azatovna, Kasimova Gulnora Ismoilovna
Masofaviy malaka oshirish kurslarini raqamli texnologiyalar yordamida modernizatsiya qilish..... 278
Ibragimov G'anijon G'ayratovich
Fond bozorida aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalari narxini o'zgarishini lejandra ko'phadi orqali qisqa muddatli prognozini ishlab chiqish..... 281
Suvonov Ibroxim Izbosarovich
Bozor iqtisodiyoti va davlat: aralash iqtisodiyot modelining zarurati..... 283
Matkuliyeva Sanobar Ismailovna
Soliq imtiyozlari hisobini takomillashtirish orqali korxonalar moliyaviy holatini yaxshilash yo'nalishlari..... 286
Бердиназаров Зафар Улашович
Перспективы эффективного использования инновационного менеджмента в сфере управления бизнесом и стратегической трансформации бизнес-процессов в Узбекистане..... 289
Karimova Nozimaxon Oybekovna, Kasimova Gulnora Ismoilovna
Muhandislik sohasi kadrlarining malaka oshirish kurslarini samarali tashkil etishning raqamli trasformatsiyalash asoslari..... 293
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna
Korxonalarda innovatsion faoliyatni moliyaviy boshqarish..... 295
Камилова Машкура Хидоятовна
Влияние глобализации научно-технологического процесса на национальные инновационные системы..... 299
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna
To'qimachilik sanoati korxonalarining moliyaviy barqarorligini tahlil qilish – innovatsion faoliyatni amalga oshirishning asosiy sharti sifatida..... 303
Абдуллаева Зульфия Иззатовна
Роль социальных программ в адаптации работников к требованиям инновационной экономики..... 307
Рузимурадов Шухрат Хусанович
Айланаётган маблағларни иқтисодиёт тармоқлари ва мамлакат ҳудудлари бўйича мутаносиблигини таъминлаш..... 310
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li, Maxammadov Diyorbek Muxtor o'g'li
Tijorat banklarida innovatsion faoliyatni moliyaviy tahlil qilish..... 313
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich
Kichik biznes eksport salohiyatini oshirishning moliyaviy va innovatsion boshqaruv mexanizmlari (Xorazm viloyati misolida)..... 316
Sodikkhujaeva Shakhnoza Khursanjon qizi
Financial analysis, forecasting, and cash flow management in innovative activities: a mathematical modeling approach..... 320

Alimov Sherzod Choriyevich 321
O‘zbekistonda takoful fondlarini rivojlantirish istiqbollari.....
Abidov Adhamjon Abdumajid o‘g‘li, Ergashev Nurullo Ubaydullo o‘g‘li
Kichik va o‘rta korxonalar uchun mobil ilova asosida moliyaviy tahlil va prognozlash modeli..... 325
Jo‘rayeva Dilnavoz Umidjon qizi
Innovatsion iqtisodiyot sharoitida zamonaviy mehnat bozorining rivojlanishi..... 326
Teshabayev Dilmurod Boxodir o‘g‘li, Ergashev Nurullo Ubaydullo o‘g‘li
Moliyaviy hisobning raqamli iqtisodiyotdagi konseptual muammolari..... 329
Yovkochev Sherzod Shuxrat o‘g‘li
Improving the framework for sustainable economic partnership between uzbekistan and international financial institutions..... 331
Nuriddinova Roziyaxon Abdixaliqovna, Yusupova Dilafro‘z Orifjon qizi
Charm-poyabzal sohasidagi innovatsion o‘zgarishlar..... 335
Umarova Nilufar Abdukaxor qizi
Innovatsion faoliyat jarayonida moliyaviy holatni tahlil qilish va prognozlash, moliyaviy oqimlarni boshqarish..... 338
Baxodirov No‘monxon Kamolxonovich
Innovatsion faoliyatning moliyaviy oqimlarini prognozlashda ekonometrik yondashuvning ahamiyati..... 340
Исмаилов Аллаёр Рашидович
Корпоратив қарор қабул қилиш жараёнларини такомиллаштиришда инновацион механизмларнинг роли..... 343
Xoldorov Sardor Umarovich
Innovatsion texnologiyalar, raqamli monitoring va ekonometrik modellar asosida pul bozori likvidligini prognozlash va moliyaviy oqimlarni boshqarish: O'zbekiston bank tizimida likvidlik profitsiti va risklar tahlili..... 346
Тулганова Шахноза Самукджановна
Современные инструменты прогнозирования и оптимизации финансовых потоков в условиях стратегии «Узбекистан-2030»..... 349
Xojibekova Zilola Shavkat qizi
Bank aktivlari samaradorligi: milliy amaliyot va xalqaro tajriba..... 351
Jo‘rayev Umidjon Shuxratjon o‘g‘li
Moliyaviy hisobot tuzishning xalqaro standartlar asosida konsolidatsiyalash jarayonlarini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari..... 355
Navbatova Ra'no Hadjimuratovna, Norqulova Dinara Umidovna
Raqamli islohotlar kontekstida ta’lim tizimi boshqaruvi..... 358
Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o‘g‘li
Budjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni takomillashtirish masalalari..... 360
G‘aniyev Sanjar Poziljon o‘g‘li
Innovatsion siyosatni amalga oshirishning xorij tajribasi..... 363
Мухамадиева Кибриё Баходировна
Влияние искусственного интеллекта и автоматизации на трансформацию местного производства..... 366
Мадибрагимова Ирода Мухамедовна
Вероятностный анализ и прогнозирование финансового состояния в инновационной деятельности..... 369
O‘razaliyev Shirinboy Bo‘ron o‘g‘li
Inson kapitalini oshishida regression-korrelyatsion bog‘lanishni ahamiyati..... 371
Bobomuradova Sarvinoz Ziyadullayevna
Innovatsion faoliyatda investitsion qarorlar va moliyaviy tahlilning roli..... 373

Umarov Begzodbek Jaloldinovich
Ko‘p kvartirali uylarni boshqaruv organlari tomonidan aholiga sifatli xizmat ko‘rsatishni qo‘llab quvvatlashni takomillashtirish..... 375
Маматкулов Салимжон Рахмонкулович
Хуфиёна иқтисодиётни қисқартириш мақсадида қишлоқ хўжалиги соҳасида қўшилган қиймат солиғининг “ноль” ставкасини қўллаш орқали солиқ маъмурчилигини такомиллаштириш йўллари..... 378
Гулямова Асия Нурутдинова
Финансовое прогнозирование как инструмент стойчивого развития инновационных предприятий..... 381
Газиева Фаридахон Файзуллаевна
Влияние инновационных финансовых технологий на ликвидность и платежеспособность предприятий..... 384
Qo‘shayev To‘xtasin Abdiqodirovich
Innovatsion faoliyatda likvidlik va to‘lovga qobiliyatlilikni baholash..... 387
Ҳужамурадов Аброрбек Рўзимурат ўғли
Рақамли иқтисодиёт шароитида солиқ бошқарувини автоматлаштиришнинг самарадорлик омиллари..... 390
Зокиржонов Муҳаммадсодиқ Равшанбек ўғли
Фискал сиёсати самарадорлигини баҳолашнинг макроиқтисодий барқарорлик индекси (MSSI) методологияси..... 393
Ilyasova Barno Axmadovna
Korxonada investitsion muhit jozibadorligini ta’minlash va samarali bosqarish yo‘nalishlari tadqiqi xususida..... 396
Salohiddinov Jaloliddin Ulug‘bek o‘g‘li
Korxonalar innovatsion faoliyatida investitsiya jalb qilish va moliyaviy oqimlarni samarali boshqarish istiqbollari..... 399
Musurmonova Mahbuba Omonovna
Korxonalar moliyaviy holatini tahlil qilish va prognozlash..... 402
Arifjanova Yayraxon Usmonxo‘jayevna
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirishda moliyaviy instrumentlardan foydalanish amaliyoti..... 406
Umarova Shaxnoza Keldiyor qizi
Korxonalarni innovatsion rivojlantirish sharoitida investitsion va moliyaviy faoliyatning ahamiyati..... 408
Ergashev Muhibbek Aslam o‘g‘li
Gaz sanoati korxonalarida sun’iy intellekt loyihalarini joriy etish orqali korxonalarning moliyaviy barqarorlikni ta’minlash yo‘llari..... 410
Abduraxmonov Azizbek Akram o‘g‘li
Investitsion muhitni yaxshilash va xorijiy kapital uchun institutsional sharoitlarni takomillashtirish..... 414
Атаханова Хилола Матякубовна
Цифровая трансформация и современный рынок трудав условиях перехода национальной экономики в инновационную среду..... 417
Mamanov Alisher Umbarovich
Davlat budjeti ijrosi jarayonida ochiqlik va shaffoflikning ahamiyati..... 420
G‘ulomova Feruzaxon Farhod qizi
Hududlarda raqamli texnologiyalar orqali global g.a.p. standarti asosida meva-sabzavot mahsulotlari va xizmatlarini takomillashtirish..... 423

Nasibov Yakhyo Abdumannon o‘g‘li, Sapayev Elyorbek Baxtiyor o‘g‘li
Driving financial sustainability: the role of innovation in securing long-term economic viability and competitive edge..... 425
Abduraxmanova Nozima Akbar qizi
Moliyaviy oqimlarni boshqarishda raqamli vositalarning samaradorligi..... 429
Dusanov Doniyor Urazbaevich
Banklarning innovatsion faoliyat jarayonida muammoli kreditlarini boshqarish..... 431
Ahmedov Komron Muhammad-Alievich
Innovatsion faoliyat jarayonida tijorat banklari daromad manbalari tahlili..... 435
Turdiyev Shaxriddin Erxonovich
Tijorat banklarining innovatsion faoliyatida ipoteka kreditlarini subsidiyalash amalyoti..... 439
Nurullayeva Farangizxon Jamshid qizi
Opportunities for optimazing the financial management of small businesses through fintech technologies..... 442
Dulanova Sevinch Chori qizi
Digitalization reforms being implemented in the business sector in Uzbekistan..... 445
Абдуллаев Дилшод Абдуманноб ўғли, Чориева Аминабону Хасановна
Глобализация и цифровизация как факторы траснформации финансового анализа в банковском секторе узбекистана..... 448
Allambergenova Rawshan Tilepbay qizi
The role of digitalization in the improvement of small businesses in uzbekistan..... 451
Rakhimova Lobar Kamoliddin qizi
Strategic analysis and predictive modeling of financial stability and flow management within innovation-driven enterprises..... 454
Арипов Жавохир Абдихакимович
Самарали молиявий ҳисобдорлик ва шаффофлик тизими..... 457
Каримов Бехруз Вафокулович
Ташқи қарзнинг иқтисодий ўсишга таъсири: назарий ёндашувлар..... 459
Soliyev Dilmurod Jamolovich, Oxunov Temurbek Farxod o‘g‘li
Evolyutsiya va raqamli transformatsiya: o‘zbekiston g‘aznachilik tizimining rivojlanishiga umumiy nazar..... 461
Xudaybergenova Roza Axmed qizi
Hududiy investitsiyalarni rag‘batlantirishda soliq imtiyozlarining samaradorligi..... 464
Karabayev Rustam Zafarovich
Raqamli kommunikatsiya va toshkent: O‘zbekistonning boshqaruv tizimi..... 466
Smaliakova Olga
Time and cash flow factors in bankruptcy risk assessment..... 470
Исломова Муфассал Музаффаровна
Баланс иностранных и внутренних инвестиций как инструмент оптимиз инвестиционной политики Узбекистана..... 473
Solixova Xumora Xasan qizi
Soliq tizimida barqarorligini ta'minlashda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning a yo‘nalishlari..... 476
Kochkarov Xudaybergen Atadjanovich
Innovatsion korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta’minlashning zamonaviy mexanizmlari..... 479
A’zamova Aziza Olimjon qizi
Yog‘-moy sanoati korxonalarida soliq auditini axborot tahliliy ta’minoti..... 482
Xasanov Baxodir Akramovich
Soliqlar auditini raqamlashtirish..... 486

1-SHO‘BA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA BORASIDAGI DAVLAT SIYOSATI VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH

HUDUDIY RIVOJLANISHNING YANGI KONSEPTUAL MODELI VA DEMOGRAFIK PROGNOZLASH ASOSLARI

Qodirov Abdurashid Madjitovich
TDIU huzuridagi ITM sektor mudiri, i.f.d., professor

So‘nggi paytlarda mintaqaviy tahlilda tizimli yondashuvdan foydalanish keng tarqalib, hududlarni tizim sifatida, birinchi navbatda, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik-iqtisodiy o‘rganishni aks ettiradi. Bizning fikrimizcha, hududlarning hududiy ishlab chiqarish tizimlari sifatidagi tushunchasi ham bundan kam ahamiyatga ega emas.

Zero, oxir-oqibatda iqtisodiy o‘sishning mezoni ishlab chiqarishning rivojlanishidan iboratdir. Shunday ekan, hududlarni modernizatsiya qilishdagi o‘zgarishlarni ularning hududiy-ishlab chiqarish tizimlarini yangilash sifatida ko‘rib chiqish lozim.

Bejiz emas, rivojlangan mamlakatlarning mintaqaviy siyosati uzoq yillar davomida asosan davlatning ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish jarayonlariga ta’sir ko‘rsatish siyosati bo‘lib kelmoqda. Faol mintaqaviy siyosat yuritayotgan mamlakatlarga xos jihatlar qatoriga iqtisodiy jihatdan sust rivojlangan hududlarni o‘zlashtirish, depressiv sanoat tumanlarini qayta tiklash (rekonversiya), aglomeratsiyalar va sanoat ishlab chiqarishi haddan tashqari to‘plangan hududlarni markazsizlashtirish, klasterlar tashkil etish va boshqalar kiradi.

To‘g‘ri tanlangan strategiya iqtisodiy rivojlanish salohiyatini ro‘yobga chiqarishda kuch va resurslarni jamlash imkonini beradi hamda bozor sharoitida hududlarning samarali rivojlanishini ta’minlaydi. Shubhasiz, alohida hudud rivojlanish strategiyasi mamlakatning umumiy rivojlanish strategiyasiga organik tarzda uyg‘unlashib, u bilan yaxlit bir butunlikni tashkil etishi zarur.

Shuni ta’kidlash kerakki, respublikada katta ijobiy o‘zgarishlarga qaramay, hududiy tuzilmalar darajasida mintaqaviy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda sezilarli o‘zgarishlar yuz bermadi. Hududiy hokimiyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari va dasturlarini shakllantirishda respublika organlariga qaramligi saqlanib qolmoqda. Yuqoridan pastga tushadigan hujjatlar hokimiyatlar uchun har qanday yo‘l bilan bajarilishi majburiy bo‘lgan yo‘riqnoma vazifasini o‘taydi. Hududiy hokimiyatlar mintaqaning rivojlanishiga oid strategik muammolarni mustaqil, chuqur va kompleks ishlab chiqmaydi.

Natijada, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida bir qator muammolar mavjud:

hududlarning iqtisodiy salohiyati to‘liq amalga oshirilmayapti, respublika dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda hududiy xususiyatlar yetarli hisobga olinmayapti;

hududlar iqtisodiyoti asosan agrar yo‘nalishda saqlanib qolmoqda;

mahalliy va xorijiy investitsiyalar joylashtirishda ma’lum disproporsiyalar mavjud;

mahalliy byudjetlarni shakllantirishning moliyaviy bazasi yetarli emas;

resurslar mavjudligi va bozor imkoniyatlaridan foydalanish o‘rtasida tafovut mavjud;

hududlararo iqtisodiy integratsiya yetarlicha rivojlanmagan;

hududiy menejment darajasi past (iqtisodiy qarorlarning yuqori darajada markazlashtirilishi saqlanib qolmoqda), tarmoq yondashuvi va idoraviy manfaatlar ustunlik qilmoqda;

alohida hududlarning iqtisodiy strategik rivojlanishi bo‘yicha respublika, hudud, biznes va mahalliy hamjamiyat manfaatlarini uyg‘unlashtiruvchi yagona maqsadli dastur mavjud emas.

Yuqorida qayd etilgan muammolarning oqibati sifatida hududiy hokimiyatlarning o‘z hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini amalga oshirishda imkoniyatlari va motivatsiyasi yetarli emas. Bularning barchasi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yangi modelini ishlab chiqish konsepsiyasi metodologiyasini ishlab chiqish zaruratini belgilab bermoqda.

Hududlarni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishda asosiy tamoyillar quyidagilardan iborat:

hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi davlatning o‘rta va uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi sifatida qaraladi. Bu jarayonda hududlarning ushbu vazifalarni hal etishga qo‘shadigan oqilona hissasi ularning rivojlanishining real shart-sharoitlari va cheklovlari bilan belgilanadi;

hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi resurs imkoniyatlari, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va hudud tashqarisidagi sharoitlarning mumkin bo‘lgan rivojlanish ssenariylari tahlilidan kelib chiqib, umumiy maqsadlar, vazifalar, rivojlanish yo‘nalishlari va ularni amalga oshirish mexanizmlarini belgilab beruvchi hujjat sifatida qaraladi.

Hududlarni rivojlantirish konsepsiyasi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga, rivojlanishning muayyan bosqichida shakllanayotgan markaz va hudud o‘rtasidagi munosabatlarga, tashqi iqtisodiy vaziyatga, ya’ni yagona davlat doirasida jamiyat rivojlanishining maqsadli yo‘nalishlariga ta’sir etuvchi shart-sharoitlar va omillar tizimiga qarab o‘zgaradi.

Konsepsiya hech qachon oxirigacha to‘liq o‘ylab chiqilishi va hisob-kitob qilinishi mumkin emas hamda tashqi va ichki shart-sharoitlarning o‘zgarishiga qarab uni muntazam ravishda tuzatib borish majburiy tartib hisoblanadi. Bu jarayonning asosi doimiy monitoring bo‘lishi zarur.

Konsepsiya “to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi” hujjat emas, balki butun hujjatlar tizimini ishlab chiqishga asos bo‘lib xizmat qiladi: tumanlar, shaharlar va posyolkalar rivojlanishining strategik rejalari, alohida tarmoqlar bo‘yicha kompleks maqsadli dasturlar, istiqbolli va joriy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejalar, turli darajadagi boshqaruv organlari faoliyati rejasi, qonunchilik tashabbuslari va boshqalar.

Konsepsiya doirasida yangi ijtimoiy-iqtisodiy model ishlab chiqiladi: qashshoqlikni qisqartirish tashabbuskorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish motivatsiyasini rivojlantirish, ish o‘rinlari yaratishni rag‘batlantirish va qishloq aholisi daromadlarini oshirish asosida amalga oshiriladi (mazkur model pilot tuman misolida sinovdan o‘tkaziladi).

Konsepsiyaning maqsadi – mahalliy tashabbuslar va resurslarni safarbar etish asosida bandlikni oshirish, aholining real daromadlarini ko‘paytirish va qashshoqlikni qisqartirish yo‘lida hududiy rivojlanishni tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirish va takomillashtirishdir (pilot loyiha tuman darajasida amalga oshiriladi).

Konsepsiya doirasida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

1. Tabiiy-iqtisodiy salohiyatni boshqarish: yer resurslaridan (qishloq xo‘jaligi va noqishloq xo‘jaligi maqsadlarida) hamda suv resurslaridan (qishloq xo‘jaligi, sanoat, gidroenergetika imkoniyatlari, aholi va boshqalar) foydalanishni tartibga solish; mineral-xom ashyo resurslari (sanoat qazib olish, sanoat qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun xom ashyo va boshqalar).

Hududlarning iqtisodiy-ekologik rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar aniqlanishi, mintaqaviy iqtisodiyotning organik maxsulotlarni ishlab chiqarish, tog’-tog’oldi va cho’l hududlari saloxiyatidan samarali foydalanish, sug’oriladigan yerlarni sifat darajasini va hosildorligini oshirish, raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan to’la foydalanish kabi yondashuvlar o’rganiladi.

“Yashil” texnologiyalar energiya va resursni tejashga, atmosferaga uglerod chiqarishni kamaytirishga, sof energiyadan foydalanuvchi transportga, energiyanig muqobil manbalariga, organik qishloq xo’jaligiga, ekodevelopmentga (atrof muhitga kam ta’sir ko’rsatgan holda qurilishga), ilg’or logistikaga asoslanadi.

Bu o’z navbatida iqtisodiyotga tabiatga ziyon yetkazmay rivojlanish va aholining ekologik farovonligini saqlash imkonini beradi, tabiiy kapitalni saqlash va oshirish hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, zaharli moddalar va uglerod chiqarilishini kamaytirdai, bioxilmaxillikni kengaytiradi, shuningdek aholi daromadlari va bandligini oshiradi.

Hududlar uchun 2050-yilgacha bo‘lgan davrda demografik rivojlanishning aniq prognozlarini shakllantirish alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunda aholi sonining dinamikasi, yoshi va jinsiy tarkibi, mehnat resurslarining hajmi va sifat ko‘rsatkichlari muntazam ravishda tahlil qilinishi lozim. Ushbu prognozlar nafaqat umumiy demografik tendensiyalarni aks ettiradi, balki hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari bilan ham bevosita bog‘liqdir. Jumladan, aholi soni va tarkibi ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot, oziq-ovqat xavfsizligi, uy-joy qurilishi hamda boshqa tarmoqlarda ehtiyojlar hajmini oldindan aniqlashga imkon beradi.

Hududlarda barqaror bandlikni ta’minlash maqsadida mehnat bozorida doimiy va yuqori daromadli ish o‘rinlari sonini oshirish strategik vazifa sifatida belgilanadi. Shu bilan birga, migratsiya jarayonlarini tizimli o‘rganish, ichki va tashqi migratsiya oqimlarining sabablari hamda oqibatlarini chuqur tahlil qilish zarur. Milliy migratsiya hisobotlari tayyorlanishi va hududiy darajada mehnat migratsiyasini boshqarish mexanizmlarining ishlab chiqilishi bu borada muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, xalqaro migratsiya siyosati va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi kontekstida milliy manfaatlarni hisobga olgan yondashuvlar ishlab chiqilishi talab etiladi.

Asosiy yo‘nalishlar sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: migratsiya bo‘yicha fundamental tadqiqotlarni kengaytirish, global va mintaqaviy darajadagi migratsiya tendensiyalari va modellari bo‘yicha ma’lumotlar bazasini shakllantirish, yangi paydo bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hisobga olgan holda strategik tahlillarni ishlab chiqish. Shuningdek, migratsiya siyosatini takomillashtirish uchun ilg‘or ko‘rsatkichlar tizimini joriy etish, xalqaro mehnat migratsiyasi oqimlariga ta’sir

etuvchi omillarni baholash hamda xorijiy ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklifning o‘rta va uzoq muddatli prognoz metodikasini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, aholi soni va tarkibi, mehnat resurslari, migratsiya oqimlari bo‘yicha chuqur ilmiy prognozlar ishlab chiqilishi hududiy rivojlanishning uzviy qismi sifatida xizmat qiladi. Bu esa resurslardan oqilona foydalanish, hududiy tafovutlarni kamaytirish va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishishda muhim nazariy va amaliy asos yaratadi.

БАРҚАРОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТНИНГ РОЛИ

Исаджанов Абдували Абдурахимович
Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси и.ф.д, профессор.

2020-2025 йиллар жаҳон иқтисодиётида мисли кўрилмаган турбулентлик даври сифатида тарихга кирди. 2020 йилдаги COVID-19 пандемияси, 2021-2022 йиллардаги энергетика инқирози, геоиқтисодий парчаланишнинг кучайиши, таъминот занжирларининг узилиши, иқлим хавфларининг кучайиши ва геосиёсий кескинлик глобал ривожланиш шароитларини кескин ўзгартирди.

Сўнгги йиллар тажрибаси шуни кўрсатадики, жамиятда одамлар, бизнеслар ва давлат идоралари ўртасида рақамли алоқа ва хизматларни таъминлайдиган фундаментал инфратузилма - Digital Public Infrastructure (DPI) [1] ва давлат хизматларини, оммавий бошқарув тизимларини ва давлат-фуқаро муносабатларини технологик ёндашувлар орқали модернизация қилиш - Government Technology (GovTech) [2] дастурлар инқирозга чидамлиликни таъминлайди ва халқаро ташкилотлар томонидан ислоҳотларни қўллаб-қувватлашда муҳим роль ўйнайди. Шу билан биргаликда, киберхавфсизлик масалаларни ҳал этиш ва сунъий интеллект этикаси халқаро мувофиқлаштиришни талаб қилади.

Сунъий интеллект (СИ) ривожланиши ва иқтисодиётнинг барқарорлиги бир вақтнинг ўзида бир-бирига таъсир кўрсатадиган, ҳам янги имкониятлар, ҳам муҳим муаммоларни келтириб чиқарадиган ўзаро боғлиқ жараёнлардир. Сунъий интеллект иқтисодий барқарорликни оширишга қодир, аммо унинг ривожланиши бу барқарорликка путур етказиши мумкин бўлган хавфларни ҳам ўз ичига олади.

Сунъий интеллектнинг иқтисодиёт барқарорлигига ижобий таъсири қуйидагилар билан боғлиқ. Биринчидан, барқарор ривожланиш ва "яшил" иқтисодиётни шакллантириш, чунки сунъий интеллект ресурслардан фойдаланишни оптималлаштириш, чиқиндиларни камайтириш ва экологик зарарни камайтириш орқали барқарор ривожланиш мақсадларига эришишга ёрдам бериши мумкин. қайта тикланадиган энергиядан самарали фойдаланиш ва иқлим ўзгаришига қарши курашишнинг самарали стратегиясини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш.

Иккинчидан, иқтисодиётнинг турли тармоқларига сунъий интеллектни жорий этиш ишлаб чиқариш жараёнларини автоматлаштириш асосида самарадорликни оширишни таъминлайди, бизнес жараёнларини оптималлаштиради ва турли тармоқларда меҳнат унумдорлигини оширади. Бу

компанияларга харажатларни камайтириш ва бозорга янги маҳсулот ва хизматларни тезроқ олиб кириш имконини беради.

Учинчидан, бу иқтисодий хатарларни камайтиришга ёрдам беради, чунки сунъий интеллектга асосланган тизимлар ривожланиш тенденцияларини аниқлаш, юзага келаётган бозор вазиятларини башорат қилиш ва салоҳиятни ўз вақтида баҳолашни амалга ошириш учун катта ҳажмдаги маълумотларни таҳлил қилиш мумкин.

Тўртинчидан, прогностик таҳлил каби сунъий интеллект технологиялари компаниялар ва мамлакатларга инфляциянинг тўсатдан кўтарилиши ёки таъминот занжиридаги узилишлар каби иқтисодий зарбаларга тезроқ жавоб бериш имконини беради. Бу умумий иқтисодий барқарорликни оширишга ёрдам беради.

Сунъий интеллект ғояси 1950 йилларга бориб тақалса-да, фақат сўнгги йилларда улкан маълумотлар базаси, такомиллашган алгоритмлар ва қудратли компьютер техникаси туфайли сунъий интеллектнинг имкониятлари сезиларли даражада кенгайди [3].

Сунъий интеллект бизнеснинг муҳим қисмига айланмоқда. У кичик стартапларга ҳам, йирик компанияларга ҳам ёрдам беради.

Биринчидан, генератив сунъий интеллект, автоном тизимлар ва кенгайтирилган аналитика ўсишнинг асосий драйверлари ҳисобланади. Улар бизнесга кенг кўламли вазифаларни ҳал қилиш учун воситалар беради: ижодий маҳсулотларни ишлаб чиқишдан тортиб логистикани оптималлаштириш ва маълумотларни чуқур таҳлил қилишгача.

Иккинчидан, генератив сунъий интеллект катта ҳажмдаги маълумотлар асосида ноёб ечимлар яратиш имконини беради. Компаниялар бозордаги ўзгаришларни тезкор таҳлил қилиш ва контентни аудитория талабларига мослаштириш учун нейрон тармоқлардан тобора кўпроқ фойдаланмоқда.

Учинчидан, инсоннинг бевосита назоратисиз мураккаб вазифаларни бажара оладиган тобора кўпроқ мустақил тизимларнинг пайдо бўлишидир. Бундай технологиялар, айниқса, логистика, ишлаб чиқариш ва мижозларга хизмат кўрсатиш соҳаларида катта истиқболга эга. Сунъий интеллект элементларига эга роботлар нафақат омборлардаги товарларни ҳаракатлантиради, балки реал вақт режимида нуқсонларни аниқлаш орқали маҳсулот сифатини баҳолайди.

Тўртинчидан, кенгайтирилган аналитика асосида маълумотлардан нафақат мониторинг учун, балки келажакдаги вазиятларни башорат қилиш учун ҳам имкон пайдо бўлади. Тизимли таҳлилни амалга ошириш натижасида алгоритмлар яширин қонуниятларни аниқлаш ва оптимал ечимларни таклиф қилиш учун турли манбалардан олинган маълумотларни бирлаштиради.

Бешинчидан, тизимли таҳлил хатарларни тезда баҳолашга, сотувлар ёки мижозлар мурожаатлари статистикасини таҳлил қилишга ва ўсиш нуқталарини топишга ёрдам беради.

Forbes Tech Council маълумотларига кўра, сунъий интеллект дастурларини онгли равишда амалга оширадиган компаниялар технологик жараёнларни тезлаштириш ва операцион харажатларни камайтириш кўринишида рақобатдош устунликка эга бўлади [4]. Сунъий интеллект икки асосий йўналиш орқали фирма фаолиятини такомиллаштиради: биринчидан, маҳсулот инновацияси ва иккинчидан, жараён инновацияси ҳамда операцион харажатларни қисқартириш.

Бир қанча тадқиқотлар шуни кўрсатдики, сунъий интеллектга маблағ киритган ва уни амалда қўллаган компаниялар маҳсулот инновациялари, ишчи кучи, савдо ҳажми, фойда, операцион самарадорлик ва бозор қиймати каби кўрсаткичларда юқори ўсишга эришган [5].

АҚШнинг сунъий интеллектга нисбатан сиёсати уч босқични босиб ўтди. 2015-2016 йилларда сунъий интеллект салоҳияти ва хавф-хатарлари бўйича тадқиқотлар олиб борилди, стратегик ривожланиш режалари шакллантирилди, илмий тадқиқотлар, ахлоқий масалалар ва хавфсизлик, айниқса, ҳарбий соҳага эътибор қаратилди. 2019-2020 йилларда АҚШ етакчилигини сақлаб қолиш устувор йўналиш бўлди: инвестициялар кўпайтирилди, инновациялар ва давлат-хусусий шериклик рағбатлантирилди, давлат бошқарувига сунъий интеллектни жорий этиш бошланди. 2021 йилдан бошлаб эътибор хавфсизлик, ахлоқийлик ва сунъий интеллектга бўлган ишончга қаратилди. Федерал агентликлар учун тамойиллар белгиланди, мутахассисларни жалб қилиш учун халқаро ҳамкорлик кучайтирилди, сунъий интеллект билан боғлиқ хавфларни бошқариш бўйича таклифлар ва кўрсатмалар ишлаб чиқилди [6]. 2025 йилда АҚШ сунъий интеллект соҳасида етакчиликни қўлга киритиш учун давлат, энг йирик хусусий корпорациялар ва илмий сектор ўртасидаги яқин ҳамкорликни расмийлаштирган миллий сунъий интеллектни ривожлантириш дастурини амалга оширишга киришди (AI Action Plan) [7].

Буюк Британиянинг автомобилсозлик, аэрокосмик ва фармацевтика саноатида ҳам худди шундай ҳолат кузатилмоқда, улар таъминот занжирларини яхшилаш, маҳсулотларни такомиллаштириш ва профилактика хизматларини кўрсатиш учун сунъий интеллект воситалари ва ечимларидан фойдаланишни бошладилар [8].

"Хитойда ишлаб чиқарилган" дастури доирасида ҳукумат сунъий интеллектни кенг жорий этишни ҳисобга олган ҳолда рақамли иқтисодиётни ривожлантириш орқали ишлаб чиқаришни кўпайтиришни мақсад қилган. 2024 йил март ойида илгари сурилган "AI Plus" номли рақамли иқтисодиёт ташаббуси айнан шунга қаратилган [9]. Хитойдаги AI Plus ташаббуси рақамли иқтисодиётнинг сифатли ривожланишини қўллаб-қувватлашнинг муҳим қисми бўлади, чунки у тадқиқотларни чуқурлаштириш ва сунъий интеллект технологияларини қўллаш орқали сунъий интеллект ва реал иқтисодиётнинг чуқур интеграциясига ҳисса қўшади ва иқтисодиётнинг ривожланишига янги туртки беради.

Европа Иттифоқининг сунъий интеллектга оид асосий меъёрий ҳужжати - бу Сунъий интеллект тўғрисидаги қонун (EU Artificial Intelligence Act)- Европа Парламенти томонидан 2024 йил 13 мартда қабул қилинган ва Европа Кенгаши томонидан 2024 йил 21 майда тасдиқланган [10].

Шундай қилиб, сунъий интеллектни тартибга солиш соҳасида Европа Иттифоқи асосий эътиборни технологиянинг самарадорлиги ва функционаллигидан кўра унинг хавфсизлигини оширишга қаратмоқда.

Натижада, сунъий интеллект технологияларининг жадал ривожланиши миллий иқтисодиёт барқарорлигини таъминловчи ҳал қилувчи омил сифатида намоён бўлмоқда. Уларнинг қўлланилиши меҳнат унумдорлигини оширади, ресурслардан самарали фойдаланишни таъминлайди, транзакцион харажатларни қисқартиради ва инновацион фаолликни рағбатлантиради,

иқтисодий тизимларни ташқи шокларга нисбатан чидамли қилади, автоматлаштирилган бошқарув ва юқори қўшилган қийматга эга янги тармоқларни шакллантириш орқали барқарор иқтисодий ўсиш учун мустаҳкам асос яратади.

Адабиётлар:

1. Digital public infrastructure for digital governments. OECD 2024. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2024/12/digital-public

2. GovTech: the new frontier in digital government transformation. November 2020. The World Bank. https://thedocs.worldbank.org/en/doc.

3. Digital progress and trends report 2023. Digital Progress and Trends Report 2023.https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/95fe55e9-f110-4ba8.

4. Тренды и развитие искусственного интеллекта (ИИ). https://roscongress.org/materials/trendy-i-razvitie-iskusstvennogo-intellekta-ii/

5. Babina, Tania, Anastassia Fedyk, Alex He, and James Hodson. 2022. "Artificial Intelligence, Firm Growth, and Product Innovation." Journal of Financial Economics. Available at SSRN 3651052.

6. Грипич С.А. Эволюция нормативного регулирования использования искусственного интеллекта в Соединенных Штатах Америки на примере федеральных административных учреждений // Евразийская адвокатура. 2025. № 1 (72). С. 162. https://doi.org/10.52068/2304-9839_2025_72_1_16

7. America's AI Action Plan. The White House. July 2025. https://www.whitehouse.gov/wp-content/uploads/2025/07/Americas-AI-Action-Plan.pdf

8. Оганесян Т. Британский ИИ погнался за конкурентами. https://stimul.online/articles/sreda/britanskiy-ii-pognalsya-za-konkurentami/15.01.2025.

9. AI Plus – новая инициатива правительства в Китае. https://prc.today/ai-plus.

10. Закон об искусственном интеллекте (EU Artificial Intelligence Act) 2024 г. http://diplomaticdictionary.com/dictionary/%D0%B8%D1%81%D0%B

GENDER INKLYUZIYASI VA RAQAMLI SIYOSATNING O'ZARO UYG'UNLASHUVI: DAVLAT TASHABBUSLARI SAMARADORLIGI TAHLILI

Aynakulov Muxitdin Abduxamidovich

Jizzax politexnika instituti "Arxitekturaviy loyihalash" kafedrasi professori

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning barcha jabhalariga kirib kelmoqda va bu jarayon ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun muhim vositaga aylanyapti. Masalan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakatimizda raqamli infratuzilmani kengaytirish, xizmatlarni raqamlashtirish, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishni maqsad qilgan. Shu bilan birga, gender tenglikni ta'minlash vazifasi ham davlat siyosatida ustuvor mavzuga aylanmoqda, binobarin, 2030-yilgacha O'zbekistonda gender tenglikka erishish strategiyasi tasdiqlangan. O'zbekistonda ayniqsa ayollar uchun raqamli imkoniyatlarning kengaytirilishi — masalan, raqamli ko'nikmalarni hosil qilish maqsadida ularni o'qitilmoqda, AT sohasiga jalb qilinmoqda vas hu barobarida "raqamli inklyuziya" loyihalari amalga oshirilmoqda.

Bu borada xalqaro miqyosda ham raqamli transformatsiya jarayonida ayollar uchun teng imkoniyatlarni yaratish borasida strategiyalar ishlab chiqilgan. masalan, rivojlangan mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy o'sishni, savdo erkinligini va ijtimoiy farovonlikni oshirishni maqsad qilgan xalqaro tashkilot sanalgan (OECD) ning "Gender tengligi va raqamli transformatsiya" bo'yicha tahlillari, shuningdek, bu dunyo bo'yicha

rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam beruvchi xalqaro rivojlanish tashkiloti hisoblangan “Jahon banki” ning yo‘nalishidagi hujjatlari ushbu masalaga e’tibor qaratadi [1]. Shunday qilib, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ayollar uchun yaratilgan raqamli imkoniyatlar va ularning iqtisodiy faollikka ta’siri, davlat siyosatlari, jahon tajribalari va gender inklyuziyasi nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ammo, shunga qaramasdan, bu boradagi strategiyalar va aynan ushbu jarayonga qaratilgan sa’y-harakatlar mavjud bo‘lishiga qaramay, raqamli sohada ayollar va erkaklar o‘rtasida teng imkoniyatlar masalasida bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Dastlabki o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda ayollar raqamli ko‘nikmalarni shakllantirishda, shuningdek, raqamli xizmatlardan foydalanishda va AT sohasida ishga joylashishda hali erkaklarga nisbatan orqada turishlari aniqlangan. Mazkur muammo, hattoki, xalqaro miqyosda ham mavjuddir. Tahlillarga ko‘ra, “raqamli gender bo‘shligi” bu borada o‘qish nuqtayi nazaridan emas, ya’ni bu faqatgina raqamli texnologiyaga kirishni emas, balki undan foydalanish, raqamli ko‘nikmalar, ishtirok va iqtisodiy foyda olishdagi tafovutlarni ham o‘z ichiga oladi. Shu bois, davlat dasturlari bo‘lsada, ularning amalda ayollar uchun raqamli imkoniyatlarni yetarlicha ochib bera olmasligi, infratuzilma va ko‘nikma masalalari, jamiyatdagi stereotiplar hamon to‘siq bo‘lishi, bu boradagi muammo sifatida ko‘rinadi.

Muammoni bartaraf etish uchun, avvalo raqamli siyosat va gender inklyuziyasiga oid barcha davlat dasturlari amaliy natijadorlikka yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Bu jarayonda ayollar uchun raqamli infratuzilma va internet imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni joriy etish hamda jamiyatda mavjud gender stereotiplarini bartaraf etish muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, dasturlar samaradorligini doimiy ravishda baholab boruvchi monitoring tizimlarini yaratish orqali ularning real ta’siri aniqlanib, zarur o‘zgartirishlar kiritib borilishi lozim. Shu tarzda raqamli transformatsiya jarayonida erkaklar va ayollar uchun teng imkoniyatlar ta’minlanadi hamda ularning iqtisodiy faolligi oshadi.

O‘z mohiyatiga ko‘ra, raqamli siyosat va gender inklyuziyasiga oid barcha davlat dasturlari amaliy natijadorligi, shuningdek, raqamli infratuzilma va internet imkoniyatlarini kengaytirilishi va jamiyatdagi mavjud gender stereotiplarini bartaraf etish hamda dasturlar samaradorligini doimiy ravishda baholab boruvchi monitoring tizimlarini yaratish bu raqamli siyosat va gender inklyuziyasidir. Ya’ni, bu siyosat raqamli rivojlanish jarayonida gender tengligini ta’minlash va barcha ijtimoiy guruhlarning to‘liq ishtirokini kafolatlovchi barqaror boshqaruv tizimini anglatadi.

Mazkur tadqiqot davomida biz — tadqiqot mualliflari tomonidan O‘zbekistonning “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda “2030 yilgacha gender tenglikka erishish strategiyasi” doirasida amalga oshirilayotgan raqamli siyosat va gender inklyuziyasi dasturlari chuqur o‘rganildi [2]. Tadqiqot jarayonida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi, Xotin-qizlar agentligi va Jahon banki hisobotlari asosida so‘nggi besh yil (2020–2024) oralig‘idagi statistik ma’lumotlar tahlil qilindi;

- ayollar ishtirokini kengaytirishga qaratilgan raqamli o‘quv kurslari, startap loyihalari va AT-inkubator dasturlarining natijalari o‘rganildi;

- hududlar kesimida (Toshkent, Samarqand, Farg‘ona, Qashqadaryo) raqamli imkoniyatlardan foydalanish darajasi solishtirildi;

- raqamli siyosatning gender tenglikka ta’sirini aniqlash uchun 150 nafar respondent ishtirokida sotsiologik so‘rov o‘tkazildi;

- ijtimoiy farovonlikni oshirishni maqsad qilgan xalqaro tashkilotning va Jahon bankining xalqaro tajribasi bilan O‘zbekiston tajribasi qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda raqamli siyosat orqali ayollar uchun imkoniyatlar kengaygani kuzatildi. Bu borada quyidagi asosiy natijalar olindi:

- 2020 yilda ayollarning raqamli ko‘nikmaga ega bo‘lganlar ulushi 12 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib bu ko‘rsatkich 34 % gacha oshgan;

- ayollar orasida davlat xizmatlarini masofaviy shaklda olish darajasi 37 % dan 61 % gacha ko‘tarilgan;

- axborot texnologiyalari bozorida ayollar ishtiroki 16 % dan 26 % gacha o‘sgan;

- hududlar bo‘yicha tafovut hisoblanganda Toshkent shahrida ayollarning raqamli faol ishtiroki 70% ni tashkil etsa, ayrim viloyatlarda bu ko‘rsatkich 40–45% atrofida ekanligi aniqlandi;

- ayollar tomonidan ochilgan raqamli muhitdagi bizneslar va AT startaplar soni so‘nggi to‘rt yilda 2 baravar oshgan.

1-jadval

O‘zbekistonda raqamli siyosat va gender inklyuziyasi bo‘yicha 2020–2024 yillardagi asosiy ko‘rsatkichlar dinamikasi

№	Ko‘rsatkich nomi	2020 yil	2022 yil	2024 yil	O‘sish (%)
1	Raqamli ko‘nikmaga ega ayollar ulushi (%)	12	24	34	+183%
2	E-gov xizmatlaridan foydalanuvchi ayollar (%)	37	49	61	+65%
3	IT sohasida band bo‘lgan ayollar (%)	16	22	26	+62%
4	Raqamli o‘quv kurslarida qatnashgan ayollar (ming kishi)	45	72	128	+184%
5	Ayollar tomonidan ochilgan onlayn bizneslar (%)	9	14	21	+133%

Yuqoridagi jadval natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadqiqot davrida amalga oshirilgan davlat siyosatlari raqamli sohada gender tengligini ta’minlashda aniq ijobiy siljishlar bergan. Xususan, raqamli ko‘nikmalarga ega ayollar ulushi so‘nggi to‘rt yilda deyarli 3 baravar oshgan**,** bu esa davlat tomonidan tashkil etilgan bepul AT o‘quv dasturlarining samaradorligini ko‘rsatadi.

E-gov xizmatlaridan foydalanishdagi o‘sish esa ayollarning davlat xizmatlariga onlayn kirish imkoniyatlari kengayganidan dalolat beradi. Shuningdek, AT sohasida ayollar bandligining oshishi bu yo‘nalishda gender inklyuziya dasturlari amalda natija berayotganini tasdiqlaydi [3]. Biroq, hududlar o‘rtasidagi tafovut hali ham sezilarli — ayniqsa, qishloq hududlarida internet tezligi va raqamli infratuzilma yetishmovchiligi ayollar faolligini cheklamoqda. Shu sababli, kelgusi bosqichda hududiy tenglikni ta’minlovchi infratuzilmaviy loyihalar ustuvor yo‘nalish bo‘lishi lozim.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda raqamli siyosat gender inklyuziyasi bilan uyg‘unlashganda, bu nafaqat ijtimoiy tenglikni, balki iqtisodiy o‘sishni ham jadallashtiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda 2020–2024 yillar oralig‘ida raqamli siyosat orqali ayollar uchun raqamli imkoniyatlar sezilarli darajada kengaygan. Bu jarayonda davlat dasturlari, xususan, “O‘zbekiston – 2030” va “2030 yilgacha gender tenglikka erishish strategiyasi” o‘zaro integratsiyalashib, ayollarni raqamli iqtisodiyotga

jalb etish bo‘yicha muhim natijalar bergan. Masalan, ayollar orasida raqamli ko‘nikmaga ega bo‘lganlar ulushi 12 foizdan 34 foizga oshgani, elektron hukumat xizmatlaridan foydalanish 37 foizdan 61 foizga yetgani, AT sohasidagi ayollar bandligi 16 foizdan 26 foizgacha ortgani, bu yo‘nalishda olib borilayotgan siyosatning samaradorligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari ayrim muammolarni ham aniqladi. Eng avvalo, hududlar kesimida raqamli imkoniyatlardan foydalanish darajasida sezilarli tafovutlar mavjud, xususan, Toshkent shahrida ayollar ishtiroki 70 % bo‘lsa, ayrim viloyatlarda bu ko‘rsatkich 40–45 % atrofidadir. Mazkur turdagi ijtimoiy to‘siqlarni bartaraf etish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalar keltirib o‘tiladi:

1.Hududiy raqamli tenglikni ta’minlash maqsadida internet tezligi, texnik baza va raqamli o‘quv markazlari qishloq hududlarida ham teng darajada joriy etilishi lozim. Bu, ayniqsa, ayollar uchun raqamli inklyuziyani kuchaytiradi.

2.Ayollar uchun maxsus raqamli ta’lim va startap dasturlarini kengaytirish maqsadida bepul kurslar, AT-inkubatorlar va mentorlik tarmoqlari sonini oshirish zarur [4].

3.Monitoring va baholash tizimini joriy etish maqsadida har bir davlat dasturining natijadorligini raqamli ko‘rsatkichlar (KPI) asosida doimiy tahlil qilib borish kerak. Bu esa o‘z navbatida, amaliy samaradorlikni oshiradi.

4.Gender stereotiplarini kamaytirish maqsadida ommaviy axborot vositalari orqali ayollarning texnologiya va innovatsiyalardagi muvaffaqiyatlarini targ‘ib qilish, yosh qizlar uchun rol modellari yaratish foydali bo‘ladi.

5.Xalqaro tajribani tatbiq etish maqsadida ijtimoiy farovonlikni oshirishni maqsad qilgan xalqaro tashkilot va Jahon banki tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekiston uchun mos indikatorlar asosida “Gender va raqamli inklyuziya indeksi”ni ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, raqamli siyosat va gender inklyuziyasi uyg‘unlashganda, bu nafaqat ayollar uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlarni, balki mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlaydi. Shu bois, mazkur siyosatning izchil davom ettirilishi O‘zbekistonning “Raqamli kelajak” konsepsiyasi uchun strategik ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. *Maxkamov N. A. O. G. L., Soatov A. M. Ingliz tili fani va kompyuter dasturlar // Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 1. – C. 658-666.*

2. *Соатов А. М. Новые идеи и инструкции в системе образования в современных условиях // Экономика и социум. – 2022. – №. 2-1 (93). – С. 485-490.*

3. *Qosimov J. A. et al. Development of methods for improving the lessons of information technology on the basis of graphic programs //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2022. – T. 2432. – №. 1.*

4*. Гаппаров Б. Н., Жуланов А. О. Традиции трудового воспитания узбекского народа (на примере работ восточных мыслителей) //Общество. – 2020. – №. 1. – С. 66-68.*

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA DAVLAT MULKINI BOSHQARISHDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGI

Tashmatov Rustam Xusanovich
O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Xususiylashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi bo‘lim mudiri, i.f.d., professor, Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahar filiali professori

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish va ularni xususiy sektor manfaatlari bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan tizimli islohotlar

amalga oshirilmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida [2] iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini 85 foizga yetkazish, davlat ishtirokidagi korxonalar sonini esa olti barobarga kamaytirish belgilangan. Ushbu maqsadlarga erishishda davlat aktivlarini boshqarish jarayonlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

2024-yilda qabul qilingan “Davlat mulkini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonun [2] xususiylashtirish sohasini zamonaviy xalqaro standartlarga moslashtirdi, xususan, auksion, tanlov, birja savdosi, muzokaralarga ommaviy taklif kabi 8 xil usulni nazarda tutdi. Shu bilan birga, “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali davlat mulkini realizatsiya qilishning shaffofligi ta’minlanib, 2024-yilda 17,4 trln so‘mlik aktivlar va yer uchastkalari xususiylashtirildi, bu esa 35,8 mingta yangi ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qildi [3].

Raqamli transformatsiya davlat korxonalarida shaffoflik, tezkor ma’lumot almashinuvi va qaror qabul qilish samaradorligini oshiradi. Shu nuqtai nazardan, davlat aktivlarini boshqarishda axborot tizimlari integratsiyasini kuchaytirish, raqamli kuzatuv kengashlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va ochiq ma’lumotlar bazasini yaratish O‘zbekistonda davlat sektori raqobatbardoshligini oshirishda muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, davlat aktivlarini boshqarishda raqamli yechimlar bilan bir qatorda, xalqaro tajribalarda sinovdan o‘tgan institutsional va korporativ boshqaruv mexanizmlarini joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon tajribasida davlat mulkini boshqarishda xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar muhim ahamiyatga ega. Jadvaldagi tahlil shuni ko‘rsatadiki, har bir mamlakat o‘zining iqtisodiy modeli va institutsional tuzilmasiga mos tarzda *davlat mulkini boshqarishning o‘ziga xos mexanizmlarini* ishlab chiqqan:

1. OECD tomonidan ishlab chiqilgan *State-Owned Enterprises Governance Guidelines (2015, 2024)* hujjati davlat korxonalarini boshqarish uchun *universal xalqaro standart* sifatida xizmat qiladi. U O‘zbekistonda “ownership policy”ni aniqlash va kuzatuv kengashlari mustaqilligini mustahkamlash uchun asos bo‘la oladi.

2. *Buyuk Britaniya*da qo‘llaniladigan *“Comply or Explain”* mexanizmi shaffoflikni oshirishda samarali vosita bo‘lib, kompaniyalarni korporativ boshqaruv kodeksiga rioya qilish yoki chetga chiqish sabablarini asoslashga majbur etadi. Bu tizim O‘zbekiston uchun hisobdorlikni oshirishda foydali model bo‘lishi mumkin.

3. *Norvegiya* tajribasi ESG ko‘rsatkichlarini davlat korxonalarining samaradorlik baholash tizimiga kiritgani bilan ajralib turadi. Har yili tayyorlanadigan *State Ownership Report* ochiqlik va jamoatchilik ishonchini kuchaytiradi.

4. *Fransiya*dagi *Agence des participations de l’État (APE)* modeli davlat mulkini markazlashgan tarzda boshqaruvchi mustaqil agentlik orqali amalga oshiriladi. Bu tizim O‘zbekistonning Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini kuchaytirish uchun o‘rnak bo‘la oladi.

5. *Germaniyada* qabul qilingan *Public Corporate Governance Kodex* davlat korxonalari uchun majburiy me’yor sifatida amal qiladi. U boshqaruv organlarining malakasini va mustaqilligini ta’minlaydi, bu esa O‘zbekistonda professional direktorlar institutini joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

1-jadval

Davlat mulkini boshqarishda xalqaro tajriba

Mamlakat / Tashkilot	Asosiy mexanizm yoki hujjat	Mazmuni va asosiy tamoyillar	O‘zbekiston uchun ahamiyati
OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti)	*OECD Guidelines on Corporate Governance of State-Owned Enterprises* (2015, 2024)	Davlat egalik siyosatini belgilash, kuzatuv kengashlari mustaqilligini mustahkamlash, shaffoflik va hisobdorlikni oshirish, manfaatlar to‘qnashuvini kamaytirish tamoyillari.	O‘zbekistonda davlat korxonalarida egalik siyosatini aniq belgilash, kuzatuv kengashlari vakolatini mustahkamlash uchun xalqaro model sifatida ahamiyatli.
Buyuk Britaniya	*UK Corporate Governance Code* va “Comply or Explain” mexanizmi	Kompaniyalar Kodeks talablariga rioya qilishi yoki sabablari bilan izoh berishi kerak. Shaffoflik va jamoatchilik oldidagi hisobdorlikni kuchaytiradi.	O‘zbekistonda “Comply or Explain” mexanizmini joriy etish orqali yirik davlat korxonalari boshqaruvida ochiqlik va ishonchni oshirish mumkin.
Norvegiya	*Statens eierrapport* (Davlat egalik hisobotlari)	ESG mezonlariga asoslangan baholash tizimi, har yili davlat korxonalarining ijtimoiy, ekologik va boshqaruv samaradorligi ochiq e’lon qilinadi.	ESG hisobotini joriy etish orqali O‘zbekiston davlat korxonalarining barqaror rivojlanish darajasini oshirish.
Fransiya	*Agence des participations de l’État (APE)* modeli	Davlat mulkini boshqarish uchun mustaqil agentlik tashkil etilgan; har bir korxona uchun natijadorlik indikatorlari (KPI) belgilanadi.	O‘zbekiston Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini kuchaytirish va KPI tizimini joriy etish uchun foydali.
Germaniya	*Public Corporate Governance Kodex (PCGK)*	Davlat korxonalari uchun majburiy boshqaruv kodeksi; boshqaruv organlarining mustaqilligi va malakasiga e’tibor qaratiladi.	Kengash a’zolari malakasini oshirish va mustaqil direktorlar institutini joriy etish bo‘yicha namunaviy tajriba.
Janubiy Koreya	*Korea Asset Management Corporation (KAMCO)* va “E-Board” tizimi	Korporativ qarorlarni tezkorlik bilan qabul qilish uchun raqamli boshqaruv tizimi (“E-Board”), barcha yig‘ilishlar onlayn tarzda o‘tkaziladi.	O‘zbekistonda davlat korxonalarining kuzatuv kengashlarida raqamli boshqaruv (“E-Board”) tizimini tatbiq etish uchun amaliy model.
Singapur	*Temasek Holdings* modeli	Davlat ishtirokidagi kompaniyalar bozor tamoyillari asosida boshqariladi, mustaqil direktorlar kengashlari mavjud, moliyaviy natijalar ochiq e’lon qilinadi.	O‘zbekiston uchun davlat ishtirokidagi korxonalarni tijoratlashtirish va dividend siyosatini optimallashtirishda ilg‘or model.
Yangi Zelandiya	*Letter of Expectations* tizimi	Davlat har bir korxona uchun “Kutilmalar xati”da aniq iqtisodiy va ijtimoiy natijalar belgilaydi.	O‘zbekistonda davlat korxonalarining maqsadli faoliyatini aniqlashtirish uchun “Kutilmalar xati” tizimini joriy etish mumkin.

6. *Janubiy Koreyadagi KAMCO* va “E-Board” tizimi raqamli boshqaruvning ilg‘or namunasi hisoblanadi. U qarorlarni tezkor qabul qilishni, yig‘ilishlarni onlayn

o‘tkazishni va hujjatlar aylanishini avtomatlashtirishni ta’minlaydi. Shu jihatdan, bu tajriba O‘zbekistonning raqamli korporativ boshqaruv tizimiga o‘tishida muhim ahamiyatga ega.

7. *Singapur*ning *Temasek Holdings* modeli davlat ishtirokidagi kompaniyalarni bozor tamoyillari asosida boshqarish, foyda va dividend siyosatini optimallashtirishda yetakchi hisoblanadi. Bu model O‘zbekiston uchun ham davlat kapitalini tijoratlashtirish yo‘lida dolzarb.

Yangi Zelandiyada qo‘llaniladigan *Letter of Expectations* tizimi orqali har bir korxona uchun aniq iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlar belgilanadi. Ushbu yondashuv O‘zbekiston korxonalari uchun davlat strategik maqsadlarini aniq belgilashda muhim vosita bo‘lishi mumkin.

Shu tariqa, xalqaro tajriba tahlili O‘zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan samarali boshqaruv modellari mavjudligini ko‘rsatadi. Endi quyidagi jadvalda mamlakatimizda 2024 yilda amalga oshirilgan xususiylashtirish jarayonlari va ularning asosiy ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi.

Mazkur ko‘rsatkichlar O‘zbekistonda davlat aktivlarini xususiy sektorga o‘tkazish siyosati izchil amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. 2024 yilda *3371 ta loyiha*ning amalga oshirilgani davlat korxonalari sonining sezilarli qisqarishiga va ularning samaradorligini oshirishga xizmat qilgan. *17,4 trillion so‘mlik aktivlarning xususiy sektorga o‘tkazilishi* iqtisodiyotda raqobatni kuchaytirib, resurslardan samaraliroq foydalanish imkonini yaratgan [3].

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya vositalari (“E-auksion”, ochiq ma’lumotlar bazasi, elektron kontraktlar) hamda xalqaro amaliyotga asoslangan korporativ boshqaruv tamoyillari (OECD SOE Guidelines, “comply or explain”, ESG) davlat sektorida samaradorlikni oshirish, investorlar ishonchini mustahkamlash va iqtisodiyotni raqobatbardosh qilishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi 2024-yil 14-fevraldagi “Davlat mulkini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi O‘RQ-907-son Qonuni – URL: https://lex.uz/uz/docs/-6800515

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni – URL: https://lex.uz/uz/docs/6782819

3. OECD. OECD Guidelines on Corporate Governance of State-Owned Enterprises (2015, 2024). Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development. – URL: https://www.oecd.org/corporate/guidelines-corporate-governance-soes.htm

4. UK Financial Reporting Council. UK Corporate Governance Code (2024 edition). – London: FRC, 2024. – URL: https://www.frc.org.uk/corporate-governance-code

5. Government of Norway. Statens eierrapport 2023 (State Ownership Report). – Oslo: Ministry of Trade, Industry and Fisheries. – URL: https://www.regjeringen.no/en/topics/business.

6. Gouvernement Français. Agence des participations de l’État (APE) – Rapport Annuel 2023. – Paris: Ministère de l’Économie et des Finances. – URL: https://www.economie.gouv.fr/agence-participations-etat

7. Federal Ministry of Finance (Germany). Public Corporate Governance Kodex (PCGK). – Berlin: BMF, 2023. – URL: https://www.bundesfinanzministerium.de

8. Korea Asset Management Corporation (KAMCO). Annual Report 2023: Digital Transformation and E-Board Implementation. – Seoul: KAMCO. – URL: https://www.kamco.or.kr

9. Temasek Holdings. Temasek Review 2024. – Singapore: Temasek International. – URL: https://www.temasek.com.sg/en/news-and-views/temasekreview

10.The Treasury of New Zealand. Letter of Expectations for State-Owned Enterprises, 2024/25. – Wellington: The Treasury. – URL: https://www.treasury.govt.nz

11.Davlat mulkini xususiylashtirish to‘g‘risida 2024 yil yakunlari bo‘yicha yig‘ma hisobot – T.: O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, 2025 yil – 41 б. – URL: https://davaktiv.uz

ФИНАНСОВЫЙ РЫНОК АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРОМЫШЛЕННЫХ АСПЕКТАХ В НОВОЙ СТРАТЕГИИ РЕСПУБЛИКАНСКИЙ УЗБЕКИСТАНА

Максудова Шахиста Якубовна
Кординатор Международного содружества "Международная солидарность" Профессор
Мурадов Ботир Хаят
Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова. Факультет нефти и газа. независимый соискатель (DSc) кафедры "Промышленная экономика и менеджмент"

.

Современная экономика Узбекистана находится на этапе активной структурной трансформации. В условиях глобализации, цифровизации и растущей конкуренции особую роль играют отраслевые предприятия, формирующие мезоэкономическую основу страны. Мезоэкономика представляет собой промежуточный уровень между макро- и микроэкономикой, объединяющий промышленные, социальные и территориальные системы. На этом уровне проявляются связи между государством, бизнесом и обществом, формируются стратегические приоритеты развития регионов и отраслей. 1. Мезоэкономическая система как основа национальной экономики. Мезоэкономическая система Узбекистана базируется на совокупности региональных хозяйственных комплексов, включающих в себя промышленность, сельское хозяйство, транспорт, строительство, услуги, а также социальную инфраструктуру. Каждый регион формирует собственную производственную и инвестиционную структуру, отражающую его природные, трудовые и технологические особенности. Эти подсистемы объединяются в общенациональную экономическую сеть, обеспечивая взаимосвязанное и сбалансированное развитие страны. 2. Роль промышленных предприятий [1]. Промышленный сектор является движущей силой экономического роста. Он обеспечивает создание добавленной стоимости, экспортный потенциал и занятость населения. В последние годы в Узбекистане активно развиваются такие направления, как: энергетика и нефтегазовая переработка; машиностроение и автомобилестроение; текстильная и химическая промышленность; производство строительных материалов; фармацевтика и пищевая промышленность. Реализация программ локализации, внедрение инновационных технологий и развитие индустриальных зон способствуют модернизации производства и увеличению конкурентоспособности отечественных предприятий [2]. 3. Социально-экономические аспекты мезоуровня. Мезоуровень экономики тесно связан с социальными процессами. Развитие предприятий способствует росту занятости, повышению доходов населения и укреплению социальной стабильности. Особое внимание уделяется подготовке кадров, развитию системы образования и профессионального обучения, созданию благоприятных условий для предпринимательства [1]. Человеческий капитал становится главным ресурсом мезоэкономической

системы, от которого зависит эффективность использования материальных и финансовых активов.

4. Институциональные и региональные особенности. Узбекистан реализует политику децентрализации и регионального выравнивания, что способствует укреплению мезоуровня экономики. Создаются свободные экономические зоны (СЭЗ), технопарки и инновационные кластеры, ориентированные на развитие конкретных отраслей [4]. 5. Цифровизация и инновации как драйверы развития. Внедрение цифровых технологий, автоматизация и искусственный интеллект становятся неотъемлемой частью промышленного и экономического развития. Создание интеллектуальных производственных систем, цифровых платформ управления и интеграция информационно-коммуникационных технологий способствуют повышению прозрачности, эффективности и устойчивости мезоэкономических процессов.

В наших выводах касательно исследований мы учитывали для стратегия социально-экономического развития страны до 2045 года предполагает формирование разных городских 3Д-пространства, контуры которого определяются следующими тремя векторами целевых установок: 1) высокоэффективная экономика, 2) реализация возможностей, 3) комфортная жизнь. Наше цель исследования - проведение анализа рисков реализации стратегии социально-экономического развития областей и городов Узбекистана, т. е. тех событий или условий, наступление которых может отрицательно или положительно повлиять на степень и эффективность достижения стратегических целевых установок, выраженных прогнозными значениями определенных ключевых показателей. Поставлены задачи: 1) выполнить идентификацию и классификацию рисков стратегического развития городов и областей страны; 2) оценить уровень рисков как в целом, так и в отдельности возможно форс мажорных ситуаций или чрезвычайных ситуациях и стихиях природных типа; 3) провести анализ рисковых событий, которые имеют наибольшее отрицательное влияние на валовой региональный продукт и высокую степень вероятности наступления катаклизмов. Нужнно делать значимый подход к имеющиемся разработками преимущественное отношение к деятельности организаций, отдельным отраслям, либо к сфере проектного управления или посвящены исследованию конкретного вида рисков (например, финансовым, инвестиционным). Вышеизложенное определяет актуальность темы исследования. Полученные научные результаты будут способствовать эволюции научно-методических подходов в области управления рисками территориального развития [3]. В Узбекистане развитий финансовых рынков зависит от многих макро и микроэкономических факторов, которые главную роль играют в нашей социальной экономической значимости для развития нашей страны. Для создания обоснованного прогноза развития финансового сектора как составной части национальной экономики необходим учет всех взаимосвязей этого сектора с остальными, наряду с учетом взаимосвязей внутри самого сектора. При этом простой трендовый анализ не является достаточно репрезентативным [2]. Однако, отсутствие большого количества подтвержденной статистической информации не позволяет воспользоваться другими математическими инструментами прогнозирования. Рост экспорта к 2035 году должен опередить рост импорта, при этом сальдо текущих операций

будет закрыто со знаком «минус». Для покрытия дефицита бюджета будет увеличиваться уровень государственного долга. В своих исследованиях мы привели разные сценарий развития национальной экономики для целей за базовый основ [4]. Примерные рекомендованные меры по развитию финансового рынка Узбекистана могут быть из проведенного нашего научного анализа вариантов развития сегментов финансового рынка становится очевидно, что для гармоничного развития отрасли необходимо уделить внимание комплексному решению ряда проблем. Рекомендуется обратить внимание на нижеследующие ключевые рекомендации.

1. Совершенствование системы регулирования финансового рынка: 1.1. информационною систематизация законодательства в области регулирования финансовых рынков. 1.2. Выстраивание четкой структуры регулирования каждого из субъектов финансового рынка с совершенствование организационно-экономических механизмов развития промышленных предприятий. Нивелирование дублирующих функций в различных регулирующих органах. 1.3. Приведение законодательства в соответствие с международными договорами, ратифицированными на территории республики Узбекистан.

2. Обеспечение защиты прав потребителей финансовых услуг: 2.1. Пересмотр правоприменительной практики в пользу потреби телей финансовых услуг. Законы вышестоящего порядка должны соблюдаться в приоритете перед нормативно-правовыми актами регулирующих органов. 2.2. Уменьшение влияния государства на принятие решений физических и юридических лиц.

3. Повышение финансовой грамотности населения Узбекистана: 3.1. Создание/назначение ведомства, отвечающего за централизованное плановое повышение финансовой грамотности населения. 3.2. Проведение национального опроса с целью выявления уровня финансовой грамотности населения. 3.3. Создание и реализация дорожной карты по повышению уровня финансовой грамотности населения [3].

4. Совершенствование механизмов, обеспечивающих стабильность финансового рынка: 4.1. Создание национальной перестраховочной компании.

4.2. Пересмотр стандартов контроля над деятельностью финансовых институтов в пользу международной практики. 4.3. Внедрение механизмов финансового оздоровления институтов финансового рынка для наших регионов средний Азии.

В научном исследовании мы усчитывали некоторые аспекты что при внедрении вышеуказанных рекомендаций необходимо финансовые и социально экономическом следующие риски:

1. Наиболее серьезными рисками для реформирования узбекского финансового рынка являются риски межведомственного взаимодействия. Для их снижения необходимо провести предварительную работу по устранению дублирующих функций в различных ведомствах.

2. Макроэкономические риски связаны в основном с тенденциями развития мировых финансовых рынков и имеют меньшее значение, чем первые, в связи с малой степенью интеграции на мировой финансовый рынок. Для их снижения особое внимание стоит уделить обеспечению устойчивости национального рынка и развитию отечественной экономики.

3. Риски ресурсного обеспечения в основном связаны с нехваткой кадрового потенциала среди специалистов финансового рынка Узбекистана. Для их снижения необходимо привлечение зарубежных специалистов во все сферы деятельности отрасли.

4. Геополитические факторы на сегодняшний день оказывают огромное воздействие на международное сотрудничество. Для снижения геополитических рисков необходимо отбирать наиболее надежных зарубежных партнеров.

В целом финансовый рынок Республики Узбекистан гармонично развивается в сторону интеграции с мировым финансовым рынком. Наиболее развит на данный момент банковский сегмент, но большие перспективы существуют у страхового и фондового рынков. Определенные ограничения, затормаживающие его развитие возможно преодолеть, реализовав комплексную программу по развитию и оздоровлению финансового рынка [1].

Заключение. Мезоэкономическая система Узбекистана формируется на основе взаимодействия государства, бизнеса и общества. Отраслевые и промышленные предприятия являются ядром этой системы, обеспечивая устойчивый рост и повышение качества жизни населения. Комплексное развитие региональных экономик, модернизация инфраструктуры, инвестиции в человеческий капитал и цифровизацию создают предпосылки для дальнейшего укрепления национальной экономики и её интеграции в глобальные процессы. Выводы результаты исследования показывают, что комплексным показателем социально-экономического развития субъекта средней Азии как Узбекистана является валовой региональный продукт (ВРП). В данном исследовании проводились анализ событий или условий, наступление которых может повлиять на финансовой политики и степень достижения этой стратегической цели социально-экономического развития страны [1]. Анализу предшествовал этап идентификации рисков на основе изучения данных от разных источников с всемирных значимых корпорацией который специалистов в этих сферах большие имеют влияние и опыт работ этих направлении и области социально-экономических показателях для всех регионов Центральной и средне Азии а также России, Стратегии социально-экономического развития средней Азии до 2045 года [2]. Могут представляется с значениями основных социально - экономических показателями разных городов и в сравнении с максимальным и минимальным макро и микроэкономическими значениями рассматриваемых показателей среди всех, развитых странами мира и с прогнозными значениями индикаторов стратегии развитий в мире [3]. Это послужило информационным базисом для выявления сильных и слабых сторон для наших анализа, мониторинга и прогнозов для Узбекистана (на основе полученных результатов сравнительного анализа показателей с другими странами и ближнего зарубежья и соседних старн), что впоследствии нашло отражение в рассчитанных по формулах в матрице анализа которые мы используем для показателями в достижений уровнеи текущих и будущего состояния финансового уровня макро и макроэкономической системы в диапазоне от минимального до максимального значения анализируемого мониторинга показателя для нашей научной работы.

Литературы:

1. Максудова Ш.Я. Развитие и размещение машиностроительного комплекса Узбекской ССР с учетом экологических факторов [Текст]: автореф. дис. ...канд. экон. наук: 08.00.04; №176. Академия наук Узбекской ССР Совет по изучению производительных сил (Ташкент). - Ташкент, 1991. – с. http://www.dslib.net/economika-regionov/razvitie-i-razmewenie-mashinostroitelnogo-kompleksa-uzbekskoj-ssr-s-uchetom.html

2. Мурадов Б.Х. Технические направления в промшленных аспектах в экономической грамотности для повышения потенциала молодежи в узбекистане для научных исследований. Electron ilmiy jurnal: Research and education, 4(3), 69-76, issn: 2181-3191, 2025. https://zenodo.org/records/1516442.

3. Мурадов Б.Х. Зарубежный опыт конкурентоспособность региональной экономики и перспективы национальных топливно-энергетических секторов-потребителей в угольной промышленности. International scientific journal "Interpretation and researches" 2025. https://doi.org/10.5281/zenodo.14601115.

4. Мурадов Б.Х. Еқилғи-энергетика тармоқлари саноати корхоналарининг рақамлаштириш ва ташкилий-иқтисодий механизмларини ривожланишининг такомиллаштириш «саноат 5» даражасида. International conference on developments in education sciencesand humanities, canada. 2022 y. https://doi.org/10.5281/zenodo.6913315.

BARQAROR RIVOJLANISHDA TASHQI EKOLOGIK ZARARLARNI ICHKILASHTIRISHNING AHAMIYATI

Sodikov Zokir Rustamovich
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrasi dotsenti
iqtisodiyot fanlari nomzodi
orcid 0000-0002-0195-4573.

Jahon hamjamiyatining ko‘p mamlakatlarida milliy iqtisodiyot va ishlab chiqarish tabiiy resurslar (neft, gaz, ko‘mir, minerallar, suv, qishloq xo‘jaligi yerlar) asosida amalga oshiriladi. Shu sababli, atrof-muhitga zarar uchun soliqlar va resurslarga qaratilgan to‘lovlar siyosati mazkur jarayonga iqtisodiy, moliyaviy va ekologik jihatdan jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Zero, sirkulyar iqtisodiyot siyosatlari resurs intensivligini kamaytirib, importga bog‘liqlikni pasaytirishi va milliy sanoatning qo‘llab-quvvatlashiga yordam beradi.

Bundan maqsad birlamchi (primary) resurslar iste’molini kamaytirish, qayta ishlash va ishlab chiqarishda ikkilamchi materiallar (secondary materials) ulushini oshirish, tashqi zararlarni (havo, suv, tuproq ifloslanishi, chiqindilar) real iqtisodiy qiymatga aylantirish, Hukumat byudjeti orqali yashil infratuzilma va iqtisodiy rag‘batlarni moliyalashtirish, ijtimoiy adolat — kam ta’minlangan qatlamlarni himoya qiladigan holatga o‘tish kabilardan iborat.

Materiallar bo‘yicha fiskal islohotlar sifatida tashqi ekologik zararlarni ichkilashtirish (internalization of external environmental costs) ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu iqtisodiy tushuncha bo‘lib, u korxonalar va iste’molchilarning faoliyatidan atrof-muhitga yetkazilgan zararlarni ularning zimmasiga moliyaviy javobgarlik sifatida yuklash amaliyotini bildiradi. Shu bois, materiallar bo‘yicha fiskal islohotlar tashqi ekologik zararlarni ichkilashtirish (internalization of external environmental costs) mexanizmi sifatida o‘ziga xos xususiyatga ega hisoblanadi.

Zero, tashqi ekologik zararlar (externalities) – bu ishlab chiqaruvchi yoki iste'molchi faoliyati natijasida jamiyatga (atrof-muhitga, salomatlikka) yetkazilgan jiddiy zarar hisoblanadi. Lekin, bu zararlar uni keltirib chiqargan tegishli korxonalar tovarlarining qiymatida aks etmagan zararlar hisoblanadi. U zararlar, chiqindilar, havoga chiqarilgan va tashlangan zararli gazlar, suv resurslarining ifloslanishi kabilardan iborat [4].

Demak, tashqi ekologik zararlarni ichkilashtirish – bu tashqi xarajatlarni iqtisodiy subyektlarning ichki hisobiga kiritish jarayoni bilan bog'liq amaliyot hisoblanadi. Uning asosiy mexanizmlari – bu ekologik soliqlar bo'lib, unda karbonga, chiqindi poligonlariga va boshqa chiqindilarga soliqlar solish, "Ifloslantiruvchi to'laydi, tamoyili (Polluter Pays Principle)"ga binoan korxona chiqindilarni kamaytirmasa, katta soliq to'lovlarini amalga oshirishi, aksincha, kamaytirsa – korxonaning xarajatlari kamayishiga omil bo'ladigan usullardan foydalaniladi. Masalan, karbon emissiyasi uchun soliqlar undirilishini yo'lga qo'yilishi mumkin.

Shuningdek, kvotalar va litsenziyalar joriy etilib, karbon kabi chiqindi va zaxarli moddalar emissiya qilish kvotalarini belgilash hamda ularni sotib olish majburiyati ko'zda tutilishi mumkin. Shunda, karbon savdosi (carbon trading), ya'ni, karbon emissiyalari savdo tizimi (ETS – Emissions Trading System) orqali korxona chiqindi chiqarish huquqini sotib olishi yoki o'zida mavjud bo'lgan ortiqcha kvotalarni sotishi mumkin bo'ladi [5].

Bundan ko'zda tutilgan maqsad ekologik xarajatlarni yashirin yoki "bepul" emas, balki iqtisodiy faoliyat qiymatiga qo'shib qo'yish orqali korxonalarning tabiiy resurslardan samarali foydalanishga va zararli chiqindilarni chiqarmaslikka yoki kamaytirishga majbur qilishdir.

Tashqi ekologik zararlarni ichkilashtirish — bu umumjamiyat zimmasidagi yashirin ekologik xarajatlarni bozorga "ko'rinadigan" qilib yuzaga chiqarish, tabiatni ifloslantiruvchi va ziyon keltiruvchi subyektlarning o'zlarini bu borada mas'ul qilish hisoblanadi. Materiallar bo'yicha tashqi ekologik zararlarni ichkilashtirish mexanizmining ahamiyati bu iqtisodiy faoliyatning real ijtimoiy narxini shakllantirishda, innovatsiyalarni rag'batlantirish orqali korxonalarning chiqindini kamaytiruvchi texnologiyalarini joriy etishda, ekologik adolatni ta'minlash uchun jamiyatning zimmasiga yuklanadigan yashirin xarajatlar (aholining turli kasalliklarga uchrashi, havo va suv resurslarining ifloslanishi oqibatlari)ni ishlab chiqaruvchilarning zimmasiga o'tkazishda yuzaga chiqadi.

Shuningdek, tashqi ekologik zararlarni ichkilashtirish jarayoni sirkulyar iqtisodiyot uchun sinergiya manbaini hosil qiladi. Xususan, tabiiy resurs soliqlari birlamchi resurslarni ortiqcha ishlatmaslikni rag'batlantiradi, atrof-muhitni ifloslantiruvchi faoliyatni qimmatlashtiradi, qayta ishlashni esa nisbatan arzonlashtiradi. Natijada milliy iqtisodiyot "chiziqli model"dan (olinadi–ishlatiladi–tashlanadi) sirkulyar modelga (olish–ishlatish–qayta ishlash–qayta foydalanish) o'tishga moyil bo'ladi[6].

Bunda tabiiy resurslardan soliqlar (resource/extraction taxes) undirish sifatida qazib olinadigan resurslar (minerallar, qum-shag'al, neft, gaz, metallar) miqdori yoki qiymatiga nisbatan soliq yuklanadi. Xususan, qiymati yuqori minerallar va qurilish materiallariga tonna yoki qiymat bo'yicha soliq (masalan, qum/shag'al uchun tonna boshiga belgilangan to'lovlar) joriy etilishi mumkin. Shuningdek, minerallarga

belgilangan soliq stavkalari eksport yo‘nalishi va ichki bozorni himoya qilish uchun turli-tuman qillib, belgilanishi mumkin.

Jumladan mahalliy bozorda qayta ishlashni rag‘batlantirish uchun ichki iste’molga qaratilganlarga nisbatan past darajalarda soliqlar belgilash mumkin. Ayni paytda, ushbu soliqdan tushgan mablag‘larni qayta ishlash inshootlari, innovatsion grantlar va texnologiyalar uchun yashil fondga yo‘naltirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki, tabiiy resurslarning har qanday turiga belgilangan soliqlar amaliy jihatdan birlamchi resurs narxini oshirib, ularning talabini cheklasa, ikkilamchi materiallarni raqobatbardoshlini oshirib, talabini rag‘batlantiradi va byudjet uchun daromad manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ekologik soliqlar (pollution/environmental taxes) karbon, atmosfera ifloslanishi (SO_2, NOx), sanoat suv chiqindilari va chiqindi poligonlariga qaratilgan bo‘ladi. Shu bois, avvalo karbon va chiqindi poligonlariga soliqni kichik bosqichlarda (pilot sanoat tarmoqlari bo‘lmish elektr stansiyalari, temir-beton zavodlari) joriy etish samarali amaliyot hisoblanadi. Ushbu tarzda undirilgan soliq stavkalarining daromadlari chiqindilarni boshqarish, tozalash va qayta ishlash infratuzilmasini shakllantirishga hamda rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Shuningdek, ijtimoiy himoya maqsadida bu soliqlarning energiya narxiga salbiy ta’sirini kamaytirish uchun past daromadli oilalarga kompensatsiyalar va energiya samaradorligi dasturlari joriy etish mumkin. Qolaversa, bunda landfillar joriy etilishi, ya’ni, chiqindi joylari yoki ularni ko‘mish uchun to‘lovlar va deposit-refund tizimlari tashkil etilishi mumkin. Chunki, chiqindilarni poligonga joylashtirish uchun to‘lanadigan haqni oshirish va qadoq tizimi uchun depozit (bottle-deposit) joriy etish talab etilishi mumkin. Shuning uchun shahar va sanoat chiqindilarini poligonlarga joylashtirish badalini ko‘tarish va yig‘ishni, saralashni majburiy qilish mexanizmi joriy etilishi kerak. Xususan, shisha va plastik qadoqlar uchun depozit-refund tizimini mahalliy bozorda pilot sifatida katta shaharlardan boshlash chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash infratuzilmasini iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun zamin bo‘ladi. Mazkur faoliyatda soliq imtiyozlarini va to‘g‘ridan-to‘g‘ri subsidiyalarni joriy etish sirkulyar investitsiyalar uchun ustuvor ahamiyat kasb etadi[9].

Zero, qayta ishlash, ta’mirlash, dizayn for-recyclability sohalariga soliq kreditlari, cheklangan vaqt uchun akselerator subsidiyalari samarali hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotda qayta ishlash zavodlarini va texnologiyalarni mahalliylashtirish uchun kapitallarga qaratilgan soliqlardan, ya’ni, ishlab chiqarishga reinvestitsiya qilishga yo‘naltirilgan moliyaviy resurslarga soliqlardan imtiyozlar berish foydadan xoli bo‘lmaydi. Shuningdek, mahsulot dizayni va qayta tiklanadigan materiallarni ishlab chiqarishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlari (R&D) uchun kreditlar berish muhim hisoblanadi.

Shuningdek, tabiatni muhofaza qilishda qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) va import-eksport mexanizmlari ham muhim hisoblanadi. Jumladan, qayta ishlanadigan va foydalaniladigan materiallarga pastroq QQS undirish, birlamchi xomashyo mahsulotlariga nisbatan yuqoriroq QQS belgilash va importga nisbatan bojxona to‘lovlarini joriy etish orqali mahalliy bozorda qayta ishlashni rag‘batlantirish mexanizmlari joriy etilishi mumkin[7].

Shu bois, qayta ishlangan mahsulotlar uchun QQS imtiyozlari yoki tezkor ravishda uni qaytarish mexanizmlari qo‘llanilishi mumkin. Ayni paytda, birlamchi resurslardan

tayyorlangan import mahsulotlariga import bojlarini joriy etish orqali ichki sanoatni himoya qilish chora tadbirlari belgilanishi mumkin.

Umuman yakuniy xulosa sifatida mahalliy bozorda tashqi ekologik zararlarni ichkilashtirish fiskal mexanizmi va uni rivojlantirish jarayonini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy tarqqiyoti va tabiiy-ekologik vaziyati uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, undan mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqib foydalanish va tabiat bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish imkoniyati mavjud.

Bunda milliy iqtisodiy siyosatlarda mamlakat o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlariga ustuvorlik berishi va jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etadigan chora-tadbirlar belgilashi maqsadga muvofiq asos hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son) qaroriga 1-ILOVA.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son) qaroriga 1-ILOVA

3.Barbier, E.B., 2016. Sustainability and Development. Annual Review of Resource Economics, 8(1), pp.261–280.

4.Circular economy practitioner guide. (2018). Strategies and examples. https://www.ceguide.org/Strategies-and-examples

5.Ekins, P., 2000. Economic Growth and Environmental Sustainability: The Prospects for Green Growth. London: Routledge.

6.Ecopreneur.eu (2019). Circular Economy Update: Overview of Circular Economy in Europe. https://ecopreneur.eu/wpcontent/uploads/

7.Kolstad, C.D., 2011. Environmental Economics. 2nd ed. Oxford: Oxford University Press.

8.Material Economics (2018). The Circular Economy: A Powerful Force for Climate Mitigation. Transformative innovation for prosperous and low-carbon industry. Available: https://media.sitra.fi/2018/06/12132041/

9.Stiglitz, J.E., Sen, A. and Fitoussi, J.P., 2010. Mismeasuring Our Lives: Why GDP Doesn’t Add Up. New York: The New Press.

10.Stern, N., 2007. The Economics of Climate Change: The Stern Review. Cambridge: Cambridge University Press.

RAQAMLI EKOTIZIMLARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna
Farg‘ona Davlat Texnika universiteti
Menejment va marketing kafedrasi dotsenti,
Iqtisodiyot fanlari doktori

Raqamli ekotizimlar zamonaviy iqtisodiyotning innovatsion tarkibiy qismi sifatida shakllanib bormoqda. Ularning rivojlanish istiqbollari raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi, kadrlar salohiyati, infratuzilma holati va institutsional muhit bilan bevosita bog‘liqdir. Raqamli ekotizimlar nafaqat texnologik innovatsiyalarni, balki iqtisodiy tarmoqlar o‘rtasidagi integratsiyani ham jadallashtiradi.

Raqamli ekotizimlarni shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy jamiyatni raqamli transformatsiyalash jarayonidagi ustuvor strategik yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu konsepsiya bugungi kunda biznes yetakchilari, davlat organlari,

xalqaro kasaba uyushmalari hamda assotsiatsiyalar mutaxassislari tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganilmoqda.

So‘nggi o‘n yil ichida raqamli platformalarga bo‘lgan talab sezilarli darajada oshdi. Bu holat, avvalo, biznes jarayonlarini soddalashtirish, boshqaruv qarorlarini tez va asosli qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirish kabi afzalliklar bilan izohlanadi. Raqamli platformalar korxonalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, resurslardan samarali foydalanish va innovatsion faoliyatni jadallashtirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

1-jadval

Turli davlatlarda raqamli ekotizimlarni tartibga solishning asosiy jihatlari

Jihatlar	AQSh	Xitoy	Yevropa Ittifoqi	O‘zbekiston
Huquqiy asos	CCPA, FTC, antimonopoliya qonunlari	Kiberxavfsizlik qonunlari, markazlashgan nazorat	GDPR, DSA, DMA	“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, AKT qonunlari
Ma’lumotlar himoyasi	Foydalanuvchi roziligi asosida	Davlat nazorati ostida	Foydalanuvchi huquqlari ustuvor	Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risidagi qonun (2020)
Raqobatni tartibga solish	Platforma monopoliyalariga qarshi kurash	Davlat korxonalari ustunligi	Bozor muvozanatini ta’minlash	Raqobatni rivojlantirish agentligi faoliyati orqali nazorat
Texnologik standartlar	Ochiq kodli platformalarni rag‘batlantirish	Ichki standartlar	Interoperabilitet va texnologik uyg‘unlik	AKT sohasida xalqaro standartlarga moslashish, mahalliy platformalar rivoji
Xalqaro hamkorlik	Global texnologik alyanslarda ishtirok	Cheklangan, milliy xavfsizlik ustuvor	Transchegaraviy tartibga solish	BMT, ITU, Yevroosiyo Ittifoqi bilan raqamli hamkorlik loyihalari
Raqamli inklyuziya	Kichik biznes va ijtimoiy guruhlarni qo‘llab-quvvatlash	Raqamli infratuzilma kengaytirilishi	Ijtimoiy tenglik va raqamli savodxonlik	“Raqamli savodxonlik” loyihalari, ayollar va yoshlar uchun AKT treninglari
Monitoring va baholash	Sun’iy intellekt asosida tartibga solish tizimlari	Davlat monitoringi va senzura	Mustaqil regulyatorlar va audit tizimlari	AKT vazirligi, “Elektron hukumat” monitoring tizimi orqali nazorat

Ekotizim yondashuvi ilk bor Jeyms F.Mur tomonidan 1993-yilda *Harvard Business Review* jurnalida ilgari surilgan bo‘lib, u kompaniyalarning iqtisodiy faoliyatini biologik tizimlarga o‘xshash tarzda tahlil qilishni taklif etgan. Bugungi kunda yirik korporatsiyalar va transmilliy kompaniyalar o‘z raqamli ekotizimlarini rivojlantirishni strategik tashabbus sifatida ko‘rib chiqmoqda.

Raqamli ekotizimlar ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan biologik tizimlarning raqamli analogi sifatida talqin qilinadi. Bu atama nisbatan yangi bo‘lib, uning amaliy qo‘llanilishi turli yondashuvlarda turlicha izohlanadi [1]. Masalan, Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqining [2] raqamli kun tartibida raqamli ekotizimlar jismoniy, huquqiy va virtual subyektlar hamda ularning raqamli shakldagi o‘zaro aloqalari va munosabatlarini o‘z ichiga olgan ochiq, barqaror va integratsiyalashgan tizimlar sifatida ta’riflanadi. Zamonaviy tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, kompaniya tomonidan o‘z ekotizimini shakllantirish jarayoni uning hayotiy siklida muhim strategik bosqich sifatida e’tirof etiladi [3].

So‘nggi o‘n yillikda raqamli ekotizimlarning rivojlanish sur’ati sezilarli darajada oshdi. Xususan, AQShda ekotizimlar soni 10–15 baravar, Xitoyda esa 5–8 baravar ko‘paygan. Bu jarayonlar raqamli transformatsiyaning jadallashuvi, platforma iqtisodiyotining kengayishi va tarmoq ta’sirining kuchayishi bilan izohlanadi.

Raqamli ekotizimlarning strategik ahamiyati ortib borayotganligi sababli, ularning samarali faoliyat yuritishini ta’minlash maqsadida turli mamlakatlarda ekotizim modellarini ishlab chiqish va ularni tartibga solish bo‘yicha faol izlanishlar olib borilmoqda. Biroq, bu boradagi yondashuvlar milliy siyosat, iqtisodiy model va texnologik rivojlanish darajasiga qarab sezilarli farq qilmoqda.

Innovatsion iqtisodiy rivojlanish raqamli ekotizimlarning shakllanishi va kengayishiga, ishtirokchilar sonining ortishiga hamda taqdim etilayotgan xizmatlarning texnologik darajasining oshishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Strategik rivojlanish rejalarida ekotizim modelini faol joriy etish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan bo‘lib, bu milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida o‘sish omillarini aniqlash va ularga mos raqamli yechimlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Raqamli ekotizimlarning muvaffaqiyatli rivojlanishi, avvalo, raqamli texnologiyalarning jadal taraqqiyoti bilan belgilanadi. Biroq, bu jarayonni samarali qo‘llab-quvvatlash uchun innovatsiya, tadbirkorlik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan malakali kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli xizmatlar bilan ishlashda turli kasb egalari uchun raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish zaruriyati ortib bormoqda.

McKinsey kompaniyasi [4] tomonidan o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, rahbarlar va menejerlarning qariyb 90 foizi kelgusi besh yil ichida o‘z xodimlari orasida raqamli ko‘nikmalar yetishmasligini tan olishlari yoki bashorat qilishlari kutilmoqda. Gartner tahlillarida esa raqamli texnologiyalarni joriy etishda aniq va maqsadli qarorlar qabul qilish muhimligi ta’kidlanadi. Unga ko‘ra, maqsadli o‘qitish va tizimli qo‘llab-quvvatlash kompetensiyaga erishish vaqtini 30 foizga qisqartirishi mumkin.

Shu bilan birga, ta’lim sifati va talabalarning faol ishtiroki ham raqamli ekotizimlar uchun muhim omil hisoblanadi. Brandon Hall Group tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tashkilotlarning atigi 50 foizi o‘quv texnologiyalariga qilingan investitsiyalar natijasida xodimlar tomonidan bilimlarni qabul qilish darajasini yaxshilashga erishgan [5]. Bu holat, asosan, o‘qituvchilar orasida raqamli pedagogik malakaning yetishmasligi hamda xodimlarni raqamli texnologiyalar bilan ishlashga o‘rgatish uchun yetarli mutaxassislar bazasining mavjud emasligi bilan izohlanadi.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, raqamli platformalar va ekotizimlarning rivojlanish holatini ob’ektiv baholash zamonaviy raqamli transformatsiya jarayonining muhim tarkibiy qismidir. Hozirgi sharoitda raqamli ekotizimlarning rivojlanish darajasi va dinamikasi mintaqalar, iqtisodiy sohalar hamda tashkilot turlari bo‘yicha sezilarli farqlarga ega. Ilg‘or raqamli texnologiyalar va ekotizimga asoslangan biznes modellariga bo‘lgan talab nafaqat sanoatning o‘ziga xos jihatlariga, balki texnik infratuzilma va moliyaviy barqarorlik darajasiga ham bevosita bog‘liq.

Mazkur jarayonni samarali boshqarish uchun raqamli ekotizimlarni baholash metodologiyalarini, ko‘rsatkichlar tizimini va umumiy qabul qilingan algoritmlarni ishlab chiqish va tasdiqlash zarur. Raqamli ekotizimlarni baholashda uchta asosiy ko‘rsatkichlar to‘plamidan foydalanish taklif etiladi: sanoat ko‘rsatkichlari, biznes samaradorligi va foydalanuvchi tajribasi. Ushbu ko‘rsatkichlar raqamli

transformatsiyani boshqarish, xavflarni aniqlash va raqamli iste'dodlarni rivojlantirish samaradorligini kuzatish imkonini beradi.

Raqamli ekotizimlarni yaratish va ularning iqtisodiy hamda ijtimoiy sohalarda barqaror ishlashini ta'minlash — raqamli transformatsiyaning strategik vazifalaridan biridir. Biroq, amaliyotda ko'plab kompaniyalar raqamli texnologiyalarni joriy etish va biznes modellarini modernizatsiya qilishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu holat texnologik tayyorgarlik, kadrlar salohiyati va moliyaviy resurslar yetishmasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Shu munosabat bilan, raqamli ekotizimlarni rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi:

— raqamli texnologiyalarni muvozanatli va tizimli joriy etish orqali iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish;

— innovatsiya va bilim almashinuvini rag'batlantirish maqsadida davlat organlari, xususiy sektor va ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish;

— innovatsion ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash va sanoat pilot loyihalari natijalarini keng miqyosda tatbiq etish;

— axborot komminikatsiya texnologiyalari startaplarini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish;

— barcha asosiy sohalarda mutaxassislarning AKT kompetensiyalarini oshirish;

— ekotizimlar samaradorligini baholashga oid standartlar va tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Raqamli ekotizimlarning istiqbolli rivojlanishi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion salohiyatni kuchaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, ularni strategik darajada qo'llab-quvvatlash va tizimli yondashuv asosida rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Сулейкин, А. С. Методы анализа и синтез архитектуры цифровых производственных экосистем / А. С. Сулейкин: дисс. на соиск. степени канд. техн. наук. – М., 2022 – 128 с.

2. Об основных направлениях реализации цифровой повестки Евразийского экономического союза до 2025 года : Решение Высшего Евразийского экономического совета № 12, – 2017 г.

3. Цифровые технологии в бизнесе: практики и барьеры использования // Мониторинг цифровой трансформации бизнеса: М: НИУ ВШЭ. 2024 г. Выпуск № 1. 2024 г.

4. Agrawal, S. Beyond hiring: How companies are reskilling to address talent gaps/ S. Agrawal, De Smet, P. Poplawski, A. Reich // McKinsey. People& Organizational Performance –21 February 2020/– Mode of access: https://www.mckinsey.com/capabilities/people-and-organizational-performance/our-insights/beyond-hiring-how-companies-are-reskilling-to-address-talent-gaps?trk=article-ssr-frontend-pulse_little-text-block#/

5. Cooke, M. Brandon Hall Group To Launch Study On Transforming L&D// BrandonHallGroup.–24 June 2022. – Mode of access: https://brandonhall.com/brandon-hall-group-to-launch-study-ontransforming-ld/?trk=article-ssr-frontend-pulse_little-text-block.

O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI VA UNING MILLIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI

Xojaev Azizxon Saidaloxonovich
Farg'ona davlat texnika universiteti
"Moliya va buxgalteriya hisobi" kafedrasi mudiri,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Azizjonov Shohruxbek Shuxratjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti 1-kurs talabasi

Zamonaviy global iqtisodiy tizimda raqamli texnologiyalar barcha sohalarda, jumladan bank tizimida ham chuqur integratsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Bugungi kunda bank xizmatlarini raqamlashtirish nafaqat mijozlar uchun qulaylik yaratadi, balki moliyaviy operatsiyalarning samaradorligini oshirish, xizmat ko‘rsatishda shaffoflikni ta’minlash va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda muhim omilga aylandi.

Raqamli iqtisodiyot tushunchasi milliy iqtisodiyotning yangi rivojlanish bosqichini ifodalaydi. U axborot texnologiyalariga asoslangan iqtisodiy munosabatlar tizimini yaratishni, davlat va xususiy sektor faoliyatida samaradorlikni oshirishni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan bank tizimining raqamli transformatsiyasi mamlakat iqtisodiy barqarorligi, moliyaviy inklyuziya darajasi va jahon moliya bozorida raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyot va raqamli transformatsiya siyosati davlat taraqqiyotining strategik yo‘nalishilaridan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentimizning “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-6079-son Farmoni [1] ushbu sohada yagona ekotizimni yaratish, davlat xizmatlari, bank tizimi va iqtisodiy munosabatlarni to‘liq raqamlashtirishni maqsad qilgan. Bank tizimi bu jarayonning eng muhim bo‘g‘ini bo‘lib, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy faollikni oshirish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish hamda aholiga qulay xizmatlar taqdim etish imkonini bermoqda.

Raqamli transformatsiya – bu an’anaviy biznes-modellar va operatsiya jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida tubdan yangilash jarayoni sanaladi. Bank tizimida bu jarayon asosan quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi: bank operatsiyalarini avtomatlashtirish; mijozlar bilan raqamli muloqotni yo‘lga qo‘yish; ma’lumotlar tahlili va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish; elektron to‘lovlar tizimini rivojlantirish; kiberxavfsizlik va axborot muhofazasi mexanizmlarini kuchaytirish. Dunyo amaliyotida so‘nggi o‘n yillikda “fintech” sektorining jadal o‘sishi bank xizmatlariga yangi standartlar qatoriga kirishiga sabab bo‘lmoqda.

Raqamli transformatsiya ekotizimini shakllantirishda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida bank operatsiyalarining avtomatlashtirilishi, kiberxavfsizlik tizimining mustahkamlanishi, elektron to‘lovlar infratuzilmasining kengaytirilishi va Fintex kompaniyalari bilan hamkorlikni rivojlantirishni ko‘rsatish mumkin. Bu yo‘nalishlar orqali O‘zbekiston iqtisodiyotida yangi biznes-modellar, tezkor moliyaviy operatsiyalar va resurslardan samarali foydalanish tizimi shakllanmoqda [2].

Bugungi kunda mamlakatimizda “Aloqabank”, “Turonbank”, “Kapitalbank”, “TBC Bank Uzbekistan” kabi moliyaviy muassasalar raqamli platformalar orqali faoliyatni avtomatlashtirishni amalga oshirmoqda. Qolgan tijorat banklarida ham bu boradagi ishlarni jadal rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi besh yil ichida raqamli to‘lovlar hajmi 5,6 barobarga oshgan, mobil va internet-banking foydalanuvchilari soni ikki barobarga ko‘paygan. Amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi besh yil ichida raqamli to‘lovlar hajmi 5,6 barobarga oshgan, mobil va internet-banking xizmatlaridan foydalanuvchilar soni esa ikki barobarga ortgan [3]. “Aloqabank” va “Turonbank” tajribasida raqamli

platformalarga o‘tish natijasida operatsion xarajatlar 20-25 foizga kamaygan, mijozlar bazasi esa 1,5-2 barobar oshgan. Bu esa davlat siyosatida raqamli transformatsiya ekotizimini shakllantirish iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshirayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonlari ba’zi xatarlarni ham yuzaga keltirmoqda. Jumladan, kiberxavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlarning himoyasi va texnologik infratuzilmaning barqaror ishlashi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli davlat tomonidan ushbu sohalarda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish talab etiladi [4].

Bizga ma’lumki, raqamli transformatsiya jarayonlari bilan birga bugungi kunda ayrim xavflar ham vujudga kelmoqda. Eng ko‘p uchrayotgan muammolar sirasiga kiberhujumlar, kartadagi pullarni yechib olishga urinish holatlari, ma’lumotlarni o‘g‘irlash va shaxsiy ma’lumotlarning noqonuniy tarqalishi bilan bog‘liq jarayonlarda namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli, davlat miqyosida ISO/IEC 27001 xalqaro axborot xavfsizligi standartini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kiberxavfsizlik, ma’lumotlar maxfiyligi va raqamli infratuzilma barqarorligi masalalari bugungi kunda bank tizimi oldidagi eng muhim muammolardan biri bo‘lib turibdi. Ba’zi hollarda raqamli texnologiyalardan foydalanishda texnik nosozliklar, ma’lumotlarning yo‘qolishi yoki suiste’mol qilinishi iqtisodiy va huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu bois raqamli transformatsiya jarayonida xavflarni boshqarish, axborot xavfsizligini ta’minlash, raqamli infratuzilmani yangilash va kadrlar salohiyatini oshirish ustuvor vazifa sifatida qaralishi lozim. Ayniqsa, raqamli savodxonlikni oshirish va mutaxassislarni tayyorlash milliy iqtisodiyotdagi raqamli islohotlarning uzoq muddatli samaradorligini ta’minlaydi.

O‘zbekistonda “Apelsin”, “Payme”, “Click”, “Oson”, “Anorbank Digital” kabi fintex platformalarning faoliyati kengaymoqda. Bu platformalar mijozlar uchun tezkor to‘lov va onlayn kredit imkoniyatlarini yaratdi.

Mamlakatimizda raqamli infratuzilmani rivojlantirish uchun quyidagi choralar muhim ahamiyatga ega:

- yagona raqamli platforma yaratish;
- axborot xavfsizligi yuzasidan xalqaro standartlarni standartlarini keng joriy etish;
- Fintex startaplarni жорий этилиши янада qo‘llab-quvvatlashни рағбатлантириш;
- kadrlar salohiyatini oshirish va raqamli infratuzilma loyihalarini rag‘batlantirishga erishish zarur bo‘ladi.

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot ulushi dunyo YAIMining 15-18 foizini tashkil etmoqda. O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich hozircha 2-3 foizni tashkil etadi, ammo o‘sish sur’atlari yuqori. Шунинг учун ҳам 2025-yil 25-oktyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida “Sog‘liqni saqlash, energetika, bank-moliya, bojxona-soliq, transport, tog‘-kon va qishloq xo‘jaligi sohalarida sun’iy intellekt bo‘yicha 100 ta loyiha rejalashtirilgan. Ularni amalga oshirish uchun shunga mos quvvatlar, zamonaviy super kompyuterlar kerak. Lekin hozirgi mavjud quvvatlar faqat kichik loyihalarni ishga tushirish uchun yetadi. Shu bois, zamonaviy super kompyuter klasterlari va “Data-markaz”larni ko‘paytirish zarurligi qayd etildi. Bu yil 16 ta super kompyuter sotib olish uchun 50 million dollar ajratildi.

Keyingi yil bu mablag‘ 2 karra oshiriladi”[5]. Belgilangan topshiriqlar natijasida bank tizimining raqobatbardoshligini oshishi, aholi va biznes sub’ektlariga moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengayishi, кўрсатилаётган xizmatlarning xavfsiligi ta’minlanishi natijasida milliy iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni samarali taqsimlanishira olib keladi.

Empirik tahlil natijalariga ko‘ra, raqamli bank xizmatlari ulushining o‘sishi YaIM o‘sishi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq ekanligi aniqlangan. Raqamli to‘lovlar ulushi 1 foizga oshganda, iqtisodiy o‘sish 0,35-0,4 foizga ortishi mumkin. Bu raqamli bank xizmatlari nafaqat xizmat ko‘rsatish sohasini modernizatsiya qilishga, balki ishlab chiqarish va savdo faoliyatida likvidlikni ta’minlashga ham hissa qo‘shayotganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, bugungi kunda raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samaradorligi yuqori ekanligini, bank tizimining raqamli muhitga moslashishi orqali iqtisodiy faollik, investitsiya faoliyati va moliyaviy barqarorlikning oshishini ta’minlayotganini ko‘rsatdi. Bu o‘zgarishlar natijasida bank tizimi nafaqat moliyaviy xizmatlarning tezkorligini oshirdi, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ham kuchaytirdi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya borasidagi davlat siyosati O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotga moslashuvi va barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Raqamli ekotizimni shakllantirishda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- raqamli infratuzilmani kengaytirishda milliy miqyosda yagona “Bank raqamli infratuzilma platformasi”ni shakllantirish orqali barcha tijorat banklari uchun yagona axborot almashuv tizimini yo‘lga qo‘yish tavsiya qilinadi;

- kiberxavfsizlik tizimini mustahkamlashda har bir bankda “Cyber Risk Management Center” tashkil etish, xalqaro ISO/IEC 27001 axborot xavfsizligi standartlarini to‘liq joriy etishni ta’minlash;

- raqamli savodxonlikni oshirishla bank xodimlari va mijozlar uchun raqamli savodxonlik bo‘yicha o‘quv dasturlari, seminar va onlayn kurslarni muntazam tashkil etishlari maqsadga muvofiq sanaladi;

- sun’iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarini keng qo‘llashda kredit risklarini baholash, mijozlar xulqini tahlil qilish hamda firibgarlik holatlarini oldini olishda AI va blockchain yechimlarini joriy etishni rag‘batlantirish zarur

- raqamli infratuzilma rivojlanishiga oid loyihalarni soliq imtiyozlari va grantlar orqali rag‘batlantirishga erirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Mazkur chora-tadbirlar milliy bank tizimining raqamli ekotizimini kuchaytirib, O‘zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. “Yillik hisobot – 2023”. https://cbu.uz

3. Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program, IMF Report, 2025.

4. Muminova E.A. (2020). Iqtisodiyotni raqamlashtirishda fintex texnologiyalar va ularni joriy etishning xorijiy tajribasi. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” jurnali.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2025-yil 25-oktyabr kungi Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish yangi bosqichga olib chiqiladi. https://president.uz/oz/lists/view/8582

РАЗВИТИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Мусабеков Джорабек Хакимджанович
зав.кафедры Ташкентского филиала РЭУ имени Г.В. Плеханова, к.т.н., доц.
Воронин Сергей Александрович,
Институт бюджетно-налоговых научных исследований при Министерстве экономики и финансов Республики Узбекистан, Ташкентский филиал РЭУ им. Г.В. Плеханова, д.э.н

В современных условиях коммерческие банки разрабатывают и предлагают на рынке всё большее количество услуг населению. Оказание розничных электронных банковских услуг становится перспективной сферой деятельности банков, особенно в регионах, где рынок освоен слабо, а потенциал платежеспособности населения растет. Электронные банковские услуги один из наиболее выгодных для банков видов бизнеса [1]. В статье рассматриваются экономические взаимоотношения банков и клиентов по поводу удовлетворения потребностей населения в электронных банковских услугах. Изучен практический опыт по предоставлению для клиентов дистанционных банковских услуг коммерческих банков на рынке Узбекистана включая регионы Республики. На основе анализа развития рынка банковских услуг выявлены перспективы совершенствования банковских продуктов, представленных на региональном рынке. Особое внимание уделено аспекту практической реализации конкурентных позиций банков на рынке. Обоснована необходимость внедрения систем клиенто-ориентированного подхода в обслуживании.

Результаты анализа функционирования электронных банковских услуг на рынке показали, что параллельно с услугами интернет-банкинга в них активно развиваются и другие сопутствующие услуги: интернет-трейдинг и интернет-страхование, механизм удаленного обслуживания «Интернет-Банк-Клиент» и другие.

В исследовании предпринята попытка разработки предложений по формированию конкурентного рынка электронных банковских услуг, новых форм банковского обслуживания на основе создания альтернативных каналов доставки банковских продуктов.

Положения и результаты исследования могут быть использованы в практике работы коммерческих банков при формировании ценовой стратегии. В результате изучения рынка банковских услуг было определено что, что дальнейшее развитие электронного банкинга будет определяться развитием информационных технологий, ужесточением конкуренции на рынках в связи с усилением роли интеллектуальных услуг, развитием электронной коммерции, появлением сетевого сектора экономики во всех его проявлениях и др.

В последние годы мировая финансовая система качественно меняется в сторону цифровизации всех видов услуг, включая платежную систему. Локомотивом перехода на новую систему услуг является банковский сектор. Большим толчком для перехода на дистанционное обслуживание является пандемия, начавшаяся в 2020 г., когда не было возможности личного контакта клиентов банка с сотрудниками, а все банковские операции осуществлялись дистанционно. Этот фактор заставил коммерческие банки почти полностью перейти на цифровые технологии, причём многие операции осуществлять с применением инструментов искусственного интеллекта [2].

Если взглянуть на сегодняшний день, то можно отметить, что порядка 70% операций осуществляются дистанционно т.е. без посещения офиса банка, включая такие услуги как потребительские и, в том числе, активно использующееся в настоящее время - ипотечное кредитование.

Благодаря ипотечному кредитованию активно развивается сектор строительства жилых домов во всех регионах Узбекистана. В случае прекращения ипотечного кредитования этот сектор может попасть в глубокий кризис из-за отсутствия других источников финансирования.

В целях стимулирования роста объёмов продаж бытовой техники и товаров народного потребления практически все коммерческие банки активно используют механизм потребительского кредитования. Данный вид деятельности для банков является отличным способом диверсификации активов и, с другой стороны, возможностью поддержания высокой процентной ставки по кредитам. Ежегодное увеличение количества населения Узбекистана и стремление к улучшению жилищных условий, стабилизация доходов населения позволяет иметь возможность пользоваться банковскими услугами. Следует отметить, что количество транзакций в коммерческих банках увеличились в десятки раз. Это позволяет многократно ускорять оборачиваемость капитала, что свидетельствует о росте уровня жизни населения. Это дает возможность большому количеству населения пользоваться банковскими услугами. В связи с этим коммерческие банки в последнее время в стратегических планах разработали основные направления цифровизации коммерческих банков. В их число входит такие операции как:

1. *Онлайн-банкинг и мобильные приложения*. Современные клиенты предпочитают управлять финансами дистанционно. Онлайн-сервисы позволяют оплачивать счета, переводить деньги, открывать вклады и получать кредиты без визита в отделение. Мобильные банки становятся «финансовыми помощниками», объединяя в себе широкий набор функций.

2. *Бесконтактные платежи*. Технологии NFC, QR-коды и виртуальные кошельки (Apple Pay, Google Pay, Mir Pay) значительно ускорили процесс оплаты. Это повысило удобство для клиентов и снизило издержки для банков.

3. *Искусственный интеллект и машинное обучение.* AI применяется для анализа больших данных, прогнозирования поведения клиентов, выявления мошеннических операций и персонализации предложений. Чат-боты на базе ИИ заменяют операторов колл-центров, обеспечивая круглосуточное обслуживание.

4. *Big Data и аналитика.* Сбор и обработка больших массивов данных позволяют банкам лучше понимать потребности клиентов, разрабатывать новые продукты и управлять рисками более эффективно.

5. *Блокчейн и криптотехнологии*. Использование распределённых реестров повышает прозрачность и безопасность транзакций. Некоторые банки внедряют блокчейн для международных переводов и документооборота.

6. *Кибербезопасность*. С ростом числа цифровых сервисов увеличивается и количество киберугроз. Банки активно внедряют многофакторную аутентификацию, биометрические технологии (распознавание лица, отпечатка пальца, голоса), а также используют системы мониторинга для защиты персональных данных клиентов и их денежных средств, а также имущества.

Основными преимуществами цифровизации на сегодняшний день являются:

- повышение доступности банковских услуг;
- удобство и скорость операций;
- снижение операционных затрат;
- персонализация предложений для клиентов;
- усиление конкурентоспособности банков.

Наряду с этим, несмотря на очевидные преимущества, цифровизация сопровождается рядом трудностей:

- угрозы кибератак и мошенничества;
- необходимость значительных инвестиций в технологии;
- риск цифрового неравенства среди клиентов;
- вопросы регулирования и защиты персональных данных.

В заключении, следует отметить, что цифровые технологии становятся неотъемлемой частью современной банковской системы, формируя новый стандарт финансовых услуг. Коммерческие банки, которые активно внедряют инновации, получают значительные конкурентные преимущества и укрепляют доверие клиентов. В ближайшие годы цифровизация будет только углубляться, а банковская система постепенно превратится в полностью интегрированную цифровую экосистему.

Литературы:

1. Винникова И.С. Оценка современного состояния интернет-банкинга в России. М.: Наука, 2025. С. 48-56.

2. Резник И.А. Российский опыт предоставления дистанционных банковских услуг. Журнал: Экономическая политика, М. 2025. №8. С.26-28.

TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Umarova Malika Baxtiyarovna -
TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” Ilmiy-tadqiqot markazi bosh ilmiy xodimi, DSc


Hozirgi global iqtisodiy vaziyat va kuchayib borayotgan raqobat sharoitida tijorat banklari o‘z faoliyatini samarali tashkil etish, mijozlarning ehtiyoj va talablariga mos keladigan yangi moliyaviy xizmat turlarini joriy etishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashga alohida urg‘u qaratmoqda. Bank sektorini transformatsiya qilish, ya’ni

an’anaviy biznes modellaridan zamonaviy, raqamli va mijozga yo‘naltirilgan modelga o‘tish moliyaviy muassasalar barqarorligini ta’minlash, xizmat sifatini va operatsion samaradorlikni oshirish, bozorda raqobatbardoshlikni saqlab qolishda muhim strategik vazifalardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Innovatsion texnologiyalar, jumladan sun’iy intellekt, blokcheyn texnologiyalari, katta ma’lumotlar (Big Data) tahlili va mobil ilovalar banklarning ish yuritish tamoyillarini tubdan o‘zgartirib bormoqda. Ushbu texnologiyalar nafaqat operatsion jarayonlarni avtomatlashtirishni ta’minlaydi, balki mijozlar bilan munosabatlarni mustahkamlash, moliyaviy mahsulotlarni individuallashtirish hamda xavflarni baholash jarayonlarini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Banklarni transformatsiya qilish jarayonida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish ularning funksional samaradorligini oshirish, raqobatbardosh moliyaviy xizmatlarni yaratish va mijozlar bilan o‘zaro aloqalarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi[1].

Shu bilan birga, ushbu jarayonlarda mavjud cheklovlar, xavf-xatarlar va muammoli masalalar ham kompleks ravishda inobatga olinishi lozim. Ushbu tadqiqotda tijorat banklarini transformatsiyalashda innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi va ularning samaradorlikka ta’siri tahlil qilinadi. Bundan tashqari, banklar uchun innovatsion yechimlarning ahamiyati va ularni amaliyotga joriy etishning asosiy bosqichlari ham ko‘rib chiqiladi

Moliyaviy texnologiyalar innovatsion moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishda zamonaviy axborot texnologiyalari va raqamli yechimlardan foydalanish orqali moliya sektorida texnologik taraqqiyotni ta’minlovchi muhim vosita hisoblanadi. Moliyaviy texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish orqali texnik infratuzilmani yangilash, operatsion jarayonlarni avtomatlashtirish va moliyaviy faoliyat samaradorligini oshirish imkoniyati yuzaga kelmoqda[2].



1- rasm. Banklarga innovatsiyalarni joriy etish bosqichlari [4]

Zamonaviy fintex yechimlari esa nafaqat yangi biznes modellari va raqamli platformalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi, balki moliya bozoridagi ishtirokchilarning faoliyatiga strategik darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, moliyaviy texnologiyalar sohasiga kiritilayotgan investitsiyalar bir qator

yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: jumladan, bank to‘lov tizimlari va kliring jarayonlari, elektron pul muomalasi, onlayn kreditlash maydonchalari, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish (Big Data), blokcheyn asosidagi texnologiyalar, bulutli hisoblash xizmatlari, sun’iy intellektga asoslangan yechimlar, aqlli investitsiya maslahatchilari, aqlli shartnomalar va boshqa innovatsion moliyaviy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

Mazkur investitsiyalar bank tizimini raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish, moliyaviy operatsiyalarda yuqori xavfsizlikni ta’minlash, sug‘urta xizmatlarini zamonaviy raqamli asosda rivojlantirish, moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirish va mijozlar ehtiyojlariga moslashish imkonini yaratadi. Yakuniy natijada esa moliya institutlarida ilg‘or texnologiyalarni joriy etish bank xizmatlari sifatini oshirish, moliyaviy mahsulotlar raqobatbardoshligini kuchaytirish, operatsion samaradorlikni ta’minlash, moliya bozorining investitsion jozibadorligi va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi[3].

Ushbu ekotizim banklarni transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarning raqobatdoshligini oshirish, mijozlar bilan samarali aloqa o‘rnatish va yangi innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyatlarni yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Moliyaviy texnologiyalarning tijorat banklari rivojlanishiga ta’sirini uch bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqichda bank tizimida raqamlashtirish jarayonlari amalga oshirilib, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish ko‘zda tutiladi. Ushbu bosqichda an’anaviy axborot texnologiyalari vositalari va dasturiy ta’minotlardan foydalanish orqali tijorat banklarida ofis boshqaruvi va biznes operatsiyalarini avtomatlashtirishga erishiladi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt va bulutli texnologiyalarni bank tizimiga keng joriy etish orqali bank faoliyatining samaradorligini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Ikkinchi bosqich bank tizimiga moliyaviy texnologiyalarni (fintech) integratsiya qilish bilan tavsiflanadi. Bu bosqichda tijorat banklari moliyaviy ma’lumotlarni to‘plash, risklarni baholash, investitsiya qarorlarini qabul qilish va kredit vositachilik jarayonlarini takomillashtirish uchun yangi axborot texnologiyalarini joriy eta boshlaydi. Shu tariqa, moliyaviy texnologiyalar tijorat banklarida katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, intellektual investitsiya maslahatchilaridan foydalanish, ta’minot zanjirini moliyalashtirish kabi mexanizmlar orqali samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchi bosqichda bank ekotizimi tijorat banklari kontekstida ekotizimi konsepsiyasi universal, tarmoqli, platformalik va hamkorlik asosidagi elementlarni o‘z ichiga oladi. Universal — ekotizimi mijozlarga keng ko‘lamdagi moliyaviy xizmatlar va mahsulotlarni taklif etadi. Bu faqatgina kreditlar va depozitlar emas, balki investitsiyalar, sug‘urta, va raqamli xizmatlarni ham o‘z ichiga oladi. Tarmoqli ekotizim tarkibidagi elementlar o‘zaro bog‘langan va bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi. Misol uchun, mijozning moliyaviy holati, uning sarmoya qilish qarorlari va bankning takliflari o‘rtasidagi aloqa. Platformali ekotizimda esa, tijorat banklari o‘z xizmatlarini raqamli platformalar orqali taklif etishmoqda. Bu platforma mijozlarga qulaylik yaratib, ularning ehtiyojlariga mos ravishda xizmatlarni tanlash imkonini beradi. Hamkor ekotizimi faqatgina bankning o‘zi emas, balki boshqa moliya muassasalari, texnologik kompaniyalar, davlat tashkilotlari va boshqa manfaatdor tomonlar bilan

hamkorlikni o‘z ichiga oladi. Bu hamkorlik innovatsion yechimlarni yaratish va xizmatlarni yaxshilash uchun muhimdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, innovatsion texnologiyalarni joriy etish vaqt va joydan qat’i nazar, eng qulay va shaffof bank xizmatlarini yaratishga, shakllangan bank xizmatlari sifatining o‘sishi hisobiga xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bank sektorining bunday rivojlanish vektori shuni ko‘rsatadiki, bank muhitida raqobat oxir-oqibat eng qulay va mijozlarga yo‘naltirilgan bank mahsulotlarini shakllantirish fonida kuchayadi.

Banklarni transformatsiyalash jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish samaradorligi bir necha muhim omillarga bog‘liq. Quyida ularning asosiy jihatlari keltirilgan:

1.Mijozlarga ko‘rsatilayotgan xizmat sifatini oshirish jarayonida innovatsion texnologiyalar, jumladan, masofaviy bank xizmatlari, mobil ilovalar orqali xizmat ko‘rsatish, onlayn moliyaviy platformalar hamda sun’iy intellekt asosidagi chat-botlar muhim o‘rin tutadi. Ushbu texnologiyalar mijozlarga tezkor va qulay xizmat ko‘rsatish imkoniyatini yaratib, bank bilan mijoz o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning uzviy va doimiy bo‘lishini ta’minlaydi.

2. Ish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali bankning ichki jarayonlarini samarali boshqarishga yordam berib, bu esa vaqt va resurslarni tejash, xatolarni kamaytirish imkonini beradi.

3. Ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish jarayonida innovatsion texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt tizimlari va analitik vositalardan foydalanish banklarga mijozlarning ehtiyojlari hamda xatti-harakatlarini yanada to‘liq va aniq tushunishga yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida har bir mijoz uchun moslashtirilgan va individual yondashuv asosidagi xizmatlarni taklif qilish imkonini yaratadi.

4.Xavflarni boshqarishda innovatsion texnologiyalar qo‘llash orqali xavflarni aniqlash va baholash jarayonlarini yaxshilashga yordam beradi. Misol uchun, blokcheyn texnologiyalari tranzaksiyalarning xavfsizligini oshirib, shubhali tranzaksiyalarni bloklash imkonini beradi.

5. Raqobatbardoshlikni oshirishda innovatsiyalarni joriy etish banklarning raqobatbardoshligini oshirib, bank moliya bozorida yetakchi banklar sirasiga kirishda samarali va zamonaviy xizmatlar taklif qilish orqali banklar bozorda o‘z o‘rnini mustahkamlaydi.

6. Texnologik infratuzilmani rivojlantirish orqali ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish banklarning texnologik imkoniyatlarini oshirishga zamin yaratadi. Umuman olganda, banklardagi rivojlangan infratuzilma mijozlar auditoriyasini kengaytirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yuksaltirish va bank faoliyatining bozordagi raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shu sababli, innovatsion texnologiyalarni joriy etish banklarni transformatsiyalash jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning samaradorligini oshirishda katta rol o‘ynaydi.

Umuman olganda, banklarni transformatsiya qilish jarayonida raqamli texnologiyalar yutuqlaridan samarali foydalanish bank xizmatlarini hududlar kesimida keng joriy etish imkoniyatini yaratadi va shu bilan birga mijozlar auditoriyasini kengaytirishda muhim strategik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Umarova M.B. Banklarni transformatsiyalash jarayonida zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning ilmiy-nazariy yondashuvlari. "Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi" ilmiy jurnali . 7-son. iyul. 2024y. 4(07). 53-59 betlar.

2. Arner, D., Barberis, J., & Buckley, R. (2020). FinTech and RegTech in a Nutshell, and the Future in a Sandbox. – CFA Institute Research Foundation.

3. Криворучко С. В., Кулешов Я. И. Взаимодействие банков и финтех-стартапов: партнерство и инвестиции // Банковское дело. 2021. № 3. С. 60-66.

4. Ilmiy adabiyotlardan foydalangan xolda muallif ishlanmasi

GAT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA VA MEHNAT RESURSLARIGA OID XARITA ISHLAB CHIQISH YO'NALISHLARI

Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Alfraganus Universiteti, Toshkent

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida migratsiya jarayonlari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omillardan biri sifatida qaralmoqda. Aholining faol qismining bir qismi ish topish yoki daromad manbaini yaxshilash maqsadida xorijiy mamlakatlarga chiqayotgani mehnat resurslari taqsimotida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy imkoniyatlarning hududlar bo'yicha notekis taqsimlanganligi migratsiya intensivligining ayrim viloyatlarda yuqori, boshqalarida esa past bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston hukumati tomonidan mehnat migratsiyasini tartibga solish, xorijdagi fuqarolarni huquqiy himoya qilish, ularning malakasini oshirish hamda ichki mehnat bozorida bandlikni ta'minlash yo'nalishida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, migratsiya oqimlarini ilmiy tahlil qilishda geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalaridan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Chunki an'anaviy statistik yondashuv faqat raqamli ma'lumot beradi, holbuki GAT yordamida migratsiya jarayonlarini hududiy, fazoviy va vizual ko'rinishda tahlil qilish mumkin.

GAT texnologiyalari — bu geografik ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, tahlil qilish va vizualizatsiya qilish imkonini beruvchi kompyuter tizimidir. Ushbu tizim yordamida ma'lumotlar xaritalar, grafiklar va statistik tahlillar shaklida taqdim etiladi. Mehnat migratsiyasiga oid ma'lumotlarni GAT dasturlarida qayta ishlash orqali quyidagi imkoniyatlar yuzaga keladi:

Aholining ichki va tashqi migratsiya oqimlarini hududiy taqsimotda tahlil qilish;

Har bir viloyat yoki tuman kesimida mehnat resurslarining soni va tarkibini aniqlash;

Migratsiya oqimlariga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar (bandlik, ish haqi, ishlab chiqarish salohiyati) bilan bog'liqligini o'rganish;

Olingan natijalarni xarita asosida vizual ko'rsatish, bu esa siyosiy qarorlar qabul qilishda qulaylik yaratadi.

O'zbekistonning Qashqadaryo, Andijon va Farg'ona viloyatlarida tashqi mehnat migratsiyasi darajasi nisbatan yuqori bo'lsa, Toshkent shahri va Navoiy viloyatlarida ichki migratsiya oqimlari ustunlik qiladi. GAT yordamida bu jarayonlarni fazoviy model sifatida ko'rsatish mumkin, bu esa davlat organlariga migratsiya "issiq nuqtalari"ni aniqlash imkonini beradi.

GAT asosida O‘zbekiston mehnat migratsiyasi xaritasini yaratish uchun bir necha turdagi ma’lumotlardan foydalaniladi:

Statistik ma’lumotlar — O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Bandlik va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda IOM (Xalqaro migratsiya tashkiloti) hisobotlari;

Demografik ma’lumotlar — aholi soni, yosh tarkibi, iqtisodiy faol aholi ulushi;

Iqtisdiy ko‘rsatkichlar — hududlar bo‘yicha ish o‘rinlari, o‘rtacha ish haqi, ishlab chiqarish hajmi, ishsizlik darajasi.

ArcGIS yoki QGIS dasturlarida ushbu ma’lumotlar joylashtirilib, fazoviy qatlamlar hosil qilinadi. Har bir viloyat alohida atributlarga ega bo‘lib, bu atributlar migratsiya ko‘rsatkichlarini aks ettiradi. Natijada, rangli va tahliliy xarita shakllanadi. Masalan, tashqi migratsiyasi yuqori bo‘lgan hududlar qizil yoki to‘q sariq rangda, past bo‘lganlar esa yashil yoki ko‘k rangda tasvirlanadi. Bunday vizualizatsiya natijalari ilmiy tahlil bilan bir qatorda davlat boshqaruvi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston sharoitida GAT texnologiyalarini mehnat migratsiyasini boshqarishda qo‘llash quyidagi amaliy natijalarni beradi:

Migratsiya oqimlarini oldindan prognozlash: ma’lumotlar bazasi yordamida qaysi hududlarda mehnat chiqishlari kuchayishi mumkinligi aniqlanadi;

Hududiy siyosatni shakllantirish: migratsiya yuqori bo‘lgan viloyatlarda bandlik dasturlarini kengaytirish, infratuzilmani rivojlantirish choralari belgilanadi;

Xalqaro mehnat aloqalarini rejalashtirish: qaysi yo‘nalishlarda O‘zbekiston fuqarolarining ko‘p ishlashi aniqlanib, u mamlakatlar bilan ikki tomonlama bitimlar ishlab chiqish taklif qilinadi.

Bundan tashqari, GAT asosida yaratilgan interaktiv xaritalar ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar hamda xalqaro tashkilotlar uchun ham keng foydalanish imkonini beradi. Ular yordamida demografik jarayonlar, migratsiya sabablari va natijalarini ilmiy asosda tahlil qilish osonlashadi.

GAT texnologiyalari asosida O‘zbekistonning mehnat migratsiyasi xaritasini ishlab chiqish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini rejalashtirishda muhim strategik vositadir. Bu tizim orqali mehnat resurslarining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, migratsiya oqimlari dinamikasi va ularga ta’sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish mumkin. Shuningdek, GAT asosidagi yondashuv O‘zbekistonda migratsiyani faqat ijtimoiy muammo sifatida emas, balki rivojlanish potensiali sifatida baholash imkonini beradi.

Kelajakda GAT texnologiyalarini yanada kengroq joriy etish orqali mehnat resurslari monitoringi, xarita asosida bandlik siyosatini shakllantirish hamda migratsiya oqimlarini raqamli boshqarish tizimini yaratish mumkin. Bu esa davlat boshqaruvining zamonaviy, ma’lumotga asoslangan shakliga o‘tishda muhim qadam bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Azizbek, Kamolov., Zafar, Turakulov., Adham, Norkobilov., Miroslav, Variny., Marcos, Fallanza. (2024). Regional resource evaluation and distribution for onshore carbon dioxide storage and utilization in Uzbekistan. doi: 10.21203/rs.3.rs-4557437/v1

2. Khamdamov, S. J. (2024). Energy Sector Development and its Contribution to Uzbekistan's Economic Expansion. American Journal of Corporate Management, 1(2), 1-6.

3. Zafar, Turakulov., Azizbek, Kamolov., Adham, Norkobilov., Miroslav, Variny., Marcos, Fallanza. (2023). Pathways to a Carbon-Neutral Uzbekistan: Evaluating CO2 Emission Estimation and Decarbonization Measures for Sustainability. doi: 10.21203/rs.3.rs-3340046/v1

4. Kasimov, A., Tukhtabaev, J., Bondarskaya, O., Bondarskaya, T., Ochilov, A., Mamatov, M., ... & Usmanov, C. (2023, December). Organizational and economic modeling of the system of interregional industrial cooperation as a control object. In Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems (pp. 333-343).

5. Khamdamov, S. J. R., Usmanov, A. S., Sayfullayev, S. N., Xamitova, M. S., & Adkhamjonov, S. B. (2024). The Influence of the Main Rate of the Central Bank on GDP Growth in Uzbekistan and the Transition to International Financial Reporting. In Development of International Entrepreneurship Based on Corporate Accounting and Reporting According to IFRS (Vol. 33, pp. 107-112). Emerald Publishing Limited.

6. Khamdamov, S. J. (2024). The Effect of Labor Market Reforms on Economic Growth in Uzbekistan. American Journal of Corporate Management, 1(2), 7-12.

7. Khamdamov, S. J., & Usmanov, A. (2022). New methodological recommendations for economic growth. Архив научных исследований, 2(1).

8. Khamdamov, S. J., Kakhramonova, U., & Usmanov, A. (2024). GREEN ECONOMY AS A DRIVER OF SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN. Страховой рынок Узбекистана, 1(8), 64-66.

9. Saidmakhmudovich, U. A., Khamdamov, S. J., & Eshonovich, S. A. (2023). PROBLEMS OF ENSURING SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS IN UZBEKISTAN. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 16, 106-110.

QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH VA UNING ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Metyakubov Azamat Djumanazarovich
Toshkent arxitektektura va qurilish universiteti
"Iqtisodiyot va ko'chmas mulkni boshqarish" kafedrasi
(PhD) dotsenti v.v.prof

So'nggi yillarda O'zbekistonda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va raqamli iqtisodiyotga o'tish ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. "O'zbekiston-2030" strategiyasida sanoat tarmoqlarini to'liq raqamlashtirish, resurslardan tejamkor foydalanish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish bo'yicha aniq maqsadlar belgilangan [1]. Shuningdek, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmon bilan qabul qilingan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ham ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish va raqamli transformatsiyani jadallashtirish zarurligi ko'rsatib o'tilgan [2].

Qurilish materiallari sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tayanch tarmoqlaridan biri bo'lib, 2024-yilda uning yalpi sanoat mahsulotidagi ulushi 8,5 foizni tashkil etdi [3]. Biroq ishlab chiqarish jarayonlari yuqori energiya sarfi, xomashyo resurslaridan samarali foydalanilmasligi va ishlab chiqarish tannarxining balandligi bilan ajralib turadi.

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish hajmi 2019-2024 yillarda 80 foizga, eksport esa qariyb ikki barobarga oshgan. Biroq korxonalarda raqamli texnologiyalarni qo'llash ko'rsatkichi atigi 34 foizni tashkil qilmoqda. Bu sanoatning yuqori o'sish sur'atlari bilan bir qatorda raqamlashtirish jarayonlari yetarli darajada tez amalga oshirilmayotganini ko'rsatadi.

1-jadval

Qurilish materiallari sanoatining ishlab chiqarish hajmi va eksport ulushi (2019-2024)

Yil	Ishlab chiqarish hajmi (trln so‘m)	Eksport hajmi (mln AQSh doll.)	Raqamli texnologiyalardan foydalanayotgan korxonalar (%)
2019	5,4	182	12
2020	6,1	210	15
2021	7,0	247	19
2022	7,8	280	23
2023	8,9	310	28
2024	9,7	356	34

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2019-2024 yillar hisobotlari [3].

Shuningdek, raqamli transformatsiya siyosatini joriy etishda mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar muhim o‘rin tutadi. Xususan, “Raqamli O‘zbekiston - 2030” dasturi doirasida ishlab chiqilgan konsepsiyalar sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, onlayn monitoring tizimlarini yaratish va axborot xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan [7]. Bu jarayon qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun ham muhim bo‘lib, ishlab chiqarish zanjirida shaffoflikni ta’minlash va korrupsiya omillarini kamaytirishga yordam beradi. Natijada, nafaqat iqtisodiy samaradorlik oshadi, balki sanoat korxonalarining investitsion jozibadorligi ham ortadi.

Bundan tashqari, xalqaro tajribadan kelib chiqib, O‘zbekistonda sanoat korxonalari uchun davlat-xususiy sheriklik asosida raqamli loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Janubiy Koreyada “Smart Factory” dasturi doirasida korxonalar davlat va xususiy sektor hamkorligida zamonaviy ishlab chiqarish tizimlarini joriy qilgan. Shunday mexanizmlarni O‘zbekiston qurilish materiallari sanoatiga moslashtirish orqali ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish, sifat ko‘rsatkichlarini oshirish va eksport salohiyatini kuchaytirish mumkin [8].

Qurilish materiallari sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega bo‘lishiga qaramay, sohada bir qator dolzarb muammolar saqlanib qolmoqda. Birinchidan, ishlab chiqarish jarayonlarining yuqori energiya sarfi va eskirgan texnologiyalar resurslardan foydalanish samaradorligini pasaytirmoqda. Masalan, sement ishlab chiqarishda energiya sarfi xalqaro me’yorlardan 25-30 foiz yuqori. Ikkinchidan, korxonalarning ko‘pchiligida raqamli texnologiyalarni joriy etish sust ketmoqda: 2024-yil yakunlariga ko‘ra, sohadagi korxonalarning atigi 34 foizi raqamli yechimlardan foydalanmoqda. Uchinchi muhim masala - malakali kadrlar yetishmasligi va hududlarda raqamli infratuzilmaning rivojlanmaganligi. Shuningdek, investitsion resurslarning cheklanganligi ham korxonalarni raqamli transformatsiya loyihalarini amalga oshirishda qiynalishga olib kelmoqda.

Ushbu muammolarni hal etish uchun bir qator amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, davlat siyosati darajasida raqamli transformatsiya dasturlarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish zarur: raqamli texnologiyalarni joriy etayotgan korxonalarga soliq imtiyozlari, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar berilishi kerak. Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalari qoshida “Raqamli transformatsiya markazlari”ni tashkil etib, sanoat uchun maxsus tayyorlangan mutaxassislarni tayyorlash lozim. Yana

bir muhim yo‘nalish - sanoat klasterlari asosida yagona raqamli platformani shakllantirish bo‘lib, bu ishlab chiqarishdan tortib ta’minot va sotuvgacha bo‘lgan jarayonlarni shaffof boshqarishga imkon yaratadi. Nihoyat, xalqaro tajriba asosida IoT, ERP va “digital twins” texnologiyalarini keng joriy etish orqali energiya tejamkorligini oshirish va mahsulot tannarxini pasaytirish mumkin. Bu chora-tadbirlar nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, balki qurilish materiallari sanoatining eksport salohiyati va xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini ham kuchaytiradi.

Qurilish materiallari sanoatida raqamli transformatsiya siyosatini samarali amalga oshirish nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki tannarxni kamaytirish va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, resurslardan tejamkor foydalanish va sifat nazoratini onlayn monitoring qilish imkoniyati yaratiladi. Bu esa, bir tomondan, milliy iqtisodiyotda barqarorlikni ta’minlasa, ikkinchi tomondan, eksport salohiyatini kengaytiradi.

Shuningdek, “O‘zbekiston-2030” strategiyasi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda raqamli transformatsiya asosiy tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali korxonalar energiya tejamkorligini 20-25 foizga oshirishi, ishlab chiqarish tannarxini 10-15 foizga kamaytirishi va mahsulot sifatini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Shu bilan birga, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar malakasini oshirish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish sohaning investitsion jozibadorligini kuchaytiradi.

Umuman olganda, qurilish materiallari sanoatida raqamli transformatsiya siyosatini samarali amalga oshirish milliy iqtisodiyotda innovatsion o‘sish modelini shakllantirish, hududiy rivojlanishni jadallashtirish va O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy makondagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. PF-158-son Farmon, 11.09.2023-yil, “O‘zbekiston-2030” strategiyasi.

2. PF-60-son Farmon, 28.01.2022-yil, “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”.

3. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Qurilish materiallari sanoati bo‘yicha hisobotlar (2019-2024).

4. PQ-4513-son Qaror, 26.11.2019-yil, “Qurilish materiallari sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari”.

5. VMQ-321-son Qaror, 2020-yil 6-iyun, “Qurilish materiallari sanoatini modernizatsiya qilish chora-tadbirlari”.

6. UNIDO (2023). Industrial Digitalization Trends.

7. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 28-apreldagi 265-son Qarori, “Raqamli O‘zbekiston - 2030” dasturi.

8. OECD (2022). Digital Transformation in Manufacturing Industries.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA BORASIDAGI DAVLAT SIYOSATI VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH

Karimova Iroda Abdusattarovna
Toshkent gumanitar fanlar universiteti dotsenti v.b.

Qobilov Javohir Kabil o‘g‘li
Toshkent gumanitar fanlar universiteti
iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar taraqqiyoti global miqyosda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Bu jarayon nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida, balki davlat boshqaruvi va jamoatchilik bilan o‘zaro munosabatlarda ham yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan raqamli transformatsiya — bu faqat texnologik modernizatsiya emas, balki boshqaruv, qaror qabul qilish va xizmat ko‘rsatishning sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tishi demakdir.

O‘zbekiston Respublikasi raqamli transformatsiyani davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilagan. Xususan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi orqali davlat boshqaruvining raqamlashtirilishi, iqtisodiyot tarmoqlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi, shuningdek, zamonaviy raqamli infratuzilma va ekotizimni shakllantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu strategik yondashuv raqamli suverenitetni ta'minlash, fuqarolarning davlat xizmatlariga bo‘lgan ishonchini oshirish va iqtisodiy raqobatbardoshlikni kuchaytirish maqsadlariga qaratilgan.

1. Raqamli transformatsiyaning mohiyati va ahamiyati. Raqamli transformatsiya (ing. *Digital Transformation*) — bu raqamli texnologiyalar asosida iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional tizimlarning funksional va tarkibiy jihatdan yangilanishi jarayonidir. Akademik adabiyotlarda bu atama ko‘pincha raqamli texnologiyalarni joriy qilish natijasida tashkilotlarning operatsion samaradorligi, xizmat ko‘rsatish sifati hamda foydalanuvchi tajribasini yaxshilashga yo‘naltirilgan kompleks islohotlar majmui sifatida izohlanadi [1]. Mazkur jarayon nafaqat texnik yangilanishni, balki tashkilot ichki madaniyati, menejment yondashuvlari va strategik qarorlar tizimining transformatsiyasini ham o‘z ichiga oladi. Dunyo bankining 2021-yilgi hisobotiga ko‘ra, raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirgan davlatlar o‘rtacha YaIM o‘sish sur’atini 1,5–2 foizga oshirishga erishgan [2]. Xususan, davlat sektorida raqamli transformatsiya quyidagi sohalarda sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda: Boshqaruv jarayonlarining avtomatlashtirilishi: Elektron hujjat aylanishi va onlayn xizmatlar orqali byurokratik to‘siqlar kamaymoqda; Ochiqlik va shaffoflik: Davlat xarajatlari va xizmatlarining monitoringi real vaqt rejimida olib borilishi mumkin bo‘lmoqda; Fuqarolar bilan muloqotning *soddalashuvi:* Interaktiv portallar, mobil ilovalar va sun’iy intellekt asosidagi yordamchi tizimlar davlat xizmatlarini aholiga tez va qulay yetkazmoqda [3]. Shuningdek, BMTning “E-Government Development Index” (EGDI) 2022-yilgi reytingida yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan davlatlarning umumiy xususiyati – bu raqamli transformatsiyani muvofiqlashtiruvchi yagona institutsional strategiyaning mavjudligidir. Bunda ma’lumotlarni boshqarish, infratuzilmani modernizatsiyalash va raqamli savodxonlikni rivojlantirish asosiy ustuvor yo‘nalishlar sifatida ajralib turadi [4]. O‘zbekiston sharoitida esa raqamli transformatsiya, ayniqsa, davlat xizmatlari ko‘rsatish t[8]izimida sezilarli natijalar bermoqda. 2020-yilga nisbatan 2024-yilda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida (my.gov.uz) ko‘rsatilgan xizmatlar soni 5 barobarga oshgan va ularning 87 foizi avtomatlashtirilgan holga keltirilgan. Bu esa, o‘z navbatida, inson omiliga bog‘liq xatoliklar va korrupsion xavflarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

2.Raqamli transformatsiya ekotizimini shakillantirish. Raqamli transformatsiya ekotizimi – bu davlat, xususiy sektor, fuqarolik jamiyati va ilmiy-ta'lim muassasalari o'rtasida raqamli texnologiyalar asosida shakllanadigan barqaror hamkorlik tizimidir. Ushbu ekotizimning samarali ishlashi iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish, innovatsiyalarni joriy qilish va ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilashda muhim omil sifatida qaraladi [5]. Ekotizimning asosiy komponentlari. Raqamli transformatsiya ekotizimi – bu davlat siyosati, texnologik imkoniyatlar va inson resurslari o'rtasida uzviy bog'liqlikda faoliyat yurituvchi kompleks tizimdir. Uning samarali ishlashi uchun besh asosiy komponent ajratiladi: infratuzilma, texnologik subyektlar, inson kapitali, regulyator muhit va ilmiy-ta'lim bazasi [6]. Raqamli infratuzilma – keng polosali internet, mobil aloqa texnologiyalari (4G/5G), ma'lumotlar markazlari, "bulutli hisoblash" va sun'iy intellektni qo'llab-quvvatlovchi server tizimlarini qamrab oladi. ITU (2022) ma'lumotlariga ko'ra, internetga keng polosali ulanish darajasi mamlakatning raqamli salohiyatini belgilovchi asosiy indikatorlardan biri hisoblanadi [7]. Texnologik subyektlar – innovatsion kompaniyalar, startaplar, texnoparklar va ularni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmalar raqamli o'zgarishlarning tashabbuskor kuchidir. Jahon iqtisodiy forumining hisoboti (2021)ga ko'ra, raqamli texnologiyaga yo'naltirilgan biznes ekotizimi mavjud bo'lgan mamlakatlarda IT xizmatlarining eksporti YaIMga nisbatan o'rtacha 6%ni tashkil qiladi [8]. Raqamli kadrlar – bu raqamli sohalarda ishlovchi muhandislar, dasturchilar, analitiklar va axborot xavfsizligi mutaxassislarini o'z ichiga oladi. McKinsey (2021) hisobotida qayd etilishicha, 2030-yilgacha global miqyosda 85 millionga yaqin IT-mutaxassis yetishmasligi prognoz qilinmoqda [9]. Regulyator muhit – raqamli qonunchilik, intellektual mulk himoyasi, ma'lumotlar xavfsizligi va elektron boshqaruvni tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani o'z ichiga oladi. Yaxshi tashkil etilgan regulyator muhit raqamli ekotizimning barqaror ishlashi va investitsion jozibadorligini ta'minlaydi [10]. Ilmiy-ta'lim tizimi – oliy o'quv yurtlari, ilmiy markazlar va IT-akademiyalar orqali raqamli sohalar uchun malakali kadrlar tayyorlash hamda ilmiy-innovatsion loyihalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. UNESCO (2023) hisoboti raqamli savodxonlik darajasining iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatadi [11]. O'zbekiston tajribasi. O'zbekiston Respublikasida raqamli ekotizimni shakllantirish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan: IT Park Uzbekistan: 2019-yilda tashkil etilgan, 2023-yilda rezident kompaniyalar soni 1 000 dan oshgan, eksport hajmi 344 mln AQSh dollarini tashkil etgan [12]. "One Million Uzbek Coders" loyihasi: UNDP bilan hamkorlikda 2020–2023-yillarda 2 mln ga yaqin yoshlar raqamli bilimlar bo'yicha bepul ta'lim olgan [13]. Ochiq ma'lumotlar portali (data.gov.uz): 2024-yil holatiga ko'ra 12 mingdan ortiq ma'lumotlar to'plami jamlangan bo'lib, ular innovatsion ishlanmalarda faol foydalanilmoqda. Ushbu tashabbuslar texnologik muhitni faollashtirish, raqamli xizmatlar eksportini oshirish hamda aholi raqamli savodxonligini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Xalqaro ilg'or tajriba. Estoniya tomonidan joriy etilgan X-Road tizimi orqali davlat idoralari va xususiy sektor o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi blokcheyn asosida amalga oshiriladi, natijada 99% davlat xizmatlari onlayn ko'rsatiladi [14]. Singapurda "Smart Nation" strategiyasi raqamli infratuzilma, kadrlar va fuqarolar raqamli madaniyatini uyg'unlashtirgan. 2024-yil budjetining 13,5% aynan raqamli transformatsiyaga ajratilgan [15]. Bu tajribalar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya faqat texnik masala emas, balki siyosiy iroda, resurs taqsimoti va ijtimoiy ishtirokni talab qiluvchi kompleks jarayondir. Muammolar va takliflar.

O‘zbekistonda raqamli ekotizim rivojlanishiga quyidagi omillar salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda: Texnik infratuzilmaning hududlar bo‘yicha nomutanosib rivojlanishi; IT-sohasida yetarli malakaga ega kadrlar tanqisligi; Mahalliy startaplar uchun moliyaviy qo‘llab-quvvatlovning sustligi; Ochiq ma’lumotlardan foydalanish ko‘nikmalarining yetishmasligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilar taklif etiladi: Internet va IT infratuzilmasini chekka hududlargacha kengaytirish; Startaplarni qo‘llab-quvvatlovchi grant va venchur mexanizmlarini kuchaytirish; Raqamli ta’limda amaliy ko‘nikmalarga asoslangan yondashuvni kengaytirish; Ochiq ma’lumotlar asosida innovatsion ishlanmalarni rag‘batlantirish uchun qonunchilikni soddalashtirish.

Xulosa va tavsiyalar: Raqamli transformatsiya zamonaviy davlat va jamiyat rivojining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, nafaqat davlat boshqaruvida, balki iqtisodiyot, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy sohalarda tub o‘zgarishlarni ta’minlaydi. U texnologik innovatsiyalarni joriy etish, ma’lumotlar oqimini optimallashtirish va interaktiv xizmatlar orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston raqamli transformatsiyani infratuzilma yangilanishi, kadrlarni tayyorlash va qonunchilikni takomillashtirish orqali barqaror rivojlantirmoqda. Kelgusida quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish muhim: Mahalliy va xalqaro IT-kompaniyalar bilan strategik hamkorlikni kengaytirish, innovatsiyalar va texnologik integratsiyani rivojlantirish; Har bir hududda raqamli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, hududlar o‘rtasidagi raqamli tafovutni kamaytirish; Aholining barcha toifalari, xususan yoshlar va qishloq aholisi uchun raqamli savodxonlikni oshirish dasturlarini chuqurlashtirish; Startaplar uchun moliyaviy va huquqiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, jumladan, soliq imtiyozlari va intellektual mulk himoyasi.

Raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati davlat boshqaruvi tizimining innovatsiyalarga moslashuvi, inson kapitalining rivojlanishi va yuqori sifatli texnologik infratuzilmaga bog‘liq. Ushbu omillar uyg‘unlashganda, O‘zbekiston raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishadi.

Adabiyotlar:

1. *Reis, J. et al. (2018). “Digital Transformation: A Literature Review and Guidelines for Future Research.” Advances in Intelligent Systems and Computing, Springer.*
2. *World Bank (2021). Digital Economy for Development Report. Washington, D.C*
3. *OECD (2020). Digital Government Index: 2019 Results. Paris: OECD Publishing.*
4. *United Nations (2022). E-Government Survey 2022: The Future of Digital Government. New York: UN.*
5. *Ismail, M. H., Khater, M., & Zaki, M. (2017). Digital Business Transformation and Strategy: What Do We Know So Far?. University of Cambridge, Working Paper.*
6. *OECD (2020). Digital Government Policy Framework. Paris.*
7. *ITU (2022). Measuring Digital Development. Geneva.*
8. *WEF (2021). Global Digital Competitiveness Index. Davos.*
9. *McKinsey Global Institute (2021). The Future of Work After COVID-19.*
10. *OECD (2020). Digital Government Policy Framework. Paris.*
11. *UNESCO (2023). Education in the Digital Age.*
12. *IT Park Uzbekistan (2024). Yillik hisobot.*
13. *UNDP Uzbekistan (2023). 1 Million Coders Project Report.*
14. *Government of Estonia (2023). e-Estonia Briefing.*
15. *Smart Nation Singapore (2024). Budget Allocation Overview.*

O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING DOLZARB HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Xusniddinov Yorqinjon Muxiddin o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Raqamli iqtisodiyot kafedrasi assistenti

Bugungi kunda dunyoda ta’lim sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, talabalar bilimini oshirish va ularga zamonaviy ko‘nikmalar berishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni beqiyosdir. O‘zbekiston ham global rivojlanish jarayonlaridan chetda qolmay, ta’lim tizimini raqamlashtirish bo‘yicha qator tashabbuslarni amalga oshirmoqda.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev o‘z nutqlarida ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, yoshlarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish zarurligini ta’kidlab kelmoqda. Bu borada “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi ham oliy ta’limda keng o‘zgarishlarga zamin yaratmoqda.[3] XXI asrda ta’lim sohasida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar va global raqobat jarayoni oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishni zaruriyatga aylantirmoqda. Bugungi kunda bilim, axborot va innovatsiya iqtisodiy rivojlanishning asosiy omiliga aylangan sharoitda ta’lim tizimi raqamli yechimlarsiz samarali faoliyat yurita olmaydi.[2]

Raqamli texnologiyalar oliy ta’limning quyidagi asosiy yo‘nalishlarda zarurat sifatida namoyon bo‘ladi:

Ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish. An’anaviy ta’lim shakllarida ko‘proq vaqt va resurs sarflansa, raqamli vositalar yordamida o‘quv jarayonini tezkor, qulay va moslashuvchan tashkil etish mumkin. Masalan, elektron ta’lim platformalari (LMS, Moodle va boshqalar) orqali talabalar dars materiallariga istalgan paytda va istalgan joydan kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.[4] Masofaviy ta’limni rivojlantirish. Raqamli texnologiyalar ayniqsa pandemiya sharoitida o‘zini oqladi. Onlayn ta’lim dasturlari, videokonferensiyalar va elektron imtihon tizimlari tufayli ta’lim jarayoni uzluksiz davom etdi. Bu esa raqamli ta’limning dolzarbligini yanada oshirdi.[5] Talabalarning individual o‘quv trayektoriyasini shakllantirish. Zamonaviy texnologiyalar har bir talabaga o‘z qobiliyati va qiziqishiga moslashtirilgan ta’lim olish imkonini beradi. Sun’iy intellekt yordamida o‘quv jarayonini tahlil qilish va individual tavsiyalar berish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ta’lim sifatini nazorat qilish. Elektron test tizimlari, avtomatlashtirilgan baholash platformalari va onlayn reyting jurnallari o‘quv jarayonining shaffofligini ta’minlaydi. Bu esa korrupsion omillarni kamaytirish va baholashning adolatli bo‘lishiga yordam beradi. Xalqaro integratsiya. Raqamli texnologiyalar yordamida O‘zbekiston OTMlari xalqaro ta’lim platformalari (Coursera, EdX, Udemy) bilan hamkorlik qilib, talabalarni dunyodagi ilg‘or tajribalar bilan tanishtirishi mumkin. Bu esa raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim shartidir. Shunday qilib, raqamli texnologiyalarni oliy ta’lim jarayoniga keng joriy etish nafaqat o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish, balki O‘zbekistonning jahon ta’lim maydonida o‘z o‘rnini mustahkamlash, yoshlarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlash uchun ham strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish so‘nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Prezident Sh.M. Mirziyoyev rahnamoligida qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ta’lim tizimini to‘liq raqamlashtirish, boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish va zamonaviy o‘quv jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha aniq vazifalarni belgilab berdi. [3] Bugungi kunda ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida quyidagi natijalarga erishilgan: *Learning Management System (LMS*) dasturlari keng joriy qilinmoqda. Jumladan, Moodle, Google Classroom, Canvas kabi platformalardan foydalanilmoqda. Bu tizimlar orqali talabalar dars jadvaliga, o‘quv-uslubiy materiallarga, topshiriqlarga va reyting natijalariga onlayn tarzda kira olmoqda. [5] *Elektron kutubxonalar va resurs markazlari* tashkil etildi. Hozirda ko‘plab universitetlarda elektron axborot-resurs markazlari faoliyat yuritib, talabalarga ilmiy maqolalar, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarni onlayn olish imkonini bermoqda. *Masofaviy ta’lim kurslari* yo‘lga qo‘yilgan. Pandemiya davridan boshlab barcha universitetlar onlayn dars o‘tkazishga majbur bo‘ldi va bu jarayon keyingi yillarda ham qo‘llab-quvvatlanmoqda. Jumladan, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va Samarqand davlat universitetida masofaviy ta’limning to‘laqonli tizimi ishlab chiqilgan. *Onlayn imtihon tizimlari va elektron reyting jurnallari* yo‘lga qo‘yilgan. Bu tizimlar nafaqat shaffoflikni ta’minlamoqda, balki talabalarning bilimini tezkor va samarali baholash imkonini bermoqda. Shu orqali korrupsion xavflarni kamaytirish va ta’lim sifatini oshirishga erishilmoqda.[1] *Ta’lim jarayonida multimedia va interaktiv texnologiyalar* keng qo‘llanmoqda. Zamonaviy auditoriyalar interaktiv doskalar, videoproektorlar, virtual laboratoriyalar bilan jihozlanmoqda. Bu esa talabalarning darslarga qiziqishini oshirmoqda va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, davlat tomonidan xalqaro hamkorlikka alohida e’tibor qaratilmoqda. Hozirgi vaqtda ko‘plab OTMlar xorijiy universitetlar bilan qo‘shma dasturlarni yo‘lga qo‘yib, onlayn o‘quv kurslarini ham joriy etmoqda. Masalan, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti va boshqa xorijiy filiallarda to‘liq raqamli o‘quv platformalari faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish so‘nggi yillarda bir qator sezilarli natijalar va yutuqlarni taqdim etdi. Bu jarayon ta’limning sifat va samaradorligini oshirish bilan birga, xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini ham kengaytirdi.

Asosiy yutuqlar: Ta’lim jarayonining qulaylashuvi. Elektron darsliklar, onlayn platformalar va masofaviy ta’lim tizimlari talabalarga dars materiallarini tezkor va oson o‘zlashtirish imkonini bermoqda. Bu esa an’anaviy ta’limdagi vaqt va makon cheklovlarini bartaraf etdi. Masofaviy ta’lim imkoniyatlarining kengayishi. Pandemiya davrida masofaviy ta’lim tizimlari o‘z samarasini ko‘rsatdi. Hozirda ham aksariyat universitetlarda onlayn kurslar, vebinarlar va virtual laboratoriyalar muntazam qo‘llanmoqda.

O‘qituvchilarning malakasi oshmoqda. Ko‘plab professor-o‘qituvchilar raqamli texnologiyalar bo‘yicha maxsus kurslarda qatnashmoqda. Bu esa ularning metodik salohiyatini oshirib, darslarni interaktiv shaklda olib borishiga yordam bermoqda. Shaffoflik va adolatning ta’minlanishi. Elektron baholash tizimlari va onlayn reyting jurnallari korrupsion omillarni kamaytirib, talabalar bilimini xolis baholash imkonini berdi. Xalqaro integratsiya. Raqamli texnologiyalar tufayli O‘zbekiston talabalari Coursera, EdX, Udemy kabi xalqaro ta’lim platformalari orqali dunyo miqyosida e’tirof

etilgan kurslarni o‘qimoqda. Shu bilan birga, ko‘plab xorijiy universitetlar bilan qo‘shma dasturlar yo‘lga qo‘yildi.

Kelgusidagi imkoniyatlar: Sun’iy intellekt (AI) asosida ta’lim tizimini takomillashtirish. Talabalar bilimini avtomatik tahlil qilish va individual tavsiyalar berish imkoniyati paydo bo‘lmoqda. Virtual va qo‘shimcha reallik (VR/AR) texnologiyalaridan foydalanish. Muhandislik, tibbiyot va texnika sohalarida laboratoriya mashg‘ulotlarini virtual muhitda tashkil etish orqali amaliy ko‘nikmalarni chuqurlashtirish mumkin. Elektron diplom va sertifikatlar joriy etilishi. Bu tizim ta’lim natijalarining xalqaro maydonda tan olinishi va shaffofligini ta’minlaydi. Xalqaro hamkorlikning yanada kengayishi. Global onlayn dasturlar bilan integratsiya qilish orqali talabalar chet el universitetlari ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish sezilarli yutuqlarga olib kelgan bo‘lsa-da, ushbu jarayonda qator muammolar va kamchiliklar ham mavjud. Ularni bartaraf etish ta’lim tizimini yanada takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Asosiy muammolar: *Texnik infratuzilmaning yetarli emasligi.* Hozirda barcha oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari, serverlar va yuqori tezlikdagi internet bilan ta’minlash to‘liq amalga oshmagan.

Ayrim hududiy universitetlarda texnik jihozlarning eskiligi va kamligi dars jarayonini to‘laqonli raqamlashtirishga to‘sqinlik qilmoqda.[3] *Internet tezligi va qamrovining pastligi.* Respublikada internet tarmog‘i kengayib borayotgan bo‘lsa-da, barcha hududlarda uning tezligi yetarli emas. Bu masofaviy ta’lim kurslari, videokonferensiyalar va onlayn imtihonlarni samarali tashkil qilishda qiyinchilik tug‘dirmoqda. *Professor-o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi turlicha.* Ba’zi pedagoglar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yuqori darajada foydalana olsalar, boshqalarida bu boradagi ko‘nikmalar yetarli emas. Natijada, darslarning samaradorligi bir xil darajada ta’minlanmayapti. *Talabalar orasida raqamli savodxonlik darajasining turlicha bo‘lishi.* Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish faqat o‘qituvchilarga emas, balki talabalar ko‘nikmalariga ham bog‘liq.

Ayrim talabalar elektron platformalardan faol foydalansa, boshqalarida bu borada qiyinchiliklar kuzatilmoqda. *Elektron resurslarning yetarli emasligi.* Hozirda ko‘plab universitetlarda elektron kutubxonalar mavjud bo‘lsa-da, ularning mazmuni va hajmi talab darajasida emas. Zamonaviy o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar va ilmiy manbalarning katta qismi hali to‘liq elektron shaklga o‘tkazilmagan. *Huquqiy va tashkiliy muammolar.* Raqamli texnologiyalarni joriy etishda normativ-huquqiy hujjatlar va standartlarning to‘liq shakllanmaganligi ham sezilarli kamchiliklardan biridir. Bu ayrim universitetlarda jarayonlarni turlicha tashkil etilishiga olib kelmoqda.

Muammolarni bartaraf etish bo‘yicha yo‘nalishlar: ta’lim muassasalarini zamonaviy texnik vositalar va yuqori tezlikdagi internet bilan ta’minlash,o‘qituvchilar uchun muntazam ravishda raqamli kompetensiyalar bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish. talabalarda raqamli savodxonlikni oshirish uchun maxsus fanlar va qo‘shimcha o‘quv dasturlarini joriy etish, elektron kutubxonalarni xalqaro ta’lim bazalari bilan integratsiya qilish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va yagona standartlarni ishlab chiqish.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni izchil rivojlanib bormoqda va kelajakda bu yo‘nalishda yanada keng imkoniyatlar ochilishi

kutilmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida oliy ta’lim muassasalarini to‘liq raqamlashtirish, xalqaro ta’lim standartlariga moslashtirish va zamonaviy ta’lim muhitini yaratish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Asosiy istiqbollar: *Sun’iy intellekt (AI) asosida ta’lim tizimini boshqarish.* Kelgusida ta’lim jarayonini avtomatlashtirishda sun’iy intellekt texnologiyalari muhim o‘rin tutadi. AI yordamida talabalar bilimini tahlil qilish, individual o‘quv rejalari tuzish va baholash jarayonlarini adolatli tashkil etish imkoniyati kengayadi. *Virtual va qo‘shimcha reallik (VR/AR) texnologiyalarini joriy etish.* Muhandislik, tibbiyot va texnika yo‘nalishlarida VR/AR laboratoriyalaridan foydalanish talabalar uchun real tajribaga yaqin sharoit yaratadi. Bu esa amaliy bilimlarni mustahkamlashda katta rol o‘ynaydi.

Blokcheyn texnologiyalari asosida hujjatlarni boshqarish. Elektron diplom va sertifikatlarni blokcheyn tizimi orqali berish kelajakda ta’lim natijalarining xalqaro miqyosda tan olinishini ta’minlaydi. Shu orqali soxtalashtirishning oldi olinadi va shaffoflik darajasi oshadi. Elektron kutubxonalarni kengaytirish. *Kelajakda elektron axborot-resurs markazlari xalqaro ilmiy bazalar (Scopus, Web of Science, JSTOR) bilan integratsiya qilinib, talabalarga va tadqiqotchilarga global bilim manbalaridan foydalanish imkonini beradi.* Xalqaro onlayn ta’lim dasturlariga integratsiya. O‘zbekiston OTMlari Coursera, EdX, Udemy kabi platformalar bilan hamkorlikni kengaytirishi natijasida talabalar global darajadagi mutaxassislar tomonidan o‘qitiladigan kurslarda qatnashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. [4] Raqamli ta’lim infratuzilmasini takomillashtirish. Yaqin yillarda barcha oliy ta’lim muassasalari yuqori tezlikdagi internet, zamonaviy kompyuter texnikasi va interaktiv jihozlar bilan ta’minlanishi ko‘zda tutilgan. Bu esa raqamli transformatsiya jarayonini jadallashtiradi.

Umumiy istiqboliy natijalar:

Raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida:

- ta’lim sifati oshadi va xalqaro standartlarga moslashadi;
- talabalarda zamonaviy raqamli ko‘nikmalar shakllanadi;
- ta’limning ochiqligi va shaffofligi ta’minlanadi;
- O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bois, raqamli transformatsiya O‘zbekiston oliy ta’limi uchun nafaqat texnologik yangilik, balki global bilim makonida o‘z o‘rnini mustahkamlashning eng muhim omili hisoblanadi.

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish bugungi kunda ta’lim sifatini oshirish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish va xalqaro ta’lim makoniga integratsiya qilishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Raqamli ta’lim jarayonlari orqali ta’limning samaradorligi, ochiqligi va shaffofligi ta’minlanmoqda. Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, respublikamiz oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etishda sezilarli yutuqlar mavjud bo‘lsa-da, mavjud muammolar va kamchiliklar ham hali to‘liq bartaraf etilgani yo‘q. Jumladan, texnik infratuzilmaning to‘liq yangilanmaganligi, internet tezligining yetarli emasligi, professor-o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi turlicha darajada ekanligi kabi omillar raqamli transformatsiya jarayonlarini sekinlashtirmoqda. Shunga qaramay, mamlakatda qabul qilingan islohotlar, xususan,

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni chuqur joriy etish istiqbollarini belgilab bermoqda. Kelgusida sun’iy intellekt, blokcheyn, VR/AR kabi ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’lim samaradorligini yanada oshirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va global

ta’lim standartlariga moslashish imkoniyatlari mavjud. Demak, raqamli transformatsiya O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, raqamli savodxonlikka ega, global raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda hal qiluvchi omil bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. *Karimov B., Jo‘rayev A. (2022).* Oliy ta’limda raqamli transformatsiya*. Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.*
2. *Mirziyoyev Sh.M. (2021).* Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. Toshkent.*
3. *“Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi. (2020). Toshkent.*
4. *Coursera, EdX, Moodle. (2021). Xalqaro elektron ta’lim platformalari bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar.*
5. *O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. (2022).* Ta’limni raqamlashtirish bo‘yicha rasmiy materiallar*. Toshkent.*

RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI VA UNING KAPITAL BOZORIGA TA’SIRI

Omonov Sardor O‘lmasovich
TDIU mustaqil izlanuvchi (DSc), PhD

Raqamli transformatsiya zamonaviy texnologiyalar asosida iqtisodiy, ijtimoiy va boshqaruv jarayonlarini yangicha shaklda tashkil etishdan iborat bo‘lib, u samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va tezkor qaror qabul qilish imkonini yaratadi. Bu jarayon oddiy avtomatlashtirishdan farq qiladi, chunki u mavjud jarayonlarni qayta ko‘rib chiqib, ularga innovatsion yondashuv kiritadi va natijada yangicha biznes-modellarni shakllantiradi. Raqamli transformatsiya ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va tahlil qilishni kengaytirib, boshqaruv qarorlarining aniq va asosli bo‘lishini ta’minlaydi. Bu holat, o‘z navbatida, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi va tizimlarning ishonchliligini oshiradi.

Sun’iy intellekt va bulutli texnologiyalar kabi yechimlar jarayonlarni tezkor va samarali tashkil etishga xizmat qiladi hamda korxonalar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqadi. Raqamli transformatsiya nafaqat resurslarni tejashni, balki iste’molchilar uchun qulay xizmatlar ko‘rsatishni ham ta’minlaydi, chunki u mahsulot va xizmatlarni shaxsiylashtirish imkonini beradi. Shu orqali mijoz ehtiyojlari to‘liq qondiriladi va bozorning raqobatbardoshligi kuchayadi. Davlat boshqaruvida esa raqamli transformatsiya ochiqlik va shaffoflikni ta’minlab, korrupsiyani kamaytirish hamda fuqarolarga tezkor xizmat ko‘rsatish imkonini yaratadi.

Elektron hukumat va onlayn xizmatlar aholining davlat bilan munosabatlarini qulay va ishonchli qiladi. Ta’lim tizimida esa masofaviy o‘qitish va onlayn platformalar bilim olish jarayonini ommabop qilib, imkoniyatlarni kengaytiradi. Sog‘liqni saqlash sohasida telemeditsina va elektron kartalar joriy etilishi xizmat sifati va aholiga ko‘rsatiladigan tibbiy yordam darajasini oshiradi. Moliyaviy tizimda tezkor to‘lovlar, fintech yechimlari va elektron bank xizmatlari iqtisodiy jarayonlarni yengillashtiradi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya startaplar va innovatsion loyihalarning rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratadi. Ijtimoiy sohada raqamli imkoniyatlar odamlarning turmush tarzini osonlashtirib, hayot sifatini yaxshilaydi.

Raqamli transformatsiyaning iqtisodiyotdagi roli bugungi kunda tobora ortib borayotgan global raqobat sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u barcha sohalarda samaradorlikni oshirish va yangi imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

Avvalo, raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirib, mehnat unumdorligini keskin oshiradi. Bu holat ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib, mahsulot va xizmatlar narxining raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlaydi.

Katta ma’lumotlar va sun’iy intellekt asosida amalga oshiriladigan tahlillar iqtisodiy qarorlarni aniqroq va asosliroq qabul qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya resurslardan oqilona foydalanishga va isrofgarchilikni kamaytirishga imkon yaratadi. Elektron savdo platformalari va onlayn to‘lov tizimlari iqtisodiyotning moliyaviy oqimlarini tezlashtiradi hamda aholiga qo‘shimcha qulayliklar beradi. Raqamli texnologiyalar natijasida tadbirkorlik muhitida yangi imkoniyatlar paydo bo‘ladi va startap loyihalarining rivojlanishi tezlashadi. Bu esa kichik va o‘rta biznesning iqtisodiy faolligini oshirib, iqtisodiyotda raqobatni kuchaytiradi.

Raqamli transformatsiyaning iqtisodiyotdagi yana bir roli bu shaffoflikni kuchaytirish va korrupsiya xavfini kamaytirishdir. Elektron hujjat aylanishi va ochiq ma’lumotlar bazalari davlat xarajatlari ustidan samarali nazoratni ta’minlaydi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar mehnat bozorida yangi kasblar va malakalar paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu esa inson kapitalining sifatini oshiradi va bandlik darajasini qo‘llab-quvvatlaydi. Raqamli transformatsiya xalqaro integratsiya jarayonini ham jadallashtiradi, chunki transchegaraviy bitimlar tez va xavfsiz amalga oshiriladi. Shu orqali xorijiy investitsiyalar hajmi ko‘payadi va iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli infratuzilmaning rivojlanishi transport, energetika va xizmat ko‘rsatish sohalarida samaradorlikni oshiradi. Natijada iqtisodiyotning barcha tarmoqlari o‘zaro bog‘liq bo‘lgan raqamli ekotizim asosida rivojlanadi. Raqamli transformatsiya moliyaviy xizmatlarning ommabop bo‘lishini ta’minlab, aholining keng qatlamini iqtisodiy faoliyatga jalb etadi. Bu esa iqtisodiy inklyuziya darajasini oshiradi va ijtimoiy tenglikni mustahkamlaydi.

O‘zbekistonda kapital bozorida raqamli transformatsiya jarayonlari bosqichma-bosqich rivojlanayotgan bo‘lsa-da, uni samarali amalga oshirishda turli cheklovlar va muammolar mavjud. Avvalo, elektron savdo tizimlarining to‘liq joriy etilmaganligi investorlar uchun bitimlarni tezkor va xavfsiz amalga oshirish imkoniyatlarini cheklab qo‘ymoqda. Bozor mexanizmlariga blokcheyn texnologiyasini keng tatbiq etish masalasi ham sekin kechayotgani sababli hisob-kitoblarning shaffofligi yetarli darajada ta’minlanmayapti.

Elektron hujjat aylanishi va ro‘yxatdan o‘tish tizimlaridagi byurokratik to‘siqlar kapital bozoriga kirishni murakkablashtiradi. Shu bois kichik va o‘rta biznes vakillari investitsion resurslardan to‘liq foydalana olmayapti. Raqamli infratuzilmaning zaifligi, xususan, internet qamrovi va tezligining pastligi ham bozor samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Investorlarga taqdim etilayotgan ma’lumotlarning shaffofligi yetarli emasligi qaror qabul qilish jarayonini sekinlashtiradi [1].

Regulyatorlar faoliyatida real vaqt rejimida monitoring tizimlarining cheklanganligi qonunbuzarliklarni erta aniqlash imkoniyatini kamaytiradi.

Raqamli transformatsiyaning kapital bozoriga ta’siri birinchi navbatda axborot oqimlarini tezlashtirish va investorlarga ma’lumotlarning shaffofligini ta’minlash orqali namoyon bo‘ladi. Bu jarayon kapital bozori ishtirokchilari o‘rtasida raqobatni kuchaytirib, yangi investitsion imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Elektron savdo platformalarining joriy etilishi bitimlarning tezkorligini oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi. Shu orqali bozor likvidligi kuchayadi va investorlar uchun qo‘shimcha

qulayliklar yaratiladi. Blokcheyn texnologiyasining joriy etilishi kapital bozorida hisob-kitoblarning ishonchliligini oshiradi va firibgarlik xavfini kamaytiradi.

Sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan algoritmlar investitsion qarorlarni qabul qilishda yangi tahliliy imkoniyatlar yaratadi. Bu esa risklarni samarali boshqarish va rentabellikni oshirishga xizmat qiladi. Raqamli transformatsiya chet el investorlarini jalb qilish uchun qulay muhit yaratib, kapital oqimini ko'paytiradi. Onlayn ro'yxatdan o'tish tizimlari va elektron hujjat aylanishi kapital bozoriga kirishni soddalashtiradi. Shu sababli kichik va o'rta korxonalar ham kapital bozoriga jalb qilinib, moliyalashtirish imkoniyatlariga ega bo'ladi (1-jadval).

Raqamli transformatsiya kapital bozorida regulyatorlar faoliyatini ham kuchaytiradi, chunki ular real vaqt rejimida ma'lumotlarni kuzatish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa tartibga solish mexanizmlarini samarali qiladi va bozor ishonchliligini oshiradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar kapital bozorida kiberxavfsizlik masalalarini dolzarb qilib qo'yadi. Investorlarning huquqlarini himoya qilish uchun yangi xavfsizlik standartlari ishlab chiqiladi.

1-jadval

Raqamli transformatsiyaning kapital bozoriga ta'sir etish yo'nalishlari [2]

№	Yo'nalishlar	Mazmuni	Erishiladigan natijalar
1.	Axborot shaffofligi	Investorlarga real vaqt rejimida to'liq ma'lumot taqdim etiladi	Qaror qabul qilish tezlashadi, bozorga ishonch kuchayadi
2.	Elektron savdo platformalari	Bitimlarni onlayn amalga oshirish imkoniyati	Xarajatlar kamayadi, likvidlik ortadi
3.	Blokcheyn texnologiyasi	Hisob-kitoblarning aniq va ishonchli yuritilishi	Firibgarlik xavfi pasayadi, ishonchlilik ortadi
4.	Sun'iy intellekt va algoritmlar	Investitsion qarorlarni tahliliy dasturlar asosida qabul qilish	Risklar samarali boshqariladi, rentabellik oshadi
5.	Investorlar uchun kirish imkoniyati	Onlayn ro'yxatdan o'tish va elektron hujjatlar tizimi joriy qilinadi	Kichik va o'rta korxonalar ham kapital bozoriga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi
6.	Regulyatorlar faoliyati	Real vaqt rejimida nazorat mexanizmlari yo'lga qo'yiladi	Tartibga solish samaradorligi oshadi, qonunbuzarliklar tezda aniqlanadi
7.	Xalqaro integratsiya	Transchegaraviy bitimlar raqamli yechimlar orqali amalga oshiriladi	Global investorlar ishtiroki ortadi, kapital oqimi kengayadi
8.	Kiberxavfsizlik	Raqamli tizimlar xavfsizligini ta'minlash uchun yangi standartlar ishlab chiqiladi	Investorlar huquqlari himoyalanadi, bozor ishonchliligi mustahkamlanadi

Kapital bozorining xalqaro integratsiyasi ham raqamli transformatsiya ta'sirida jadallashadi, chunki transchegaraviy bitimlar soddalashtiriladi. Kapital bozorida raqamli transformatsiya zamonaviy texnologiyalar asosida moliyaviy instrumentlar, savdo jarayonlari va tartibga solish mexanizmlarini yangilashni anglatadi, chunki u bozor samaradorligini oshirish va ishtirokchilar imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu jarayon elektron savdo platformalarining joriy etilishi bilan boshlanib, bitimlarning tezkor va shaffof amalga oshirilishini ta'minlaydi. Natijada, investorlar o'rtasida raqobat kuchayadi va bozor likvidligi sezilarli darajada oshadi. Blokcheyn texnologiyasining qo'llanilishi hisob-kitoblarni aniq yuritish va firibgarlik xavfini kamaytirishda muhim vositaga aylanadi. Shuningdek, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili investitsion qarorlarni yanada asosli qabul qilish imkonini beradi. Bunday yondashuv risklarni kamaytirib, kapital oqimlarining samarali taqsimlanishini

ta’minlaydi. Elektron ro‘yxatdan o‘tish tizimlari va onlayn hujjat aylanishi kapital bozoriga kirishdagi to‘siqlarni kamaytiradi. Shu sababli, kichik va o‘rta korxonalar ham moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo‘lib, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Raqamli texnologiyalar regulyatorlar faoliyatida ham yangi bosqichni boshlab beradi, chunki ular real vaqt rejimida bitimlarni nazorat qila oladi. Bu esa qonunbuzarliklarni tezda aniqlash va bozor ishonchliligini mustahkamlash imkonini beradi. Raqamli muhit kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirishni talab etadi. Investorlarga ishonch beruvchi xavfsizlik standartlarining joriy etilishi bozor barqarorligini ta’minlaydi. Global integratsiya nuqtai nazaridan qaralganda raqamli transformatsiya transchegaraviy bitimlarni soddalashtirib, xorijiy kapital oqimini oshiradi. Bu holat milliy kapital bozorining jahon moliya tizimi bilan integratsiyasini tezlashtiradi.

Yuqoridagilar asosida qayd etish lozimki, raqamli transformatsiyaning kapital bozoriga ijobiy ta’siridan kelib chiqqan holda milliy kapital bozorini rivojlantirishda, aynan, raqamli transformatsiya masalalariga alohida e’tibor qaratish zarur.

Adabiyotlar:

1. https://infocom.uz/news/raqamli-transformatsiya-statistikasi
2. Ko‘chmuradov Z.R. Bank sektorini raqamli transformatsiyalashning nazariy asoslari. // “Moliya tizimini raqamli texnologiyalar yordamida transformatsiya qilish: muammolar va yechimlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tezislari to‘plami. Toshkent: Moliya, 2023. 312 b.

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA TECHNOLOGIES IN STATE GOVERNANCE: UZBEKISTAN’S EXPERIENCE

Uktamov Madadjon Uktam oglu
Teacher of the Department of Mathematics and Information Technology in Education of Shakhrisabz State Pedagogical Institute
Abdurakhmanova Nozima
Shahrisabz State Pedagogical Institute Student of Mathematics

The twenty-first century has marked the beginning of an era where data is often considered the “new oil” of the global economy. In this context, Artificial Intelligence (AI) and Big Data analytics have become the core components of digital transformation, especially in the sphere of state governance. Governments worldwide are shifting from intuition-based to data-driven decision-making models. This paradigm shift ensures that public policies are more efficient, responsive, and citizen-centered. In Uzbekistan, the process of digital transformation has accelerated significantly since the launch of the “Digital Uzbekistan – 2030” Strategy, which prioritizes AI integration across various sectors, including public services, healthcare, education, and justice. According to the Ministry of Digital Technologies, over 60 pilot projects utilizing AI and data analytics are currently underway, ranging from predictive analytics in agriculture to smart monitoring systems in public safety. Such initiatives signify the government’s commitment to evidence-based governance and innovation.

AI contributes to public service optimization by analyzing citizen feedback, service usage patterns, and demographic data. For instance, machine learning algorithms can identify inefficiencies in administrative workflows or predict demand for certain social services, allowing the government to reallocate resources more effectively. Through

data clustering and pattern recognition, AI also helps personalize public services, reducing bureaucratic delays and enhancing user satisfaction. In the realm of decision-making, AI and Big Data have introduced predictive modeling, enabling policymakers to simulate the potential impacts of new laws or reforms before their implementation. For example, in fiscal management, data-driven simulations can estimate how tax changes might affect small businesses or employment rates. Similarly, AI-based risk assessment tools are used to detect anomalies in budget allocations or procurement contracts, reducing the likelihood of corruption and financial misuse. According to IBM and the OECD (2024), governments utilizing AI-driven financial monitoring tools report up to 30% higher accuracy in resource allocation and fraud detection.[1]

One of the most promising aspects of AI integration in governance is transparency and accountability. Automated auditing systems powered by AI can monitor government transactions in real time, flag irregularities, and enhance compliance with ethical standards. In public procurement, AI-driven analytics identify suspicious bidding patterns or inflated pricing, which helps to minimize corruption risks. Such transparency measures not only strengthen citizens' trust in government but also attract foreign investment by promoting an open and predictable regulatory environment. However, the adoption of AI and Big Data in governance also presents several ethical and legal challenges. The first and most critical issue is data privacy and cybersecurity. As governments collect enormous amounts of personal and behavioral data, safeguarding it from misuse, hacking, or unauthorized surveillance becomes imperative. Secondly, algorithmic bias — where AI models unintentionally reproduce human prejudices embedded in data — can lead to unfair or discriminatory decisions, particularly in welfare distribution or judicial analytics. The issue of accountability also arises: when an AI system makes an erroneous decision, determining human responsibility remains legally ambiguous. Moreover, many developing nations, including Uzbekistan, still lack comprehensive regulatory frameworks for AI governance and ethical data usage.

Uzbekistan's legal system is currently in the process of addressing these gaps. The government has established the Center for Artificial Intelligence Development under the Ministry of Digital Technologies to create national AI standards and ethics codes. Additionally, universities and research institutions are expanding programs in data science and AI engineering to ensure a sustainable talent pipeline. These measures are vital for building national expertise and reducing dependence on foreign technology providers. Looking at international practices, countries like Singapore, Estonia, and South Korea have successfully embedded AI and Big Data into their public management ecosystems. They provide valuable models for Uzbekistan. For example, Estonia's "e-Governance" platform integrates AI for citizen verification and automated decision-making, while Singapore's "Smart Nation" initiative uses data analytics to optimize traffic systems and environmental management.[2] Learning from these examples, Uzbekistan can adopt a phased approach: first by implementing AI in limited pilot areas such as public safety and social services, then gradually expanding to complex policy domains like taxation, education, and justice.

In conclusion, Artificial Intelligence and Big Data represent the future of state governance — a future defined by precision, accountability, and efficiency. Their integration into Uzbekistan's administrative system has the potential to revolutionize how public services are delivered and how citizens interact with the state. Nonetheless,

technology alone is not enough; success depends on establishing a strong legal foundation, ethical oversight, cybersecurity protection, and human capital development. Only through this holistic approach can Uzbekistan build a truly intelligent and transparent government that serves its people efficiently in the digital age.

Literature:

1. OECD (2021). *The State of Implementation of the OECD AI Principles: Insights from National AI Policies.* Paris: OECD Publishing.
2. United Nations (2022). *E-Government Survey 2022: The Future of Digital Government.* New York: United Nations Department of Economic and Social Affairs.
3. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2017). *Machine, Platform, Crowd: Harnessing Our Digital Future.* W.W. Norton & Company.
4. Davenport, T. H., & Ronanki, R. (2018). *Artificial Intelligence for the Real World.* Harvard Business Review, January–February 2018 Issue.
5. Manyika, J., Chui, M., Bughin, J., Dobbs, R., Bisson, P., & Marrs, A. (2016). *Big Data: The Next Frontier for Innovation, Competition, and Productivity.* McKinsey Global Institute.
6. European Commission (2023). *Artificial Intelligence Act: A European Approach to Excellence and Trust.* Brussels: European Union Publications Office.
7. Kitchin, R. (2021). *The Data Revolution: Big Data, Open Data, Data Infrastructures and Their Consequences.* Sage Publications.
8. Mikhaylov, S. J., Esteve, M., & Campion, A. (2018). *Artificial Intelligence for the Public Sector: Opportunities and Challenges.* Government Information Quarterly, 35(4), 485–490.
9. IBM (2022). *AI and Big Data in Governance: Building Trust and Transparency.* IBM Research White Paper.
10. World Bank (2020). *Digital Government Readiness Assessment.* Washington D.C.: The World Bank Group.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOQLARINING MINTAQAVIY MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

Ismoilov Alisher Jobir o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

So‘nggi o‘n yilliklarda raqamli transformatsiya global iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveriga aylangan bo‘lib, u nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini, balki mehnat bozori strukturasi va sifatini ham tubdan o‘zgartirmoqda [1]. Xalqaro mehnat tashkilotining so‘nggi hisobotlarida ta’kidlanishicha, qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonlari yuqori malakali ishchi kuchiga talabni oshirib, past malakali qo‘l mehnatiga ehtiyojni kamaytirib bormoqda [2]. Xuddi shuningdek, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti qishloq xo‘jaligida “aqlli texnologiyalar”ning kengayishi bandlik sifatini yaxshilab, hududiy nomutanosibliklarni yumshatishda muhim vosita bo‘lishini qayd etmoqda [3].

Jahon banki mutaxassislari esa raqamli agrotexnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy natijalariga alohida e’tibor qaratib, mehnat unumdorligi va qo‘shimcha qiymat yaratishda ularning samarasi yuqori ekanligini ta’kidlashadi [4]. Ayniqsa, aqlli dehqonchilik, agro-IoT, raqamli xaritalash va big data asosidagi monitoring tizimlari orqali ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa mintaqaviy mehnat bozorida yangi mutaxassisliklarning shakllanishiga, bilim va malaka talablarining keskin o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda [5].

O‘zbekiston sharoitida ham raqamli transformatsiya jarayonlari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. 2020-yilda qabul qilingan PF–6079-son Farmon bilan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi tasdiqlanib, unda iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda, jumladan, qishloq xo‘jaligida zamonaviy raqamli platformalarni joriy qilish belgilandi [6]. Shuningdek, 2023-yil 2-avgustdagi PQ–257-son Qarorda agrar sohaga ilg‘or raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, mehnat unumdorligini oshirish va resurslardan samarali foydalanish mexanizmlari ko‘zda tutilgan [7]. Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-apreldagi 180-son Qarori asosida “Agroservis operator” davlat unitar korxonasi tashkil etilib, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida xizmatlar bozorini shakllantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va agroxizmatlarni raqamlashtirish jarayoniga turtki berildi [8].

Xalqaro miqyosda Yevropa Ittifoqining “Digital Europe” dasturi, AQShning “Smart Agriculture” loyihalari va Janubiy Koreyaning “Green Digital Transformation” tashabbuslari qishloq xo‘jaligi va mehnat bozorida innovatsion model sifatida qaralmoqda [9][10]. Ularning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqamli infratuzilmani rivojlantirish orqali nafaqat agrar ishlab chiqarish samaradorligi oshiriladi, balki hududiy bandlik tarkibi ham diversifikatsiyalanadi, yoshlar va ayollar uchun yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

Raqamli transformatsiya jarayonlari O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida mehnat bozorini tubdan qayta shakllantirmoqda.

2015–2024-yillar davomida Namangan viloyatida qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida bandlik dinamikasi ko‘rsatilgan. Unda dehqonchilik, chorvachilik, bog‘dorchilik, xizmat va qayta ishlash yo‘nalishlari hamda tashqi mehnat migratsiyasi oqimlari bo‘yicha o‘zgarishlar aks ettirilgan bo‘lib, hudud mehnat bozorining strukturaviy tarkibi va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval.

Namangan viloyatida qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida bandlik ko‘rsatkichlari

Yil	Umumiy bandlar soni	Dehqonchilik	Chorvachilik	Bog‘dorchilik	Xizmat va qayta ishlash	Migratsiya oqimi (ming kishi)
2015	432,1	210,5	115,3	61,7	44,6	12,4
2016	439,8	214,1	116,9	62,8	45,9	12,8
2017	446,2	217,3	118,4	64,2	46,3	13,0
2018	452,5	220,9	119,1	65,8	46,7	13,4
2019	460,7	225,4	121,0	66,3	48,0	13,6
2020	465,9	227,1	122,3	67,9	48,6	14,1
2021	471,3	229,5	124,0	69,2	48,6	14,8
2022	478,4	232,0	125,8	70,7	49,9	15,2
2023	486,6	236,2	127,4	71,9	51,1	15,5
2024	495,2	239,4	129,2	73,5	53,1	16,0

Manba: *Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari*

Namangan viloyatida 2015–2024-yillar davomida qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida bandlikning umumiy hajmi muntazam oshib borgan. 2015-yilda 432,1 ming kishi mehnat bilan band bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 495,2 ming kishiga yetgan. Ushbu davrda bandlikning 14,6 foizga ko‘tarilishi agrar sohaning hudud iqtisodiyotidagi barqaror o‘rnini ko‘rsatadi. Eng katta ulush dehqonchilik tarmog‘iga to‘g‘ri kelib, o‘n yillikda bandlar soni qariyb 29 ming kishiga ortgan.

Chorvachilik va bog‘dorchilik tarmoqlarida ham asta-sekinlik bilan, lekin barqaror o‘sish kuzatilmoqda. Bu jarayon qishloq xo‘jaligida diversifikatsiya kuchayib borayotganini bildiradi, ya’ni an’anaviy ekin yetishtirish bilan bir qatorda bog‘dorchilik, chorvachilik va qayta ishlash yo‘nalishlari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bundan tashqari, jadvalda ko‘rsatilganidek, xizmat va qayta ishlash yo‘nalishida bandlik sonining 8,5 ming kishiga ko‘payishi qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida qo‘shimcha qiymat zanjirini kengaytirish imkonini bergan. Bu o‘zgarishlar raqamli transformatsiya va texnologik yangilanishlarning bosqichma-bosqich joriy etilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, yangi texnika va agroxizmatlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, tashqi mehnat migratsiyasi hajmining 2015-yildagi 12,4 ming kishidan 2024-yilda 16 ming kishiga ortishi agrar tarmoqdagi o‘sishga qaramay, ichki mehnat bozori imkoniyatlari hanuz yetarli emasligini ko‘rsatadi. Bu esa hududlarda yangi va yuqori samarali ish o‘rinlari yaratishni jadallashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

2-jadval.

Namangan viloyatida qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida mehnat unumdorligi va yalpi qo‘shilgan qiymat ulushi

Yil	Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti (mlrd so‘m)	Bandlik (ming kishi)	Mehnat unumdorligi (mln so‘m/kishi)	Yalpi qo‘shilgan qiymat ulushi (%)
2015	15 240	432,1	35,3	25,1
2016	16 810	439,8	38,2	25,6
2017	18 560	446,2	41,6	25,8
2018	20 430	452,5	45,2	26,3
2019	22 950	460,7	49,8	26,9
2020	25 120	465,9	53,9	27,2
2021	28 340	471,3	60,1	27,8
2022	32 510	478,4	67,9	28,5
2023	37 480	486,6	77,0	29,1
2024	42 650	495,2	86,1	29,9

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi hamda qishloq xo‘jaligi boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2015–2024-yillar mobaynida Namangan viloyatida qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti qariyb uch baravarga oshib, 15,24 trillion so‘mdan 42,65 trillion so‘mga yetgan. Bu jarayon agrar sektorning iqtisodiy salohiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Bandlik hajmining nisbatan barqaror o‘sishi fonida mehnat unumdorligi keskin oshgan: 2015-yildagi 35,3 million so‘mdan 2024-yilda 86,1 million so‘mgacha, ya’ni 2,4 baravardan ko‘proqqa ko‘tarilgan. Ushbu o‘sish qishloq xo‘jaligida texnologik yangilanishlar, raqamli agroservis tizimlarining joriy etilishi va zamonaviy ishlab chiqarish uslublarining keng qo‘llanishi natijasida yuzaga kelgan.

Yalpi qo‘shilgan qiymat ulushi ham o‘n yil davomida ijobiy dinamikani namoyon etib, 25,1 foizdan 29,9 foizgacha oshgan. Bu ko‘rsatkich qishloq xo‘jaligining nafaqat ishlab chiqarish hajmini, balki hududiy iqtisodiyotdagi umumiy ulushini ham kengaytirayotganini bildiradi. Aholining bandlik darajasi nisbatan barqaror bo‘lgani holda, unumdorlikdagi o‘sish hududda samaradorlikka yo‘naltirilgan siyosatning natijasini ifodalaydi. Shu asosda aytish mumkinki, Namangan viloyatida agrar sohada raqamli transformatsiya jarayonlari nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini, balki iqtisodiy barqarorlik va hududiy raqobatbardoshlikni ham mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘tkazilgan tahlillar Namangan viloyatida qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining mintaqaviy mehnat bozori rivojlanishiga bevosita va sezilarli ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatdi. Bandlik hajmi, mehnat unumdorligi hamda yalpi qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichlari bo‘yicha aniqlangan o‘sish tendensiyalari agrar sektorning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rnini ham mustahkamlagan. Shu asosda quyidagi ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

Birinchidan, Namangan viloyatida 2015–2024-yillar davomida qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida bandlik hajmi 432,1 ming kishidan 495,2 ming kishiga yetib, 14,6 foizga o‘sdi. Bu natija agrar sektorning mintaqaviy mehnat bozorida hal qiluvchi o‘rin tutayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, xizmat va qayta ishlash yo‘nalishida bandlarning 44,6 mingdan 53,1 ming kishiga ko‘tarilishi qishloq xo‘jaligida diversifikatsiya jarayonlarining bosqichma-bosqich kuchayganini ko‘rsatmoqda. Bu esa kelgusida yangi texnologiyalarni keng joriy qilish orqali yanada barqaror mehnat bozorini shakllantirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti 2015-yilda 15,24 trillion so‘mdan 2024-yilda 42,65 trillion so‘mga yetib, 2,8 baravardan ortiq o‘sdi. Ushbu davrda mehnat unumdorligi ham 35,3 million so‘mdan 86,1 million so‘mgacha ko‘tarilib, 2,4 baravar oshgan. Bu jarayon agrar sohada modernizatsiya, raqamli agroservis xizmatlari va yangi ishlab chiqarish texnologiyalarining amaliy samarasini ifodalaydi. Demak, iqtisodiy o‘sish nafaqat bandlik sonining ko‘payishi, balki samaradorlikning ortishi bilan ham ta’minlangan.

Kelgusida qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini raqamli transformatsiya orqali rivojlantirish uchun bir qator amaliy takliflar ilgari surilishi lozim: qishloq xo‘jaligi korxonalarida aqlli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha davlat-grant mexanizmlarini kengaytirish; qishloq hududlarida raqamli infratuzilmani rivojlantirish orqali yoshlar va ayollarning bandligini oshirish; uchinchidan, qishloq xo‘jaligi xodimlarini raqamli ko‘nikmalarga o‘rgatish bo‘yicha tizimli ta’lim dasturlarini joriy qilish; to‘rtinchidan, qo‘shimcha qiymat yaratadigan qayta ishlash tarmoqlarini kengaytirish orqali eksport salohiyatini kuchaytirish.

Adabiyotlar

1. *Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. New York: W.W. Norton & Company.*
2. *International Labour Organization (ILO). (2021). World Employment and Social Outlook 2021: The role of digital technologies. Geneva.*
3. *Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). (2022). Digital Agriculture Report: Rural Transformation. Rome.*
4. *World Bank. (2020). Future of Jobs in Agriculture: Technology and Employment. Washington, DC.*
5. *OECD. (2021). Digital Transformation in Agriculture and Rural Areas. Paris: OECD Publishing.*
6. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-6079-son Farmoni*
7. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-avgustdagi Qishloq xo‘jaligi sohasiga ilg‘or raqamli texnologiyalarni joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-257-son Qarori.*
8. *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzurida “Agroservis operator” davlat unitar korxonasini tashkil etish to‘g‘risidagi 180-son Qarori.*
9. *European Commission. (2020). Digital Europe Programme 2021–2027. Brussels.*
10. *Korean Ministry of Agriculture. (2021). Green Digital Transformation Strategy. Seoul.*
11. *Namangan viloyati statistika boshqarmasining yillik hisobotlari to‘plami*

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA AUTSORSING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Yusufjanov Temurbek Abdumannob o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi korxonalar faoliyatida biznes-modellarni tubdan yangilash, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda tashqi xizmatlardan — autsorsingdan — strategik foydalanishni talab etmoqda. Bugungi global iqtisodiyotda raqamli transformatsiya faqat texnologik jarayon emas, balki iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta’minlovchi muhim mexanizm sifatida qaralmoqda [1]. OECD ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot korxonalarning operatsion xarajatlarini o‘rtacha 25–30 foizga kamaytirib, biznes samaradorligini oshiruvchi asosiy omilga aylangan [2]. Bunday sharoitda autsorsing raqamli ekotizimning ajralmas qismi sifatida shakllanib, korxonalarga moslashuvchanlik, texnologik innovatsiyalar va tezkor qaror qabul qilish imkoniyatlarini beradi [3].

Xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT, Jahon banki va UNCTAD tahlillarida autsorsing faoliyatini raqamli iqtisodiyotning poydevoriy elementi sifatida rivojlantirish global raqobat ustunligini belgilovchi asosiy yo‘nalish sifatida baholangan [4]. BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari – 2030” (SDGs) konsepsiyasida raqamli texnologiyalar asosida samaradorlikni oshirish, inklyuziv o‘sishni rag‘batlantirish va ishlab chiqarish jarayonlarini ekologik toza shaklga o‘tkazish strategik ustuvor vazifa sifatida belgilangan [5].

Jahon banki 2023-yilgi “Digital Development Practice” hisobotida esa autsorsing xizmatlarini raqamli platformalar asosida tashkil etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini 18–22 foizgacha oshirish, kiberxavfsizlikni mustahkamlash va transaksion xarajatlarni kamaytirish mumkinligi ta’kidlanadi [6].

Keyingi bosqichda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi tasdiqlandi. Mazkur hujjat davlat boshqaruvi, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali samaradorlik va shaffoflikni oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, yashil iqtisodiyot konsepsiyasini qo‘llab-quvvatlashda ham muhim o‘rin egallaydi [7].

Shu jarayonda autsorsing xizmatlari faoliyati uchun normativ-huquqiy baza takomillashdi, davlat-xususiy sheriklik asosida raqamli infratuzilma loyihalari — data markazlar, IT-parklar, “Yagona raqamli tizimi va “Digital Uzbekistan Cloud” platformasi shakllantirildi. Bu holat tadbirkorlik subyektlariga tashqi xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, korporativ boshqaruvda innovatsion yondashuvni mustahkamladi [8].

Shu bois, “Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik subyektlarida autsorsing faoliyatini takomillashtirish mexanizmlari” mavzusi bugungi kunda strategik dolzarblik kasb etmoqda. Maqolaning ilmiy maqsadi raqamli autsorsing mexanizmlarining nazariy asoslarini aniqlash, ularning samaradorligini oshiruvchi texnologik, institutsional va boshqaruv omillarini tahlil qilishdir. Shu bilan birga, O‘zbekiston tajribasida raqamli platformalar, elektron kontraktlar, xizmatlar sifati ko‘rsatkichlari (SLA, KPI) hamda

kiberxavfsizlik protokollarini uyg‘unlashtirish orqali autsorsingning yangi modelini shakllantirish yo‘llari ilmiy asosda yoritiladi.

Namangan viloyatida autsorsing xizmatlarining hajmi, ulushi va bandlik darajasidagi o‘zgarishlarni tahlil qilish hududning iqtisodiy transformatsiya jarayonlarini chuqur anglash imkonini beradi. Ushbu davrda xizmatlar sektorida autsorsing faoliyati ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va ekologik samaradorlikni oshirishning muhim instrumentiga aylangan. Ayniqsa, korxonalarda energetik resurslardan oqilona foydalanish, tashqi xizmatlar orqali texnologik modernizatsiyani tezlashtirish va mehnat bozorida yangi bandlik turlarini yaratish jarayonlari autsorsingning strategik ahamiyatini yanada oshirdi (1-jadval)

1-jadval.

Namangan viloyatida autsorsing xizmatlari hajmi va o‘sish sur’atlari

Yil	Xizmatlar umumiy hajmi	Autsorsing ulushi (%)	O‘sish sur’ati (%)	Bandlar soni (ming kishi)	Xizmat ko‘rsatish sohalari soni
2015	1 254,6	7,8	—	12,4	24
2016	1 476,2	8,9	17,6	13,5	27
2017	1 805,3	9,7	22,3	14,9	30
2018	2 256,7	11,3	25,0	16,7	33
2019	2 987,5	13,5	32,4	18,9	38
2020	3 542,8	15,8	18,6	21,1	41
2021	4 118,6	17,9	16,3	23,8	45

Manba:Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2015–2021-yillar oralig‘ida Namangan viloyatida autsorsing xizmatlari hajmi 1 254,6 mlrd so‘mdan 4 118,6 mlrd so‘mgacha oshgan bo‘lib, bu davrda o‘sish sur’ati 228,3 foizni tashkil etgan. Xizmatlar sektorining umumiy hajmida autsorsingning ulushi 7,8 foizdan 17,9 foizgacha ko‘tarilgan, bu esa viloyat iqtisodiyotining modernizatsiya jarayonlarida autsorsingning muhim strategik rol o‘ynayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, 2018–2019-yillarda o‘sish sur’ati 25–32 foiz oralig‘ida qayd etilgan bo‘lib, bu yillarda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida tashqi xizmatlardan foydalanish hajmi keskin oshgan. Bu tendensiya korxonalar resurslardan foydalanishda samaradorlikni oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va innovatsion xizmat turlarini joriy etish yo‘nalishida faol harakat qilganini bildiradi.

2-jadval.

Namangan viloyati tumanlarida raqamli autsorsing faoliyatining samaradorlik ko‘rsatkichlari

Tuman Shahar	Raqamli xizmatlar ulushi	Kiberxavfsizlik darajasi	IT-infratuzilma qamrovi	Xizmatlar avtomatlashtirish indeksi	Autsorsing samaradorlik koeffitsiyenti
Namangan sh.	36,4	82,7	78,5	74,3	0,87
Chust	31,9	79,5	73,2	70,8	0,81
Kosonsoy	33,6	80,1	76,4	72,1	0,83
Pop	28,2	73,9	68,7	65,4	0,75
Norin	27,5	70,4	63,5	60,8	0,71
Uychi	30,8	76,6	70,9	68,5	0,78

To‘raqo‘rg‘on	32,7	77,8	74,6	71,9	0,80
Yangiqo‘rg‘on	34,1	81,2	75,5	73,6	0,84
Mingbuloq	26,4	69,7	61,3	59,2	0,69
Chortoq	29,7	75,4	67,8	64,1	0,76

Manba:Namangan viloyati Ekologiya atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Bandlik ko‘rsatkichlari ham autsorsing faoliyatining ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini tasdiqlaydi. 2015-yilda sohada 12,4 ming kishi faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2021-yilda bu ko‘rsatkich 23,8 ming kishiga yetgan. Bu 1,9 baravar o‘sish degani bo‘lib, autsorsing sektori mehnat bozorida barqaror ish o‘rinlarini yaratish manbai sifatida shakllanganini ko‘rsatadi. Xizmat tarmoqlari sonining 24 tadan 45 taga yetishi esa autsorsing faoliyatining nafaqat hajman, balki tarmoqlar kesimida ham diversifikatsiyalashayotganini anglatadi. Ayniqsa, IT-servis, logistika, ekologik nazorat va texnik xizmat ko‘rsatish sohalarida autsorsingga talab ortib, mintaqaning iqtisodiy faolligi bilan bog‘liq yangi subyektlar paydo bo‘lgan.

2024-yil holatiga ko‘ra, Namangan viloyatining barcha tumanlarida autsorsing faoliyati raqamli iqtisodiyotning tarkibiy qismiga aylangan, biroq tumanlar o‘rtasida samaradorlik darajasida 14–18 foizlik tafovutlar kuzatilmoqda. Eng yuqori raqamli xizmatlar ulushi Namangan shahri (36,4%) va Yangiqo‘rg‘on tumanida (34,1%) qayd etilgan. Bu hududlarda IT-infratuzilma qamrovi 75–78 foizni tashkil etib, xizmatlar avtomatlashtirish indeksi ham yuqori — 73–74 ball. Bu natijalar korxonalarning bulutli xizmatlar, CRM tizimlari va raqamli monitoring platformalarini keng joriy etgani bilan izohlanadi.

Aksincha, Mingbuloq (26,4%) va Norin (27,5%) tumanlarida raqamli autsorsing faoliyati sustroq bo‘lib, kiberxavfsizlik darajasi 70 foizdan past. Bu holat hududlarda internet tarmog‘i infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi, raqamli kadrlar salohiyatining cheklanganligi va texnologik qo‘llanmalarning kamligi bilan bog‘liq. Shu sababli, autsorsing faoliyatini takomillashtirishda tumanlar kesimida IT-infratuzilmani kengaytirish, autsorsing xizmatlarida milliy axborot xavfsizligi standartlarini (ISO 27001) joriy etish va xizmatlar sifati ko‘rsatkichlarini (SLA/KPI) yagona tizimda baholash zarur. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, Namangan viloyatida raqamli autsorsing mexanizmlari iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik va innovatsion transformatsiyaning yangi drayveriga aylangan.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Namangan viloyatida 2020–2024-yillar davomida autsorsing xizmatlari raqamli iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib, hududiy iqtisodiy o‘sish, bandlik va innovatsion rivojlanishning muhim drayveriga aylandi.

Birinchidan, 2020–2024-yillar davomida Namangan viloyatida autsorsing xizmatlari hajmining 3 214,5 mlrd so‘mdan 6 790,4 mlrd so‘mgacha o‘sishi, bu yo‘nalishning mintaqaviy iqtisodiyotdagi rolini keskin kuchaytirganini ko‘rsatadi. O‘sish sur’atining o‘rtacha 20 foizdan ortiq bo‘lishi raqamli iqtisodiyot omillari bilan uzviy bog‘liqlikda kechgan. Ayniqsa, bulutli texnologiyalar, masofaviy xizmat ko‘rsatish va ma’lumotlarni qayta ishlash tizimlarining kengayishi autsorsing bozorini yangi bosqichga olib chiqdi. Shu sababli, viloyat miqyosida raqamli autsorsing infratuzilmasini yanada rivojlantirish, IT-servis provayderlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va raqamli xizmatlar eksportini rag‘batlantirish maqsadida maxsus “Digital Outsourcing Hub Namangan” platformasini tashkil etish tavsiya etiladi. Bu tashabbus

hududda yuqori texnologiyali xizmatlar ulushini oshirish va yangi qiymat zanjirlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, autsorsing xizmatlari bandlik va ijtimoiy barqarorlikning muhim omiliga aylanmoqda. 2020–2024-yillar oralig‘ida sohada bandlik darajasi 20,7 mingdan 31,5 ming kishiga yetgan bo‘lib, bu 10,8 ming yangi ish o‘rni yaratilgani deganidir. Shu bilan birga, autsorsing faoliyatining raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashuvi ayollar va yoshlar bandligini oshirish, masofaviy ish tizimini rivojlantirish va yuqori malakali kadrlarni mintaqaviy iqtisodiyotga jalb etish imkonini berdi. Amaliy jihatdan, Namangan viloyatida autsorsing xizmatlari uchun “raqamli kasbiy tayyorlov markazlari”ni tashkil etish, IT-sertifikatlash tizimini joriy etish va yosh mutaxassislar uchun startap grantlarini ajratish maqsadga muvofiqdir. Bu chora-tadbirlar inson kapitali sifatini oshiradi va raqamli iqtisodiyotning kadrlar bilan ta’minlanish darajasini yaxshilaydi.

Uchinchidan, tumanlar kesimidagi natijalar autsorsing faoliyatining hududiy nomutanosiblik muammosini ochib berdi. Eng yuqori samaradorlik Namangan shahri (0,87) va Yangiqo‘rg‘on (0,84) tumanlarida qayd etilgan bo‘lsa, Mingbuloq (0,69) va Norin (0,71) tumanlarida bu ko‘rsatkich pastligicha qolmoqda. Bu holat IT-infratuzilmaning rivojlanish darajasi, kiberxavfsizlik tizimlari va boshqaruv madaniyati bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli, amaliy tavsiya sifatida har bir tumanda “raqamli xizmatlar klasterlari”ni shakllantirish, davlat-xususiy sheriklik asosida texnologik modernizatsiyani jadallashtirish hamda xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar uchun soliq va kredit imtiyozlarini kengaytirish zarur. Natijada, tumanlararo tafovutlar qisqarib, hududiy raqamli integratsiya kuchayadi.

Adabiyotlar:

1. *OECD. 2021. Digital Transformation in SMEs: Policies for Productivity. Paris: OECD Publishing.*
2. *UNCTAD. 2022. Digital Economy Report: Value Creation and Capture in the Digital Era. Geneva: United Nations.*
3. *Gartner. 2023. Sourcing, Procurement and Vendor Management Essentials. Stamford, CT.*
4. *World Bank. 2023. Digital Development Practice: Leveraging Platforms for Productivity. Washington, DC.*
5. *United Nations. 2015. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. New York: UN Publishing.*
6. *ILO. 2024. Digital Labour Platforms and the Future of Work. Geneva: International Labour Organization.*
7. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni, 2020-yil 5-oktabr.*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SIYOSATI AHAMIYATI

Gafurov Anvar Bazarbayevich
Alfraganus university Iqtisodiyot kafedra mudiri, PhD, dotsent


XXI asrni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) asri deb atash an’ana tusiga kirgan. Chunki hayotning turli jabhalarida IT-texnologiyalar mustahkam o‘rin egallayotgani va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari ularning taraqqiyotiga bevosita bog‘liqligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyoti

so‘nggi yillarda judayam jadal sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Masalan, BMT Taraqqiyot Dasturi tomonidan tayyorlangan hisobotga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot ayni paytda yalpi ichki mahsulotda sezilarli ulushga ega: Axborot-kommunikatsiya sektori mamlakat YaIMiga 2023-yilda taxminan 2,1% hissa qo‘shgan. Davlatimiz “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi va elektron davlat xizmatlariga katta investitsiyalar yo‘naltirish orqali shu jarayonni yanada tezlashtirishga intilmoqda. Ushbu raqamli transformatsiya siyosati O‘zbekistonni mintaqaviy IT- yetakchiga aylantirishni ko‘zda tutadi va iqtisodiyot hamda boshqaruvda raqamlashtirishni kuchaytiradi. Quyida ushbu siyosatga asos bo‘lgan normativ hujjatlar tahlili va raqamli sohadagi korxonalar hamda ular YaIMdagi ulushi haqida so‘nggi yillardagi statistik ma’lumotlar keltiriladi.

O‘zbekistonda raqamli transformatsiyani ilgari suruvchi asosiy hujjatlardan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni bo‘ladi. Ushbu strategiya doirasida barcha viloyat va tarmoqlarda raqamli loyihalar joriy etilishi belgilandi. Masalan, farmonga ko‘ra, 29 ta namunaviy tuman (shahar)da raqamli infratuzilmani rivojlantirish va elektron xizmatlarni kengaytirish bo‘yicha loyihalar amalga oshirildi. Shuningdek, ushbu farmon bilan har bir investitsiya loyihasi va xalqaro moliyalashtirish mablag‘larining kamida 5% dan kam bo‘lmagan qismi “raqamli komponent”larga yo‘naltirilishi belgilandi. Bu davlat idoralarida hujjatlarni “qog‘ozsiz elektron” aylanishga o‘tkazish va soliqlar, yig‘imlarni onlayn to‘lash imkoniyatini joriy etish kabi chora-tadbirlarni ham o‘z ichiga olgan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 28-aprelda imzolangan “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PP–4699-sonli Qarorda raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish uchun ustuvor yo‘nalishlar belgilandi. Ushbu qarorga muvofiq, raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushini 2023-yilgacha ikki barobarga oshirish, tuman va shaharlarga yuqori tezlikdagi internetni tortish va sog‘liqni saqlash, ta’lim muassasalari, mahallalarni keng internet bilan ta’minlash, elektron davlat xizmatlarining ulushini 2022-yilgacha 60% ga yetkazish kabi aniq maqsadlar qo‘yildi. Masalan, qarorda shunday deyiladi: “2023-yilgacha raqamli iqtisodiyot ulushi mamlakat YaIMiga ikki barobarga ko‘tarilishi, 2022-yilgacha davlat xizmatlarining 60 foizi elektron shaklda taqdim etilishi”.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yil 16-sentaberda imzolangan “Respublikaning hudud, soha va tarmoqlarida raqamli texnologiyalar joriy etilishini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–286-sonli qaror ham “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq yangi ustuvor chora-tadbirlarni belgiladi. Bu qaror hududlarda va turli soha korxonalarining faoliyatini yanada raqamlashtirish, xizmat ko‘rsatish hajmini oshirish kabi masalalarga qaratilgan. Masalan, hujjatda 2025-2026 yillarda elektron xizmatlar ulushini 70% ga yetkazish va telekommunikatsiya infratuzilmasini kengaytirish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar belgilangan. Shunday qilib, Prezident farmonlari va qarorlarida raqamli infratuzilma, elektron davlat boshqaruvi, milliy IT-ta’lim va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan. Bu normativ chora-tadbirlar milliy ekotizimni shakllantirish orqali xususiy sektorning, yangi startap va korxonalar hamda raqamli xizmatlar ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan. Normativ hujjatlar tarkibida ko‘pincha IT-ta’lim va kadrlarni tayyorlash, milliy mahsulotlarni eksportga chiqarish kabi masalalar ham ko‘tariladi.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida IT va telekommunikatsiya sohalaridagi tashkil etilgan korxonalar soni.

O‘zbekiston hukumati targ‘ibotlari natijasida sohadagi tashkilotlar soni keskin o‘sdi. Masalan, O‘zA xabariga ko‘ra, 2017-yilda mamlakatimizda atigi 147 ta IT-kompaniya faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa, bir necha yil ichida bu ko‘rsatkich 1600 ga yetdi. Statistika Agentligi ma’lumotlari esa so‘nggi besh yil ichida IT va telekommunikatsiya sohalaridagi korxonalarning umumiy soni 1,8 barobarga o‘sdi. Keltirilgan davr bo‘yicha yangi tashkil etilgan korxonalar soni yillar bo‘yicha quyidagicha:

2016–2024 yillar davomida IT sohasidagi korxonalar sonining yuqori sur’atda ko‘payishi natijasida, 2024-yilga borib Axborot va kommunikatsiya sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalar soni taxminan 10 551 taga yetdi. Shu bilan birga, iqtisodiyotdagi ulushi ham oshib bormoqda: masalan, AKT sektori 2023-yilda YaIMga 2,1 foiz hissa qo‘shgan, bu ko‘rsatkich oldingi yillardagi darajada emas, sezilarli o‘sishni anglatar ekan. Bundan tashqari, IT xizmatlari eksporti ham jadal o‘smoqda – 2017-yilda atigi $0,6 million bo‘lgan eksport hajmi 2021-yilga kelib $300 million darajasini tashkil etishi kutilmoqda.

Raqamli sohadagi startap ekotizimi ham kengayib bormoqda. Masalan, Markaziy Osiyo bo‘yicha startaplar soni 2018-yildan buyon olti baravarga oshib, 2023-yilga kelib 6000 dan ko‘p loyihaga yetdi, ulardan taxminan 1200 tasi O‘zbekiston hissasiga to‘g‘ri keladi. Biroq, startaplarning aksariyati hali rivojlanish bosqichida; ularga kerakli moliyalashtirish, murabbiylar va xorijiy bozorga chiqish imkoniyatlarini oshirish kabi qo‘shimcha chora-tadbirlar zarurligi qayd etilmoqda.

Yuqoridagi raqamlar ko‘rsatyaptiki, davlat tomonidan ilgari surilgan raqamli strategiyalar va startaplarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari mevasini bermoqda. Mamlakatimizda IT-sohaning integratsiyasidan nafaqat iqtisodiy o‘sish darajasi oshmoqda, balki yangi ish o‘rinlari paydo bo‘lmoqda. Masalan, 2017-2021 yillar oralig‘ida IT sohasidagi korxonalardagi ish o‘rinlari soni 10 barobarga oshib, 24 mingdan oshdi. Ushbu ma’lumotlarga qaraganda, raqamli ekotizimning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyasi va modernizatsiyasiga muhim hissa qo‘shmoqda.

Raqamli transformatsiya ekotizimi – bu nafaqat texnologiya kompaniyalari, balki ularni qo‘llab-quvvatlovchi institutlar, hamkorlik muhitini, kadrlarni tayyorlash tizimini va infratuzilmalarni o‘z ichiga oladi. Davlat bunday ekotizimni shakllantirish uchun IT-ta’lim, inkubatsiya va moliyalashtirish mexanizmlarini yaratdi. Xususan, davlat tashabbusi bilan tashkil etilgan IT Park Uzbekistan loyihasi mintaqalarda IT ta’limini kengaytirish va startap ekosistemasini rivojlantirishga qaratilgan. IT Park tomonidan 2019-yildan buyon har bir viloyatda IT-yo‘nalishlar bo‘yicha o‘quv markazlari (IT

Markazlar) ochilib, aholi orasida Axborot texnologiyalari bo‘yicha ko‘nikmalar oshirilmoqda. Masalan, bugunga kelib 147 dan ortiq IT Markaz faoliyat boshlagan va ularda 40 mingdan ziyod talaba mashg‘ulot o‘tdi.

Bundan tashqari, *“One Million Uzbek Coders”* kabi milliy loyihalar ham yoshlar orasida texnik savodxonlikni oshirishga xizmat qildi. Ushbu platforma ikki yil ichida 461 mingdan oshiq ishtirokchini jalb qilib, mamlakatimizda axborot texnologiyalarini ommalashtirishga xizmat qildi. IT Parkning startaplarni quvvatlovchi inkubatsiya va akselerator dasturlari orqali yuzlab yoshlar o‘z g‘oyalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. 2021 yilga kelib O‘zbekistonda 205 ta IT-yo‘nalishiga ixtisoslashtirilgan maktab tashkil etilishi rejalashtirilgani (har bir tuman uchun bitta) ham ekotizimni kuchaytirishga qaratilgan navbatdagi qadamdir.

Xulosa, ushbu turdagi davlat va xususiy soha hamkorlik chora-tadbirlari natijasida O‘zbekistonda raqamli transformatsiya ekotizimi tobora mustahkamlanmoqda. Yangi yaratilayotgan korxonalar, kengayib borayotgan startaplar, rivojlanayotgan kadr tayyorlash tizimi va ularning eksport salohiyati yaqin yillarda yanada ortishi kutilyapti. Umuman olganda, ekotizimning shakllanishi mamlakatning raqamli raqobatbardoshligini oshiradi, ilmiy-texnik salohiyatni kuchaytiradi va aholining turmush darajasini ko‘taramiz.

Adabiyotlar:

1. Norqulov I.I. (2025). *O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyoti: Raqamli tadbirkorlik va sun’iy intellekt holati* (BMT Taraqqiyot Dasturi hisobotlari).
2. O‘zA. (2021). *“Raqamli texnologiyalar mamlakat rivojiga ulkan hissa qo‘shadi”* (Axborot agentligi maqolasi).
3. Statistika Agentligi (2023). *Axborot-kommunikatsiya sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar va ularning statistik ma’lumotlari* (rasmiy ma’lumotlar).
4. Kursiv.uz (2023, 27-iyun). *“Besh yil ichida IT va telekom qanday o‘sdi”*.
5. IT Park Uzbekistan (2021). *“IT sohasini 5 yil davomida rivojlantirish natijalari…”* (IT Park rasmiy sayti).
6. Qalampir.uz (2020, 06-10). *“Prezident ‘Raqamli O‘zbekiston – 2030’ strategiyasini tasdiqladi”*.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori PF–6079 (05.10.2020). *“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash haqida* (rasmiy qonun hujjati).
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori PP–4699 (28.04.2020). *“Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari haqida”*.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori PQ–286 (16.09.2025). *Hudud va tarmoqlarda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish chora-tadbirlari haqida*.

ТРЕНДЫ И ВЛИЯНИЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ НА МЕЖДУНАРОДНЫЙ РЫНОК IPO

Сайдуллаев Шахзод Шерзодович
Ph.D., доцент кафедры «Корпоративные финансы и ценные бумаги»
Ташкентский Государственный Экономический Университет

Глобализация рынка IPO (первичных публичных размещений акций) оказывает значительное влияние на развитие международных рынков капитала. Компании из различных регионов мира активно используют возможности трансграничных размещений для привлечения капитала, расширения географии инвесторов и укрепления своего бренда. Основными трендами являются рост

трансграничных IPO, использование цифровых технологий, усиление влияния ESG-факторов и развитие новых центров IPO, таких как азиатские рынки.

В эпоху глобализации международный рынок первичного публичного размещения акций (IPO) становится важным инструментом интеграции мировых экономик. Глобализация привнесла значительные изменения в структуру и функционирование рынков капитала, предоставляя компаниям из разных стран возможность привлекать средства на международных биржах. Этот процесс способствует расширению географии инвесторов, повышению ликвидности рынков и улучшению условий для привлечения капитала.

С одной стороны, глобализация рынка IPO позволяет компаниям из развивающихся стран получить доступ к капиталу на ведущих мировых биржах, таких как NASDAQ, NYSE или Лондонская фондовая биржа. С другой стороны, международные IPO требуют от эмитентов соблюдения более строгих стандартов корпоративного управления, прозрачности и финансовой отчетности, что повышает доверие со стороны инвесторов.

Однако глобализация IPO сопровождается рядом вызовов. Компании сталкиваются с высокими издержками на соблюдение международных требований, а также с конкуренцией за внимание инвесторов. Кроме того, глобальная нестабильность и геополитические факторы могут влиять на успех размещений [1].

В данном исследовании будут рассмотрены ключевые тренды глобализации на рынке IPO, их влияние на международные рынки капитала, а также преимущества и вызовы, с которыми сталкиваются компании и инвесторы.

Глобализация привела к значительному увеличению трансграничных IPO. Компании из развивающихся стран, таких как Китай, Индия и Бразилия, активно выбирают международные биржи, такие как NASDAQ, NYSE и Гонконгская фондовая биржа, для размещения своих акций. Это позволяет привлекать капитал из разных регионов и расширять географию инвесторов. Развитие технологий также сыграло ключевую роль в трансформации IPO-процессов. Виртуальные roadshow и цифровые платформы упрощают взаимодействие с инвесторами по всему миру, снижая издержки и расширяя доступ к глобальным рынкам [2].

Влияние ESG-факторов (экологические, социальные и управленческие аспекты) становится все более заметным. Международные инвесторы все чаще предпочитают компании, соответствующие стандартам устойчивого развития, что усиливает их привлекательность на глобальных рынках. Существенную роль в поддержке международных IPO играют суверенные фонды, пенсионные фонды и институциональные инвесторы. В то же время азиатские биржи, такие как Гонконгская и Шанхайская, укрепляют свои позиции, конкурируя с традиционными западными рынками капитала.

Глобализация IPO способствует повышению ликвидности рынков капитала [3]. Привлечение международных инвесторов увеличивает объем торгов, а интеграция финансовых систем укрепляет связи между различными регионами. Это также дает инвесторам возможность диверсифицировать свои портфели, предоставляя доступ к активам компаний из различных отраслей и стран. Кроме того, конкуренция среди бирж усиливается: каждая из них стремится предлагать более выгодные условия, чтобы привлечь компании для размещения акций.

Таблица-1

Преимущества глобализации рынка IPO

Преимущество	Описание
Доступ к глобальному капиталу	Компании могут привлекать средства от международных инвесторов, что увеличивает их финансовую гибкость.
Укрепление бренда	Размещение акций на ведущих мировых биржах повышает репутацию компании.
Увеличение ликвидности акций	Акции становятся доступными для большего числа инвесторов, что повышает их рыночную стоимость.
Возможность для международной экспансии	Привлеченные средства могут быть использованы для выхода на новые рынки.

Одним из главных преимуществ глобализации является доступ к международному капиталу. Компании могут привлекать средства от широкого круга инвесторов, что увеличивает их финансовую гибкость. Размещение акций на ведущих мировых биржах способствует укреплению бренда компании и повышению ее репутации. Увеличение ликвидности акций делает их более привлекательными для инвесторов, что положительно сказывается на рыночной стоимости. Кроме того, привлеченные средства позволяют компаниям осуществлять международную экспансию и выходить на новые рынки.

Несмотря на преимущества, глобализация рынка IPO сопряжена с рядом вызовов. Международные IPO требуют значительных расходов на соблюдение нормативных требований, проведение аудита и организацию размещения. Компании также сталкиваются с регуляторными барьерами, связанными с различиями в стандартах корпоративного управления и финансовой отчетности в разных странах. Геополитическая нестабильность и международные конфликты могут негативно повлиять на успех размещений, а валютные риски добавляют неопределенности в расчетах стоимости привлеченного капитала.

Таблица-2

Вызовы для компаний и инвесторов

Вызов	Описание
Высокие затраты на проведение IPO	Международные IPO требуют значительных расходов на соблюдение нормативных требований и аудит.
Регуляторные барьеры	Компании должны соответствовать различным стандартам корпоративного управления в разных странах.
Геополитическая нестабильность	Международные конфликты и санкции могут негативно повлиять на успех IPO.
Валютные риски	Колебания обменных курсов могут повлиять на стоимость привлеченного капитала.

Заключение. Глобализация рынка IPO открывает перед компаниями и инвесторами новые возможности, способствуя интеграции мировых рынков капитала и повышению их ликвидности. Однако для успешного участия в этом процессе компаниям необходимо учитывать вызовы, связанные с высокими затратами, нормативными барьерами и геополитическими рисками. Успешная навигация в условиях глобализации требует от компаний стратегического подхода и соблюдения международных стандартов, что может значительно повысить их шансы на долгосрочный успех.

Литературы:

1. Loughran, T., & Ritter, J. R. (2020). The changing nature of IPOs*. Journal of Financial Economics, 136(3), 615-635.*

2. Pagano, M., Panetta, F., & Zingales, L. (1998). Why do companies go public? An empirical analysis*. The Journal of Finance, 53(1), 27-64.*

3. Chemmanur, T. J., & Fulghieri, P. (1999). A theory of the going-public decision*. Review of Financial Studies, 12(2), 249-279.*

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE FORMATION OF AN EFFECTIVE TAX ADMINISTRATION MECHANISM

Абдулов Дамир Рустамович
Ташкентский государственный юридический университет
кафедры «Государственного управления» и. о. доцент (PhD)
Orcid: 0000-0002-7797-6090

In the world, digitalization of tax administration is significantly changing traditional approaches to tax collection and control. In 2023, about 60% of tax services worldwide implemented virtual assistants and digital platforms for round-the-clock interaction with taxpayers. The implementation of analytical tools and big data processing technologies increased by 20% compared to 2018, which made it possible to more effectively manage tax risks and minimize errors. Almost 95% of tax services actively use such data analysis methods, which contributes to increased transparency and efficiency of tax authorities. [1] Today, the global economy prioritizes the development of digitalization practices in the industry and its accelerated growth based on effective financial and economic mechanisms of tax administration using artificial intelligence.

Uzbekistan is implementing reforms to strengthen tax potential, ensure openness and transparency of the budget system, radically improve tax administration, and widely introduce digital and innovative technologies in this area. "...Goals such as creating favorable conditions for business entities and investors as an important factor in increasing the competitiveness of the economy, as well as organizing the provision of modern service to taxpayers through the automation of taxation processes in state tax authorities have been identified." [2]

In this direction, it is advisable to expand the scope of research aimed at developing tax administration using effective economic mechanisms, as well as digital and innovative technologies.

The Tax Committee of Uzbekistan is developing service-oriented administration with digitalization of processes, which reduces labor costs, government spending on control and increases the efficiency of revenue forecasting. Taxes, accounting for more than 80% of budget revenues, finance programs, ensuring sustainability and fulfillment of state obligations. Effective administration in the context of digitalization remains the key to financial stability and development. [3]

The main areas of improvement of tax administration include:

Next, it is advisable to analyze the current state of tax administration using the fiscal effect indicator (Table 1).

1-table

Fiscal effect (collection level) of taxes by tax groups in Uzbekistan [4]

(in percent)

Types of taxes	2019 year	2020 year	2021 year	2022 year	2023 year	Changes in 2023 compared to 2019 (+,-)
Direct taxes	94,8	95,6	96,7	102,3	113,4	+18,3
Indirect taxes	91,6	88,6	89,9	97,8	116,7	+25,1
Resource payments and property tax	89,0	91,2	91,8	104,9	117,4	+28,4

Fiscal efficiency of the tax system can be measured as the ratio of tax revenues to tax administration costs.

$$FE = VTR / AC, \quad (1)$$

where VTR – is the volume of tax revenues, AC – is the administration costs, FE – is the fiscal efficiency coefficient (Table 3).

2-table

Indicators of fiscal efficiency of the tax system of the Republic of Uzbekistan [5]

Year	Tax revenues of the consolidated budget of the Republic of Uzbekistan (VTR), billion soums	Tax administration expenses (AC), billion soums	Fiscal efficiency
2019	147 035,0	1820,2	80,8
2020	160 182,0	1720,9	93,1
2021	178 712,0	1684,7	106,1
2022	208 371,0	1791,7	116,3
2023	238 954,0	2102,7	113,6

From 2019 to 2023, tax revenues of the consolidated budget of Uzbekistan increased from 147,035 billion to 238,954 billion soums, and fiscal efficiency increased from 80.8 to 116.3 in 2022, then decreased to 113.6 in 2023. Despite the increase in tax administration costs from 1820.2 billion to 2102.7 billion soums, improved management ensured a significant increase in the efficiency of the tax system.

3-table

Analysis of the dynamics of GDP indicators, tax revenues and VAT collection efficiency in 2020–2023 [6]

billion soums

№	Name of income	2020 year	2021 year	2022 year	2023 year
	GDP	**602 551**	**734 588**	**888 342**	**1 192 163,0**
1	Tax Committee	20 486	25 572	32 812	33 983
2	Share in relation to GDP (by collection), %	6,7	7,2	8,0	
3	Tax rate, %	15	15	15	12
4	C-efficiency (by collection), %	44,5	48,0	53,7	
5	Total VAT	31 117	38 439	52 189	57 885,3

Between 2020 and 2023, Uzbekistan's GDP increased from 602,551 billion to 1,192,163 billion soums, accompanied by an increase in tax revenues administered by the Tax Committee from 20,486 billion to 33,983 billion soums. The share of taxes in relation to GDP increased from 6.7% to 8.0% by 2022, indicating improved tax collection despite the tax rate reduction from 15% to 12% in 2023.

Suggestions for improving tax administration in the context of digitalization of the economy:

Developed countries use digital technologies in tax administration to monitor services, develop customer-oriented design, inform and support taxpayers in the digital environment.

The main obstacles to the digitalization of tax services in Uzbekistan: limited access to ICT, high implementation costs, technical shortcomings of services and traditional habits of taxpayers.

State regulation of socio-economic processes includes tax incentives, which, despite the decline in budget revenues, contribute to economic growth when used rationally.

Tax incentive tools: zero and reduced rates, accelerated depreciation, tax exemptions and reduction of the tax base.

Disadvantages of tax incentives: weak methodology, lack of clear criteria for the effectiveness of benefits and an insufficient mechanism for assessing their impact. A methodological toolkit has been developed for assessing effectiveness at the meso level. Tax incentives are a key element of policy that ensures the growth of the economy and its individual sectors.

Literature:

1. *https://www.oecd-ilibrary.org/taxation/tax-administration-2023_ebd89cab-en*
2. *Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated July 10, 2019 No. PP-4389 "On additional measures to improve tax administration"*
3. *O'tkazilgan soliq auditi natijalari.15/04/2024. https://soliq.uz/press-services/news/show/otkazilgan-soliq-auditinatijalari*
4. *Prepared based on data from the Tax Committee of the Republic of Uzbekistan.*
5. *Compiled by the author based on data from the State Budget Expenditures of the Republic of Uzbekistan for 2019-2023. http://www. base.garant.uz*
6. *Compiled by the author based on data from the Tax Committee of the Republic of Uzbekistan*
7. *Abdulov D.R. Assessment of the effectiveness of the activities of tax authorities in foreign countries // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar илмий электрон журнали. 2023 йил, № 5 сон. сентябрь-октябрь. 342-348 б. http://iqtisodiyot.tsue.uz/journal, (08.00.00. №10)*
8. *Abdulov D.R. System of Forms and Methods of Tax Administration in Uzbekistan // International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9, Issue-1, November 2019. https://www.researchgate.net.*
9. *Абдулов Д.Р. Преобразование налогового администрирования в условиях цифровизации экономики (на примере НДС) // Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special issue -1, №01 (2020) / ISSN 2181-1415. 123-135 ст.*
10. *Abdulov D.R. Assessment of the effectiveness of the activities of tax authorities in foreign countries // «Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish aholi turmush darajasi barqarorligi omili» respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. –T.: TDIU, 2023-yil 18-oktyabr. – 478 b.*
11. *Абдулов Д.Р. Налоговые вызовы в цифровой экономике в Узбекистане // Сборник тезисов по итогам Профессорского форума 2019 «Наука. Образование. Регионы» 2019. 84-87 ст.*
12. *Абдулов, Д. (2025). Совершенствование налогового администрирования в условиях цифровизации экономики. in Library, 1(2), 1–124. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/136694*
13. *Omonov, Q., Abdullaev, K., Yakubova, M., Bozorov , O., Shokirova, S., Ayupova, M., Kodirov, M., & Sattorova, Z. (2024). The Role of Digital Marketing Technologies in Enhancing Business Process Management. Indian Journal of Information Sources and Services, 14(4), 159–164. https://doi.org/10.51983/ijiss-2024.14.4.25*

MASOFAVIY MALAKA OSHIRISH KURSLARINI RAQAMLI EKOTIZIMGA AYLANTIRISH: NAZARIY VA AMALIY ASOSLAR

Zokirova Feruza Ravshanovna
Toshkent Davlat Texnika Universiteti v.v.b.dotsenti
Kasimova Gulnora Ismoilovna
Toshkent Davlat Texnika Universiteti assistenti

Zamonaviy korxonalar va tashkilotlar uchun xodimlarning kasbiy rivoji muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda malaka oshirish jarayoni ham yangi shakllarga ega bo‘lishi zarur. Masofaviy malaka oshirish kurslari bu yo‘nalishda samarali vosita bo‘lib, ularni raqamli ekotizimga aylantirish malaka oshirishning sifatini va ta’sir doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada raqamli ekotizim tushunchasi, uning tarkibiy qismlari va masofaviy malaka oshirishning samaradorligini oshirishda ekotizim yondashuvining roli muhokama qilinadi.

Masofaviy malaka oshirish tushunchasi. Masofaviy ta’lim – bu ta’lim va malaka oshirish jarayonining an’anaviy ta’limdan farqli ravishda o‘quvchilar va o‘qituvchilar jismonan bir joyda bo‘lmagan holatda onlayn yoki boshqa masofaviy kommunikatsion vositalar yordamida amalga oshirilishidir. Malaka oshirish esa, professional sohadagi bilim va ko‘nikmalarni barqaror yangilash hamda yangilarini qo‘lga kiritish jarayoni sifatida qaraladi. Masofaviy malaka oshirish esa, aynan professional rivojlanishni zamonaviy raqamli shaklda ta’minlashga qaratilgan.

Raqamli ekotizim tushunchasi. Raqamli ekotizim – bu bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan raqamli platformalar, xizmatlar, dasturlar va foydalanuvchilardan iborat kompleks tizimdir. Bu tizim o‘z ichida o‘quv jarayonlarining, resurslarning, kommunikatsiyalar va boshqaruv mexanizmlarining integratsiyasini ta’minlaydi. Raqamli ekotizimlar o‘zining modul va xizmatlari orqali ta’lim jarayonini moslashuvchan, interaktiv va samarali qiladi.

Masofaviy malaka oshirishni raqamli ekotizimga aylantirishning asosiy nazariy asoslari:

Interaktivlik nazariyasi: Ta’limda interaktivlik o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlaydi, fikr almashish va o‘zaro yordam imkonini yaratadi, bu esa bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beradi. Raqamli ekotizimlar real vaqt rejimida muloqot va hamkorlik imkonlari yaratadi.

Modullilik va mikrobilim nazariyasi: Katta bo‘laklarga bo‘lingan, oson qo‘shimcha qilinadigan va moslashtiriladigan ta’lim komponentlari yaratish. Raqamli platformalarda kurslarni bo‘laklarga ajratish, o‘z-o‘zini nazorat qilish imkonini oshiradi.

Moslashuvchan ta’lim nazariyasi: Har bir o‘quvchini individual ehtiyojlari va darajasiga moslashtirilgan ta’lim berish. Raqamli vositalar yordamida o‘quvchilarning faoliyati monitoring qilinib, shaxsiy yo‘nalishlar belgilanishi mumkin.

Hamkorlik va kommunikatsiya modeli: Raqamli ekotizim ishtirokchilari o‘rtasida tarmoq aloqalarini rivojlantirish, bilim almashinuvini tezlashtirish va kengaytirish imkonini beradi. Bu orqali malaka oshirish jarayoni yanada boy va samarali bo‘ladi.

Texnologik yondashuvlar va ularning ta’limga ta’siri:

Sun’iy intellekt va adaptiv tizimlar: O‘quv jarayonini analiz qilib, o‘quvchining ehtiyojiga mos materiallar va vazifalarni taqdim etadi.

Bulutli texnologiyalar: Ma’lumotlarga doimiy va istalgan joydan kirish imkonini beradi, hamjihatlikda ishlashni ta’minlaydi.

Virtual va qo‘shimcha haqiqat: Amaliy malakalarni oshirish uchun interaktiv muhit yaratadi.

Mobil texnologiyalar: Ta’limni istalgan vaqtda va joyda oson tashkil qilish imkoniyatini beradi.

Ta’lim va ta’lim tizimlaridagi raqamli ekotizimlarning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati:

Ta’lim sifatini oshirish: Raqamli ekotizimlar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yaxshilaydi, individual yondashuvni kuchaytiradi.

Barqaror rivojlanish: Uzoq vaqt va mablag‘ni tejaydi, ta’lim resurslarini samarali taqsimlashga yordam beradi.

Keng qamrov: Masofaviy ta’lim orqali geografik va ijtimoiy to‘siqlarni yengib o‘tish mumkin.

Doimiy kasbiy rivojlanish: Raqamli ekotizimlar bilimni doimiy yangilash va mutaxassislarning malakasini oshirishni osonlashtiradi.

Raqamli Ekotizim tushunchasi va ahamiyati. Raqamli ekotizim — bu turli raqamli platformalar, vositalar, foydalanuvchilar va xizmatlar o‘zaro bog‘langan, integratsiyalashgan tizimi bo‘lib, ular ma’lumot almashinuvi va hamkorlik asosida faoliyat olib boradilar. Malaka oshirish sohasida raqamli ekotizim ta’lim jarayonini yanada moslashuvchan, shaxsiylashtirilgan va davomiy qiladi. Ekotizim ta’limning nafaqat tashkiliy, balki texnologik infratuzilmasini ham o‘z ichiga oladi.

Masofaviy malaka oshirishning an’anaviy yondashuvi va uning cheklovlari. An’anaviy masofaviy kurslar odatda alohida platformalar va resurslarga asoslanadi, ammo ularning ko‘pchiligi:

- Faqat ta’lim jarayonining bir qismiga yo‘naltirilgan (videodarslar, testlar).
- Foydalanuvchi tajribasi cheklangan.
- Aloqa vositalari va hamkorlik imkoniyatlari cheklangan.
- Malaka oshirishni yanada samarali nazorat qilish imkoniyati past.
- Bu cheklovlar malaka oshirish natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Raqamli ekotizim yordamida masofaviy malaka oshirish kurslarini tashkil etish

- Raqamli ekotizimni yaratish uchun quyidagi komponentlar muhim:
- Onlayn ta’lim platformalari: kurslar, video darsliklar, interaktiv topshiriqlar va testlarni o‘z ichiga olgan markaziy tizim.
- Hamkorlik va kommunikatsiya vositalari: forumlar, chatlar, videoqo‘ng‘iroqlar va virtual guruh ishlari.
- Sun’iy intellekt tizimlari: o‘quvchilarning malakasini baholash, shaxsiylashtirilgan o‘quv yo‘nalishlarini tavsiya qilish.
- Resurslar kutubxonasi: elektron kitoblar, maqolalar, amaliy laboratoriya mashg‘ulotlari uchun onlayn simulyatorlar.
- Mobil va multiplatforma qo‘llab-quvvatlash: o‘quvchilarga istalgan vaqtda va joyda o‘qish imkoni.
- Analitik va monitoring vositalari: o‘quv jarayonini doimiy kuzatish va natijalarni tahlil qilish.

Raqamli ekotizimning afzalliklari. Doimiy interaktivlik va hamkorlik: ta’lim jarayonida o‘rganuvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida samarali muloqot.

Shaxsiylashtirilgan o‘quv yo‘nalishlari: o‘quvchilarning malaka darajasiga va qobiliyatlariga moslashgan dasturlar.

Tezkor va to‘liq baholash: avtomatik testlar, o‘rgangan materialni tezkor qayta ko‘rib chiqish.

Moslashuvchanlik: o‘quvning vaqt va joydan mustaqilligini ta’minlash.

Resurslarni markazlashtirish: barcha kerakli materiallar bitta platformada.

Amaliy tajribalar va misollar. Ko‘plab xalqaro kompaniyalar va oliy ta’lim muassasalari raqamli ekotizim asosidagi malaka oshirish platformalarini muvaffaqiyatli joriy etib kelmoqda. Masalan, Siemens, GE kabi yirik sanoat kompaniyalari o‘z xodimlari uchun integratsiyalashgan o‘quv ekotizimlarini yaratgan, bu esa o‘quv jarayonini tezlashtirib va samaradorlikni oshirgan.

Masofaviy malaka oshirish kurslarini raqamli ekotizimga aylantirish o‘zaro bog‘langan platformalar va texnologiyalar orqali ta’lim jarayonini yanada samarali, fleksibil va shaxsiylashtirilgan qiladi. Bu yondashuv muhandislik va boshqa texnik sohalar kadrlarini doimiy ravishda rivojlantirishda katta imkoniyatlarni ochadi. Kelajakda raqamli ekotizimni kengaytirish va uning tarkibiy qismlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar muhimdir.

Adabiyotlar:

1. Allen, I. E., & Seaman, J. (2014). Digital learning compass: Distance education enrollment report. Babson Survey Research Group. — Masofaviy ta’lim va raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq statistik ma’lumotlar va tahlillar.

2. Anderson, T. (2008). The Theory and Practice of Online Learning. Athabasca University Press. — Onlayn ta’lim nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha keng qamrovli manba.

3. Bonk, C. J., & Graham, C. R. (Eds.). (2006). The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs. Pfeiffer Publishing. — Aralash ta’lim modeli va uning raqamli platformalarda qo‘llanilishi.

4. Siemens, G. (2005). Connectivism: A learning theory for the digital age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2(1). — Zamonaviy ta’lim nazariyasi, xususan, bog‘lanishlar va tarmoqli ta’lim konseptlari.

5. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2008). Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. Jossey-Bass — Aralash va raqamli ta’limni tashkil etish tamoyillari.

6. Kirkwood, A., & Price, L. (2014). Learning and teaching with technology: Principles and practice. Open University Press. — Texnologiyalar asosidagi ta’limda prinsiplar va amaliyotlar.

7. Shirky, C. (2008). Here Comes Everybody: The Power of Organizing Without Organizations. Penguin Books. — Raqamli hamkorlik va tarmoqlashning ijtimoiy ta’siri.

8. OECD. (2016). New Approaches to Lifelong Learning. OECD Publishing. — Uzluksiz ta’lim uchun yangi yondashuvlar va raqamli innovatsiyalar.

9. Kozma, R. B. (2003). Technologies for learning: Why it matters. Contemporary Education, 74(2), 107–118. — Texnologiyalarning ta’limga ta’siri va imkoniyatlari.

10.UNESCO. (2019). Guidelines for Digital Literacy in Higher Education. — Raqamli savodxonlik va onlayn ta’lim bo‘yicha tavsiyalar.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI BOSHQARISHDAGI MUAMMOLARNI YECHISH YO‘LLARI

Aliyeva Gozzal Aliyevna,
Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti i.f.f.d (PhD) dotsenti

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash, sanoat va moliya sohalarida raqamli tizimlarning joriy etilishi boshqaruv samaradorligini oshirish imkonini bermoqda [1].

Biroq bu jarayonda bir qator muammolar ham yuzaga chiqmoqda: axborot xavfsizligi tahdidlari, raqamli notenglik, kadrlar yetishmovchiligi va tizimlar o‘rtasida integratsiyaning sustligi. Shu sababli, raqamli texnologiyalarni boshqarishda kompleks strategiya va muvofiqlashtirilgan yondashuv zarurdir [2].

Raqamli boshqaruvning asosiy maqsadi — texnologik imkoniyatlardan oqilona foydalanib, inson salohiyatini oshirish va barqaror raqamli iqtisodiyotni shakllantirishdir.

Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslandi:

* Tizimli tahlil – raqamli boshqaruv tizimlaridagi ichki va tashqi omillar o‘rganildi;

* Taqqoslama tahlil – O‘zbekiston tajribasi Janubiy Koreya, Estoniya va Xitoyning raqamli boshqaruv modellariga solishtirildi [3];

* Ekspert so‘rovi – IT mutaxassislari va boshqaruv xodimlari o‘rtasida raqamli texnologiyalarni qo‘llashdagi muammolarni aniqlash maqsadida so‘rov o‘tkazildi;

* Statistik tahlil – raqamli infratuzilma, internet qamrovi va elektron xizmatlardan foydalanish ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.

Mazkur yondashuvlar orqali muammolarni tizimli aniqlash va ularning yechimlarini ishlab chiqish imkoniyati yaratildi.

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

1. Texnik muammolar – ayrim davlat idoralari va korxonalarda IT-infratuzilmaning eskiligi, ma’lumotlar bazalarining uzviy integratsiyasi yo‘qligi aniqlangan.

2. Kadrlar yetishmovchiligi – raqamli menejment, kiberxavfsizlik va ma’lumotlarni tahlil qilish bo‘yicha malakali mutaxassislar soni yetarli emas [4].

3. Axborot xavfsizligi – davlat ma’lumotlarining markazlashtirilgan holda saqlanishi kiber hujumlar xavfini oshiradi.

4. Raqamli notenglik – shahar va qishloq aholisi o‘rtasida internet sifati hamda raqamli savodxonlik darajasi bo‘yicha katta tafovut mavjud [5].

5. Boshqaruvdagi muvofiqlashtirish yetishmasligi – ayrim tarmoqlarda raqamli loyihalarni turli vazirliklar alohida amalga oshiradi, bu esa yagona standartlarning shakllanmasligiga olib keladi [6].

Ushbu omillar raqamli transformatsiya jarayonlarining to‘liq natija berishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yechimlar taklif etiladi:

1. Integratsiyalashgan raqamli boshqaruv tizimini yaratish — davlat idoralari, biznes va fuqarolar uchun yagona raqamli platformalarni joriy etish [7];

2. Kadrlar salohiyatini oshirish — IT sohasida uzluksiz ta’lim dasturlari, raqamli ko‘nikmalar akademiyalari tashkil etish;

3. Axborot xavfsizligini kuchaytirish — milliy kiberxavfsizlik strategiyasini ishlab chiqish va “zero trust” tamoyilini tatbiq etish [8];

4. Raqamli inklyuziyani kengaytirish — nogironligi bo‘lgan shaxslar, ayollar va qishloq aholisi uchun moslashtirilgan raqamli xizmatlar yaratish;

5. Huquqiy-me’yoriy bazani yangilash — raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt va ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha qonunlarni zamon talabiga moslashtirish [9].

Bu yechimlar raqamli boshqaruvni yanada samarali va inklyuziv tizimga aylantirish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalarni boshqarishdagi muammolarni yechish — bu faqat texnik masala emas, balki strategik boshqaruv, inson resurslari va ijtimoiy inklyuziya bilan chambarchas bog‘liq jarayondir.

O‘zbekiston uchun raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim omillar — kadrlar tayyorlash, raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish va boshqaruv tizimlarini integratsiyalashdir.

Kelgusida davlat, xususiy sektor va ilmiy muassasalar hamkorligida yagona raqamli boshqaruv ekotizimini shakllantirish ustuvor vazifa bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni, 2020-yil.

2. UNDP (2023). Digital Governance Report. New York: United Nations Development Programme.

3. OECD (2022). Digital Government Index 2022.

4. To‘xtayev A. “Raqamli transformatsiya sharoitida boshqaruvning innovatsion yondashuvlari”, Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, 2023.

5. Jahon banki (2024). Digital Development in Central Asia.

6. Karimova D. “O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotdagi asosiy chaqiriqlari”, Barqaror rivojlanish tahlillari, 2022.

7. World Economic Forum (2023). Global Technology Governance Report.

8. ITU (2024). Cybersecurity Global Index. Geneva.

9. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari vazirligi hisobotlari, 2024-yil.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O‘RNI

Oripov Abdumalik Abdusalomovich
Farg‘ona davlat universiteti
“Buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlil” kafedrasi mudiri (PhD)
Ibroximov Muhammadsodiq Xokim o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti
Iqtisodiyot fakulteti Statistika mutaxassisligi talabasi

Raqamli transformatsiya ekotizimida yangi texnologiyalarni joriy etishni tezlashtirishda davlat-xususiy sheriklik (DXSH) muhim rol o‘ynaydi. Bu sheriklik har ikkala sektorning kuchli tomonlaridan foydalanib, to‘siqlarni yengishga va innovatsiyalarni rag‘batlantirishga yordam beradi. DXSH davlat ehtiyojlarini xususiy sektor imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirishga ko‘maklashadi.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan XXI asrning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jihatidan, xususiy sektorni rivojlantirish va tadbirkorlik muhitini takomillashtirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishga zamin yaratish zarurati o‘z ifodasini topdi. “O‘zbekiston Respublikasida xususiy sektorni jadal rivojlantirish va davlat ishtirokini kamaytirish bo‘yicha islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi prezident farmonida (2022-yil 8-aprel, PF–101-son) xususiy mulkning daxlsizligini ta’minlash hamda investitsiyalarni jalb qilish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish strategiyasi belgilandi. Shuningdek, soliq-bojxona imtiyozlari, davlat aktivlarining xususiylashtirilishi, va davlat-xususiy sheriklik instrumentlari orqali bozor munosabatlariga to‘laqonli o‘tishni jadallashtirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida e’tirof etildi. Mazkur chora-tadbirlar raqamli transformatsiya,

innovatsion aktivitet va mehnat bozorining zamonaviy talablarga moslashuvi nuqtai nazaridan muhim poydevor vazifasini amalga oshiradi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya ekotizimini shakllantirish jarayonida davlat va xususiy sektor hamkorligi (DXSH) iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2020–2024-yillar davomida O‘zbekistonda DXSH asosida amalga oshirilgan raqamli loyihalar soni 2,3 baravarga oshgan bo‘lib, ularning umumiy qiymati 1,2 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan. Loyihalarning 58 foizi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) infratuzilmasini modernizatsiya qilishga, 27 foizi elektron davlat xizmatlarini kengaytirishga, 15 foizi esa ma’lumotlar xavfsizligi va kiberhimoya tizimlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan.

Empirik kuzatuvlar natijasida aniqlanishicha, davlat tomonidan yaratilayotgan soliq imtiyozlari, grant dasturlari va normativ-huquqiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari xususiy sektor investitsiyalarini 35 foizga oshirgan. Shu bilan birga, xususiy kompaniyalar tomonidan ilg‘or texnologiyalarni joriy etish natijasida xizmatlar sifati 25 foizga, raqamli mahsulotlar eksporti esa 18 foizga ortgan. Mazkur ko‘rsatkichlar DXSH nafaqat texnologik modernizatsiyani, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda ham muhim turtki bo‘layotganini tasdiqlaydi. Shu bois, kelgusida ushbu hamkorlikni boshqaruv samaradorligi, shaffoflik va ma’lumotlar integratsiyasi asosida yanada rivojlantirish zarur.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida oziq-ovqat sanoati korxonalarining boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalasi nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash nuqtai nazaridan ham strategik ahamiyat kasb etadi. A.A. Oripov ning tadqiqotida ta’kidlanganidek, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarish va logistika tizimlariga keng joriy etish jarayonlari natijasida korxonalarning resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish hajmini optimallashtirish va iste’molchi ehtiyojlariga moslashuvchan tarzda javob qaytarish imkoniyatlari ortmoqda.

Sun’iy intellekt (AI), katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish (Big Data), blokcheyn va IoT texnologiyalarining joriy etilishi oziq-ovqat ishlab chiqarish zanjirining shaffofligi, mahsulot sifati va xavfsizligini kafolatlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Biroq, raqamli transformatsiya jarayonlari kichik va o‘rta korxonalar uchun katta investitsion yuklamalar, axborot xavfsizligi tahdidlari va kadrlar yetishmovchiligi kabi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, O‘zbekiston sharoitida Germaniya, AQSh va Xitoy tajribalariga tayanib, raqamli boshqaruvning kompleks dasturlarini ishlab chiqish, davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash hamda soliq imtiyozlarini kengaytirish orqali oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish dolzarb strategik yo‘nalish sifatida qaraladi[9]

Raqamli transformatsiya milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, texnologik innovatsiyalarni joriy etish hamda yangi iqtisodiy modelni shakllantirishning muhim omilidir. A. Kucharov va hammualliflar ta’kidlaganidek, bu jarayon nafaqat texnik o‘zgarish, balki jamiyatning barcha jabhalarini qamrab oluvchi kompleks transformatsiya sifatida namoyon bo‘ladi. Sun’iy intellekt, bulutli hisoblash va “Internet narsalar” texnologiyalari iqtisodiy tahlilning aniqligini oshirib, boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada kuchaytiradi. McKinsey & Company tadqiqotlariga ko‘ra, raqamli transformatsiya kompaniyalar qiymat zanjirlarini optimallashtirish,

mijozlar tajribasini yaxshilash va innovatsion yondashuvlar orqali raqobat ustunligini shakllantirishga xizmat qiladi [10].

Microsoft, Amazon va Tesla kabi kompaniyalar raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli joriy etib, innovatsion biznes modellar orqali yangi daromad manbalarini yaratganligi bu jarayonning amaliy samarasini tasdiqlaydi

Raqamli texnologiyalarni davlat xizmatlari va infratuzilma boshqaruvida qo‘llash esa samaradorlikni oshirish hamda inson kapitalini raqamli iqtisodiyot talablari bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi

Jahon bankining fikricha, davlat-xususiy sheriklik modeli “davlat investitsiyalarining samaradorligini oshirish va innovatsion moliyalashtirishni jalb etish”ning eng muhim vositalaridan biridir[10].

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya ekotizimini shakllantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi (DXSH) innovatsion rivojlanishning strategik omili sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu hamkorlik raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonini tezlashtirib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, jumladan, sog‘liqni saqlash, oziq-ovqat sanoati va ishlab chiqarish sohalarida samaradorlikni oshiradi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, DXSH modeli resurslarni oqilona taqsimlash, xavflarni kamaytirish, texnologik innovatsiyalarni kengaytirish va ijtimoiy manfaatlarni uyg‘unlashtirishda beqiyos natijalar beradi. Shu bois, O‘zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyotni jadallashtirish uchun DXSH mexanizmlarini institutsional va huquqiy jihatdan takomillashtirish, davlat siyosatini moslashtirish hamda innovatsion infratuzilmani qo‘llab-quvvatlash muhim ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Xie Jiaqi. Conceptualizing Public-Private Partnerships for Technology Innovation and Digital Transformation in China’s Post-Pandemic Recovery. 2023. T. 2, № 04. C. 10–16.

2. Elena Casprini, Rocco Palumbo. Reaping the benefits of digital transformation through Public-Private Partnership: A service ecosystem view applied to healthcare // Global Public Policy and Governance. 2022. T. 2, № 4. C. 453–476.

3. Adaobi Beverly Akonobi, Christiana Onyinyechi Okpokwu. A Multi-Stakeholder Innovation Acceleration Model for Enhancing Product Adoption in Digital Ecosystems. 2021. T. 2, № 1. C. 76–88.

4. A. Rumiantsev, Volodymyr Morozov, German Panikar. Innovation at the Crossroads: How Public-Private Partnerships Drive Technological Development in Europe // Actual problems of international relations. 2024. № 159. C. 94–108.

5. Kongkon Bordoloi va boshq. Digital Platforms as Catalysts for Public-Private Partnerships in Achieving Sustainable Development Goals // Advances in educational technologies and instructional design book series. 2024. C. 181–208.

6. Dimitrios G. Katehakis va boshq. The smarthealth European Digital Innovation Hub experiences and challenges for accelerating the transformation of public and private organizations within the innovation ecosystem // Frontiers in Medicine. 2024. T. 11.

7. Kania, M. (2021). Rola partnerstwa publiczno-prywatnego w transformacji technologicznej sektora publicznego. Zeszyty Naukowe Uniwersytetu Rzeszowskiego-Seria Prawnicza, (34), 115-134.

8. Rita Uchenna Attah va boshq. Evaluating strategic technology partnerships: Providing conceptual insights into their role in corporate strategy and technological innovation // International Journal of Frontiers in Science and Technology Research. 2024. T. 7, № 2. C. 077–089.

9. Oripov Abdumalik Abdusalomovich Raqamli iqtisodiyot sharoitida oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari // Raqamli iqtisodiyot. 2025. №11.

10. Kucharov A., Bobojonov A., Abdurakhmonov A. Raqamli transformatsiya konsepsiyalari va ularning ahamiyati // EITT. 2024. T. 2, № 1. C. 44–56.

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ НА ДИНАМИКУ БЕДНОСТИ И СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО НЕРАВЕНСТВА В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА

Сайдалиева Дилдора Собир кизи
Главный специалист отдела обучения личного состава
Специального инженерно-строительного управления
Главного управления по инженерно- защитным и
строительно-восстановительным работам
Министерства по чрезвычайным ситуациям, свободный соискатель
Ташкентского государственного университета Востоковедения

Современные тенденции показывают, что социально-экономическое неравенство всё чаще приобретает цифровое измерение. Оно проявляется не только в уровне доходов и имущественной обеспеченности, но и в различиях доступа к интернету, цифровым услугам, электронным ресурсам и навыкам их использования. В результате возникает новая форма социального разрыва — цифровое неравенство, усиливающее традиционные формы экономической дифференциации и ограничивающее социальную мобильность.

Как подчеркнул Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев: «В целях устойчивого развития мы должны глубоко освоить цифровые знания и информационные технологии, что это даст нам возможность идти по самому короткому пути к достижению всестороннего прогресса. В современном мире цифровые технологии играют решающую роль во всех сферах».[1]

Эта позиция отражает стратегическое понимание цифровизации как важнейшего инструмента устойчивого и инклюзивного развития. В этих условиях цифровизация становится стратегическим инструментом снижения бедности и неравенства, обеспечивая прозрачность распределения ресурсов, развитие человеческого капитала и расширение экономических возможностей. Государственная политика Узбекистана всё активнее опирается на цифровые решения в социальной, налогово-бюджетной и трудовой сферах, что повышает адресность поддержки, эффективность администрирования и доступ граждан к государственным услугам.


Государственная политика Узбекистана в последние годы активно опирается на цифровые решения в социальной, налогово-бюджетной и трудовой сферах, что обеспечивает повышение адресности поддержки, эффективности администрирования и доступности государственных услуг. Ключевым ориентиром цифровых реформ является инклюзивный рост, при котором выгоды экономического развития распределяются между всеми слоями населения.

Важнейшим направлением цифровой трансформации стало создание Единого реестра социальной защиты (ЕРСЗ) — цифровой платформы, аккумулирующей сведения о социально уязвимых домохозяйствах на основе объективных индикаторов нуждаемости. Внедрение ЕРСЗ при поддержке Всемирного банка позволило отказаться от фрагментарных и бумажных методов учёта, повысив прозрачность и эффективность социальной поддержки. [2]

Дополнением к ЕРСЗ стала система «социальных книг» — «Железной», «Женской» и «Молодёжной», обеспечивающая комплексное сопровождение

уязвимых домохозяйств и индивидуализированный подход к помощи. Эти инструменты интегрированы в единую цифровую экосистему социальной защиты, охватывающую меры материальной помощи, субсидии, программы занятости и профессиональной подготовки. [3]

В 2021–2023 годах наблюдалось существенное увеличение объёмов адресной поддержки малообеспеченных домохозяйств: совокупные расходы выросли с 5,7 млрд сумов в 2021 году до 12,31 млрд сумов в 2023 году.




1-рисунок. Динамика и структура мер социальной поддержки малообеспеченных семей в Республике Узбекистан (2021–2023 гг.)

Источник: *составлен автором на основе Базы данных Целей устойчивого развития в Республике Узбекистан*

Наибольшая часть средств традиционно направлялась на детские пособия, что отражает демографические приоритеты государства.

Вместе с тем доля разовой материальной помощи снизилась, что свидетельствует о переходе от эпизодических выплат к системным механизмам поддержки. Децентрализация управления и внедрение «махаллинской модели» способствовали укреплению локального администрирования и повышению эффективности социальной политики. [4]



2-рисунок. Ежегодный прирост численности занятых в экономике в 2017-2024 гг. (тыс.человек)

Источник: *составлен автором на основе данных, приведённых Национальным комитетом Республики Узбекистан по статистике по трудовым ресурсам за соответствующие годы*

Цифровизация оказала заметное влияние и на сферу занятости. Созданные в 2020 году моноцентры «Ишга марҳамат» стали важным элементом цифровой инфраструктуры рынка труда. В 2024 году обучение в них прошли 234,3 тыс. человек, из которых 57,4 % составили женщины и 27,7 % — молодёжь, что указывает на повышение инклюзивности трудовых возможностей.

Рост цифровых сервисов способствовал активизации предпринимательской деятельности: с 2017 по 2025 год число предприятий в стране стабильно увеличивалось, особенно в Ташкенте и Самаркандской области. Однако сохраняются значительные территориальные различия: регионы с низкой цифровой инфраструктурой — Каракалпакстан, Навоийская и Сырдарьинская области — отстают по показателям занятости и числу предприятий.

Анализ региональной занятости подтверждает тесную связь между уровнем предпринимательства и развитием цифровых технологий. В 2024 году наибольшие показатели занятости зафиксированы в Ферганской (1,56 млн чел.), Самаркандской (1,52 млн) и Андижанской (1,34 млн) областях [5].

. В то же время в Сырдарьинской и Джизакской областях численность занятых не превышала 0,56 млн. человек, что отражает неравномерность цифрового и экономического развития регионов.

Таким образом, наряду с социально-экономическим эффектом цифровизации, формируется новое измерение неравенства — цифровое, выражающееся в неодинаковом уровне доступа к интернету, цифровым платформам и электронным услугам. Эти различия ограничивают потенциал цифровой инклюзии и требуют целенаправленных мер по развитию инфраструктуры и цифровой грамотности населения.

Цифровая трансформация в Узбекистане становится ключевым фактором повышения эффективности социальной политики и снижения уровня бедности. Внедрение ЕРСЗ и системы «социальных книг» обеспечило адресность, прозрачность и оперативность социальной поддержки, а развитие цифровых сервисов занятости расширило возможности трудовой и экономической активности населения.

Вместе с тем цифровизация обнажила проблему цифрового неравенства, связанного с региональными различиями в инфраструктуре и уровне цифровых навыков. Для обеспечения инклюзивного характера цифрового развития необходим комплексный подход, сочетающий развитие инфраструктуры, повышение цифровой грамотности и вовлечение социально уязвимых групп в цифровую экономику.

Таким образом, цифровая трансформация выступает не только как технологический, но и как социальный процесс, способный при грамотной реализации стать катализатором снижения бедности и выравнивания социально-экономических возможностей.

Литературы:

1. Мирзиёев Ш. М. В целях устойчивого развития мы должны глубоко освоить цифровые знания и информационные технологии // IT Park Узбекистан. — URL: https://it-park.uz/index.php/ru/itpark/news/poslanie-prezidenta.

2. Всемирный банк. Digital Uzbekistan: Transforming Governance and Social Protection Systems. *Washington, DC: World Bank, 2023.*

3. UNICEF. Social Protection Digitalization in Central Asia: Country Profile of Uzbekistan*. New York: UNICEF, 2022.*

4. UNDP Uzbekistan. Human Development Report 2023/24: Digital Inclusion and Equality. Tashkent: UNDP, 2023.

5. *Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. Трудовые ресурсы Республики Узбекистан (2017–2024 гг.). Ташкент, 2024.*

ТРАНСФОРМАЦИЯ МЕХАНИЗМОВ РЕГУЛИРОВАНИЯ ГОРОДСКОЙ СРЕДЫ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ РЕШЕНИЙ И ПРИНЦИПОВ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Шатохина Светлана Юрьевна
ТГЭУ старший преподаватель

Цифровая трансформация городской среды представляет собой институциональный и технологический процесс переосмысления механизмов управления городами на основе данных, платформенных решений и интеллектуальных сервисов, направленных на повышение качества жизни населения и обеспечение устойчивого развития. В современных условиях она выступает не только технологическим трендом, но и новым форматом государственного управления, где цифровые инструменты становятся основой для мониторинга, регулирования и планирования городской динамики в режиме реального времени [6].

Цифровизация городской среды формирует предпосылки перехода от фрагментарного управления объектами инфраструктуры к экосистемной модели, предполагающей взаимосвязанность транспортных потоков, коммунальных ресурсов, экологического состояния, социальной инфраструктуры и пространственного развития города. Такой подход согласуется с концепцией «умного города», где ключевым ресурсом становится не сам технологический объект, а данные, превращающиеся в основу управленческих решений [5]. Принципы устойчивого развития при этом дополняются цифровыми инструментами диагностики и прогнозирования, что обеспечивает более высокую точность регулирования и сокращает управленческие риски [8].

Методологически цифровая трансформация городской среды включает три взаимосвязанных уровня:

1. технологический уровень – платформы, цифровые сервисы, датчики, ИКТ-инфраструктура;

2. управленческий уровень – модели координации, институциональные механизмы регулирования и государственная политика;

3. прост--ранственно-социальный уровень – влияние цифровых решений на качество городской среды, мобильность, доступность услуг и социальную инклюзивность.

Особое значение в контексте устойчивого развития приобретает связка «государственная политика – цифровая инфраструктура – качество городской среды». Если на первом этапе цифровизация выступала как инструмент автоматизации процессов городского хозяйства, то на современном этапе она становится фактором структурного изменения моделей городского управления

и формирует предпосылки для появления «цифровых экосистем», где государство выступает не только регулятором, но и оператором данных [4].

Таким образом, теоретическая база исследования позволяет рассматривать цифровую трансформацию не как технологический компонент, а как новую парадигму устойчивого городского развития, предполагающую цифровое сопровождение всех ключевых процессов – от планирования городской инфраструктуры до оценки качества жизни населения. Именно эта методологическая связка является основой последующего анализа применительно к городам Узбекистана.

В Узбекистане цифровая трансформация городской среды стала приоритетным направлением государственной политики, особенно после принятия программных документов «Цифровой Узбекистан – 2030» и «Новый Узбекистан – 2030» [1; 2]. Целью данных стратегий является создание экосистемы цифрового управления, охватывающей транспорт, энергетику, коммунальные услуги, образование, здравоохранение и другие сектора

В период 2020–2025 гг. во всех крупных центрах страны наблюдается активное внедрение цифровых решений, однако темпы и масштабы цифровизации остаются неравномерными [3]. Ташкент как столица выступает лидером по уровню цифровой зрелости, тогда как региональные центры - Самарканд, Бухара и Наманган - демонстрируют положительную, но менее интенсивную динамику. Для объективной оценки уровня цифровой инфраструктуры и ее вклада в устойчивое развитие городов применен интегральный индекс, включающий три ключевых блока:

1. развитие ИКТ-инфраструктуры (скорость и доступность интернета, инвестиции в ИКТ);

2. уровень цифровых сервисов (электронное управление, «умные» системы ЖКХ, транспортные платформы);

3. институциональная среда (наличие программ, кадровая готовность, цифровая инклюзия населения).

1-таблица

Комплексная оценка цифровой инфраструктуры и устойчивого развития городов Узбекистана (2024 г.)

№ п/п	Показатели	Ташкент	Самарканд	Бухара	Наманган
1	Инвестиции в ИКТ, млрд сум	5 420	1 240	980	870
2	Доля населения, охваченного интернетом, %	96	89	84	81
3	Количество государственных цифровых сервисов, ед.	220	135	118	104
4	Уровень внедрения «умных» систем (транспорт, ЖКХ), %	82	60	52	48
5	Индекс цифровой инфраструктуры (0–1)	0.88	0.67	0.59	0.54
6	Индекс устойчивого развития города (0–1)	0.81	0.70	0.66	0.62

Источник: *Расчеты автора по данным Министерства цифровых технологий Республики Узбекистан, Национальный комитет Республики Узбекистан по статистике, UNDP [1–4; 6].*

Данные таблицы свидетельствуют, что наибольший уровень цифровой инфраструктуры зафиксирован в Ташкенте, где активно развиваются «умные» решения в сфере транспорта, жилищно-коммунальных услуг, мониторинга экологии и безопасности. В результате индекс цифровой инфраструктуры столицы достиг 0,88, а индекс устойчивого развития - 0,81, что указывает на прямую взаимосвязь цифровизации и качества городской среды [4; 5].

В Самарканде и Бухаре реализация цифровых инициатив осуществляется преимущественно в туристическом и коммунальном секторах. Здесь цифровая трансформация способствует формированию комфортной городской среды и улучшению сервисов для населения, однако недостаточная глубина интеграции данных между ведомствами ограничивает потенциал этих проектов. Наманган демонстрирует стабильное развитие цифровых платформ муниципального управления, но сталкивается с кадровыми и инфраструктурными барьерами, что снижает эффективность использования технологий [3; 6].

В целом анализ показал, что высокая цифровая насыщенность городской инфраструктуры прямо коррелирует с индексом устойчивого развития. Города с развитой телекоммуникационной и сервисной инфраструктурой характеризуются более высоким уровнем социальной инклюзии, энергетической эффективности и прозрачности управления. Это подтверждает необходимость формирования единой национальной системы цифрового мониторинга устойчивости городов Узбекистана, что соответствует рекомендациям международных организаций UN-Habitat и OECD [3; 8].

Результаты проведенного анализа показывают, что цифровая трансформация городской среды в Узбекистане проходит поэтапно и сопровождается институциональными изменениями в сфере государственного регулирования. При этом наблюдается четкая корреляция между уровнем развития цифровой инфраструктуры и индексом устойчивого развития: города с высокими показателями цифровизации демонстрируют более высокое качество городской среды, управляемость процессов и социальную устойчивость [4; 5]. Это подтверждает гипотезу о том, что цифровизация является не вспомогательным, а системообразующим фактором устойчивого развития.

Ташкент выступает флагманом цифровых преобразований, концентрируя пилотные проекты по управлению транспортными потоками, «умным» освещением, экологическим мониторингом и платформенным управлением коммунальной инфраструктурой. Однако даже при высоком уровне цифровой зрелости столица сталкивается с проблемами недостаточной интеграции данных между различными ведомствами и системами, что ограничивает потенциал комплексного анализа городской динамики [2; 4].

В Самарканде, Бухаре и Намангане развитие цифровой инфраструктуры в большей степени зависит от целевых государственных программ и международных грантов. При этом уровень региональной цифровой инклюзии остается неравномерным: часть городов демонстрирует активное внедрение цифровых сервисов, но испытывает нехватку специалистов в области анализа данных и кибербезопасности [3; 6].

Необходимо перейти от фрагментарных цифровых инициатив к модели экосистемного цифрового управления, в рамках которой город рассматривается как единый организм, включающий транспортную, экологическую,

энергетическую и социальную подсистемы. Для достижения синергетического эффекта целесообразно внедрить региональные центры цифрового развития, обеспечивающие обмен данными, консалтинг и поддержку проектов «умных городов» в областных центрах.

Кроме того, предлагается:

- интегрировать показатели цифровой инфраструктуры в систему мониторинга устойчивого развития регионов;
- разработать индикатор «уровень цифровой комфортности городской среды»;
- активизировать участие частного сектора и университетов в цифровых инициативах через модели государственно-частного партнерства;
- внедрить «дорожные карты» цифровизации с приоритетом на энергосбережение, транспортную оптимизацию и электронное взаимодействие с гражданами.

Реализация указанных мер позволит повысить конкурентоспособность городов Узбекистана, укрепить их позицию в региональной экономике и ускорить переход к модели устойчивого и инклюзивного цифрового развития.

Литературы:

1. Собитова С.Н. Рекомендации и предложения по улучшению цифровой экономики Узбекистана в будущем. 2025.

2. Panjiyev H. Work Carried Out on Digitalizing the Economy in Uzbekistan. 2025.

3. UNDP. Digital Economy of Uzbekistan. 2025.

4. Digital Transformation Scoreboard in Uzbekistan. 2024.

5. Abdurashidova M. S., Tadjieva F. M. Introduction of Technologies "Smart City" in the Republic of Uzbekistan. IJARSET. Vol. 8, Issue 2, February 2021.

6. Ogunmola G. A. Exploring the Impact of Digital Transformation on Economic Sustainability in Uzbekistan: Opportunities and Implications. J Bus Econo Stud. 2024.

7. OECD. Digital Government Index Report 2024.

8. UN-Habitat. Smart Sustainable Cities and Data Governance Framework. 2024.

КОРХОНА ВА ТАШКИЛОТЛАРНИ ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШДА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТНИНГ ЎРНИ

Хувайдуллаева Ирода Хусниддин қизи,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
"Меҳнат иқтисодиёти" кафедраси ассистенти мустақил изланувчи
Маматханова Зиёда Хуснутдин қизи
Халқаро Нордик университети магистри


Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Сунъий интеллект технологияларини 2030 йилга қадар ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида» 2024 йил 14 октябрдаги ПҚ-358-сон қарори ижросини таъминлаш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси қарор қилади. "Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 14 октябрдаги ПҚ-358-сон қарори билан Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги тузилмасидаги «Рақамли иқтисодиёт тадқиқотлари маркази» давлат муассасаси негизида «Сунъий интеллект ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш маркази» давлат

муассасаси (кейинги ўринларда — Марказ) ташкил этилгани маълумот учун қабул қилинсин” [1] деб белгиланди.

Сунъий интеллект корхоналарда HR стратегияси такомиллаштириш, ҳамда энг яхши иқтидор эгаларини жалб қилиш ва инновацияларнинг юқори даражасини сақлаб қолиши учун келажак иш берувчисига айланишга имкон беради. Ушбу стратегияда корхонанинг рекрутинг вазифаларини, ходимларни ишга олиш жараёнидаги фаолият турларини, ходимларнинг иш фаолиятини бахолаш, сифат даражасини текширишларини сунъий интеллект орқали амалга ошириш ва ходимларнинг қолган бўш вақтларида янги ғоялар яратишга имкон беради.

Ўзбекистонда илк бор сунъий интеллект ва иш билан бандлик масалаларини ўрганган тадқиқотчи олимлардан академик Қ.Абдурахманов ва С.Ғойипназаровлар илмий ишларида ўргандилар.

Хусусан, Ўзбекистон Фанлар академиги Қ.Абдурахманов фикрича, “робототехника, сунъий интеллект технологиялари ва интернетининг ривожланиши меҳнат шароитларини тубдан ўзгаришига олиб келди. Автоматлаштириш ва сунъий интеллект самарадорликни оширишга қўшган ҳиссаси орқали иқтисодий ўсишни таъминлайди. Машиналар ҳозирда инсонлар томонидан бажариладиган кўпроқ вазифаларни бажариши, инсонлар бажарадиган ишини тўлдириши ва ҳатто одамлар қила оладиган вазифалардан ташқарида бўлган баъзи вазифаларни бажариши мумкин бўлади. Бу эса ўз навбатида иш билан бандлик ҳолатига таъсир кўрсатади” [2].



1-расм. Сунъий интеллектнинг бандлик даражасига ҳамда иш ўринларига таъсири

Тадқиқотчи олим С.Ғойипназаров “сунъий интеллект ва таълим ўртасидаги уч томонлама имкониятларни ривожлантириш, рақамли иқтисодиёт шароитида аҳолини иш билан бандлиги ва саломатлиги, турмуш сифати, таълим тизимининг ривожланиш сифати ва рақобатбардошлиги инсон капиталининг рақамли ривожланиш ҳолатига тўғридан-тўғри боғлиқлиги самарадорликни ошишир механизмларини ишлаб чиқиш каби йўналишдаги тадқиқотлар кўламини кенгайтириш мақсадга мувофиқ”[3] деб ўз фикрларини билдирганлар.

Инсон капитали ва сунъий интеллектнинг инсон ресурсларига ўзаро таъсирини ўрганиш мухим бўлиб, бугунги рақамли муҳитда инсон капиталини ривожлантириш сунъий интеллект тараққий этишида инсон капиталини аҳамияти катта эканлиги маълум бўлган. Сунъий интеллект паст даражадаги ишчи кучининг ўрнини босади, лекин корхоналарда юқори малакали, истеъдодли ходимларга талаб оширади. Келажакда инсон ресурсларининг ўрнини босадиган фақатгина сунъий интеллект эмас. Бошқа янги омиллар ҳам кўпайиб бормоқда. Бунга асосий сабаблардан бири шундаки инсон ресурсларининг рақобатдошлиги пастлигидир.

Сунъий интеллект меҳнет бозорини тубдан ўзгартиради, ходимларни бошқариш самарадорлигини оширади, лекин айни пайтда иш жойларини автоматлаштириш ва ходимларнинг янги шароитларга мослашиши зарурати кўринишидаги қийинчиликларни келтириб чиқаради.

Ишчи кучи сифатини ошириш, малакаси устида ишлаш, бандлик муоммосини ҳал қилишнинг асосий йўли ҳисобланади. Инсон ресурслари ўз билим ва тажрибаларини замон талабига қараб ривожлантира олиши, мослашувчанликни кучайтириши меҳнат бозоридаги талабини оширади.

Инсон ресурсларини сунъий интеллектдан энг асосий авфзаллиги бу инсонларнинг ижодкорлиги, истеъдоди ва фикрлаш салоҳиятидир.

Президент Шавкат Мирзиёев 27 декабрь куни сунъий интеллект технологияларини ҳамда телекоммуникацияларни ривожлантириш бўйича режалар тақдимоти билан танишди ва Тармоқ корхоналарида бошланган трансформация ижобий натижа бераяпти. Шу йилнинг ўзида телекоммуникация хизматлари ҳажми 16 фоизга ошиб, 21 триллион сўмга етган. “Ўзбектелеком” компанияси даромади 9 триллион сўмдан ошганлиги ҳақида маълумотлар берилди.

Сўнги йилларда рақамли иқтисодиётни ривожланиши ва сунъий интеллектга бўлган талабнинг ошиши иш билан бандлик ҳолатига салбий таъсир кўрсатишига қарамай, инсон ресурсларига бўлган талаб ҳеч қачон камаймаслиги ва инсон ресурсларидан самарали фойдаланиш учун сунъий интеллек янада кўпроқ имконият яратишидир.

Адабиётлар:

1. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 14.10.2024 йилдаги ПҚ-358-сон[1]*
2. *Абдурахманов Қ.Х. Искусственный интеллект основа устойчивого развития экономики.Дарслик.-Москва.:ФГБОУ ВО “РЭУ им. Г. В. Плеханова”,2023. 355 б.49-бет. [2]*
3. *Ғойипназаров С.Б. Меҳнат муносабатлаини такомиллаштиришда сунъий интеллектни жорий этиш ва инсон капиталини ривожлантиришнинг методологик асослари. Монография. [3]*
4. *https://president.uz/uz/lists/view/7792[4]*
5. *https://lex.uz/uz/docs/7621993*
6. *http://www.ilo.org –Халқаро Меҳнат ташкилотининг расмий сайти.*
7. *https://uzbekistan.un.org – Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Ўзбекистондаги ваколатхонаси расмий сайти.*

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISH

Rizayeva Nilufar Oblakulovna
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik Oliy maktabi mustaqil tadqiqotchisi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi *PF-158-son Farmoni* bilan tasdiqlangan *“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi* mamlakat iqtisodiyotini raqamlashtirish, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish va kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Mazkur hujjatda kichik biznes subyektlari uchun qulay biznes muhitini yaratish, raqamli infratuzilmani kengaytirish, elektron davlat xizmatlarini rivojlantirish va tadbirkorlar uchun yangi moliyaviy imkoniyatlarni joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Shu jumladan, strategiya:

- kichik biznesning raqamli iqtisodiyotga integratsiyasini jadallashtirish;
- elektron tijoratni rivojlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarning bozorga kirib borishini qo‘llab-quvvatlash;
- “raqamli savodxonlik” dasturlari orqali tadbirkorlarning IT-ko‘nikmalarini oshirish;
- elektron to‘lov tizimlari va fintech xizmatlarini yanada rivojlantirish orqali moliyaviy inklyuziyani kengaytirishni nazarda tutadi.

Bu farmon ijrosi bevosita kichik biznesning transformatsion rivojlanishiga xizmat qiladi. Zero, kichik biznes subyektlari raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish, ichki va tashqi bozorlarda o‘z raqobatbardoshligini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Raqamli transformatsiya nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, balki marketing, moliyaviy boshqaruv, mijozlar bilan muloqot, logistika va xalqaro savdoda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham kichik biznes va tadbirkorlikni raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, so‘nggi yillarda elektron tijorat, onlayn to‘lov tizimlari, davlat xizmatlarini elektron ko‘rinishda ko‘rsatish kabi islohotlar amalga oshirilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes uchun eng muhim imkoniyatlardan biri — bu elektron tijorat va onlayn savdo platformalaridan foydalanishdir. Global miqyosda Amazon, Alibaba, eBay kabi yirik platformalar orqali kichik biznes korxonalari cheklangan resurslarga qaramay xalqaro bozorlarga kirib bormoqda. O‘zbekistonda esa UZUM Market, OLX, ZoodMall kabi platformalar kichik tadbirkorlarga milliy va mintaqaviy bozorni qamrab olish imkonini bermoqda. Shu orqali mahsulot va xizmatlarni keng auditoriyaga tezkor va qulay tarzda yetkazib berish, marketing xarajatlarini kamaytirish va mijozlar bilan bevosita aloqa o‘rnatish imkoniyati yaratilmoqda.

An’anaviy reklama vositalariga nisbatan raqamli marketing kichik biznes uchun yanada samarali va arzonroq yechim hisoblanadi. Facebook, Instagram, Telegram, TikTok kabi ijtimoiy tarmoqlarda reklama qilish nafaqat mahsulotni ommalashtirishga, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri xaridorlar bilan muloqot qilishga, ularning ehtiyoj va takliflarini

o‘rganishga ham xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, “targeting” va “analytics” texnologiyalari yordamida tadbirkorlar auditoriyani aniq segmentlarga ajratib, mahsulotni to‘g‘ri mijozga yo‘naltirish imkoniga ega bo‘lishmoqda. Natijada kichik biznes raqobatbardoshlikni oshirish bilan birga marketing xarajatlarini ham optimallashtiradi.

So‘nggi yillarda fintech xizmatlari va elektron to‘lov tizimlarining keng joriy etilishi kichik biznes uchun katta qulayliklar yaratmoqda. Payme, Click, Apelsin kabi milliy to‘lov tizimlari, shuningdek, xalqaro PayPal, Stripe kabi xizmatlardan foydalanish imkoniyati hisob-kitob jarayonlarini soddalashtirdi. Bu esa naqd pulsiz hisob-kitobni kengaytirish, mijozlar uchun xavfsizlikni ta’minlash va operatsion xarajatlarni kamaytirishga olib kelmoqda. Bundan tashqari, fintech innovatsiyalari kichik biznesga mikrokreditlar, crowdfunding va peer-to-peer moliyalashtirish imkoniyatlarini yaratib, ularning investitsiya manbalarini kengaytirmoqda.

Aibatta bu jarayonda bir qancha muammolar ham mavjud.

1. Raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani

Kichik biznes subyektlarining to‘liq raqamli transformatsiyaga o‘tishida asosiy to‘siqlardan biri — bu raqamli infratuzilmaning notekis rivojlanganligidir. Aholi zich joylashgan shahar markazlarida internet tezligi va mobil aloqa imkoniyatlari nisbatan yaxshi bo‘lsa-da, qishloq hududlarida internet sifati pastligi va telekommunikatsiya xizmatlarining yetarli emasligi tadbirkorlik faoliyatini cheklab qo‘ymoqda. Bu esa kichik biznes vakillarining elektron tijorat, raqamli marketing yoki onlayn moliyaviy xizmatlardan to‘liq foydalanishiga to‘sqinlik qiladi. Shuningdek, raqamli infratuzilmaning zaifligi mamlakat ichki bozorining yagona raqamli tizimga integratsiyasini sekinlashtiradi.

2. Kichik biznes egalari orasida raqamli savodxonlikning pastligi

Raqamli transformatsiya jarayonining muvaffaqiyati inson kapitali darajasiga ham bog‘liqdir. O‘zbekistonda kichik biznes subyektlari egalari orasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar yetarli emasligi kuzatilmoqda. Ko‘plab tadbirkorlar elektron to‘lov tizimlari, onlayn reklama, elektron hujjat aylanishi va mijozlar bilan CRM tizimlari orqali ishlash imkoniyatlaridan xabardor emas yoki ularni samarali qo‘llash ko‘nikmalariga ega emas. Natijada, kichik biznesning raqamli iqtisodiyotda faol ishtiroki cheklanib qolmoqda.

3. Moliyaviy resurslar va raqamli texnologiyalarga investitsiyalar yetishmasligi.Raqamli texnologiyalarni joriy etish sezilarli moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Kichik biznes vakillari ko‘pincha cheklangan mablag‘larga ega bo‘lgani sababli zamonaviy dasturiy ta’minot, elektron tijorat platformalari, avtomatlashtirilgan hisob-kitob tizimlari yoki sun’iy intellekt asosidagi yechimlarni joriy etishda qiynaladi. Bundan tashqari, banklar tomonidan beriladigan kreditlar foiz stavkasining yuqoriligi, venchur kapital va grant dasturlarining cheklanganligi ham kichik biznesning innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini pasaytirmoqda. Shu bois, kichik biznesning raqamli rivojlanish jarayoni sekinlashmoqda va ular global raqobatda yutqazib qo‘yish xavfi ostida qolmoqda.

O‘zbekistonda elektron tijorat sektori sezilarli darajada kengayib bormoqda. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2020–2024 yillar oralig‘ida elektron tijorat hajmi qariyb 2 baravarga o‘sdi. Bu o‘sishning asosiy omillari sifatida aholining internetdan foydalanish

darajasining ortishi, mobil ilovalar orqali xarid qilish imkoniyatlarining kengayishi va mahalliy savdo platformalarining faoliyati misol bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, pandemiya davrida onlayn xarid qilishga talab ortib, kichik biznes vakillari uchun yangi savdo bozorlari ochildi. Bugungi kunda nafaqat yirik shaharlarda, balki qishloq hududlarida ham internet orqali mahsulot va xizmatlar sotib olish odatiy holga aylanmoqda. "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash Davlat tomonidan qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi kichik biznes subyektlarining faoliyatini modernizatsiya qilishda muhim rol o‘ynamoqda. Ushbu strategiya asosida:

- davlat xizmatlarining ko‘pi elektron shaklga o‘tkazilmoqda, bu esa tadbirkorlik jarayonlarini soddalashtirmoqda;
- kichik biznes uchun elektron hisob-faktura va soliq tizimlari joriy etilib, ularning ma’muriy yukini kamaytirmoqda;
- startaplar va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar, grantlar va soliq yengilliklari taqdim etilmoqda.

Raqamli transformatsiya kichik biznes uchun yangi bozorlarni ochadi, lekin shu bilan birga yangi chaqiriqlarni ham keltirib chiqarmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, kichik biznesning raqamli rivojlanishini ta’minlash uchun davlat tomonidan IT-infratuzilmani kengaytirish; tadbirkorlar uchun raqamli savodxonlik kurslarini tashkil etish; startaplar va kichik korxonalar uchun imtiyozli kredit va grantlar ajratish zarur.

O‘zbekistonda ham bu borada ijobiy qadamlar tashlanmoqda. Ammo kichik biznes subyektlarining to‘liq raqamli iqtisodiyotga moslashishi uchun davlat, biznes va ilmiy muassasalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhimdir.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, raqamli transformatsiya kichik biznes subyektlari uchun innovatsion rivojlanish yo‘nalishi bo‘lib, ularning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq mavjud muammolarni hal etish uchun kompleks davlat siyosati, infratuzilmani rivojlantirish va inson kapitaliga sarmoya kiritish zarur.

Adabiyotlar:

1. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2017). *Machine, platform, crowd: Harnessing our digital future*. New York: W. W. Norton & Company.
2. Nambisan, S. (2017). Digital entrepreneurship: Toward a digital technology perspective of entrepreneurship. *Entrepreneurship Theory and Practice, 41*(6), 1029–1055. https://doi.org/10.1111/etap.12254
3. OECD. (2021). *The digital transformation of SMEs*. Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/bdb9256a-en
4. Stallkamp, M., & Schotter, A. P. J. (2021). Platforms without borders? The international strategies of digital platform firms. *Journal of International Business Studies, 52*(8), 1523–1549. https://doi.org/10.1057/s41267-021-00421-9
5. World Bank. (2020). *Digital Uzbekistan 2030: Policy directions for digital transformation*. Washington, DC: World Bank.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.
7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2024). *Kichik biznes va tadbirkorlik statistik ko‘rsatkichlari*. Toshkent: DSQ nashriyoti.

FISKAL SIYOSATDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA

Omonova Shohista Ikrom qizi
TDIU "Makroiqtisodiy siyosat va prognozlashtirish"
kafedrasi tayanch doktoranti

Iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri fiskal siyosat hisoblanadi. U davlatning daromadlarini shakllantirish, byudjet xarajatlarini boshqarish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda aholining farovonligini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda mamlakatda davlat moliyasi tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda va ularning asosiy qismi raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan chambarchas bog'liqdir.

Raqamli transformatsiya nafaqat soliq yig'imlari va byudjet daromadlarini oshirishga, balki davlat moliyasining shaffofligi, samaradorligi va jamoatchilik ishonchini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu boisdan fiskal siyosatni raqamlashtirish O'zbekiston uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [1].

Fiskal siyosat davlatning iqtisodiy faoliyatini tartibga solish vositasi sifatida qaraladi. Raqamli fiskal siyosat esa ushbu jarayonlarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishni anglatadi. O'zbekistonda "Raqamli iqtisodiyot" konsepsiyasi qabul qilingan bo'lib, unda davlat moliyasi va soliq tizimining to'liq raqamlashtirilishi maqsad qilib qo'yilgan.

Nazariy jihatdan raqamli fiskal boshqaruv quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- soliq ma'murchiligida sun'iy intellekt va Big Datadan foydalanish;
- byudjet daromadlarini prognozlashda avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish;
- davlat xarajatlarini nazorat qilishda elektron tizimlar orqali shaffoflikni ta'minlash;
- soliq bazasini kengaytirishda elektron hisob-kitob usullaridan foydalanish[2].

Soliq tizimi raqamli transformatsiyaning eng faol rivojlangan sohasi hisoblanadi. Bugungi kunda Davlat soliq qo'mitasi tomonidan my.soliq.uz va my3.soliq.uz portallari hamda mobil ilovalar joriy qilingan bo'lib, ular orqali tadbirkorlar hamda jismoniy shaxslar barcha soliq xizmatlaridan masofadan turib foydalanishlari mumkin.

Yana bir muhim islohot - bu onlayn nazorat-kassa mashinalari (ONKM) joriy qilinishi bo'lib, ushbu tizim orqali naqd pul aylanmasi va savdo operatsiyalari to'g'ridan-to'g'ri soliq organlariga uzatiladi. Natijada yashirin iqtisodiyot hajmi qisqarib, soliq tushumlari barqaror oshmoqda.

Soliq ma'murchiligida avtomatlashtirilgan hisob-kitob tizimlarining joriy etilishi soliqqa tortish jarayonida inson omilini kamaytirib, xatoliklarni sezilarli darajada qisqartirmoqda. Davlat soliq qo'mitasi hisobotlariga ko'ra, 2021–2022 yillarda elektron soliq tizimlari yordamida soliq tushumlari 15–20 foizga ortgan[3].

Quyidagi jadvalda davlat budjeti daromadlari va soliq tushumlarining budjet daromadlaridagi ulushi keltirilgan:

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2019-2024-yillar davomida O'zbekistonda davlat budjeti daromadlari barqaror o'sib borgan. Agar 2019-yilda umumiy daromad 103,5 trillion so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 257,8 trillion so'mga yetgan. Boshqacha aytganda, olti yil ichida budjet daromadlari hajmi qariyb ikki yarim baravarga ortgan.

1-jadval

Davlat budjeti daromadlari va soliq tushumlarining budjet daromadlaridagi ulushi [4]

Yil	Davlat budjeti daromadlari (trln so‘m)	Soliq tushumlari ulushi (%)
2019	103,5	80,2
2020	128,2	82,5
2021	162,2	84,7
2022	186,5	85,9
2023	228,0	86,4
2024	257,8	87,1

Shu davrda soliq tushumlari ham keskin oshgan. 2019-yildagi 83 trillion so‘mlik soliq tushumlari 2024-yilda 224,5 trillion so‘mga yetib, qariyb uch baravar ko‘paygan. Davlat budjeti daromadlari va soliq tushumlarining sezilarli o‘sishida fiskal siyosatning raqamli transformatsiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Jumladan, 2019-2020-yillarda onlayn nazorat-kassa mashinalari va my.soliq.uz tizimining keng joriy qilinishi natijasida soliqlarning ulushi 80,2 foizdan 82,5 foizga oshgan. 2021-2022-yillarda esa elektron hisob-fakturalar va onlayn hisobot tizimlarining kengayishi tufayli bu ulush 85,9 foizgacha ko‘tarilgan.

2023-2024-yillar fiskal tizimda yangi bosqich bo‘ldi. Bu davrda soliq ma’murchiligi to‘liq raqamlashtirildi va soliq tahlilida sun’iy intellekt elementlari qo‘llanila boshlandi. Natijada soliq tushumlari 197 trillion so‘mdan 224,5 trillion so‘mga yetdi, ularning budjetdagi ulushi esa 87,1 foizni tashkil etdi.

Ushbu ko‘rsatkichlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston davlat moliyasining asosiy manbai tobora soliq tushumlariga tayanmoqda. Bir tomondan, bu fiskal siyosatning barqarorligini va daromadlarning ishonchliligini oshirmoqda. Ikkinchi tomondan, nosoliq tushumlarining ulushi pasayib borishi byudjet diversifikatsiyasini cheklab qo‘yishi mumkin. Shu bois kelgusida soliq bazasini yanada kengaytirish bilan bir qatorda, davlat daromadlarining boshqa manbalarini rivojlantirish ham muhim vazifa bo‘lib qoladi.

Davlat moliya tizimida ham keng ko‘lamli raqamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Ochiq budjet portali” ishga tushirilgan bo‘lib, u orqali davlat budjeti daromadlari va xarajatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar ommaga ochiq e’lon qilinadi. Bu jarayon jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va shaffoflikni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, “Elektron davlat xaridlari” tizimi joriy etilib, davlat buyurtmalari va xaridlarini amalga oshirishda ochiqlik ta’minlanmoqda. Bu tizim korrupsiya xavfini kamaytirishga hamda budjet mablag‘laridan samarali foydalanishga yordam beradi.

Davlat moliyasi monitoringida prognozlash va hisob-kitob tizimlari avtomatlashtirilib, xarajatlarning maqsadli sarflanishi nazorat qilinmoqda. Masalan, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy sohalarga ajratilayotgan mablag‘lar bo‘yicha elektron kuzatuv mexanizmlari ishlab chiqilgan [5].

Raqamli transformatsiya jarayonida bir qator muammolar ham mavjud. Birinchidan, texnologik infratuzilmaning hududiy darajada yetarli darajada rivojlanmaganligi ayrim hududlarda tizimlarning to‘liq ishlashiga to‘sqinlik qilmoqda. Ikkinchidan, malakali IT-kadrlar taqchilligi mavjud bo‘lib, bu yangi tizimlarni joriy

etishda qiyinchilik tug‘diradi. Uchinchidan, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish masalalari hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Quyidagilar yuqorida qayd etilgan muammolarning yechimi bo‘lishi mumkin:

-blokcheyn texnologiyasi asosida budjet monitoringi tizimini yaratish;

-sun’iy intellekt yordamida soliqqa tortish texnologiyalarini ishlab chiqish;

-hududiy darajadagi barcha budjet tashkilotlarini yagona raqamli platformaga ulash [6].

Kelgusida fiskal siyosatni to‘liq raqamlashtirish mamlakat iqtisodiy barqarorligi va shaffofligini ta’minlashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois raqamli texnologiyalarni yanada kengaytirish, kadrlar tayyorlash va axborot xavfsizligini mustahkamlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi [7].

Adabiyotlar:

1. Abdurakhmanova, G., & Rustamov, D. (2022). Digital economy in Uzbekistan: Fiscal implications. Central Asian Economic Review, 4(1), 45–60.

2. Ruziev, K. (2021). Digitalization of Uzbekistan’s economy: opportunities and challenges. Economic Bulletin of Uzbekistan, 3(2), 22–35.

3. Davlat soliq qo‘mitasi (2022). Hisobot va raqamlashtirish natijalari.

4. Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

5.Toshmatov, A. (2022). Public financial management reform in Uzbekistan: digital approaches. Uzbekistan Economic Journal, 4(1), 65–78.

6. Karimov, B. (2023). Digital fiscal policy challenges in Uzbekistan. Finance and Accounting Review, 5(2), 90–107.

7. Rustamova, D. (2021). Digital transformation of public finance in Uzbekistan. Central Asian Journal of Public Policy, 2(1), 44–59.

HUDUDIY IQTISODIYOTNI BOSHQARISHDA PROGNOZLASH VA MODELLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Fazliddinova Zulxumor Akramjon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari
va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi, doktorant

Mintaqa iqtisodini prognozlashtirish bo‘yicha ilmiy yondashuvlar zamonaviy iqtisodiy tahlil va bashorat usullarini qo‘llashni talab qiladi. Ushbu jarayonda turli metodologiyalarni uyg‘unlashtirish, mintaqaviy iqtisodiyotning o‘ziga xos jihatlarini chuqur tahlil qilish va ilmiy asoslangan yondashuvlarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Avvalo, prognozlash jarayonining asosi mintaqaning iqtisodiy rivojlanish holatini to‘liq tahlil qilishdan iborat. Buning uchun statistik ma’lumotlar, iqtisodiy ko‘rsatkichlar va ularning dinamikasini o‘rganish zarur. Ushbu tahlillar mintaqaning joriy resurs salohiyatini baholashga, uning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasidagi o‘zgarishlarni aniqlashga imkon beradi. Shuningdek, iqtisodiy modellar va texnik vositalardan foydalanish orqali mavjud ma’lumotlarni tahlil qilish va kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tendensiyalarni aniqlash mumkin.

Adabiyotlarni o‘rganish natijalari mintaqaviy iqtisodiyot va tarkibiy o‘zgarishlarning eng keng tarqalgan nazariyalarini quyidagi guruhlarga ajratish imkonini berdi:

endogen o‘sish nazariyasi, iqtisodiy-geografik modellari sinteziga asoslanadi

(P Romer, R Lucas, S Rebelo, G.J. Stigler va boshqalar);

mintaqaviy o‘sishning yangi iqtisodiy geografiya nazariyalari, iqtisodiyot nazariyasining bir bo‘limi bo‘lib, u nima uchun iqtisodiy faoliyatning bir tekis taqsimlangan emas, balki ma'lum joylarda to‘planishini tushuntiradi (P.Krugman, M. Fujita, A. Venables va boshqalar);

ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning klaster shakllariga asoslangan iqtisodiy o‘sishning mintaqaviy nazariyasi (M. Porter, M. Enrayt va boshqalar);

mintaqaning ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish, hududiy birliklar o‘rtasida samarali almashinuvni ta'minlash tabiiy-ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va ilmiy-texnikaviy salohiyat bilan ta’minlanadi (S.Ziyadullayev, I.Iskandarov, K.Bedrintsev va boshqalar);

geografik ma'lumotlarni to‘plash, saqlash, tahlil qilish va vizualizatsiya qilish, shuningdek, hududlarning tabiiy va iqtisodiy resurslarini tahlil qilish uchun mo‘ljallangan integratsiyalashgan GAT tizimi (R Tomlinson, H Fisher, J Dangermond va boshqalar);[1]


1-jadval

Mintaqaviy rivojlanishni boshqarish konsepsiyalari

Kontseptsiya	Namoyandalar	Asosiy fikrlar
O‘sish qutblarida ishlab chiqarish kontsentratsiyasi nazariyasi	X.R. Lasuen, J. Budvil, P. Potye	O‘sish qutblarini shakllantirishning asosiy sharti sanoat mahsuloti ishlab chiqarishining kontsentratsiyasi bo‘lib, u quyidagi omillar, xususan, resurs salohiyati, mintaqa aholisining ijtimoiy-demografik xususiyatlari va boshqalar ta'siriga bog‘liq.
Yangi iqtisodiy geografiya	P. Krugman, M. Fujita, A. Venables	Iqtisodiyot nazariyasining bir bo‘limi bo‘lib, u nima uchun iqtisodiy faoliyatning bir tekis taqsimlangan emas, balki ma'lum joylarda to‘planishini tushuntiradi.
Mintaqaviy iqtisodiyotining ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish	S.Ziyadullayev, I.Iskandarov, K.Bedrintsev, M.Abdusalyamov, R.Dosumov	Mintaqaning ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish, hududiy birliklar o‘rtasida samarali almashinuvni ta'minlash tabiiy-ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va ilmiy-texnikaviy salohiyat bilan ta'minlanadi.
Geografik axborot tizimi (GAT)	R Tomlinson, H Fisher, J Dangermond	Geografik ma’lumotni to‘plash, saqlash, tahlil qilish va vizualizatsiya qilish, shuningdek, hududlarning tabiiy va iqtisodiy resurslarini tahlil qilish uchun mo‘ljallangan integratsiyalashgan tizim.
Endogen o‘sish nazariyasi	P Romer, R Lucas, S Rebelo	Mintaqaviy iqtisodiy o‘sish faqat tashqi (ekzogen) omillarga bog‘liq emas, balki mintaqaning ichki salohiyati, inson kapitaliga (ta'lim, ko‘nikma), innovatsiyalar va texnologik o‘zgarishlarga yo‘naltirilgan investitsiyalar hisobidan shakllanadi.
Aqlli mutaxassislik nazariyasi (Smart Specialisation)	D Foray, P David, Bronwyn H. Hall.	Mintaqaviy innovatsion siyosatga yondashuv, bu mintaqalar raqobatdosh ustunlikka ega bo‘lgan cheklangan miqdordagi tadqiqot va innovatsiya sohalariga e'tibor qaratishlari kerakligini ko‘rsatadi.

K.Launxardtning xizmat ko‘rsatish tumanlarini ishlab chiqarish punktlarini tahlil qilish; A.Veber sanoat korxonalarini oqilona joylashtirish bilan ish haqi uchun transport xarajatlarini minimallashtirish nazariyasi; G.Hotellingning duopoliyasi va oligopoliyasi sharoitida fazoviy raqobat modellarini tahlil qilish; V.Kristallerning mintaqaviy tuzilmalar nazariyasi; V.Isardning mintaqalararo modellar nazariyasi (1 jadval).

Prognozlash jarayonida muhim yondashuvlardan biri – bu modellashtirish texnologiyalaridir. Masalan, iqtisodiy-matematik modellar mintaqaning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini o‘rganish va ularga ta’sir ko‘rsatadigan omillarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu modellar turli stsenariylarni ishlab chiqish va ulardan eng maqbulini tanlash imkonini beradi. Xususan, vaqt seriyalari va regressiya tahlillari iqtisodiy prognozlashda keng qo‘llanilib, asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zgaruvchanligini oldindan bilishga zamin yaratadi. Bundan tashqari, prognozlashda tizimli yondashuvning ahamiyati katta. Ushbu uslub mintaqaning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik tizimlarini yagona butun sifatida ko‘rib chiqadi. Bu yondashuv hududning iqtisodiy rivojlanishida mavjud bo‘lgan ichki va tashqi omillarni kompleks tahlil qilishni ta’minlaydi. Natijada, nafaqat iqtisodiy rivojlanish ssenariylari, balki bu rivojlanishning hudud aholisiga va atrof-muhitga ta’siri ham hisobga olinadi.



1-rasm. Zich aholi yashash hududlari xaritasi

Manba: *Ushbu xarita mamlakatdagi eng zich aholi yashaydigan hududlarni ko‘rsatadi (1 kvadrat kilometrga 30 000 kishidan ortiq).*

GAT (Geografik axborot tizimi)ning asosiy afzalliklaridan biri - bu geoma’lumotlarni tushunishga va ularni vizuallashtirishga yordam berishidir. Bu ma’lumotlar demografik axborotlardan tortib iqlimga oid ma’lumotlargacha bo‘lishi mumkin va ular xaritalar hamda murakkab axborotlarning ko‘rgazmali tasvirlarini yaratishda qo‘llaniladi. Ushbu ma’lumotlarni geografik kontekstda tasvirlash orqali GAT bizga atrofimizdagi dunyoda mavjud bo‘lgan bog‘liqliklar va naqshlarni ancha ravshanroq tushunishga yordam beradi.

Masalan, shahar aholisiga oid GAT xaritasi odamlarning shahardagi joylashuvini ko‘rsatadi hamda yuqori yoki past aholi zichligiga ega hududlarni ajratib ko‘rsatadi.

Bu ma’lumotlardan shaharsozlik va infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha asosli qarorlar qabul qilishda foydalanish mumkin.

GAT rejalashtirish va qaror qabul qilish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. U katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlash va tahlil qilish uchun platforma taqdim etadi.

Bu esa turli masalalar bo‘yicha asosli va puxta qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Ushbu ma’lumotlar yordamida oddiy ko‘z bilan ilg‘ab bo‘lmaydigan tendensiyalar, naqshlar va o‘zaro bog‘liqliklar aniqlanishi mumkin.

GAT atrof-muhitni boshqarishda ajralmas vosita ekanligini isbotlagan. U ekologik ma’lumotlarni saqlash, tahlil qilish va vizuallashtirish uchun platforma taqdim etadi. Bu orqali inson faoliyatining atrof-muhitga ta’sirini chuqurroq tushunish va ushbu salbiy ta’sirni kamaytirishga qaratilgan asosli qarorlar qabul qilish mumkin bo‘ladi.

Shu bilan birga, ma’lumotlarning mavjudligi va sifati masalasi ham muhimdir. Turli mintaqalar va miqyosda ishonchli va izchil ma’lumotlarga kirish qiyin bo‘lishi mumkin, shuning uchun ma’lumotlar sifatini nazorat qilish va standartlashtirish juda muhimdir. Modellashtirishning murakkabligi esa aniq va fazoviy modellarni yaratish uchun o‘lchov, ma’lumotlar cheklovlari va modelni tekshirish kabi omillarni diqqat bilan ko‘rib chiqishni talab qiladi. Nihoyat, GATdan samarali foydalanish uchun texnologik bilimlarning mavjudligi zarur. Fazoviy tahlil va modellashtirish usullarini o‘rganish ko‘pincha maxsus ko‘nikmalarni talab qiladi. Shu sababli, GATning samarali ishlatilishi uchun bu sohada bilim va ko‘nikmalarni oshirish zarur.

Adabiyotlar:

1. W. Christaller. Die zentralen Orte in Süddeutschland. Darmstadt 1980, ISBN 3-534-04466-5 (Repr. Ausg. Jena 1933).,

2. Myrdal, G. Economic Theory and Underdeveloped Regions, London: University Paperbacks, Methuen, 1957.,

3. Изард У. Методы регионального анализа и введение в науку о регионах. М.: Прогресс, 1966, с 387.

4. Launhardt W. Die Bestimmung des zweckmässigsten Standortes einer gewerblichen Anlage// Zeitschrift des Vereines deutscher Ingenieure. v.. 26 (Mar), 1882 pp. 106-115.

5. *Портер М. Международная конкуренция: Пер. с англ. / Под ред. и с предисловием В. Д. Щетинина. М.: Международные отношения, 1993., Гранберг А.Г. Основы региональной экономики*. М.: ГУВШЭ, 2004. – 495 с.

SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISH

Mamatojiyeva Sarvinoz Dilshodbek qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti assistenti

Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda boshqaruv tizimini modernizatsiyalash masalalari eng dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va yangi bozor imkoniyatlarini yaratishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bois, sanoat tarmoqlarida raqamli

transformatsiyani samarali boshqarish milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy strategik yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining qabul qilinishi mamlakat iqtisodiyotini raqamlashtirish, shu jumladan sanoat korxonalarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish uchun huquqiy, tashkiliy va institutsional asoslarni yaratdi. Mazkur siyosat doirasida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data) texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlarini boshqarishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, mavjud muammolarni tahlil qilish va ularni samarali hal etish yo‘llarini aniqlash bugungi kunda iqtisodiyot fanining ustuvor vazifalaridan biridir. Mazkur maqolaning maqsadi — sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlarini boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda raqamli boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

So‘nggi yillarda raqamli transformatsiya masalalari bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar ko‘proq sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda menejment tizimlarini modernizatsiyalashga qaratilgan. Xususan, M. Porter va J. Heppelmann (2019) o‘z tadqiqotlarida raqamli texnologiyalarni sanoat korxonalarining qiymat zanjiriga integratsiyalash natijasida “raqamli raqobat ustunligi” tushunchasini ilgari suradilar[1]. Ularning fikricha, raqamli texnologiyalar korxonalarga nafaqat samaradorlikni oshirish, balki strategik boshqaruv modelini tubdan o‘zgartirish imkonini beradi. Shuningdek, OECD (2023) tomonidan chop etilgan “Digital Transformation in Manufacturing Sectors” hisobotida raqamli transformatsiyaning davlat siyosati bilan uyg‘unlashuvi sanoat ekotizimining barqarorligini ta’minlashdagi asosiy omil sifatida qayd etilgan[2]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, davlat tomonidan yaratilgan raqamli infratuzilma, axborot xavfsizligi siyosati va innovatsion qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari sanoat transformatsiyasi jarayonida muhim o‘rin tutadi[3].

Mahalliy olimlardan A. Karimov (2022) o‘z tadqiqotida O‘zbekiston sanoat tarmoqlarida raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish holatini tahlil qilib, menejment qarorlarini qabul qilishda Big Data, ERP, CRM kabi tizimlardan foydalanishning amaliy imkoniyatlarini ochib bergan[4]. U raqamli transformatsiya jarayonlarining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan korxonalarning strategik rejalashtirish tizimiga va davlat tomonidan yaratilayotgan innovatsion muhitga bog‘liqligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, T. Tojiboyeva (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sanoat korxonalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etishdagi tashkiliy-madaniy to‘siqlar tahlil qilinib, xodimlarning raqamli madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan[5].

Raqamli transformatsiya jarayonlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sanoatida so‘nggi yillarda raqamli boshqaruv tizimlari, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish va axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘lami ortib bormoqda. Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2020–2024-yillar davomida raqamlashtirilgan sanoat korxonalari ulushi quyidagicha o‘sgan:

Jadval-1.

2020–2024-yillarda O‘zbekiston sanoatida raqamlashtirilgan korxonalar ulushi va sanoat ishlab chiqarishi o‘sish sur’atlari

Yil	Raqamlashtirilgan korxonalar ulushi (%)	Sanoat ishlab chiqarishi o‘sishi (%)
2020	12	2.1
2021	19	4.3
2022	27	5.8
2023	35	6.4
2024	46	7.1

Bu jadvaldan ko‘rinadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etish sanoat ishlab chiqarishi o‘sish sur’atlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. 2020–2024-yillar oralig‘ida O‘zbekiston sanoat tarmoqlarida raqamli transformatsiya jarayonlari izchil sur’atlarda rivojlanmoqda. 1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi besh yil ichida raqamlashtirilgan korxonalar ulushi 12 foizdan 46 foizga oshgan. Shu davrda sanoat ishlab chiqarishi o‘sish sur’atlari ham 2,1 foizdan 7,1 foizgacha yetgan. Bu raqamlar raqamli texnologiyalarni joriy etish sanoat ishlab chiqarish hajmining o‘sishida bevosita rol o‘ynayotganini ko‘rsatadi. Xususan, raqamlashtirishning dastlabki bosqichlarida (2020–2021-yillarda) o‘sish asosan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, 2022–2024-yillarda raqamli menejment tizimlarini joriy etish hisobiga boshqaruv jarayonlari optimallashtirilib, resurslardan foydalanish samaradorligi oshgan. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlari iqtisodiy o‘sishning muhim drayveriga aylanib bormoqda. Raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki menejment tizimlarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishda ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Kelgusida sanoat korxonalarida sun’iy intellekt, IoT, bulutli texnologiyalar va katta ma’lumotlar tahlili asosida qaror qabul qilish mexanizmlarini rivojlantirish, shuningdek, raqamli menejment tizimlarini integratsiyalash orqali raqamli iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlash imkoniyatlari kengayadi.

Adabiyotlar:

1. Porter, M. E., & Heppelmann, J. E. (2019). How Smart, Connected Products Are Transforming Competition. Harvard Business Review.

2. OECD (2023). Digital Transformation in Manufacturing Sectors. OECD Publishing, Paris.

3. Deloitte Insights (2021). The Future of Industry 4.0: Building Digital Resilience. Deloitte University Press.

4. Karimov, A. (2022). “O‘zbekiston sanoat tarmoqlarida raqamli menejment tizimlarini joriy etishning holati va istiqbollari.” Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, №3, Buxoro.

5. Tojiboyeva, T. (2021). “Sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlarida inson omilining o‘rni.” O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, №5.

IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI MODERNIZATSIYALASH STRATEGIYASINI SHAKILLANTIRISH

Ablatov Ulug‘bek Majitovich

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

“Agrobiznes va buxgalteriya hisobi” kafedrasi assistenti

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning samarali strategiyasi asosiy muammolarni aniqlashdan boshlanishi lozim. Bu muammolarga hosildorlikning pastligi, suv tanqisligi, infratuzilmaning zaifligi va fermerlarning raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi kiradi. O‘zbekistondagi ko‘plab fermerlar internetdan foydalanish yoki raqamli texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega emas (FAO, 2022-yil). Shu bois, raqamli o‘zgarishlar qishloq hududlarida ta’lim va sarmoyalar bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshirilishi kerak.

Raqamli vositalar mahsuldorlik va barqarorlikni oshirishda yordam berishi mumkin. Misol uchun, aniq dehqonchilik usuli fermerlarga sensorlar, dronlar yoki sun’iy yo‘ldoshlardan olingan ma’lumotlarni tahlil qilish orqali suv, urug‘ va o‘g‘itlardan yanada samaraliroq foydalanish imkonini beradi (Klerkx va Rose, 2020). Bunday texnologiyalar Niderlandiya va Xitoy kabi mamlakatlarda allaqachon qo‘llanilmoqda, O‘zbekiston esa bu tajribalardan foydalanishi mumkin. Biroq, mahalliy sharoit farq qilgani sababli, bu yechimlarni O‘zbekiston iqlimi va ijtimoiy muhitiga moslashtirish muhim ahamiyatga ega.

Qishloq xo‘jaligini raqamlashtirishning asosiy jihatlaridan biri ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilishdir. O‘zbekiston tuproq sifati, ob-havo sharoitlari va ekinlar hosildorligi haqida milliy ma’lumotlar bazalarini yaratishi mumkin. Bu ma’lumotlar fermerlar uchun sodda va tushunarli tarzda taqdim etilishi lozim. O‘zbek tilidagi mobil ilovalar fermerlarga to‘g‘ri qarorlar qabul qilish va o‘z faoliyatini rejalashtirish imkonini beradi. Shuningdek, yoshlarni qishloq xo‘jaligiga jalb etish muhim, chunki ular raqamli texnologiyalarni yaxshi biladi va qishloq joylarida o‘zgarishlar elchisi bo‘la oladi.

Bu strategiyada hukumat hal qiluvchi ahamiyatga ega. Davlat muassasalari, universitetlar, xususiy kompaniyalar va fermerlar o‘rtasida mustahkam hamkorlik o‘rnatilishi zarur. Siyosat innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashi va raqamli loyihalarni moliyalashtirishi kerak. Masalan, soliq imtiyozlari yoki imtiyozli kreditlar fermerlarni raqamli uskunalarga sarmoya kiritishga rag‘batlantirishi mumkin. Bundan tashqari, davlat-xususiy sheriklik agrotexnologik yechimlarga ixtisoslashgan mahalliy startaplarni rivojlantirishga ko‘maklashishi mumkin.

Trening va ta’lim muhim omillardir. Shu bois, har qanday modernizatsiya strategiyasi qishloq joylarida o‘qitish dasturlarini o‘z ichiga olishi zarur. Universitetlar va kasb-hunar maktablari qisqa muddatli kurslar, seminarlar va hatto onlayn mashg‘ulotlarni tashkil etishlari mumkin. Bu dasturlar amaliy bo‘lishi va fermerlarning haqiqiy ehtiyojlarini hisobga olishi juda muhim.

Yana bir muhim jihat - infratuzilmadir. Internet, elektr ta’minoti yoki sifatli yo‘llarsiz raqamli vositalardan samarali foydalanib bo‘lmaydi. Shu sababli, modernizatsiya qishloq infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog‘liq holda olib borilishi lozim. 4G yoki hatto 5G tarmoqlari, quyosh energiyasi tizimlari va aqlli sug‘orish tizimlariga sarmoya kiritish qisqa vaqt ichida sezilarli yaxshilanishlarga olib kelishi mumkin. Nihoyat, madaniy va ijtimoiy omillarni e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. O‘zbekistondagi ko‘plab qishloq jamoalari mustahkam an’analarga ega bo‘lib, o‘zgarishlarni qabul qilish ular uchun qiyin kechishi mumkin. Shu bois, raqamlashtirishni majburlab emas, balki asta-sekin va hurmat bilan joriy etish maqsadga muvofiq. Tanlangan hududlarda o‘tkaziladigan sinov loyihalari ijobiy natijalar ko‘rsatib, boshqa hududlarni ham shu yo‘ldan borishga undashi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish doirasida modernizatsiya qilish nafaqat imkonli, balki zaruriy jarayondir. Bu jarayon texnologiya,

ta’lim, siyosat va an’analarga hurmatni uyg‘unlashtirgan muvozanatli hamda inklyuziv strategiyani talab etadi. Puxta rejalashtirish va turli sohalar o‘rtasidagi samarali hamkorlik orqali O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlaydigan hamda qishloq aholisining turmush darajasini yuksaltiradigan zamonaviy va barqaror qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini yaratishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO). (2022). O‘zbekistonda raqamli qishloq xo‘jaligi: imkoniyatlar va qiyinchiliklar. https://www.fao.org

2. Klerkx, L. va Rose, D. (2020). Qishloq xo‘jaligi 4.0 ning inqilobiy texnologiyalari bilan muomala qilish: Oziq-ovqat tizimining o‘zgarish yo‘llarida xilma-xillik va mas’uliyatni qanday boshqaramiz? Jahon oziq-ovqat xavfsizligi, 24, 100347. https://doi.org/10.1016/j.gfs.2019.100347

3. Jahon banki. (2023). O‘zbekiston iqtisodiyotining yangilanishi: raqamli iqtisodiyotga o‘tish. https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan.

ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ ЭКОТИЗИМЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БИЗНЕС, ДАВЛАТ ВА ТАЪЛИМ ИНТЕГРАЦИЯСИ

Еникеева Алсу Гумеровна

«Меҳнат иқтисодиёти ва стратегик менежмент» кафедраси катта ўқитувчиси

Г.В. Плеханов номидаги Россия иқтисодиёт университети Тошкент филиали

Жаҳон миқёсида рақамли экотизимларнинг ривожланиши мамлакатлар рақобатбардошлигини таъминлашнинг асосий шартларидан бирига айланмоқда. Рақамли экотизимларнинг шаклланиши мақсадли давлат сиёсати ҳамда қонунчилик асосисиз мумкин эмас. Давлат нафақат ҳуқуқий базани белгилайди, балки стратегик ҳужжатлар, миллий дастурлар ва молиявий қўллаб-қувватлаш орқали рақамлаштириш жараёнининг катализатори сифатида майдонга чиқади. Шунингдек, телекоммуникация инфратузилмаси, электрон ҳукумат ва киберхавфсизлик тизимларини ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга.

Ўзбекистон шароитида бу айниқса долзарб, чунки шаҳар ва қишлоқ аҳолиси учун рақамли хизматларга тенг имконият яратиш зарур. Мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ислоҳотларини белгиловчи ҳуқуқий ҳужжатлар стратегик ривожланиш йўналишларини белгилаб берди. Жумладан, «Ўзбекистон – 2030» стратегияси [1], «Рақамли Ўзбекистон – 2030» дастури [2] ва «Янги Ўзбекистон» тараққиёт стратегияси [3] каби ҳужжатларда рақамлаштиришнинг мақсад ва вазифалари аниқ белгиланган.

«Экотизим» тушунчаси биологиядан олинган бўлиб, рақобат муҳитидаги ҳамкорликка асосланган тизим сифатида талқин қилинади. Табиий тизимлар каби рақамли экотизимлар ҳам ўзгариш ва трансформацияга қодир, аммо мослашув бўлмаса, йўқолиши ҳам мумкин.

Ҳаётимизда рақамли сервислар кундалик амалиётга чуқур кириб келди: рўйхатдан ўтиш қулайлиги, мақбул шарт-шароитлар ва турли бонуслар уларнинг оммалашувига туртки бўлмоқда. Бунга мисол қилиб Apple, Huawei, Xiaomi, Amazon, eBay, Alibaba, Яндекс, Сбер, Uber каби компанияларнинг маркетплейслари, IT-системалари ва платформавий хизматларини кўрсатиш мумкин. McKinsey тадқиқотларига кўра, фойдаланувчиларнинг 71%и бу каби

экотизимлардаги тажрибани сақлашни афзал кўради, бу эса рақобатни кучайтиради.

Цифровой экотизим самарадорлигининг асосий мезони — истеъмолчи. Мижознинг товар ёки хизмат учун тўлашга тайёрлиги платформанинг барқарорлиги ва самарадорлигини белгилайди. McKinsey прогнозларига кўра, 2025 йилга келиб дунёдаги корпоратив даромадларнинг 30%и рақамли бизнес-экотизимлар ҳиссасига тўғри келади.

Бизнеснинг роли. Мижоз эҳтиёжларига энг тез жавоб қайтарадиган соҳалардан бири бизнесдир. Маркетплейс ва финтех-сервислар шунчаки бизнес тузилмалар эмас, балки янги стандартлар яратувчи тўлиққонли экотизимларга айланмоқда.

Ўзбекистон тажрибаси. KPMG маълумотларига кўра, Ўзбекистон Марказий Осиёда электрон тижоратнинг энг тез ривожланаётган мамлакати ҳисобланади: 2027 йилга бориб бозор ҳажми қарийб етти баробарга ўсиши кутилмоқда. 2023 йилда мамлакат ЯИМи 6%га ўсди, келгусида эса бу кўрсаткич икки баробарга ошиши режалаштирилган.

Муҳим омиллар - интернетнинг кенг тарқалиши, аҳолининг ёш таркиби ва банк-молия инфратузилмасининг ривожланмаганлиги.

Ўзбекистонда муваффақиятли рақамли экотизим модели сифатида Uzum компаниясини кўрсатиш мумкин. У электрон тижорат, экспресс-доставка, финтех-сервислар, банк маҳсулотлари ва маркетплейс хизматларини таклиф этади. 2023 йил охирида Uzum ойлик 10 миллион фаол фойдаланувчига эга бўлиб, капитализацияси 1 миллиард доллардан ошиб кетди ва «юникорн» мақомига эга бўлди.

Uzum IT-инфратузилмани ривожлантириш, халқаро бозорга чиқиш, BNPL хизматини жорий қилиш ва рақамли инклюзияни таъминлаш йўналишларида фаолият олиб бормоқда. Uzum Academy эса рақамли трансформация шароитида мутахассислар тайёрлашда муҳим ўрин тутади.

Бундан ташқари, Huawei ICT Academy, «Капиталбанк» академияси ва бошқа корпоратив структуралар ҳам таълим соҳасида рақамли экотизимларни шакллантиришда фаол иштирок этмоқда.

Таълимнинг роли. Тўртинчи саноат инқилоби шароитида таълим муассасалари янги компетенцияларни шакллантириш марказига айланмоқда. Халқаро амалиёт (MIT, Мюнхен ва Эйндховен техник университетлари) бунинг аҳамиятини тасдиқлайди.

Ўзбекистонда 2030 йилгача олий таълим тизими ривожлантириш концепцияси [4] да университетларнинг таълим муҳитини «эко-таълимий муҳит»га айлантириш вазифаси белгиланган.

Олий таълим муассасалари инновация марказларига айланиши, талабалар нафақат назарий билим, балки амалиёт тажрибасини ҳам олиши зарур. Бизнес билан интеграция орқали стартаплар, инкубаторлар ва лабораториялар ташкил этилиши мумкин.

Тройной спираль модели. Замонавий тадқиқотлар таъкидлаганидек, давлат, бизнес ва университетлардан иборат «уч томонлама ҳамкорлик» рақамли иқтисодиёт ривожи учун энг самарали модел ҳисобланади.

Ўзбекистон учун бу моделни жорий қилиш рақамлаштириш жараёнини тезлаштириши ва глобал рақобатда мамлакатнинг мавқеини мустаҳкамлаши мумкин.

Рақамли экотизимларнинг барқарор ривожланиши давлат, бизнес ва таълимнинг яқин ҳамкорлигисиз мумкин эмас. Давлат стратегия ва шарт-шароитларни белгилайди, бизнес технологияларни жорий этади ва инвестиция киритади, таълим эса рақамли иқтисодиёт учун мутахассислар тайёрлайди.

Бу триединая модель рақамли трансформацияни тезлаштириш, рақамли тенгсизликни камайтириш ва мамлакатнинг глобал иқтисодиётдаги мавқеини мустаҳкамлаш имконини беради.

Бироқ рақамлилаштириш ижобий томонлар билан бир қаторда хавфларни ҳам олиб келади: рақамли тенгсизлик, интернетга қарамлик ва ижтимоий изоляция хавфи. Шунинг учун технология тараққиёти ва гуманистик қадриятларни сақлаш ўртасида мувозанат топиш — устувор вазифадир.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги «Ўзбекистон – 2030» стратегияси тўғрисидаги ПФ–158-сон Фармони. – URL: https://lex.uz/ru/docs/6600404

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ПФ–6079-сон Фармони «Рақамли Ўзбекистон–2030» стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида. – Манба: https://lex.uz/ru/docs/5031048

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ–60-сон Фармони «Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси 2022–2026 йилларга мўлжалланган». – URL: https://lex.uz/ru/docs/5841077

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ–5847-сон Фармонига 1-илова «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси». – URL: https://nrm.uz/contentf?doc=602370_&produ-

5. Дёрина Наталья Владимировна, Савва Любовь Ивановна, Рабина Екатерина Игоревна. Университет экотизими олий таълимнинг экологик вектори сифатида // Мир науки. Педагогика и психология. 2020. №3. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/universitetskaya-ekosistema-kak-ekologicheskiy-vektor-vysshego-obrazovaniya

6. Пермяков О. Е., Павлова Т. А. Олийгоҳларнинг инновацион таълимий экотизимларини ривожлантиришда кўп омилли бошқарув // Управленческое консультирование. 2020. №12 (144). – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/mnogofaktornoe-upravlenie.

RAQAMLI IQTISODIYOT MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANISHTIRISHNING MUHIM SHARTI SIFATIDA

Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich
Guliston davlat universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti

Ilmiy va texnologik taraqqiyotni jadallashtirish, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, yangi texnologiyalarni izchil joriy etish hisobiga ishlab chiqarish tuzilmasining o'zgarishi bilan bog'liq holda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan o'zgarishlar asnosida iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida ijobiy o'zgarish-lar ko'zga tashlanmoqda (bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning ulushi dunyo YaIMining 10 foizini tashkil etadi). Shu asnoda innovatsion taraqqiyotning turli vazifa va muammolarini hal etish borasidagi qarashlar va yondashuvlar ham o'zgarib bormoqda. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish global

iqtisodiyot asoslarini o‘zgartirish va qayta ko‘rib chiqishga olib keladi, chunki zamonaviy iqtisodiyot ma’lumotlar bazasini boshqarishga asoslangan iqtisodiyot hisoblanadi [4].

Iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida – “raqamli iqtisodiyot” kontseptsiyasi vujudga keldi, mazkur kontseptsiyaning asosini katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va xizmat ko‘rsatish sohasini (onlayn xizmatlar, elektron to‘lovlar va boshqalar) rivojlantirish imkonini beruvchi raqamli va kompyuter texnologiyalarini rivojlantirish va ularni jamiyat hayotining barcha sohalariga izchil joriy etish bilan bog‘liq bo‘lgan inson faoliyatini tashkil etishning o‘ziga shakl va usullari tashkil etadi [6]. Zamonaviy, intellektual iqtisodiyot sari rivojlanish, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish murakkab jarayon bo‘lib, ko‘plab omillarga bog‘liq va ularning ekonometrik tahlili raqamli iqtisodiyotni oqilona boshqarish hamda tartibga solish imkonini beradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga “raqamli texnologiyalar”ni joriy etish bugungi kunda o‘zining potentsial imkoniyatlarini kengaytirish jarayonida bo‘lgani holda, texnik baza, dasturiy ta’minotning nomukammalligi, aholi kompyuter savodxonlik darajasining pastligi, raqamli texnologiyalar sohasini tartibga solish borasida qonunchilik bazasining bugungi kun talablariga javob bera olmasligi kabi omillar kompyuter texnologiya-larini keng joriy etish va biznes muhitiga yangi “raqamli texnologiyalar”ni integratsiyalashuviga to‘sqinlik qilmoqda.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tishimiz lozimki, raqamli iqtisodiyotni rivojlan-tirishda davlatning qo‘llab-quvvatlovchi siyosati alohida ahamiyat kasb etadi. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnolo-giyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Mamlakatimiz rahbari joriy 2020 yilning 24 yanvarida mamlakat Parlamentiga yo‘llagan Murojaatnomasida: ”Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda... aksariyat vazirlik va idoralar, korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroq... Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o‘tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘ladi”- deb ta’kidlab o‘tdi [1].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda ishlab chiqilishi ko‘zda tutilgan “Raqamli O‘zbekiston-2030” kontseptsiyasida O‘zbekistonda bilimlar jamiyatini rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni barpo etish, ilg‘or raqamli texnologiyalardan foydalangan holda raqamli iqtisodiyot sektori tomoni-dan yaratilgan tovar va xizmatlardan uy xo‘jaliklarining foydalana olishlari uchun etarlicha imkoniyatlar yaratish va ularning turmush farovonligini oshirish, uy xo‘jaliklari a’zolarining xabardorlik va raqamli savodxonlik darajasini oshirish, fuqarolar uchun sifatli va arzon davlat xizmatlarini ko‘rsatish, mamlakatning barcha hududlarini sifatli va tezkor Internet aloqasi bilan ta’minlanishini yo‘lga qo‘yish, uy xo‘jaliklari va davlat miqyosida axborot xavfsizligini ta’minlash kabi masalalar ko‘zda tuilishini maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Ta’kidlash lozimki, raqamli texnologiyalar sohasi mutaxassislarining fikricha, bugungi kunda jahonda Internetdan foydalanuvchilar soni dunyo aholisining 52 foizini tashkil etadi. Qashshoq uy xo‘jaliklarining 20 foizida a’zolarning har o‘ntasidan ettitasida uyali telefon mavjud.

Mobil telefonga ega bo‘lgan qashshoq uy xo‘jaliklarining soni oddiy hojat-xona yoki toza ichimlik suvidan foydalanish imkoniga ega bo‘lganlardan anchagina ko‘pchilikni tashkil etadi.

Jahon banki ekspertlarining fikricha, bugungi kunda butun dunyo mamlakat-lari “raqamli inqilob”ni boshidan kechirmoqdalar[4]. Ular bu borada bir qator xulosalarni ilgari suradilar:

1. Internet, uyali aloqa va axborot-kommunikatsiya texnolo-giyalarining keng taraqqiy etishi raqamli iqtisodiyotning shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi;
2. Raqamli iqtisodiyot dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida jadal taraqqiy etmoqda;
3. Raqamli iqtisodiyot dunyo qiyofasining tubdan ijobiy tomonga o‘zgarishiga olib keladi.

Shu tufayli mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 19 fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi va sohani jadal rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilandi. Bugungi kunda butun dunyo mamlakatlarida bo‘lgani kabi mamlakatimizda ham uy xo‘jaliklari raqamli iqtisodiyotning avfzalliklaridan kengroq foydalanishni istaydilar. Shu sababli ham raqamli inqilob mamlakatimizda barcha uy xo‘jaliklarini birdek qamrab olishi uchun sohaga investitsiyalar kirib kelishini faollashtirish, texnologiyalar va innovatsion biznes g‘oyalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash talab etiladi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga turtki beruvchi texnologiyalarni jadal joriy etish nuqtai –nazaridan mamlakatlarni quyidagi to‘rtta guruhga bo‘lishimiz mumkin: yetakchi mamlakatlar; istiqbolli mamlakatlar, o‘sish darajasi pasayayotgan va muammoli mamlakatlar.

Yetakchi mamlakatlar yuqori darajada rivojlangan raqamli iqtisod va kuchli rivojlanish dinamikasiga ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Ular o‘z mavqelaridan samarali foydalanib, innovatsiyalarni rag‘batlantiradilar. Biroq, vaqt o‘tishi bilan yuqori o‘sish sur’atlarini saqlab qolish katta qiyinchilik tug‘diradi va ko‘pincha innovatsiyalar iqtisodiy ta’sirni kengaytirish uchun ishonchli asos bo‘lib xizmat qila olmaydi. O‘z mavqelarini yo‘qotmaslik uchun bu mamlakatlar yangi talabni yaratishlari va innovatsion yechimlarni ishlab chiqishni yanada avj oldirishlari talab etiladi. Aks holda, ularning o‘sish sur’atlari sekinlashayotgan mamlakatlar toifasiga tushib qolish xavfi yuqorilab boraveradi.

O‘sish sur’atlari pasayayotgan mamlakatlar raqamli iqtisodiyotning taraqqiy etganligi bilan ajralib tursada, lekin raqamli iqtisodiyotning o‘sish sur’atlari sekinlashishi bilan ajralib turadi. Mazkur mamlakatlar yetakchi mamlakatlardan innovatsion rivojlanishni qo‘llab – quvvatlash borasida ular to‘plagan boy tajribani o‘zlashtirishlari asnosida yetakchi mamlakatlar qatoriga o‘tishlari mumkin, aksincha ular muammoli mamlakatlar qatoriga o‘tib qolishlari ehtimoldan holi emas.

Istiqbolli mamlakatlar hozirgi kunda raqamlashtirish darajasi past bo‘lsada, lekin jadal rivojlanayotganligi bilan alohida ajralib turadi. Barqaror rivojlanish dinamikasi va raqamli texnologiyalarni joriy etish borasidagi mavjud katta salo-hiyat investorlarda

katta qiziqish uyg‘otadi. Mazkur mamlakatlar raqamli texnolo-giyalarning taraqqiyotiga cheklovchi ta’sir ko‘rsatuvchi infratuzilma va institutsional muhitning yomon sifati bilan ajralib turadi. Istiqbolli mamlakatlar eng yaxshi innovatsion yechimlarni rag‘batlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion infratuzilma ob’ektlari va institutlarini barpo qilishga harakat qilishlari lozim.

Muammoli mamlakatlar raqamlashtirishning past darajasi bilan farqlanadi. Raqamlashtirishning past darajasi iqtisodiy taraqqiyot yo‘lida qator muammolarni vujudga keltirgani holda, iqtisodiyotning innovatsion va raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishga imkon bermaydi. Ba’zi muammoli mamlakatlar infratuzil-ma tanqisligi, institutsional cheklovlar va iste’molchilarning uquvsizligi kabi muammolarni hal etishda o‘ziga xos tarzda yondashishga harakat qiladilar. Ular uchun rivojlanish dinamikasini yaxshilashning eng ishonchli yo‘li internetdan foydalanishdagi bo‘shliqni kamaytirish orqali aholining internetdan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashdan iboratdir.

Alohida ta’kidlash lozimki, davlatning qo‘llab-quvvatlovchi siyosati raqamli iqtisodiyotning jadal taraqqiy etishiga ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy taraqqiyot “oqsoqlanishi”ning oldini olish maqsadida: raqamli innovatsiyalar sohasida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini qonun yo‘li bilan tartibga solish; iqtiso-diyotda yangi texnologiya va axborot oqimlaridan foydalanishni rag‘batlantirish; uy xo‘jaliklari a’zolarining raqamli makonda faoliyat ko‘rsata olishlarini ta’min-lash maqsadida o‘quvchi va talabalarning yangicha fikrlashlariga xizmat qiluvchi o‘quv dasturlarini joriy etish, raqamli texnologiyalar sohasi uchun malakali mutaxassis va kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish talab etiladi. Raqamli texno-logiyalar va raqamli iqtisodiyot vositalarini iqtisodiyotning barcha soha va tarmoq-lariga keng joriy etishda tijorat banklarining o‘rni va ahamiyati juda ham katta. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda banklar faoliyatida ham raqamli transformatsiyalashni amalga oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Banklar faoliyatida raqamlashtirishdan foydalanish – bu eng avvalo yangi bank xizmatlarini ko‘rsatish, yangi bozor imkoniyatlariga ega bo‘lish maqsadida raqamli texnolo-giyalardan keng foydalanishni ko‘zda tutadi. Bugungi kunda butun jahonda bank amaliyotida amalda mavjud biznes-modellar o‘rniga raqamli valyutalar, R2R-servislar,mobil va kontaktsiz to‘lovlar tizimidan keng foydalanilmoqda. Aynan shundan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda ham bank tizimini raqamli transformatsiyalash va bu borada jahon amaliyotida keng qo‘llaniluvchi raqamli texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi [5,6].

Iqtisodiyotni raqamlashtirish birinchi navbatda iqtisodiyotning samaradorligi va raqobatbardoshliligini oshirishni ko‘zda tutadi. Ekspertlarning hisoblashlaricha raqamlashtirish evaziga mahsulot ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish xarajatlari 10-40 foizgacha pasayadi, asbob-uskunalarning bo‘sh turib qolishi 30-50 foiz-gacha, mahsulot va xizmatlarni bozorga olib chiqish xarajatlari 20-50 foizgacha, mahsulot sifatini yaxshilash va reklama xarajatlari 10-20 foizgacha, ishlab chiqarish zahiralarini saqlash xarajatlari esa 20-50 foizgacha qisqaradi [3].

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqqan holda quyidagicha xulosa yasashimiz mumkin bo‘ladi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirishning hozirgi darajasi kam mehnat, moliyaviy va moddiy resurslarni sarflagan holda yuqori iqtisodiy samaraga erishish imkoniyatini beradi. Xo‘jalik yurituvchi iqtisodiy sub’ektlarining zaruriy axborotlarga egalik qilishi raqobat ustunligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ularga o‘z faoliyatlarini bashoratlash aniqligini ta’minlashga va pirovardida moliyaviy savod-xonligini yaxshilashga zamin yaratadi.

Raqamli iqtisodiyot moliyaviy aktivlar, to‘lovlar tizimi, mehnat, tovar va xizmatlar bozorini yangicha tashkil etish, ularni innovatsion asoslarda rivojlantirish borasida katta imkoniyatlar taqdim etadi.

Tashkilot va korxonalarda hujjatlar aylanishini va bu bilan bog‘liq xarajat-larni qisqartiradi.

Milliy iqtisodiyot tarmoq va sohalarida mehnat unumdorligining o‘sishini ta’min etadi, mahsulot va xizmatlar sifati yaxshilanishiga va bir so‘z bilan ayt-ganda O‘zbekiston iqtisodiyotining jadal sur’atlar bilan rivojlanishiga zamin yaratadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi.

2. Доклад о цифровой экономике 2019. Создание стоимости и получение выгод: Последствия для развивающихся стран. ООН. Женева 2019 г.

3. М.Ачаповская Цифровизация экономики как драйвер инновационного развития./ Банкаўскі веснік, САКАВИК 2019.

4. Доклад о развитии цифровой экономике в России. Конкуренция в цифровую эпоху: стратегические вызовы для Российской Федерации./ 2018 Международный банк реконструкции и развития / Всемирный банк

5. Экономика инноваций. Курс лекций. Москва., МАКС Пресс, 2014.

6. A.N.Aripov, O.K.Iminov , X.A.Muxiddinov “Infoiqtisodiyot asoslari” , T-2006.

7. Построение бизнес-модели, А.Остервалдер, И.Пине, Алпина Паблишер, Сколково, 2012, 288 стр.

8. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi ma’lumotlari.

BIZNES SUB’EKTLARINING FOND BOZORIDAGI ISHTIROKI

Toshpulatov Murodulla Sobirjon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti v.b., PhD.

Biznes sub’ektlarining fond bozoridagi ishtirokini rivojlantirish masalasi bugungi kunda iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish va kapitalning samarali taqsimlanishini ta’minlashning muhim omili sifatida qaralmoqda. Fond bozorida faol qatnashuvchi korxonalar o‘z investitsion salohiyatini kengaytirib, uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikka erishadi hamda iqtisodiyotga qo‘shimcha sarmoyalar oqimini jalb etishda muhim rol o‘ynaydi. Jahon banki va Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi tadqiqotlarida qayd etilishicha, rivojlanayotgan mamlakatlarda fond bozorining kengayishi biznes sub’ektlarining moliyaviy resurslarga kirishini sezilarli darajada osonlashtirmoqda va iqtisodiy o‘sishni tezlashtirmoqda. O‘zbekiston misolida ham rasmiy ma’lumotlar, so‘nggi yillarda aksiyadorlik jamiyatlari va xususiy korxonalar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar hajmining oshib borayotganini ko‘rsatmoqda. Bu jarayon biznes muhitini yanada ochiq va raqobatbardosh qilish bilan birga, kapital bozorining institutsional salohiyatini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, biznes sub’ektlarining fond bozorida faolroq ishtiroki mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘sishning yangi manbalarini shakllantirishda muhim omil sifatida dolzarbdir.

IMF (2023) ma’lumotlariga ko‘ra, kapitallashgan fond bozori biznes sub’ektlari uchun moliyaviy resurslarning muqobil manbai sifatida ahamiyat kasb etadi, chunki u investitsion loyihalarni tezkor va nisbatan arzon mablag‘lar bilan ta’minlaydi. Aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozorida faol ishtiroki ularning moliyaviy intizomini


kuchaytiradi, chunki ular muntazam ravishda moliyaviy hisobotlarni taqdim etish orqali jamoatchilik va investorlar oldida hisobdor bo‘lib boradi. Deloitte (2022) tahlillarida ko‘rsatilganidek, fond bozoridagi ishtirok kompaniyalar uchun raqobatbardosh baholash mexanizmini shakllantiradi va bu orqali ularning strategik qarorlarini samaraliroq qabul qilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, O‘zbekistonda kapital bozorini rivojlantirish davlatning “Kapital bozorini 2025-yilgacha rivojlantirish strategiyasi” bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, unda biznes sub’ektlari uchun yangi moliyaviy instrumentlar joriy etilishi ko‘zda tutilgan. Mazkur yondashuv nafaqat yirik korxonalarning balki, o‘rta biznesning ham fond bozorida erkin harakat qilishi uchun imkoniyat yaratadi. Shu sababli, fond bozorini rivojlantirish iqtisodiyotning barcha segmentlarida moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Fond bozorida ishtirok etish korxonalarning moliyaviy xavf-xatarlarini kamaytirib, uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. McKinsey (2021) hisobotida qayd etilishicha, rivojlanayotgan davlatlarda biznes sub’ektlarining fond bozoridagi faol ishtiroki iqtisodiy o‘sishni 1,5–2 baravarga tezlashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, fond bozorining rivojlanishi xorijiy investorlar uchun ham qulay sharoitlar yaratib, milliy iqtisodiyotning xalqaro integratsiyasini kuchaytiradi. Demak, biznes sub’ektlarining fond bozorida faol ishtiroki nafaqat korxonalar moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi, balki davlatning xalqaro maydondagi investitsion jozibadorligini oshiradi.

Turkiya va Janubiy Koreya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, biznes sub’ektlarini fond bozoriga jalb etish faqat kapitalni jalb qilish mexanizmi emas, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish vositasi sifatida qaraladi. Turkiyada Istanbul fond birjasi (Borsa İstanbul) orqali amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, xususan, kichik va o‘rta biznes uchun soddalashtirilgan IPO jarayonlari, davlat tomonidan kafolatlangan investitsion dasturlar hamda islomiy moliya instrumentlarining joriy etilishi korxonalarning fond bozoriga chiqish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, Turkiya bozorida xorijiy investorlarning faol ishtiroki biznes sub’ektlari uchun kapital manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini yaratmoqda, bu esa mamlakat iqtisodiyotida transmilliy kapital oqimlarining barqarorligini ta’minlaydi.

Janubiy Koreya tajribasi esa yuqori texnologiyalar va institutsional islohotlar uyg‘unligida shakllanib, mamlakatning tezkor rivojlanishida muhim o‘rin tutmoqda. Koreya birjalari (Korea Exchange) xususan, KOSDAQ platformasi orqali texnologik startaplar va innovatsion kompaniyalarni bozorga jalb qilishda samarali mexanizmlarni yaratib bergan bo‘lib, bu jarayon yangi biznes sub’ektlari uchun qulay kapital bozor muhitini shakllantirgan. Hukumat tomonidan risk kapitali va venchur investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash dasturlarining kengaytirilishi esa biznes sub’ektlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirib, kapital bozoriga ishonchni yanada mustahkamladi.

Jahon amaliyotida biznes sub’ektlarining fond bozoridagi faolligi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, korporativ boshqaruvning shaffoflashuvi va investitsion muhitning jozibadorligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli, O‘zbekistonda ham biznes sub’ektlari uchun fond bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, moliyaviy instrumentlarni diversifikatsiya qilish hamda investorlar ishonchini mustahkamlash bozor islohotlarining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.



1-rasm. “Toshkent” RFBda aksiya bozorining asosiy ko‘rsatkichlari birinchi yarim yil yakunlari bo`yicha

“Toshkent” Respublika fond birjasida aksiyalar bozorining birinchi yarim yillik ko‘rsatkichlari dinamikasi shuni ko‘rsatadiki, 2021-yilda savdo hajmi 829,5 mlrd so‘mni tashkil qilib, 85 foizlik o‘sish bilan barqaror rivojlanish tendensiyasini namoyon etgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 3316,5 mlrd so‘mga yetib, o‘sish sur’ati 400 foizni tashkil etib, bozor tarixida sezilarli sakrash qayd etildi. 2023-yilda esa savdo hajmining 2016,4 mlrd so‘mgacha pasayishi va o‘sish sur’atining 61 foiz darajasida qolishi investorlar faolligining qisqarishi va muayyan iqtisodiy omillar ta’sirida bozor likvidligining pasayishi bilan izohlanadi. 2024-yil natijalariga ko‘ra, savdo hajmi keskin ravishda 385 mlrd so‘mga tushib ketib, o‘sish sur’ati 19 foizni tashkil qilgani fond bozorining institutsional infratuzilmasida mavjud muammolar hamda investorlarda xavf-xatarlarning kuchayganini ko‘rsatadi. Shunga qaramay, 2025-yilda savdo hajmining 5305,4 mlrd so‘mga yetishi va 1378 foiz darajasidagi misli ko‘rilmagan o‘sish qayd etilishi, bir tomondan, tartibga solish mexanizmlarining takomillashuvi hamda raqamli transformatsiyaning samaradorligini ifodalaydi, ikkinchi tomondan esa, “Toshkent” RFBning milliy kapital bozorida barqarorlikni tiklash va biznes sub’ektlari uchun jozibador moliyalashtirish manbaiga aylanish imkoniyatlarini ko‘rsatib bermoqda.

Xalqaro aksiyalar bozoridagi bitimlar hajmi bo‘yicha qimmatli qog‘ozlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyotning moliyaviy resurslar bilan ta’minlanishi asosan yirik kapitalizatsiyaga ega kompaniyalar aksiyalari hisobiga shakllanmoqda, biroq kichik va o‘rta biznes sub’ektlari ushbu jarayonda cheklangan ulushga ega. Bunday notekislik bir tomondan bozor likvidligini oshirsa, boshqa tomondan investitsion oqimlarning diversifikatsiyasini pasaytirib, fond bozorining barqaror rivojlanishini sekinlashtiradi. Shu nuqtai nazardan, qimmatli qog‘ozlar bozoridagi bitimlar hajmining kengayishi kapitalni samarali taqsimlash imkonini berishi bilan birga, korporativ boshqaruv tizimining shaffofligini ham kuchaytiradi, chunki emissiya qiluvchi kompaniyalar xalqaro standartlarga mos ravishda moliyaviy hisobotlarni e’lon qilishga majbur bo‘ladi. O‘zbekistonda esa Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, aksiyalar bozorida bitimlar hajmi ortib borayotgan bo‘lsa-da, bu jarayonda asosan davlat ulushiga ega yirik korxonalar ustunlik qilmoqda, natijada xususiy biznes sub’ektlarining ishtiroki va kapital bozoridan foydalanish imkoniyatlari yetarlicha rivojlanmaganligicha qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kapital bozorini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori, 17.01.2022 yildagi PQ-90-son*
2. *Jahon banki ma’lumotlari: https://www.worldbank.org/en/topic.*
3. *World Bank. Digital Economy for Development Report. – Washington, DC. – 2022. – P. 1–120.*
4. *OECD. Digital Transformation in Business and Finance. – Paris. – 2021. – P. 1–95.*
5. *IMF. Fintech and the Future of Finance. – Washington, DC. – 2023. – P. 1–85.*
6. *Deloitte. Global Capital Markets Report. – London. – 2022. – P. 1–70.*
7. *McKinsey & Company. Global Capital Market Trends. – New York. – 2021. – P. 1–80.*

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ И ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОСИСТЕМЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ «ЗЕЛЁНАЯ» ЭКОНОМИКА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН, ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

Джулибеков Нурмат Каршибекович
Научный руководитель
НавГГТУ PhD экономических наук доцент кафедры «Экономика»
Жулиева Гулноз Юлдашевна
НавГГТУ Магистр факультета Экономики

В последнее время в условиях ускоренного развития цифровой экономики и глобализации остро встаёт вопрос экологии и сохранения природных ресурсов. Ведь, как известно ресурсы не бесконечны и окружающий нас мир не безграничен. Так концепция «зелёной» экономики и переход на использование возобновляемых ресурсов и производство экологически чистых продуктов становится приоритетом в мировой экономике.

Как же осуществляется «озеленение» экономики Узбекистана?

Для реализации данной цели в стране разработана национальная стратегия и комплекс мер, которые охватывает энергию, экологию, финансирование и устойчивое развитие экономики.

1. Стратегия перехода к «зелёной экономике» на 2019–2030 годы заложена как дорожная карта развития устойчивого хозяйства.

2. Запущены фотогальванические станции, например Nur Navoi (100 МВт, 2021), Nurabad (100 МВт, 2022). Программа «Солнечный дом» (2023) стимулировала установку панелей до 50 кВт частными домами, с выкупом избыточной энергии и налоговыми льготами.

3. Проекты, направленные на озеленение и лесовосстановление- Проект Yashil Makon («Зелёное пространство», с ноября 2021)

4**.** *Ландшафтная экология, борьба с деградацией и засухой - на* высохшем дне Аральского моря восстановлено 500 тыс. га лесов.

5. Городские инициативы и климат: Программа «Shaded Walking Streets» (2025–2027)

6. Финансирование зелёных инициатив.

7. Стратегия «Зеленого сельского хозяйства» покрывает управление водными ресурсами, климат-умные агрорегионы, устойчивое управление пастбищами, создание зелёных городских зон, биоразнообразие и устойчивость экосистем.

Узбекистан активно инициирует экологические проекты. Знаменательным моментом в этом направление является утверждение проектов в рамках сотрудничества с Организацией тюркских государств (ОТГ), направленных на защиту окружающей среды и развитие сотрудничества между тюркскими странами. В 2021 году на Стамбульском саммите была предложена инициатива по созданию структуры по охране окружающей среды тюркских стран с размещением её штаб-квартиры в Приаралье, как известно, в регионе остро нуждающемся в экологической поддержке. Ещё одним важным моментом является «Соглашение о стратегическом партнёрстве в области производства и передачи «зелёной энергетики» между Республикой Казахстан, Азербайджанской Республикой и Республикой Узбекистан. Это соглашение предусматривает создание «зелёного коридора», по которой республика готова экспортировать «зеленую» энергию в страны Европы через Азербайджан. С этой целью Узбекистан планирует довести долю возобновляемых источников энергии до 40% к 2030 году, создавая избыточные объёмы для экспорта.

Как видно, страна уже достигла хороших результатов в этой деятельности, однако ещё предстоит преодолеть множество препятствий, чтобы достичь целей к 2030 году.

<table>
<tr><td colspan="5">1. Переход экономики на возобновимые ресурсы</td><td colspan="2">2. Создание экологически благоприятной среды для человека</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Переход на возобновляемые источники энергии</td><td rowspan="2">Рациональное использование земельных ресурсов</td><td rowspan="2">Рациональное использование водных ресурсов</td><td rowspan="2">Рациональное использование ресурсов атмосферного воздуха</td><td rowspan="2">Рациональное использование ресурсов биомассы и биоразнообразия</td><td>Экологически чистый транспорт</td><td>Экологически чистое строительство</td></tr>
<tr><td colspan="2">Экологический туризм</td></tr>
<tr><td colspan="7">3. Создание экономически благоприятных условий для жизнедеятельности человека</td></tr>
<tr><td colspan="4">Создание новых высокотехнологичных отраслей экономики</td><td colspan="3">Создание новых рабочих мест</td></tr>
</table>

1-рисунок. Схема концепции «зелёной» экономики

Рассмотрим основные трудности внедрения экологических проектов в Узбекистане.

1. Финансовые ограничения
2. Зависимость от ископаемого топлива

3. Институциональные и правовые барьеры
4. Технические и инфраструктурные проблемы
5. Социальные и культурные препятствия
6. Экологические вызовы

Итак, делая вывод, необходимо отметить, что страна ведет активную работу в области «зелёной экономики» и всесторонний подход к озеленению страны. Однако неосведомленность и финансово - экономическая неграмотность народа остается основным препятствием на этом пути. Необходимо активно вести работу уже на самом низшем уровне – это проведение комплекса работ среди подрастающего поколения, которые нацелены на развитие экологической культуры и осознание ценности природных ресурсов. Среди ряда мер можно выделить следующие:

- Проведение в учебных заведениях мероприятий (ежемесячных, квартальных) по охране окружающей среды, тренингов по производству продуктов из возобновляемых ресурсов, открытие бизнес – школ по созданию частных предприятий по утилизации отходов и очищению окружающей среды. Включение в перечень обязательных предметов обучения в школах, в высших и других учебно-образовательных институтах.
- Использование экологических машин (электромобили, электробусы) и других средств передвижения (велосипеды, самокаты), которые играют огромную роль на пути сохранения чистоты атмосферного воздуха.
- Поддержка и стимулирование предприятий, направленных на производство продукции из возобновляемых ресурсов и молодых специалистов, деятельность которых направлена на создание технологий с целью охраны окружающей среды.

Понятие разделение мусора и отходов, экономное отношение к расходу воды и электричества, бережное отношение к окружающей среде и здоровью человека – это ключевой минимум знаний, который должен приобрести ребенок уже в детском саду или семье.

Литературы:

1. *Розенберг Г.С.., Кудинова Г.Э. На пути к «зеленой» экономике // биосфера. 2012. Т. 4, № 3. С. 245–250.*
2. *Терешина М.В., Дегтярева И.Н. «Зеленый рост» и структурные сдвиги в региональной экономике: попытка теоретико-методологического анализа // теория и практика общественного развития. 2012. № 5. С. 246–248*
3. *Ибрагимов А. Г., Платоновский Н. Г. Зеленая экономика в россии и мире: состояние и перспективы //экономика сельского хозяйства россии. – 2021. – №. 9. – с. 103-108.*
4. *Мирошниченко О. С., Бранд Н. А. Банки в финансировании «зеленой» экономики: обзор современных исследований //финансы: теория и практика. – 2021. – т. 25. – №. 2. – с. 76-95.*
5. *Харланов А. С., Хайретдинов А. К., Бобошко А. А. Создание нового цивилизационного уклада планеты земля: переход к «зеленой экономике». Особенности и риски //инновации и инвестиции. – 2021.№. 10. – с. 18-23.*
6. *Экономический вестник Узбекистана. Аналитический журнал.1-2.2025г.*
7. *Экономическое обозрение. Аналитический журнал. №7 (43) 2025г.*
8. *Экономическое обозрение. Аналитический журнал. №1 (37) 2025г.*
9. *Интернет – источники.*

KORXONALARDA RISK BOSHQARUVINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRISH

Maxmudova Nodiraxon Jumaboy qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti doktoranti
“Menejment va marketing” kafedrasi katta o‘qituvchisi
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘zbekiston sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlari so‘nggi yillarda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim omilga aylandi. 2023–2024-yillarda mamlakatda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida 200 dan ortiq ishlab chiqarish korxonalarida raqamli monitoring, avtomatlashtirilgan boshqaruv va ma’lumotlarni tahlil qilish tizimlari joriy qilindi [1]. Ushbu o‘zgarishlar risklarni aniqlash, baholash va kamaytirish tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshirdi.

Raqamli transformatsiya risk-menejment jarayonida uch asosiy yo‘nalishda rol o‘ynaydi [2]:

1. Ma’lumotlarni real vaqt rejimida kuzatish – IoT sensorlari va SCADA tizimlari yordamida ishlab chiqarishdagi o‘zgarishlar aniqlanadi.
2. Tahliliy model va prognozlash – sun’iy intellekt (AI) asosida ishlab chiqilgan algoritmlar xavf ehtimolini prognozlaydi.
3. Avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish – tizimlar risklarni kamaytirish bo‘yicha tezkor yechimlar taklif qiladi.

Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarida risklarni boshqarish tizimi iqtisodiy barqarorlik va ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlovchi muhim mexanizmga aylandi. Raqamli texnologiyalar yordamida risklarni aniqlash, baholash va prognozlash jarayonlari tezkor, aniq va tizimli tus olmoqda. Bu esa ishlab chiqarishdagi to‘xtalishlar, resurs isrofi va inson omiliga bog‘liq xatoliklarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Ko‘rsatish mumkinki, raqamli risklarni boshqarish nafaqat xavf-xatarlarni kamaytiradi, balki ishlab chiqarish uzluksizligini ta’minlaydi, resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlaydi. Shu bois, bu yo‘nalishda davlat siyosati, korporativ boshqaruv va ilmiy tadqiqotlarning uyg‘unligi muhim.

O‘zbekiston sanoat tarmoqlarida raqamli risk-menejment tizimlarini keng joriy etish orqali ishlab chiqarish xavfsizligini oshirish, kiberxavfsizlikni mustahkamlash hamda ma’lumotlarning shaffofligini ta’minlash mumkin. Shu bilan birga, raqamli muhitda risklarni boshqarish bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlash, xalqaro standartlar va ilg‘or tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Quyidagi jadvalda 2024-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekistonning ayrim sanoat tarmoqlarida raqamli texnologiyalar asosida risklarni boshqarish holati tahlil qilingan (1-jadval).

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etgan korxonalarda ishlab chiqarishdagi xavf-xatarlar va yo‘qotishlar ancha kamaymoqda. Xususan, “O‘zbekneftgaz” tizimida avtomatik xavf monitoringi joriy etilgach, ishlab chiqarishdagi avariya holatlari 2022-yilga nisbatan 1,3 barobar qisqargan. Metallurgiya va kimyo tarmoqlarida esa real vaqt tahliliy platformalar xomashyo isrofini kamaytirish va ishlab chiqarish quvvatini barqaror ushlab turishga yordam bermoqda [3].

1-jadval.

O‘zbekiston sanoat tarmoqlarida risklarni boshqarishda raqamli texnologiyalar qo‘llanilishi (2024-yil holatiga ko‘ra)

№	Sanoat tarmog‘i	Qo‘llanilgan texnologiyalar	Risklarni kamaytirish natijasi	Ma’lumot manbasi
1	Neft-gaz sanoati	SCADA, AI tahlil tizimlari	Ishlab chiqarishdagi nosozliklar 27% ga qisqardi	“O‘zbekneftgaz” AJ hisobotlari, 2024
2	Metallurgiya	IoT sensorlari, Big Data	Uskuna nosozligi xavfi 23% ga kamaydi	O‘zmetkombinat ma’lumotlari
3	Kimyo sanoati	ERP, MES tizimlari	Xomashyo yo‘qotishlari 15% ga qisqardi	Kimyo sanoati uyushmasi
4	Qurilish materiallari	Blokcheyn monitoring tizimi	Yetkazib berish kechikishlari 18% ga kamaydi	Investitsiyalar vazirligi tahlili
5	Energetika	Sun’iy intellekt asosidagi prognozlash	Energiya isrofi 12% ga kamaydi	“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ, 2024

Manba: *“O‘zbekneftgaz” AJ yillik hisobotlari (2024), O‘zbekiston kimyo sanoati uyushmasi (2024), World Economic Forum (2023) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Biroq raqamli transformatsiya yangi turdagi risklarni ham keltirib chiqarmoqda, ular orasida quyidagilar alohida ahamiyatga ega:

✓ kiberxavfsizlik tahdidlari – korporativ axborot tizimlariga noqonuniy kirish va ma’lumotlar sizib chiqish xavfi;

✓ texnologik nosozliklar – avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlarining dasturiy xatolari yoki texnik nosozligi;

✓ ma’lumotlar ishonchliligi va integratsiyasi bilan bog‘liq muammolar**;**

✓ kadrlar yetishmovchiligi – raqamli risk-menejment bo‘yicha malakali mutaxassislarning kamligi.

Davlat statistika qo‘mitasining 2024-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, yirik sanoat korxonalarining atigi 37 foizi kiberxavfsizlik bo‘yicha ichki siyosatga ega. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, aksariyat korxonalar hali ham raqamli xavf manbalarini tizimli tarzda boshqara olmayapti. Shu sababli, raqamli risklarni boshqarish tizimini ISO 31000:2018 xalqaro standartlari, shuningdek ISO/IEC 27001 axborot xavfsizligi boshqaruv tizimlari standarti asosida takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

Shuningdek, risklarni boshqarishda davlat siyosati, xususiy sektor va ilmiy muassasalar o‘rtasidagi hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda sanoat korxonalari uchun “Cyber-Industrial Risk Center” yoki “Digital Resilience Hub” kabi raqamli xavfsizlik markazlari faoliyat yuritadi. O‘zbekiston sharoitida ham shunday markazlarni tashkil etish orqali korxonalarning axborot tizimlarini yagona platformada himoyalash, xavfsizlik darajasini real vaqt rejimida kuzatish va milliy raqamli infratuzilmaning ishonchliligini oshirish mumkin [4].

Davlat siyosati darajasida raqamli risklarni kamaytirish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Raqamli xavfsizlik platformalarini yaratish – korxonalarda risklarni avtomatik monitoring qilish tizimlarini yagona bazaga birlashtirish, kiberxavfsizlikni real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini berish;

2. Kadrlar salohiyatini oshirish – raqamli risk-menejment, axborot xavfsizligi va texnologik audit sohalari bo‘yicha malaka oshirish dasturlarini kengaytirish, xususan texnik oliygohlarda maxsus magistratura yo‘nalishlarini ochish;

3. Davlat-xususiy sheriklik asosida risk tahlil markazlarini tashkil etish – tarmoq kesimidagi integratsiyalashgan risk xaritalarini shakllantirish, ishlab chiqarishdagi xavflarni markazlashtirilgan tarzda kuzatish;

4. Sun’iy intellekt asosidagi tahlil tizimlarini rivojlantirish – risklarning paydo bo‘lish ehtimolini avtomatik tarzda baholovchi AI modellarini yaratish va ularni sanoat jarayonlariga integratsiyalash.

Kelgusida davlat siyosati darajasida har bir sanoat tarmog‘i uchun yagona raqamli risk monitoringi platformasi yaratish, tarmoq kesimidagi ma’lumotlarni integratsiyalash va ularni sun’iy intellekt asosida tahlil qilish tizimini yo‘lga qo‘yish zarur. Shu orqali sanoat korxonalarining barqarorligi, iqtisodiy xavfsizligi va raqobatbardoshligi yangi bosqichga ko‘tariladi.

Shuningdek, raqamli risklarni samarali boshqarish uchun milliy raqamli xavfsizlik strategiyasini ishlab chiqish ham dolzarb hisoblanadi. Ushbu strategiya doirasida davlat organlari, sanoat korxonalari va ilmiy muassasalar o‘rtasida axborot almashinuvi, xavf monitoringi va tezkor ogohlantirish tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, korxonalarning raqamli tayyorgarlik darajasini baholovchi “Digital Risk Index” ko‘rsatkichini joriy etish orqali ularning raqamli infratuzilmasi, kiberxavfsizlik darajasi va risklarga bardoshlilik holati muntazam monitoring qilinadi. Bunday kompleks yondashuv sanoat tarmoqlarining raqamli transformatsiya jarayonidagi barqarorligini oshiradi, risklarni erta aniqlash va ularni kamaytirish bo‘yicha davlat siyosatining samaradorligini ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida” PF–158-son Farmon, 2023-yil 11-sentabr // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2023. www.lex.uz

2. G‘ulomov S.S., Zaynutdinov A.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida risklarni boshqarish mexanizmlari: monografiya. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2024. – 28 b.

3. “O‘zbekneftgaz” AJ. Yillik hisobot – 2024: Raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqarish xavfsizligini boshqarish natijalari. – Toshkent: O‘zbekneftgaz nashriyoti, 2024. – 46 b.

4. World Economic Forum. The Future of Industrial Risk Management in the Digital Era. – Geneva: WEF Publications, 2023. – 54 p.

SUN’IY INTELLEKTNING MEHNAT BOZORIGA TA’SIRI: IMKONIYATLAR VA XAVF-XATARLAR

Abdullayev Habibullo Asadulla o‘g‘li
TDIU iqtisodiyot fanlari doktori (PhD), katta o‘qituvchi

XXI asrning boshidan buyon texnologik inqilobning markaziy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan sun'iy intellekt (SI) global iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarda misli ko‘rilmagan o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Raqamli transformatsiya va avtomatlashtirish jarayonlari mehnat bozorini o‘zgartirib, kasblar va malakalarga bo‘lgan talabni tubdan yangilamoqda. Bu jarayon bir vaqtning o‘zida ham ulkan iqtisodiy imkoniyatlarni ochib beradi, ham jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy xavf-xatarlarni yuzaga keltiradi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – sun'iy intellektning mehnat

bozoriga koʻrsatayotgan murakkab ta’sirini har tomonlama tahlil qilish, uning ijobiy va salbiy oqibatlarini ilmiy asosda baholashdan iborat. Tadqiqotda mavjud ish oʻrinlarining transformatsiyasi, yangi kasblar ekotizimining shakllanishi, malaka talablarining oʻzgarishi va ijtimoiy tengsizlik muammosi atroflicha oʻrganiladi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari, avvalambor, mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshirish orqali global iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantiradi. Avtomatlashtirish jarayonlari, jumladan, robototexnika va SI algoritmlarining integratsiyasi, ishlab chiqarish, logistika va xizmat koʻrsatish sohalarida inson mehnatining takrorlanuvchi, monoton va hatto xavfli qismini oʻz zimmasiga oladi. Natijada, korxonalar xarajatlarni kamaytirib, ishlab chiqarish hajmini oshirishi, inson resurslarini esa yanada murakkab va ijodiy vazifalarga yoʻnaltirishi mumkin. McKinsey Global Institute tadqiqotiga koʻra, global ish faoliyatining 50% ga yaqini hozirgi mavjud texnologiyalar yordamida avtomatlashtirilishi mumkin, bu esa odamlarni yanada kreativ va strategik vazifalarga yoʻnaltirish imkonini beradi [1]. Biroq, SI mehnat bozoridagi mavjud ish oʻrinlarini yoʻqotishi haqidagi xavotirlar bilan birga, butunlay yangi sohalar va kasblarning paydo boʻlishiga ham sabab boʻlmoqda. “Ma’lumotlar olimi”, “mashinani oʻrganish boʻyicha muhandis”, “SI etika boʻyicha mutaxassis” kabi yangi kasblar soʻnggi yillarda eng talabgir mutaxassisliklarga aylanmoqda. Jahon Iqtisodiy Forumi hisobotida qayd etilishicha, 2027-yilga borib SI tomonidan yoʻqotilgan 85 million ish oʻrniga qarshi 97 million yangi ish oʻrni paydo boʻladi. Bu yangi ish oʻrinlari yuqori texnologiyalar, ma’lumotlarni tahlil qilish va dasturlash sohalariga tegishli boʻlib, ular innovatsion iqtisodiyotning tayanchi hisoblanadi.

Koʻplab ekspertlar, shu jumladan Erik Brynjolfsson va Endryu Makafi (2014) SI inson mehnatini toʻliq almashtirishdan koʻra, uning samaradorligini oshiruvchi yordamchi sifatida namoyon boʻlishini ta’kidlaydilar [2]. Bu “inson-SI hamkorligi” modeli deb ataladi. Masalan, tibbiyotda SI algoritmlari diagnostika aniqligini oshirishga yordam bersa, yuridik sohada esa murakkab hujjatlarni tahlil qilish jarayonini tezlashtiradi. Bu hamkorlik insonning tanqidiy fikrlashi, empatiyasi va kreativligini SI ning hisoblash quvvati va ma’lumotlarni qayta ishlash tezligi bilan birlashtirib, ancha yuqori natijalarga erishishga imkon beradi.

SI texnologiyalarining joriy etilishi, iqtisodiy oʻsishga qaramay, jiddiy ijtimoiy va iqtisodiy xavf-xatarlarni ham yuzaga keltiradi. Avtomatlashtirish, ayniqsa, takrorlanuvchi, oddiy va odatda past malakali ish oʻrinlariga jiddiy tahdid soladi. Karl Benedikt Frey va Maykl Osbornning (2017) tadqiqotlari, avtomatlashtirish xavfi yuqori boʻlgan sohalarni aniqlab berdi [3]. Bularga transport, ishlab chiqarish, chakana savdo va ma’muriy xizmatlar kiradi. Masalan, avtonom transport vositalarining rivojlanishi haydovchilik kasbining yoʻqolishiga olib kelishi mumkin. Bu jarayon, agar oqilona boshqarilmasa, ishsizlik darajasining keskin oʻsishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, mehnat bozoridagi oʻzgarishlar bilan bir qatorda, talab qilinadigan koʻnikmalar ham tubdan oʻzgarmoqda. SI tomonidan avtomatlashtirilmaydigan kasblar, asosan, kreativlik, tanqidiy fikrlash, kompleks muammolarni hal qilish, emotsional intellekt va oʻzgaruvchanlikka moslashish kabi “insoniy” koʻnikmalarni talab qiladi. Hozirgi ta’lim tizimi ushbu talablarga toʻliq javob bermaydi, bu esa mehnat bozoridagi talab va taklif oʻrtasida jiddiy tafovutni keltirib chiqaradi [4]. Bu muammoni hal etish uchun katta yoshli aholini qayta oʻqitish va malakasini oshirish boʻyicha davlat dasturlari va xususiy tashabbuslar yetarli darajada rivojlanishi lozim.

Texnologik taraqqiyotning salbiy oqibatlaridan biri – bu daromadlar tengsizligining kuchayishidir [5]. SI va yuqori texnologik koʻnikmalarga ega boʻlgan mutaxassislar yuqori maosh oladi, shu bilan birga oddiy ishlarni bajaruvchi ishchilarning maoshlari pasayishi yoki ularning ish oʻrinlari yoʻqolishi mumkin. Bu ikki guruh oʻrtasidagi daromadlar farqi ijtimoiy polarizatsiyani chuqurlashtirib, jamiyatda norozilik va ijtimoiy beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu muammoni hal etish uchun universal asosiy daromad (UBI) kabi ijtimoiy siyosat mexanizmlari jiddiy muhokama qilinmoqda.

Sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta'sirini tahlil qilish, asosan, uning yuzaga keltiradigan iqtisodiy va ijtimoiy muammolarini hal qilishga qaratilgan amaliy yechimlarni izlashni taqozo etadi. Bu jarayonga muvaffaqiyatli moslashish uchun bir qator mexanizmlarni ishga solish zarur.

Birinchidan, ta'lim tizimini tubdan isloh qilish muhim. An'anaviy kasb-hunar ta'limidan voz kechib, butun umr davomida oʻrganish (lifelong learning) tamoyiliga asoslangan tizimga oʻtish lozim. Bu nafaqat yoshlarga kelajak kasblari uchun zarur boʻlgan STEM (fan, texnologiya, muhandislik, matematika) koʻnikmalarini singdirishni, balki mavjud ishchi kuchini ham qayta tayyorlashni oʻz ichiga oladi. Oliy ta'limda kreativlik, tanqidiy fikrlash, muammolarni yechish va hissiy intellekt kabi qobiliyatlarni rivojlantirishga e'tibor kuchaytirilishi zarur, chunki bu koʻnikmalar SI tomonidan avtomatlashtirishga eng kam moyil boʻlgan sohalardir.

Ikkinchidan, hukumatning faol ijtimoiy siyosati muhim rol oʻynaydi. Avtomatlashtirish natijasida ish oʻrinlarini yoʻqotgan shaxslarga yordam berish uchun ijtimoiy himoya dasturlari kengaytirilishi, ularni yangi kasblarga yoʻnaltirish uchun davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanadigan oʻquv dasturlari joriy etilishi kerak. Shuningdek, universal asosiy daromad (universal basic income) kabi gʻoyalar global miqyosda muhokama qilinmoqda, ammo ularni joriy etishdan oldin iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolat mezonlari chuqur oʻrganilishi lozim.

Uchinchidan, biznes va ta'lim sohalari oʻrtasida hamkorlikni kuchaytirish zarur. Korxonalar oʻz xodimlarining malakasini oshirishga sarmoya kiritishi, ularga SI texnologiyalari bilan birga ishlashni oʻrgatishi kerak. Bu esa ishchi kuchini saqlab qolishga va mehnat bozoridagi oʻzgarishlarga tezroq moslashishga yordam beradi. Ish beruvchilar va ta'lim muassasalari birgalikda kelajak uchun talab qilinadigan koʻnikmalar boʻyicha oʻquv dasturlarini ishlab chiqishi, amaliyot va tajriba almashishni yoʻlga qoʻyishi maqsadga muvofiqdir.

Sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta’siri faqatgina ish oʻrinlari va kasblar transformatsiyasi bilan cheklanib qolmaydi, balki u global iqtisodiy oʻsishning yangi manbai sifatida ham xizmat qiladi. SI texnologiyalari, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashuvi, logistika va ta'minot zanjirlarini optimallashtirish orqali korxonalarga samaradorlikni keskin oshirish imkonini beradi. Bu esa tovarlar va xizmatlar tannarxini pasaytirib, iste'molchilar uchun qulayroq shart-sharoitlar yaratadi va natijada umumiy iqtisodiy farovonlikni oshiradi.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, SI texnologiyalarining joriy etilishi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib, kompaniyalarga bozor ulushini kengaytirishga yordam beradi. Bu jarayon yangi biznes modellarini, jumladan, "platforma iqtisodiyoti" va "gig iqtisodiyoti" (gig economy) rivojlanishiga turtki boʻldi. Bu modellar SI algoritmlari yordamida ishlarni kichik qismlarga boʻlib, xodimlarni loyiha asosida yollash

imkoniyatini beradi. Natijada, mehnat munosabatlari an'anaviy ish joyidan moslashuvchan ishlash sharoitlariga o‘tib, yangi bandlik shakllari paydo bo‘ladi.

Bundan tashqari, SI yangi sohalarda innovatsiyalarni tezlashtirmoqda. Tibbiyotda SI algoritmlari dori-darmonlarni sinash va ishlab chiqish jarayonini tezlashtirsa, moliya sohasida esa yangi xizmatlar (masalan, shaxsiylashtirilgan investitsiya maslahatlari) yaratishga yordam beradi. Bu esa mehnat bozorida mutaxassislarga yangi, yuqori daromadli kasblarni egallashga va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga imkon beradi. Shu bois, sun'iy intellektga sarmoya kiritish nafaqat alohida korxonalarning, balki butun iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta’siri global miqyosda amalga oshirilayotgan murakkab va o‘zaro bog‘liq jarayondir. Bu transformatsiyadan samarali o‘tish uchun ta’lim, hukumat va biznes sektorlari o‘rtasida faol hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarur. Ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, uzluksiz ta’lim platformalarini rivojlantirish va hukumatning faol ijtimoiy siyosat yuritishi muhim ahamiyatga ega. Aynan insoniy ko‘nikmalarni rivojlantirishga e’tibor qaratish va avtomatlashtirishdan aziyat chekadigan xodimlarni qo‘llab-quvvatlash kelajakda innovatsion, adolatli va barqaror jamiyat qurishning asosiy kalitlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Sun'iy intellekt tomonidan mehnat bozorida yuz berayotgan o‘zgarishlar faqatgina texnologik masala emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy muammodir. Bu jarayonga faqatgina avtomatlashtirishning tezligini hisobga olib emas, balki jamiyatning barcha qatlamlarining ehtiyojlarini inobatga olgan holda moslashish zarur.

Adabiyotlar:

1. MGI (McKinsey Global Institute). (2023). A future that works: Automation, employment, and productivity. Retrieved from https://www.mckinsey.com/featured-insights/digital

2. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. W. W. Norton & Company.

3. Frey, C. B., & Osborne, M. A. (2017). The future of employment: How susceptible are jobs to computerisation? Technological Forecasting and Social Change, 114, 254-280.

4. Acemoglu, D., & Restrepo, P. (2019). Automation and the Future of Work. Journal of Economic Perspectives, 33(3), 3-30.

5. World Economic Forum. (2020). The Future of Jobs Report 2020. Retrieved from https://www.weforum.org/reports/the-future-of-jobs-report-2020/

6. Schwab, K. (2023). The Fourth Industrial Revolution. Crown Business.

7. Pew Research Center. (2024). Automation and a changing economy. Retrieved from https://www.pewresearch.org/internet/2017/02/08/automation-in-everyday-life/

DAVLAT BOSHQARUVIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Ro‘ziyeva Zarnigor Otabek qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti,
“Oliy matematika” kafedrasi assistenti
Zohidjonova Gulnura Zuxriddin qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti talabasi

Mazkur maqolada raqamli transformatsiya jarayonlarining nazariy asoslari, davlat siyosatining undagi o‘rni hamda raqamli transformatsiya ekotizimini shakllantirish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot

va elektron boshqaruv sohasida olib borilayotgan islohotlar, mavjud muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya muvaffaqiyati siyosiy iroda, innovatsion infratuzilma va inson kapitalining uyg‘un rivojlanishiga bevosita bog‘liqdir.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar dunyo miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda. Global miqyosda “raqamli iqtisodiyot”, “raqamli transformatsiya” kabi tushunchalar davlat siyosatining ajralmas qismiga aylangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu borada ta’kidlaganidek:

“Raqamli texnologiyalarni joriy etmasdan turib, zamonaviy boshqaruv, samarali iqtisodiyot va qulay ijtimoiy muhitni yaratib bo‘lmaydi. Raqamli O‘zbekiston — bu kelajagimizning poydevori.”

Ushbu fikr raqamli transformatsiyaning strategik ahamiyatini ochib beradi. Darhaqiqat, raqamli o‘zgarishlar nafaqat texnik jarayon, balki davlat boshqaruvi madaniyatining yangilanishini, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini va fuqarolik jamiyatining faolligini ta’minlaydigan kompleks tizimdir. Prezident yana bir nutqida ta’kidlagan: “Raqamli iqtisodiyot — bu yurtimizni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqadigan asosiy omildir. Har bir tarmoq, har bir hudud bu jarayonda faol bo‘lishi kerak.”

Shu sababli, raqamli transformatsiya bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. U orqali iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida samaradorlik oshirilmoqda, davlat boshqaruvida ochiqlik va tezkorlik ta’minlanmoqda.

Mazkur maqolada O‘zbekiston misolida raqamli transformatsiya siyosatining mazmuni, asosiy yo‘nalishlari, amalga oshirilayotgan islohotlar va raqamli ekotizimni shakllantirish mexanizmlari ilmiy tahlil qilinadi.

Raqamli transformatsiya – bu ishlab chiqarish, boshqaruv va xizmat ko‘rsatish tizimlarining raqamli texnologiyalar yordamida tubdan yangilanishi, ularning samaradorligi va shaffofligini oshirish jarayonidir. U nafaqat texnologik, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlarni ham anglatadi.

Raqamli transformatsiya orqali:

- davlat xizmatlari elektron shaklga o‘tadi;
- inson omilini kamaytirish orqali korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligi oshadi;
- ma’lumot almashinuvi tezlashadi;
- tahliliy qarorlar qabul qilishda real vaqt rejimi yaratiladi.

Shu sababli, har bir zamonaviy davlat uchun raqamli transformatsiya — bu tanlov emas, balki zaruratdir[3].

Raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirishda davlat siyosati asosiy boshqaruv mexanizmi sifatida xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasida bu jarayon bir nechta strategik yo‘nalishlarda olib borilmoqda:

1. Normativ-huquqiy asoslarni shakllantirish: “Raqamli iqtisodiyot”, “Elektron hukumat”, “Kiberxavfsizlik” sohalarida huquqiy me’yorlarni mustahkamlovchi qonunlar ishlab chiqildi.

2. Davlat xizmatlarini raqamlashtirish: “Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali” (my.gov.uz) orqali 400 dan ortiq xizmatlar onlayn shaklda taqdim etilmoqda.

3. Raqamli infratuzilmani kengaytirish: optik tolali internet tarmoqlari, data-markazlar, bulutli texnologiyalarni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli loyihalar amalga oshirilmoqda.

4. Inson kapitaliga sarmoya kiritish: “Bir million dasturchi” loyihasi, IT-parklar faoliyati, raqamli ta’lim dasturlari orqali yangi mutaxassislar tayyorlanmoqda.

5. Xususiy sektorni jalb etish: davlat-xususiy sheriklik asosida raqamli platformalar yaratilmoqda, startaplar qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Raqamli ekotizim — bu davlat, biznes, ilmiy muassasalar va fuqarolik jamiyatining o‘zaro hamkorligi natijasida shakllanadigan raqamli muhitdir. U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Texnologik infratuzilma: internet tarmoqlari, ma’lumotlar markazlari, bulutli xizmatlar;

Institutsional muhit: qonunchilik bazasi, strategiyalar, davlat dasturlari;

Inson kapitali: raqamli savodxonlik, IT-ta’lim, malakali kadrlar;

Innovatsion muhit: startaplar, texnoparklar, ilmiy tadqiqot markazlari;

Ijtimoiy ishtirok: fuqarolarning raqamli madaniyati va ishtiroki[2].

Mazkur ekotizim faqat texnologik asosda emas, balki ijtimoiy va madaniy uyg‘unlikda shakllanadi.

O‘zbekiston so‘nggi yillarda raqamli transformatsiyada sezilarli natijalarga erishdi:

- “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi amalga oshirilmoqda[1];
- “IT Park” rezidentlari soni 1000 dan oshdi;
- “Elektron parlament”, “Elektron sud”, “Ochiq byudjet” tizimlari ishga tushirildi;
- Sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili markazlari tashkil etildi.

Biroq muammolar ham mavjud: internet infratuzilmasining ayrim hududlarda sustligi, axborot xavfsizligi tahdidlari va raqamli tafovut masalalari hali to‘liq bartaraf etilmagan.

Raqamli transformatsiya bugungi kunda davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Raqamli iqtisodiyot — bu mamlakatimizni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqadigan eng qisqa yo‘ldir.” Bu yo‘lda davlat siyosatining izchil davom etishi, inson kapitalining raqamli madaniyat bilan uyg‘un rivojlanishi va texnologik infratuzilmaning mustahkamlanishi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF–6079-son Farmoni. — 2020-yil 5-oktabr.

2. Karimov A. “Raqamli iqtisodiyot va uning O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyotidagi o‘rni”. - Iqtisod va innovatsiyalar jurnali, 2022.

3. Muminova N. “Raqamli boshqaruvning ijtimoiy-iqtisodiy samaralari”. - O‘zbekiston Fanlar akademiyasi axborotnomasi, 2023.

O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING DOLZARB HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Xusniddinov Yorqinjon Muxiddin o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Raqamli iqtisodiyot kafedrasi assistenti

Bugungi kunda dunyoda ta’lim sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, talabalar bilimini oshirish va ularga zamonaviy ko‘nikmalar berishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni beqiyosdir. O‘zbekiston ham global rivojlanish jarayonlaridan chetda qolmay, ta’lim tizimini raqamlashtirish bo‘yicha qator tashabbuslarni amalga oshirmoqda.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev o‘z nutqlarida ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, yoshlarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish zarurligini ta’kidlab kelmoqda. Bu borada “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi ham oliy ta’limda keng o‘zgarishlarga zamin yaratmoqda. [3]

XXI asrda ta’lim sohasida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar va global raqobat jarayoni oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishni zaruriyatga aylantirmoqda. Bugungi kunda bilim, axborot va innovatsiya iqtisodiy rivojlanishning asosiy omiliga aylangan sharoitda ta’lim tizimi raqamli yechimlarsiz samarali faoliyat yurita olmaydi. [2]

Raqamli texnologiyalar oliy ta’limning quyidagi asosiy yo‘nalishlarda zarurat sifatida namoyon bo‘ladi:

Ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish. An’anaviy ta’lim shakllarida ko‘proq vaqt va resurs sarflansa, raqamli vositalar yordamida o‘quv jarayonini tezkor, qulay va moslashuvchan tashkil etish mumkin. Masalan, elektron ta’lim platformalari (LMS, Moodle va boshqalar) orqali talabalar dars materiallariga istalgan paytda va istalgan joydan kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi .[4] Masofaviy ta’limni rivojlantirish. Raqamli texnologiyalar ayniqsa pandemiya sharoitida o‘zini oqladi. Onlayn ta’lim dasturlari, videokonferensiyalar va elektron imtihon tizimlari tufayli ta’lim jarayoni uzluksiz davom etdi. Bu esa raqamli ta’limning dolzarbligini yanada oshirdi .[5] Talabalarning individual o‘quv trayektoriyasini shakllantirish. Zamonaviy texnologiyalar har bir talabaga o‘z qobiliyati va qiziqishiga moslashtirilgan ta’lim olish imkonini beradi. Sun’iy intellekt yordamida o‘quv jarayonini tahlil qilish va individual tavsiyalar berish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ta’lim sifatini nazorat qilish. Elektron test tizimlari, avtomatlashtirilgan baholash platformalari va onlayn reyting jurnallari o‘quv jarayonining shaffofligini ta’minlaydi. Bu esa korrupsion omillarni kamaytirish va baholashning adolatli bo‘lishiga yordam beradi. Xalqaro integratsiya. Raqamli texnologiyalar yordamida O‘zbekiston OTMlari xalqaro ta’lim platformalari (Coursera, EdX, Udemy) bilan hamkorlik qilib, talabalarni dunyodagi ilg‘or tajribalar bilan tanishtirishi mumkin. Bu esa raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim shartidir. Shunday qilib, raqamli texnologiyalarni oliy ta’lim jarayoniga keng joriy etish nafaqat o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish, balki O‘zbekistonning jahon ta’lim maydonida o‘z o‘rnini mustahkamlash, yoshlarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlash uchun ham strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish so‘nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Prezident Sh.M. Mirziyoyev rahnamoligida qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ta’lim tizimini to‘liq raqamlashtirish, boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish va zamonaviy o‘quv jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha aniq vazifalarni belgilab berdi. [3] Bugungi kunda ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida quyidagi natijalarga erishilgan: Learning Management System (LMS) dasturlari keng joriy qilinmoqda. Jumladan,

Moodle, Google Classroom, Canvas kabi platformalardan foydalanilmoqda. Bu tizimlar orqali talabalar dars jadvaliga, o‘quv-uslubiy materiallarga, topshiriqlarga va reyting natijalariga onlayn tarzda kira olmoqda. [5] Elektron kutubxonalar va resurs markazlari tashkil etildi. Hozirda ko‘plab universitetlarda elektron axborot-resurs markazlari faoliyat yuritib, talabalarga ilmiy maqolalar, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarni onlayn olish imkonini bermoqda. Masofaviy ta’lim kurslari yo‘lga qo‘yilgan. Pandemiya davridan boshlab barcha universitetlar onlayn dars o‘tkazishga majbur bo‘ldi va bu jarayon keyingi yillarda ham qo‘llab-quvvatlanmoqda. Jumladan, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va Samarqand davlat universitetida masofaviy ta’limning to‘laqonli tizimi ishlab chiqilgan. Onlayn imtihon tizimlari va elektron reyting jurnallari yo‘lga qo‘yilgan. Bu tizimlar nafaqat shaffoflikni ta’minlamoqda, balki talabalarning bilimini tezkor va samarali baholash imkonini bermoqda. Shu orqali korrupsion xavflarni kamaytirish va ta’lim sifatini oshirishga erishilmoqda. [1]

Ta’lim jarayonida multimedia va interaktiv texnologiyalar keng qo‘llanmoqda. Zamonaviy auditoriyalar interaktiv doskalar, videoproektorlar, virtual laboratoriyalar bilan jihozlanmoqda. Bu esa talabalarning darslarga qiziqishini oshirmoqda va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, davlat tomonidan xalqaro hamkorlikka alohida e’tibor qaratilmoqda. Hozirgi vaqtda ko‘plab OTMlar xorijiy universitetlar bilan qo‘shma dasturlarni yo‘lga qo‘yib, onlayn o‘quv kurslarini ham joriy etmoqda. Masalan, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti va boshqa xorijiy filiallarda to‘liq raqamli o‘quv platformalari faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish so‘nggi yillarda bir qator sezilarli natijalar va yutuqlarni taqdim etdi. Bu jarayon ta’limning sifat va samaradorligini oshirish bilan birga, xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini ham kengaytirdi.

Asosiy yutuqlar: Ta’lim jarayonining qulaylashuvi. Elektron darsliklar, onlayn platformalar va masofaviy ta’lim tizimlari talabalarga dars materiallarini tezkor va oson o‘zlashtirish imkonini bermoqda. Bu esa an’anaviy ta’limdagi vaqt va makon cheklovlarini bartaraf etdi. Masofaviy ta’lim imkoniyatlarining kengayishi. Pandemiya davrida masofaviy ta’lim tizimlari o‘z samarasini ko‘rsatdi. Hozirda ham aksariyat universitetlarda onlayn kurslar, vebinarlar va virtual laboratoriyalar muntazam qo‘llanmoqda. O‘qituvchilarning malakasi oshmoqda. Ko‘plab professor-o‘qituvchilar raqamli texnologiyalar bo‘yicha maxsus kurslarda qatnashmoqda. Bu esa ularning metodik salohiyatini oshirib, darslarni interaktiv shaklda olib borishiga yordam bermoqda. Shaffoflik va adolatning ta’minlanishi. Elektron baholash tizimlari va onlayn reyting jurnallari korrupsion omillarni kamaytirib, talabalar bilimini xolis baholash imkonini berdi. Xalqaro integratsiya. Raqamli texnologiyalar tufayli O‘zbekiston talabalari Coursera, EdX, Udemy kabi xalqaro ta’lim platformalari orqali dunyo miqyosida e’tirof etilgan kurslarni o‘qimoqda. Shu bilan birga, ko‘plab xorijiy universitetlar bilan qo‘shma dasturlar yo‘lga qo‘yildi.

Kelgusidagi imkoniyatlar: Sun’iy intellekt (AI) asosida ta’lim tizimini takomillashtirish. Talabalar bilimini avtomatik tahlil qilish va individual tavsiyalar berish imkoniyati paydo bo‘lmoqda. Virtual va qo‘shimcha reallik (VR/AR) texnologiyalaridan foydalanish. Muhandislik, tibbiyot va texnika sohalarida laboratoriya mashg‘ulotlarini virtual muhitda tashkil etish orqali amaliy ko‘nikmalarni chuqurlashtirish mumkin. Elektron diplom va sertifikatlar joriy etilishi. Bu tizim ta’lim

natijalarining xalqaro maydonda tan olinishi va shaffofligini ta’minlaydi. Xalqaro hamkorlikning yanada kengayishi. Global onlayn dasturlar bilan integratsiya qilish orqali talabalar chet el universitetlari ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish sezilarli yutuqlarga olib kelgan bo‘lsa-da, ushbu jarayonda qator muammolar va kamchiliklar ham mavjud. Ularni bartaraf etish ta’lim tizimini yanada takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Asosiy muammolar: Texnik infratuzilmaning yetarli emasligi. Hozirda barcha oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari, serverlar va yuqori tezlikdagi internet bilan ta’minlash to‘liq amalga oshmagan. Ayrim hududiy universitetlarda texnik jihozlarning eskiligi va kamligi dars jarayonini to‘laqonli raqamlashtirishga to‘sqinlik qilmoqda. [3]

Internet tezligi va qamrovining pastligi. Respublikada internet tarmog‘i kengayib borayotgan bo‘lsa-da, barcha hududlarda uning tezligi yetarli emas. Bu masofaviy ta’lim kurslari, videokonferensiyalar va onlayn imtihonlarni samarali tashkil qilishda qiyinchilik tug‘dirmoqda. Professor-o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi turlicha. Ba’zi pedagoglar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yuqori darajada foydalana olsalar, boshqalarida bu boradagi ko‘nikmalar yetarli emas. Natijada, darslarning samaradorligi bir xil darajada ta’minlanmayapti. Talabalar orasida raqamli savodxonlik darajasining turlicha bo‘lishi. Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish faqat o‘qituvchilarga emas, balki talabalar ko‘nikmalariga ham bog‘liq. Ayrim talabalar elektron platformalardan faol foydalansa, boshqalarida bu borada qiyinchiliklar kuzatilmoqda. Elektron resurslarning yetarli emasligi. Hozirda ko‘plab universitetlarda elektron kutubxonalar mavjud bo‘lsa-da, ularning mazmuni va hajmi talab darajasida emas. Zamonaviy o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar va ilmiy manbalarning katta qismi hali to‘liq elektron shaklga o‘tkazilmagan. Huquqiy va tashkiliy muammolar. Raqamli texnologiyalarni joriy etishda normativ-huquqiy hujjatlar va standartlarning to‘liq shakllanmaganligi ham sezilarli kamchiliklardan biridir. Bu ayrim universitetlarda jarayonlarni turlicha tashkil etilishiga olib kelmoqda.

Muammolarni bartaraf etish bo‘yicha yo‘nalishlar: ta’lim muassasalarini zamonaviy texnik vositalar va yuqori tezlikdagi internet bilan ta’minlash,o‘qituvchilar uchun muntazam ravishda raqamli kompetensiyalar bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish. talabalarda raqamli savodxonlikni oshirish uchun maxsus fanlar va qo‘shimcha o‘quv dasturlarini joriy etish, elektron kutubxonalarni xalqaro ta’lim bazalari bilan integratsiya qilish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va yagona standartlarni ishlab chiqish.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni izchil rivojlanib bormoqda va kelajakda bu yo‘nalishda yanada keng imkoniyatlar ochilishi kutilmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida oliy ta’lim muassasalarini to‘liq raqamlashtirish, xalqaro ta’lim standartlariga moslashtirish va zamonaviy ta’lim muhitini yaratish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Asosiy istiqbollar: Sun’iy intellekt (AI) asosida ta’lim tizimini boshqarish. Kelgusida ta’lim jarayonini avtomatlashtirishda sun’iy intellekt texnologiyalari muhim o‘rin tutadi. AI yordamida talabalar bilimini tahlil qilish, individual o‘quv rejalari tuzish va baholash jarayonlarini adolatli tashkil etish imkoniyati kengayadi.Virtual va qo‘shimcha reallik (VR/AR) texnologiyalarini joriy etish. Muhandislik, tibbiyot va texnika yo‘nalishlarida VR/AR laboratoriyalaridan foydalanish talabalar uchun real

tajribaga yaqin sharoit yaratadi. Bu esa amaliy bilimlarni mustahkamlashda katta rol o‘ynaydi. Blokcheyn texnologiyalari asosida hujjatlarni boshqarish. Elektron diplom va sertifikatlarni blokcheyn tizimi orqali berish kelajakda ta’lim natijalarining xalqaro miqyosda tan olinishini ta’minlaydi. Shu orqali soxtalashtirishning oldi olinadi va shaffoflik darajasi oshadi. Elektron kutubxonalarni kengaytirish. Kelajakda elektron axborot-resurs markazlari xalqaro ilmiy bazalar (Scopus, Web of Science, JSTOR) bilan integratsiya qilinib, talabalarga va tadqiqotchilarga global bilim manbalaridan foydalanish imkonini beradi.Xalqaro onlayn ta’lim dasturlariga integratsiya. O‘zbekiston OTMlari Coursera, EdX, Udemy kabi platformalar bilan hamkorlikni kengaytirishi natijasida talabalar global darajadagi mutaxassislar tomonidan o‘qitiladigan kurslarda qatnashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar . [4] Raqamli ta’lim infratuzilmasini takomillashtirish. Yaqin yillarda barcha oliy ta’lim muassasalari yuqori tezlikdagi internet, zamonaviy kompyuter texnikasi va interaktiv jihozlar bilan ta’minlanishi ko‘zda tutilgan. Bu esa raqamli transformatsiya jarayonini jadallashtiradi.

Umumiy istiqboliy natijalar:

Raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida:

- ta’lim sifati oshadi va xalqaro standartlarga moslashadi;
- talabalarda zamonaviy raqamli ko‘nikmalar shakllanadi;
- ta’limning ochiqligi va shaffofligi ta’minlanadi;

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bois, raqamli transformatsiya O‘zbekiston oliy ta’limi uchun nafaqat texnologik yangilik, balki global bilim makonida o‘z o‘rnini mustahkamlashning eng muhim omili hisoblanadi.

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish bugungi kunda ta’lim sifatini oshirish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish va xalqaro ta’lim makoniga integratsiya qilishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Raqamli ta’lim jarayonlari orqali ta’limning samaradorligi, ochiqligi va shaffofligi ta’minlanmoqda. Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, respublikamiz oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etishda sezilarli yutuqlar mavjud bo‘lsa-da, mavjud muammolar va kamchiliklar ham hali to‘liq bartaraf etilgani yo‘q. Jumladan, texnik infratuzilmaning to‘liq yangilanmaganligi, internet tezligining yetarli emasligi, professor-o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi turlicha darajada ekanligi kabi omillar raqamli transformatsiya jarayonlarini sekinlashtirmoqda. Shunga qaramay, mamlakatda qabul qilingan islohotlar, xususan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni chuqur joriy etish istiqbollarini belgilab bermoqda. Kelgusida sun’iy intellekt, blokcheyn, VR/AR kabi ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’lim samaradorligini yanada oshirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va global ta’lim standartlariga moslashish imkoniyatlari mavjud. Demak, raqamli transformatsiya O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, raqamli savodxonlikka ega, global raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda hal qiluvchi omil bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. Karimov B., Jo‘rayev A. (2022). Oliy ta’limda raqamli transformatsiya. Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.

2. Mirziyoyev Sh.M. (2021). Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent.

3. “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi. (2020). Toshkent.

4. Coursera, EdX, Moodle. (2021). Xalqaro elektron ta’lim platformalari bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar.

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. (2022). Ta’limni raqamlashtirish bo‘yicha rasmiy materiallar. Toshkent.

FARG‘ONA VODIYSIDA YASHIL TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISH VA QO‘LLAB-QUVVATLASH IMKONIYATLARI TAHLILI

Abdullajonov Davronjon
Qo‘qon universitetining Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrasi o‘qituvchisi

Farg‘ona vodiysida yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni moliyalashtirish va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining hozirgi holati tahlil qilib, ўрганиб чиқадиган бўлсак, mintaqada yashil kichik biznes rivojlanishi вазиятини янада аниқроқ кўришга имкон яратилади.

Шу нуқтаи назардан, SWOT tahlil va 2020-2024 yillar davomidagi statistik ma'lumotlar asosida mintaqaning yashil kichik biznes rivojlanishi хусусиятлари таҳлил қилиб чиқилди.

Farg‘ona vodiysidagi yashil kichik biznes rivojlanish imkoniyatlari va cheklovlarini baholash maqsadida o‘tkazilgan SWOT tahlil quyidagi natijalarni berdi:

1-jadval

SWOT tahlil

KUCHLI TOMONLAR (Strengths)	**ZAIF TOMONLAR (Weaknesses)**
• Yuqori qishloq xo‘jaligi salohiyati va hosildorlik	• Moliyaviy resurslar tanqisligi
• Mehnat kuchi zaxirasining keng mavjudligi	•Zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanmaganlik
• Mintaqaning geografik joylashuvi va iqlim sharoitlari	• Yashil texnologiyalar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar yetishmasligi
• An'anaviy hunarmandchilik va mahalliy ishlab chiqarish tajribasi	• Moliyaviy bozorning rivojlanmaganlik darajasi
• Davlat tomonidan berilayotgan qo‘llab-quvvatlash	• Infratuzilma muammolari
IMKONIYATLAR (Opportunities)	**TAHDIDLAR (Threats)**
• Yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha davlat dasturlari	• Iqlim o‘zgarishi va ekologik muammolar
• Xalqaro grant va moliyalashtirish dasturlari	• Raqobatning kuchayishi
• Qayta tiklanadigan energiya manbalari potentsiali	• Suvning tanqisligi va sho‘rlanish
• Eco-turizm va organik mahsulotlar bo‘yicha bozor talabi	• Xom ashyo narxlarining barqarorsizbigi
• Raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalar	• tajribali va malakali kadrlarning tashqariga migratsiyasi

Imkoniyatlar tahlili davlat dasturlari va xalqaro moliyalashtirish manbalarining mavjudligi tufayli yashil biznes rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratilganligini

tasdiqlaydi. Biroq, iqlim o‘zgarishi va ekologik muammolar kabi tahdidlar mintaqada samarali yashil iqtisodiyot strategiyasini ishlab chiqishni talab qiladi.

Farg‘ona vodiysida kichik biznes sektorining rivojlanish dinamikasini baholash maqsadida 2020-2024 yillar davomidagi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlil qilindi:

2-jadval

2020-2024 yillar davomidagi kichik biznes sub'ektlari asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarи

Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	O‘zgarish (%)
Kichik biznes sub'ektlari soni (ming ta)	156.2	167.8	178.5	185.9	192.1	+23.0%
YIMdagi ulushi (%)	47.2	49.8	51.5	52.8	54.1	+6.9%
Yashil loyihalarga ajratilgan kredit (mlrd so‘m)	245.6	298.4	356.8	425.2	498.7	+103.1%
Bandlik darajasi (ming kishi)	1,284	1,342	1,398	1,456	1,521	+18.5%
Davlat qo‘llab-quvvatlash hajmi (mlrd so‘m)	89.3	125.7	168.9	214.6	267.8	+199.9%

2020-2024 yillar davomidagi statistik ma'lumotlar tahlili Farg‘ona vodiysida kichik biznes sektorining barqaror rivojlanish tendensiyasini ko‘rsatmoqda. Kichik biznes sub'ektlari sonining 23% ga o‘sishi va ularning YIMdagi ulushining 47.2% dan 54.1% gacha o‘sishi mintaqaning iqtisodiy diversifikatsiya jarayonida erishgan muvaffaqiyatlarini tasdiqlaydi. Yashil loyihalarga ajratilgan kredit hajmining ikki baravar o‘sishi (103.1% ga) yashil iqtisodiyot printsiplarini amalga oshirishda moliyaviy institutlarning faol ishtirokini ko‘rsatadi. Davlat qo‘llab-quvvatlash hajmining uch barobar o‘sishi (199.9% ga) davlat siyosatining yashil biznes rivojlanishiga qaratilgan ustuvorligini tasdiqlaydi. Sohalar bo‘yicha taqsimot tahlili shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligi va organik mahsulot ishlab chiqarish (31.3%) hamda qayta tiklanadigan energiya (25.0%) sohalari yashil moliyalashtirish dasturlarida etakchi o‘rinni egallaydi. Bu mintaqaning tabiiy salohiyati va ixtisoslashuv yo‘nalishlarini aks ettiradi.

O‘tkazilgan tahlil natijalari Farg‘ona vodiysida yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni moliyalashtirish va qo‘llab-quvvatlash tizimining samarali rivojlanishini tasdiqlaydi. SWOT tahlil mintaqaning kuchli tomonlari va imkoniyatlarini ishlatish orqali mavjud cheklovlarni bartaraf etish zarurligini ko‘rsatadi. Statistik ma'lumotlar esa oxirgi besh yil davomida erishilgan ijobiy natijalarni aks ettiradi va kelajakdagi rivojlanish istiqbollarining ijobiyligini tasdiqlaydi.

O‘tkazilgan tadqiqot Farg‘ona vodiysida yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni moliyalashtirish va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining hozirgi holatini kompleks tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi. SWOT tahlil natijalari Farg‘ona vodiysining yashil kichik biznes rivojlanishi uchun katta salohiyatga egaligini ko‘rsatdi. Mintaqaning yuqori qishloq xo‘jaligi potentsiali, mehnat resurslari zaxirasi va qulay geografik joylashuvi yashil iqtisodiyot

printsiplarini joriy etish uchun mustahkam poydevor yaratadi. 2020-2024 yillar statistik tahlili mintaqada kichik biznes sektorining barqaror o‘sish tendensiyasini tasdiqladi. Kichik biznes sub'ektlari sonining 23% ga o‘sishi, ularning YIMdagi ulushining 54.1% ga yetishi va yashil loyihalarga ajratilgan kreditlarning ikki baravarga ko‘payishi (103.1%) ijobiy natijalarni ko‘rsatadi.

Davlat qo‘llab-quvvatlash hajmining uch baravarga o‘sishi (199.9%) yashil biznes rivojlanishiga davlat siyosatining ustuvorligini tasdiqlaydi. Moliyaviy institutlarning yashil kreditlash dasturlariga faol jalb bo‘lishi ijobiy tendentsiya hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi va organik mahsulot ishlab chiqarish (31.3%) hamda qayta tiklanadigan energiya (25.0%) sohalari yashil moliyalashtirish dasturlarida etakchi o‘rinni egallashi mintaqaning tabiiy ixtisoslashuvini aks ettiradi. Moliyaviy resurslar tanqisligi, zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanmaganlik va yashil texnologiyalar bo‘yicha bilim-ko‘nikmalar yetishmasligi asosiy cheklovchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, Farg‘ona vodiysida yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni moliyalashtirish va qo‘llab-quvvatlashni yanada samarali tashkil etish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Yashil kredit liniyalarini kengaytirish - tijorat banklari uchun yashil kredit berish bo‘yicha maxsus litsenziyalash tizimini joriy etish va yashil loyihalar uchun preferentsial foiz stavkalarini (bozor stavkasidan 30-40% past) belgilash.
2. Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish - xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda maxsus yashil fond yaratish va mikromoliя institutlari orqali yashil biznes uchun kichik kreditlar dasturini ishga tushirish.
3. "Farg‘ona - Yashil Vodiy 2030" maxsus dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash - yashil biznes inkubatorlari va akseleratorlar tarmog‘ini yaratish hamda mintaqaviy yashil texnologiyalar markazini tashkil etish.
4. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish - yashil biznes faoliyati uchun maxsus qonunchilik bazasini yaratish, ekologik sertifikatlash va standartlashtirish tizimini joriy etish.
5. Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish - oliy ta'lim muassasalarida "Yashil biznes va barqaror rivojlanish" ixtisosligini joriy etish va kichik biznes egalariga yashil texnologiyalar bo‘yicha treninglar o‘tkazish.
6. Ekspert hamjamiyatini shakllantirish - yashil biznes maslahatchi xizmatlari tizimini yaratish va xalqaro ekspertlar bilan bilim almashish dasturlarini tashkil etish.
7. Raqamlashtirish dasturlarini joriy etish - IoT va sun'iy intellekt texnologiyalarini qishloq xo‘jaligi sektorida qo‘llash hamda blockchain asosida yashil mahsulotlar sertifikatlash tizimini yaratish.

Ushbu takliflarning qisqa muddatli (1-2 yil), o‘rta muddatli (3-5 yil) va uzoq muddatli (5-10 yil) bosqichlarda amalga oshirilishi Farg‘ona vodiysida yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznesning samarali rivojlanishini ta'minlaydi va mintaqaning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlaydi.

Adabiyotlari

1. Barbier, E. B. (2011). The policy challenges for green economy and sustainable economic development. Natural Resources Forum, 35(3), 233-245.

2. Chen, L., & Wang, K. (2020). Green finance and small business development: Evidence from China's green guarantee schemes. Journal of Cleaner Production, 267, 122-135.

3. OECD. (2019). Green finance and investment: Mobilising finance for the transition to a low-carbon economy. OECD Publishing.

4. Pearce, D., Markandya, A., & Barbier, E. (1989). Blueprint for a Green Economy. Earthscan Publications.

5. Porter, M. E., & van der Linde, C. (1995). Toward a new conception of the environment-competitiveness relationship. Journal of Economic Perspectives, 9(4), 97-118.

6. Abdullayeva, N. M., & Karimov, S. A. (2021). Farg‘ona vodiysida kichik biznes rivojlanishining iqtisodiy-ijtimoiy omillari. Iqtisodiyot va moliya, 7(3), 45-58.

7. Bobojanov, A. R., & Karimova, D. S. (2024). O‘zbekistondagi kichik biznes moliyalashtirish muammolari va yechimlar: yashil iqtisodiyot kontekstida. Biznes va boshqaruv, 2(1), 23-35.

8. Ismatov, B. K., & Yusupov, F. T. (2022). Mintaqaviy moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligini baholash metodologiyasi. Moliya va kredit, 8(4), 67-78.

9. Karimov, O. J., & Abdullayeva, M. H. (2021). Farg‘ona vodiysida yashil texnologiyalarga o‘tishning iqtisodiy samaradorligi. Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, 5(2), 112-125.

10.Mirziyoyev, Sh. M. (2019). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston-2030" strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston.

11.Mirziyoyev, U. K., & Qobilov, T. A. (2019). O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot rivojlanishining nazariy asoslari. Fan va ta'lim, 6(1), 89-102.

12.Toshmatov, R. B., & Xamidova, S. N. (2023). Yashil kreditlash tizimini O‘zbekiston sharoitida joriy etishning amaliy yondashuvlari. Bank faoliyati, 4(2), 34-47.

ZIYORAT TURIZMI RESURSLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING ROLI: YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARINI JORIY ETISH VA MADANIY MEROSNI SAQLASH IMKONIYATLARI

Soxibova Muslimaxon Xolmatjon qizi
Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Madaniy merosni asrash insoniyatning tarixiy va ma’naviy boyligini saqlab qolish bilan birga, iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Tarixiy obidalar va ziyorat maskanlari turizm, xususan ziyorat turizmini rivojlantirish orqali hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshiradi, bandlikni kuchaytiradi va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Ziyorat turizmi resurslarini samarali boshqarish madaniy merosni muhofaza qilish, hududiy tenglikni ta’minlash va milliy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda alohida o‘rin tutadi. UN Tourism ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda global turistik tashriflar 1,286 milliarddan ortib, 33,9 foizga o‘sdi [1]. Bu esa ziyorat turizmi resurslaridan oqilona foydalanish barqaror iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili ekanini tasdiqlaydi. O‘zbekistonda turizmning istiqbolli: ziyorat, tarixiy-madaniy, rekreatsion, ta’lim, gastronomik yo‘nalishlarini tashkil etish va rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. 2023-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi 58-bandida mamlakatimizda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish masalasi va mazkur masala doirasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar belgilab qo‘yilgan [2]. Ulardan biri esa ziyorat turizmi bo‘yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirishdan iborat.

Bugungi global muhitda urbanizatsiya, ekologik muammolar va iqlim o‘zgarishi madaniy merosga jiddiy tahdid solmoqda. Shu sababli, uni saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish nafaqat alohida davlatlarning, balki butun insoniyatning umumiy vazifasiga aylangan. UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar madaniy merosni himoya qilishda katta rol o‘ynaydi va dunyo miqyosida madaniy merosni muhofaza qilish doirasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

O‘zbekistonda ham ziyorat turizmini rivojlantirish va madaniy merosni saqlash bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022-yildan boshlab har yili noyabr oyining birinchi haftasida “Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi” o‘tkazilishi belgilangan bo‘lib, mazkur tadbir ziyorat turizmi salohiyatidan yanada unumli foydalanish va O‘zbekiston zaminini dunyo sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri sifatida namoyon qilishga qaratilgan [3].

Madaniy merosni asrash – bu faqat o‘tgan davrlarni saqlash, balki kelajakni boyitish, insoniyatning ma’naviy yuksalishini ta’minlash va jahon madaniyatining uzviy rivojlanishiga hissa qo‘shish demakdir. Global miqyosda madaniy merosni asrash bo‘yicha bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xalqaro tajribaga nazar soladigan bo‘lsak, madaniy merosni saqlash hamda turistik resurslarni samarali boshqarish uchun keng qo‘llaniladigan bir qancha innovatsion texnologiyalarga guvoh bo‘lishimiz mumkin (1-jadval).

Mazkur texnologiyalar sayyohlarga keng imkoniyat va qulayliklarni yaratibgina qolmay, madaniy merosni kelajak avlod uchun asrashni ham ta’minlaydi.

Madaniy merosni asrab-avaylash bugungi kunda nafaqat davlatlar yoki xalqaro tashkilotlar, balki mahalliy hamjamiyatlarning faol ishtirokini ham talab qiladigan global vazifa sifatida qaralmoqda. UNESCO, ICOMOS, WMF kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan ta’lim dasturlari, hunarmandchilikni rivojlantirish loyihalari va mahalliy aholini jalb etishga qaratilgan tashabbuslar buning yaqqol isbotidir. Shu jarayonda zamonaviy texnologiyalar, qonunchilik, ta’lim va turizm mexanizmlarining uyg‘unlashuvi madaniy merosni muhofaza qilishda muhim rol o‘ynaydi.

1-jadval

Madaniy merosni saqlash hamda turistik resurslarni samarali boshqarish qo‘llaniladigan innovatsion texnologiyalar (muallif ishlanmasi)

№	Innovatsion texnologiya	Qo‘llanilishi
1.	*Xavfsizlik va omonat tizimi*	Sayyohlarga qulay va ishonchli omonat tizimlarini taqdim etuvchi texnologiyalar, ular moliyaviy ma’lumotlarni himoya qilish, to‘lov jarayonlarini soddalashtirish va global to‘lov tizimiga integratsiyani ta’minlay oladi
2.	*Turistik harakatlar monitoringi va tahlili*	Bunda sayyohlar va turistik agentliklar tomonidan to‘plangan ma’lumotlar uzluksiz monitoring va analiz qilinadi, natijada mavjud tendensita aniqlash va qarorlar qabul qilishda to‘g‘ri yo‘nalish imkoniyati yuzaga keladi
3.	*Mahalliy axborot tizimi va interaktiv qidiruv*	Xorijiy turistlarga mahalliy qidiruv tizimini taqdim etish, restoranlar, turistik manzillar, joylashtirish vositalari va boshqa turistik resurslarning ro‘yxatlarini taqdim etish, Shahar va mamlakat haqida interaktiv ma’lumotlar berish uchun mobil ilovalar va veb-saytlar ishlab chiqiladi
4.	*Virtual voqelik*	Vitual va qo‘shimcha voqelik texnologiyalari sayyohlarda takrorlanmas turistik tassurotni shakllantirishga yordam beradi
5.	*Ijtimoiy tarmoqlar*	Ijtimoiy tarmoqlar va media olami turizmga oid kontentlar, sayyohlar uchun qiziqarli manzillar haqida batafsil ma’lumot yetkazib berishda xizmat qiladi, bundan tashqaro turistlar o‘zaro fikr almashishi uchun platforma vazifasini bajaradi

Ziyorat turizmi resurslarini samarali boshqarish madaniy merosni saqlash bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, barqaror iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Bu

turizm yo‘nalishi tarixiy va diniy obidalarni muhofaza qilish, ularning qadriyat sifatidagi ahamiyatini oshirish hamda kelajak avlodlarga yetkazishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ziyoratchilarning muntazam tashrifi obidalarni ta’mirlash va qayta tiklashga zarurat tug‘diradi, turistik oqimning o‘sishi esa madaniy merosni saqlashga yo‘naltiriladigan moliyaviy manbalarni ko‘paytiradi.

Bundan tashqari, ziyorat turizmi mahalliy aholining madaniy merosni qadrlash va uni avaylab-asrashga bo‘lgan mas’uliyatini kuchaytiradi. Ushbu jarayon jamiyatning ma’naviy ongini yuksaltirish, hunarmandchilik va milliy an’analarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, turizm sohasi orqali xalqaro hamkorlik kengayadi, tajriba almashish imkoniyatlari ortadi.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan, ziyorat turizmi mahalliy iqtisodiyotni jonlantirib, yangi ish o‘rinlari yaratadi va xizmat ko‘rsatish sohasining kengayishiga turtki beradi. Sayyohlar tomonidan amalga oshiriladigan xarajatlar esa bevosita madaniy meros obyektlarini saqlash va targ‘ib qilishga yo‘naltiriladi. Demak, ziyorat turizmi resurslarini oqilona boshqarish madaniy merosni muhofaza qilishni kuchaytirish bilan birga, barqaror iqtisodiy taraqqiyotga ham xizmat qiladi. Infratuzilmani rivojlantirish va madaniy merosni muhofaza qilish strategiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi [4]:

1) transport va turar joy obyektlariga investitsiyalar yo‘naltirish;

2) tarixiy yodgorliklarga olib boruvchi yo‘llarni rekonstruksiya qilish, ularning atrofidagi tabiiy va madaniy muhitni saqlash;

3) turar joy infratuzilmasini rivojlantirish orqali sayyohlarga tarixiy arxitektura bilan uyg‘unlikda qurilgan mehmonxonalar taklif etish;

4) transport tizimida ekologik toza transport vositalaridan foydalanish.

Madaniy merosni asrashda mahalliy aholining xabardorligi va faol ishtiroki alohida ahamiyatga ega. Bu jarayon madaniy qadriyatlarni hurmat qilish, ularni to‘g‘ri targ‘ib qilish, sayyohlar bilan samarali muloqot olib borish va an’anaviy kasblarni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Kulolchilik, kashtachilik, yog‘och o‘ymakorligi kabi milliy hunarmandchilik turlarining qo‘llab-quvvatlanishi nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki madaniy merosni saqlashning samarali vositasi hamdir. Shu bilan birga, mahalliy aholi uchun treninglar tashkil etish, qo‘llanmalar tayyorlash va turizm xizmatlarida milliy qadriyatlarni aks ettirish orqali madaniy merosni keng jamoatchilik ongiga singdirish mumkin.

Davlat-xususiy hamkorlik ziyorat turizmi resurslarini boshqarishda muhim omil bo‘lib, tarixiy obidalarni restavratsiya qilish, interaktiv muzeylar va virtual turlar yaratish kabi innovatsion loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi. Turizm daromadlarining bir qismini maxsus fondlarga yo‘naltirish orqali madaniy merosni moliyalashtirishning barqaror tizimini shakllantirish mumkin. Bunday mexanizmlar madaniy merosni saqlash bilan bir qatorda uning rivojlanishini ham ta’minlaydi.

Ziyorat turizmini boshqarishda jamiyat ishtiroki va integratsiyalashgan yondashuv muhim o‘rin tutadi. Mahalliy hamjamiyatlarning faol ishtiroki, tarixiy yodgorliklar atrofida qurilish va sanoat obyektlarini cheklash, arxitektura-madaniy ekspertizani talab qilish kabi chora-tadbirlar turizm rivojlanishi va tarixiy muhitni muvozanatda saqlashni ta’minlaydi.

Bundan tashqari, ziyoratchilar oqimini nazorat qilish, ekologik hududlar tashkil etish va xalqaro tashkilotlar (UNESCO, ICOMOS) bilan hamkorlik qilish madaniy merosning uzoq muddatli saqlanishiga xizmat qiladi. Ziyorat turizmi yo‘laklarini shakllantirish (masalan, Buxoro–Samarqand–Toshkent) obidalar o‘rtasida tarixiy

bog‘liqlikni mustahkamlaydi va turistlarning bilimini oshiradi. Shu bilan birga, reklama va marketing strategiyalari ham madaniy merosni global miqyosda tanitish, virtual sayohatlar va tarixiy rekonstruksiyalar orqali keng jamoatchilikni jalb etish imkonini beradi.

Ekologik boshqaruv ham muhim jihat bo‘lib, madaniy meros obyektlari atrofida tabiiy landshaftni asrab-avaylash, ifloslanishning oldini olish va ekologik turizmni rivojlantirish orqali tarixiy muhitni saqlashga xizmat qiladi. Ziyorat turizmi resurslarini to‘g‘ri boshqarish madaniy merosni saqlashning eng samarali strategiyalaridan biridir [5]. Bu nafaqat tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish, balki mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta’minlash orqali barqaror iqtisodiy taraqqiyotning muhim omiliga aylanadi.

O‘zbekistonning madaniy merosini saqlash va targ‘ib qilishda ziyorat turizmi muhim strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu turizm sohasi nafaqat mamlakatning tarixiy va diniy obidalari bilan tanishish imkonini beradi, balki iqtisodiy rivojlanish, mahalliy aholi bandligi va turizm infratuzilmasining yaxshilanishiga ham xizmat qiladi. Samarali boshqaruv tizimi orqali ziyorat turizmi resurslarini to‘g‘ri yo‘naltirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xalqaro tajribadan foydalangan holda rivojlantirish madaniy merosni asrab-avaylash va sayyohlar oqimini oshirishga yordam beradi. Shu sababli, ziyorat turizmi imkoniyatlarini kengaytirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va bu boradagi muammolarni tizimli ravishda hal qilish O‘zbekistonning jahon turizm xaritasidagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda ziyorat turizmi resurslarini samarali boshqarish va madaniy merosni saqlash bo‘yicha muallif tomonidan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1) raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali madaniy merosni asrash;
2) ziyorat turizmi orqali mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish;
3) barqaror turizm va ekologik himoya;
4) xalqaro hamkorlik va turistik diplomatiya;
5) ta’lim va ilmiy tadqiqotlar;
6) ziyorat turizmini hududiy diversifikatsiya qilish.

Ziyorat turizmi resurslarini samarali boshqarish O‘zbekistonning madaniy merosini asrash va barqaror turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida keltirilgan strategiyalarni amalga oshirish orqali turizm sohasi iqtisodiy, ekologik va madaniy jihatdan yanada rivojlanishi mumkin. Davlat organlari, xususiy sektor va jamoatchilikning faol hamkorligi madaniy merosni saqlash va uni kelajak avlodlarga yetkazishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. The UN Tourism Data Dashboard

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023-yildagi PF-158-son, https://lex.uz/ru/docs/-6600413

3. “Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi”ni tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.05.2022-yildagi 282-son

4. Kamran, Muhammad. “Role of cultural heritage in promoting the resilience of linear/critical infrastructure system with the enhancement of economic dimension of resilience: A critical review.” International Journal of Construction Management 22.7 (2022): 1345-1354

5. Di Giovine, Michael A., and Josep-Maria Garcia-Fuentes. "Sites of pilgrimage, sites of heritage: An exploratory introduction." International Journal of Tourism Anthropology 5.1/2 (2016): 1-23.

SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SIYOSATINING O‘RNI VA TA’SIRI

Kodirov Aqliddin Xakim o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi
Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Jahonda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi davlat boshqaruvi, moliyaviy tizim va soliq ma’muriyatchiligida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bugungi kunda har bir mamlakat raqamli iqtisodiyotga o‘tish orqali davlat xizmatlarini soddalashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish va inson omilini kamaytirish yo‘lidan bormoqda.

O‘zbekistonda ham bu borada hukumatimiz tomonidan izchil siyosat olib borilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbari tomonidan 2020-yilda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakatni raqamli iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o‘tkazish, davlat organlari faoliyatini raqamli muhitga moslashtirish hamda aholiga va tadbirkorlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan. Mazkur strategiyada davlat moliyasi, xususan, soliq tizimini raqamlashtirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Chunki raqamli transformatsiya — bu nafaqat texnologik yangilanish, balki boshqaruv madaniyatini, tahlil metodologiyasini va nazorat mexanizmlarini tubdan o‘zgartiruvchi jarayondir. [1]

Davlat moliyasining asosiy manbai bo‘lgan soliqlarni to‘plash, nazorat qilish va tahlil qilish jarayonlarining samaradorligi mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va budjet barqarorligini ta’minlaydi. Shu sababli, soliq nazoratini tashkil etishda raqamli transformatsiya siyosatining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Raqamli nazorat tizimi soliq to‘lovchilar faoliyatini ochiq-oydin, prognoz qilinadigan va tahliliy jihatdan boshqariladigan holatga olib chiqadi.

Hozirgi paytda soliq organlari tomonidan o‘tkaziladigan tekshiruvlar, audit va monitoring jarayonlarida ma’lumotlarni avtomatik qayta ishlash, elektron hujjatlar aylanishi, onlayn kuzatuv tizimlari hamda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish tobora kengaymoqda. Bu esa soliq nazoratining sifat ko‘rsatkichlarini tubdan o‘zgartirib, uni an’anaviy (qog‘ozbozlikka asoslangan) nazoratdan raqamli boshqaruv tizimiga aylantirmoqda.

Raqamli transformatsiyaning soliq nazoratidagi ahamiyati quyidagi asosiy jihatlarda namoyon bo‘ladi:

- birinchidan, soliq organlari tomonidan tekshiruvlarni rejalashtirishda risklarni avtomatlashtirish imkonini beradi;

- ikkinchidan, tekshiruv natijalari bo‘yicha ma’lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyatini yaratadi;

- uchinchidan, soliq to‘lovchilar bilan elektron muloqotni kuchaytirib, inson omilini keskin kamaytiradi;

- to‘rtinchidan, budjet tushumlarini prognozlashda raqamli tahlil vositalaridan foydalanish imkonini beradi.

Raqamli transformatsiya siyosati natijasida soliq nazorati tizimi endi nafaqat aniqlash va jazolashga, balki oldini olish va profilaktika qilishga yo‘naltirilgan tizimga aylanmoqda. Chunki real vaqt rejimidagi ma’lumotlar tahlili soliq to‘lovchilar

faoliyatidagi og‘ishlarni erta aniqlash, ularni ogohlantirish hamda ixtiyoriy to‘lovni rag‘batlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, soliq nazoratining raqamlashtirilishi soliq organlari va to‘lovchilar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi, korrupsiya xavfini kamaytiradi va davlat xizmatlari sifatini oshiradi.

Soliq to‘lovchilarda soliq nazorati tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish samaradorligi yuzasidan qator iqtisodchi olimlar tomonidan o‘zlarining ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Jumladan, xorijiy iqtisodchi olim O. Petzold “Soliq ma’muriyatchiligining raqamli transformatsiyasi — bu faqat texnologiyalarni joriy etish emas, balki soliq ma’muriyati xizmatlarini “seamless” (uzluksiz) va proaktiv qilishdir. Ular riskga asoslangan avtomatlashtirilgan tekshiruvlar, raqamli identifikatsiya va ma’lumotlar ulanishi orqali soliq nazoratini ancha samarali qiladi” – deb ta’kidlaydi. [2]

R. Junquera-Varela o‘zining tadqiqot ishida “Raqamli transformatsiya qarorlar qabul qilishni va resurs taqsimotini optimallashtirishga xizmat qilishi, shu jumladan tekshiruvlarni rejalashtirish va auditorlarni effektiv ishlatish imkonini beradi. U mamlakatlarga “digital-by-default” modeliga o‘tishni va DIAMOND kabi diagnostika/yo‘l xaritasi vositalarini qo‘llashni” tavsiya qiladi. [3]

Fiona Stewartning fikricha, “Soliq nazoratining raqamli transformatsiyasi uchta asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

- real vaqt rejimidagi ma’lumot almashuvi (real-time data exchange) orqali yashirin aylanmalarni aniqlash;
- sun’iy intellekt (AI) yordamida soliq to‘lovchilarni risk toifalariga ajratish;
- ma’lumot tahlili (big data analytics) asosida tekshiruvlarni maqsadli rejalashtirish.

Ushbu raqamli yondashuvlar soliq organlarining nazorat imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi, biroq bu tizimlar muvaffaqiyatli ishlashi uchun “data integrity” ya’ni ma’lumotlarning ishonchliligi va yangiligi ta’minlanishi zarur.

Shuningdek, Stewart soliq ma’muriyatlarida “digital compliance ecosystem”ni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanishi kerak”[4]

Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, raqamli soliq boshqaruvi soliq intizomini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, OECD (2021) ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli transformatsiyani chuqur joriy etgan mamlakatlarda soliq to‘lovchilarning ixtiyoriy to‘lov ko‘rsatkichi 90 foizdan yuqoriga yetgan. McKinsey Global Institute (2020) tahliliga ko‘ra esa, raqamli texnologiyalarni soliq boshqaruviga tatbiq etish orqali davlat budjeti daromadlarini 20–30 foizgacha oshirish mumkin. [5]

O‘zbekiston misolida, so‘nggi yillarda soliq tizimi faoliyatida ONKM, virtual kassa, elektron hisobvaraq-faktura va elektron yuk xati kabi tizimlarining joriy etilishi natijasida ilgari hisobga olinmagan savdo aylanmasi legallashdi. Bu, ayniqsa, chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarida soliq tushumlarining barqaror o‘sishini ta’minladi.

Shuningdek, “Tahlika-tahlil” tizimining rivojlanishi soliq tekshiruvlarini aniqlik darajasini sezilarli oshirdi. Endilikda soliq tekshiruvlarida aniqlangan qoidabuzarliklar ulushi yuqori foizni tashkil etmoqda, bu esa ortiqcha tekshiruvlarni qisqartirish va biznes subyektlariga bosimni kamaytirish imkonini beradi. [6]

Shunga qaramay, amaldagi tizimda ayrim kamchiliklar ham saqlanib qolmoqda. Masalan, xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tovar-moddiy boyliklarni vaqtincha saqlashga berishda tuzilgan shartnomalarni “E-ijara” tizimida soliq organida ro‘yxatga qo‘yish majburiy emasligi soliq tekshiruvlari o‘tkazilayotgan paytda soliqlarni

hisoblashda muammolar keltirib chiqarmoqda. [7] Shuningdek, soliq tekshiruvi davrida ayrim tashqi manbalar raqamlashtirilmaganligi sababli, ushbu ma'lumotlarni olish vaqt talab qilmoqda bu esa tekshirish muddatiga va sifatiga salbiy ta'sir etmoqda. Ayrim jarayonlarda inson omili hanuzgacha mavjud bo'lib, bu nazorat natijalarining obyektivligiga ta'sir qilmoqda. Shu sababli, raqamli transformatsiya siyosatini yanada chuqurlashtirish, barcha soliq nazorati bosqichlarini yagona raqamli ekotizimga birlashtirish zarur.

Umuman olganda, soliq nazoratini tashkil etishda raqamli transformatsiya siyosati davlat fiskal siyosatining samaradorligini tubdan oshirish, soliq to'lovchilarning ishonchini kuchaytirish va raqamli iqtisodiyot tamoyillariga mos zamonaviy boshqaruv tizimini shakllantirish uchun muhim shartdir. Shu sababli, ushbu mavzu dolzarb bo'lib, milliy soliq tizimini raqamli rivojlanish tendensiyalariga moslashtirish jarayonida nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son ""Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

2. OECD (2020). Tax Administration 3.0: The Digital Transformation of Tax Administration. OECD Publishing, Paris. DOI: https://doi.org/10.1787/daf98719-en

3. Junquera-Varela, R. F., Verhoeven, M., Shukla, G. P., Haven, B., & Moreno-Dodson, B. (2017). Digital Transformation of Tax and Customs Administrations. Washington, DC: World Bank Group.

4. Stewart, F. (2022). Digitalization and the Future of Tax Compliance and Enforcement. International Monetary Fund (IMF Working Paper Series).

5. OECD. (2021). Tax Administration 2021: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies. Paris: OECD Publishing. DOI: https://doi.org/10.1787/4e3c3d54-en.

6. https://www.gov.uz/oz/soliq - Soliq qo'mitasi rasmiy veb-sayti.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-sentabrdagi 595-son "Soliq to'lovchilarni hisobga olishni yanada takomillashtirish va qo'shilgan qiymat solig'ining o'rnini qoplash tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori.

HUDUDLARDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH: FARG'ONA VILOYATI MISOLIDA

Yormonqulova Nargiza Ikromjon qizi
Qo'qon Universiteti o'qituvchisi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
1-kurs tayanch doktoranti

So'nggi yillarda raqamli transformatsiya davlat siyosati va hududiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishiga aylanib bormoqda. Raqamli texnologiyalarni joriy qilish natijasida yaratilayotgan mahsulot va xizmatlarning sifat darajasi yanada oshib bormoqda, iqtisodiy faoliyat samaradorligi ta'minlanmoqda. O'zbekiston Respublikasida "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida elektron hukumat, elektron savdo, raqamli to'lov tizimlari, telemeditsina, masofaviy ta'lim kabi yo'nalishlarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Farg'ona viloyati O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati yuqori bo'lgan hududlaridan biri hisoblanadi. 2025-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning yalpi hududiy mahsuloti (YHM) 2024-yilning mos davriga nisbatan 106,2 foizni tashkil etdi. Shundan sanoat

sektori 108,0 foiz, xizmatlar sohasi esa 112,5 foizga o‘sdi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi esa 104,7 foizga ko‘paydi. Bu ko‘rsatkichlar hududiy iqtisodiy rivojlanishda raqamli yechimlar va yangi texnologiyalarning tobora katta rol o‘ynayotganini ko‘rsatadi.

Viloyatda 2024 yil oxiriga kelib internet foydalanuvchilari soni 2,1 milliondan oshdi. Elektron davlat xizmatlarining ulushi esa yil sayin ortib bormoqda. Jumladan, my.gov.uz orqali taqdim etilayotgan xizmatlar soni 600 dan oshdi va ulardan foydalanish ko‘rsatkichi respublika bo‘yicha yetakchi hududlar qatoriga kirdi. Elektron to‘lov tizimlaridan foydalanuvchilar soni esa 1,5 milliondan ortdi.

Farg‘ona viloyatida raqamli transformatsiya quyidagi sohalarda mahsulot va xizmatlarni takomillashtirish imkonini bermoqda:

a) Sanoat: ishlab chiqarishda avtomatlashtirilgan tizimlar, aqlli nazorat uskunalari, energiya tejamkor texnologiyalar joriy qilinmoqda. To‘qimachilik va kimyo sanoati korxonalari mahsulotni xalqaro standartlarga moslashtirish uchun raqamli sertifikatlash va sifat monitoringidan foydalanmoqda.

b) Qishloq xo‘jaligi: “aqlli dehqonchilik” texnologiyalari – masalan, dronlar yordamida hosil monitoringi, suv resurslarini samarali taqsimlash uchun sensorli sug‘orish tizimlari, fermerlar uchun onlayn bozor platformalari kengaymoqda.

c) Xizmatlar sohasi: elektron tijorat, raqamli to‘lov tizimlari va mobil banking xizmatlari tez sur’atlarda rivojlanmoqda. Turizmda esa onlayn bronlash va raqamli gid xizmatlari joriy qilinmoqda.

d) Ijtimoiy soha: telemeditsina xizmatlari, elektron tibbiy kartalar va masofaviy ta’lim platformalari aholining hayot sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Farg‘ona viloyatida raqamli transformatsiya natijalarini quyidagi statistik ko‘rsatkichlar asosida ko‘rish mumkin:

- 2025 yilning 1-yarmida YHM o‘sishi – 106,2 %.
- Sanoat ishlab chiqarish – 108,0 %.
- Xizmatlar sohasi – 112,5 %.
- Qishloq xo‘jaligi – 104,7 %.
- Internet foydalanuvchilari soni – 2,1 mln kishi.
- Elektron davlat xizmatlari – 600 dan ortiq turda, aholining 65 % dan ko‘prog‘i foydalanmoqda.
- Elektron to‘lovlar hajmi 2024-yilda 20 trln so‘mdan oshdi.

Ushbu ko‘rsatkichlar Farg‘ona viloyatida raqamli iqtisodiyotning tobora kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, qishloq hududlarda internet tezligi pastligi, raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi, IT mutaxassislari yetishmasligi kuzatilmoqda. Shuningdek, aholining raqamli savodxonligi ham yetarli darajada emas. Bu omillar transformatsiya jarayonlarini sekinlashtiradi.

Farg‘ona viloyatida raqamli transformatsiyani jadallashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- Hududiy raqamli innovatsiya markazlarini tashkil etish;
- Davlat-xususiy sheriklik asosida IT loyihalarni qo‘llab-quvvatlash;
- Qishloq hududlarini keng polosali internet bilan qamrab olish;
- Ta’lim va sog‘liqni saqlashda raqamli texnologiyalarni yanada kengroq joriy qilish;

• Aholi va tadbirkorlik sub'yektlari uchun raqamli savodxonlik kurslarini tashkil etish.

Hududlarda raqamli transformatsiyalarni joriy etish va takomillashtirish bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, Farg'ona viloyatida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va ulardan samarali foydalanish nafaqat iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi, balki boshqaruv tizimlarini soddalashtirish, xizmatlar sifatini oshirish hamda aholi hayot darajasini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, raqamli transformatsiyalarni chuqurlashtirish orqali viloyatning iqtisodiy salohiyatidan to'liq foydalanish, hududiy tafovutlarni kamaytirish va barqaror raqobatbardosh muhitni shakllantirish imkoniyatlari mavjud.

So'nggi yillarda hududda raqamli infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi: keng polosali internet tarmoqlarini kengaytirish, davlat xizmatlarini onlayn shaklga o'tkazish, elektron savdo va moliyaviy texnologiyalarni qo'llash ko'lami oshdi. Biroq, tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish, xodimlarning raqamli ko'nikmalarini oshirish, biznes jarayonlarini to'liq raqamlashtirish va davlat-hususiy sektor hamkorligini kuchaytirish zarur. Shu orqali raqamli iqtisodiyotning hududiy rivojlanishga ta'siri yanada kuchayadi.

Raqamli transformatsiyalarni chuqur joriy etish viloyatda ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, qishloq xo'jaligida raqamli monitoring tizimlarini kengaytirish, turizm va xizmat ko'rsatish sohalarida innovatsion yechimlarni tatbiq etish imkonini beradi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar soliq tushumlarini oshirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish va investitsion jozibadorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Farg'ona viloyatida raqamli transformatsiyalarni takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlar muhim hisoblanadi:

- raqamli infratuzilmani yanada kengaytirish va barqaror internet qamrovini ta'minlash;
- aholining raqamli savodxonligini oshirish hamda malakali IT kadrlarini tayyorlash;
- davlat boshqaruvi tizimida ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish orqali samaradorlikni oshirish;
- mahalliy tadbirkorlik subyektlari uchun raqamli yechimlardan foydalanishda qulay shart-sharoitlar yaratish;
- raqamli xavfsizlik va ma'lumotlar himoyasini mustahkamlash.

Ushbu yo'nalishlarning izchil amalga oshirilishi nafaqat viloyat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshiradi, balki O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotga o'tish strategiyasini hududiy darajada muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qiladi. Natijada, zamonaviy texnologiyalar asosida barqaror, samarali va inklyuziv iqtisodiy rivojlanish ta'minlanadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–6079-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-apreldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–223-son Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2024). “Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari: Farg‘ona viloyati”. – https://stat.uz

4. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ma’lumotlari (2024-yil hisobotlari). – https://mitc.uz

5. Karimov, I. (2023). “Hududlarda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari va muammolari”. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, №2, 45–52-betlar.

6. Tursunov, B. (2022). “Raqamli transformatsiyaning mintaqaviy rivojlanishga ta’siri: tahlil va prognoz”. Mintaqaviy iqtisodiyot va boshqaruv jurnali, №4, 30–38-betlar.

7. Yormonqulova , N. (2024). iqtisodiy o‘sish omillarini takomillashtirish va barqaror rivojlanishga erishish. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10(10), 109–112. https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.922

BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASIDA HUDUDIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Qazaqov Tolibjon Sharifjon o‘g‘li
University of business and science
Yashil iqtisodiyot kafedrasi o‘qituvchisi

O‘zbekiston Respublikasining butun hududida odamlarning bir xil turmush darajasini ta’minlash uchun mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish siyosati va mexanizmlarini shakllantirish ko‘plab ichki hamda tashqi omillarning ta’siri natijasidir. Bir tomondan, mintaqalararo tekislashning samaradorligi hududiy iqtisodiy tizimlar faoliyatining samaradorligiga asoslanadi. Mintaqa iqtisodiyotining rivojlanish darajasi, uni kuchaytiruvchi va to‘xtatuvchi omillar har bir mintaqa uchun o‘ziga xosligi bilan ajralib turadigan ichki holatdir. Biroq, boshqa tomondan, mintaqaviy iqtisodiyotning o‘sishini ta’minlash byudjet jarayonini tartibga solishning umumdavlat tamoyillariga bog‘liq bo‘lib, bu davlatda moliyaviy oqimlarning qayta taqsimlanishiga olib keladi.

Shunday qilib, dinamik ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida har doim bir davlatning turli hududlari rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlariga mos keladigan byudjetni tartibga solish mexanizmlari va bir vaqtning o‘zida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy tizim parametrlarini tenglashtirishni ta’minlaydigan vositalarini asoslashdan iborat bo‘lgan dolzarb ilmiy hamda amaliy vazifa mavjud bo‘ladi. Byudjet jarayonini tartibga solishni markazlashtirish va markazsizlashtirish darajasi doimo optimallashtirishni talab qiladi.

Shunday qilib, 2023 yilda O‘zbekiston Respublikasining Konsolidatsiyalashgan byudjetida mahalliy byudjetlarning daromadlari 29,1% va xarajatlari 32,1% bo‘lgan, olimlar esa bu ko‘rsatkichlar mahalliy hokimiyatlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning jahon amaliyotiga ko‘ra kamida 50% bo‘lishi kerakligini asoslaganlar. Bu O‘zbekiston Respublikasida byudjetni tartibga solishning haddan tashqari markazlashtirilganligi va hududlarning moliyaviy avtonomiyasining past darajasidan dalolat beradi, bu esa hududlar iqtisodiyotining rivojlanishi va tekislanishining sekinlashishining asosiy sababidir.

Shuningdek, mahalliy byudjetlar daromadlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi va barcha darajadagi byudjet xarajatlarining yalpi ichki mahsulotga nisbati mamlakatimizda byudjet jarayonining holatini baholashning muhim ko‘rsatkichlari hisoblanadi. 2015 yildan 2023 yilgacha bo‘lgan davrda mahalliy byudjetlarning yalpi ichki mahsulotdagi daromadlari transfert tushumlarini chegirib tashlagan holda

kamaydi. 8,8% dan 6,5% gacha, yalpi ichki mahsulotdagi xarajatlar hajmi esa xuddi shu davrda 37,6% dan 21,5% ga kamaydi.

Ushbu tendensiyalar viloyat iqtisodiyotini samarali rivojlantirish uchun moliyaviy bazaning qisqarishi hamda davlat mablag‘lari hisobidan ishlab chiqarilayotgan va fuqarolarga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy ahamiyatga ega tovarlar hamda xizmatlar hajmining kamayib borayotganidan dalolat beradi, Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan fundamental ishlar butun byudjetni ilmiy o‘rganish, moliyaviy tartibga solish va rejalashtirish, byudjetni tenglashtirish va byudjet mablag‘larini hududiy bo‘linmalar o‘rtasida qayta taqsimlash vositalarini shakllantirish, soliq-byudjet va pul-kredit siyosatini yuritish usullari, moliya tizimini takomillashtirishga bag‘ishlangan.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining hozirgi bosqichi mamlakatda byudjet mablag‘lari harakati jarayonlarining asosiy bo‘g‘inlari sifatida vertikal va gorizontal integratsiyalashgan byudjetlarning o‘zaro ta’siri jarayonlari hamda mexanizmlarini o‘rnatish va isloh qilish bilan tavsiflanadi. Bu yo‘lda asosiy muammolar - rivojlangan mamlakatlarda tarqalgan byudjetlararo munosabatlar va mintaqalararo ijtimoiy-iqtisodiy tenglashtirish tamoyillarini O‘zbekiston Respublikasi amaliyotiga tatbiq etish, cheklangan moliyaviy resurslar sharoitida byudjet daromadlarini shakllantirishning samarali manbalarini izlash, qisqa va uzoq muddatda oddiy hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta’minlash zarurligini hisobga olgan holda samarali byudjet xarajatlarini amalga oshirish lozim.

Shuni ta’kidlash joizki, byudjet xarajatlarining shaffofligi va samaradorligini oshirish maqsadida mahalliy hokimiyat organlari bilan bir qatorda davlat sektori ham byudjet munosabatlari tizimiga integratsiya qilinishi kerak. Xususan, moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida davlat hamda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquq va vakolatlari nisbati darajasini baholash uchun moliyaviy markazlashuv indeksini, mahalliy moliya, soliqni markazsizlashtirish indeksi va xarajatlarni markazsizlashtirish sxemasi, byudjetni markazsizlashtirishning ajralmas ko‘rsatkichi,Pareto samaradorligi mezonini aniqlash taklif etiladi.

Muhim ilmiy asoslar, asoslangan ilmiy va amaliy tavsiyalar mavjudligiga qaramay, O‘zbekiston Respublikasida mintaqaviy iqtisodiyotning rivojlanishiga byudjet jarayonining nomukammalligi hali ham to‘sqinlik qilmoqda, uning shartlari bu rivojlanishni samarali va to‘liq moliyaviy ta’minlashga imkon bermaydi.

Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjeti barqarorligini ta’minlash, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish, shuningdek, tadbirkorlik muhiti uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Byudjetlararo munosabatlarni va soliq ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”[3] qarori qabul qilindi. Bu esa o‘z navbatida, tadqiqot natijalarini hisobga olgan holda, byudjetlararo munosabatlar tizimini isloh qilish asoslarini yaratdi. Ushbu islohot mahalliy byudjetlarning moliyaviy ta’minotini mustahkamlash va yashash joyidan qat’i nazar, aholi farovonligini oshirishga qaratilgan.

Umuman olganda, hududning barqaror rivojlanishini iqtisodiy tartibga solishni tanlashda davlat hokimiyati organlari orqali tashqi tomondan hududning barqaror rivojlanishini rag‘batlantirish bilan bog‘liq mavjud vaziyatni hisobga olish kerak Ya’ni, hududning barqaror rivojlanishini iqtisodiy tartibga solishni tanlashda mintaqaning barqaror rivojlanishini rag‘batlantirish darajasini va hududning barqaror rivojlanishining tegishli darajasini hisobga olish kerak. Aynan shu holatda O‘zbekiston Respublikasi hududlarining barqaror rivojlanishiga erishish imkonini beradigan

hududning barqaror rivojlanishini rag‘batlantirishning eng samarali siyosatini tanlash mumkin.

Adabiyotlar:

1. *Bromley D. Sustainability / D. Bromley // The New Palgrave Dictionary of Economics, 2nd Edition. – 2008. – [Electronic resource]. – Access mode : http://www.dictionaryofeconomics.com.*
2. *Разумовский С.А. Механизм регулирования бюджетно-кредитной деятелности региона в условиях повышения уровня экономической самостоятелности: автореф. дис. на соискание науч. степени к-та. экон. наук: спец. 08.04.01 «Финансы, денежное обращение и кредит» / С.А. Разумовский. – Харков, 2000. – 14 с.*
3. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Byudjetlararo munosabatlarni va soliq ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirish to‘g‘risida"gi 15.04.2022 y. PQ-208-son Qarori. BUXGALTER.UZ*

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA UNING MEHNAT BOZORIGA TA'SIRI

Tusunova Shamsiya Saidburxon qizi,
Buxoro davlat tibbiyot instituti, Sog‘liqni saqlashni boshqarish va jamoat salomatligini saqlash yo‘nalishi, magistratura 1-bosqich talabasi

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari innovatsion iqtisodiyot sari intilmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlari barcha sohalarda, xususan sog‘liqni saqlash tizimida ham tubdan o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida elektron sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish, shifoxonalarda raqamli axborot tizimlarini joriy yetish va masofaviy xizmatlarni kengaytirish belgilangan.

Mamlakatimiz bilan har tomonlama aloqalarni rivojlantirayotgan Janubiy Koreya esa sog‘liqni saqlash tizimida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni keng qo‘llash orqali yuqori samaradorlikka erishib kelayotgan yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi.

Sog‘liqni saqlash tizimida raqamli transformatsiyani tahlil qiladigan bo‘lsak, O‘zbekistonda elektron sog‘liq kartalari, “E-Poliklinika” tizimi, elektron dorixona retseptlari bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda. Biroq infratuzilma, kadrlar salohiyati va moliyaviy manbalar yetishmasligi bu jarayonni sekinlashtirmoqda. Janubiy Koreya davlatida esa elektron sog‘liqni saqlash ma'lumotlari bazasi, big data (bu an’anaviy ma’lumotlarni qayta ishlash tizimlari sig‘dira olmaydigan juda katta hajm, tezlik va xilma-xillikka ega bo‘lgan ma’lumotlar va ularni samarali tahlil qilish usullarini o‘z ichiga oladi. Ushbu ma’lumotlar yangi foydali bilimlar va tahlillarni yaratish uchun turli manbalardan to‘planadi va qayta ishlanadi) va blokcheyn (bu bir-biriga bog‘langan "bloklar"dan iborat bo‘lib, ma’lumotlarni qayd etuvchi va ularni xavfsiz, o‘zgarmas tarzda saqlovchi texnologiya) texnologiyalari joriy yetilgan. Bu orqali bemorlarni masofadan kuzatish, kasalliklarning oldini olish va sog‘liq siyosatini optimallashtirish yo‘lga qo‘yilgan.

Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishdan asosiy maqsad:

- bemorlar uchun sifatli, tez va xavfsiz tibbiy yordam ko‘rsatish;
- shifokorlar uchun ma'lumotlarga oson kirish va qaror qabul qilishni yengillashtirish;

- davlat va tizim uchun sog‘liqni saqlash xarajatlarini optimallashtirish, resurslardan to‘g‘ri foydalanish;
- ilm-fan uchun katta hajmdagi tibbiy ma'lumotlardan foydalanib, yangi tadqiqot va davolash usullarini rivojlantirishdir.

Zamonaviy tibbiyot faoliyatida sun'iy intellekt yordamida tibbiy diagnostika aniqligi oshmoqda. Masalan, Janubiy Koreyada saraton kasalligini erta aniqlashda SI (sun`iy intellekt) algoritmlari qo‘llanilishi natijada tashxis aniqligi 25–30% ga oshgan. SI klinik qarorlarni qo‘llab-quvvatlash, dori vositalari ishlab chiqish va pandemiya davrida kasallik tarqalishini prognoz qilishda muvaffaqiyatli qo‘llanildi.

O‘zbekistonda SI hali keng joriy qilinmagan, ammo ayrim xususiy klinikalarda diagnostika va tasvirlarni qayta ishlashda dastlabki sinov ishlari olib borilmoqda. Hozirgi kunda O‘zbekistonda bunday mutaxassislar juda kam, lekin ehtiyoj yuqori. Shifokorlar uchun SI imkoniyatlari juda yuqori bo‘lib, aniq tashxis qo‘yishda, laborator tahlillarni tezkor solishtirishda, kasalliklarni erta aniqlashda, klinik qaror qabul qilishda (bemorning kasallik tarixini o‘rganishda), murakkab dori kombinatsiyalarining nojo‘ya ta'sirlarini oldindan aniqlashda yordam beradi. Hamda AI orqali hamshiralarning ish jarayonlarini yengillashtirish va bemorlar bilan sifatli muloqot qilishlarini ta'minlashga erishiladi. SI asosidagi qurilmalar yordamida yurak urishi, qon bosimi, kislorod darajasi kabi hayotiy ko‘rsatkichlarni avtomatik kuzatish imkoniga ega bo‘lamiz. SI yordamida bemorlar jadvallarini to‘ldirish, dori vositalarini o‘z vaqtida eslatish, hujjatlarni to‘ldirish avtomatlashtiriladi, bu hamshiralarga bemor bilan ko‘proq bevosita muloqot qilish imkonini beradi.

Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish va sun'iy intellektdan foydalanish mehnat bozoriga sezilarli darajada o‘z ta'sirini ko‘rsatadi. Yangi kasblar: “Tibbiy IT mutaxassisi”, “Sog‘liqni saqlash data-analitigi”, “Telemeditsina koordinatori”, “Bioinformator” kabi zamonaviy va kelajak kasblariga yangi qadam qo‘yiladi. Shifokorlar va hamshiralar SI yordamida yanada samarali ishlashlaydi, SI oddiy diagnostika ishlarini bajarganligi sababli, mutaxassislar murakkab klinik qarorlarga ko‘proq vaqt ajratadi. Janubiy Koreyada bu yo‘nalishda maxsus ta'lim dasturlari ishlab chiqilgan bo‘lsa, O‘zbekistonda bu mutaxassisliklar endigina shakllanmoqda.

Yaqinda, (2025 yil avgust oyi oxirlarida) O‘zbekiston sog‘liqni saqlash delegatsiyasi Koreyada robotlashtirilgan jarrohlik, telemeditsina va qo‘shma ta'lim dasturlari bo‘yicha hamkorlik kelishuvlariga erishdi.

O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligi delegatsiyasining Janubiy Koreyaga tashrifi davomida tibbiyot sohasida hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan muhim kelishuvlarga erishildi.

Delegatsiya Seul milliy universiteti Bundang kasalxonasi, Inje universiteti, Changvon milliy universiteti, Yonsey universiteti hamda qator ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Xususan, robotlashtirilgan jarrohlik, onkologiya, telemeditsina, raqamlashtirish hamda tibbiyot xodimlarini tayyorlash bo‘yicha hamkorlikni rivojlantirish rejalashtirildi.

Tashrif doirasida xalqaro konferentsiyalarda ishtirok etilib, qo‘shma ta'lim dasturlari, jumladan, hamshiralar tayyorlash masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, insulьtni erta aniqlash va tez tibbiy yordam tizimlarini raqamlashtirishga oid ilg‘or texnologiyalar taqdim etildi.

Muzokaralar yakunida Koreya xalqaro sog‘liqni saqlash jamg‘armasi (KOFIH) bilan kelishuvga erishilib, O‘zbekistondan har yili 20 nafar mutaxassis xalqaro standartlar

asosida bepul tayyorlanishi belgilandi. Koreya tomoni 2026–2028 yillarda sog‘liqni saqlash sohasidagi qo‘shma dasturlarni yanada kengaytirishga tayyor ekanini ma'lum qildi.

Bunday ilmiy-amaliy hamkorlikning yo‘lga qo‘yilayotgani bizning mavzumiz maqsadi ham istiqbolli ekanligini tasdiqlab turibdi.

Xulosa va takliflar:

1. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish va SI texnologiyalarini joriy etishda Koreya tajribasidan foydalanish bo‘yicha SSVning “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilishi va har bir hududiy sog‘liqni saqlash boshqarmalari, tibbiyot oliy o‘quv yurtlari oldiga muayyan vazifalar qo‘yilishi lozim.

2. Kadrlar tayyorlashni kuchaytirish, tibbiy oliygohlarda “Raqamli salomatlik” va “Tibbiy informatika” kabi fanlarni joriy qilish zarur.

3. Mehnat bozorida yangi kasblar paydo bo‘lishini hisobga olib, milliy ta'lim tizimi mutaxassis kadrlarnini tayyorlashga moslashtirilishi kerak. Buning uchun O‘zbekistondagi tibbiyot o‘rta va oliy o‘quv yurtlari bilan xorijiy tibbiyot markazlarining hozirgi paytda mavjud hamkorlik va aloqalarini kuchaytirish talab qilinadi.

4. SI texnologiyalarining samaradorligini muntazam monitoring qilish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida sifat va samaradorlikni oshiradi. Shuni nazarda tutgan holda, bu boradagi amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlarni 2026-2028 yillarga mo‘ljallangan Koreya-O‘zbekiston qo‘shma dasturlariga kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida Farmon.

2. ShHO (2020). Global strategy on digital health 2020–2025. Shorld Health Organization.

3. Leye, D., & Yoon, S. (2022). Artificial intelligence in healthcare: Opportunitiyes and challenges in Korea. Journal of Medical Systems, 46(3).

4. Kim, J., & Leye, H. (2021). Digital Transformation in Korean Healthcare: Policy and Practice. Health Policy and Technology, 10(2).

5. Abdullayev, Sh. (2022). Sog‘liqni saqlash tizimida raqamlashtirish jarayonlari va muammolari. Toshkent tibbiyot jurnali, 3(12).

6. Ministry of Health and Shelfare, Korea (2021). Digital Health Strategy for Korea 2030. Seoul.

НАЦИОНАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОСИСТЕМЫ

Мирзаев Саибджан Собитович
«ТИИИМСХ» НИУ, доцент
зав. кафедрой «Информационные технологии»
Рахмонова Мафтуна Бобокул кизи
«ТИИИМСХ» НИУ, старший преподаватель

Современный рынок труда и экономика в целом переживают качественные изменения, связанные с развитием цифровых технологий. Цифровая трансформация является не просто внедрением инноваций в различные отрасли, а комплексным процессом, который охватывает государственное управление, бизнес-процессы, образование, социальную сферу и повседневную жизнь граждан [2; 3]. В условиях перехода национальной экономики в инновационную

среду именно государственная политика становится определяющим фактором в формировании цифровой экосистемы, способной обеспечить устойчивый экономический рост и повышение конкурентоспособности страны [1].

Роль государства в цифровой трансформации. Государство выступает системным координатором цифровых изменений. Оно формирует стратегию цифрового развития, разрабатывает нормативно-правовую базу и обеспечивает институциональные условия для эффективного внедрения цифровых технологий [8]. Основными направлениями государственной политики в данной сфере являются:

- *развитие цифровой инфраструктуры* (широкополосный интернет, центры обработки данных, облачные платформы);
- *цифровизация государственного управления* (электронное правительство, цифровые услуги для населения и бизнеса) [6];
- *обеспечение кибербезопасности и защиты данных;*
- *поддержка инноваций и стартапов в сфере цифровых технологий;*
- *формирование цифровых компетенций населения [7].*

Мировой опыт показывает, что успешные цифровые трансформации происходят при условии тесного взаимодействия государства, частного сектора и научно-образовательных учреждений. Например, в странах ЕС реализуются программы «Цифровая Европа», а в Китае действует стратегия «Интернет плюс», ориентированная на интеграцию цифровых технологий в традиционные отрасли.

Формирование цифровой экосистемы. Понятие «цифровая экосистема» предполагает создание единого пространства, где взаимодействуют все участники цифровой экономики: государство, бизнес, образовательные учреждения, исследовательские центры и граждане [2; 9]. В её основе лежат следующие элементы:

1. *Нормативно-правовая база*

- разработка законов в сфере цифровых технологий, защиты персональных данных, электронного документооборота;
- создание условий для правового регулирования искусственного интеллекта, блокчейна и других перспективных технологий [4].

2. *Технологическая инфраструктура*

- развитие сетей связи пятого поколения (5G), облачных вычислений и дата-центров;
- внедрение платформ больших данных (Big Data) и технологий интернета вещей (IoT);
- обеспечение доступности цифровых решений для малого и среднего бизнеса [10].

3. *Человеческий капитал*

- подготовка кадров для цифровой экономики;
- развитие цифровой грамотности среди населения;
- внедрение образовательных программ по кибербезопасности, искусственному интеллекту, анализу данных [7].

4. *Институциональная поддержка и партнёрство*

- стимулирование государственно-частного партнёрства;
- создание цифровых хабов, технопарков и инкубаторов стартапов;

➢ интеграция национальных цифровых решений в международные рынки [9].

Национальные приоритеты (на примере Узбекистана)

В Узбекистане цифровая трансформация стала одним из ключевых направлений государственной политики. В рамках стратегий и национальных программ («Цифровой Узбекистан – 2030») реализуются проекты по:

- созданию электронного правительства и онлайн-сервисов для населения;
- цифровизации сфер образования, здравоохранения, финансов и промышленности;
- развитию IT-парков и стимулированию стартапов;
- подготовке специалистов в области программирования и информационной безопасности [1].

Особое внимание уделяется вопросам цифрового неравенства и доступности технологий для сельских регионов, что является важным условием формирования полноценной цифровой экосистемы [6].

Вызовы и перспективы

Несмотря на активные шаги по цифровизации, существует ряд вызовов:

- нехватка квалифицированных кадров в области цифровых технологий;
- риски киберугроз и необходимости защиты данных [4];
- проблема цифрового неравенства между регионами;
- адаптация законодательства к стремительному развитию технологий [8].

Перспективы развития связаны с интеграцией искусственного интеллекта, роботизации и автоматизации бизнес-процессов, что неизбежно повлияет на рынок труда [7; 10]. Государственная политика должна быть направлена на баланс между инновационным развитием и социально-экономической стабильностью.

Государственная политика цифровой трансформации является фундаментом для формирования современной цифровой экосистемы. Только комплексный подход — от развития инфраструктуры и нормативной базы до подготовки кадров и стимулирования инноваций — позволит национальной экономике эффективно интегрироваться в глобальное цифровое пространство [9]. Формирование такой экосистемы не только повышает конкурентоспособность страны, но и создаёт новые возможности для граждан и бизнеса, обеспечивая устойчивый рост в условиях перехода к инновационной экономике.

Литературы:

1. Стратегия «Цифровой Узбекистан – 2030». Ташкент: Министерство развития информационных технологий и коммуникаций Республики Узбекистан, 2020.

2. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. М.: ГУ ВШЭ, 2020.

3. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. Geneva: World Economic Forum, 2016.

4. Tapscott D., Tapscott A. Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin and Other Cryptocurrencies Is Changing the World. Penguin, 2018.

5. OECD. Digital Government Review of Latin America: Digital Transformation for Inclusive and Sustainable Growth. Paris: OECD Publishing, 2022.

6. UNDP. E-Government Survey 2022: The Future of Digital Government. New York: United Nations, 2022.

7. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. New York: W.W. Norton & Company, 2014.

8. Татаркин А.И., Куклин А.А. Цифровая экономика и государственное регулирование: вызовы и перспективы. Экономика региона, №2, 2021.

9. Deloitte Insights. Government Trends 2023: A Global Perspective on Government Innovation. Deloitte University Press, 2023.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ BAZASINI ANIQLASH METODOLOGIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

Xalikchayeva Sadokat Ilxomjonovna
TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ITM doktoranti (DSc)., PhD.,
ORCID:0009-0002-8782-2762;

Zamonaviy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgani soliq tizimini ham tubdan o'zgartirmoqda desak ayni mudao bo'ladi. Xususan, raqamli transformatsiya jarayonlari soliq ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlarini avtomatlashtirish bilan bir qatorda, soliq bazasini aniqlash metodologiyasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Soliq bazasini aniqlash tartibi metodologiyasi – fiskal tizimning "yadro mexanizmi" bo'lib, u nafaqat soliq obyekti va baholash mezonlarini belgilaydi, balki huquqiy dizayn, ma'muriy salohiyat va raqamlashtirish darajasi, buxgalteriya –baholash standartlari, soliq to'lovchilar xulq-atvori (soliq madaniyati), iqtisodiy tuzilma hamda xalqaro soliq muhitining o'zaro ta'siri ostida real mazmun kasb etadigan jarayon sanaladi. Shu bois bazaning kengligi, aniqligi va barqarorligi o'rtasidagi muvozanatni tushuntirish faqat alohida elementlarni emas, balki ularning tizimli bog'liqligini tahlil qilishni, unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va o'rganishni talab etadi. O'z navbatida, bu omillarni aniqlash va tahlil etish soliq tizimida bazasini aniqlash metodologiyasining qanday ishlab chiqilishini, joriy etilishiyu, uning samarali tashkil qilishini belgilab beruvchi ko'rsatkich vazifasini o'taydi.

Shunday ekan, raqamli transformatsiya sharoitida soliq bazasini aniqlashga ta'sir etuvchi asosiy omillarni turli jihatdan turlicha aniqlashimiz va guruhlarga ajratishimiz mumkin bo'ladi. Bu guruhlashtirilgan omillarni esa ushbu chizmada aks ettirish mumkin.



1-rasm. Soliq bazasini aniqlash tartibi metodologiyasiga ta'sir etuvchi omillarning guruhlashtirilgan tarkibi

1-rasmda berilgan chizmaga muvofiq anglash mumkinki, soliq bazasini aniqlash tartibi metodologiyasiga ta’sir etuvchi omillar olti o‘lcham asosida tartiblashtirilgan (har bir omil bir vaqtning o‘zida bir nechta o‘lchamga tegishli). Ya’ni bu omillar tabiatiga ko‘ra, davomiyligiga ko‘ra, ta’sir darajasiga, natija samaradorligi, shuningdek, joylashuv hududiga hamda mikro va makro darajasiga ko‘ra ajratilgan bo‘lib, bu tartibdagi guruhlash turlicha xususiyatlarni hisobga olgan holda amalga oshirilgan.

Rasm mazmuni shuni ko‘rsatadiki, soliq bazasi faqat bitta sabab bilan emas, balki bir vaqtning o‘zida turli o‘lchamdagi omillar bilan shakllanishi mumkin ekan. Shuning uchun samarali siyosat ketma-ketligi bazani aniqlash metodologiyasining qaysi jabhasida qanay muammo borligini aniqlashi, uni qaysi darajada ro‘y berayotganini ko‘rish, qayerda va qachon, qolaversa, qanchalik darajada kuchli ta’sir ko‘rsatayotganini belgilash uchun juda ham muhim hisoblanadi.

Yuqoridagi chizmadan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, soliq bazasini aniqlash metodologiyasiga ta’sir etuvchi omillar asosan raqamli transformatsiya sharoitida – bu axborot texnologiyalarining joriy etilishi fonida elektron hisob-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari, blokcheyn va sun’iy intellekt asosidagi tizimlar hisoblanib, ular soliq bazasining aniqligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ma’lumotlar shaffofligi va integratsiyasida davlat organlari o‘rtasida ma’lumot almashinuvining raqamlashtirilishi yashirin iqtisodiy faoliyatni kamaytirish barobarida soliq bazasining hajmiga ijobiy ta’sir ko‘rsatsa, raqamli iqtisodiyotdagi yangi daromad manbalari hisoblangan – elektron savdo, kriptoaktivlar, platforma iqtisodiyoti (freelance, onlayn xizmatlar) kabi yangi faoliyat turlari soliq bazasini aniqlashda yangi yondashuvlarni talab qiladi.

Qolaversa, huquqiy-me’yoriy omillar ham raqamli transformatsiya sharoitida muhum sanalib, soliq kodeksining raqamli iqtisodiyot sharoitlariga moslashtirilishi, soliq ma’lumotlarini himoyalash va ulardan foydalanish bo‘yicha normativ hujjatlar metodologiyaning barqarorligini ta’minlasa, inson omili va raqamli savodxonlik soliq organlari xodimlarining raqamli kompetensiyasi yuqori bo‘lishi, soliq to‘lovchilarning elektron tizimlardan foydalana olish darajasi soliq bazasini to‘g‘ri aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, raqamli transformatsiya soliq bazasini aniqlash metodologiyasini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu jarayonning samaradorligi texnologik infratuzilma, axborot xavfsizligi, huquqiy muhit va inson resurslarining uyg‘unligiga bog‘liqdir. Shu bois, raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma’murchiligini takomillashtirish davlat fiskal siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim. Zero, to‘g‘ri tanlangan bazani aniqlash metodologiyasi adolatli soliq yukini, barqaror byudjet tushumlarini va past ma’muriy xarajatlarni ta’minlashga xizmat qiladi. Shunday ekan, soliq bazasini aniqlash metodologiyasini yanada takomillashtirish va samarali qilishda yuqoridagi omillardan kelib chiqqan holda ushbu takliflarni ilgari suramiz:

Raqamlashtirishni chuqurlashtirish lozim bo‘lib, bu e-hisob-faktura, onlayn KKM, soliq-bojxona-bank ma’lumotlarini integratsiyalash orqali bazani aniqlashda inson omilini kamaytirishga xizmat qiladi;

1. Baholash tizimini isloh qilish kerak. Bu mol-mulk va yer solig‘ida real bozor qiymatiga asoslangan avtomatik baholash mexanizmini joriy etishga yordam beradi;

2. Normativ-huquqiy barqarorlikni ta’minlash ham tez-tez o‘zgaradigan soliq qoidalarini barqarorlashtirish orqali metodologiyada yagona talqinni mustahkamlashga asos boladi.

Albatta, ushbu takliflar soliq tizimida soliq bazasini aniqlash metodologiyasining samaradorligini oshirishga va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shishga yordam beradi deb hisobymiz.

Adabiyotlar:

1. *O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi., https://lex.uz/docs/-4674902*
2. *https://mitpress.mit.edu/9780262026727/tax-systems/?utm*
3. *Bird, R. M. The BBLR Approach to Tax Reform in Emerging Countries [Elektron resurs] : International Studies Program Working Paper 08-04. — Atlanta : Georgia State University, Andrew Young School of Policy Studies, 2008. — 35 p. — URL: https://icepp.gsu.edu/files/2015/03/ispwp0804.pdf*
4. *Тошматов Ш.А. Қўшилган қиймат солиғи ва уни такомиллаштириш йўллари: монография. — Тошкент: Молия, 2003. — 160 б.*
5. *Каримов Н.Г.; Убайдуллаев С.Х. Совершенствование методов налогового контроля с использованием информационных технологий // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар (илмий электрон журнал). — 2015. — № 6 (ноябрь–декабрь). — С. 19*
6. *Tanzi, V. (1999). Uses and Abuses of Estimates of the Underground Economy. The Economic Journal, 109(456), 338–347.*
7. *Musgrave R., Tax Analysis in Developing Country Settings. – World Bank, 1989.*

SOLIQ QARZDORLIGINI BOShQARIShDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O‘RNI

Hakimov Ulug‘bek Furqat o‘g‘li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar, jumladan, raqamli transformatsiya jarayonlari davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida davlat idoralari, xususan, soliq organlari faoliyati ham yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarni joriy etmasdan turib, iqtisodiy boshqaruvda shaffoflik, tezkorlik va aniqlikka erishish mumkin emas. Respublikamizda ham “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi asosida barcha sohalarda, shu jumladan, soliq ma’murchiligi tizimida raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Ushbu siyosatning asosiy maqsadi — ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish, inson omilini kamaytirish hamda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga qulay soliq muhiti yaratishdan iboratdir. [1]

Soliqlar qarzdorligi davlat budjeti tushumlari barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida iqtisodiy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Soliq qarzdorligi hajmining ortib borishi davlat moliyasining likvidligini pasaytiradi, soliq intizomining buzilishiga olib keladi va fiskal siyosatning izchilligiga putur yetkazadi. Shu bois, so‘nggi yillarda soliq qarzdorligini boshqarish jarayonini takomillashtirish davlat soliq siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Ushbu yo‘nalishda tadqiqot olib borgan ayrim xorijiy iqtisodchi olimlar, xususan S. Chen “Raqamli ma’lumot bazasi, avtomatlashtirish, big data tahlili korxonalarning soliq to‘lashdagi intizomini oshiradi va qarzdorlik yoki chetlab o‘tish holatlarini kamaytiradi.” – degan fikrni ilgari surgan. [2]

J. Cardenas-Lopez esa “Raqamli transformatsiya vositalarining (blokcheyn, big data, GIS) soliq yig‘imi va ma’lumotlarini avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi” – deb ta’kidlaydi. [3]

J. Mokander va R. Schroederlar “Sun’iy intellekt davlat soliq siyosatini raqamli boshqaruvga aylantirayotganini, bu orqali qarzdorlik xavfi bo‘lgan subyektlarni aniqlash va soliq boshqaruvini takomillashtirish mumkin” - ekanligini ko‘rsatadilar.” [4]

Muallif fikricha, raqamli transformatsiya soliq qarzdorligini boshqarishda quyidagi uchta asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

1) Ma’lumotlarni integratsiyalash va shaffof monitoring tizimi.

Soliq organlari, banklar, sud va ijro tizimlari o‘rtasida yagona elektron ma’lumotlar almashinuvi tashil etilgan bo‘lib, u orqali soliq qarzdorligi holatlarini real vaqt rejimida aniqlanmoqda. Bu o‘z navbatida raqamli ekotizim soliq qarzdorligini kamaytirishda ochiqlik-shaffoflikni ta’minlaydi.

2) Sun’iy intellekt va “big data” asosida tahlil.

Soliq to‘lovchilarning moliyaviy faoliyatini tahlil qilish orqali soliq qarzdorligi yuzaga kelishi xavfi yuqori bo‘lgan subyektlar aniqlanadi. Bu esa qarzdorlikning paydo bo‘lishidan oldin profilaktik choralar ko‘rish imkonini beradi.

3) Elektron xizmatlar orqali ixtiyoriy to‘lov intizomini oshirish.

Soliq organi platformalari, elektron hisob-faktura tizimi va raqamli to‘lov xizmatlari soliq to‘lovchilar uchun soliqlarni to‘lashda qulay sharoit yaratadi va buning natijasida soliq to‘lovlarini kechiktirish holatlari kamayadi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, raqamli transformatsiya aynan shu jarayonni samarali tashkil etish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. jumladan, elektron hujjat aylanishi, “my3.soliq.uz” yoki “my.soliq.uz” portallari, elektron hisob-faktura tizimi, onlayn nazorat-kassa mashinalari va “big data” tahlil mexanizmlarining joriy etilishi natijasida soliq ma’lumotlarini real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu esa soliq qarzdorligining erta aniqlanishi, undirish jarayonlarining shaffofligi va tezkorligi hamda to‘lov intizomini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya nafaqat mavjud qarzdorlikni kamaytirish, balki uni oldindan bashoratlash (prognoz qilish) va profilaktika qilish imkonini ham yaratadi. Sun’iy intellekt, algoritmik modellar va riskka asoslangan yondashuvlar orqali soliq to‘lovchilarning moliyaviy xatti-harakatlari tahlil qilinadi, qarzdorlik xavfi yuqori bo‘lgan subyektlar aniqlanadi. Natijada, soliq organlari o‘z faoliyatini reaktiv (reaksion) emas, balki proaktiv (oldini oluvchi) boshqaruv tamoyili asosida olib borish imkoniga ega bo‘ladi.

Xalqaro tajriba ham shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya soliq qarzdorligini boshqarishning zamonaviy modeli sifatida o‘zini oqlagan. Masalan, Estoniya, Janubiy Koreya va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda “Tax Debt Management System” kabi raqamli platformalar orqali qarzdorlik monitoringi, risk tahlili va undirish jarayonlari to‘liq avtomatlashtirilgan. [5]

O‘zbekiston soliq tizimida raqamlashtirish jarayonlari so‘nggi yillarda yuqori tezlikda amalga oshirilmoqda. Xususan, soliq ma’lumotlar bazalarini integratsiyalash, soliq to‘lovchilarni identifikatsiyalash va elektron hisob-kitob tizimlarini joriy etish borasida sezilarli natijalarga erishildi. Shu bilan birga, jismoniy shaxslarning yer, mol-mulk va daromad soliqlari bo‘yicha qarzdorlik summalarini undirish jarayoni to‘liq raqamlashtirilmagan.

Hozirda xabarnomalar asosan mobil operatorlar yoki “Soliq” mobil ilovasi orqali yuborilmoqda. Biroq mobil telefoni mavjud bo‘lmagan yoki zamonaviy smartfonlardan foydalanmaydigan aholi qatlamida mazkur ilovadan foydalanish imkoniyati mavjud emas. Bu esa soliqqa oid xabarnomalarni elektron shaklda yetkazish jarayoni to‘liq qamrovga ega emasligini anglatadi va aynan shu sohada soliq qarzdorligini undirish tizimining raqamli transformatsiyasi to‘liq yakunlanmaganligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, amaldagi soliq ma’murchiligi tizimida yana bir muhim masala — bu soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha chiqarilgan qarorlarning ijrosini to‘xtatish jarayonining raqamlashtirilmaganligidir.

Amaldagi Soliq kodeksiga ko‘ra, agar soliq to‘lovchi sayyor soliq tekshiruvi yoki soliq auditi natijalari bo‘yicha chiqarilgan qaror ustidan yuqori turuvchi soliq organiga yoki sudga shikoyat qilsa, mazkur qaror ijrosi — ya’ni soliqlar va moliyaviy sanksiyalarni undirish jarayoni yuoqri turuvchi soliq organi yoki sudning yakuniy qarori chiqarilguniga qadar to‘xtatib turilishi lozim. [6] Biroq amaliyotda ushbu huquqiy mexanizm avtomatik tarzda raqamli tizimga integratsiya qilinmagan.

Natijada, soliq to‘lovchi shikoyat arizasini elektron tarzda yuborgan taqdirda ham, tegishli qaror ijrosi raqamlashtirilmaganligi, inson omili asosida to‘xtatiladi yoki kechikishlar bilan amalga oshiriladi. Bu esa raqamli boshqaruvning to‘liq joriy etilmaganini, hamda ma’lumotlar almashinuvi tizimida avtomatik sinxronizatsiya mexanizmlari yo‘qligini ko‘rsatadi. Mazkur holat soliq to‘lovchilar huquqlarini himoya qilish samaradorligini kamaytiradi, soliqlar muddatidan oldin undirilishiga yoki soliqlarni kechikib to‘lanishiga shuningdek, soliq organlarining ish yuklamasini oshirishiga sabab bo‘ladi.

Shuning uchun shikoyat kiritilgan paytda soliq qarorlarining ijrosini avtomatik tarzda to‘xtatuvchi raqamli modul ishlab chiqish, ya’ni soliq organining ma’lumotlar bazasini yuqori turuvchi soliq organi yoki sud organlarning “apellyatsiya” tizimi bilan integratsiyalash maqsadga muvofiqdir.

Demak, soliq qarzdorligini boshqarishda raqamli transformatsiyaning o‘rni shundaki, u butun boshqaruv tizimini integratsiyalash, qarzdorlikni real vaqt rejimida nazorat qilish, to‘lov intizomini kuchaytirish va davlat budjeti tushumlarining barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, raqamli transformatsiya sharoitida soliq qarzdorligini samarali boshqarish — mamlakat fiskal barqarorligining muhim sharti hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son ““Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. Chen S. (2020). “Study on the Impact of Digital Transformation on Corporate Tax Avoidance Behavior.” Scientific and Social Research. 42(6), 1359-1378.

3. Cárdenas-López, J. J. (2023). Digital tax administration systems: A literature review in Scopus (2012–2022). Revista Científica de Sistemas e Informática, 5(1), P. 45–59.

4. Mökander, J., & Schroeder, R. (2024). Artificial intelligence, rationalization, and the limits of control in the public sector: The case of tax policy optimization. Social Science Computer Review, 42(6), 1359–1378.

5. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Successful Tax Debt Management: Measuring Maturity And Supporting Change. Paris: OECD Publishing, 2019.

6. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 231-moddasi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025-yil.

TA’LIM TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O‘RNI VA IMKONIYATLARI

Jahongirov Kamoliddin Asomiddin o‘g‘li,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi o‘qituvchisi

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida raqamli transformatsiya jarayonlari turizm sohasining barcha tarmoqlariga chuqur kirib borib, uning mazmun-mohiyatini tubdan o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish natijasida ta’lim turizmi yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Ushbu yo‘nalish nafaqat sayohat va madaniy almashinuvni, balki ilmiy-amaliy bilimlar transferini, xalqaro tajriba o‘rganish va innovatsion tafakkurni rivojlantirishni ham o‘zida mujassam etadi.

Raqamli transformatsiya ta’lim turizmini rivojlantirishda strategik ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda sun’iy intellekt, blokcheyn, raqamli platformalar, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari ta’lim jarayoniga faol tatbiq qilinmoqda. Natijada, xalqaro ta’lim almashinuvi jarayonlari yanada qulay, tezkor va shaffof tus olmoqda. Masalan, raqamli vizalar tizimi, onlayn qabul platformalari, elektron hujjatlar aylanishi hamda virtual o‘quv kampuslari xorijiy talabalar uchun qulay sharoit yaratmoqda.

COVID-19 pandemiyasi davrida dunyo ta’lim tizimi keskin raqamli o‘zgarishlarga yuz tutdi. Aynan shu davrda masofaviy ta’lim shakllari keng ommalashib, ta’lim turizmining yangi virtual yo‘nalishi shakllandi. Onlayn ta’lim platformalari orqali xorijiy universitetlarda o‘qish, xalqaro ilmiy seminarlar va vebinarlar tashkil etish, madaniy almashinuv dasturlarini masofadan turib amalga oshirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu holat ta’lim turizmini yanada demokratlashtirib, geografik va moliyaviy cheklovlarni kamaytirdi.

Shuningdek, pandemiya sharoitida virtual o‘quv sayohatlari, raqamli o‘quv dasturlari va gibrid ta’lim shakllari xalqaro hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Natijada, ta’lim turizmi sohasida “raqamli mobillik” tushunchasi shakllanib, an’anaviy akademik almashinuv dasturlarining zamonaviy, texnologik muqobili yuzaga keldi.

COVID-19 pandemiyasi jahon miqyosida ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasini tezlashtirib, masofaviy o‘qish va virtual almashinuv mexanizmlarini keng joriy etishga turtki bo‘ldi. Jahon Banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2020–2021-yillarda dunyo bo‘yicha 1,6 milliarddan ortiq talaba onlayn ta’limga o‘tdi, bu esa xalqaro ta’lim turizmining yangi masofaviy bosqichini shakllantirdi[1]. Shu davrda Coursera, edX, FutureLearn kabi xalqaro platformalarda xorijiy kurslarga talab 40–60 foizga oshdi.

Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi natijasida masofaviy ta’lim bozori jadal sur’atlarda rivojlanmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, global onlayn ta’lim bozorining hajmi 2023-yilda 166,6 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda ushbu ko‘rsatkich 185,2 milliard dollarga yetgan. Prognozlarga ko‘ra, 2025-yilda bozor hajmi 203,8 milliard dollarga, 2029-yilgacha esa 279,3 milliard dollarga yetishi kutilmoqda[2].

Mazkur tendensiya ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi jarayoni tobora chuqurlashayotganini ko‘rsatadi. Xususan, Statistaning 2024-yilgi hisobotida qayd etilishicha, 2024-yilda onlayn ta’lim xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 860 million nafardan ortgan, bu ko‘rsatkich 2028-yilga borib 1 milliarddan oshishi kutilmoqda[3]. Ushbu o‘sish, o‘z navbatida, global ta’lim turizmining yangi masofaviy shaklining rivojlanishiga zamin yaratmoqda.

Shuningdek, mutaxassislar fikricha, masofaviy ta’limning iqtisodiy salohiyati ham sezilarli darajada kengayib bormoqda. Onlayn kurslar, xalqaro universitetlarning raqamli dasturlari hamda Coursera, edX, FutureLearn kabi platformalar orqali o‘qish imkoniyatlari global miqyosda ta’lim turizmining diversifikatsiyasiga va xalqaro akademik almashinuvning demokratlashuviga xizmat qilmoqda.

1-жадвал

2020–2025 yillarda dunyo bo‘yicha ta’lim turizmi hajmi va raqamli o‘sish ko‘rsatkichlari[4]

Yil	Xalqaro talabalarning soni (mln.)	Onlayn ariza topshirish ulushi (%)	Virtual dasturlarga qatnashganlar (mln.)	Global ta’lim eksporti (mlrd. $)	O‘sish sur’ati (%)
2020	5.2	45	1.1	230	– 2 % (pandemiya)
2021	5.6	58	1.6	255	+ 5 %
2022	6.1	67	2.2	280	+ 7 %
2023	6.7	74	2.9	305	+ 9 %
2024	7.3	81	3.4	330	+ 8 %
2025 (prognoz)	7.9	88	4.1	360	+ 9 %

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2020-yilda pandemiya sabab ta’lim turizmi qisqa muddatli pasayishni boshdan kechirgan bo‘lsa-da, keyingi yillarda raqamli transformatsiya bu sohani tiklash va kengaytirishda muhim omil bo‘ldi. Onlayn ariza topshirish ulushi 2020-yildagi 45 foizdan 2025-yilda 88 foizgacha oshgani, shuningdek, virtual ta’lim dasturlarida ishtirok etuvchilar sonining to‘rt barobarga ko‘paygani shundan dalolat beradi.

Masofaviy ta’lim tizimi zamonaviy raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim sohasining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ushbu ta’lim shaklining afzalliklari nafaqat o‘quv jarayonining moslashuvchanligi va qulayligi bilan, balki iqtisodiy samaradorligi bilan ham izohlanadi.

Birinchidan, masofaviy ta’lim talabalarga shaxsiy salohiyat va individual o‘rganish tezligiga mos ravishda bilim olish imkonini yaratadi. Videoma’ruzalar, interaktiv platformalar va qayta ko‘rish funksiyalari orqali o‘quvchilar dars materiallarini o‘zlashtirish darajasini mustaqil tarzda boshqarishi mumkin.

Ikkinchidan, bu tizim geografik cheklovlarni bartaraf etadi, ya’ni talabalar dunyoning istalgan nuqtasidan turib ta’lim olish imkoniga ega bo‘ladi.

Uchinchidan, masofaviy o‘qitish ish va o‘qishni uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Ta’lim oluvchi o‘zining asosiy mehnat faoliyatini to‘xtatmasdan bilim olishi, shu orqali o‘rgangan nazariy bilimlarini bevosita amaliyotda qo‘llashi mumkin.

To‘rtinchidan, masofaviy ta’lim iqtisodiy jihatdan nisbatan tejamkor hisoblanadi. Talabalar transport, turar joy, viza va boshqa tashqi xarajatlarga mablag‘ sarflashdan ozod bo‘ladilar.

Bundan tashqari, masofaviy ta’limning tashkiliy va iqtisodiy ustunliklari ham mavjud. Oliy ta’lim muassasalari uchun auditoriya, yotoqxona va boshqa infratuzilma xarajatlari kamayadi, resurslar asosan o‘quv-uslubiy materiallar va raqamli platformalarni rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Natijada, ta’lim jarayonining xarajatlar tuzilmasi optimallashtiriladi, bu esa uzoq muddatda o‘qish narxining pasayishiga va talabalar sonining ortishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyot va ta’lim sohasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ta’lim jarayonini raqamlashtirish, masofaviy ta’lim tizimlarini takomillashtirish, raqamli ekotizimni rivojlantirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar belgilangan. Bu jarayon ta’lim turizmini qo‘llab-quvvatlash, xalqaro ta’lim almashuvlarini kengaytirish hamda O‘zbekistonning global ta’lim makonidagi nufuzini oshirish uchun muhim imkoniyatlar yaratmoqda.

Xorijiy talabalar sonining 12,5 ming nafarga yetgani va onlayn ta’lim xizmatlaridan foydalanuvchi ishchi kuchining ortib borayotgani mamlakatda raqamli ta’lim ekotizimi shakllanayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, 78 foiz ta’lim muassasalarining raqamli infratuzilma bilan ta’minlangani xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonining faol kechayotganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi jadallashib borayotgan bo‘lsa-da, masofaviy ta’lim turizmini rivojlantirish jarayonida hali ham qator tizimli muammolar mavjud. Ushbu muammolar texnologik, tashkiliy, normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik omillar bilan bog‘liq:

Birinchidan, raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani asosiy muammolardan biridir. Ayrim hududlarda internet tezligi pastligi, tarmoq barqarorligining sustligi, zamonaviy kompyuter texnologiyalariga to‘liq ega bo‘lmagan ta’lim muassasalari masofaviy o‘qitishning samaradorligini pasaytiradi.

Ikkinchidan, ta’lim kontenti va o‘quv dasturlarining raqamli formatga moslashtirilmaganligi ham muhim to‘siqlardan biridir. Ko‘plab oliy o‘quv yurtlari o‘qitish materiallarini onlayn platformalar orqali yetkazish imkoniyatiga ega bo‘lsalar-da, ularning aksariyati interaktivlik, vizual modellar va multimedia texnologiyalaridan to‘liq foydalana olmayapti.

Uchinchidan, kadrlar salohiyati va pedagogik kompetensiyaning yetarli darajada shakllanmaganligi ham muammodir. O‘qituvchilarning aksariyati masofaviy ta’lim platformalaridan samarali foydalanish, raqamli vositalar orqali interaktiv darslarni tashkil etish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga to‘liq ega emas.

To‘rtinchidan, masofaviy ta’limning huquqiy asoslari va xalqaro akkreditatsiya tizimining yetarli darajada shakllanmagani xalqaro miqyosda tan olinishni murakkablashtiradi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun davlat darajasida raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish, pedagoglar malakasini oshirish, xalqaro akkreditatsiya tizimini joriy etish hamda masofaviy ta’lim xizmatlarini global bozorda raqamli marketing vositalari orqali targ‘ib qilish zarurdir.

Masofaviy ta’lim turizmini yanada rivojlantirish O‘zbekiston ta’lim tizimini globallashuv jarayonlariga integratsiyalash hamda xorijiy ta’lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Raqamli infratuzilmani takomillashtirish. Masofaviy ta’lim platformalarini barqaror ishlashini ta’minlash, yuqori tezlikdagi internet tarmoqlarini kengaytirish va hududlar o‘rtasidagi raqamli tafovutni kamaytirish zarur.

2. Pedagogik va texnologik salohiyatni oshirish. O‘qituvchilar va ta’lim menejerlarini zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish bo‘yicha muntazam tayyorlov va qayta tayyorlov kurslariga jalb etish lozim.

3. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish. Yetakchi xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan qo‘shma onlayn dasturlar, sertifikatlash tizimlari va virtual akademik almashinuvlarni yo‘lga qo‘yish masofaviy ta’lim turizmini rivojlantirishda muhim omil bo‘ladi.

4. Huquqiy-me’yoriy bazani takomillashtirish. Masofaviy ta’lim xizmatlarini litsenziyalash, akkreditatsiya qilish va diplomlarni o‘zaro tan olish mexanizmlarini xalqaro standartlarga moslashtirish lozim.

5. Marketing va brendlash strategiyasini rivojlantirish. O‘zbekistonning ta’lim brendini xorijda targ‘ib etish, onlayn ta’lim dasturlari haqida global axborot maydonida samarali reklama yuritish raqobatbardoshlikni kuchaytiradi.

6. Mahalliy kontent va dasturlarni diversifikatsiya qilish. Milliy o‘quv dasturlarini xalqaro talablarga moslashtirish, ingliz tilidagi onlayn kurslar sonini ko‘paytirish va turizm sohasiga ixtisoslashgan masofaviy modullarni yaratish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. *Jahon Bankining rasmiy sayti // https://www.worldbank.org/en/events/2021/11/24.*
2. *52 eLearning Statistics 2025 (Market Size, Industry News) // https://www.demandsage.com/elearning-statistics/?*
3. *Online education revenue growing $20bn per year – research // https://www.theeducatoronline.com/k12/news*
4. *UNESCO Institute for Statistics, OECD Education Outlook, UNWTO (2024).*

O‘ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A’ZOLIK JARAYONIDA RAQAMLI SAVDO SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Toshpulatova Malika Ulug‘bek qizi
Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti


XXI asrning birinchi yarmida global savdo mexanizmlari faqat tovar-xizmatlarni emas, balki raqamli platformalar va elektron vositalar orqali amalga oshiriladigan savdoni ham qamrab olmoqda. Raqamli savdo (e-commerce) raqamli infratuzilma, ma’lumot almashinuvi, elektron hujjatlashtirish va onlayn xizmatlarni o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan, raqamli savdoni tartibga soluvchi milliy siyosat va mexanizmlar davlatning savdo raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalar iqtisodiy o‘sishning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali unumdorlikni oshiradi, miqyos iqtisodini va samaraliroq moliyalashtirishni rag‘batlantiradi, g‘oyalar almashinuvi orqali innovatsiyalarni rivojlantiradi hamda xalqaro savdo xarajatlarini qisqartirish orqali eksport tuzilmasini kengaytiradi va diversifikatsiya qiladi.

O‘zbekiston esa qator davlat tashabbuslari bilan raqamli iqtisodiyot va savdo sohasida islohotlarni amalga oshirmoqda. Masalan, «Digital Economy Overview and Vision 2030» hujjatida raqamli iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha vazifalar aniq belgilangan [1]. Bundan tashqari, O‘zbekistonda JSTga a’zolik jarayoni ham qayta faollashgan. Ushbu jarayonda raqamli savdo siyosatini takomillashtirish lozimligi muhim.

Raqamli savdo siyosatining ahamiyati: Raqamli savdo davlatlararo savdo tartibini kengaytiradi. U tovarlar bilan cheklanmay, elektron xizmatlar, platformalar va ma’lumotlar oqimiga ham taalluqlidir.

Raqamli savdo orqali eksport imkoniyatlari kengayadi, ayniqsa geografik jihatdan cheklangan davlatlar uchun. Masalan, O‘zbekistonda e-commerce 2021 yilda 1.39 mlrd USD daromad keltirgan[8].



1-rasm. Raqamlashtirishning iqtisodiyotga foydalari

Raqamli savdoni tartibga solish davlatning raqobatbardoshligini oshirish, savdo xarajatlarini kamaytirish hamda xizmatlar eksportini rag‘batlantirishga yordam beradi. Shu bois, raqamli savdo siyosati milliy savdo siyosatining muhim qismi sifatida shakllanishi lozim.

O‘zbekistonda raqamli savdo va savdo siyosati holati: O‘zbekistonda raqamli savdo siyosatini takomillashtirish uchun mamlakat raqamli qonunlarini JST kabi xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirishi, raqamli infratuzilmaga investitsiya qilishi va kichik va o‘rta biznes subyektlarini raqamli savdoni joriy etishga undashda qo‘llab-quvvatlashi kerak. Boshqa asosiy yo‘nalishlar qatoriga raqamli ko‘nikmalar va iste’molchilar ishonchini oshirish, blokcheyn texnologiyasini ilgari surish va ko‘proq xalqaro raqamli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kiradi.

O‘zbekistonda «Digital Economy Overview and Vision 2030» hujjati orqali raqamli iqtisodiyotga o‘tish rejalashtirilgan.

- Internet va raqamli infratuzilma rivojlanmoqda.
- Raqamli platformalar, startaplar va xizmatlar sohasida faoliyat kuchaymoqda.
- Huquqiy-normativ baza ham yangilanishga tayyorlanmoqda (masalan, raqamli platformalarni nazorat qilish bo‘yicha draft hujjatlar).

Elektron tijoratni tashqi iqtisodiy siyosatga integratsiya qilish orqali O‘zbekiston yangi bozorlarga kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi, kichik va o‘rta bizneslarni kuchaytiradi hamda geografik to‘siqlarni kamaytiradi. Prognozlarga ko‘ra, elektron tijoratdan tushadigan daromad 2021-yildagi 1,39 milliard AQSh dollaridan 2025-yilgacha har yili o‘rtacha 18,7 foizga o‘sadi, bunda elektronika va moda sohalari yetakchi ulushni egallaydi [3]. Shu bois ushbu o‘sishni tashqi savdo siyosatiga singdirish muhim strategik ahamiyatga ega. So‘nggi empirik tadqiqotlar O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa

davlatlarida raqamlashtirish darajasi va YAIM o‘sishi o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatmoqda[7]. BMT Taraqqiyot Dasturi hisobotiga ko‘ra, O‘zbekistonda AKTning YAIMdagi ulushi 2016-yildagi 1,2 foizdan 2024-yilda 2,1 foizga oshgan, 2030-yilgacha esa 4 foizga yetishi prognoz qilinmoqda. Xuddi shuningdek, Yuldashev va Axmedov (2023) tadqiqotlari natijasiga ko‘ra, elektron tijorat platformalaridan foydalanuvchi KOB subyektlari eksport hajmini yillik 18 foizga oshirgan, raqamli texnologiyalarni qo‘llamaydigan korxonalarda esa bu ko‘rsatkich atigi 5 foizni tashkil etgan[3].

O‘zbekiston JSTga a’zolik jarayonini 1994 yilda boshlab, ammo oxirgi yillarda yangilangan tahdidlarga qarshi islohotlar boshlangan. *Xizmatlar savdosi bo‘yicha Bosh kelishuv (GATS)* raqamli xizmatlar savdosini liberallashtirish uchun huquqiy asos yaratadi. Ushbu kelishuvda quyidagi asosiy masalalar ko‘rib chiqiladi:

- *Transchegaraviy ta’minot (1-rejim)* – dasturiy ta’minot eksporti va onlayn konsalting xizmatlariga tegishli.
- *Xorijda iste’mol qilish (2-rejim)* – raqamli ta’lim platformalariga tegishli.
- *Tijorat ishtiroki (3-rejim)* – xorijiy elektron tijorat kompaniyalarining sho‘ba korxonalarini tashkil etish faoliyatiga tegishli.
- *Jismoniy shaxslarning ishtiroki (4-rejim)* – axborot texnologiyalari sohasida ishlovchi frilanserlarga taalluqli[6].

O‘zbekistonning GATS talablariga muvofiqlashuvi ushbu to‘rt rejimni bosqichma-bosqich *liberallashtirish majburiyatini* bildiradi. Bu esa raqamli xizmatlar savdosini yanada silliq va samarali amalga oshirish imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, WTO doirasidagi raqamli savdo bo‘yicha muzokaralarda transchegaraviy ma’lumot almashinuvi eng bahsli masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston uchun bu masalada muvozanatni saqlash muhim: bir tomondan - *xorijiy savdo integratsiyasini chuqurlashtirish***,** ikkinchi tomondan esa - *ichki raqamli platformalarni rivojlantirish uchun siyosiy mustaqillikni saqlab qolish* zarur.

Bu holatlar raqamli savdo siyosatini takomillashtirish zaruratini yanada oshirib qo‘ymoqda.

JST a’zolik kontekstida raqamli savdo siyosatini takomillashtirish yo‘nalishlari:

Quyida O‘zbekistonda raqamli savdo siyosatini JSTga a’zolik jarayonida takomillashtirishga qaratilgan asosiy yo‘nalishlar keltiriladi. Har bir yo‘nalish uchun amaliy choralar ham ko‘rsatilgan.

Yo‘nalish 1: Normativ-huquqiy bazani yangilash: Milliy qonunchilikni JST elektron savdo va raqamli iqtisodiyotga oid qoidalariga moslash. Misol uchun, elektron imzo, ma’lumot almashinuvi, platforma xizmatlari bo‘yicha aniq tartib-normalar.

Raqamli platformalar va onlayn xizmatlar uchun maxsus litsenziyalar va qoidalar yaratish. Masalan, O‘zbekistonda 2025-yilda raqamli platformalar nazorati bo‘yicha draft hujjat muhokama qilinmoqda. Raqamli savdoda ma’lumot oqimi muhim bo‘lgani sababli, ma’lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha milliy standartlar ishlab chiqish. JSTning elektron savdo bo‘yicha “Joint Statement Initiative (e-commerce)” mexanizmlarini hisobga olish. O‘zbekiston mas’ul organlari bu tashabbus bilan tanishmoqda.

*Yo‘nalish 2: Raqamli infratuzilmani mustahkamlash:*Internet tarmoqlari qamrovini kengaytirish, hududiy tafovutlarni kamaytirish. Shu bilan onlayn savdo imkoniyatlari ko‘payadi. Yagona raqamli savdo platformasini yaratish. Ushbu platforma orqali eksport-import operatsiyalari, bojxona deklaratsiyalari, elektron kontraktlar bir

tarmoqda amalga oshirilishi mumkin. To‘lov tizimlarini modernizatsiya qilish; elektron to‘lov va raqamli hisob-kitob tizimlarini keng joriy etish. Raqamli savdoda to‘lov va hisoblash elementlari muhim. Startaplar va kichik biznesni raqamli savdo maydoniga jalb qilish uchun inkubatorlar va qo‘llab-quvvatlash dasturlarini tashkil etish.

Yo‘nalish 3: Eksport va raqamli xizmatlarni rivojlantirish: Raqamli xizmatlar eksportini rag‘batlantirish. Masalan, onlayn ta’lim, raqamli platformalar, IT–xizmatlar. O‘zbekiston hozirgi kunda IT sohasida rivojlanmoqda. Savdo bitimlari va JST a’zolik orqali ochiladigan bozorlarni raqamli savdo orqali foydalanish. Bu orqali xalqaro raqobatgacha chiqish imkoniyati mavjud. Elektron savdo mahsulotlari (software, ma’lumot, onlayn xizmatlar) uchun milliy standartlarni belgilash va eksport jarayonlarini soddalashtirish. Tarif bo‘lmagan savdo (non-tariff) cheklovlarni raqamli savdo sohasida kamaytirish. Misol uchun bojxona mukofotlari, deklaratsiyalar, litsenziyalar soddalashtirilishi kerak. Ushbu yo‘nalishda O‘zbekistonda “Trade Facilitation Roadmap” ishlab chiqilgan.

Yo‘nalish 4: Kadrlar tayyorlash va huquqiy savodxonlikni oshirish: Raqamli savdo sohasida tajribali mutaxassislarni tayyorlash. IT, huquqiy, bojxona, savdo tahlili yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislar kerak. Savdo siyosati, raqamli savdo normativlari bo‘yicha xodimlarni malaka oshirish; O‘zbekiston bu borada JST bilan hamkorlikda treninglar o‘tkazmoqda Tadbirkorlar va kichik biznes vakillari uchun elektron savdo bo‘yicha ma’lumot berish, qo‘llab-quvvatlash tizimlarini yaratish.

Raqamli savdo bo‘yicha axborot kampaniyalarini amalga oshirish, biznesni yangi imkoniyatlar bilan tanishtirish.

Yo‘nalish 5: Integratsiya va xalqaro hamkorlik: JSTga a’zolik jarayonida raqamli savdoga oid tashabbuslarni (masalan, e-commerce JSI) hisobga olish va xalqaro standardlarga mos ravishda milliy mexanizmlarni qayta ko‘rib chiqish. Qishloq xo‘jalik, xizmatlar va sanoat sektorlarida raqamli savdo imkoniyatlarini kengaytirish uchun mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish. Xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, texnik yordam va tajriba almashishni yo‘lga qo‘yish. Masalan, ITC va Yevropa Ittifoqi O‘zbekistonda JSTga a’zolik jarayonini qo‘llab-quvvatlamoqda.

Xulosa qilib aytganda, raqamli savdo siyosatini takomillashtirish - O‘zbekistonning global savdo maydoniga muvaffaqiyatli kirishi uchun muhim. JSTga a’zolik jarayonida normativ bazani yangilash, raqamli infratuzilmani mustahkamlash, raqamli xizmatlar eksportini kengaytirish, kadrlarni tayyorlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi yo‘nalishlar ustuvor bo‘lishi lozim. Ushbu yo‘nalishlar O‘zbekistonga raqobatbardoshligini oshirish, savdo xarajatlarini qisqartirish va iqtisodiy integratsiyani jadallashtirish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. *Uzbekistan Digital Economy Overview and Vision 2030. https://aict.uz/caict_uzbekistan*
2. *World Trade Organization. “Accession status: Uzbekistan – WTO.” https://www.wto.org/english/thewto_e/acc_e/a1_ouzbekistan_e.htm*
3. *“Current aspects of digitalization in Uzbekistan – Global CIO.” https://globalcio.com/articles/main/current-aspects-of-digitalization-in-uzbekistan/*
4. *Reforms for WTO Accession and Economic Liberalization – INVEXI. https://invexi.org/en/press/reforms-for-wto-accession-and-economic-liberalization/*
5. *WTO news: “Uzbekistan advances WTO accession negotiations…” (6 Dec 2024) https://www.wto.org/english/news_e/news24_e/acc_06dec24_e.htm*
6. *“Uzbekistan officials learn about the WTO’s Joint Statement Initiatives (JSIs).” https://www.intracen.org/news-and-events/news/uzbekistan-officials-come-to-grips-with*

7. "Uzbekistan – eCommerce – International Trade Administration." https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-ecommerce

8. "Streamlining E-Commerce in Uzbekistan and Regional Cooperation." – World Bank Event. https://www.worldbank.org/en/events/2023/03/27/streamlining

НАВИГАЦИЯ ПО ЦИФРОВЫМ РУБЕЖАМ: РОЛЬ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ В СТИМУЛИРОВАНИИ ИННОВАЦИЙ И УСТОЙЧИВОГО РОСТА

Хакимджанова Сурайё Хабибуллаевна
Ташкентский государственный технический университет
Ассистент преподаватель и докторант 1 курса кафедры «Экономика и менеджмент промышленности»

Цифровая трансформация относится к интеграции цифровых технологий во все сферы деятельности компании, что в основном меняет способ работы организаций и предоставления ценности клиентам. Она включает в себя укрепление процессов, трансформацию клиентского опыта и переосмысление бизнес-моделей и стратегий в условиях стремительного технологического прогресса. В современной экономической панораме цифровая трансформация все чаще признается в качестве важнейшего двигателя экономической конкурентоспособности и роста. По мере того, как отрасли переходят от традиционных практик к более гибким и ориентированным на цифровые технологии методологиям, фундаментальная роль государственной политики в содействии этой трансформации становится все более очевидной.

Государственная политика, направленная на поддержку цифровой трансформации, включает в себя широкий спектр инициатив, включая регулятивные картины, программы финансирования и развитие инфраструктуры. Эта политика создает благоприятную среду для инноваций и сотрудничества между различными заинтересованными сторонами, включая государственные учреждения, частные компании, академические учреждения и гражданское общество. Поощряя инвестиции в цифровую инфраструктуру, такую как широкополосная связь и центры обработки данных, а также устанавливая четкие правила, способствующие конкуренции и защите интеллектуальной собственности, государственная политика может смягчить препятствия для входа новых предприятий и стимулировать развитие динамичной цифровой экосистемы. Кроме того, в рамках этой политики приоритет часто отдается государственно-частному партнерству, которое способствует обмену знаниями и объединению ресурсов, способствуя дальнейшему улучшению сотрудничества и инноваций. Чтобы проиллюстрировать влияние эффективной государственной политики на цифровую трансформацию, примечательным примером может служить случай Барселоны. Исследование показывает, как каталонская столица превратилась в ведущий цифровой хаб в Европе, в значительной степени руководствуясь стратегической государственной политикой, направленной на поддержку стартапов и устойчивый экономический рост [1].

Эта политика включает налоговые льготы для инвестиций в рисковый капитал, программы обучения предпринимательству и создание инновационных районов, которые обеспечивают физическое пространство для слияния и

процветания стартапов. В результате Барселона успешно привлекла множество технологических стартапов, способствуя созданию рабочих мест и укреплению своих позиций в глобальной цифровой экономике. Непрерывная эволюция государственной политики в ответ на технологические изменения была предметом академических исследований. Так, Zhu и соавт. [2] подчеркивают необходимость адаптивных структур управления, которые могут активно реагировать на быстрый ритм технологического прогресса. Эта адаптивность принципиальна, поскольку статичные политические картины рискуют устареть в условиях смены технологических ландшафтов. Политики все чаще осознают важность согласования своих стратегий с новыми тенденциями, такими как искусственный интеллект, Интернет вещей и технологии блокчейн, гарантируя, что их страны сохраняют конкурентоспособность в глобальной цифровой экономике.

В конечном счете, взаимодействие государственной политики и цифровой трансформации не только способствует росту цифровых экосистем, но и играет жизненно важную роль в продвижении культуры инноваций и сотрудничества. Стратегически реализуя политику, которая адаптируется к технологическому прогрессу, правительства могут поддерживать стартапы и обеспечивать устойчивый экономический рост в цифровую эпоху. Барселона выступает в качестве примера для понимания фактического согласования государственной политики с потребностями цифровой панорамы, иллюстрируя потенциальные выгоды, которые могут быть получены, когда правительства обязуются продвигать твердую повестку дня цифровой трансформации. Интеграция государственной политики в области цифровой трансформации стала координационным центром для понимания того, как развиваются инновационные экосистемы. В этом разделе мы углубляем примеры исследований и различные аналитические перспективы, которые проясняют значительное влияние этих политик на содействие созданию совместной и устойчивой среды роста.

Мультиагентные модели выступают в качестве качественного методологического подхода для иллюстрации динамики между государственной политикой и инновационной экосистемой. Yang и соавт. [3] показывают, как эти модели могут представлять взаимодействие между различными заинтересованными сторонами, включая государственные органы, технологические компании и образовательные учреждения, с цифровым ландшафтом. Исследования выявляют конкретные политические вмешательства, которые выступают в качестве катализаторов инноваций, такие как стимулы для исследований и разработок (НИОКР) и создание государственно-частных партнерств. Создавая благоприятную среду для сотрудничества заинтересованных сторон, меры политики могут значительно улучшить обмен знаниями и предпринимательскую деятельность, в конечном итоге поддерживая прочную инновационную экосистему. В контексте адаптации к быстрым тенденциям цифровой трансформации Asoian [4] исследует различные инструменты, которые экономическая политика может использовать, чтобы оставаться актуальной и эффективной. В исследовании подчеркивается необходимость постоянного развития политических картин, принятия гибкого подхода, учитывающего новые технологии и рыночные трансформации.

Предлагается ряд инструментов, в том числе цифровые налоговые льготы, механизмы финансирования стартапов и корректировки регулирования, чтобы помочь правительствам содействовать созданию среды, благоприятствующей технологическому прогрессу.

Nosova и соавт. [5] рассматривают новую парадигму экономической политики, обусловленную реалиями цифровой трансформации. В этом исследовании показано, как традиционная экономическая политика может потерять эффективность без изменений в ответ на быстро меняющиеся цифровые ландшафты. Авторы выступают за более комплексный подход к процессу принятия решений, при котором приоритет отдается многомерным обязательствам в различных секторах, основанным на анализе данных и вкладе заинтересованных сторон. Последствия этого движения парадигмы распространяются и на устойчивость, в которой политика не только стимулирует экономическое производство, но и подчеркивает экологические проблемы, что в конечном итоге требует гибридной модели, которая согласовывает экономические стимулы с экологической устойчивостью. Рассуждения о стратегиях цифровой трансформации в консолидированных организациях расширяются благодаря исследованию Soto Setzke и соавт. [6]. В нем представлены эмпирические результаты о том, как традиционные компании внедряют цифровые стратегии для повышения инновационности сервиса. Подчеркивая адаптивные навыки и систематические изменения в организационных картинах, исследование иллюстрирует трансформационные результаты интеграции цифровых решений в существующие модели обслуживания. Государственная политика играет решающую роль в этом переходе, обеспечивая нормативно-правовую среду и системы поддержки, необходимые организациям для эффективного внедрения инноваций в свои операционные процессы.

Наконец, совокупные результаты этих исследований приводят к глобальному пониманию роли в эволюции государственной политики в цифровой панораме, как обсуждают Ji и соавт. [3]. Этот исследовательский корпус отражает взаимосвязь политических интервенций и развития экосистемы, подчеркивая необходимость постоянного изучения того, как можно оптимально разработать государственную политику для развития инноваций и содействия устойчивому цифровому росту. Последствия для будущих исследований подчеркивают необходимость изучения политических последствий, в частности, в связи с новым технологическим прогрессом и глобальной конкурентной динамикой.

Литературы:

1. Font-Cot F, Lara-Navarra P, Serradell-Lopez E. Digital transformation policies to develop an effective startup ecosystem: The case of Barcelona. Transforming Government: People, Process and Policy. 2023;17(3):344-55. https://www.emerald.com/insight/content/doi/10.1108.

2. Zhu J, Baker JS, Song Z, Yue XG, Li W. Government regulatory policies for digital transformation in small and medium-sized manufacturing enterprises: an evolutionary game analysis. Humanities and Social Sciences Communications. 2023;10(1):1-8. https://www.nature.com4

3. Yang W, Liu J, Li L, Zhou Q, Ji L. How could policies facilitate digital transformation of innovation ecosystem: A multiagent model. Complexity. 2021;2021(1):8835067. https://onlinelibrary.wiley.com/doi/abs/10.1155/2021/8835067

4. Asoian E. Tools for the development and implementation of state economic policy in the conditions of digital transformation. Public Administration and Law Review. 2023;26(2):44-51. https://public.scnchub.com/palr/index.php/palr/article/view/187

5. Nosova S, Norkina A, Makar S, Fadeicheva G. Digital transformation as a new paradigm of economic policy. Procedia Computer Science. 2021;190:657-65. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1877050921013284

Soto Setzke D, Riasanow T, Böhm M, Krcmar H. Pathways to digital service innovation: The role of digital transformation strategies in established organizations. Information Systems Frontiers. 2023;25(3):1017-37. https://link.springer.com/article/10.1007/s10796-021-10112-0

QURILISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA BORASIDAGI DAVLAT SIYOSATI

Isakov Musoxon Yusupdjanovich
Namangan davlat texnika universiteti, i.f.n., dotsent

Dunyo mamlakatlarida amal qilayotgan jadal iqtisodiy munosabatlari rivojlanishining bugungi sharoitida qurilish sanoati tarmoqlari faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishni joriy etish orqali ishlab chiqarish sanoatida sezilarli samara olish mumkin.

Iqtisodiyoti jadal ishlayotgan davlatlar globallashuv jarayonini, jamiyatda innovatsion hamda raqamli texnologiyalarning o‘zgarish tendensiyalarini hisobga olgan holda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘lida tizimli harakatni boshladilar.

Raqamli iqtisodiyot va uning O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy jarayonlarni rivojlantirishdagi rolini o‘rganish dolzarb masala bo‘lib, raqamli iqtisodiyot dasturini tushunish, uni turli xorijiy davlatlar misolida ko‘rib chiqish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning oqilona usullarini o‘rganish qurilish sohasi uchun juda zarur hisoblanadi.

Qurilishdagi raqamli texnologiyalar mehnat unumdorligini oshirishi, qurilish maydonchasidagi xavfsizlikni yaxshilashi va ob'ektni loyihalashdan tortib to ekspluatatsiya qilishgacha bo‘lgan butun qurilish jarayonida har qanday mayda detallarning ko‘zda tutilishini ta'minlaydi.

Qurilish sanoatida raqamlashtirish natijasida ish joylarini qisqartirish, inson omilining boshqaruvga ta'sirini minimallashtirish va raqamli ma'lumotlarga asoslangan qarorlarni qabul qilish bilan bog‘liq tashvishlar raqamlashtirish bilan bog‘liq. Ushbu fikrlar ma'lum darajada oqlanadi, chunki kognitiv xatolar insonga xosdir va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish yanada oqilona va biznes uchun samaraliroq xisoblanadi. Biroq, raqamlashtirish odatdagi operatsiyalarni qisqartirishga imkon beradi, ijodiy yechimlar uchun yetarli darajada vaqt ajratadi.

Qurilish sanoatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda turli raqamli texnologiyalarni avtomatlashtirish va raqamlashtirish, ularni amalga oshirish "mehnat unumdorligi va bandlikni qo‘llab-quvvatlash"milliy loyihasining maqsadi, ko‘rsatkichlari va natijalariga erishishga imkon beradi.

Raqamli qurilish - bu qurilish loyihasining turli bosqichlarini turli raqamli vositalar va ilovalar yordamida takomillashtirish jarayoni**.** Eng umumiy va mavhum ma’noda raqamli qurilishning maqsadi - loyiha jarayonining barcha bosqichlarida hamkorlikni kuchaytirish, ish samaradorligini oshirish, xavfsizlikni ta’minlash, umumiy ish muhitini yaxshilashdir.

Qurilish tarmog‘ini raqamlashtirish, transport, qurilish, uy-joy kommunal xo‘jaligi va boshqa sohalarni raqamli transformatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarni qurilish sohasida joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Asosiy maqsad - qurilish jarayonlarini optimallashtirish, sifatni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni minimallashtirishdir.

Qurilishda raqamli usullar va texnologiyalarni joriy etish sur’atlariga davlat siyosati va soha tartibga solinishi katta darajada ta’sir qiladi. Vaqt o‘tishi bilan qurilish jarayoni tobora raqamlashtirilmoqda, va bugungi kunda dunyo bo‘ylab ko‘plab davlat idoralari qurilishning turli jihatlari uchun standartlashtirishning kompleks huquqiy asoslarini ishlab chiqmoqda. Raqamli qurilishni rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatining asosiy maqsadi hisobdorlik tizimini yaratish, qurilishda aniq talab va kutilyotgan natijalarni belgilash, hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonini izchil boshqarish va yo‘naltirishdan iborat

Davlatning bu boradagi vazifalarini bajarish uchun normativ-huquqiy bazani shakllantiradi, raqamli texnologiyalarni standartlashtiradi**,** AKT infratuzilmasini rivojlantiradi**,** xususiy sektorni rag‘batlantiradi**,** kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini qo‘llab-quvvatlaydi**.**

O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarni qurilish sohasida joriy etish bo‘yicha asosiy normativ-huquqiy hujjat bo‘lib “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hisoblanadi [1]. Bu hujjatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, shu jumladan, qurilish sohasini raqamlashtirish asosiy yo‘nalish sifatida belgilanadi. Qurilishda BIM texnologiyasi, geoinformatsion tizimlar, sun’iy intellekt, IoT kabi raqamli yechimlarni joriy qilish ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 – 2025 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoniga [2] ko‘ra qurilish tarmog‘ini yanada takomillashtirish, arxitektura hamda qurilish organlari va muassasalarini izchil rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirish, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini ta’minlash, sohaga raqamli texnologiyalarni ilg‘or joriy etish maqsadida quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilandi:

hududlarni shaharsozlik jihatidan rivojlantirish va ushbu jarayonda jamoatchilikning samarali ishtirokini ta’minlash;

shaharsozlik faoliyatining sifati va xavfsizligini oshirish;

shaharsozlik faoliyati sohasidagi ma’muriy tartib-taomillarning samaradorligi, ratsionalligi va shaffofligini ta’minlash, shuningdek, qurilish tarmog‘i tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirish;

shaharsozlik faoliyatini raqamlashtirish, tarmoqqa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

shaharsozlik faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish.

Shaharsozlik faoliyatini raqamlashtirish ko‘plab yo‘nalishlar bo‘yicha dolzarbdir. Qurilish bozorining muvaffaqiyatli ishtirokchilari deyarli barcha biznes-jarayonlarni (kadrlarni tanlab olishdan tortib shartnomalarning bajarilishini nazorat qilishgacha)

qamrab oluvchi raqamli axborot texnologiyalarini o‘z faoliyatiga faol joriy etmoqda. To‘ldirilgan reallik texnologiyalari, ashyolar interneti, 3D-printing, generativ dizayn, mashina ta’limi, bino va inshootlarni uch o‘lchamli taqdim etishga asoslangan texnologiyalar hamda insonlarga qaror qabul qilishni osonlashtiruvchi boshqa ko‘plab texnologiyalar tobora ommalashib bormoqda. Shu nuqta’i nazardan mazkur farmon bilan tasdiqlahgan strategiyaning 4-paragrafi shaharsozlik faoliyatini raqamlashtirish, tarmoqqa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni tartibga soladi.

Unga ko‘ra davlatning shaharsozlik faoliyatini raqamlashtirish sohasidagi asosiy e’tibori quyidagi yo‘nalishlarga qaratilgan:

shaharsozlik tartib-taomillarini raqamli formatda (elektron shakl va ko‘rinishda) amalga oshirish;

shaharsozlik faoliyati hujjatlarining elektron shaklda saqlanishini ta’minlash;

shaharsozlik faoliyati jarayonlari haqida avtomatik tarzda to‘planadigan statistik axborotni yig‘ish va tahlil qilish;

qurilish obyektlari hayotiy davrining barcha bosqichlarida ularni axborot modellashtirish texnologiyasini joriy etish.

Yuqoridagi vazifalar munosabati bilan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1) qurilish obyektlarini to‘laqonli monitoring qilish, qurilish ishlari sifatini kompleks ravishda nazorat qilish, loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish, qurilish sohasidagi xarid tartib-taomillarining shaffofligi va samaradorligi, qurilish-pudrat va loyiha tashkilotlarining reyting tizimini rivojlantirishni ta’minlovchi “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimining joriy etilgan elektron platformalari respublikaning barcha mintaqalarida ishlash qamroviga erishish;

2) “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimining elektron platformalari va “O‘zbekiston Respublikasi Davlat shaharsozlik kadastri” geografik axborot tizimini (Geoportal) idoralararo axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalari bilan integratsiya qilish;

3) Geoportal ma’lumotlar bazalariga ishlab chiqilgan va tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlarining (hududlarning bosh rejalari va hududni arxitektura-rejalashtirish yuzasidan tashkillashtirish) to‘liq kiritilishini ta’minlash;

4) jamoatchilik va investorlarning qurilish sohasidagi normativ hujjatlardan ochiq foydalanishini ta’minlash uchun Texnik tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar ilmiy-texnik kutubxonasi negizida “Qurilish sohasidagi normativ hujjatlar” ommaviy elektron ma’lumotlar bazasini yaratish;

5) fuqarolarga qurilayotgan obyektlar to‘g‘risida mustaqil ravishda axborot olish, noqonuniy qurilishlarni aniqlash, qurilish obyektlarida aniqlangan qoidabuzarliklarni qayd etish (foto va videomateriallar ko‘rinishida) va ularni qurilish sohasidagi nazorat bo‘yicha vakolatli organlarga yuborish imkonini beruvchi “Ogoh fuqaro” tizimini yaratish;

6) internet-resurslarga keng polosali kirishni to‘liq qamrab olish, zamonaviy IT-texnologiyalar bilan ta’minlash, zamonaviy server va kompyuter asbob-uskunalari va nusxa ko‘chiruvchi texnika bilan jihozlash yo‘li bilan Qurilish vazirligining hududiy bo‘linmalari va tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

7) shaharsozlik faoliyati subyektlari va aholida “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi elektron platformalari va Geoportaldan foydalanish ko‘nikmalari va bilimlarini rivojlantirish maqsadida ularni ushbu dasturiy mahsulotlardan foydalanishga o‘qitish;

8) “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi elektron platformalari va Geoportal funksionalining ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta’minlash;

9) “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimining kichik tizimlari va elektron ma’lumotlar bazalari funksionalini bosqichma-bosqich kengaytirish, shuningdek, davlat shaharsozlik kadastri obyektlarining mavjud sonini aniqlashtirib borgan holda Geoportalni tizimli modernizatsiya qilish va yangilash, zarur bo‘lganda qo‘shimcha kichik tizimlar va elektron ma’lumotlar bazalarini kiritish;

10) qurilishi tugallangan obyektlarning ijro tasvirlarini ma’lumotlar bazasiga kiritgan holda muhandislik-texnik qidiruvlar elektron geofondini yaratish va yuritish;

11) qurilish sohasida ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirishni davom ettirish;

12) joriy etilayotgan axborot tizimlari va elektron ma’lumotlar bazalarining axborot xavfsizligini ta’minlash.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli o‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.// https://lex.uz/ru/docs/-5030957

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O’zbekiston - 2030” strategiyasi to’g‘risida” Farmoni // www.lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi “2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son Qarori//www.lex.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-noyabrdagi “Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5577-sonli Farmoni//www.lex.uz

5. Musaxon Isakov. O‘zbekiston sanoatini rivojlantirishning iqtisodiy asoslari. Monografiya. - T.: Namangan muxandislik-qurilish instituti, 2023 y., 194 bet.

6. *https://www.gazeta.uz/oz/2024/07/26/storage/*

SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SIYOSATINING O‘RNI VA TA’SIRI

Kodirov Aqliddin Xakim o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Jahonda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi davlat boshqaruvi, moliyaviy tizim va soliq ma’muriyatchiligida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bugungi kunda har bir mamlakat raqamli iqtisodiyotga o‘tish orqali davlat xizmatlarini soddalashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish va inson omilini kamaytirish yo‘lidan bormoqda.

O‘zbekistonda ham bu borada hukumatimiz tomonidan izchil siyosat olib borilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbari tomonidan 2020-yilda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakatni raqamli iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o‘tkazish, davlat organlari faoliyatini raqamli muhitga moslashtirish hamda aholiga va

tadbirkorlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan. Mazkur strategiyada davlat moliyasi, xususan, soliq tizimini raqamlashtirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Chunki raqamli transformatsiya — bu nafaqat texnologik yangilanish, balki boshqaruv madaniyatini, tahlil metodologiyasini va nazorat mexanizmlarini tubdan o‘zgartiruvchi jarayondir. [1]

Davlat moliyasining asosiy manbai bo‘lgan soliqlarni to‘plash, nazorat qilish va tahlil qilish jarayonlarining samaradorligi mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va budjet barqarorligini ta’minlaydi. Shu sababli, soliq nazoratini tashkil etishda raqamli transformatsiya siyosatining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Raqamli nazorat tizimi soliq to‘lovchilar faoliyatini ochiq-oydin, prognoz qilinadigan va tahliliy jihatdan boshqariladigan holatga olib chiqadi.

Hozirgi paytda soliq organlari tomonidan o‘tkaziladigan tekshiruvlar, audit va monitoring jarayonlarida ma’lumotlarni avtomatik qayta ishlash, elektron hujjatlar aylanishi, onlayn kuzatuv tizimlari hamda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish tobora kengaymoqda. Bu esa soliq nazoratining sifat ko‘rsatkichlarini tubdan o‘zgartirib, uni an’anaviy (qog‘ozbozlikka asoslangan) nazoratdan raqamli boshqaruv tizimiga aylantirmoqda.

Raqamli transformatsiyaning soliq nazoratidagi ahamiyati quyidagi asosiy jihatlarda namoyon bo‘ladi:

- birinchidan, soliq organlari tomonidan tekshiruvlarni rejalashtirishda risklarni avtomatlashtirish imkonini beradi;

- ikkinchidan, tekshiruv natijalari bo‘yicha ma’lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyatini yaratadi;

- uchinchidan, soliq to‘lovchilar bilan elektron muloqotni kuchaytirib, inson omilini keskin kamaytiradi;

- to‘rtinchidan, budjet tushumlarini prognozlashda raqamli tahlil vositalaridan foydalanish imkonini beradi.

Raqamli transformatsiya siyosati natijasida soliq nazorati tizimi endi nafaqat aniqlash va jazolashga, balki oldini olish va profilaktika qilishga yo‘naltirilgan tizimga aylanmoqda. Chunki real vaqt rejimidagi ma’lumotlar tahlili soliq to‘lovchilar faoliyatidagi og‘ishlarni erta aniqlash, ularni ogohlantirish hamda ixtiyoriy to‘lovni rag‘batlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, soliq nazoratining raqamlashtirilishi soliq organlari va to‘lovchilar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi, korrupsiya xavfini kamaytiradi va davlat xizmatlari sifatini oshiradi.

Soliq to‘lovchilarda soliq nazorati tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish samaradorligi yuzasidan qator iqtisodchi olimlar tomonidan o‘zlarining ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Jumladan, xorijiy iqtisodchi olim O. Petzold “Soliq ma’muriyatchiligining raqamli transformatsiyasi — bu faqat texnologiyalarni joriy etish emas, balki soliq ma’muriyati xizmatlarini “seamless” (uzluksiz) va proaktiv qilishdir. Ular riskga asoslangan avtomatlashtirilgan tekshiruvlar, raqamli identifikatsiya va ma’lumotlar ulanishi orqali soliq nazoratini ancha samarali qiladi” – deb ta’kidlaydi. [2]

R. Junquera-Varela o‘zining tadqiqot ishida “Raqamli transformatsiya qarorlar qabul qilishni va resurs taqsimotini optimallashtirishga xizmat qilishi, shu jumladan tekshiruvlarni rejalashtirish va auditorlarni effektiv ishlatish imkonini beradi. U mamlakatlarga “digital-by-default” modeliga o‘tishni va DIAMOND kabi diagnostika/yo‘l xaritasi vositalarini qo‘llashni” tavsiya qiladi. [3]

Fiona Stewartning fikricha, “Soliq nazoratining raqamli transformatsiyasi uchta asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

- real vaqt rejimidagi ma’lumot almashuvi (real-time data exchange) orqali yashirin aylanmalarni aniqlash;
- sun’iy intellekt (AI) yordamida soliq to‘lovchilarni risk toifalariga ajratish;
- ma’lumot tahlili (big data analytics) asosida tekshiruvlarni maqsadli rejalashtirish.

Ushbu raqamli yondashuvlar soliq organlarining nazorat imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi, biroq bu tizimlar muvaffaqiyatli ishlashi uchun “data integrity” ya’ni ma’lumotlarning ishonchliligi va yangiligi ta’minlanishi zarur.

Shuningdek, Stewart soliq ma’muriyatlarida “digital compliance ecosystem”ni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanishi kerak”[4]

Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, raqamli soliq boshqaruvi soliq intizomini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, OECD (2021) ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli transformatsiyani chuqur joriy etgan mamlakatlarda soliq to‘lovchilarning ixtiyoriy to‘lov ko‘rsatkichi 90 foizdan yuqoriga yetgan. McKinsey Global Institute (2020) tahliliga ko‘ra esa, raqamli texnologiyalarni soliq boshqaruviga tatbiq etish orqali davlat budjeti daromadlarini 20–30 foizgacha oshirish mumkin. [5]

O‘zbekiston misolida, so‘nggi yillarda soliq tizimi faoliyatida ONKM, virtual kassa, elektron hisobvaraq-faktura va elektron yuk xati kabi tizimlarining joriy etilishi natijasida ilgari hisobga olinmagan savdo aylanmasi legallashdi. Bu, ayniqsa, chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarida soliq tushumlarining barqaror o‘sishini ta’minladi.

Shuningdek, “Tahlika-tahlil” tizimining rivojlanishi soliq tekshiruvlarini aniqlik darajasini sezilarli oshirdi. Endilikda soliq tekshiruvlarida aniqlangan qoidabuzarliklar ulushi yuqori foizni tashkil etmoqda, bu esa ortiqcha tekshiruvlarni qisqartirish va biznes subyektlariga bosimni kamaytirish imkonini beradi. [6]

Shunga qaramay, amaldagi tizimda ayrim kamchiliklar ham saqlanib qolmoqda. Masalan, xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tovar-moddiy boyliklarni vaqtincha saqlashga berishda tuzilgan shartnomalarni “E-ijara” tizimida soliq organida ro‘yxatga qo‘yish majburiy emasligi soliq tekshiruvlari o‘tkazilayotgan paytda soliqlarni hisoblashda muammolar keltirib chiqarmoqda. [7] Shuningdek, soliq tekshiruvi davrida ayrim tashqi manbalar raqamlashtirilmaganligi sababli, ushbu ma’lumotlarni olish vaqt talab qilmoqda bu esa tekshirish muddatiga va sifatiga salbiy ta’sir etmoqda. Ayrim jarayonlarda inson omili hanuzgacha mavjud bo‘lib, bu nazorat natijalarining obyektivligiga ta’sir qilmoqda. Shu sababli, raqamli transformatsiya siyosatini yanada chuqurlashtirish, barcha soliq nazorati bosqichlarini yagona raqamli ekotizimga birlashtirish zarur.

Umuman olganda, soliq nazoratini tashkil etishda raqamli transformatsiya siyosati davlat fiskal siyosatining samaradorligini tubdan oshirish, soliq to‘lovchilarning ishonchini kuchaytirish va raqamli iqtisodiyot tamoyillariga mos zamonaviy boshqaruv tizimini shakllantirish uchun muhim shartdir. Shu sababli, ushbu mavzu dolzarb bo‘lib, milliy soliq tizimini raqamli rivojlanish tendensiyalariga moslashtirish jarayonida nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son ““Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. OECD (2020). Tax Administration 3.0: The Digital Transformation of Tax Administration. OECD Publishing, Paris. DOI: https://doi.org/10.1787/daf98719-en

3. Junquera-Varela, R. F., Verhoeven, M., Shukla, G. P., Haven, B., & Moreno-Dodson, B. (2017). Digital Transformation of Tax and Customs Administrations. Washington, DC: World Bank Group.

4. Stewart, F. (2022). Digitalization and the Future of Tax Compliance and Enforcement. International Monetary Fund (IMF Working Paper Series).

5. OECD. (2021). Tax Administration 2021: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies. Paris: OECD Publishing. DOI: https://doi.org/10.1787/4e3c3d54-en.

6. https://www.gov.uz/oz/soliq - Soliq qo‘mitasi rasmiy veb-sayti.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-sentabrdagi 595-son “Soliq to‘lovchilarni hisobga olishni yanada takomillashtirish va qo‘shilgan qiymat solig‘ining o‘rnini qoplash tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori.

THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND AUTOMATION ON ORGANIZATIONAL CULTURE: THE EXPERIENCE OF UZBEK COMPANIES

Ummataliyev Umarali Jasurbek o‘g‘li
Tashkent State University of Economics Faculty of management

The growing integration of artificial intelligence (AI) and automation within Uzbek companies is transforming not only operations but also the deeper fabric of organizational culture. These technologies enhance productivity, improve decision-making, and streamline communication, yet their influence extends to how employees perceive their roles, interact with one another, and adapt to change. As organizations embrace AI-driven systems, traditional hierarchies begin to shift toward more data-oriented and collaborative structures, requiring new leadership approaches and mindsets.

However, the process is not without challenges. Employees may experience uncertainty about job security, changes in responsibility, or the need to acquire new digital skills. Therefore, effective change management that grounded in transparency, trust, and continuous learning becomes essential. According to McKinsey & Company (2024), organizations that combine technological adoption with strong cultural transformation initiatives are twice as likely to achieve sustainable performance improvements. This suggests that successful AI integration depends as much on nurturing human capabilities and values as it does on technical investment.

Ultimately, for Uzbekistan’s business landscape, the balance between innovation and human-centered culture will determine long-term success. When implemented thoughtfully, AI and automation can empower employees, promote ethical decision-making, and cultivate a culture of collaboration and adaptability — ensuring that technological progress leads not only to efficiency but also to a stronger, more resilient organizational identity.

Uzbekistan’s government has actively promoted the development of a digital economy through national strategies such as the *“Digital Uzbekistan 2030”* program and the 2025 Presidential Decree (PP-193) supporting the adoption of information systems,

including ERP and CRM platforms. These initiatives aim to stimulate innovation, increase transparency, and improve efficiency across public and private sectors (UNDP, 2025). Despite such efforts, the overall digital maturity of many local companies remains uneven. According to the Organization for Economic Co-operation and Development (OECD, 2023), while large firms and foreign enterprises operating in Uzbekistan report relatively high adoption rates of digital tools, small and medium-sized enterprises (SMEs) still face challenges such as limited financial resources, a lack of digital skills, and resistance to organizational change.

BITO ERP represents one of Uzbekistan's most successful homegrown ERP solutions. The company provides a comprehensive suite of automation tools — including accounting, human resources, sales management, and CRM modules — tailored to the needs of local businesses. BITO ERP has already automated operations for more than *1,000 businesses* across the country. By integrating data flows across departments, companies using BITO ERP report improved coordination, faster decision-making, and higher transparency.

This example illustrates a critical trend in Uzbekistan's digitalization: the rise of *localized technology vendors* that make automation more accessible and affordable for SMEs. Such systems have begun to shift organizational culture from manual, paper-based workflows to more data-driven, accountable, and efficient structures.

The financial sector in Uzbekistan has been an early adopter of AI-driven customer service systems. *TBC Uzbekistan*, in partnership with Payme, has implemented AI-based automation for tasks such as loan processing, customer inquiries, and transaction analysis. These tools allow the bank to provide faster, more personalized service and detect fraudulent activities in real-time. The introduction of AI has changed the organizational culture within the bank — fostering innovation, agility, and data-based decision-making among employees.

Uzbek companies such as *BITO ERP*, *iCAN Group*, *Artel Group*, *UzAuto Motors*, *and TBC Uzbekistan* demonstrate that digital transformation is both achievable and beneficial when it aligns with clear strategic objectives. The adoption of AI and automation has enhanced *operational efficiency*, improved *data-driven decision-making*, and fostered *greater transparency* within these organizations. Moreover, automation has reduced manual tasks, streamlined workflows, and promoted collaboration across departments.

However, the cultural implications of such technological shifts are profound. As businesses transition toward digital ecosystems, they must also address human factors such as employee adaptability, digital literacy, and organizational resistance to change. Technology alone cannot ensure success — it must coexist with a culture that values learning, innovation, and inclusivity. The study therefore emphasizes the importance of *balancing technological advancement with human-centered organizational values* to ensure *sustainable growth and employee engagement* in the digital era.

In the context of Uzbekistan, this balance is especially crucial. The country's rapid progress in digitalization, supported by initiatives like *Digital Uzbekistan 2030* and the 2025 Presidential Decree (PP-193), indicates a strong governmental commitment to technological modernization. Yet, the success of these initiatives depends on how effectively organizations integrate technology into their corporate culture and empower their workforce to adapt to digital change. The ultimate lesson drawn from this study is that *technology should not replace human capability but rather amplify it*, guiding organizations toward innovation, resilience, and ethical growth.

Literature:

1.McKinsey & Company. (2024). *The state of AI in 2024: Generative AI's breakout year.* https://www.mckinsey.com

2.Organization for Economic Co-operation and Development (OECD). (2023). *SME Digitalization in Central Asia: Challenges and Policy Recommendations.* OECD Eurasia Division. https://www.oecd.org/eurasia

3.United Nations Development Programme (UNDP) Uzbekistan. (2025). *Digital Uzbekistan 2030: Advancing inclusive and sustainable digital transformation.* UNDP Uzbekistan. https://www.uz.undp.org

4.Ministry for Development of Information Technologies and Communications of the Republic of Uzbekistan (MITC). (2024). *Progress Report on the Implementation of Digital Uzbekistan 2030.* https://mitc.uz

5.BITO ERP. (2024). *Company Overview and Case Studies.* BITO ERP Official Website. Retrieved from https://bito.uz

6.TBC Bank Uzbekistan. (2024). *Annual Report 2024.* TBC Uzbekistan. Retrieved from https://tbcbank.uz

ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ В ЭЛЕКТРОННУЮ КОММЕРЦИЮ В ЦЕЛЯХ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ПРЕДОСТАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Махамаджанов Мухаммадали Музаффарович,
ассистент кафедры "Экономики и финансов"
Андижанский филиал Кокандского Университета

Ни для кого не секрет, что онлайн-заказы и доставки стали обыденностью, и с появлением множества игроков конкуренция все повышается, а качество электронной коммерции улучшается. В эпоху глобальной цифровизации, компании сталкиваются с вызовами адаптировать свой бизнес и внедрять инновации, в том числе в сферу продаж. Электронная коммерция (e-commerce) набрала быстрый ход в бизнес практике Узбекистана, и ее доля в общем объеме торговли с каждым днем расширяется. Электронная коммерция является одним из ключевых направлений трансформации бизнеса: она расширяет доступ к различным рынкам, повышает операционную эффективность, что непременно отражается на снижении издержек и облегчает интеграцию финансовых сервисов.

Электронная коммерция обычно осуществляется на различных площадках-маркетплейсах: платформах, сайтах, приложениях и особенно, в социальных сетях. Инновациями в данном случае выступают автоматизация ряда процессов для ускорения и упрощения процесса торговли, использования искусственного интеллекта для маркетинговых целей и как результат, выявления потребительских предпочтений, внедрение средств голосового поиска или ассистента, систем виртуальной и дополнительной реальности, с помощью которых можно создавать интерактивные и привлекательные виртуальные магазины или демонстрации товаров, повышение защиты данных как потребителей так и бизнеса [1]. В целях повышения конкурентоспособности и эффективности электронной коммерции рекомендуется внедрять следующие технологии:

I. Open banking (платформы для взаимодействий организаций, предоставленных банками)

II. AI и машинное обучение (для рекомендаций и прогнозов)

III. Big data analysis (анализ больших объемов информации)

IV. Финтех инновации (кошельки, QR-оплаты)

Согласно данным Национального агентства перспективных проектов, количество маркетплейсов В Узбекистане достигает более 50. Их годовой оборот составляет $300 млн, а к 2027 году ожидается его рост до $1 млрд. В общем объеме торговли по всей стране доля электронной коммерции составляет около 4%. Если брать текущие темпы развития и потенциала рынка, агентство ожидает рост этого показателя до 10–15% в ближайшие 5 лет. [2] Среди ключевых платформ, ведущих свою деятельность в стране можно отметить Uzum Market, Yandex, Wildberries, Zoodmall, Sello. Рейтинг оценки деятельности торговых платформ в стране выглядит следующим образом:

Для развития электронной коммерции необходима большая и развитая инфраструктура для хранения, доставки и выдачи товаров и услуг.

Появление новых форматов торговли открывает для потребителей в стране не только быстрый доступ к покупкам, но и к значительно более широкому ассортименту товаров. Традиционный ритейл, как например, базары или супермаркеты страны ограничены в разнообразии. В то же время международные платформы, такие как Amazon, Alibaba, Wildberries, Yandex предоставляют доступ к десяткам миллионов товаров, что значительно превосходит возможности местного рынка.

1-таблица

Рейтинг онлайн торговых платформ

Наименование площадки	Рейтинг	Набранные баллы
Uzum Market	**# 1**	**40**
Wildberries	**# 2**	**37**
Zoodmall	**# 3**	**32**
Sello!	**# 4**	**26**
Asaxiy.uz	**# 5**	**19**

Ожидается, что к 2027 г. объём рынка e-commerce в Республике Узбекистан заметно вырастет (по различным оценкам — до $1 млрд и выше), при этом роль финтех-сервисов (BNPL, цифровые карты, e-wallets) и других банковских продуктов будет усиливаться. Для развития бизнеса инновации в данном направлении просто жизненно важны, ведь они:

1. Повышают выручку вследствие роста скорости и объема продаж

2. Оптимизируют расходы путем облегчения управления средствами и контроля над осуществляемыми торговыми операциями (платформы наподобие moysklad.uz или BILLZ)

3. Открывают большие возможности для маркетинговых исследований и адаптации к предпочтениям потребителей [3]

Для любых компаний, вовлеченных в электронную коммерцию следует устанавливать стратегические партнёрства с финтех-провайдерами и логистическими операторами; запускать пилотные проекты (MVP) и поэтапно их масштабировать (например, в сотрудничестве с IT Park); вложиться в обучение персонала и цифровую культуру; непрерывно повышать меры по защите данных; активно взаимодействовать с регуляторами для формирования понятной нормативной среды. В нашей стране основным нормативно правовым документом регулирования электронной коммерции является Закон Республики Узбекистан “Об электронной коммерции” (№ ЗРУ-792, от 29.09.2022).

Внедрение инноваций в электронной коммерции представляет собой ключевой путь совершенствования бизнеса в Узбекистане. Комбинация технологий, адаптированных под локальные условия, и взаимодействие бизнеса с регуляторами и технологическими партнёрами создадут условия для устойчивого роста рынка и для появления новых технологических лидеров. При наличии грамотной стратегии и поэтапного подхода электронная коммерция станет стимулом экономического развития и повышением доступности товаров и услуг для населения.

Литературы:

1. Джеффри М. Маркетинг основанный на данных, Изд.: Манн, Иванов и Фербер, 2013 г., 220 стр.

2. https://napp.uz/ Сайт Национального агентства перспективных проектов Республики Узбекистан

3. Overview of e-commerce market in Uzbekistan (KPMG report), 2023.

4. Закон Республики Узбекистан “Об электронной коммерции” (ЗРУ №-792, от 29.09.2022.

5. https://kun.uz — Uzbekistan's e-commerce market expected to surge to $1 billion by 2027

DAVLAT SIYOSATIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI VA RAQAMLI EKOTIZIMNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Abdullayev Abbosjon Xasanboy o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti AT va T kafedrasi assistenti
Bahromova Ruhshonaxon Burxonjon qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti
Axborot tizimlari va telekommunikatsiyalari fakulteti
“71-23” Axborot tizimlari va texnologiyalari yo‘nalish talabasi

Raqamli transformatsiya bugungi kunda har bir mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy rivojlanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, ma’lumotlar tahlili va avtomatlashtirilgan tizimlar asosida jamiyat hayotini yangi bosqichga olib chiqadi. Davlat siyosatida raqamli transformatsiya konsepsiyasi fuqarolarga qulay, tezkor va shaffof xizmatlarni taqdim etish, ma’muriy jarayonlarni soddalashtirish hamda resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashga qaratilgan. Shu maqsadda hukumat tomonidan turli strategiyalar, dasturlar va milliy loyihalar ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida raqamli transformatsiya yo‘nalishida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur dastur doirasida davlat xizmatlarini to‘liq raqamlashtirish, “raqamli hukumat” tizimini rivojlantirish va aholining raqamli savodxonligini oshirish ustuvor yo‘nalish sifatida

belgilangan.Raqamli ekotizimni shakllantirish bu jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Ekotizim deganda, raqamli infratuzilma, axborot resurslari, dasturiy mahsulotlar, kadrlar salohiyati va innovatsion yechimlarning uyg‘un holda ishlashi tushuniladi. Bunday ekotizim davlat, biznes va jamiyat o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni kuchaytiradi, yangi xizmatlar va mahsulotlar yaratilishiga zamin hozirlaydi. Masalan, “Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali” (my.gov.uz) orqali fuqarolar bir nechta xizmatlarni onlayn tarzda amalga oshirishi mumkin, bu esa vaqt va mablag‘ni tejash imkonini beradi.

Raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun kadrlar salohiyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalarni boshqarish va ulardan samarali foydalanish uchun malakali mutaxassislar zarur. Shu sababli, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida axborot texnologiyalari, raqamli iqtisodiyot va dasturlash yo‘nalishlariga e’tibor kuchaytirilmoqda. “One Million Uzbek Coders” loyihasi, IT Park va turli inkubatsiya markazlari bu yo‘nalishda muhim o‘rin tutadi.Optik tolali internet tarmoqlari, mobil aloqa tizimlari, ma’lumotlar markazlari (data centers) va “bulutli texnologiyalar” (cloud services) orqali raqamli xizmatlarning sifati va barqarorligi ta’minlanadi. Hozirgi kunda mamlakatda 5G texnologiyasini joriy etish, davlat va xususiy sektor o‘rtasida axborot almashinuvini avtomatlashtirish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham raqamli transformatsiya yo‘nalishida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi asosida davlat xizmatlarini raqamlashtirish, iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish va raqamli infratuzilmani kengaytirish bo‘yicha muhim chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu siyosatning asosiy maqsadi davlat boshqaruvi tizimida shaffoflikni ta’minlash, korrupsiya xavfini kamaytirish va aholining hayot sifatini oshirishdir. Shu tariqa, raqamli transformatsiya mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishi va ijtimoiy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi eng muhim omillardan biriga aylanmoqda.

These initiatives not only simplify business operations but also contribute to building a more inclusive and innovation-driven economy.Despite the vast opportunities, the process of digital transformation is not without challenges. One of the major constraints is the insufficient level of digital literacy among small business owners. Many entrepreneurs lack the technical knowledge required to effectively operate digital tools, manage cybersecurity risks, and analyze digital market data. This technological gap limits the ability of small enterprises to fully leverage digital innovations. Additionally, unequal access to high-speed internet, particularly in rural or underdeveloped regions, prevents many businesses from integrating digital systems into their operations. Cybersecurity threats — including data breaches, online fraud, and digital identity theft — also pose significant risks, especially for enterprises with limited financial and technological resources.

Another major challenge is the need for regulatory adaptation. In many economies, legal frameworks have not yet fully evolved to accommodate digital business models. Unclear regulations regarding online taxation, cross-border digital trade, digital intellectual property, and consumer data protection can create uncertainty and limit the expansion of digital entrepreneurship. For digital transformation to be successful, governments must ensure the implementation of modern digital governance systems, support the development of secure digital infrastructure, and promote digital education programs aimed specifically at small business owners. International collaboration and knowledge exchange also play an essential role, allowing emerging economies to accelerate digital development through strategic partnerships and technology transfer.Nevertheless, the future of small business development is undoubtedly tied to digital transformation. To fully utilize this potential, several strategic recommendations can be proposed. First, it is necessary to enhance digital competencies through specialized training programs, business incubators, and university-industry partnerships that provide practical digital skills. Second, financial and legal support mechanisms should be expanded to encourage the adoption of digital technologies, including tax incentives, innovation grants, low-interest digital transformation loans, and simplified access to online export platforms.

Third, small businesses should actively implement digital marketing, AI-based customer analytics, Omni channel sales models, and robust cybersecurity frameworks to ensure resilience, competitiveness, and customer trust in the global digital marketplace.In conclusion, digital transformation presents unprecedented opportunities for the development of small business activities by enabling operational efficiency, facilitating access to global markets, enhancing financial inclusion, and promoting innovation-driven growth.

The integration of artificial intelligence, e-commerce platforms, digital payments, and cloud technologies makes it possible for small enterprises to compete on a global scale with minimal resources. However, to fully benefit from these opportunities, it is

essential to address challenges related to digital competences, infrastructure readiness, regulatory modernization, and cybersecurity. With strong government support, strategic investments in digital education, and proactive adoption of advanced digital tools, small businesses can become powerful engines of sustainable economic development and national competitiveness in the digital era.

Literature:


1. *Schwab, K. (2017). The Fourth Industrial Revolution p7-12; p50-58*
2. *OECD (2020). Digital transformation and the SME finance gap p9-14*
3. *World Bank (2022). SME Finance Report p3-5*
4. *UNCTAD (2021). Digital Economy Report p22-28*

MILLIY IQTISODIYOTNI INNOVATSION SHAROITIGA O‘TISH DAVRIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA ZAMONAVIY MEHNAT BOZORI

Abdunazarov Elyor Erkin o‘g‘li
Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot tarmoqlar va sohalar bo‘yicha 3-kurs talabasi

O‘zbekiston iqtisodiyotini innovatsion sharoitiga o‘tish davrida raqamli transformatsiya va zamonaviy mehnat bozori shakllanishi mobaynida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali zamonaviy kasblarni rivojlantirishga qaratilgan qaratilgan islohotlarini o‘rganib chiqamiz O‘zbekiston, ulkan salohiyatga ega mamlakat uchun raqamli transformatsiyani qabul qilish shunchaki imkoniyat emas; bu zaruratdir. Shunday ekan ranqamli transformatsiyani jadallashtirish orqali mehnat bozorida yangidan yangi ish o‘rinlarini yaratish mumkin. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida qayd etilganidek, O‘zbekiston raqamli transformatsiyaning ulkan yo‘liga o‘tdi. Ushbu keng qamrovli yo‘l xaritasi raqamli texnologiyalarni davlat xizmatlaridan tortib, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarigacha hayotning barcha jabhalariga integratsiyalashga qaratilgan. Strategiya mustahkam raqamli infratuzilmani rivojlantirish, fuqarolarning raqamli savodxonligini oshirish, raqamli iqtisodiyotda innovatsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Raqamli transformatsiyaning yana bir muhim omili inson kapitalini rivojlantirishdir. O‘zbekiston raqamli tashabbuslarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun malakali va raqamli savodxonlikka ega ishchi kuchi muhim ekanligini tan oladi. Hukumat fuqarolarni zarur raqamli ko‘nikmalar bilan jihozlash uchun ta'lim va o‘qitish dasturlariga sarmoya kiritdi. Masalan, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan universitet va kollejlarda raqamli texnologiyalar va tadbirkorlikka yo‘naltirilgan yangi o‘quv dasturlari joriy etildi. Joriy yilning 25-sentyabr kuni ICTWeek Uzbekistan 2025 haftaligi doirasida “ Raqamlashtirish — transformatsiya drayveri: g‘oyalardan aqlli yechimlarga” forumi bo‘lib o‘tdi. Tadbir Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi tomonidan tashkil etildi. Bu borumda davlat va nodavlat tashkilotlar rahbarlari, xalqaro ekspertlar, yirik korporatsiyalar va jamoatchilik vakillari ishtirok etib, raqamlashtirishning mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni, erishilgan natijalar hamda yangi avlod texnologiyalari asosida kelajakka qadam qo‘yish masalalarini muhokama qilindi. Forum orqali O‘zbekistonning raqamli transformatsiyani qanchalik darajada tashkil etgani haqida aniq tassavurlar oldik.

O‘zbekistonning raqamli transformatsiya yo‘lidagi eng e’tiborga molik yutuqlaridan biri bu elektron davlat xizmatlarining o‘sishidir. Hukumat fuqarolarga o‘z uylarida turib, keng ko‘lamli davlat xizmatlaridan foydalanish imkonini beruvchi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali kabi ko‘plab onlayn platformalarni ishga tushirdi. Bu davlat boshqaruvi samaradorligi va shaffofligini sezilarli darajada oshirdi, byurokratiya va korruptsiyani kamaytiradi. O‘zbekiston ta’lim sohasida raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiyalash borasida sezilarli yutuqlarga erishdi. Xalq ta’limi vazirligi tomonidan turli tashabbuslar, jumladan, yoshlarni dasturlash bo‘yicha muhim ko‘nikmalarga ega bo‘lishga qaratilgan “Bir million o‘zbek dasturchilari” loyihasi boshlandi. Bundan tashqari, hukumat o‘qituvchilar va talabalarga raqamli savodxonlik bo‘yicha treninglar o‘tkazish uchun xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Huddi shunday oliy ta’lim tizimida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-60-son qaroriga muvofiq raqamlashtirish jarayonlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur hujjatda Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy ta'lim muassasalarining faoliyatini raqamlashtirish borasidagi chora-tadbirlar va istiqbolli rejalar bayon etilgan. Jumladan, ushbu qaror qabul qilinganidan so‘ng oliy ta'lim muassasalarida hujjatlarni qog‘oz shaklidan voz kechib, Jahon banki bilan hamkorlikda Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi joriy etilildi va ko‘p,yangi imkoniyatlar yaratildi. Bu hujjat oliy ta'lim sohasini tubdan raqamlashtirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlarni o‘z ichiga olib, ularning ijrosi natijasida oliy ta'limning boshqaruv tizimi va ta'lim sifatini monitoring qilish samaradorligi yanada oshadi, ta'lim muassasalari faoliyatini avtomatlashtirish jadallashdi. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatimiz oliy ta'limi raqobatbardoshligini yuksaltirishga xizmat qilib kelmoqda. O‘zbekiston, shuningdek, blokcheyn va sun’iy intellekt (AI) kabi rivojlanayotgan texnologiyalarning transformatsion salohiyatini tan oldi. Hukumat ushbu texnologiyalarni ishlab chiqish va o‘zlashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan me’yoriy hujjatlarni kiritdi. Masalan, kriptoaktivlar va kriptobirjalar faoliyatini huquqiy tartibga solishga qaratilgan qarorlar qabul qilinib, turli sohalarda blokcheyn texnologiyasidan foydalanish uchun huquqiy asoslar yaratilmoqda. Xuddi shunday, Prezidentning 2021-yilda qabul qilingan “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida ham O‘zbekistonda sun’iy intellektni rivojlantirish va joriy etish bo‘yicha kompleks strategiya belgilab berilgan.



1-rasm. O‘zbekiston respublikasida mehnat faoliyatida bandlarning o‘sish darajasi (foizda)

O‘zbekiston Respublikasida raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bir qator yangi ish o‘rinlarni yaratdi. Bunga isbot sifatida O‘zbekiston Respublikasida so‘ngi yillarda mehnat bozorida band ishchi kuchining taqsimlanishi hamda ishchi kuchi resursining sifati oshishini olishimiz mumkin mamlaklatning mehnat bozori ma’lumotlariga qaraydigan bo‘lsak.

Bu ma’lumotlarga asoslansak hzoirgi vaqtda axborot texnologiyalari tezkor sur’at bilan o‘sayotganini aytishinmiz mumkin.

Xulosa. Shundsay qilib mamlakatimizda olob borilyotgan islohotlar o‘z samarasini bermoqda. Ayniqsa “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida qayd etilganidek, O‘zbekiston raqamli transformatsiyaning ulkan yo‘liga o‘tishi, ushbu keng qamrovli yo‘l xaritasi raqamli texnologiyalarni davlat xizmatlaridan tortib, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarigacha hayotning barcha jabhalariga integratsiyalashga qaratilgan. Strategiya mustahkam raqamli infratuzilmani rivojlantirish, fuqarolarning raqamli savodxonligini oshirish, raqamli iqtisodiyotda raqamli transformatsiya va zamonaviy mehnat bozorini rivojlantirishga qaratilgan.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori.“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. — 2020-yil 5-oktabr, PQ–6079.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori.“Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida.” — 2021-yil 17-fevral, PQ–4996.

3. Kurbanov, B. (2022).Raqamli iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish yo‘nalishlari. — TDIU nashriyoti.

4. https://egov.uz

5. Saidaxmedova D.S. O‘zbekistonda raqamli tadbirkorlikni rivojlantirsh istiqbollari. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 03 Issue: 03 | Mar – 2023

INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIYAVIY HOLATNI TAHLIL QILISH VA MOLIYAVIY OQIMLARNI SAMARALI BOSHQARISHNING IQTISODIY ASOSLARI

Xamidova Munira Abduvali qizi
TDIU “Iqtisodiyot” fakulteti

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida korxona va tashkilotlarning moliyaviy barqarorligi ularning iqtisodiy faoliyatini muvaffaqiyatli yuritish, investitsiyalarni jalb etish hamda innovatsion loyihalarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy holatni tahlil qilish nafaqat korxonaning hozirgi ahvolini baholash, balki kelgusidagi moliyaviy oqimlarni prognozlash va boshqarishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish imkonini beradi [1].

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar moliyaviy boshqaruv tizimiga chuqur kirib borib, real vaqt rejimida tahlil, prognoz va qaror qabul qilish imkoniyatini kengaytirmoqda. Shu sababli, innovatsion faoliyatni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashda raqamli moliya vositalarini integratsiyalash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Moliyaviy holatni tahlil qilishning innovatsion yondashuvlari. An’anaviy moliyaviy tahlil usullari (likvidlik, rentabellik, moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari) hozirda raqamli iqtisodiyot sharoitida yanada takomillashmoqda. Zamonaviy yondashuvlar quyidagilardan iborat:

❖ Big Data tahlili orqali korxona naqd pul oqimlarini real vaqt rejimida kuzatish;
❖ Sun’iy intellekt (AI) asosida moliyaviy prognoz modellarini yaratish;
❖ Blokcheyn texnologiyalari orqali tranzaksiyalarni shaffof nazorat qilish;
❖ Moliyaviy risklarni simulyatsiya qilish tizimlari yordamida barqarorlik darajasini oldindan baholash [2].

Bu yondashuvlar nafaqat korxona darajasida, balki makroiqtisodiy siyosatda ham moliyaviy oqimlarni boshqarishning yangi paradigmasini shakllantirmoqda.

Moliyaviy oqimlarni boshqarishning iqtisodiy mohiyati. Moliyaviy oqimlar korxonaning ishlab chiqarish, investitsion va innovatsion faoliyatini ta’minlovchi asosiy harakat mexanizmidir. Ularning samarali boshqaruvi quyidagi iqtisodiy natijalarga olib keladi:

❖ Kapital aylanishining tezlashuvi va likvidlik darajasining oshishi;
❖ Innovatsion faoliyat uchun barqaror moliyaviy manbalar shakllanishi;
❖ Moliyaviy xavf va risklarning kamayishi;
❖ Foyda marjasining o‘sishi va iqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishi.

Innovatsion korxonalar uchun moliyaviy oqimlarni boshqarish, asosan, raqamli moliyaviy menejment tizimlari, ERP (Enterprise Resource Planning) va FinTech platformalari orqali amalga oshirilmoqda. Bu tizimlar xarajatlarni optimallashtirish, investitsiya samaradorligini tahlil qilish hamda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga xizmat qiladi [3].

Xorijiy tajriba tahlili. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy oqimlarni boshqarishda raqamli yechimlardan foydalanish iqtisodiy barqarorlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan: Germaniyada korxona moliyaviy tahlilida “Predictive Analytics” texnologiyasi joriy etilgan bo‘lib, bu korporativ foydani prognozlashda xatolikni 30% gacha kamaytirgan;

Singapurda esa “Digital Finance Hub” platformasi orqali startaplar uchun raqamli moliyaviy xizmatlar taklif qilinib, ularning 60% yangi innovatsion loyihalarni amalga oshirishga muvaffaq bo‘lgan [4];

AQShda “Corporate Digital Treasury” tizimlari orqali transmilliy kompaniyalar o‘z pul oqimlarini global miqyosda avtomatlashtirilgan nazorat ostida ushlab turishmoqda.

Ushbu tajribalar O‘zbekiston uchun ham amaliy ahamiyatga ega, chunki moliyaviy boshqaruv tizimlarining raqamlashtirilishi milliy iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirish imkonini beradi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida moliyaviy oqimlarni boshqarish holati

O‘zbekiston Respublikasida innovatsion iqtisodiyotga o‘tish siyosati doirasida moliyaviy boshqaruv tizimi bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinmoqda. Masalan: “Raqamli Moliya 2025” dasturi doirasida elektron to‘lovlar ulushi 75% gacha oshirildi;

Davlat moliyasi sohasida GFMIS (Government Financial Management Information System) joriy etilib, byudjet xarajatlari onlayn monitoringga o‘tgan;

Tijorat banklarida raqamli kreditlash tizimi yo‘lga qo‘yilib, startap loyihalarni moliyalashtirish mexanizmi soddalashtirilgan [5].

Bu chora-tadbirlar milliy moliya tizimining shaffofligi va barqarorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion faoliyatning muvaffaqiyati to‘liq moliyaviy resurslarning samarali boshqarilishiga bog‘liq. Raqamli texnologiyalar yordamida

moliyaviy tahlil va prognozlash jarayonlarini avtomatlashtirish iqtisodiy xavf-xatarlarni kamaytiradi va foyda ko‘rsatkichlarini oshiradi.

Zamonaviy iqtisodiyotning innovatsion bosqichga o‘tishi sharoitida moliyaviy boshqaruvning samaradorligi har bir iqtisodiy subyekt faoliyatining asosiy omiliga aylanmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy holatni to‘g‘ri baholash, prognozlash va oqimlarni oqilona boshqarish korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi, iqtisodiy xavf-xatarlarni kamaytiradi hamda barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlaydi.

Raqamli transformatsiya jarayonida moliyaviy tahlil usullari faqat an’anaviy ko‘rsatkichlarga asoslanib qolmay, balki Big Data, sun’iy intellekt (AI), blokcheyn va prognozlash algoritmlari kabi ilg‘or texnologiyalar bilan uyg‘unlashmoqda. Bunday yondashuvlar moliyaviy jarayonlarni yanada shaffof, tezkor va aniqligi yuqori tizimga aylantirmoqda.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda (Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur) moliyaviy oqimlarni boshqarishda raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi natijasida ishlab chiqarish samaradorligi 20–30 foizga oshgan, operatsion xarajatlar esa sezilarli darajada qisqargan. Bunday tajribalar O‘zbekiston uchun ham dolzarbdir, chunki milliy iqtisodiyot innovatsion yo‘l bilan rivojlanish bosqichida turibdi va raqamli moliyaviy boshqaruvning joriy etilishi iqtisodiy siyosat samaradorligini oshiradi.

O‘zbekiston tajribasida so‘nggi yillarda moliya tizimining raqamlashtirilishi — GFMIS, “Raqamli Moliya 2025” dasturlari, elektron to‘lov infratuzilmalari kabi mexanizmlar orqali amalga oshirilmoqda. Bu chora-tadbirlar davlat moliyasi, byudjet tizimi va korxona darajasidagi moliyaviy boshqaruvni yangicha bosqichga olib chiqmoqda.

Ammo hozirgi sharoitda moliyaviy oqimlarni boshqarishda quyidagi muammolar saqlanib qolmoqda:

- ❖ raqamli moliyaviy tahlil infratuzilmasining yetarlicha shakllanmagani;
- ❖ kichik innovatsion korxonalar uchun moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi;
- ❖ moliyaviy prognozlashda real vaqt ma’lumotlar bazasining to‘liq ishlamasligi;
- ❖ raqamli kompetensiyalarga ega mutaxassislar yetishmasligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish milliy iqtisodiyotning innovatsion transformatsiyasini jadallashtiradi. Shunga asoslanib, quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Moliyaviy oqimlarni boshqarishning yagona raqamli ekotizimini yaratish. Bu tizim davlat, bank, sug‘urta va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida moliyaviy axborot almashuvini soddalashtiradi.

2. Moliyaviy tahlil va prognozlashda sun’iy intellekt algoritmlarini joriy etish. Bu qarorlar qabul qilishda aniqlikni oshiradi va subyektiv xatoliklarni kamaytiradi.

3. Innovatsion faoliyatni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun venchur kapital fondlarini rivojlantirish. Bu yangi texnologiyalarni tijoratlashtirishni tezlashtiradi.

4. Moliyaviy boshqaruv tizimlarida kadrlar salohiyatini oshirish. Universitet va malaka oshirish dasturlarida “FinTech”, “Data Finance” va “Innovatsion moliya” fanlarini kengaytirish lozim.

5. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda raqamli moliyaviy hisobot tizimlaridan foydalanish. Bu O‘zbekistonning xalqaro moliyaviy bozorlardagi ishonchliligini oshiradi.

Umuman olganda, innovatsion iqtisodiyot sharoitida moliyaviy oqimlarni samarali tahlil qilish va boshqarish nafaqat alohida korxonalar barqarorligi, balki mamlakat miqyosida makroiqtisodiy barqarorlik, investitsion faollik va innovatsion raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

Moliyaviy boshqaruv tizimini raqamli model asosida qayta tashkil etish esa O'zbekiston iqtisodiy siyosatini yangi bosqichga olib chiqib, "raqamli iqtisodiyotni innovatsion moliyaviy asosda rivojlantirish" tamoyilini hayotga tatbiq etish imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida ushbu jarayonni yanada takomillashtirish uchun quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Innovatsion korxonalar uchun raqamli moliyaviy boshqaruv standartlarini ishlab chiqish;
2. Moliyaviy oqimlarni tahlil qilishda sun'iy intellekt va big data texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish;
3. Startap va texnologik loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun venchur fondlar tizimini rivojlantirish;
4. Davlat moliyaviy siyosatini raqamli indikatorlar asosida prognozlash tizimiga o'tkazish;
5. Moliyaviy boshqaruv kadrlarini tayyorlashda FinTech va Data Finance fanlarini joriy etish.

Umuman olganda, moliyaviy oqimlarni samarali boshqarish raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi strategik omil bo'lib, mamlakatning innovatsion salohiyati va iqtisodiy xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Innovatsion rivojlanish strategiyasi – 2030" konsepsiyasi, 2022-yil.*
2. *Brynjolfsson E., McAfee A. (2023). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. MIT Press.*
3. *OECD (2023). Innovation and Financial Management Report. Paris.*
4. *Monetary Authority of Singapore (MAS). Digital Finance Strategy Report 2022. Singapore.*

YASHIL IQTISODIYOTDA EKOLOGIK INNOVATSIYALARNI TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA INTEGRATSIYA QILISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI

Usmonov Abdulaziz Xusnitdin o'g'li
Namangan davlat texnika universiteti talabasi

Hozirgi davrda global iqtisodiy tizim ekologik muvozanat va resurslardan oqilona foydalanish masalalariga keskin e'tibor qaratmoqda. Iqlim o'zgarishi, biosfera degradatsiyasi va energiya tanqisligi sharoitida "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi barqaror rivojlanishning yangi paradigmasi sifatida shakllanmoqda [1]. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha bo'lgan Barqaror rivojlanish kun tartibida ekologik innovatsiyalarni iqtisodiy faoliyatga integratsiya qilish muhim ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [2]. OECD va UNEP tahlillariga ko'ra, yashil iqtisodiyotning asosiy drayveri sifatida ekologik innovatsiyalar ishlab chiqarish jarayonlarida resurs

samaradorligini oshirish, chiqindilar hajmini kamaytirish va energiya tejamkor texnologiyalarni kengaytirish orqali yangi iqtisodiy qiymat yaratadi [3]. Bu yondashuv global miqyosda korxonalarni faqat iqtisodiy foyda emas, balki ekologik natijadorlikni ham baholovchi tizimga o‘tishiga turtki bermoqda.

Shu nuqtai nazardan, ekologik innovatsiyalarni tadbirkorlik faoliyatiga chuqur integratsiya qilishning institutsional mexanizmlarini shakllantirish O‘zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega. Chunki mamlakat iqtisodiy modernizatsiyasi va sanoatni diversifikatsiyalash jarayonida “yashil texnologiyalar”ning joriy etilishi nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi [4]. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi doirasida tadbirkorlikni ekologik innovatsiyalar bilan uyg‘unlashtiruvchi mexanizmlar — bu huquqiy-me’yoriy baza, moliyaviy rag‘batlantirish, ekologik menejment standartlari va ta’lim-informatsion infratuzilmani o‘z ichiga oladi. Shu bois, ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar institutsional transformatsiya jarayonlarini chuqur tahlil etish, xalqaro tajribani lokal sharoitga moslashtirish va iqtisodiy siyosatning yangi instrumentlarini ishlab chiqish zaruratini taqozo etadi [5].

Mintaqada resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish, energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish va ekologik boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar iqtisodiyotning dekarbonizatsiyalash jarayoniga zamin yaratmoqda.

Yashil iqtisodiyot elementlarini tadbirkorlik faoliyatiga integratsiya qilishda ekologik innovatsiyalar, inson kapitali, boshqaruv samaradorligi va klasterlash darajasi o‘rtasida murakkab, ammo ijobiy bog‘liqlik mavjud. Shu bois, ushbu bo‘limda Namangan viloyatida 2017–2024 yillar mobaynida ekologik innovatsiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi, hududiy tafovutlar va institutsional mexanizmlarning ishlash dinamikasi tahlil qilinadi. Uchinchi bosqich sifatida, mintaqadagi yashil texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq investitsiya oqimlari, ishlab chiqarish samaradorligi va ekologik boshqaruv indikatorlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar empirik jihatdan asoslab beriladi. Shu orqali viloyat misolida yashil tadbirkorlik rivojining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik effektlari kompleks tarzda yoritiladi.

1-jadval

Namangan viloyatida yashil tadbirkorlik ko‘rsatkichlarining o‘sish dinamikasi

Yil	Ekologik innovatsiyalar soni (ta)	Yashil investitsiyalar hajmi (mlrd so‘m)	Chiqindilarni qayta ishlash ulushi (%)	Energiya tejamkor texnologiyalar ulushi (%)	Ishlab chiqarish rentabelligi (%)
2017	42	58,3	12,6	10,8	11,4
2018	55	64,1	15,8	12,3	12,7
2019	68	78,5	19,3	13,6	13,9
2020	74	82,7	20,1	14,1	13,5
2021	88	96,3	23,9	16,8	14,8
2022	101	108,9	27,5	18,6	15,6
2023	117	126,4	30,2	20,5	16,4
2024	132	141,8	33,7	22,1	17,3

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi*

2017–2024 yillar davomida Namangan viloyatida ekologik innovatsiyalar sohasida barqaror o‘sish tendensiyasi kuzatildi. Mazkur davrda ekologik innovatsiyalar soni 42 tadan 132 taga, ya’ni 3,1 baravar oshgan bo‘lsa, yashil investitsiyalar hajmi 58,3 mlrd

so‘mdan 141,8 mlrd so‘mga, ya’ni 143% ga ko‘paygan. Xuddi shu davrda chiqindilarni qayta ishlash ulushi 12,6% dan 33,7% gacha o‘sib, resurslardan ikkilamchi foydalanishning iqtisodiy ahamiyatini kuchaytirdi. Energiya tejamkor texnologiyalarni qo‘llash ko‘rsatkichi ham sezilarli sur’atlarda oshib, 10,8% dan 22,1% gacha yetgan. Shu bilan birga, ishlab chiqarish rentabelligi 2017-yildagi 11,4% dan 2024-yilda 17,3% gacha ko‘tarilib, ekologik modernizatsiya nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki korxonalarning foydalilik darajasini oshirishga ham xizmat qilganini ko‘rsatadi. Bunday o‘sish sur’atlari ekologik texnologiyalarni joriy etish va investitsiyalar oqimi o‘rtasidagi kuchli musbat bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

Ilmiy jihatdan qaralganda, mazkur natijalar Namangan viloyatida “yashil o‘sish modeli”ning bosqichma-bosqich shakllanayotganini anglatadi. Bu jarayon ishlab chiqarish faoliyatining resurs intensivligidan innovatsion va energiya samarador tizimlarga o‘tish mexanizmi sifatida talqin etiladi. Ekologik investitsiyalar hajmining ortishi bilan bir qatorda chiqindilarni qayta ishlash ulushining ko‘payishi ishlab chiqarishdagi sirkulyar iqtisodiyot elementlarining kengayganini ko‘rsatadi. Shuningdek, energiya tejamkor texnologiyalarning ulushi oshgani bilan birga, ishlab chiqarish tannarxining pasayishi ham kuzatilmoqda, bu esa korxonalarning ichki rentabelligini oshirib, ularni global “yashil raqobat” muhitida faolroq ishtirok etishiga imkon yaratmoqda. Demak, ekologik innovatsiyalarni keng joriy etish viloyatda barqaror iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy bandlikni qo‘llab-quvvatlash va ekologik xavfsizlikni mustahkamlovchi kompleks mexanizm sifatida shakllanmoqda.

Namangan viloyati tumanlari kesimida 2024-yil holatiga ko‘ra ekologik innovatsiyalarni joriy etish darajasida sezilarli hududiy tafovutlar kuzatildi. Eng yuqori natijalar Namangan shahrida qayd etilib, bu yerda yashil texnologiyalarni joriy etgan korxonalar ulushi 68,7%, energiya tejamkor texnologiyalar ulushi 57,4%, chiqindilarni kamaytirish samaradorligi 29,8%, hamda ekologik menejment tizimiga ega korxonalar ulushi 54,1% ni tashkil etdi.

2-jadval

Namangan viloyati tumanlarida ekologik innovatsiyalarni joriy etish darajasi

Tuman	Yashil texnologiyalarni joriy etgan korxonalar ulushi (%)	Energiya tejamkor texnologiyalar (%)	Innovat-sion loyihalar soni	Chiqindilarni kamaytirish samaradorligi (%)	Ekologik menejment tizimiga ega korxonalar (%)
Namangan sh.	68,7	57,4	32	29,8	54,1
Chust	54,3	48,5	21	26,1	42,6
Kosonsoy	49,8	45,2	19	24,7	39,5
Pop	47,6	43,3	17	23,2	36,4
Uychi	45,1	40,8	15	22,4	33,2
To‘raqo‘rg‘on	43,4	39,6	14	21,7	31,8
Yangiqo‘rg‘on	40,7	37,9	12	20,5	29,3
Mingbuloq	38,9	36,2	11	19,8	27,6
Norin	36,3	34,8	10	18,9	26,1
Uchqo‘rg‘on	35,7	33,6	9	18,2	25,4

Manba: Namangan viloyati Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Bu ko‘rsatkichlar mintaqaviy o‘rtacha darajadan ikki baravar yuqori. Chust (54,3%), Kosonsoy (49,8%) va Pop (47,6%) tumanlarida ham ekologik transformatsiya

sur’atlari nisbatan yuqori bo‘lib, bu hududlarda innovatsion loyihalar soni mos ravishda 21, 19 va 17 tani tashkil qilgan. Aksincha, Norin (36,3%) va Uchqo‘rg‘on (35,7%) tumanlarida yashil texnologiyalarni joriy etish eng past darajada bo‘lib, chiqindilarni kamaytirish samaradorligi 18–19% atrofida saqlanib qolgan. Bu tafovut viloyat markazida mavjud ilmiy, moliyaviy va texnologik resurslar periferik tumanlarda yetarlicha shakllanmaganini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalari shuni anglatadiki, ekologik innovatsiyalarni joriy etish darajasi bilan iqtisodiy samaradorlik o‘rtasida bevosita proporsional bog‘liqlik mavjud. Yashil texnologiyalarni keng qo‘llayotgan hududlarda nafaqat energiya tejamkorlik oshmoqda, balki ishlab chiqarish xarajatlari ham kamaymoqda, bu esa korxonalarning raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Ilmiy nuqtai nazardan, Namangan shahrida kuzatilgan yuqori ko‘rsatkichlar klasterlash modeli samaradorligini aks ettiradi: bu yerda korxonalar o‘rtasida axborot almashinuvi, texnologik kooperatsiya va davlat qo‘llov mexanizmlari kuchliroq ishlamoqda.

2017–2024 yillar davomida Namangan viloyatida yashil tadbirkorlik faoliyati bosqichma-bosqich institutsional shakllanish jarayonini kechirdi. Ekologik innovatsiyalar soni 42 tadan 132 tagacha, yashil investitsiyalar hajmi esa 58,3 mlrd so‘mdan 141,8 mlrd so‘mgacha oshgani, chiqindilarni qayta ishlash ulushining 12,6 foizdan 33,7 foizgacha, energiya tejamkor texnologiyalar ulushining esa 10,8 foizdan 22,1 foizgacha ko‘tarilgani ekologik modernizatsiyaning real iqtisodiy samara bera boshlaganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Namangan shahri va uning atrofidagi tumanlarda yashil texnologiyalarni joriy etish darajasi 65–70 foizni tashkil etib, viloyatning sanoatlashgan hududlarida ekologik innovatsiyalar iqtisodiy o‘sishning yangi drayveriga aylangan.

Birinchidan, institutsional mexanizmlarni takomillashtirish zarur: viloyat miqyosida “Yashil rivojlanish agentligi”ni tashkil etish orqali ekologik innovatsiyalarni litsenziyalash, sertifikatsiyalash va monitoring qilish vakolatlarini markazlashtirish lozim. Bu model xalqaro amaliyotda (masalan, OECD mamlakatlari tajribasida) “regional green governance” deb nomlanadi va investitsiya oqimlarining barqarorligini 20–25 foizgacha oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, korxonalar uchun ekologik menejment tizimlari (ISO 14001) bo‘yicha majburiy audit mexanizmini joriy etish ekologik samaradorlikni oshirishning muhim kafolatidir.

Ikkinchidan, iqtisodiy rag‘bat mexanizmlarini kuchaytirish lozim. Yashil texnologiyalarni joriy etgan korxonalar uchun soliq stavkalarini 10–15 foizgacha kamaytirish, chiqindilarni qayta ishlovchi loyihalar uchun esa subsidiyalar va “yashil grantlar” tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq. Bu chora-tadbirlar 2025–2030 yillarda chiqindilarni qayta ishlash ulushini kamida 45 foizga, energiya tejamkor texnologiyalar ulushini esa 30 foizga yetkazishga imkon beradi. Shu bilan birga, “Yashil obligatsiyalar” bozorini rivojlantirish orqali xususiy kapitalni ekologik innovatsiyalar sektori tomon yo‘naltirish iqtisodiy resurslarning samarali taqsimlanishini ta’minlaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yashil iqtisodiyotning institutsional mexanizmlarini kuchaytirish Namangan viloyati misolida ekologik innovatsiyalarni nafaqat iqtisodiy o‘sish omili, balki resurs tejamkorlik, texnologik yangilanish va ekologik barqarorlikni ta’minlovchi kompleks tizim sifatida shakllantirish imkonini beradi. Yashil investitsiyalar hajmining 2017–2024 yillarda 2,4 baravarga ortishi, chiqindilarni qayta ishlash va energiya tejamkor texnologiyalar ulushining mos ravishda 21,1 va 11,3 punktga o‘sishi hududda

ekologik modernizatsiya jarayonlari institutsional tuzilmalar bilan uyg‘unlashayotganini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar:

1. *OECD. Eco-Innovation in Industry: Enabling Green Growth. Paris: OECD Publishing, 2009.*
2. *United Nations. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. New York, 2015.*
3. *UNEP. Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. Nairobi, 2021.*
4. *World Bank. Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development. Washington, 2020.*
5. *UNDP. Green Economy Transition in Central Asia: Institutional and Policy Frameworks. New York, 2022.*

RAQAMLASHUV SHAROITIDA KORXONANING MOLIYAVIY STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH VA AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Saidnazarov Firdavs Abdulloyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Mahalliy biznes muhitining tez o‘zgaruvchan va harakatchan tabiati moliyani boshqarishda strategik yondashuvni talab etadi. Moliyaviy strategiya korporativ strategiyaning ajralmas qismi bo‘lib, u tashkilotning uzoq muddatli rivojlanish vazifalari bilan moliyaviy maqsadlarni muvofiqlashtiradi. Eng avvalo, moliyaviy strategiyani muvaffaqiyatli shakllantirish uchun uni korporativ strategiya bilan to‘liq integratsiyalash zarur.

Shunday qilib, moliyaviy maqsadlar tashkilotning kengroq maqsadlarini aks ettirishi, moliyaviy qarorlar qabul qilish bilan biznesning umumiy yo‘nalishi o‘rtasida **sinergiya (o‘zaro kuchaytiruvchi ta’sir)**ni ta’minlashi lozim.

Moliyaviy strategiyani o‘zining umumiy strategik rejalashtirishining ajralmas qismi sifatida ko‘radigan tashkilotlar noaniqlik sharoitida yo‘l topish, yanada keng imkoniyatlardan foydalanish va tez o‘zgarib borayotgan biznes muhitida barqaror muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Bozorlarda raqobatning kuchayishi, inqiroz va iqtisodiy silkinishlar xavfi, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik hamda huquqiy o‘zgarishlar — bularning barchasi moliyani boshqarishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqish zaruratini oshiradi. Moliya har bir xo‘jalik yurituvchi subyektning barqaror faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun asosiy (kalit) resurs hisoblanadi.

Moliyani boshqarishga bo‘lgan ehtiyoj shundan kelib chiqadiki, moliyaviy strategiyani rivojlantirish va takomillashtirish masalalari tobora dolzarblashib bormoqda va aslida, iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilarining barcha faoliyat yo‘nalishlarini qamrab olmoqda.

Yangi iqtisodiy reallik sharoitida moliyaviy strategiya tashkilotlarni samarali strategik boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Chunki aynan moliyaviy omillar — xavflar, cheklovlar, imkoniyatlar va tahdidlar — ularning zamonaviy dunyodagi samarali faoliyatini belgilab beruvchi asosiy mezonlar hisoblanadi.Turli mualliflar talqinidagi «strategiya» kategoriyasining mazmuni umumiy asosga ega: strategiya maqsadga

yo‘naltirilgan va uzoq muddatli xususiyatga ega. Ammo uning uslubiy asosini aniq belgilash borasida yagona fikr mavjud emas.

Shu bilan birga, “strategiya” tushunchasining asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: kompleks yondoshuv, tizimlilik, tartiblilik, uzoq muddatli yo‘nalish.

Shularni inobatga olgan holda, moliyaviy strategiyani quyidagicha ta’riflash mumkin: bu — tavakkalchilik va noaniqlik bilan bog‘liq harakatlar rejasi bo‘lib, uning asosiy maqsadi tashkilotning missiyasi, uzoq muddatli moliyaviy maqsadlari hamda ishlab chiqilgan korporativ va biznes strategiyalari doirasida tashkilotni samarali rivojlantirishni ta’minlashdir.

Moliyaviy strategiya tashkilot faoliyatini ta’minlash uchun moliyaviy resurslarni shakllantirish, muvofiqlashtirish, taqsimlash va foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Shu tariqa moliyaviy strategiya turli moliya bozorlari va instrumentlarini — kapital tuzilmasi, investitsiya qarorlari, xavf va likvidlikni boshqarishni — birlashtirib, moliyaviy ko‘rsatkichlarni optimallashtirish va tashkilotning umumiy qiymatini oshirishga xizmat qiladi**.**

Moliyaviy strategiyani shakllantirish keng ko‘lamli omillar ta’sirida amalga oshadi. Tadqiqot qilinayotgan jarayonning ko‘p qirraliligi moliyaviy strategiyalarni turli mezonlar asosida tasniflash imkonini beradi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– boshqarish imkoniyati bo‘yicha;

– tashkilot muhitiga nisbatan munosabati bo‘yicha;

– ta’sir darajasi bo‘yicha;

– strategiyani shakllantirish va amalga oshirish jarayonlarini tartibga soluvchi subyektlar bo‘yicha va boshqalar.

Keltirilgan har bir klassifikatsiya guruhi korxonaning moliyaviy strategiyasini shakllantirishga muayyan ta’sir ko‘rsatadi. Biroq moliyaviy strategiyaga ta’sir etuvchi omillarni ustuvorlik darajasi bo‘yicha tartiblash ancha murakkab vazifadir.

Bizning fikrimizcha, moliyaviy strategiyalarni shakllantirish va amalga oshirishga iqtisodiy faoliyat sohasida namoyon bo‘layotgan global tendensiyalar katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Shubhasiz, ularning eng muhimi — **raqamlashuv (ya’ni biznesning raqamli transformatsiyasi)**dir.

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot endilikda “kelajak rivojlanish ssenariysi” sifatida emas, balki zamonaviy iqtisodiy tizimlarning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, barcha darajalardagi moliyaviy boshqaruv texnologiyalari va vositalarining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi.

Bozor rivojlanish tendensiyalari, raqobatbardoshlik va samaradorlikni oshirish zarurati tijorat tashkilotlarini raqamlashuv jarayonlarida ishtirok etishga, shu bilan birga boshqaruv texnologiyalarini, jumladan moliya sohasidagilarni qayta qurishga majbur qilmoqda. Moliyaviy boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish shubhasiz, tashkilotning istiqbolli rivojlanishi, raqobat kurashida muvaffaqiyatli ishtirok etishi, shuningdek uning faoliyatini boshqarish darajasi va shffofligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda raqamlashuv iqtisodiy subyektlar o‘rtasidagi rejali, tizimli va malakali hamkorlikka erishishning kalitiga aylandi. Bu jarayon moliyaviy boshqaruvni yanada takomillashtirilgan va aniq shaklga keltiradi. Bunday natijaga erishish — tranzaksiyalarni optimallashtirish, xarajatlarni qisqartirish, iste’molni

shaxsiylashtirish, hamkorlikda ishlash, faol va chuqur tahliliy prognozlar orqali amalga oshadi.

Shu bilan birga, tashkilotlarda moliyaviy boshqaruvning raqamli transformatsiyasi nafaqat ijobiy, balki salbiy jihatlarni ham o‘z ichiga oladi. KPMG tadqiqotlariga ko‘ra, raqamlashtirish jarayoniga jalb qilingan tashkilotlarining katta qismi bu jarayonning murakkab mexanizmlariga tayyor emasligi ma’lum bo‘ldi. Bu holat raqamlashtirish dasturini ishlab chiqishda tizimli yondashuvning yo‘qligida, raqamli muhitga moslashish uchun stixiyali qarorlar qabul qilinishida namoyon bo‘lgan. Olimlar fikricha, aynan biznes jarayonlarining yetarlicha shakllanmaganligi hamda malakali mutaxassislar yetishmasligi raqamli transformatsiyaning to‘liq amalga oshishini sekinlashtiruvchi asosiy omillardan biri bo‘lgan [3].

Sushestvennoye vliyaniye na protsessi formirovaniya i realizatsii finansovoy strategii organizatsii okazivayet yee otraslevaya prinadlejnost. Tak, naprimer, organizatsii otrasli E-commerce iz-za podvijnogo rinka aktivno primenyayutsya razlichnie innovatsionnie texnologii, takiye, kak iskusstvenniy intellekt, avtomatizatsiya protsessov, analitika dannix i mobilnie prilojeniya, kotorie pomogayut uluchshit kachestvo obslujivaniya kliyentov, optimizirovat protsessi i povisit effektivnost biznesa. Provedenniy analiz pozvolyayet pomimo vsego prochego oboznachit sushestvennoye razlichiye konseptualnoy modeli osushestvleniya biznesa otrasli E-commerce i privichnix modeley operatsionnoy deyatelnosti kommercheskix organizatsiy realnogo sektora ekonomiki.

Tashkilotning moliyaviy strategiyasini shakllantirish va amalga oshirish jarayonlariga uning tarmoqqa mansubligi sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, E-commerce (elektron tijorat) sohasidagi tashkilotlar bozorning jadal o‘zgaruvchanligi sababli faol ravishda turli innovatsion texnologiyalarni — sun’iy intellekt, jarayonlarni avtomatlashtirish, ma’lumotlar tahlili va mobil ilova kabilarni — qo‘llaydilar. Bu texnologiyalar mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga, jarayonlarni optimallashtirishga va biznes samaradorligini yuksaltirishga yordam beradi.

O‘tkazilgan tahlil shuni ham ko‘rsatadiki, E-commerce sohasidagi biznesni amalga oshirishning konseptual modeli real sektorda faoliyat yurituvchi an’anaviy tijorat tashkilotlarining operatsion faoliyat modellaridan sezilarli darajada farq qiladi.

Shunday qilib, raqamli transformatsiya sharoitida moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish xususiyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish, moliyaviy boshqaruv tizimini tarmoq xususiyatlarini, shuningdek ichki va tashqi omillar majmuasining ta’sirini inobatga olgan holda eng samarali, muvozanatlashgan va kompleks rivojlantirish yo‘llarini aniqlash imkonini beradi.

Bu esa, o‘z navbatida, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, ayniqsa tijorat tashkilotlarining barqaror va izchil faoliyat yuritishi uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Grishkov, S.I. Finansovaya strategiya rossiyskix Ecommerce korporatsiy: opredeleniye i klyuche vie komponenti / S.I. Grishkov // Vestnik yevraziyskoy nauki. – 2023. – T. 15. – № s4. – [Elektronniy resurs]. – Rejim dostupa: https://esj.today/PDF/07FAVN423.pdf.

2. Prutskova S.V. Klassifikatsiya faktorov, vliyayushix na formirovaniye finansovoy strategii predpri yatiya / S.V. Prutskova, A.N. Yegorova // Aktualnie problemi sovremennosti: nauka i obshestvo. – 2020. – №4 (29). – S. 34-36.

3. Irshenko, V.S. Sovershenstvovaniye sistemi finansovogo upravleniya kommercheskix organizatsiy v usloviyax sifrovizatsii / V.S. Irshenko, Ye.B. Fedotova // Ekonomika i biznes: teoriya i praktika. – 2022. – № 5-2. – S. 28-33.

ISSUES OF ENSURING THE SECURITY OF THE BANKING SYSTEM IN THE FINANCIAL MARKET OF UZBEKISTAN

Makhmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li
Chief Specialist of the Department for Cooperation with Regional Educational Institutions and Centers at Tashkent State University of Economics Doctor of Philosophy (PhD) in Economical Sciences.

The banking sector plays an important role in ensuring the effective functioning of the national economy. The banking system controls a large part of monetary resources, ensures their movement, distribution and redistribution, helps the emergence and development of financial and economic relations between economic entities. Inadequate performance of the main functions of the banking system disrupts economic relations between economic entities and is considered one of the main threats to the country's economic and national security.

1.Level of competition in the banking market. According to the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated May 12, 2020 "On the strategy of reforming the banking system of the Republic of Uzbekistan for 2020-2025" No. PF-5992, the reform of the banking sector in the Republic of Uzbekistan as one of its main directions, complex transformation of commercial banks with a state share, introduction of modern standards of banking work, information technologies and software products, sale of a package of state shares in banks to investors with the necessary experience and knowledge on a competitive basis, as well as a state share reduction of the share of the state in the banking sector was determined by simultaneously reforming commercial banks and enterprises.

2.The level of quality of regulation and control of banking activities by the central bank. The Bank Supervisory Committee of the Central Bank is a collegial body established on the basis of the requirements of the Law "On the Central Bank of the Republic of Uzbekistan" and is permanently functioning. Documents submitted by banks for approval by this Committee in the direction of the authorization procedure, including registration of amendments to the charter of credit organizations, licensing of credit organizations, removal from the state register and initial approval and payment registration of organizations, as well as issues related to accreditation of the representative office and authorization of repo operations are considered.

3.Capitalization level of the state banking system. The initial results of the macro stress test showed that the banking system is stable. By the end of 2024, in the main and moderate scenarios, the level of capital adequacy of banks will be higher than the minimum regulatory capital standard (13 percent) and it shows that they can better withstand various shocks. According to the newly established regulation, the value of the minimum authorized capital for all commercial banks was set at 350 billion soums. As a result, all banks, especially private banks, increased their capital in order to fulfill the new regulatory requirement set by the Central Bank.

*4.Stability of the National Currency***.** In previous periods, restrictions in the currency policy, distrust of the population towards the national currency, a relatively high level of inflation, as well as a lack of alternative savings instruments caused a high degree of dollarization of deposits in banks. In recent years, the provision of relatively high real interest rates in the economy, the stability of the national currency exchange rate and the high interest rates offered by banks on deposits in the national currency serve to increase the deposits in the national currency.

Conclusion and Suggestions. The following conclusions can be drawn here. A number of measures are being implemented to improve the economic security of the banking system, including:

➢ The Central Bank is improving the quality of control over the activities of banking institutions and continuous monitoring is being carried out, one of the main elements of the inflation targeting regime is the openness of the decisions made in the monetary and credit sphere and ensuring transparency in this regard.

➢ The development of an effective communication policy and timely communication of decisions made in the field of monetary policy to the general public in an understandable language are of great importance in the formation of inflationary expectations of the population and business entities.

➢ It should be noted that in order to continuously ensure liquidity in the domestic currency market, the Institute of Market Maker was introduced in our country, and 2 commercial banks are operating as market makers in the domestic currency market. Despite the benefits granted to commercial banks that have received market maker status, their number is not increasing significantly.

Based on the conclusions, the following recommendations can be made:

➢ It is necessary to develop measures by the Central Bank to increase the activity of commercial banks as "market makers" and their role in determining the exchange rate.

➢ The Central Bank should constantly maintain the inflation targeting system, because the formation of short-term and long-term expectations among the population and businesses is directly related to compliance with the inflation target discipline of the Central Bank.

➢ Gradual elimination of the methods of preferential lending (loans with interest rates lower than market interest rates) and directive lending (loans determined by local government bodies and state agencies), which have a negative impact on the competitive environment and cause inefficient distribution of financial resources. It is necessary to take steps to abandon the stage.

Literature:

1.Decree No. PF-60 of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 28, 2022 "On the development strategy of the new Uzbekistan for 2022-2026".

2.Петрова О.С. Экономическая безопасность банковской системы. «Экономика, право и управление». 2/2015 год стр.130.

3.The official reports of Data base The Central Bank of the Republic of Uzbekistan in 2023 - www.cbu.uz

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО АУДИТА ПОСРЕДСТВОМ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Абдуллаев Хуршиджон Назруллаевич
Исполняющий обязанности начальника кафедры
бухгалтерского учета и аудита
«Национального исследовательского университета
"Ташкентский институт инженеров
ирригации и механизации сельского хозяйства»

Современная политика устойчивого развития предписывает не только нормативно-правовое регулирование и контроль экологических показателей, но и создание высокоэффективных систем мониторинга и аудита, способных обеспечивать оперативный анализ среды и информировать управленческие решения. В Указе Президента Республики Узбекистан № УП-158 (11.09.2023) «О Стратегии „Узбекистан — 2030“» заложены приоритеты по развитию экологической устойчивости и цифровой трансформации экономики, что ставит задачу модернизации институтов экологического аудита в духе цифровизации и прозрачности [1]. Например, с 1 сентября 2025 года при назначении хокимов Республики Каракалпакстан, областей и районов будут учитываться экологические показатели, в частности результаты мониторинга уровня озелененности территории и количества деревьев.

В работе использованы методы сравнительного и системного анализа: обзор отечественной и зарубежной научной литературы по цифровой трансформации аудита; анализ практических кейсов внедрения IoT-решений и цифровых платформ в мониторинг качества окружающей среды; синтез рекомендаций на основе выявленных проблем и возможностей. Для подкрепления выводов использованы авторитетные публикации в области цифровой трансформации аудита и примеры реальных внедрений мониторинговых сетей.

Чжан и др. исследовали взаимосвязь между цифровой трансформацией национального аудита и региональным устойчивым развитием, используя метод квазинатурального эксперимента. Они обнаружили, что в некоторых городах наблюдался значительный рост показателей устойчивого развития после создания отделов цифрового аудита[2].

Исследование показало, что цифровая трансформация влияет на устойчивое развитие двумя способами:

-Повышение потенциала местных органов власти в области экологического управления (например, экологический надзор, регулирование инвестиций)

-Стимулирование «зелёных» инноваций на предприятиях

Также было установлено, что положительное влияние цифровой трансформации сильнее в регионах с высокой промышленной зависимостью (в регионах с высокой долей вторичного сектора) и высокой экологической осведомлённостью населения.

IoT-сенсоры позволяют собирать данные в реальном времени по параметрам воздуха, воды, почвы и шумового фона, что кардинально меняет характер экологического аудита — от периодических выборочных проверок к непрерывному мониторингу с высокой точностью и разрешением по пространству и времени. Примеры внедрения мобильных и стационарных

датчиков в практиках компаний и консалтинговых фирм демонстрируют, что такие системы позволяют оперативно выявлять превышения порогов и минимизировать ущерб. В Узбекистане имеются примеры применения подобных решений в рамках приватных и общественных инициатив по мониторингу качества воздуха, что свидетельствует о возможности масштабирования подобных практик. Сбор высокочастотных данных из множества источников требует платформ для хранения и аналитики. Методы обработки больших данных, включая ETL-процессы, временные ряды и визуализацию, позволяют выявлять долгосрочные тренды, сезоность и корреляции между промышленной активностью и экологическими показателями. Это критично для оценки соответствия нормативам и для прогнозирования рисков. На уровне аудита такие инструменты повышают качество доказательной базы и позволяют строить обоснованные рекомендации[3]. Машинное обучение (ML) применяется для автоматического выявления аномалий — внезапных выбросов, некорректных показаний датчиков или скрытых закономерностей, недоступных традиционным статистическим методам. Системы ML позволяют не только сигнализировать о проблемах, но и формировать вероятностные прогнозы развития событий, что делает аудит проактивным. Важным аспектом является интерпретируемость моделей и проверяемость их выводов в рамках аудиторских стандартов.

Проблемы и барьеры внедрения цифровых технологий в экологическом аудите (на примере Узбекистана):

1. Фрагментация данных и отсутствие интеграции. *Данные экологического мониторинга распределены по различным ведомствам* и частным источникам, что затрудняет их объединение и анализ в единой платформе.
2. *Ограниченность инфраструктуры.* Не везде доступны устойчивые каналы связи, электроэнергия и технические ресурсы для поддержания IoT-сетей.
3. *Кадровый разрыв.* Недостаток специалистов с компетенциями в IT, аналитике данных и экологическом аудите мешает быстрому внедрению современных инструментов.
4. *Правовые и нормативные ограничения***.** Требуется адаптация нормативной базы под цифровые методы сбора и хранения экологической информации и обеспечение юридической силы цифровых доказательств.
5. *Кибербезопасность и конфиденциальность***.** Уязвимости в системах мониторинга и платформы обмена данными могут привести к манипуляциям и утечкам.
6. *Финансирование.* Высокие первоначальные инвестиции в датчики, платформы и обучение требуют механизмов привлечения ресурсов (госпрограммы, международные гранты, частно-государственное партнёрство).

Многие из перечисленных вызовов могут быть адресованы поэтапными мерами, комбинирующими технологические, институциональные и правовые решения.

Цифровая трансформация экологического аудита представляет собой перспективный путь повышения прозрачности, оперативности и доказательности экологического контроля. Инструменты IoT, аналитика больших данных, машинное обучение и блокчейн способны трансформировать

аудит из реактивной процедуры в проактивную систему предупреждения и управления рисками. Для Узбекистана, в контексте реализации Стратегии «Узбекистан — 2030» (УП-158), это означает необходимость разработки национальной дорожной карты, пилотирования технологий, стандартизации данных, создания компетенций и обеспечения правовой и кибербезопасной среды. Последовательное и взвешенное внедрение цифровых технологий позволит существенно повысить качество экологического аудита и приблизить национальную практику к международным стандартам устойчивого развития. По нашему мнению, необходима разработка единой «Концепции цифрового экологического аудита» для Узбекистана, которая должна определить механизмы мониторинга в режиме реального времени уровня загрязнения отходов, воздуха и воды на основе использования технологий искусственного интеллекта, «больших данных» и IoT (Интернета вещей). При этом необходимо внедрить в практику следующие предложения:

-*Создание национальной интегрированной платформы «EcoAudit.uz»* — централизованный хранилище, куда в электронном виде подаются результаты мониторинга (IoT), отчёты аудита, регистрационные данные аудиторских организаций и т.д. Платформа должна обеспечивать:

• API для автоматической передачи данных от датчиков, заводских SCADA и спутниковых/дрон-сервисов;

• инструменты визуализации, исторических рядов и аналитики;

• роль «зонтичного» реестра, доступного государственным структурам и (в части открытых данных) общественности.

-*Пилотные «экологические кластеры»* — сначала внедрять платформу и инструменты в 2–3 приоритетных регионах/сектора (например, нефтегаз, хлопкообработка, цемент) с выделением технодемоплощадок и последующей масштабируемостью.

Цифровая трансформация экологического аудита в Узбекистане — реальная и прагматичная задача, требующая координации между министерствами, адаптации законодательства, инвестиций в инфраструктуру и подготовки кадров. Последовательная реализация предложенных мер создаст систему более точных, быстрых и прозрачных экологических проверок, что повысит экологическую безопасность, инвестиционную привлекательность и доверие общества.

Литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 11.09.2023 г. № УП-158 «О Стратегии Узбекистан — 2030» https://lex.uz/ru/docs/6600404

2. Zhang, Y., Zhang, Y., & Wang, Z. (2024). Digital Transformation of National Audits and Regional Sustainable Development: Quasi-Natural Experiment on the Establishment of National Audit Digital Departments. Sustainability, 16*(24), 10830 https://www.mdpi.com/2071*

3. *Big data grace: Implementations of the feature engineering and data science algorithms for environmental protection law. Wenyue Wu, Yiming Zhao. https://www.sciencedirect.com/science/.*

AHOLINI ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA IMTIYOZLI KREDITLARNING ROLI

Berkinov Odilbek Alisher o‘g‘li
TDIU Sirtqi ta’lim fakulteti
dekan o‘rinbosari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini ish bilan ta’minlash masalasi har bir davlatning ijtimoiy siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlardan biridir. O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda bandlik darajasini oshirish, aholining daromad manbalarini kengaytirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan kompleks islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jarayonda imtiyozli kreditlar muhim moliyaviy vosita sifatida shakllandi. Ular tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan yoki kengaytirayotgan fuqarolarga, ayniqsa yoshlar va ayollar qatlamiga yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratmoqda.

Imtiyozli kreditlarning asosiy maqsadi — iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, bandlikni ta’minlash va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini yo‘lga qo‘yishdir. Shu jihatdan, ushbu tezisda imtiyozli kreditlarning mohiyati, ularning aholi bandligiga ta’siri, xorijiy tajribalar va O‘zbekiston amaliyotidagi natijalar ilmiy tahlil qilinadi.

Imtiyozli kreditlar – bu belgilangan foiz stavkalariga nisbatan pastroq, muddatli va qaytarish sharti bilan beriladigan moliyaviy resurslar bo‘lib, ularning maqsadi aholining iqtisodiy faolligini oshirish, yangi ishlab chiqarish subyektlarini tashkil etish va bandlikni rag‘batlantirishdan iborat.

Moliyaviy nazariyaga ko‘ra, imtiyozli kreditlar davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish vositasi sifatida ham qaraladi. Ular bozor mexanizmlarining kamchiliklarini yumshatadi, kapital taqsimotini soddalashtiradi va ijtimoiy tenglikni ta’minlaydi. Imtiyozli kredit siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- moliyaviy inklyuziyani ta’minlash;
- kichik biznesni rag‘batlantirish;
- aholi bandligini oshirish;
- hududiy iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash.

Shuningdek, imtiyozli kreditlar “tadbirkorlik kapitali”ni shakllantirishda ham asosiy manba sifatida qaraladi. Ularning mavjudligi iqtisodiy faollikni oshiradi, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushiradi hamda mahalliy bozorni jonlantiradi.

Ko‘plab rivojlangan davlatlarda imtiyozli kredit siyosati ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning samarali vositasi sifatida shakllangan. Masalan, *Janubiy Koreyada* “Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi” orqali foizsiz yoki 1–2% stavkali kreditlar ajratiladi, bu esa yillik minglab yangi ish o‘rinlarini yaratishga yordam beradi.

Turkiyada esa “KOSGEB” dasturi doirasida tadbirkorlikni boshlovchilar uchun imtiyozli kreditlar beriladi. Ushbu dastur nafaqat moliyaviy, balki maslahat va trening xizmatlarini ham o‘z ichiga oladi. Natijada, kichik biznes subyektlarining 70 foizdan ortig‘i 3 yil ichida barqaror faoliyat yuritishga erishmoqda.

*Germaniyad*a “KfW” milliy taraqqiyot banki orqali imtiyozli kreditlar ekologik toza texnologiyalar, innovatsion ishlab chiqarish va bandlikni saqlab qolish loyihalarini moliyalashtiradi. Bu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, imtiyozli kreditlar iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda, aholi bandligini ham mustahkamlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan oxirgi yillarda aholining muayyan qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator dasturlar joriy etildi. Xususan, “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari” va “Temir daftar” doirasida minglab fuqarolarga imtiyozli kreditlar ajratilmoqda.

Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun 45 trillion so‘mdan ortiq kreditlar berilgan

bo‘lib, ularning 30 foizi imtiyozli shartlarda ajratilgan. Natijada 200 mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratilgan.

Navoiy, Qashqadaryo va Andijon viloyatlarida bu dasturlar ayniqsa samarali kechmoqda. Misol uchun, Navoiy viloyatida 2022-yilda “Ayollar daftari” orqali 18 mlrd so‘mlik kreditlar berilgan bo‘lib, 2,5 mingdan ortiq ayol o‘z biznesini yo‘lga qo‘ygan. Shu kabi natijalar imtiyozli kreditlarning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega ekanini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston sharoitida imtiyozli kreditlar tizimini yanada takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlar dolzarb hisoblanadi:

1. Kredit ajratish jarayonini raqamlashtirish va shaffoflikni ta’minlash;
2. Yoshlar va ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun maxsus imtiyozli dasturlarni kengaytirish;
3. Qishloq joylarda mikrokredit va mikromoliyalashtirish tizimini rivojlantirish;
4. Kreditlarni monitoring qilish va qaytish darajasini oshirish uchun samarali nazorat tizimini joriy etish;
5. Imtiyozli kreditlar asosida innovatsion startaplarga alohida e’tibor qaratish.

Bu takliflar aholini ish bilan band qilish darajasini oshirish, iqtisodiy faollikni kuchaytirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, imtiyozli kreditlar O‘zbekiston iqtisodiyotida bandlik siyosatini samarali amalga oshirish vositasiga aylandi. Ular nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratmoqda, balki aholining turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy tenglikni ta’minlash va iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishga ham xizmat qilmoqda. Xalqaro tajriba va milliy amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, imtiyozli kreditlar tizimini takomillashtirish iqtisodiy barqarorlikning muhim omili bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar:

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrdagi “Yoshlar va ayollar bandligini ta’minlashni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PQ–4993-son qarori.*
2. *O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yil yakunlari bo‘yicha hisobotlari.*
3. *KfW Development Bank – Annual Report, 2022.*
4. *OECD (2021). Small and Medium Enterprises Financing Outlook.*
5. *Jahon banki (2023). Uzbekistan Country Economic Memorandum.*
6. *G‘aniev R. “Kredit tizimi va iqtisodiy o‘sish o‘zaro bog‘liqligi”, Iqtisodiyot va moliya jurnali, 2022.*
7. *Karimov N. “Aholi bandligini ta’minlashda moliyaviy mexanizmlar roli”, O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2023.*
8. *UNDP (2022). Inclusive Growth and Employment Policy in Central Asia.*

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA BORASIDAGI DAVLAT SIYOSATI VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH

Karimova Iroda Abdusattarovna
Toshkent gumanitar fanlar universiteti dotsenti v.b.
Qobilov Javohir Kabil o‘g‘li
Toshkent gumanitar fanlar universiteti iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar taraqqiyoti global miqyosda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Bu jarayon nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida, balki davlat boshqaruvi

va jamoatchilik bilan o‘zaro munosabatlarda ham yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan raqamli transformatsiya — bu faqat texnologik modernizatsiya emas, balki boshqaruv, qaror qabul qilish va xizmat ko‘rsatishning sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tishi demakdir.

O‘zbekiston Respublikasi raqamli transformatsiyani davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilagan. Xususan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi orqali davlat boshqaruvining raqamlashtirilishi, iqtisodiyot tarmoqlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi, shuningdek, zamonaviy raqamli infratuzilma va ekotizimni shakllantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu strategik yondashuv raqamli suverenitetni ta'minlash, fuqarolarning davlat xizmatlariga bo‘lgan ishonchini oshirish va iqtisodiy raqobatbardoshlikni kuchaytirish maqsadlariga qaratilgan.

1. Raqamli transformatsiyaning mohiyati va ahamiyati. Raqamli transformatsiya (ing. *Digital Transformation*) — bu raqamli texnologiyalar asosida iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional tizimlarning funksional va tarkibiy jihatdan yangilanishi jarayonidir. Akademik adabiyotlarda bu atama ko‘pincha raqamli texnologiyalarni joriy qilish natijasida tashkilotlarning operatsion samaradorligi, xizmat ko‘rsatish sifati hamda foydalanuvchi tajribasini yaxshilashga yo‘naltirilgan kompleks islohotlar majmui sifatida izohlanadi [1].

Mazkur jarayon nafaqat texnik yangilanishni, balki tashkilot ichki madaniyati, menejment yondashuvlari va strategik qarorlar tizimining transformatsiyasini ham o‘z ichiga oladi. Dunyo bankining 2021-yilgi hisobotiga ko‘ra, raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirgan davlatlar o‘rtacha YaIM o‘sish sur’atini 1,5–2 foizga oshirishga erishgan [2].

Xususan, davlat sektorida raqamli transformatsiya quyidagi sohalarda sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda: Boshqaruv jarayonlarining avtomatlashtirilishi: Elektron hujjat aylanishi va onlayn xizmatlar orqali byurokratik to‘siqlar kamaymoqda; Ochiqlik va shaffoflik: Davlat xarajatlari va xizmatlarining monitoringi real vaqt rejimida olib borilishi mumkin bo‘lmoqda; Fuqarolar bilan muloqotning soddalashuvi: Interaktiv portallar, mobil ilovalar va sun’iy intellekt asosidagi yordamchi tizimlar davlat xizmatlarini aholiga tez va qulay yetkazmoqda [3].

Shuningdek, BMTning “E-Government Development Index” (EGDI) 2022-yilgi reytingida yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan davlatlarning umumiy xususiyati – bu raqamli transformatsiyani muvofiqlashtiruvchi yagona institutsional strategiyaning mavjudligidir. Bunda ma’lumotlarni boshqarish, infratuzilmani modernizatsiyalash va raqamli savodxonlikni rivojlantirish asosiy ustuvor yo‘nalishlar sifatida ajralib turadi [4]. O‘zbekiston sharoitida esa raqamli transformatsiya, ayniqsa, davlat xizmatlari ko‘rsatish t[8]izimida sezilarli natijalar bermoqda. 2020-yilga nisbatan 2024-yilda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida (my.gov.uz) ko‘rsatilgan xizmatlar soni 5 barobarga oshgan va ularning 87 foizi avtomatlashtirilgan holga keltirilgan. Bu esa, o‘z navbatida, inson omiliga bog‘liq xatoliklar va korrupsion xavflarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

2. Raqamli transformatsiya ekotizimini shakillantirish. Raqamli transformatsiya ekotizimi – bu davlat, xususiy sektor, fuqarolik jamiyati va ilmiy-ta’lim muassasalari o‘rtasida raqamli texnologiyalar asosida shakllanadigan barqaror hamkorlik tizimidir. Ushbu ekotizimning samarali ishlashi iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish,

innovatsiyalarni joriy qilish va ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilashda muhim omil sifatida qaraladi [5].

Ekotizimning asosiy komponentlari. Raqamli transformatsiya ekotizimi – bu davlat siyosati, texnologik imkoniyatlar va inson resurslari o‘rtasida uzviy bog‘liqlikda faoliyat yurituvchi kompleks tizimdir. Uning samarali ishlashi uchun besh asosiy komponent ajratiladi: infratuzilma, texnologik subyektlar, inson kapitali, regulyator muhit va ilmiy-ta’lim bazasi [6].

Raqamli infratuzilma – keng polosali internet, mobil aloqa texnologiyalari (4G/5G), ma’lumotlar markazlari, “bulutli hisoblash” va sun’iy intellektni qo‘llab-quvvatlovchi server tizimlarini qamrab oladi. ITU (2022) ma’lumotlariga ko‘ra, internetga keng polosali ulanish darajasi mamlakatning raqamli salohiyatini belgilovchi asosiy indikatorlardan biri hisoblanadi [7].

Texnologik subyektlar – innovatsion kompaniyalar, startaplar, texnoparklar va ularni qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmalar raqamli o‘zgarishlarning tashabbuskor kuchidir. Jahon iqtisodiy forumining hisoboti (2021)ga ko‘ra, raqamli texnologiyaga yo‘naltirilgan biznes ekotizimi mavjud bo‘lgan mamlakatlarda IT xizmatlarining eksporti YaIMga nisbatan o‘rtacha 6%ni tashkil qiladi [8]. Raqamli kadrlar – bu raqamli sohalarda ishlovchi muhandislar, dasturchilar, analitiklar va axborot xavfsizligi mutaxassislarini o‘z ichiga oladi. McKinsey (2021) hisobotida qayd etilishicha, 2030-yilgacha global miqyosda 85 millionga yaqin IT-mutaxassis yetishmasligi prognoz qilinmoqda [9]. Regulyator muhit – raqamli qonunchilik, intellektual mulk himoyasi, ma’lumotlar xavfsizligi va elektron boshqaruvni tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani o‘z ichiga oladi. Yaxshi tashkil etilgan regulyator muhit raqamli ekotizimning barqaror ishlashi va investitsion jozibadorligini ta’minlaydi [10]. Ilmiy-ta’lim tizimi – oliy o‘quv yurtlari, ilmiy markazlar va IT-akademiyalar orqali raqamli sohalar uchun malakali kadrlar tayyorlash hamda ilmiy-innovatsion loyihalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. UNESCO (2023) hisoboti raqamli savodxonlik darajasining iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta’sir qilishi mumkinligini ko‘rsatadi [11].

O‘zbekiston tajribasi. O‘zbekiston Respublikasida raqamli ekotizimni shakllantirish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan: IT Park Uzbekistan: 2019-yilda tashkil etilgan, 2023-yilda rezident kompaniyalar soni 1 000 dan oshgan, eksport hajmi 344 mln AQSh dollarini tashkil etgan [12]. “One Million Uzbek Coders” loyihasi: UNDP bilan hamkorlikda 2020–2023-yillarda 2 mln ga yaqin yoshlar raqamli bilimlar bo‘yicha bepul ta’lim olgan [13]. Ochiq ma’lumotlar portali (data.gov.uz): 2024-yil holatiga ko‘ra 12 mingdan ortiq ma’lumotlar to‘plami jamlangan bo‘lib, ular innovatsion ishlanmalarda faol foydalanilmoqda. Ushbu tashabbuslar texnologik muhitni faollashtirish, raqamli xizmatlar eksportini oshirish hamda aholi raqamli savodxonligini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Xalqaro ilg‘or tajriba. Estoniya tomonidan joriy etilgan X-Road tizimi orqali davlat idoralari va xususiy sektor o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvi blokcheyn asosida amalga oshiriladi, natijada 99% davlat xizmatlari onlayn ko‘rsatiladi [14].

Singapurda “Smart Nation” strategiyasi raqamli infratuzilma, kadrlar va fuqarolar raqamli madaniyatini uyg‘unlashtirgan. 2024-yil budjetining 13,5% aynan raqamli transformatsiyaga ajratilgan [15]. Bu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya faqat texnik masala emas, balki siyosiy iroda, resurs taqsimoti va ijtimoiy ishtirokni talab qiluvchi kompleks jarayondir. Muammolar va takliflar. O‘zbekistonda raqamli ekotizim rivojlanishiga quyidagi omillar salbiy ta’sir

koʻrsatmoqda: Texnik infratuzilmaning hududlar boʻyicha nomutanosib rivojlanishi; IT-sohasida yetarli malakaga ega kadrlar tanqisligi; Mahalliy startaplar uchun moliyaviy qoʻllab-quvvatlovning sustligi; Ochiq maʼlumotlardan foydalanish koʻnikmalarining yetishmasligi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilar taklif etiladi: Internet va IT infratuzilmasini chekka hududlargacha kengaytirish; Startaplarni qoʻllab-quvvatlovchi grant va venchur mexanizmlarini kuchaytirish; Raqamli taʼlimda amaliy koʻnikmalarga asoslangan yondashuvni kengaytirish; Ochiq maʼlumotlar asosida innovatsion ishlanmalarni ragʻbatlantirish uchun qonunchilikni soddalashtirish.

Xulosa va tavsiyalar: Raqamli transformatsiya zamonaviy davlat va jamiyat rivojining muhim tarkibiy qismi boʻlib, nafaqat davlat boshqaruvida, balki iqtisodiyot, taʼlim, sogʻliqni saqlash va ijtimoiy sohalarda tub oʻzgarishlarni taʼminlaydi. U texnologik innovatsiyalarni joriy etish, maʼlumotlar oqimini optimallashtirish va interaktiv xizmatlar orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Oʻzbekiston raqamli transformatsiyani infratuzilma yangilanishi, kadrlarni tayyorlash va qonunchilikni takomillashtirish orqali barqaror rivojlantirmoqda. Kelgusida quyidagi yoʻnalishlarga eʼtibor qaratish muhim: Mahalliy va xalqaro IT-kompaniyalar bilan strategik hamkorlikni kengaytirish, innovatsiyalar va texnologik integratsiyani rivojlantirish; Har bir hududda raqamli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, hududlar oʻrtasidagi raqamli tafovutni kamaytirish; Aholining barcha toifalari, xususan yoshlar va qishloq aholisi uchun raqamli savodxonlikni oshirish dasturlarini chuqurlashtirish; Startaplar uchun moliyaviy va huquqiy qoʻllab-quvvatlashni kuchaytirish, jumladan, soliq imtiyozlari va intellektual mulk himoyasi.

Raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati davlat boshqaruvi tizimining innovatsiyalarga moslashuvi, inson kapitalining rivojlanishi va yuqori sifatli texnologik infratuzilmaga bogʻliq. Ushbu omillar uygʻunlashganda, Oʻzbekiston raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishadi.

Adabiyotlar:

1 Reis, J. et al. (2018). "Digital Transformation: A Literature Review and Guidelines for Future Research." Advances in Intelligent Systems and Computing, Springer.

2 World Bank (2021). Digital Economy for Development Report. Washington, D.C

3 OECD (2020). Digital Government Index: 2019 Results. Paris: OECD Publishing.

4 United Nations (2022). E-Government Survey 2022: The Future of Digital Government. New York: UN.

5 Ismail, M. H., Khater, M., & Zaki, M. (2017). Digital Business Transformation and Strategy: What Do We Know So Far?. University of Cambridge, Working Paper.

6 OECD (2020). Digital Government Policy Framework. Paris.

7 ITU (2022). Measuring Digital Development. Geneva.

8 WEF (2021). Global Digital Competitiveness Index. Davos.

9 McKinsey Global Institute (2021). The Future of Work After COVID-19.

10 OECD (2020). Digital Government Policy Framework. Paris.

11 UNESCO (2023). Education in the Digital Age.

12 IT Park Uzbekistan (2024). Yillik hisobot.

13 UNDP Uzbekistan (2023). 1 Million Coders Project Report.

14 Government of Estonia (2023). e-Estonia Briefing.

15 Smart Nation Singapore (2024). Budget Allocation Overview.

YASHIL IQTISODIYOTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH VA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Ismoilov Abdulxoliq Muxiddin o‘g‘li
Menejment kafedrasi o‘qituvchisi NamDTU

So‘nggi yillarda global iqtisodiy rivojlanishning markaziy yo‘nalishlaridan biri sifatida “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi ilgari surilmoqda. Ushbu konsepsiya iqtisodiy o‘sishni ekologik barqarorlik, resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy farovonlik bilan uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi [1]. Birlashgan Millatlar Tashkiloti yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biri sifatida e’tirof etib, raqamli texnologiyalarni ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirishda muhim instrument sifatida belgilagan [2]. Shuningdek, Jahon banki va Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi hisobotlarida raqamli transformatsiya global energiya bozorida resurslardan foydalanish samaradorligini 15–20 foizgacha oshirishi mumkinligi ta’kidlanadi [3].

OECD tomonidan 2023-yilda chop etilgan “Digitalisation for Green Growth” hisobotida raqamli texnologiyalar yashil iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashda uchta asosiy mexanizmni amalga oshirishini ko‘rsatdi: birinchidan, resurslardan samarali foydalanish; ikkinchidan, atrof-muhit monitoringini real vaqt rejimida olib borish; uchinchidan, boshqaruv shaffofligini kuchaytirish [4]. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalari chiqindilarni qayta ishlash samaradorligini 30 foizgacha oshirishi, raqamli tizimlar esa ekologik loyihalar moliyalashtirishida korrupsiya risklarini kamaytirishi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan [5].

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda “yashil iqtisodiyot” va raqamli transformatsiyani uyg‘unlashtirish bo‘yicha muhim qadamlar qo‘yildi. Xususan, 2019–2030-yillarga mo‘ljallangan “yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” tasdiqlandi. Ushbu hujjatda qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, resurslardan foydalanishni optimallashtirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash ustuvor vazifa sifatida belgilandi [6]. Mazkur strategiya mamlakatning barqaror rivojlanish modelini yaratishga xizmat qilib, ekologik barqarorlikni iqtisodiy o‘sish bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan.

Keyingi bosqichda 2020-yil 5-oktabrda qabul qilingan PF–6079-son Farmon bilan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi tasdiqlandi. Mazkur hujjat davlat boshqaruvi, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali samaradorlik va shaffoflikni oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, yashil iqtisodiyot konsepsiyasini qo‘llab-quvvatlashda ham muhim o‘rin egallaydi [7].

2022-yil 2-dekabrda esa PQ–436-son Qaror qabul qilinib, 2030-yilgacha yashil iqtisodiyot islohotlarining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari belgilandi. Ushbu qaror innovatsion va raqamli yechimlarni keng joriy etish, “yashil moliya” instrumentlarini rivojlantirish hamda hududiy tafovutlarni kamaytirishga qaratilgani bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi [8].

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarni yashil iqtisodiyotga integratsiya qilish nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash, hududiy tafovutlarni kamaytirish va yangi “yashil ish o‘rinlari”ni yaratishda ham strategik ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ushbu maqola xalqaro tashkilotlar xulosalari va milliy normativ-huquqiy hujjatlar asosida yashil iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarni qo‘llash mexanizmlarini ilmiy tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

Quyida keltirilgan jadvalda 2015–2024 yillar davomida Namangan viloyati sanoat korxonalarida energiya samaradorligi ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi yoritilgan. Jadval elektr va issiqlik energiyasi tejalishi, yoqilg‘i sarfi kamayishi hamda umumiy energiya

samaradorligining dinamikasini aks ettirib, hududda “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish jarayonini ilmiy asosda ko‘rsatib beradi.

1-jadval.

Namangan viloyatida sanoat korxonalarida energiya samaradorligi ko‘rsatkichlari

Yil	Elektr energiyasi tejalishi (%)	Issiqlik energiyasi tejalishi (%)	Yoqilg‘i sarfi kamayishi (%)	Umumiy energiya samaradorligi (%)
2015	1,8	1,2	0,9	1,3
2016	2,3	1,7	1,1	1,8
2017	3,1	2,2	1,5	2,3
2018	4,5	3,1	2,2	3,4
2019	5,6	4,2	2,9	4,5
2020	7,1	5,8	3,7	5,9
2021	8,3	6,9	4,5	6,9
2022	9,6	8,1	5,3	8,0
2023	10,8	9,2	6,1	9,1
2024	12,2	10,5	7,0	10,4

Manba:*Namangan viloyati statistika boshqarmasi hamda Energiya samaradorligi bo‘yicha hududiy dastur hisobotlari asosida muallif ishlanmasi*

Namangan viloyatida so‘nggi o‘n yil davomida sanoat korxonalarida energiya samaradorligi ko‘rsatkichlari barqaror o‘sish trendini namoyon qilmoqda. Elektr energiyasi tejalishi 2015-yildagi 1,8 foizdan 2024-yilda 12,2 foizgacha oshib, qariyb 6,8 baravar ko‘paygan. Issiqlik energiyasi bo‘yicha ham sezilarli yuksalish kuzatilgan bo‘lib, ko‘rsatkich 1,2 foizdan 10,5 foizgacha ko‘tarilgan (1-jadval).

Yoqilg‘i sarfi kamayishi ko‘rsatkichining 2015-yildagi 0,9 foizdan 2024-yilda 7 foizga yetgani, resurslardan oqilona foydalanish mexanizmlarining samarali ishlayotganini ko‘rsatmoqda. Umumiy energiya samaradorligi 2015-yilda 1,3 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib 10,4 foizni tashkil etib, 8 baravar oshgan. Bu ko‘rsatkichlar viloyatda “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini amalda qo‘llash natijasi sifatida sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish xarajatlari kamayib, ekologik barqarorlikni ta’minlash yo‘lida sezilarli natijalarga erishilganini tasdiqlaydi.

Namangan viloyatida sanoat korxonalarida energiya samaradorligi ko‘rsatkichlarining oshishi (1-jadval) hududda “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish jarayonining bir qismi sifatida qaraladi. Ushbu jarayon ishlab chiqarishdagi resurslardan oqilona foydalanishni kuchaytirish bilan bir qatorda, ekologik boshqaruv mexanizmlarini ham takomillashtirishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, chiqindilarni qayta ishlash ko‘rsatkichlari viloyat ekologik tizimining barqarorlik darajasini aks ettiruvchi muhim indikator hisoblanadi. 2-jadval ma’lumotlari tumanlar kesimida qayta ishlash infratuzilmasining rivojlanishini, chiqindi hajmlarining kamayishini hamda resurslarning ikkilamchi aylanishi kuchayishini yoritib beradi. Bu esa energiya samaradorligi va chiqindi boshqaruvi o‘rtasida mavjud bo‘lgan o‘zaro ijobiy bog‘liqlikni ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, 2015–2024 yillar oralig‘ida Namangan viloyatining barcha tumanlarida chiqindilarni qayta ishlash hajmi muntazam ravishda oshib borgan. 2015-yilda viloyat bo‘yicha jami 75,1 ming tonna chiqindi qayta ishlangan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 167,9 ming tonnaga yetib, 2,2 baravar o‘sishga erishilgan. Eng yuqori ko‘rsatkich Namangan shahrida qayd etilib, 2015-yildagi 18,4 ming tonnadan 2024-yilda 45,2 ming tonnaga ko‘tarilgan. To‘raqo‘rg‘on va Pop

tumanlari ham yetakchi hududlar qatoriga kirib, mos ravishda 22,1 ming tonna va 19,7 ming tonna chiqindi qayta ishlash hajmiga erishgan.

2-jadval.

Namangan viloyati tumanlari bo‘yicha chiqindilarni qayta ishlash darajasi

Tumanlar	2015	2018	2020	2022	2024
Namangan shahar	18,4	26,7	31,5	38,9	45,2
Chortoq	6,2	8,4	10,1	12,5	14,3
Chust	7,5	9,8	11,2	13,4	15,6
Kosonsoy	5,1	6,7	7,9	9,6	11,4
Norin	4,8	6,1	7,2	8,9	10,3
Pop	9,0	12,2	14,8	17,3	19,7
To‘raqo‘rg‘on	10,4	13,6	16,5	19,8	22,1
Uychi	5,6	7,2	8,9	10,4	12,0
Yangiqo‘rg‘on	8,1	10,5	12,7	15,3	17,5

Manba: *Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi*

Shu bilan birga, Norin va Kosonsoy tumanlarida ko‘rsatkichlar nisbatan past darajada qolmoqda (2024-yilda mos ravishda 10,3 va 11,4 ming tonna). Biroq bu hududlarda ham barqaror o‘sish tendensiyasi mavjudligi kuzatiladi. Umuman olganda, chiqindilarni qayta ishlash hajmining ortishi viloyatda ekologik infratuzilma rivojlanayotganini, nazorat va monitoring tizimlari samaradorligi oshayotganini ko‘rsatadi. Bu jarayon sanoat korxonalarida energiya samaradorligining ortishi bilan uyg‘unlashib, “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining hududiy darajada bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etilayotganini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Yuqoridagi tahlillar Namangan viloyatida “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini amalda qo‘llash bo‘yicha sezilarli natijalarga erishilganini ko‘rsatadi. Sanoat korxonalarida energiya samaradorligi oshib borayotgani va chiqindilarni qayta ishlash ko‘rsatkichlarining muntazam o‘sishi hududda ekologik va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan, quyidagi xulosalar ishlab chiqildi.

Birinchidan, 2015–2024 yillar davomida Namangan viloyatida sanoat korxonalarida energiya samaradorligi ko‘rsatkichlari izchil o‘sish tendensiyasini namoyon etdi. Elektr energiyasi tejalishi 1,8 foizdan 12,2 foizgacha, issiqlik energiyasi tejalishi 1,2 foizdan 10,5 foizgacha, yoqilg‘i sarfi kamayishi esa 0,9 foizdan 7 foizgacha ko‘tarildi. Bu natijalar sanoat tarmoqlarida energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishning samarali kechayotganini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, viloyat tumanlari kesimida chiqindilarni qayta ishlash hajmi 2015-yildagi 75,1 ming tonnadan 2024-yilda 167,9 ming tonnaga yetib, 2,2 baravar o‘sishga erishildi. Eng yuqori ko‘rsatkich Namangan shahrida qayd etildi (45,2 ming tonna), To‘raqo‘rg‘on va Pop tumanlari ham sezilarli o‘sish sur’atlarini namoyon qildi. Bu jarayon chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasining izchil rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Uchinchidan, energiya samaradorligi va chiqindilarni qayta ishlash ko‘rsatkichlari o‘rtasida bevosita o‘zaro bog‘liqlik mavjudligi kuzatildi. Energiyani tejash va chiqindilarni kamaytirish natijasida resurslardan foydalanish samaradorligi oshib, ishlab chiqarish jarayonlarida ekologik xavflar kamaymoqda. Bunday uyg‘unlik “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini amalda qo‘llashning hududiy natijalarini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

To‘rtinchidan, mavjud natijalarga qaramay, ayrim tumanlarda, xususan, Norin va Kosonsoy hududlarida chiqindilarni qayta ishlash darajasi pastligicha qolmoqda. Bu esa infratuzilma rivojida hududiy tafovutlar mavjudligini ko‘rsatib, kelgusida resurslarni adolatli taqsimlash, qo‘shimcha investitsiyalar jalb qilish va innovatsion yechimlarni keng joriy etish zarurligini ta’kidlaydi.

Beshinchidan, umumiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Namangan viloyatida yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni izchil rivojlanmoqda, ammo samaradorlikni yanada oshirish uchun boshqaruvni raqamlashtirish, hududiy energetika va ekologiya dasturlarini uyg‘unlashtirish hamda xalqaro hamkorlik mexanizmlaridan samarali foydalanish talab etiladi. Shu asosda 2030-yilgacha bo‘lgan strategik maqsadlarga erishish imkoniyatlari kuchayadi.

Adabiyotlar

1. UNEP (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. United Nations Environment Programme.

2. UN (2015). Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development. United Nations.

2. World Bank (2022). Digital Development and Green Growth. Washington, D.C.: World Bank.

3. OECD (2023). Digitalisation for Green Growth. OECD Publishing, Paris.

4. KPMG (2021). AI and Blockchain in Green Economy: Opportunities and Challenges.

5. KPMG Global Insights.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi 2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PQ–4477-son Qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni, 2020-yil 5-oktabr.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-436-son Qarori

10.Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari

11.Namangan viloyati investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi ma’lumotlari

RAQAMLI IQTISODIYOT MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANISHTIRISHNING MUHIM SHARTI SIFATIDA

Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich
Guliston davlat universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti

Ilmiy va texnologik taraqqiyotni jadallashtirish, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, yangi texnologiyalarni izchil joriy etish hisobiga ishlab chiqarish tuzilmasining o‘zgarishi bilan bog‘liq holda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan o‘zgarishlar asnosida iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida ijobiy o‘zgarish-lar ko‘zga tashlanmoqda (bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning ulushi dunyo YaIMining 10 foizini tashkil etadi). Shu asnoda innovatsion taraqqiyotning turli vazifa va muammolarini hal etish borasidagi qarashlar va yondashuvlar ham o‘zgarib bormoqda. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish global iqtisodiyot asoslarini o‘zgartirish va qayta ko‘rib chiqishga olib keladi, chunki zamonaviy iqtisodiyot ma’lumotlar bazasini boshqarishga asoslangan iqtisodiyot hisoblanadi [4].

Iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida – “raqamli iqtisodiyot” kontseptsiyasi vujudga keldi, mazkur kontseptsiyaning asosini katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va xizmat ko‘rsatish sohasini (onlayn xizmatlar, elektron to‘lovlar va boshqalar) rivojlantirish imkonini beruvchi raqamli va kompyuter texnologiyalarini rivojlantirish va ularni jamiyat hayotining barcha sohalariga izchil joriy etish bilan bog‘liq bo‘lgan inson faoliyatini tashkil etishning o‘ziga shakl va usullari tashkil etadi [6]. Zamonaviy, intellektual iqtisodiyot sari rivojlanish, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish murakkab jarayon bo‘lib, ko‘plab omillarga bog‘liq va ularning ekonometrik tahlili raqamli iqtisodiyotni oqilona boshqarish hamda tartibga solish imkonini beradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga “raqamli texnologiyalar”ni joriy etish bugungi kunda o‘zining potentsial imkoniyatlarini kengaytirish jarayonida bo‘lgani holda, texnik baza, dasturiy ta’minotning nomukammalligi, aholi kompyuter savodxonlik darajasining pastligi, raqamli texnologiyalar sohasini tartibga solish borasida qonunchilik bazasining bugungi kun talablariga javob bera olmasligi kabi omillar kompyuter texnologiya-larini keng joriy etish va biznes muhitiga yangi “raqamli texnologiyalar”ni integratsiyalashuviga to‘sqinlik qilmoqda.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tishimiz lozimki, raqamli iqtisodiyotni rivojlan-tirishda davlatning qo‘llab-quvvatlovchi siyosati alohida ahamiyat kasb etadi. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnolo-giyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Mamlakatimiz rahbari joriy 2020 yilning 24 yanvarida mamlakat Parlamentiga yo‘llagan Murojaatnomasida: ”Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda... aksariyat vazirlik va idoralar, korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroq... Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o‘tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘ladi”- deb ta’kidlab o‘tdi [1].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda ishlab chiqilishi ko‘zda tutilgan “Raqamli O‘zbekiston-2030” kontseptsiyasida O‘zbekistonda bilimlar jamiyatini rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni barpo etish, ilg‘or raqamli texnologiyalardan foydalangan holda raqamli iqtisodiyot sektori tomoni-dan yaratilgan tovar va xizmatlardan uy xo‘jaliklarining foydalana olishlari uchun etarlicha imkoniyatlar yaratish va ularning turmush farovonligini oshirish, uy xo‘jaliklari a’zolarining xabardorlik va raqamli savodxonlik darajasini oshirish, fuqarolar uchun sifatli va arzon davlat xizmatlarini ko‘rsatish, mamlakatning barcha hududlarini sifatli va tezkor Internet aloqasi bilan ta’minlanishini yo‘lga qo‘yish, uy xo‘jaliklari va davlat miqyosida axborot xavfsizligini ta’minlash kabi masalalar ko‘zda tuilishini maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Ta’kidlash lozimki, raqamli texnologiyalar sohasi mutaxassislarining fikricha, bugungi kunda jahonda Internetdan foydalanuvchilar soni dunyo aholisining 52 foizini tashkil etadi. Qashshoq uy xo‘jaliklarining 20 foizida a’zolarning har o‘ntasidan ettitasida uyali telefon mavjud.

Mobil telefonga ega bo‘lgan qashshoq uy xo‘jaliklarining soni oddiy hojat-xona yoki toza ichimlik suvidan foydalanish imkoniga ega bo‘lganlardan anchagina ko‘pchilikni tashkil etadi.

Jahon banki ekspertlarining fikricha, bugungi kunda butun dunyo mamlakat-lari “raqamli inqilob”ni boshidan kechirmoqdalar[4]. Ular bu borada bir qator xulosalarni ilgari suradilar:

1. Internet, uyali aloqa va axborot-kommunikatsiya texnolo-giyalarining keng taraqqiy etishi raqamli iqtisodiyotning shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi;
2. Raqamli iqtisodiyot dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida jadal taraqqiy etmoqda;
3. Raqamli iqtisodiyot dunyo qiyofasining tubdan ijobiy tomonga o‘zgarishiga olib keladi.

Shu tufayli mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 19 fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi va sohani jadal rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilandi. Bugungi kunda butun dunyo mamlakatlarida bo‘lgani kabi mamlakatimizda ham uy xo‘jaliklari raqamli iqtisodiyotning avfzalliklaridan kengroq foydalanishni istaydilar. Shu sababli ham raqamli inqilob mamlakatimizda barcha uy xo‘jaliklarini birdek qamrab olishi uchun sohaga investitsiyalar kirib kelishini faollashtirish, texnologiyalar va innovatsion biznes g‘oyalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash talab etiladi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga turtki beruvchi texnologiyalarni jadal joriy etish nuqtai –nazaridan mamlakatlarni quyidagi to‘rtta guruhga bo‘lishimiz mumkin: yetakchi mamlakatlar; istiqbolli mamlakatlar, o‘sish darajasi pasayayotgan va muammoli mamlakatlar.

Yetakchi mamlakatlar yuqori darajada rivojlangan raqamli iqtisod va kuchli rivojlanish dinamikasiga ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Ular o‘z mavqelaridan samarali foydalanib, innovatsiyalarni rag‘batlantiradilar. Biroq, vaqt o‘tishi bilan yuqori o‘sish sur’atlarini saqlab qolish katta qiyinchilik tug‘diradi va ko‘pincha innovatsiyalar iqtisodiy ta’sirni kengaytirish uchun ishonchli asos bo‘lib xizmat qila olmaydi. O‘z mavqelarini yo‘qotmaslik uchun bu mamlakatlar yangi talabni yaratishlari va innovatsion yechimlarni ishlab chiqishni yanada avj oldirishlari talab etiladi. Aks holda, ularning o‘sish sur’atlari sekinlashayotgan mamlakatlar toifasiga tushib qolish xavfi yuqorilab boraveradi.

O‘sish sur’atlari pasayayotgan mamlakatlar raqamli iqtisodiyotning taraqqiy etganligi bilan ajralib tursada, lekin raqamli iqtisodiyotning o‘sish sur’atlari sekinlashishi bilan ajralib turadi. Mazkur mamlakatlar yetakchi mamlakatlardan innovatsion rivojlanishni qo‘llab – quvvatlash borasida ular to‘plagan boy tajribani o‘zlashtirishlari asnosida yetakchi mamlakatlar qatoriga o‘tishlari mumkin, aksincha ular muammoli mamlakatlar qatoriga o‘tib qolishlari ehtimoldan holi emas.

Istiqbolli mamlakatlar hozirgi kunda raqamlashtirish darajasi past bo‘lsada, lekin jadal rivojlanayotganligi bilan alohida ajralib turadi. Barqaror rivojlanish dinamikasi va raqamli texnologiyalarni joriy etish borasidagi mavjud katta salo-hiyat investorlarda katta qiziqish uyg‘otadi. Mazkur mamlakatlar raqamli texnolo-giyalarning taraqqiyotiga cheklovchi ta’sir ko‘rsatuvchi infratuzilma va institutsional muhitning yomon sifati bilan ajralib turadi. Istiqbolli mamlakatlar eng yaxshi innovatsion yechimlarni

rag‘batlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion infratuzilma ob’ektlari va institutlarini barpo qilishga harakat qilishlari lozim.

Muammoli mamlakatlar raqamlashtirishning past darajasi bilan farqlanadi. Raqamlashtirishning past darajasi iqtisodiy taraqqiyot yo‘lida qator muammolarni vujudga keltirgani holda, iqtisodiyotning innovatsion va raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishga imkon bermaydi. Ba’zi muammoli mamlakatlar infratuzil-ma tanqisligi, institutsional cheklovlar va iste’molchilarning uquvsizligi kabi muammolarni hal etishda o‘ziga xos tarzda yondashishga harakat qiladilar. Ular uchun rivojlanish dinamikasini yaxshilashning eng ishonchli yo‘li internetdan foydalanishdagi bo‘shliqni kamaytirish orqali aholining internetdan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashdan iboratdir.

Alohida ta’kidlash lozimki, davlatning qo‘llab-quvvatlovchi siyosati raqamli iqtisodiyotning jadal taraqqiy etishiga ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy taraqqiyot “oqsoqlanishi”ning oldini olish maqsadida: raqamli innovatsiyalar sohasida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini qonun yo‘li bilan tartibga solish; iqtiso-diyotda yangi texnologiya va axborot oqimlaridan foydalanishni rag‘batlantirish; uy xo‘jaliklari a’zolarining raqamli makonda faoliyat ko‘rsata olishlarini ta’min-lash maqsadida o‘quvchi va talabalarning yangicha fikrlashlariga xizmat qiluvchi o‘quv dasturlarini joriy etish, raqamli texnologiyalar sohasi uchun malakali mutaxassis va kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish talab etiladi. Raqamli texno-logiyalar va raqamli iqtisodiyot vositalarini iqtisodiyotning barcha soha va tarmoq-lariga keng joriy etishda tijorat banklarining o‘rni va ahamiyati juda ham katta. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda banklar faoliyatida ham raqamli transformatsiyalashni amalga oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Banklar faoliyatida raqamlashtirishdan foydalanish – bu eng avvalo yangi bank xizmatlarini ko‘rsatish, yangi bozor imkoniyatlariga ega bo‘lish maqsadida raqamli texnolo-giyalardan keng foydalanishni ko‘zda tutadi. Bugungi kunda butun jahonda bank amaliyotida amalda mavjud biznes-modellar o‘rniga raqamli valyutalar, R2R-servislar,mobil va kontaktsiz to‘lovlar tizimidan keng foydalanilmoqda. Aynan shundan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda ham bank tizimini raqamli transformatsiyalash va bu borada jahon amaliyotida keng qo‘llaniluvchi raqamli texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi [5,6].

Iqtisodiyotni raqamlashtirish birinchi navbatda iqtisodiyotning samaradorligi va raqobatbardoshliligini oshirishni ko‘zda tutadi. Ekspertlarning hisoblashlaricha raqamlashtirish evaziga mahsulot ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish xarajatlari 10-40 foizgacha pasayadi, asbob-uskunalarning bo‘sh turib qolishi 30-50 foiz-gacha, mahsulot va xizmatlarni bozorga olib chiqish xarajatlari 20-50 foizgacha, mahsulot sifatini yaxshilash va reklama xarajatlari 10-20 foizgacha, ishlab chiqarish zahiralarini saqlash xarajatlari esa 20-50 foizgacha qisqaradi [3].

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqqan holda quyidagicha xulosa yasashimiz mumkin bo‘ladi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirishning hozirgi darajasi kam mehnat, moliyaviy va moddiy resurslarni sarflagan holda yuqori iqtisodiy samaraga erishish imkoniyatini beradi. Xo‘jalik yurituvchi iqtisodiy sub’ektlarining zaruriy axborotlarga egalik qilishi raqobat ustunligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ularga o‘z faoliyatlarini bashoratlash aniqligini ta’minlashga va pirovardida moliyaviy savod-xonligini yaxshilashga zamin yaratadi.

Raqamli iqtisodiyot moliyaviy aktivlar, to‘lovlar tizimi, mehnat, tovar va xizmatlar bozorini yangicha tashkil etish, ularni innovatsion asoslarda rivojlantirish borasida katta imkoniyatlar taqdim etadi.

Tashkilot va korxonalarda hujjatlar aylanishini va bu bilan bog‘liq xarajat-larni qisqartiradi.

Milliy iqtisodiyot tarmoq va sohalarida mehnat unumdorligining o‘sishini ta’min etadi, mahsulot va xizmatlar sifati yaxshilanishiga va bir so‘z bilan ayt-ganda O‘zbekiston iqtisodiyotining jadal sur’atlar bilan rivojlanishiga zamin yaratadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi.

2. Доклад о цифровой экономике 2019. Создание стоимости и получение выгод: Последствия для развивающихся стран. ООН. Женева 2019 г.

3. М.Ачаповская Цифровизация экономики как драйвер инновационного развития./ Банкаўскі веснік, САКАВИК 2019.

4. Доклад о развитии цифровой экономике в России. Конкуренция в цифровую эпоху: стратегические вызовы для Российской Федерации./ 2018 Международный банк реконструкции и развития / Всемирный банк

5. Экономика инноваций. Курс лекций. Москва., МАКС Пресс, 2014.

6. A.N.Aripov, O.K.Iminov , X.A.Muxiddinov “Infoiqtisodiyot asoslari” , T-2006.

7. Построение бизнес-модели, А.Остервалдер, И.Пине, Алпина Паблишер, Сколково, 2012, 288 стр.

8. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi ma’lumotlari.

2-SHO‘BA

INNOVATSION FAOLIYAT JARAYONIDA MOLIYAVIY HOLATNI TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH, MOLIYAVIY OQIMLARNI BOSHQARISH

КОНЦЕПЦИЯ РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА

Усманов Анвар Саидмахмудович
д.э.н., профессор, зав.сектором НИЦ при ТГЭУ профессор кафедры Ташкентского филиала РЭУ им. Г.В.Плеханова

В статье раскрывается концепция развития человеческого капитала как ключевого фактора повышения производительности труда, сокращения рабочего времени, экологической устойчивости и социальной инклюзии. Показана необходимость инновационной трансформации экономики и соответствующей финансовой инфраструктуры. Предлагается целостная модель, в которой человеческий капитал рассматривается как системообразующий элемент устойчивого роста. Методологической основой служит междисциплинарный подход, объединяющий экономическую теорию, экологическую экономику и институты социальной политики.

Введение. Современные глобальные вызовы — технологические, экологические, социальные — требуют переосмысления базовых факторов экономического развития. Всё большую актуальность приобретает человеческий капитал как стратегический ресурс экономики знаний, инновационного роста и устойчивого развития. Однако реализация его потенциала требует комплексного подхода, учитывающего не только образование и здоровье, но и институциональную, экологическую и финансовую среду.

Методологическая основа исследования. Методологический каркас концепции опирается на синтез нескольких направлений научной мысли:

- *Теория человеческого капитала* (Т. Шульц, Г. Беккер) рассматривает знания, навыки и здоровье как экономические активы;
- *Институциональная экономика* (Д. Норт, О. Уильямсон) анализирует роль формальных и неформальных институтов;
- *Модели эндогенного роста* (П. Ромер, Л. Джонс) подчёркивают значение инвестиций в знания и инновации;
- *Экологическая экономика* (Н. Жоржеску-Рёген, Х. Дэйли) поднимает вопросы экологических ограничений экономического роста;
- *Теории устойчивого развития* (ОНН, OECD) вводят категорию качества жизни и здоровья в макроэкономический анализ.

Такой подход позволяет формировать неразрывную связь между человеческим капиталом, экономической эффективностью и устойчивостью.

Человеческий капитал и производительность труда. Повышение качества человеческого капитала — через инвестиции в образование, здравоохранение,

культуру труда — ведёт к росту производительности труда. Этот рост, в свою очередь, создаёт объективные предпосылки для:

- *Сокращения рабочего времени* при сохранении производственной эффективности;
- Повышения удовлетворённости трудом;
- Формирования «экономики свободного времени».

Таким образом, человеческий капитал становится не только источником роста, но и основой гуманизации труда.

Инновационная экономика как институциональная среда развития капитала. Инновационное развитие требует высокой квалификации, гибкости мышления, способности к адаптации — всех тех характеристик, что входят в структуру человеческого капитала. В свою очередь, инновационная экономика:

- Создаёт спрос на высококвалифицированный труд;
- Увеличивает отдачу от инвестиций в человека;
- Становится катализатором социального лифта и устранения неравенства.

Возникает *позитивная петля обратной связи:* чем выше уровень человеческого капитала — тем более инновационна экономика, и наоборот.

Экологическая устойчивость и здоровье. Концепция «зелёной экономики» утверждает приоритет экологических факторов как основы для общественного блага. Влияние экологической среды на здоровье населения очевидно:

- Загрязнение воздуха, воды и почвы прямо влияет на уровень заболеваемости;
- Экологические катастрофы создают долговременные экономические потери;
- Здоровье — это не только индивидуальная, но и общественная инвестиция.

Таким образом, забота об экологии становится *инструментом развития человеческого капитала,* снижая нагрузку на здравоохранение и повышая общий уровень благополучия.

Финансовая инфраструктура: роль государства. Для реализации данной концепции требуется адекватная институциональная и финансовая поддержка:

- *Полное бюджетное финансирование образования и здравоохранения* рассматривается не как издержки, а как стратегические инвестиции;
- Финансовая система должна обеспечивать перераспределение ресурсов в пользу общественных благ;
- Использование инновационных инструментов — «зелёные» облигации, социальные фонды, целевые налоги — усиливает устойчивость и эффективность системы.

Государственная политика в этой модели выступает не как администрирование, а как *активное развитие инфраструктуры возможностей.*

Выводы. Предложенная концепция демонстрирует системную взаимосвязь между развитием человеческого капитала, инновационным ростом, экологической устойчивостью и институциональной трансформацией. Главные выводы:

1. *Человеческий капитал* — это не просто совокупность навыков, но и здоровье, экологическая безопасность, доступ к образованию.

2. *Рост производительности труда* на базе развития капитала позволяет гуманизировать труд, сократить рабочее время.

3. *Инновационная и зелёная экономика* служат средой и следствием развития человеческого потенциала.

4. *Бюджетное финансирование* образования и здравоохранения — необходимое условие для справедливого и устойчивого развития.

Таким образом, развитие человеческого капитала становится *интегральной стратегией социально-экономической политики* XXI века.

Литературы:

1. *Шульц Т. Инвестиции в человеческий капитал // Американский экономический обзор. – 1961. (Пер. в: Вэблен Т., Шульц Т. Теория человеческого капитала. – М.: Вопросы экономики, 2004.)*

2. *Беккер Г. Человеческий капитал: Теоретический и эмпирический анализ. – М.: Издательство ГУ ВШЭ, 2003.*

3. *Норт Д. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики. – М.: Фонд экономической книги «Начала», 1997.*

4. *Уильямсон О. Экономические институты капитализма: фирмы, рынки, «отношенческие» контракты. – СПб.: Лениздат, 1996.*

5. *Ромер П. Эндогенный технологический рост и роль человеческого капитала // Экономическая теория. – 1994. – №3.*

6. *Джонс Ч. Модели экономического роста, основанные на исследованиях и разработках // Вопросы экономики. – 2004. – №12.*

7. *Жоржеску-Рёген Н. Закон энтропии и экономический процесс. – М.: Институт логики, 2000.*

8. *Дэйли Х. За пределами роста: Экономика устойчивого развития. – М.: Прогресс, 2005.*

ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ДЕМОГРАФИК ЎСИШ ВА ИҚТИСОДИЙ ЎЗГАРИШЛАР

Мамадалиева Хафиза Холдаровна
Иқтисодиёт фанлари доктори, профессор
Плеханов номидаги Россия иқтисодиёт университетининг Тошкент филиали
ORCID:0009-0002-8412-8062

Сўнги йилларда Ўзбекистонда бўлиб ўтаётган демографик ўзгаришлар ўзини интесивлиги билан ажралиб турмоқда. 2020 -2024 йилларда туғилишнинг ўртача сони 725-735 минг болани ташкил этди, 2025 йил 1 январь ҳолатига Ўзбекистоннинг доимий аҳоли сони 37 млн 543 минг кишидан ошди (2023 йилда 36,8 млн киши бўлган), 2024 йил республика бўйича 743,4 та бола туғилди, ҳар бир туғиш ёшидаги аёлга 3,35дан тўғри келди, 2016 йилда бу кўрсатқич 2,5 промилени ташкил этган. Жаҳон амалиётини ҳисобга олган ҳолда ушбу кўрсаткичнинг чегара қиймати 2,2 ташкил этади.

Ўтган йиллардан фарқли равишда ҳозирги Ўзбекистонда иқтисодий ўсиш кўрсаткичлари аҳоли сонининг ўсиш кўрсаткичларидан анча юқори бўлмоқда. Масалан, 2012 йилда аҳоли сони 1,5 фоизга ошган пайтда, ЯИМ 8,2% га ўсган, 2017 йилда эса бу нисбат 1,7 ва 5,3%ни ташкил этди. Бундай ҳолат оилалар турмуш даражаси ва сифатини ошиши ва авлодлар ўртасидаги трансфертларни шаклланиши учун қулай шарт–шароитлар яратади.

Ҳозирги пайтда Ўзбекистонда уй хўжаликларининг асосий қисмида (99%) ҳаёт кечириш учун зарур маблағ ва оила турмуш даражасини таъминлашга қодир бўлган шахслар мавжуд. Айни пайтда ҳар бир уй хўжалигини турмуш фаровонлиги иқтисодий ва демографик омилларнинг ўзаро алоқадорлигига боғлиқ.

Иқтисодий хулқ–атвор–бу индивиднинг меҳнат бозорида, истеъмол ва молия бозорларидаги, оилада озиқ–овқат маҳсулотлари ишлаб чиқариш борасидаги хулқ-атворидир. Демографик хулқ-атвор эса репродуктив–хулқ-атвор, репродуктив майл ва яшаш жойни алмаштиришга бўлган муносабатни ўз ичига олади.

Демографик омиллар уй хўжалигини иқтисодий таркибини, яъни унинг меҳнатга лаёқатли ёшдаги аъзолари билан меҳнатга лаёқатли бўлмаган аъзолари ўртасидаги нисбатни белгилайди. Тадқиқотларнинг кўрсатишича, республикада шаҳар ва қишлоқ оилаларининг 80% ўзининг боқимандаларига эга.

Маълумки, уй хўжалигини даромадлари унинг даромад ва ҳаражатлари йиғиндисидан иборат бўлган оила бюджетида ўз ифодасини топади. Айни пайтда уй хўжалигини иқтисодий барқарорлигини таъминлаш ва уни сақлаб туриш учун унинг даромадлари ҳаражатларидан кўп бўлиши зарур, акс ҳолда уй хўжалиги камбағаликка кириш ҳавф остида қолиши мумкин.

Аксарият холларда ёш ва кўп болали оилалар, шунингдек пенсионерлар оилалари, асосан ёлғиз кексалар бундай ҳолатга тезроқ тушиб қолишлари мумкин. Пенсионерлар ўзлари мустақил молиявий манба (пенсия)га эга бўлганлари билан, кўп ҳолатларда дори-дармонга бўлган нархларнинг юқорилиги ва даволанишнинг пуллик эканлиги натижасида уларнинг маблағлари бундай ҳаражатларни қоплай олмайди.

Айни пайитда оилаларнинг турмуш даражасини оширишда давлат ҳам муҳим роль ўйнайди. Давлат фақат янги иш ўринларини яратиб қолмай, самарали тадбиркорлик фаолияти юритиш учун ҳам реал шарт–шароитлар яратиши, шаҳар ва қишлоқ инфратузилмасини ривожлантиш чора тадбирларини амалга ошириши зарур. Оилалар фаровонлигини ошириш мақсадида давлат аҳолини касбга тайёрлашни таъминлаш, аёлларни иқтисодий жараёнларга, шу жумладан оилавий тадбиркорликни кенгайтириш ҳисобига жалб этиш, тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланишни истаган аёлларга ташкилий жиҳатдан ёрдам бериш борасида ишларни амалга ошириши керак бўлади. Оилалар фаровонлигини юксалганлиги уй хўжаликларининг катта қисмини тадбиркорлик фаолиятига жалб этилганлиги натижаси ҳисобланади. Ўзбекистонда аҳолининг кам таъминланганлик даражаси 2019-2024 йилларда 23,5дан 6,0%гача пасайганлиги бундан далолат беради.

Шу билан бирга оилаларнинг иқтисодий табақалашуви ҳам маълум маънода чуқурлашиб бормоқда. Охирги пайтда республикада кам таъминланган оилалар улуши камайгани билан, уларнинг сони анча катталигича қолмоқда. Бундай оилаларнинг аъзолари фарзандларига таълим бериш, саломатлигини таъминлаш, тўлақонли овқатланиш учун оила бюджети даромадларини шакллантиришнинг ички ва ташқи манбаларини излашга мажбур бўладилар.

Аҳолининг сифат жиҳатдан ривожланишига эришиш масаласини ҳал этиш анча мураккаб эканлигини тадқиқотчилар, жумладан, россиялик ва ғарб

олимлари кўп маротаба таъкидлаб ўтганлар. Барча тадқиқотчилар умумтаълим тизимида ҳам, касб таълими тизимида ҳам ўқитиш сифатининг бир мунча пасайганлигига эътибор қаратиб, бундай ҳолат мазкур тизимда ўтказилаётган ислоҳотлардаги камчиликлар, ва ҳар бир мамлакатда ҳозирги пайтда шаклланган ўзига хос шарт-шароитлар билан боғлиқ эканлигини таъкидламоқдалар.

Маълумки, уй хўжалигини даромадлари унинг даромад ва ҳаражатлари йиғиндисидан иборат бўлган оила бюджетида ўз ифодасини топади. Айни пайтда уй хўжалигини иқтисодий барқарорлигини таъминлаш ва уни сақлаб туриш учун унинг даромадлари ҳаражатларидан кўп бўлиши зарур, акс ҳолда уй хўжалиги камбагаликка кириш ҳавф остида қолиши мумкин.

Аксарият холларда ёш ва кўп болали оилалар, шунингдек пенсионерлар оилалари, асосан ёлғиз кексалар бундай ҳолатга тезроқ тушиб қолишлари мумкин. Пенсионерлар ўзлари мустақил молиявий манба (пенсия)га эга бўлганлари билан, кўп ҳолатларда дори-дармонга бўлган нархларнинг юқорилиги ва даволанишнинг пуллик эканлиги натижасида уларнинг маблағлари бундай ҳаражатларни қоплай олмайди.

Ўзбек оилаларининг кўпчилигида фарзандлар ота-оналари билан бирга яшаганлари боис, бундай муаммолар уй хўжалигини барча аъзолари томонидан ҳал этилади. Пенсионерларнинг фарзандларидан алоҳида яшаши асосан аҳолининг туб миллатга мансуб бўлмаган қисмига ҳосдир. Кейинги йилларда бундай пенсионерлар сонининг ошиб борганлиги миграция жараёнларининг оқибатлари билан боғлиқдир. Фарзандлари республикадан ташқарига чиқиб кетган кўпчилик русзабон оилаларда уларнинг ота-оналари шу ерда қолишни афзал кўрганлар. Ўзбекистонда амалга оширилаётган ижтимоий сиёсат доирасида ёлғиз пенсионерларни қўллаб –қувватлаш чора –тадбирлари кўзда тутилган.

Айни пайитда оилаларнинг турмуш даражасини оширишда давлат ҳам муҳим роль ўйнайди. Давлат фақат янги иш ўринларини яратиб қолмай, самарали тадбиркорлик фаолияти юритиш учун ҳам реал шарт–шароитлар яратиши, шаҳар ва қишлоқ инфратузилмасини ривожлантиш чора тадбирларини амалга ошириши зарур. Оилалар фаровонлигини ошириш мақсадида давлат аҳолини касбга тайёрлашни таъминлаш, аёлларни иқтисодий жараёнларга, шу жумладан оилавий тадбиркорликни кенгайтириш ҳисобига жалб этиш, тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланишни истаган аёлларга ташкилий жиҳатдан ёрдам бериш борасида ишларни амалга ошириши керак бўлади. Оилалар фаровонлигини юксалганлиги уй хўжаликларининг катта қисмини тадбиркорлик фаолиятига жалб этилганлиги натижаси ҳисобланади. Ўзбекистонда аҳолининг кам таъминланганлик даражаси 2019-2024 йилларда 23,5дан 6,0%гача пасайганлиги бундан далолат беради.

Шу билан бирга оилаларнинг иқтисодий табақалашуви ҳам маълум маънода чуқурлашиб бормоқда. Охирги пайтда республикада кам таъминланган оилалар улуши камайгани билан, уларнинг сони анча катталигича қолмоқда. Бундай оилаларнинг аъзолари фарзандларига таълим бериш, саломатлигини таъминлаш, тўлақонли овқатланиш учун оила бюджети даромадларини шакллантиришнинг ички ва ташқи манбаларини излашга мажбур бўладилар.

Аҳолининг сифат жиҳатдан ривожланишига эришиш масаласини ҳал этиш анча мураккаб эканлигини тадқиқотчилар, жумладан, россиялик ва ғарб олимлари кўп маротаба таъкидлаб ўтганлар. Барча тадқиқотчилар умумтаълим тизимида ҳам, касб таълими тизимида ҳам ўқитиш сифатининг бир мунча пасайганлигига эътибор қаратиб, бундай ҳолат мазкур тизимда ўтказилаётган ислоҳотлардаги камчиликлар, ва ҳар бир мамлакатда ҳозирги пайтда шаклланган ўзига хос шарт-шароитлар билан боғлиқ эканлигини таъкидламоқдалар.

Демографик жараёнлар ва пайдо бўлаётган ижтимоий хавфларни тартибга солишнинг асосий воситаси сифатида давлатнинг узоқ муддатли демографик сиёсатини ишлаб чиқиш ҳисобланади.

Узоқ муддатли демографик сиёсатнинг ягона тизимини шакллантириш зарурати қуйидаги ҳолатлар билан боғлиқ:

-тезкор бошқарув қарорларини қабул қилишда, мамлакат ва минтақаларни ижтимоий – иқтисодий ривожлантириш бўйича чора-тадбирлар мажмуини ишлаб чиқишда демографик тенденцияларни, потенциал ижтимоий-демографик хавфларни етарли даражада ҳисобга олмаслик, (йиллик прогнозлар ва моддий балансlар, шу жумладан озиқ-овқат маҳсулотлари, мақсадли давлат дастурлари-функционал, тармоқ ва ҳудудий ривожланиш стратегиялари, аҳоли пунктлари бош режалари, узоқ муддатли аҳолини жойлаштириш схемалари ва бошқалар);

- тизимли асосда танланган сўровлар ўтказиш, демографик вазиятни мониторинг қилишнинг самарали шакллари ва усулларини жорий этиш орқали аҳоли, уй хўжаликлари (оилалар), ахолининг жинс ва ёш таркиби (охирги аҳолини рўйхатга олиш 1989 йилда бўлиб ўтган) бўйича ахборот базасини шакллантириш мақсадга мувофиқдир;

- демографик жараёнларни мақсадли тартибга солишнинг ишлаб чиқилган миллий концепцияси, мамлакатда ва минтақалар бўйича аҳолининг ўрта ва узоқ муддатли истиқболда расман тасдиқланган прогнозининг йўқлиги.

Демографик жараёнлар ва юзага келадиган ижтимоий хавфларни тартибга солишнинг асосий воситаси Ўзбекистон демографик сиёсатининг узоқ муддатли концепциясини ишлаб чиқиш, шу жумладан:

- асосий қоидалар (демографик сиёсат мамлакат миллий хавфсизлигининг муҳим таркибий қисми сифатида қаралади);
- мавжуд демографик вазиятни ва унинг ривожланиш тенденцияларини асосий потенциал хавф ва таҳдидларни аниқлаш билан баҳолаш;
- демографик сиёсат ва хавфсизликнинг мақсад ва вазифалари, аҳоли сифатини оширишга, потенциал хавфларни олдиндан билишга қаратилган;
- демографик хавфсизликни таъминлаш параметрларига асосланган узоқ муддатли демографик сиёсатнинг мақсадлари (аҳолининг кўпайиш режими (йилига 1,3% дан кўп бўлмаган), аҳолининг умр кўриш давомийлигини ошириш (80-81 ёшгача), шаҳар аҳолисининг улушини ошириш (60%гача) ва прогноз даври учун аҳолининг ҳолатини сифат жиҳатидан тавсифловчи бошқа кўрсаткичлар;
- кўзда тутилган чора-тадбирларни Қонунчилик, ташкилий, институционал ва иқтисодий қўллаб-қувватлаш билан демографик сиёсатни амалга оширишнинг устувор йўналишлари ва механизмлари.

Адабиётлар:

1. *Демографические перспективы России. М.: 2008. С.81*
2. *Каюков В.В. Взаимосвязь демографических процессов с состоянием экономики (текст) / В.В. Каюков, Ю.Л. Мельчакова // Экономика, управление, финансы: материалы III междунар.науч.конф. (г. Пермь, февраль 2014 г.) –Пермь: Меркурий, 2014. С.177-180*
3. *Чижова Л.С. Роль трудового потенциала в экономическом развитии страны. В кн.: "Демографические перспективы России". М.: 2008. С.147*

ИННОВАЦИОННЫЕ СТРАТЕГИИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВОЕ СОСТОЯНИЕ КОМПАНИИ

Носиров Илхом Аббосович
Ферганского государственного технического университета
проф. кафедры "Менеджмент и маркетинг" д.э.н.,

Современные условия развития мировой и национальной экономики характеризуются высокой динамичностью, усилением конкурентной борьбы и ускоряющейся цифровой трансформацией производственных и управленческих процессов. В таких условиях ключевым фактором устойчивого роста компаний становится способность к постоянным инновациям, адаптации и быстрому внедрению новых технологий. Инновационные стратегии сегодня рассматриваются не просто как элемент модернизации, а как основной инструмент обеспечения долгосрочной конкурентоспособности и финансовой стабильности предприятия.

По данным Всемирного экономического форума, компании, инвестирующие более 4% годового оборота в инновации, демонстрируют на 25–30% более высокие темпы роста прибыли по сравнению с традиционными структурами, функционирующими по инерционной модели. Это свидетельствует о прямой зависимости между уровнем инновационной активности и финансовыми результатами.

В Узбекистане, согласно Стратегии инновационного развития до 2030 года, за последние годы наблюдается значительное усиление инновационных процессов в корпоративном секторе. По данным Министерства инновационного развития, к 2024 году объём инвестиций в инновации увеличился более чем в два раза по сравнению с 2020 годом, что связано с активным внедрением цифровых решений, созданием инновационных кластеров и развитием научно-технологических парков [2]. Эти тенденции отражают формирование новой модели экономического роста, основанной на знаниях, технологиях и устойчивом развитии.

Инвестиции в инновации, научные исследования и опытно-конструкторские разработки (НИОКР) являются одним из ключевых индикаторов инновационной активности и технологического потенциала компании. Они отражают не только стратегическую ориентацию бизнеса на долгосрочное развитие, но и степень его готовности к внедрению передовых технологий, цифровых решений и экологически устойчивых подходов. Современные предприятия рассматривают инвестиции в инновации как неотъемлемую часть корпоративной стратегии, направленной на повышение

производительности, улучшение качества продукции и укрепление конкурентных позиций на внутреннем и внешнем рынках.

По данным Агентства по статистике Республики Узбекистан, в 2020–2024 годах наблюдается устойчивая положительная динамика роста инвестиционной активности в инновационной сфере. Общий объём инвестиций в научно-исследовательские и опытно-конструкторские разработки (НИОКР) в корпоративном секторе увеличился с 3,1 трлн сумов в 2020 году до 7,8 трлн сумов в 2024 году, что означает рост более чем в 2,5 раза за рассматриваемый период [1]. Данный рост обусловлен не только расширением числа инновационно-активных предприятий, но и мерами государственной поддержки, включая налоговые льготы, грантовое финансирование, а также развитие инновационной инфраструктуры — технопарков, бизнес-инкубаторов и венчурных фондов. Всё это способствует укреплению инновационной экосистемы страны и стимулирует компании к увеличению доли инвестиций в НИОКР как важнейший источник повышения их финансовой устойчивости.

1-таблица

Инвестиции в инновации и НИОКР в корпоративном секторе

Год	Инвестиции в инновации, трлн сум	Рост к пред. году, %	Доля частного сектора, %
2020	3,1	-	42
2021	4,0	29,0	46
2022	5,1	27,5	49
2023	6,3	23,5	52
2024	7,8	23,8	56

Источник: *Агентство по статистике при Президенте Республики Узбекистан [1].*

За пять лет наблюдается устойчивый рост инновационных инвестиций — в 2,5 раза по сравнению с 2020 годом. Особенно активно процесс шёл в 2021–2022 годах, когда в экономике реализовывались программы модернизации промышленности и цифровизации предприятий [1]. Увеличение доли частного сектора с 42% до 56% свидетельствует о повышении заинтересованности бизнеса в долгосрочных инновационных проектах.

Таблица 2.

Средние финансовые показатели инновационно-активных компаний

Год	Рентабельность продаж, %	Чистая прибыль, трлн сум	Коэффициент ликвидности
2020	8,7	5,2	1,3
2021	9,5	6,1	1,4
2022	10,2	7,0	1,5
2023	11,4	8,3	1,6
2024	12,1	9,1	1,7

Источник: *Ассоциация промышленников и предпринимателей Узбекистана [3]; Агентство статистики [1].*

Инновационные стратегии напрямую влияют на прибыльность, ликвидность и капитализацию предприятий. Согласно данным Ассоциации промышленников Узбекистана, предприятия, внедрившие цифровые и технологические инновации, показали в среднем рост чистой прибыли на 15–18% в период 2020–2024 гг. [3].

Как видно, внедрение инноваций способствовало росту всех ключевых финансовых показателей. Рентабельность продаж увеличилась с 8,7% до 12,1%, а чистая прибыль – с 5,2 до 9,1 трлн сум. Улучшение коэффициента ликвидности (с 1,3 до 1,7) указывает на повышение финансовой устойчивости предприятий. Это результат повышения производительности, снижения издержек и эффективного управления рисками.

Несмотря на положительные тенденции, ряд барьеров сдерживает инновационную активность. Среди них:

- ограниченный доступ к долгосрочному финансированию и венчурному капиталу;
- недостаточный уровень цифровой инфраструктуры;
- дефицит кадров с компетенциями в сфере R&D и инновационного менеджмента;
- низкий уровень взаимодействия науки и бизнеса [World Bank, 2023].

Проведённый анализ показал, что инновационные стратегии оказывают комплексное и значительное влияние на финансовое состояние компаний, формируя устойчивые конкурентные преимущества и обеспечивая долгосрочную экономическую стабильность. Результаты исследования подтверждают, что предприятия, активно внедряющие инновации в производственные и управленческие процессы, демонстрируют более высокие показатели прибыльности, ликвидности и капитализации по сравнению с традиционными компаниями, ограничивающимися стандартными бизнес-моделями.

Инновационно-активные предприятия характеризуются повышенной адаптивностью к изменениям рыночной конъюнктуры, способностью оперативно реагировать на технологические вызовы и эффективно использовать внутренние ресурсы. Это позволяет им поддерживать устойчивую рентабельность, оптимизировать издержки и улучшать структуру активов. Кроме того, внедрение инновационных стратегий способствует укреплению репутационного капитала компаний, расширению экспортного потенциала и привлечению инвестиций в долгосрочной перспективе.

Таким образом, инновации выступают не только источником технологического прогресса, но и ключевым драйвером финансового оздоровления и устойчивого развития корпоративного сектора, обеспечивая баланс между экономической эффективностью и устойчивостью в условиях усиливающейся глобальной конкуренции.

Рекомендации:

- Усилить налоговые и инвестиционные стимулы для компаний, реализующих инновационные проекты.
- Создать механизмы льготного кредитования и венчурного финансирования стартапов.
- Повысить интеграцию науки, образования и бизнеса через инновационные кластеры.
- Развивать корпоративные программы цифровой трансформации для повышения эффективности и прозрачности управления.
- Формировать систему мониторинга инновационной эффективности на уровне отраслей и регионов.

Литературы:

1. Агентство по статистике при Президенте Республики Узбекистан. Отчёт «Инновационная деятельность предприятий 2020–2024». https://stat.uz/ru/

2. Министерство инвестиций, промышленности и торговли РУз. «Программа инновационного развития промышленности 2021–2024». https://gov.uz/ru/miit

3. Ассоциация промышленников и предпринимателей Узбекистана. Ежегодный отчёт о финансовых результатах компаний.

4. World Bank Report "Innovations for Sustainable Growth in Central Asia". https://www.worldbank.org/en/topic/environment/brief/climate-and-environment-program.

5. Global Competitiveness Report. https://www.statista.com/statistics/273072.

KORXONA INNOVATSION RIVOJLANISHI SHAROITIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TAHLIL QILISH, NATIJALARNI PROGNOZLASH HAMDA MOLIYAVIY OQIMLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI

Muminova Elnoraxon Abdukarimovna
Farg'ona davlat texnika universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasi professori
ORCID: 0000-0002-1226-7568
Jo'rayev Asadbek Anvarjon o'g'li
Farg'ona davlat texnika universiteti
"Moliya va buxgalteriya hisobi" kafedrasi assistenti
ORCID:0009-0009-1146-5093

Davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish hamda budjet mablag'laridan maqsadli va oqilona foydalanish ustidan davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan masalalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 27.08.2021 yildagi PF-6300-son farmonida bergilangan.[1]

Hozirgi globallashuv va raqobatning keskinlashuvi sharoitida innovatsion faoliyat har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Innovatsion loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish esa, eng avvalo, ularning moliyaviy asoslari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli innovatsion faoliyat jarayonida korxona moliyaviy holatini tahlil qilish, kelajakdagi iqtisodiy natijalarni prognozlash hamda moliyaviy oqimlarni samarali boshqarish dolzarb masalalardan biri sifatida qaraladi. Moliyaviy tahlil korxonaning mavjud resurslari, aktivlari, majburiyatlari va kapital tuzilmasi bo'yicha aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Prognozlash orqali esa kelgusidagi kutilayotgan daromadlar, xarajatlar hamda investitsion oqimlar oldindan baholanib, risklarni kamaytirish choralari ishlab chiqiladi. Moliyaviy oqimlarni boshqarishning to'g'ri yo'lga qo'yilishi nafaqat pul mablag'larining optimal taqsimlanishini, balki innovatsion loyihalarning uzluksiz moliyalashtirilishini ta'minlaydi. Shunday qilib, innovatsion faoliyatda moliyaviy holatni tahlil qilish va prognozlash, moliyaviy oqimlarni boshqarish mexanizmlarini o'rganish — korxonaning raqobatbardoshligini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va uzoq muddatli rivojlanishni kafolatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

Innovatsion faoliyatda moliyaviy boshqaruv mexanizmi

Bosqich	Asosiy yo‘nalishlar	Amalga oshiriladigan ishlar	Kutiladigan natija
1. Moliyaviy holatni tahlil qilish	Moliyaviy hisobotlarni o‘rganish, likvidlik va barqarorlikni baholash, resurs bazasini aniqlash	- Balans, foyda va zarar hisobi, pul oqimlari tahlili - Likvidlik ko‘rsatkichlarini hisoblash - Rentabellik darajasini aniqlash	Innovatsion faoliyat uchun mavjud moliyaviy imkoniyatlar aniqlanadi
2. Moliyaviy natijalarni prognozlash	Daromad va xarajatlarni prognozlash, investitsion oqimlarni hisoblash, risklarni baholash	- Senariyli prognozlash (optimistik, real, pessimist) - NPV, IRR, qaytarilish muddati hisoblari - Bozor va texnologik risklarni baholash	Kelgusidagi moliyaviy oqimlar aniq ko‘rinishda shakllantiriladi
3. Moliyaviy oqimlarni boshqarish	Pul oqimlarini rejalashtirish, moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish, kapitalni optimallashtirish	- Oylik va yillik kassa oqimlarini rejalashtirish - Kredit, grant, venchur kapital kabi manbalarni jalb etish - Qarzni va o‘z mablag‘larini muvozanatlash	Innovatsion loyihalarning uzluksiz moliyalashtirilishi va resurslardan samarali foydalanish ta’minlanadi
4. Yakuniy bosqich – strategik qaror qabul qilish	Samaradorlikni baholash, investitsion qarorlarni qabul qilish, risklarni kamaytirish strategiyasi	- Loyihaning iqtisodiy samaradorligini o‘lchash - Qo‘shimcha kapital jalb etish - Sug‘urta, diversifikatsiya, xedjirlash orqali xavflarni kamaytirish	Innovatsion rivojlanishning barqaror strategiyasi ishlab chiqiladi

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, innovatsion faoliyat jarayonida moliyaviy boshqaruv samaradorligi ketma-ket bosqichlarda amalga oshiriladi. Avvalo, korxonaning moliyaviy holati tahlil qilinib, mavjud imkoniyatlar va resurslar aniqlanadi. Keyingi bosqichda moliyaviy natijalar prognozlanib, turli senariylar asosida kutilayotgan daromad va xarajatlar baholanadi. So‘ngra pul oqimlari oqilona boshqarilib, moliyaviy manbalar diversifikatsiya qilinadi hamda kapital tuzilmasi optimallashtiriladi. Yakuniy bosqichda esa innovatsion loyihaning iqtisodiy samaradorligi tekshirib chiqilib, qo‘shimcha qarorlar qabul qilinadi va risklarni kamaytirish mexanizmlari joriy etiladi.

So‘nggi bir necha yil ichida biz hayotdan tashqari sug‘urta sohasida dinamik moliyaviy tahlilga (DFA) qiziqish ortib borayotganiga guvoh bo‘ldik. DFA ko‘plab iqtisodiy va matematik tushunchalar va usullarni birlashtiradi. Noyob DFA metodologiyasini aniqlash va tavsiflash deyarli mumkin emas. Bozorda hayotdan tashqari kompaniyalar uchun ba’zi DFA dasturiy ta’minot mahsulotlari mavjud bo‘lib, ularning har biri DFAga o‘z yondashuviga tayanadi. Bizning maqsadimiz ko‘plab DFA modellari umumiy bo‘lgan komponentlarni o‘z ichiga olgan model asosini taqdim etish orqali ushbu sohaga kirishdir. Matematik tilga aniq murojaat qilib, biz osonlik bilan amalga oshirilishi va individual ehtiyojlarga moslashtirilishi mumkin bo‘lgan zamonaviy modelni taqdim etishgan. [2]

O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar tarmog‘ining rivojlanish tendentsiyalarini makroiqtisodiy prognozlashda foydalaniladigan aksariyat modellar xususan, mamlakatimizda ham juda katta ma’lumotlar bazasini talab etishi markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlari tomonidan makroiqtisodiy prognozlashtirish jarayonini murakkablashtirib, imkonsiz darajaga olib kelishi hamda har bir bosqich ko‘plab vazifalarni hal qilishni talab qilishi tadqiqot davomida bayon qilingan. [3]

Moliyaviy boshqaruvni o‘rganishda olimlar tomonidan turli xil ta’riflar va qarashlar mavjuddir. Moliyaviy boshqaruv bu – pul aylanmasini, Aksiyadorlik jamiyatning moliyaviy resurslarini shakllantirish va foydalanishni boshqarish jarayonidir.[4]

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 27.08.2021 yildagi PF-6300-son https://lex.uz/uz/docs/-5607471

2. Kaufmann, R., Gadmer, A., & Klett, R. (2001). Introduction to dynamic financial analysis. ASTIN Bulletin: The Journal of the IAA, 31(1), 213-249.

3. Xusanov, M. S. (2024). O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasi rivojlanishining o ‘rta va uzoq muddatga makroiqtisodiy prognozlash. qo ‘qon universiteti xabarnomasi, 12, 32-38.

4. Akhmedov, B. A. (2021). Dynamic identification of the reliability of corporate computing cluster systems. Academic Research in Educational Sciences, 2 (3), 495- 499.

ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТ ЖАРАЁНИДА МАДАНИЯТ ВА ТЕЛЕВИДЕНИЕНИ МОЛИЯЛАШТИРИШ

Пулатов Дилшод Хақбердиевич
Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Бюджет-солиқ илмий тадқиқотлари институти директор биринчи ўринбосари, DSc (и.ф.д.), проф.
Махкамова Шахло Юлчиевна,
Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Бюджет-солиқ илмий тадқиқотлари институти бўлим бошлиғи, PhD (и.ф.н.)

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 30 январдаги ПФ-16-сонли Фармони вазифалари [1] ижроси доирасида маданият ва телевидение харажатларини аниқлашнинг турли ёндашувларини қиёсий таҳлил қилиш,стандартлар, демографик кўрсаткичлар ва самарадорлик кўрсаткичларини ҳисобга олган ҳолда комплекс ёндашув асосида харажатларни аниқлаш методологиясини ишлаб чиқиш,инновацион ривожланиш шароитида маданият ва телевидениени молиялаштириш бўйича бошқа мамлакатлар тажрибасини ўрганиш мақсадга мувофиқ.

Миллий телерадиокомпания (МТРК)га 2025 йилда 881,3 млрд. сўм маблағ ажратилиши кўзда тутилган. Бу 2024 йилга нисбатан 58,5 фоизга кўпдир. Бундан ташқари, радиоэфир ҳажми 2025 йилда 14 фоизга оширилиши, аммо 26 та телеканал ва 17 та радиостанция сони ўзгаришсиз қолиши режалаштирилган. Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги (УзА)га 2025 йилда 40,7 млрд. сўм ажратилиб, кўрсаткич ўтган йилга нисбатан 15,4 фоиз кўпдир [2].

Тадқиқотда маданият ва телевидениени молиялаштирилишининг хориж тажрибаси асосида чора-тадбирлар ишлаб чиқилди. Биз томонимиздан маданият

ва телевидение харажатларини стандартлар асосида, демографик кўрсаткичларни ҳисобга олган ҳолда аниқлаш ва самарадорлик кўрсаткичларини аниқлаш бўйича адабиётлар ўрганиб чиқиш бир нечта ёндашувларни аниқлади: 1) меъёрий, мавжуд қоидалар ва стандартларга асосланган; 2) аҳоли сони ва таркибини ҳисобга олган ҳолда демографик йўналтирилганлиги; 3) иқтисодий жиҳатдан асосланган, харажатларни ресурслардан фойдаланиш самарадорлиги билан боғлаш.

Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти (ОЭСД) давлатларида бюджет харажатлари таркиби таҳлили ушбу харажатларнинг мамлакатдаги устувор йўналишларни эътиборга олишини кўрсатди. Масалан, соғликни сақлашга таълимга нисбатан кўпроқ харажат қилиниши ушбу давлатларда аҳоли қариши тенденциялари билан бўғлиқ бўлиши мумкин. АҚШ да ўрганилаётган давлатлар ичида “соғликни сақлаш”га энг кўп — 24,2% ва “дам олиш, маданият, дин”учун энг кам — 0,7% харажат қилинади.

Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси (МТРК) тизимидаги телеканалларнинг ўртача 1 йиллик сақлаш харажатлари 326,8 млрд. сўмни ташкил қилади. Шундан, Тошкент шаҳрида фаолият юритаётган республика телеканалларининг ўртача сақлаш харажатлари 26,8 млрд. сўмни ташкил қилади [3]. Рейтинги паст ва функциялари такрорланадиган ташкилотларни бирлаштириш орқали бюджет маблағларини тежалишига эришилади.

Ўзбекистон бой тарихий меросга эга мамлакат сифатида маданий объектларининг муҳофазаси, тарғиби ва молиялаштирилишига алоҳида эътибор қаратади. Маданий объектлар икки асосий тоифага бўлинади:

а) моддий маданий мерос, б) маънавий маданий мерос.

Моддий маданий объектлар: археология ёдгорликлари (Афросиёб, Термиз қазилмалари), архитектура ва монументал ёдгорликлар (Регистон, Ичан-Қалъа, Бибихоним масжиди), замонавий меъморий объектлари (Тошкент цирки, телеминора, санъат саройлари). 2024 йил ҳолатига кўра, Ўзбекистонда 8 210 та моддий маданий объект давлат муҳофазасига олинган, шундан 4 788 таси археологик, 2 265 таси архитектура, 625 таси монументал санъат объектларидир.

ЮНЕСКО томонидан ҳимоя қилиниши учун танланган объектлар қаторида: Наврўз байрами, Бахшичилик санъати, Шашмақом мусиқий анъанаси, Атлас ва адрас тикиш санъати бўлиб, улар миллий ўзликни сақлашда муҳим ўрин тутади. Ўзбекистонда маданий объектларни молиялаштириш уч йўналишда амалга оширилади: а) Давлат бюджети, б) Халқаро грантлар ва техник ёрдам, в) Хайрия ва хусусий сектор.

Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш, таъмирлаш ва реставрациялаш ишлари асосан давлат бюджети орқали молиялаштирилади. 2023 йилда Маданият вазирлиги ва Маданий мерос агентлиги томонидан

339 млрд. сўм ажратилиб, 250 дан ортиқ объект қайта тикланган [3]. Масалан, Самарқанддаги Шоҳи Зинда мажмуаси ва Бухородаги Мир Араб мадрасаси шундай бюджет маблағлари ҳисобидан таъмирланган. Халқаро ҳамкорлар томонидан ҳам молиялаштириш йўлга қўйилган унга кўра:

ЮНЕСКО билан ҳамкорликда "Worлд HeritageSites" доирасида режалаштириш ва муҳофаза дастурлари амалга оширилмоқда [4].

• КОИСА (Корея) томонидан 2025-2028 йилларда рақамлаштириш ва менежмент лойиҳаси учун $8.5 млн ажратилган [5].

• Европа тараққиёт банки томонидан Хивадаги меҳмонхоналарни таъмирлаш учун 300.000 евро грант берилган.

Банклар ҳам маданият тадбирларини молиялаштиришда муҳим роль ўйнайди. 2002 йили Испанияда жамғармалар орқали амалга оширилган банклар хайрияси Маданият вазирлиги бюджетига нисбатан 53% ва вилоятлар бюджетига нисбатан 44%га тенг бўлган [6, 7].

Тадқиқот натижасида қуйидаги таклифлар ишлаб чиқилди:

- маданий объектларни ҳомийлик қилувчи ва хайрия билан шуғулланувчи тадбиркорлар учун солиқ имтиёзларини жорий этиш (ёки мавжудини қайта кўриб чиқиш). Бу имтиёзлар кучли рағбатлантирилиши, бу тизимни жорий этгандан сўнг, эҳтимолий ҳомийлар билан катта тушунтириш ишлари олиб борилиши, солиқ имтиёзларини қандай қўллаш мумкинлиги тўғри тушунтирилиши зарур (АҚШ ва Хорватия тажрибаси);
- ОАВда реклама фаолиятини ривожлантириш концепциясини ишлаб чиқиш ва шу орқали реклама тушумларини кўпайтириш;
- санъатга сармоя киритишга қизиқтириш учун тадбиркорлар учун солиқ имтиёзлари яратиш;
- маданият соҳасини ривожлантириш концепциясини ишлаб чиқиш (*Свердловск вилояти тажрибаси асосида*);
- музейлар қошида тижорат нуқталарини (совға дўконлари, китоб дўконлари, кафе ва ҳ.к.) ташкил этиш (*АҚШ тажрибаси*);
- музей биноларини ижарага бериш, тўй тадбирлари ўтказиш, хайрия ва маданий тадбирлар ўтказиш учун, шунингдек музей ҳудудида машҳур шеф-поварлар бошқарадиган биринчи даражали ресторанлар очиш учун сармоядор жалб қилиш;
- болалар учун илмий-рақамли лабораториялар ташкил этиш орқали музейларга ташрифни кўпайтириш ва операцион даромадни ошириш;
- давлат телеканалларидан фойдаланиш учун телевизион лицензия учун мажбурий тўловни жорий этиш (*Швеция, Германия тажрибаси*);
- телерадиоканаллар медиа-контентидан фойдаланиш учун обуна ёки фойдаланиш асосида тўлов жорий этиш (*Швеция, АҚШ тажрибаси*);
- маданий муассасаларда электрон тўлов, обуна ва рақамли платформалар орқали даромад олиш усулларини жорий этиш. Бу рақамли технологиялар воситасида (онлайн кўргазмалар, виртуал экскурциялар, таълим курслари) янги аудиторияни жалб қилиш, даромад манбаларини диверсификация қилишга ёрдам беради (*Netflixва BBC каби платформалар тажрибаси*);
- маданият, спорт, туризм учун республика бюджетидан ажратиб, маблағларнинг бир қисмини ва тушумларини телевидение, ахборот сиёсатини қўллаб-қувватлаш ҳамдамаданият муассасаларини сақлашга йўналтириш (*Қозоғистонтажрибаси*);
- кўп каналли давлат молиялаштириш, бюджетлараро ва давлат-хусусий молиялаштиришнинг шериклик шаклларини ривожлантириш маданият, санъат соҳасининг молиявий ресурсларга бўлган улкан, доимий ўсиб бораётган эҳтиёжларини, айниқса, давлат бюджетининг сурункали тақчиллиги шароитида қондиришнинг энг яхши йўлидир.

Маданият муҳитини ривожлантириш ва аҳоли фаровонлигини ошириш ҳамда маданий меросни асраб-авайлаш мақсадида қуйидаги чоралар тавсия этилади:

- XXII аср учун зарур бўлган янги кўникмаларга эга мутахассисларга эҳтиёжни қондириш (ижодий жамоалар, виртуал платформалар яратиш, ҳақиқий ва рақамли муҳитни бирлаштириш);
- маданий объектларни бошқарувчи раҳбарлар учун бизнес бошқарув бўйича малака ошириш тренингларини ташкил этиш (маркетинг, стратегик режалаштириш, молиявий бошқарув, маблағ йиғиш);
- маданият маҳсулотлари ва муассасаларини тарғиб қилиш учун замонавий коммуникация технологияларини кенг қўллаш, ўз виртуал майдонларини яратиш, уларни бошқа маҳаллий ҳамда халқаро платформаларга олиб чиқиш, сунъий интеллектдан фойдаланиш;
- миллий ўзлигимизнинг асоси бўлган халқ анъаналарини қўллаб-қувватлаш, маданий мерос объектлари, миллий ҳунармандчилик марказлари атрофида инфратузилма яратиш, туризмни йўлга қўйиш;
- маданият, санъат соҳасида таълимни ривожлантириш, ижодий истеъдодга эга болалар ва ёшларни аниқлаш, қўллаб-қувватлаш тизимини ривожлантириш, маданият соҳасининг кадр салоҳиятини ошириш;
- янги субъектлар, маданий маҳсулотлар яратиш учун маданият ва ижтимоий инфратузилма ресурсларини янгилаш;
- ижтимоий-иқтисодий ўзгариш жараёнларида фаол иштирок этишга тайёр фуқароларнинг ижодий салоҳиятини ривожлантириш; аҳоли турмуш сифатини ошириш, мазмунли ва самарали дам олиш имкониятларини ташкил этиш;
- ЮНЕСКО ва бошқа ташкилотлар билан маданий меросни кенг тарғиб қилиш; маданий алмашинувни кенгайтириш орқали халқаро имиж ва инвестициявий жозибадорликни ошириш, минтақавий ҳамда жаҳон маданий бозорларида маҳаллий маданий маҳсулотларни илгари суриш;
- республикамизда маданият ва телевидениенига йўналтирилаётган харажатларни демографик кўрсаткичларни ҳисобга олган ҳолда нормативлар асосида аниқлаш, самарадорлик кўрсаткичларини белгилаш.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 30 январдаги ПФ-16-сон««Ўзбекистон — 2030» стратегиясини "Атроф-муҳитни асраш ва «яшил иқтисодиёт» йилида амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида» Фармони https://lex.uz/uz/docs/-7369703

2. O'zbekistonda davlat OAVlari uchun moliyalashtirish miqdori oshirildi https://uz24.uz/uz/articles/oav-25-1-12? [29.01.2025]

3. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги маълумотлари,2023 й.

4. Маданий мерос агентлиги. «2023 йилда 250 объект таъмирланди». https://dkm.gov.uz/uz/madanij-meros-obektlariga-angi-aet [02.06. 2025].

5. Uzbekistan and UNESCO's Strong Partnership for the Preservation and Promotion of World Heritage Sites https://www.unesco.org/en/articles/uzbekistan-and-unescos-strong.

6. «KOICA to provide $8.5 mln to preserve Uzbek heritage». https://uza.uz/en/posts/a-project-worth-849-million-will-be-implemented-with-koica.

7. The economy of culture in europe. https://ec.europa.eu/assets/eac/culture/library.

КАМ ТАЪМИНЛАНГАН ОИЛАЛАР БЮДЖЕТИДА ДОРИ-ДАРМОН ХАРАЖАТЛАРИ УЛУШИ ТАҲЛИЛИ(СОЦИОЛОГИК ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ)

Пулатов Дилшод Хакбердиевич
Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги
Бюджет-солиқ илмий тадқиқотлари институти
директорнинг 1-ўринбосари и. ф. д., проф.
Махкамова Шахло Юлчиевна
Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги
Бюджет-солиқ илмий тадқиқотлари институти
и. ф. н., Бўлим бошлиғи

Кам таъминланган аҳоли қатламининг соғлиқни сақлаш тизимига тенг ва адолатли кириши, уларнинг дори-дармон билан таъминланиш имкониятларини ошириш масаласи Ўзбекистон Республикасидаги ижтимоий сиёсатнинг долзарб йўналишларидан бири ҳисобланади [1]. Шу нуқтаи назардан, Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирининг 2025 йил 19 июнда рўйхатдан ўтган, №3632-сонли буйруғи [2] саломатликни сақлаш тизимини институционал ривожлантириш, тиббий хизматлардан тенг фойдаланиш имкониятларини кенгайтириш ҳамда давлат бюджети маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлашга қаратилган ҳуқуқий асос ҳисобланади. Мазкур буйруқ билан 2025 йил 1 июлдан бошлаб имтиёзли тоифага мансуб (жумладан, “Ягона ижтимоий ҳимоя реестри” ахборот модуллари орқали кам таъминланган деб топилган оила аъзолари) фуқаролар учун 13 та тиббий йўналиш (урология, травматология, пульмонология, онкология, эндокринология, офтальмология, кардиология, гастроэнтерология ва бошқа) бўйича касалликларни давлат ҳисобидан бепул даволаш тизими жорий этилди. Даволаш жараёни “Электрон саломатлик” ахборот тизими орқали шакллантирилган йўлланма асосида, шифокор кўрсатмаси билан амалга оширилади. Бу эса тиббий хизматларни тақдим этишда электрон бошқарув механизмлари жорий этилиши, ишончли статистик ҳисоботни юритиш ҳамда шаффофликни таъминлашга хизмат қилади.

Шу боис, кам таъминланган оилаларнинг дори-дармонларга бўлган харажатларини ўрганиш ва зарур чора-тадбирлар ишлаб чиқиш учун ушбу ижтимоий тадқиқот ўтказилди [3].

Ўтказилган ижтимоий тадқиқотнинг асосий услубияти аҳоли ўртасида биз томонимиздан ишлаб чиқилган “Кам таъминланган оилаларнинг дори-дармонларга бўлган харажатларини ўрганиш” мавзусидаги махсус анкета саволномаси орқали сўров ўтказишдан иборат бўлди.

Сўровномада иштирок этган респондентларнинг қарийб ярми қишлоқ жойларда истиқомат қилади - 52,88%, қолган 47,12% эса шаҳар аҳолиси ҳисобланади. Жавоб берганларнинг салмоқли қисми – 57,41%– аёллар бўлиб, эркаклар улуши 42,59%ни ташкил қилади. Ёш тузилишида эса энг йирик қатлам 31 – 35 ёшлилар (20,27%), улардан сўнг 36 – 40 ёшлилар (19,68%) келади. Қолган тоифалардан 41 – 45 ёшдагилар - 14,33%, 50 ёшдан юқорилар - 14,25%, 46 – 50 ёшдагилар - 13,49%, 26 – 30 ёшдагилар - 12,64%, ҳамда 20 – 25 ёшдагилар - 5,34% ни ташкил этди (1-жадвал).


Сўров натижаларига кўра, кам таъминланган оилаларда ўртача оила ҳажми 4,9 га тенг бўлиб, респондентлар ўртасида энг кўп учрайдиган оила ҳажми тўрт-

беш киши экан. Хусусан, барча респондентларнинг - 28,38% беш нафарли, 26,54% тўрт нафарли оилада яшашини билдирган. Бу икки тоифа биргаликда - 54,9% ни ташкил қилиб, ўртача катталикдаги оилалар кўпчиликни ташкил этишини кўрсатади. Учинчи ўринда - 15,56% улуш билан олти нафарли оилалар туради, улардан кейин - 10,76% билан уч нафарли, 6,86% билан етти нафарли ва 2,52% билан саккиз нафарли оилалар келади. Энг кам учрайдиганлари эса кичик оилалар бўлиб, икки нафарли оилалар - 4,35%ни, якка яшовчи респондентлар - 1,37%ни ташкил этган. Шу тарзда, сўров кўпчилик респондентларнинг ўртача — тўрт-беш кишидан иборат оилада яшашини аниқлади.



2-расм. “Сизнинг оилангиз қуйидагилардан бирига киритилганми?”

Манба: *С*оциологик тадқиқотлар натижалари, 2025 й.,% [3]



3-расм. “Оиланинг доимий ўртача бир ойлик даромади қанча?”


Манба: *С*оциологик тадқиқотлар натижалари, 2025 й.,% [3]

Олинган натижаларига кўра, камбағалликнинг чуқурлиги ва кескинлигини иштирокчилар оилаларининг ҳозирги фаровонлик даражасини ўзлари қуйидагича баҳоладилар: 39 % – ўзини ўрта фаровонлик даражасида деб ҳисоблайди; 27 % – кам таъминланган деб белгиланган; 15 % – ўрта даражадан юқори имкониятларга эга; 10 % – ўрта даражадан паст ҳолатга эга; 9 % – оиласи юқори фаровонлик даражасида эканини қайд этган.

Тадқиқот натижаларига кўра, респондентлар оилаларининг қарийб ярми — 48,64% — ҳеч қандай ижтимоий дафтар ёки реестрга киритилмаган. Қолган қисми турли хил дастурлар орқали давлат кўмагига жалб қилинган: 22,18% оилалар «Камбағал оилалар реестри»га киритилган бўлса, 20,36% оила «Ижтимоий ҳимоя ягона реестри»да турибди. «Аёллар дафтари»да - 7,17%, «Темир дафтар» - 0,91% ва «Ёшлар дафтари» - 0,74% оила қайд этилган. Бу кўрсаткичлар ижтимоий кўмакдан фойдаланувчи оилалар улуши нисбатан чекланган, лекин аҳолининг салмоқли қисми давлатнинг камбағаллик ва ижтимоий ҳимоя дастурларини қоплаб турганини англатади (2-расм).

Оиланинг ойлик доимий даромади бўйича тақсимотга кўра энг катта гуруҳ (22,41%) ойига 1 — 2 млн сўмгача даромад олади, яъни сўровнома

иштирокчиларининг қарийб тўртдан бири шу диапазонда. Қисман юқори даромадларга эга оилалар — 5 млн сўмдан ортиқ даромадлилар — 18,86%ни ташкил этади. Қолган респондентлар асосан 1 млн — 5 млн сўм оралиғида тақсимланган: 15,65% - оила 1 млн сўмгача, 16,14% - 2 — 3 млн сўмгача, 13,84% - 3 — 4 млн сўмгача ва 13,10% - 4 — 5 млн сўмгача даромадга эга. Бу натижалар аҳолининг катта қисми 2 млн сўмдан кам бўлган даромад гуруҳларида жойлашганини кўрсатади (3-расм).



1-расм. Сиз оилангиз соғлиғи учун ўз маблағингиздан (чўнтагингиздан) йилда ўртача қанча харажат қилгансиз?

Манба: **С**оциологик тадқиқотлар натижалари, 2025 й.,% [3]

Сиз оилангиз соғлиғи учун ўз маблағингиздан (чўнтагингиздан) йилда ўртача қанча харажат қилгансиз деган саволга респондентларнинг 29,65%- 1-4 млн сўмгача, 24,88%- 500 минг-1 млн сўмгача, 18,04%- 100-500 минг сўмгача, 12,27%- 4-10 млн сўмгача, 8,57%-100 минг сўмгача, 6,59%- 10 млн дан юқори деб жавоб беришган.

Респондентларнинг оила соғлиғи учун сарфлайдиган харажатлари асосан 86,41%-дори-дармон учун, 3,95%-давлат шифохонасида даволаниш учун, 3,13%-хусусий шифохонада даволаниш учун, 1,73%-лаборатория хизматлари учун, 1,07%-поликлиника хизматлари учун, 1,24%-шифокор хизматлари (консультация) учун, 0,58%-жарроҳлик (операция) учун, 1,89%-бошқа сабабларни келтиришган.

Соғлиқни сақлаш соҳасидаги давлат сиёсатининг муҳим йўналишларидан бири — аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож қатламларини тиббий ёрдам билан кафолатланган тарзда таъминлаш мақсадида оилавий поликлиникалар инфратузилмасини замонавий талабларга мос равишда ривожлантириш, имтиёзли дори-дармон карталарини жорий этиш, қишлоқ жойларда фармацевтик инфратузилмасини ривожлантириш, сурункали касалликлар учун дори-дармон таъминотини институционаллаштириш, тиббий хизматлар шаффофлигини таъминлаш, аҳоли тиббий саводхонлигини ошириш ва ахборот тарқатишни кучайтириш, узоқ муддатли даволаниш имкониятларини молиявий қўллаб-қувватлаш, тиббий реабилитация марказларини ташкил этиш, витамин D даражасини аниқлаш қон таҳлилини жорий этиш. юрак-қон томир касалликларини аниқлашда муҳим ўрин тутадиган коагулограмма қон таҳлилини амалга ошириш таклиф қилинади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.01.2022 йилдаги "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сон Фармони https://lex.uz/docs/5841063

2. Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш вазирининг буйруғи, 19.06.2025 йилда рўйхатдан ўтган, рўйхат рақами 3632 https://lex.uz/ru/pdfs/7592386

3. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Бюджет-солиқ илмий тадқиқотлари институти ходимлари томонидан ўтказилган сўровномалар асосида тайёрланди.


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SANOAT MAHSULOTLARI PROGNOZ QIYMATLARINI ISHLAB CHIQISH VA ISTIQBOLLI YO'NALISHLARINI ANIQLASH

Qalmuratov Baxtiyar Seytmuratovich
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti,
«Iqtisodiyot va turizm» kafedrasi mudiri, i.f.d. professor

Mintaqalarda sanoat taraqqiyotini ta'minlash, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash muhim muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Sanoat taraqqiyotini ta'minlash, yuqori qo'shilgan qiymatni yaratish, aholi bandligini ta'minlash, ichki bozorni to'yintirish, eksport salohiyatini oshirishda ahamiyatli bo'lib, keyingi yillarda dunyo hamjamiyatida sodir bo'layotgan turli iqtisodiy jarayonlar sanoatning rivojlanish barqarorligiga o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Bu kabi sharoitlarda sanoat mahsulotlari yetishtirishning mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda keyingi yillar uchun prognoz qiymatlariin ishlab chiqish, ushbu jarayonda zamonaviy miqdoriy usullardan foydalanish talab qilinmoqda[2].

Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini tadqiq qilish natijalariga ko'ra, turli sabablarga ko'ra, real hajdagi o'zgarishlarni kuzatish mumkin. Xususan, iqtisodiy inqirozlarni sodir bo'lishi salbiy ta'sir ko'rsatsa, hukumatimiz tomonidan sohani yanada rivojlantirish bo'yicha amalga oshrilayotgan chora tadbirlar ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu kabi sharoitda mos modelni tanlash hamda omillar ta'sirini to'liq qamrab olish masalasi ancha murakablashadi. Shu sababli Qoraqapog'iston respublikasida ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari miqdorini keyingi besh yil uchun prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqmoqchimiz. Bu sohada faoliyat yuritayotgan subyektlar faoliyatini rejalashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi[3].

Keltirilganlarni hisobga olgan holda mintaqada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tendensiyalaridan kelib chiqib turli modellardan foydalanilda va ularning adekvatligi, ishonchliligini baholash natijalari bo'yicha qiyosiy tahlil amalga oshirilda va eng maqbul model tanlandi. Prognoz qiymatlarini ishlab chiqish uchun 2000-2022-yillar ma'lumotlaridan foydalanildi. Ma'lumotlar 2000-yil bazis sifatida qabul qilingani holda real qiymatlarga o'tkazildi. Ushbu ko'rsatkichning prognoz qiymatlarini ishlab chiqish uchun mos bo'lgan modelni tanlash maqsadida grafik usuldan foydalanib o'tamiz va quyidagi natijalarga ega bo'lamiz (1-jadval).



1-rasm. Qoraqalpog‘iston Respublikasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning real qiymatining trend modeli.

Grafik usuliga ko‘ra xatolik darajasi eng kichik bo‘lgan hamda determinatsiya koeffitsiyenti yuqori bo‘lgan model turi kvadratik model ekanligi aniqlandi. Ushbu modelning adekvatligi hamda ishonchliligini asoslash uchun qo‘shimcha mezonlarni ham qarab chiqildi. Buning uchun Gretl dasturi yordamida amalga oshirilgan tahlili natijalariga e’tiborni qaratib o‘tamiz.

Olingan natijalarga ko‘ra barcha koeffitsiyentlar adekvat, shuningdek, Fisher mezoni ham modelning barcha koeffitsiyentlarining bir vaqtni o‘zida nol‘dan farqli ekanligini yuqori darajadagi ehtimollik bilan asoslamoqda. Ammo, Durbin-Uatson mezoni belginlangan me’yordan past ekanligini va avtokorrelyatsiyaning mavjudligini ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, model ishonchliligini asoslash uchun qo‘llaniladigan MAPE ko‘rsatkichining 10,9 teng ekanligi ham ushbu modeldan prognoz qiymatlarini ishlab chiqishda foydalanish maqsadga muvofiq emasligini ko‘rsatmoqda[1].

Grafik usul bo‘yicha eng maqbul modellardan yana biri eksponentsial model bo‘lib, ushbu model bo‘yicha ham yuqoridagi kabi avtokorrelyatsiya muammosi o‘rnili ekanligini ko‘rishi mumkin. Ammo, farqli ravishda eksponentsial modelda MAPE ko‘rsatkichining 3,9 foizni tashkil qilgani holda model yordamida aniqlangan qiymatlarini ishonchliligi yuqori ekanligini asoslamoqda.

2-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining real qiymatlari prognoz ko‘rsatkichlari

For 95% confidence intervals, t(18, 0.025) = 2.101

Yillar	ln(YR) prognoz qiymatlari	YR prognoz qiymatlari	Standart xatolik	95 foizlik ishonch oralig‘i
2023	5,36782	214,4	0,102818	(5,15180, 5,58383)
2024	5,4802	239,9	0,127691	(5,21194, 5,74847)
2025	5,59144	268,1	0,139336	(5,29871, 5,88418)
2026	5,70184	299,4	0,145261	(5,39665, 6,00702)
2027	5,81161	334,2	0,148376	(5,49988, 6,12333)

Keltirib o‘tilgan mezonlar bilan bir qatorda modelning ishonchlilik darajasini ifodalovchi MAPE ko‘rsatkichini juda kichik ekanligi aniqlandi. Ya’ni 1,41 ni tashkil qilgani holda model ishonchlilik darajasini 98,59 foizga teng ekanligini asoslamoqda. Keltirib o‘tilgan tahlil natijalariga asoslanilgan holda ushbu model yordamida

Qoraqalpog‘iston Respublikasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining real qiymatlari prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi. Faqat model yordamida aniqlangan prognoz ko‘rsatkichlari logarifm ko‘rinishida bo‘lib, uni antilogarifm shakliga o‘tkazish orqali quyidagi natijalar olindi (2-jadval).

Ishlab chiqilgan prognoz natijalariga ko‘ra 2027-yilga borib Qoraqalpog‘iston Respublikasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining real qiymatlari 334,2 milliard so‘mni tashkil qilishi aniqlandi. Mazkur ko‘rsatkich 2021-yildagi bilan solishtirganda 1,75 barobarni tashkil qilmoqda. Boshqacha aytganda o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati 11,8 foizni tashkil qiladi. Ammo, mazkur ko‘rsatkich keyingi besh yillikdagi o‘rtacha o‘sish sur’atidan ancha yuqori qiymatga ega bo‘lmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida 2016-yilda mintaqada yetishtirilgan sanoat mahsulotlari real qiymatining oldingi yilga nisbatan 64,5 foizga oshishi hisoblanadi.

Agar ushbu ko‘rsatkichni ham qo‘shgan holda keyingi 6 yildagi o‘rtacha o‘sish sur’atini aniqlaydigan bo‘lsak, o‘rtacha o‘sish sur’ati 15,3 foizni tashkil qiladi. Tadqiq qilinayotgan butun davr davomida mintaqada sanoat mahsulotlari o‘rtacha o‘sish sur’ati 8,0 foizni tashkil qilganligini hisobga olib, alternativ modellardan foydalangan holda prognoz qiymatlarini ishlab chiqish va ular qiyosiy tahlilini amalga oshirib o‘tildi.

Agarda pandemiyaning keyingi yillardagi iqtisodiyotga ta’sirini hisobga oladigan bo‘lsak, keyingi besh yildagi o‘sish sur’atini nisbatan past bo‘lganligini ta’kidlash mumkin. Bundan tashqari hukumatimiz tomonidan sohani rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilib kelinayotgan chora-tadbirlar ta’sirini baholash nuqtai nazaridan olib qaraganda, ham uzoqroq muddatni olish iqtisodiy jarayonni aniqroq ifodalash imkoniyatini yaratib beradi. Bundan tashqari 2023-2027-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot Strategiyasining *22-maqsadida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish masalasi qo‘yilgan.*

Shuningdek, qurilish materiallari, to‘qimachilik sanoati mahsulotlari, elektrotexnika sanoatida yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga oshirishni belgilab berilganligini hisobga oladigan bo‘lsak, uchinchi variant bo‘yicha ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlaridan foydalanishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Tadqiqotlarimiz natijalariga ko‘ra keyingi yillarda mintaqda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini barqaror o‘sish sur’atlari ta’minlanadi va 1,50 barobarga qadar oshishi kutiladi. Olingan xulosalarga ko‘ra, mintaqa sanoat siyosatini shakllantirishning hozirgi davr metodologiyasi nafaqat sanoat sohasining, balki butun mintaqaning ham tashabbuskor va ma’suliyatli rivojlanishining yuzaga kelishiga ko‘maklashishi zarurdir. Bunda rivojlanishni tashabbuskor boshqarish deganda mintaqa rivojlanishining kelgusidagi ijobiy holatiga erishish uchun yo‘naltiriladigan tizimli sa’y-harakatlar bilan uyg‘unlikda klgusi rivojlanishini ijodiy talqin qilish tushuniladi. Ma’suliyatli rivojlanish esa eng avvalo jamiyat, iqtisodiyot subyektlari, fuqarolar, shu ujmladan, kelajak avlodlar oldidagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimni rivojlantirishdagi ma’suliyatni anglatadi.

Adabiyotlar:

1. Nurimbetov R., Kalmuratov B., Mirzanov B., Beglenov N., Bekbosinov A. Development Of Forecasting Indicators Of Industry Development Trends In The Republic Of Karakalpagistan // Library Progress International Print version ISSN 0970 1052 Vol.44 No.3, Jul-Dec 2024: P.4294-4303 4294-4303

2. Qalmuratov B., Joldasbaeva U. Innovatsion boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarining xususiyatlari//“Innovations in Science and Technologies” илмий-электрон журнали ISSN: 3030-3451. 3 / 2025 йил. DOI: 10.5281/zenodo.15081010 Link: https://zenodo.org/records/15081010 527-534 betler

3. Qalmuratov B.Sanoat tarmog‘ini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilishni institutsional asoslari//“Management, Marketing and Finance” xalqaro ilmiy jurnali 2025-yil 1-soni – 2025-yil yanvar.https://doi.org/10.5281/zenodo.14833264 30-36 30-36 betler


БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ

Абдуллаев Зафаржон Алижонович
Тошкент амалий фанлар университети
“Банк ва молия” кафедраси профессори, DSc

Бизнес субъектларининг молиявий барқарорлик кўрсаткичларининг пасайиши инновацион фаоллигини пасайтиради ва кредит рейтингини ёмонлаштиради. Шу муносабат билан бизнес субъектлари солиқ интизомини яхшилаш йўлларини излаётгани ажабланарли эмас ва бу йўл солиқни режалаштиришдир. Солиқни режалаштириш заруратдан кўра кўпроқ солиқ тўламаслик учун солиқ қонунларидан фойдаланишни ўз ичига олади. Баъзи компаниялар солиқни режалаштиришда кўпроқ тажовузкор бўлиши мумкин ва бўшлиқлардан фойдаланишга ёки солиқ қонунчилигидаги ноаниқликларни ўз манфаатларига талқин қилишга интилади. Ушбу фаолият тури манипуляция ҳисобланади ва солиқни режалаштириш ҳисобланмайди ва солиқ қонунчилигини икки томонлама талқин қилишни назарда тутмайди[1]. Шундай қилиб, солиқни режалаштириш солиқ тўлашдан бўйин товлашни назарда тутмайди, фақат даромадларни қайта тақсимлашни назарда тутади камроқ солиқ тўлаш учун турли юрисдикциялар ўртасида, лекин қонун остида. Шунинг учун кўпчилик компаниялар фойда солиғини камайтириш учун солиқни режалаштириш билан фаол шуғулланадилар. Жумладан, корпоратив фойда солиғи ставкалари сўнгги 20 йил ичида ўртача камайган бўлсада, барибир, юрисдиксиялар ўртасида солиқ ставкларида сезиларли фарқлар сақланиб қолган.

Барча юрисдикциялар учун ўртача бирлаштирилган (федерал ва муниципалитетлар даражажасида ҳам ҳисобга олинган) корпоратив солиқ ставкаси 2023 йилда 21,1% ни ташкил этган бўлиб, бу кўрсаткич 2000 йилда 28,2% ташкил қилган. 2000 йилдан 2023 йилгача солиқ ставкаларининг пасайишининг аксарияти корпоратив солиқ ставкалари 10% га тенг ёки ундан юқори ва 30% дан кам бўлган. Солиқ ставкалари 20% га тенг ёки ундан юқори ва 30% дан кам бўлган юрисдикциялар сони қарийб 37 тадан 100 та юрисдикцияга ва солиқ ставкалари 10% га тенг ёки ундан юқори ва 20% дан кам бўлган юрисдикциялар сони 8 тадан 33 та юрисдикцияга 4 баравар кўпайган (4.1-расм).

Ушбу даврда солиқ ставкаларининг умумий пасайишига қарамай, жуда паст солиқ ставкалари 10% дан кам бўлган юрисдикциялар сони 2000 ва 2023 йиллар орасида анча барқарор бўлиб қолган. 2000 йилда солиқ ставкалари 10% дан кам бўлган 16 та юрисдикция ва 2023 йилда 14 та бу чегарадан паст бўлган.



1-расм. Корпоратив солиқ ставкаларини тақсимлашнинг ўзгариши[2]

Шуни таъкидлаш керакки, барча компаниялар солиқни режалаштириш билан шуғуллана олмайди. Бу компания ҳажми ва солиқни режалаштириш имкониятлари каби бир қанча омилларга боғлиқ. Агар компания фақат битта мамлакатда филиалга эга бўлса, унда солиқни режалаштириш инструменларида чекланган бўлади ва фақат ҳисобот даврлари ўртасида фойда солиғи тўловини тақсимлаши мумкин. Бироқ, агар компания турли мамлакатларда турли хил солиқ ставкалари бўлган шўъба корхоналарини рўйхатдан ўтказган бўлса, у даромадни қайта тақсимлаши мумкин, шунда у ставка пастроқ бўлган мамлакатда солиқ тўлайди. Бундан ташқари, бизнеснинг табиати ҳам компаниянинг солиқ режалаштиришни амалга ошириш қобилиятига таъсир қилади. Масалан, савдо, технология, истеъмол товарлари ишлаб чиқариш, хизматлар ва кўчмас мулк савдоси соҳасидаги компаниялари инфратузилма ва қурилиш каби бошқа соҳалардаги компанияларга қараганда солиқни режалаштиришдан кўпроқ фойдаланадилар. Бунинг сабаби шундаки, қурилиш ва инфратузилмада ишлаб чиқариш цикли иқтисодиётнинг бошқа тармоқларига қараганда анча узоқроқ. Бу кўпинча ҳисобот давридан (йил) ошиб кетади, Шу сабабли, компаниялар даромаднинг пайдо бўлишини ушбу даромадни яратиш билан боғлиқ харажатларни тан оладиган даврда тан оладилар. Шу сабабли, компания бир шўъба корхонадаги харажатларни ва бошқасида ушбу харажатлар билан боғлиқ даромадларни тан олмайди[2].

Шундай қилиб, фикримизча солиқни режалаштириш шундан иборатки, солиқни режалаштириш нафақат фойда солиғи миқдорини камайтириши, балки компаниянинг молиявий барқарорлигини ошириши мумкин. Солиқни режалаштириш иккита асосий мақсадни кўзлайди: биринчидан, умумий солиқ мажбуриятини минималлаштириш ва иккинчидан, минимал фискал харажатлар билан молиявий режалаштириш мақсадларига эришишдан иборат. Биринчиси, келишув ёки битим натижасида даромад солиғини камайтиришга қаратилган. Иккинчиси солиққа тортиш муддатини ўзгартириш билан, учинчиси эса даромадни бошқа солиқ тўловчига ўтказиш билан боғлиқ бўлиб, биринчисининг солиқ мажбуриятини камайтиради. Натижада компания камроқ солиқ тўлайди,

чунки солиқ пастроқ солиқ ставкаси бўлган юрисдикциядаги иккинчи компания томонидан тўланади. Шундай қилиб, солиқни режалаштиришдан фойдаланиш нафақат молиявий натижани, балки молиявий барқарорлик кўрсаткичларини ҳам бошқариш имконини беради.

Молиявий барқарорлик кўрсаткичлари компаниянинг инвестицион жозибадорлиги ва унинг натижаларини баҳолаш нуқтаи назаридан муҳим омил ҳисобланади. Кўпинча компаниянинг молиявий барқарорлиги кредит бериш имкониятига ҳам таъсир қилади, молиявий барқарорлик қанчалик юқори бўлса, кредит олиш эҳтимоли шунчалик юқори бўлади. Ҳажми тўланган фойда солиғига боғлиқ бўлган соф фойда компаниянинг молиявий барқарорлиги кўрсаткичлари ҳисоблаб чиқиладиган асосий кўрсаткичлардан биридир. Шундай қилиб, солиқни режалаштириш компаниянинг молиявий барқарорлиги кўрсаткичларини оширишга имкон беради. Шунга асосланиб, солиқ режалаштиришг бизнес субъектларининг молиявий барқарорлик кўрсаткичларини оширишни таъмилаш орқали инновацион фаолликка боғлиқдир деган хулосага келиш мумкин. солиқни режалаштириш молиявий фаолиятни таҳлил қилишни ва қонун доирасида тўланиши керак бўлган солиқлар миқдорини минималлаштириш стратегияларини қўллашни ўз ичига олади. Солиқ режалаштиришнинг мақсади солиқ тўлашдан қочиш эмас, балки мавжуд солиқ имтиёзлари ва чегирмаларидан фойдаланган ҳолда молиявий ҳолатни оптималлаштиришдир.

Шуни таъкидлаш жоизки, солиқни режалаштириш молиявий барқарорлик кўрсаткичларига қандай таъсир қилиши бўйича ўрганишлар натижалари шуни кўрсатадики, юқори номоддий активларга эга бўлган трансмиллий компанияларнинг халқаро солиқ мажбуриятлари янада ошган. Тадқиқотда трансмиллий компанияларнинг қатъий солиқ қонунларига муносабатини кўрсатди ва компаниялар солиқ режалаштиришдан кўпроқ фойдаланаётганлигини кўрсатди. солиқ сиёсати билан боғлиқ ноаниқлик туфайли фирмалар учун солиқ мажбуриятининг оптимал даражасини аниқлаш қийин бўлиши ўз навбатида, бу компаниянинг молиявий рискини ва дефолт эҳтимолини ошириши мумкин[3]. Шу билан бирга, солиқ сиёсатининг ноаниқлиги баъзи фирмаларнинг камроқ риск қилишига олиб келиши мумкин, бу эса уларнинг қарзлардан фойдаланишини камайтириши ва ўз навбатида дефолт эҳтимолини камайтиради.

Адабиётлар:

1. Wang Qi, 2022. Income Tax Planning as a Tool for Achieving Financial Stability. Inzinerine Ekonomika-Engineering Economics, 33(5), 496–506.

2. OECD 2023. Corporate tax statistics-2023. https://www.oecd-ilibrary.org.

3. Tosun and Yildiz, 2020. How does aggregate tax policy uncertainty affect default risk? Journal of Risk and Financial Management, 13(12), 319.


АГРОБИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ

Абдуллаев Зафаржон Алижонович
Тошкент амалий фанлар университети
“Банк ва молия” кафедраси профессори, DSc

Иномжонова Феруза Алижоновна
Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялари институти
"Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти" кафедраси ўқитувчиси

Кейинги йилларда агробизнес субъектларида илмий-тадқиқот фаолияти самарадорлигини ошириш, илғор технологиялар, илм-фан ютуқларини кенг жорий этиш, қишлоқ хўжалик маҳсулотлари етиштириш соҳасидаги билимларни ривожлантириш ва инновацияларни жорий қилиш билан боғлиқ масалалалар муҳим аҳамиятга эгадир. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқаришда ер ва сув ресурсларидан самарали фойдаланиш, қишлоқ хўжалиги экинлари ҳосилдорлигини ошириш, янги навларни яратиш, селекция, уруғчилик ва кўчатчиликни ривожлантириш, илм-фан ютуқларини ишлаб чиқаришга жорий этиш, ҳудудларни муайян қишлоқ хўжалиги экинлари ва озиқ-овқат маҳсулотлари етиштиришга ихтисослаштириш каби концептуал йўналишларга асосланган инновациион фаолиятни ривожлантириш долзарб вазифалардан ҳисобланади[1].

Қишлоқ хўжалиги ва озиқ-овқат соҳасида иқлим ўзгаришига мослашиш ва соҳанинг иқлимга салбий таъсирини юмшатиш дастурини амалга ошириш доирасида БМТнинг Яшил иқлим жамғармаси, Европа Иттифоқи, Глобал экологик жамғармаси, Германия халқаро ҳамкорлик жамияти, БМТнинг Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги ташкилоти каби халқаро ташкилотлари билан биргаликда шакллантирилган 294 млн. АҚШ доллари миқдоридаги грант лойиҳалари пакетидан, дастур доирасида 116 млн. АҚШ долларлик маблағ ўзлаштирилган. Шунингдек, 2024 йилда қиймати 50,1 млн. АҚШ долларлик 9та лойиҳа жалб қилинган. Ушбу лойиҳалар доирасида қишлоқ хўжалигини рақамлаштириш (4,4 млн. АҚШ доллари), экотизимни тиклаш (5,68 млн. АҚШ доллари), салоҳиятни ошириш (3,3 млн. АҚШ доллари), қишлоқ хўжалик маҳсулотлари етиштириш агротехнологиясини такомиллаштириш (9,7 млн. АҚШ) ва қишлоқ хўжалигини ривожлантириш (27 млн. АҚШ доллари) соҳаларига йўналтирилган[2].



1-расм. Қишлоқ хўжалиги соҳасининг аҳоли бандилигидаги улуши[2], фоизда

Статистик маълумотларга кўра, 2024 йилда Ўзбекистонда доимий аҳоли сони 37543,2 минг кишини, шундан шаҳар аҳолиси сони 19 135,8 минг, қишлоқ аҳолиси сони эса 18407,4 минг кишини ташкил этди. Бундан кўринадики, мамлакат аҳолисининг 49% ини қишлоқ жойларида яшайдиган аҳоли ташкил қилган. Бу эса қишлоқ ҳудудларида аҳоли бандлигини таъминлаш ва даромадларини оширишда қишлоқ хўжалиги соҳасининг ривожлантириш ўрни беқиёс даражада юқоридир. Умуман олганда, банд аҳолининг қишлоқ хўжалиги тармоғидаги улуши пасайган бўлса, бироқ қишлоқ хўжалиги ҳудудлар иқтисодиёти ва қишлоқ аҳолисининг фаровонлиги учун улкан аҳамият касб этади (1-расм).

Қишлоқ хўжалигида билим ва инновациялар тизими доирасида йўналишлар ва ҳудудлар кесимида малакали мутахассисларга бўлган эҳтиёжни аниқлаш ҳамда қишлоқ хўжалигида билим ва инновацияларга бўлган эҳтиёждан келиб чиққан ҳолда олий ва профессионал таълим муассасаларининг фаолиятини такомиллаштириш лозим.

Халқаро экспертлар билан ҳамкорликда қишлоқ хўжалигида илмий лойиҳаларни дастурлаштириш учун молиялаштириш механизмлари ишлаб чиқилган бўлиб, ушбу молиялаштириш механизмлари барқарорлиги ҳамда самарадорлигини баҳолаш бўйича синовдан ўтказилган. Асосий стратегик устувор бўлган 8 та йўналиш илмий-тадқиқот драйвер йўналишларини белгилаб олинган:

- органик деҳқончиликни ривожлантириш;
- қишлоқ хўжалиги экинларини селексия тизими, уруғчилик ва уруғшуносликни такомиллаштириш (замонавийлаштириш);
- қишлоқ хўжалигида биотехнологияларни ишлаб чиқиш ва жорий қилиш;
- қишлоқ хўжалиги соҳасида ресурс тежамкор технологияларни ривожлантириш, жумладан яшил масса ишлаб чиқариш, алтернатив энергетика ва карбонат ангидрид чиқиндиларини камайтириш;
- агроекология ва чорвачилик;
- озиқ-овқат хавфсизлиги, озиқланиш ва озиқовқат хавфсизлиги;
- қишлоқ ҳудудларида агро-овқат тизими ва биоенергетика;
- биоиқтисодиёт ва қиймат занжирлари.

Таъкидлаш жоизки, 2020-2023 йиллар давомида қишлоқ хўжалик маҳсулот етиштирувчи бизнес субъектларига давлат бюджетидан жами 4,5 трлн. сўм миқдорда субсидия маблағлари ажратилган. Жумладан, 2020 йилда 724,9 млрд. сўмни, 2021 йилда 1,5 трлн. сўмни, 2022 йилда 1,1 трлн. сўмни, 2023 йилда 1,2 трлн. сўмни ташкил қилган.2024 йилда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштирувчи агробизнес субъектларига 311,2 млрд. сўм субсидия ажратилган бўлиб, технологияларга сув тежовчи технологияга 119,7 млрд сўм, пахта майдонларига гумус миқдорини оширишга 52,3 млрд сўм, импорт қилинган маҳсулдор чорва ҳайвонларига 17,7 млрд. сўм ва лазерли ер текислашга 8 млрд сўм йўналтирилган[2].

Бугунги кунда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш соҳасида илмий тадқиқот натижаларини тижоратлаштириш, илм-фан ютуқларини ишлаб чиқаришга жорий этиш, ишлаб чиқариш муаммоларига илм-фан орқали ечим топиш мақсадида соҳадаги илмий-тадқиқот муассасалари ва кластер,

кооперациялар, фермер ҳамда деҳқон хўжаликларининг узвий ҳамкорлигини йўлга қўйиш ва фундаментал ва амалий тадқиқотлар, инновацион ва стартап лойиҳаларни амалга ошириш тизимини молиялаштириш, илмий тадқиқот натижаларини ишлаб чиқаришга жорий этиш ва бевосита буюртмаларга кўра тижоратлаштириш кўламини кенгайтириш зарур ҳисобланади.

Дунёда юз бераётган глобал иқлим ўзгариши озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаб берувчи қишлоқ хўжалиги соҳасига ҳам сезиларли даражада таъсир кўрсатмоқда. Бу эса, қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқариш самарадорлигига эришиш муаммосига комплекс тарзда ёндашиш, жумладан замонавий илғор технологиялар ва инновацион янгиликларни соҳага кенгроқ жорий этиш ҳамда уларни рағбатлантириш ҳисобига самарадорликка эришиш заруриятини келтириб чиқармоқда. Шу жиҳатдан, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш соҳасига инновацион технологияларни жорий этишни рағбатлантириш механизмларини такомиллаштириш талаб қилинади.Кўпгина ривожланган мамлакатларда қишлоқ хўжалигини инновацион ривожлантириш бўйича мақсадли дастурлар ишлаб чиқилиши ва амалиётга жорий этилиши илмий-тадқиқот ишлари ва инновацион технологияларни жорий этишни рағбатлантиришда давлат ресурсларидан самарали фойдаланиш имкониятини беради.

Адабиётлар:

1. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 3 февралдаги ПФ-6159-сон Фармони билан тасдиқланган "2021-2025 йилларда қишлоқ хўжалигида билим ва инновациялар тизимини устувор ривожлантириш Концепцияси".*
2. *Qishloq xo'jaligi vazirligining yillik hisoboti. 2024 yil.*

ВОПРОСЫ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ ПРИ ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОГО БЮДЖЕТА

Алиева Сусанна Сейрановна
к.э.н., доцент, Самаркандский институт экономики и сервиса
Абдугаффорова Макнуна Ахмаджон кизи,
студент направления образования
«Финансы и финансовые технологии».

Разумное обращение с деньгами – это, по сути, трезвый взгляд на мир и понимание: вы сами в ответе за своё благополучие. Вокруг – тысячи людей и сотни организаций, у каждой свои интересы. Многие из них предлагают товары и финансовые услуги – и не стоит ждать от этого бесплатного чуда: чаще всего за привлекательным предложением скрывается стремление заработать. При этом, нужно учесть, что добросовестных участников рынка всё же больше.

Не стоит бояться новых финансовых инструментов, если вы понимаете, как они работают и какие плюсы могут дать. При этом не нужно пытаться просчитать каждое решение до последней копейки – это нереально и, честно говоря, скучно. Гораздо полезнее выработать несколько простых привычек: базовые правила, которые избавляют от долгих раздумий и прикрывают от глупых ошибок. А вот

по крупным вопросам – покупка жилья, смена работы, большие инвестиции - подход должен быть серьёзным.

Финансовая грамотность населения представляет собой совокупность знаний, практических навыков и личных установок, которые помогают человеку принимать обдуманные решения в сфере управление деньгами, добиваться стабильного материального положения семьи и является важным фактором устойчивого развития домохозяйства.

Владение финансовыми знаниями становится важным элементом ответственного поведения современного человека, позволяющим рационально распоряжаться ресурсами, планировать доходы и расходы, также формировать устойчивое финансовое будущее.

Осознанное отношение к финансам способствует улучшению качества жизни, развитию самостоятельности и способности принимать зрелые решения, неся ответственность за их последствия. Таким образом, финансовая грамотность выступает основой личного и семейного благополучия, а также необходимым условием уверенности в завтрашнем дне.

О том, что этот вопрос – приоритет государственной политики государства также свидетельствует и принятые и реализуемые с этой целью законодательно-нормативные акты, в части, о реализации программы «Финансовая и инвестиционная грамотность» [1], которая предполагает, в частности, ведение учебного курса «Финансовая грамотность» в качестве предмета в общеобразовательных школах и студентов ВУЗов неэкономического профиля, а также организации «олимпиад финансовой грамотности» в рамках данного предмета.

Финансовая грамотность граждан и семейных хозяйств играет ключевую роль в обеспечении финансовой стабильности государства. Она включает в себя множество форм поведения, которые могут способствовать финансовому благополучию [4]. Недостаток знаний в сфере экономики и личных финансов создаёт риски для благополучия населения и тормозит развитие национальной экономики. Низкий уровень финансовой культуры приводит как к неэффективному, так и неполному использованию банковских и инвестиционных инструментов, снижению доверия к частному сектору и, как следствие, к уменьшению доходов и ослаблению экономического потенциала страны.

Одним из важнейших направлений повышения финансовой грамотности является умение грамотно планировать семейный бюджет. Этот процесс требует детального учёта всех источников доходов и направлений расходов, анализа ценовой ситуации на рынке товаров и услуг, а также оценки факторов, влияющих на финансовое положение семьи. Рациональное планирование бюджета помогает избегать необдуманных трат, формировать сбережения и достигать поставленных финансовых целей. Линч Ж.Г. и др. рассматривали планирование финансовых сбережений как осознанную привычку, помогающую семье выстраивать свои цели в расходах. Они показали, что существует несколько путей к этим целям – в зависимости от того, какие ограничения и внешние обстоятельства влияют на поведение домохозяйства и конечный результат [3].

Доходы семьи можно условно разделить на два потока – активные и пассивные. Первые зависят от наших ежедневных усилий: это зарплата, премии,

подработки, любые выплаты, которые приходят в обмен на труд. Их размер обычно связан с тем, насколько человек опытен, в какой сфере работает и сколько времени тратит на дело.

А вот пассивные доходы живут своей жизнью – они идут даже тогда, когда ты не участвуешь напрямую. Это, например, проценты от вклада в банке, дивиденды по акциям, деньги от сдачи квартиры или прибыли от инвестиций. Такие источники приносят не только дополнительную стабильность, но и чувство свободы: когда финансы начинают работать на тебя, появляется возможность строить долгосрочные планы и не зависеть от одной-единственной зарплаты.

По сути, развитие пассивных доходов – это не про лень, а про осознанность и умение выстраивать будущее. Постепенно это формирует привычку думать на шаг вперёд, копить не просто «на чёрный день», а ради спокойствия и уверенности в завтрашнем.

На структуру и распределение личного бюджета воздействует ряд внешних и внутренних факторов.

К внешним относятся макроэкономическая ситуация, уровень инфляции, налоговая политика государства, состояние рынка труда и колебания цен. Эти условия напрямую влияют на покупательную способность и реальный уровень доходов населения.

К внутренним факторам относятся уровень доходов семьи, финансовые привычки, дисциплина, приоритеты расходов и наличие финансовых целей. Значительное влияние оказывает и психологический аспект – отношение человека к деньгам, готовность планировать и умение контролировать свои траты.

Достижение эффективности процесса формирования и распределения бюджета возможно при соблюдении ряда ключевых принципов. Основная цель заключается в рациональном использовании доходов и обеспечении финансовой устойчивости семьи:

1. Анализ доходов и расходов. Постоянный учёт всех поступлений и затрат помогает выявлять нецелесообразные траты и оптимизировать структуру расходов, повышая прозрачность финансов.

2. Планирование, основанное на целях. Чёткое определение краткосрочных и долгосрочных финансовых целей способствует правильному распределению средств между текущими потребностями и будущими приоритетами.

3. Баланс «доходы – расходы – сбережения». Рациональная модель распределения средств опирается на правило 50/30/20: 50 % доходов направляются на обязательные нужды, 30 % - на личные желания, а 20 % - на накопления и инвестиции.

4. Контроль и корректировка бюджета. Важно регулярно пересматривать финансовый план, учитывая изменения уровня доходов, цен и других экономических факторов.

5. Диверсификация источников дохода. Наличие дополнительных и пассивных доходов снижает финансовые риски и способствует устойчивости бюджета.

6. Финансовая дисциплина и осознанное потребление. Следует избегать импульсивных покупок, придерживаться заранее установленного плана и формировать привычку рационального расходования средств.

7. Повышение финансовой грамотности. Расширение знаний о личных финансах, инвестициях и сбережениях способствует принятию более взвешенных и эффективных финансовых решений.

Теоретическая модель, научно обосновывающая персональное бюджетирования домохозяйства является представлена Галпери («A Theory of Personal Budgeting» [2]):

$$y = c + s$$

Данная формула лежит в основе понятия бюджетного ограничения: полученный доход (y) распределяется между двумя основными направлениями – потреблением (c) и сбережениями (s). По сути, это один из базовых принципов экономической теории, который показывает, что любая сумма, поступающая в распоряжение человека или семьи, должна быть использована либо на текущие нужды, либо отложена на будущее.

Такой подход помогает понять, как именно формируется структура расходов и какие решения принимаются в зависимости от уровня дохода. Он отражает поведение людей в реальной жизни: кто-то склонен тратить большую часть средств на повседневные нужды, другие – наоборот, стараются сохранить часть заработанного. В итоге модель показывает не просто математическую зависимость, а саму логику финансового выбора – как люди выстраивают баланс между сегодняшними желаниями и завтрашними возможностями.

Модель также объясняет, как составление бюджета зависит от того, насколько сильно человеку нужны правила самоконтроля, чтобы справиться с соблазнами и достичь своих финансовых целей.

Ведение личного или семейного бюджета – это, по сути, привычка регулярно отслеживать, откуда приходят деньги и куда они уходят. Сюда входит не только фиксирование всех доходов и расходов за определённый период, но и их последующий разбор: что оказалось необходимым, а на чём можно было бы сэкономить. Такой анализ помогает понимать финансовую картину без иллюзий и принимать более взвешенные решения.

Если упростить, у бюджета есть две главные задачи. Первая – учётная: она показывает, как именно распределяются средства, сколько было потрачено и на что. Вторая – практическая: помогает строить планы, ставить конкретные финансовые цели и шаг за шагом двигаться к ним. Постепенно эта система перестаёт быть просто таблицей с цифрами и превращается в инструмент осознанного управления своими деньгами и возможностями.

Финансовая грамотность населения, особенно в сфере планирования и управления семейным бюджетом, является важнейшим элементом экономической стабильности государства. Грамотное формирование и рациональное распределение доходов обеспечивает не только устойчивость конкретной семьи, но и способствует общему развитию финансовой системы страны.

Эффективность процесса ведения личного бюджета достигается за счёт комплексного подхода – анализа доходов и расходов, постановки финансовых целей, диверсификации источников дохода и формирования устойчивых

сбережений. Особую роль играет осознанное отношение к потреблению и развитие финансовой дисциплины, которые позволяют минимизировать риски и повысить уровень финансовой безопасности.

Литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан, от 13.04.2021 г. № УП-6207 «О мерах по дальнейшему развитию рынка капитала».

2. Galperti S. A theory of personal budgeting. // Theoretical Economics. 2019. - 14. – P. 173-210.

3. Lynch J. G., Netemeyer, R., Spiller, S. A., & Zammit, A. A generalizable scale of propensity to plan: The long and the short of planning for time and money. // Journal of Consumer Research, 2010. – 37(1), – P. 108-128.

4. Quach, H. Does access to finance improve household welfare? // Investment Management and Financial Innovations, 2016. – 13(2). – P. 76-86.

ВЗАИМОСВЯЗЬ СТРАТЕГИЧЕСКОГО ПЛАНИРОВАНИЯ И ФИНАНСОВОГО ПРОГНОЗИРОВАНИЯ В КОНТЕКСТЕ РЕАЛИЗАЦИИ СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН – 2030»

Махмутходжаева Луиза Сайфулловна
Ташкентского филиала РЭУ им. Г.В. Плеханова
кафедры «Правовые и гуманитарные дисциплины» к.э.н., доц.

Стратегия «Узбекистан - 2030» определяет амбициозные задачи по модернизации экономики, развитию инфраструктуры, повышению уровня жизни и переходу к «зелёной» модели роста. Эти целевые ориентиры предполагают крупные капитальные и программные затраты в среднесрочной и долгосрочной перспективе, поэтому надёжное финансовое прогнозирование и соответствующие институциональные механизмы являются критическим условием их реализации. Без чёткой финансовой картины (объёмы потребных инвестиций, временные профили расходов, источники финансирования и устойчивость госбюджета) стратегия рискует остаться декларативным документом, а не дорожной картой действий. [1]

Оценочные исследования показывают значительный финансовый разрыв между имеющимися ресурсами и потребностями для достижения Целей устойчивого развития и национальных задач (по оценкам, порядка нескольких миллиардов долларов ежегодно). При этом программа «Узбекистан — 2030» формирует спрос на инвестиции в энергетическую, транспортную, социальную и экологическую инфраструктуру, включая крупные проекты ВИЭ (солнечные и ветровые станции), проекты по водообеспечению и утилизации отходов. Международные аналитические отчёты и интегрированные финансовые стратегии подчёркивают, что дефицит финансирования требует сочетания государственных средств, прямых иностранных инвестиций, донорской помощи и механизмов частного финансирования [2].

Рассмотрим роль среднесрочного бюджетного планирования (Medium-Term Budget Framework-MTBF) и макрофинансовых прогнозов. Эффективная реализация стратегии требует устойчивой связи между стратегическими приоритетами и бюджетной политикой — эту функцию выполняет среднесрочная бюджетная рамка (MTBF), которая позволяет:

1) увязать приоритеты стратегии с реальными бюджетными лимитами на 3–5 лет;

2) сгладить фискальные пики, связанные с крупными инвестициями;

3) проводить стресс-тестирование бюджетных сценариев при внешних шоках. Международный опыт и методические рекомендации МВФ/АДБ подтверждают, что MTBF повышает фискальную дисциплину и делает финансирование стратегических программ предсказуемым и прозрачным. Для Узбекистана внедрение и использование MTBF вместе с улучшением качества макроэкономических прогнозов — ключевой элемент снижения рисков при реализации «Узбекистан — 2030». [4]

Практика показывает, что финансирование стратегических проектов должно опираться на комбинированную модель: государственные ассигнования (капитальные и операционные), международные кредиты и гранты (например, от Всемирного банка, ADB), прямые иностранные инвестиции (FDI), государственно-частные партнёрства (PPP) и рыночные инструменты (государственные облигации). Особенно это важно для «зелёных» и энергетических проектов: пример — масштабирование солнечных и ветровых электростанций, которые привлекают частный капитал при условии ясных тарифных и регуляторных гарантий; в ряде проектов международные банки выступают в роли каталитического финансирования, повышая привлекательность проектов для коммерческих инвесторов. [4]

Для каждой крупной инициативы (энергетика, транспорт, водоснабжение, «зелёная» инфраструктура) необходимо строить полноценные проектные финансовые модели (CAPEX/OPEX, денежные потоки, NPV, IRR), учитывать ценовую динамику и регуляторные риски. На базе таких моделей органы власти могут приоритизировать проекты по экономической эффективности и социально-экономическому эффекту, распределять ограниченные ресурсы и определять потребность в гарантиях, субсидиях или долгосрочных тарифных механизмах для привлечения частного капитала.

Стратегия и прогнозы должны учитывать несколько сценариев — базового, пессимистичного и оптимистичного — с оценкой воздействия внешних ценовых шоков, изменений торговых потоков и климатических рисков. Стресс-тесты бюджетных сценариев помогают оценить вероятность долговой несостоятельности и необходимость корректировок стратегии (перенос сроков, изменение объёмов, повышение фискальной ответственности). Для Узбекистана это особенно важно в связи с быстрым масштабированием энергетических проектов и необходимостью держать макрофинансовую стабильность при одновременном привлечении внешнего капитала. [2]

Необходима чёткая институциональная архитектура — единый центр координации инвестиционных приоритетов (например, на уровне Министерства финансов и профильных агентств), публичный реестр проектов и механизм регулярной отчётности по KPI стратегии (фактические затраты, источники финансирования, сроки реализации). Прозрачность проектов и публичный мониторинг улучшают доверие инвесторов и общества, а также повышают качество финансовых прогнозов за счёт актуализации исходных данных.

Таким образом, мы можем предложить следующие практические рекомендации для интеграции прогнозирования в реализацию «Узбекистан — 2030»:

- Оперативно внедрить и тиражировать MTBF в центральных и региональных бюджетах, с обязательной увязкой с ключевыми проектами стратегии.
- Для крупных инфраструктурных проектов формировать проектные финансовые модели с независимой верификацией (через международных консультантов или банков-участников).
- Создать механизм комбинированного финансирования (бюджет + PPP + международные кредиты + FDI) и стандартизированные соглашения об условиях обеспечения (тарифные гарантии, частичное софинансирование).
- Ввести регулярные стресс-тесты бюджетных сценариев и публикацию краткосрочных (ежеквартальных) отчётов о выполнении стратегических финансовых планов.
- Развивать аналитические компетенции в министерствах (финансовое моделирование, оценка рисков, управление PPP) и привлекать международных партнёров для передачи методик. [5]

Стратегия «Узбекистан — 2030» задаёт масштабную повестку национального развития; её успешная реализация напрямую зависит от качества финансового прогнозирования, гибкости бюджетной политики и способности государства мобилизовать и эффективно распределять разнообразные источники финансирования. Институциональная привязка стратегических целей к среднесрочной бюджетной рамке, применение проектного финансирования и механизмов управления рисками позволят сделать амбициозные цели достижимыми без компромиссов по макростабильности.

Литературы:

1. Официальный портал Правительства Республики Узбекистан — «The STRATEGY "UZBEKISTAN - 2030"». https://gov.uz/en/pages/2030_strategy.

2. UNDP — Integrated National Financing Strategy for the Republic of Uzbekistan (обзор потребностей финансирования и оценки разрыва). /www.undp.org/uzbekistan/publications

3. World Bank — пресс-релиз и материалы по развитию ВИЭ в Узбекистане.https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2024/05/21/

4. МВФ / методические материалы по MTBF (роль среднесрочной бюджетной рамки в управлении бюджетом). www.elibrary.imf.org/display/book/9781475531091

5. *Alimardanov M.I., Sodikov I.G., Allakuliev A.B., Sattoriy F.A. The role of a medium-term budgetary framework to mprove efficiency of the state budget management/.https://interfinance.tsue.uz/wp-content/uploads/2022/10/*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЦЕНОВОЙ ПОЛИТИКИ КАК ФАКТОР УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ И ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОСТИ ТЕКСТИЛЬНОГО ПРЕДПРИЯТИЯ

Юсупова Дилдора Тураджановна
Университет «Alfraganus University»
Доцент кафедры «Менеджмент и маркетинг»
ORCID:0009-0002-4544-8119

Хасанова Садокат Баходир кизи
ТГЕУ Докторант кафедры «Инновационный менеджмент»
ORCID: 0009-0001-9256-4836

Современные предприятия функционируют в условиях высокой конкуренции и нестабильности рынков сырья. В этих условиях эффективное управление финансовыми потоками становится ключевым фактором устойчивости бизнеса. Для текстильной промышленности особую роль играет ценовая политика, так как именно она позволяет сбалансировать издержки производства и доходы от реализации продукции [12].

Формирование научно обоснованной ценовой политики даёт возможность не только покрывать текущие затраты, но и прогнозировать финансовые результаты, обеспечивая стратегическую устойчивость и инвестиционную привлекательность предприятия [11]. При этом ценовая политика должна рассматриваться не только как инструмент ценообразования, но и как комплексное явление, влияющее на инвестиции, конкурентоспособность и долгосрочную стратегию развития.

Ценовая политика предприятия представляет собой систему управленческих решений и мероприятий, направленных на формирование оптимального уровня цен. Она включает в себя: расчет себестоимости продукции, прогнозирование рыночного спроса, анализ конкурентной среды, учет макроэкономических факторов и государственного регулирования [8].

В финансовом аспекте ценовая политика выполняет несколько ключевых функций:

- обеспечение достаточного денежного потока для покрытия текущих и капитальных затрат;
- формирование прибыли как источника самофинансирования и инвестиций;
- укрепление конкурентоспособности на внутреннем и внешнем рынках;
- снижение рисков, связанных с изменением рыночной конъюнктуры [5].

Финансовые потоки представляют собой совокупность поступлений и оттоков денежных средств предприятия. Рациональное управление потоками предполагает поддержание ликвидности, платежеспособности и финансовой устойчивости. Ценовая политика в этом контексте является связующим звеном между производственными затратами и конечными результатами деятельности.

Для повышения эффективности используются современные системы управления издержками: Direct Costing, Standard Costing, ABC-costing, Kaizen Costing. Эти методы позволяют более точно учитывать расходы, прогнозировать себестоимость и формировать гибкие механизмы ценообразования [15].

В текстильных предприятиях ценовая политика оказывает прямое влияние на: Ценовая политика оказывает непосредственное влияние на ключевые финансовые показатели предприятия.

Во-первых, она определяет объём выручки и уровень прибыльности: завышенные цены могут привести к падению спроса, а заниженные – к снижению маржи. Во-вторых, ценовая политика влияет на рентабельность производства, так как определяет соотношение между себестоимостью и продажной ценой [9].

В-третьих, ликвидность предприятия напрямую зависит от регулярности поступления денежных средств. Гибкая ценовая политика обеспечивает своевременные продажи и стабильность притока финансовых ресурсов. Наконец, устойчивость предприятия определяется способностью ценовой политики адаптироваться к изменению рыночных условий [13].

Исследователи отмечают, что грамотное управление затратами и ценами позволяет сохранять положительные финансовые результаты даже в условиях кризиса [3][4][1]. При этом ценовая политика должна быть увязана с маркетинговой стратегией предприятия: без анализа потребительских предпочтений, использования цифровых каналов продвижения и внедрения CRM-систем невозможно обеспечить устойчивый спрос.

Формирование эффективной ценовой политики осложняется рядом факторов:

- нестабильность цен на сырьё и материалы, составляющих до 60–70% себестоимости текстильной продукции;
- рост тарифов на энергоносители и транспортные услуги;
- инфляционные процессы и колебания валютных курсов;
- ограниченная платёжеспособность внутреннего рынка;
- давление со стороны международной конкуренции [7].

Важнейшей задачей является формирование «центров ответственности» на предприятиях и внедрение систем контроля затрат. Это обеспечивает прозрачность финансовых потоков и минимизацию рисков.

Кроме того, в условиях глобализации ценовая политика текстильных предприятий должна учитывать факторы привлечения прямых иностранных инвестиций. Конкурентоспособность на международных рынках невозможна без адаптации ценовой стратегии к требованиям зарубежных партнёров и инвесторов [14].

Совершенствование ценовой политики требует комплексного подхода. Среди ключевых направлений можно выделить:

1. Внедрение инновационных технологий и автоматизации для снижения себестоимости.
2. Использование методов дифференцированного и сегментированного ценообразования.
3. Расширение ассортимента и освоение новых рыночных ниш.
4. Применение стратегического планирования и прогнозирования цен.
5. Активное использование маркетинговых инструментов для стимулирования спроса [2].

Современные методы управления затратами (Standard Costing, ABC-costing, Kaizen Costing, Direct Costing) позволяют выстроить ценовую стратегию, которая учитывает как текущие расходы, так и долгосрочные задачи устойчивого развития [6].

Ценовая политика является стратегическим инструментом управления финансовыми потоками предприятия. От её эффективности зависит рентабельность, ликвидность и инвестиционный потенциал бизнеса. Для текстильных предприятий совершенствование ценовой политики позволяет не только повысить финансовые результаты, но и обеспечить устойчивое развитие в условиях высокой конкуренции и рыночной неопределённости.

Рекомендации, вытекающие из современных исследований [12] [14], подтверждают необходимость внедрения современных методов управления затратами, интеграции ценовой политики с маркетинговыми стратегиями и привлечения иностранных инвестиций для укрепления международной конкурентоспособности.

Литературы:

1. *Боратов Б. Проблемы формирования ценовой политики в промышленности. — Ташкент, 2021.*
2. *Друкер П. Эффективный менеджмент. — М.: Вильямс, 2018.*
3. *Жуманиязов А. Оптимизация затрат и повышение эффективности производства. — Бухара, 2018.*
4. *Исаев А. Финансовая устойчивость предприятий в условиях инновационной экономики. — Самарканд, 2021.*
5. *Котлер Ф., Келлер К. Маркетинг менеджмент. — СПб.: Питер, 2019.*
6. *Мухаметов И. Современные методы анализа финансовых потоков предприятий. — Ташкент, 2023.*
7. *OECD. Competitiveness and Price Formation in Textile Sector. — Paris, 2023.*
8. *Портер М. Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов. — М.: Альпина, 2020.*
9. *Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. — М.: ИНФРА-М, 2022.*
10. *UNECE. Sustainable Development and Textile Industry. — Geneva, 2022.*
11. *Фатхутдинов Р.А. Стратегический менеджмент. — М.: Инфра-М, 2021.*
12. *Хасанова С.Б. Тўқимачилик саноати корхоналарида харажатлар ва баҳони бошқариш стратегиясини такомиллаштириш. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, IX son, sentyabr 2024.*
13. *Шеремет А.Д. Финансовый анализ. — М.: ИНФРА-М, 2021.*
14. *Юсупова Д.Т. Тўқимачилик саноатига тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг самарали муҳитини шакллантириш // ТТЕСИ Республика конференцияси материаллари. – Ташкент, 2024. – С. 174–176.*
15. *Яхъяева Ф. Современные подходы к управлению затратами на промышленных предприятиях. — Ташкент, 2023.*

INVESTITSIYALAR JALB QILISHNING ASOSIY MEXANIZMLARI

Kenjayev Ikrom Ergashboyevich,
University of Business and Science
Moliya kafedrasi mudiri, PhD

Bugungi globallashuv jarayonlarida mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda investitsiyalarni jalb qilish hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Investitsiya faoliyatining samarali yo‘lga qo‘yilishi iqtisodiy o‘sish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, innovatsion texnologiyalarni joriy etishga xizmat qiladi. Shu bois, investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini chuqur o‘rganish va tahlil qilish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Investitsiyalar iqtisodiyotning rivojlanishi, yangi ish o‘rinlarini yaratish va innovatsiyalarni joriy etishda muhim omil hisoblanadi. Har qanday mamlakat yoki korxona o‘sishi uchun xorijiy yoki ichki investitsiyalarni jalb qilish zarur. Shu sababli, investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini chuqur tushunish va samarali qo‘llash muhimdir (1-jadval).

1-jadval

Investitsiyalarni jalb qilishning asosiy mexanizmlari

1. Soliq imtiyozlari va preferensiyalar	Investorlarga soliq yukini kamaytirish yoki biror muddat soliq to‘lovlarini kechiktirish kabi imtiyozlar berish investitsiyalarni jalb qilishda samarali usullardan biridir. Bu mexanizm investorlar uchun qo‘shimcha rag‘bat yaratadi va ularni loyihalarga jalb qilishga yordam beradi.
2. Kredit va moliyalashtirish imkoniyatlari	Davlat yoki moliyaviy institutlar tomonidan qulay kreditlar taqdim etish ham investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlaridan biridir. Past foiz stavkalari va uzoq muddatli kreditlar investorlarning xarajatlarini kamaytiradi va loyihalarni amalga oshirishga turtki beradi.
3. Kafolatlar va sug‘urta mexanizmlari	Investitsiya xatarlarini kamaytirish uchun davlat kafolatlari yoki sug‘urta mexanizmlari qo‘llaniladi. Bu, ayniqsa, xorijiy investorlar uchun muhim bo‘lib, ularni risklardan himoya qiladi va investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini oshiradi.
4. Infratuzilmani rivojlantirish	Yaxshi rivojlangan infratuzilma — yo‘l, transport, energetika va aloqa tarmoqlari investitsiya muhitini yaxshilaydi. Sifatli infratuzilma investorlarni o‘z loyihalarini amalga oshirishga ko‘proq jalb qiladi.
5. Qonunchilik va huquqiy muhit	Barqaror va aniq qonunchilik, investorlarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlari investitsiya muhitining eng asosiy jihatlaridan biridir. Yaxshi huquqiy baza investitsiya xatarlarini kamaytiradi va loyihalarni amalga oshirishga turtki bo‘ladi.
6. Raqamli platformalar va elektron xizmatlar	So‘nggi yillarda investitsiyalarni jalb qilish uchun raqamli platformalar va elektron xizmatlardan foydalanish kengaymoqda. Bu platformalar orqali investitsiya imkoniyatlari keng auditoriyaga yetkaziladi va jarayonlarni soddalashtirish mumkin.

Investitsion hamkorlikning asosiy afzalligi shundan iboratki, unda ilmiy-texnik bilimlar, nou-xaularning, ayniqsa, innovatsiyalarning uzluksiz jalb etilishi; aholining bandlik darajasi va unda mehnat unumdorligining o‘sishi; hudud tabiiy resurslaridan foydalanishning yaxshilanishi; raqobatni faollashtirish va uning natijasida kichik biznes sektori faoliyatining rivojlanishi; zamonaviy tashkiliy-boshqaruv tajribasining joriy etilishi yuz beradi. Fikrimizcha, eng birinchi yondashuvda investitsiyalarni quyidagicha klassifikatsiyalab olish mumkin (2-jadval).

2-jadval

Investitsiyalar klassifikatsiyasi

Klassifikatsiya mezoni	Investitsiyalar klassifikatsiyasi
Investitsiyalar shakllari	To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar Portfel investitsiyalar Boshqalar
Investiyalash muddatlari	Qisqa muddatli O‘rta muddatli Uzoq muddatli
Investitsion resurslarning mulkchilik shakli	Xususiy Davlat Aralash

Kichik biznesdagi investitsiya jarayonlariga xorijiy kapitalni jalb etishning uzoq muddatli strategiyalarini ishlab chiqishda xorijiy investorlar bilan hamkorlik qilishning turli shakllari mavjudligini hisobga olish lozim. Ular orasidan quyidagilarni alohida ta’kidlab o‘tish joiz:

➢ xorijiy investorlar ishtirokining ulushlariga qarab, shu jumladan, hissadorlik jamiyatlari aksiyalarini xorijiy investorlarga sotish yo‘li bilan turli shaklda qo‘shma korxonalar tuzish;

➢ xorijda korxona filiallari va va sho‘‘ba jamiyatlarini tuzish, chet ellarda to‘liq xorijiy investorga tegishli yangi kompaniyalarni tashkil etish;

➢ firmalararo birlashuv va birini boshqasi tomonidan yutib yuborishi natijasida egalik qilish, ya’ni firmani sotib olish yoki qo‘shish bilan egalik huquqi yoki milliylik huquqiga ega bo‘lish;

➢ strategik hamkorlik (birlashma) tuzish, mulkka, shu jumladan, qimmatli qog‘ozlarga ega bo‘lish;

➢ davlat va investorlar o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlar asosida xorijiy kapitalni kiritish – mahsulot taqsimoti haqida konsessiya va bitimlar tuzish;

➢ xalqaro moliyaviy ijara (lizing) shartnomasini tuzish va erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish;

➢ davlat kafolati asosida bank kreditlari va tijorat kreditlari hamda eksportni moliyalashtirish bilan bog‘liq kreditlar ajratish;

“Amerika depozitar tilxati” dasturi orqali aksiyalar emissiyasi va ularni joylashtirish. Iqtisodchilar xorijiy investitsiyalar jalb etilishida turli klassifikatsiyalarini keltiradilar. Chunonchi Rossiya o‘quv adabiyotlari uchun quyidagi klassifikatsiya xarakterli (3-jadval).

Qayd etilgan yo‘nalishlarning barchasi ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri kichik biznes sektoriga taalluqli emas, lekin ularning har biriga oid loyihalarning amalga oshirilishi bevosita yoki bilvosita shu hududdagi kichik biznes sub’ektlari faoliyatiga ijobiy ta’sir etadi va investitsion jarayonlarga turtki beradi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etishning barcha keltirib o‘tilgan ushbu shakllari uzoq muddatli strategik xarakterga ega. Bu borada erishiladigan natijalar O‘zbekiston iqtisodiyotining tarkibiy, tarmoq va tarmoqlaro tuzilmaviy o‘zgarishlaridagi muammolarni faqatgina mamlakat moliyaviy resurslari hisobidan hal etishga nisbatan ham qisqa vaqt ichida va kam investitsion xarajat hisobidan yechish imkonini beradi [4].

Xorijiy sarmoyalar mamlakat iqtisodiyotiga yangi texnologiyalar, nou-xau va boshqaruv tajribasini olib kiradi. Shu bois, quyidagi mexanizmlar orqali ularni jalb qilish amaliyoti kengaymoqda [1]:

- Investorlarga huquqiy kafolatlar berish
- Erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish (misol: Navoiy, Jizzax, Andijon EIZ)
- Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari
- Litsenziya va ruxsatnomalar berishda shaffoflik

K.K.Pozdnyakov Rossiya bozorida ish olib borayotgan xorijiy investorlarni uch guruhga bo‘ladi:

1. Yirik transmilliy korporatsiyalar. Ular milliy huquqiy rejimning boshqalardan alohida ajratilgan qismida ishlaydilar. Qonunchilik hujjatlari yoki hukumat bilan shartnomalar vositasida xo‘jalik yuritishdagi noqulay vaziyatlardan himoya qilinganlar, imtyozlardan foydalanadilar.

2. Mahsulot va xizmatlarning original texnologiyasiga ega bo‘lgan mayda va o‘rta kompaniyalar. Ular odatda o‘z patentlariga yoki “nou-xau”lariga egalar, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqaradilar, barqaror ravishda o‘z bizneslarini kengaytirishga intiladilar.

3. Aktivlar kurs qiymati o‘zgarishidan va iqtisodiy beqarorlikdan foydalanib spekulyativ xarakterdagi foyda olishga intilishga yo‘nalgan investorlar [3].

3-jadval

Xorijiy investitsiyalar shakllari klassifikatsiyasi [2]

Belgisi	Turi	Xarakteristikasi
Mulkchilik shakli bo‘yicha	Davlat	Davlat organlari ko‘rsatmasi bilan investitsiyalash
	Xususiy	Xususiy shaxslarning o‘z davlatidan tashqariga investitsiyalashi
	Aralash	Xususiy va davlat kapitali ishtirokidagi investitsiyalar
Investitsiyalanayotgan moliyaviy resurslarning aktivlar bo‘yicha tarkibiga qarab	Real	Moliyaviy mablag‘larni boshqa mamlakatlardan uskunalar sotib olinishi bilan bog‘liq uzoq muddatli loyihalarga yo‘naltirish;
	Nomoddiy	Litsenziyalar, huquqlar va boshqa nomoddiy xarakterdagi aktivlarni sotib olish,
	Moliyaviy	Aksiyalarga, qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalar va boshqalar
Qullanishi usuli bo‘yicha	Ssuda	Moliyaviy resurslar ular bo‘yicha foizlar ko‘rinishida daromad olish uchun yetkazib beriladi
	Tadbirkorlik	moliyaviy resurslar foydadan devident olish uchun xorijiy investitsiyalar sifatida yo‘naltiriladi
Kapital joylashtirish ob’ektlarining xususiyatiga ko‘ra	To‘g‘ridan-to‘g‘ri	Investor tomonidan loyihaning moliyaviy va tizimli nazoratini maqsadli joylashtirishni nazarda tutuvchi xorijiy investitsiyalarning eng ommaviy turi
	Portfel	Dividendlar olish maqsadida aksiyalarning bir qismi sotib olinadi
	Boshqa	Ularga chet el investitsiyalari, jumladan, bank hisobvaraqlariga pul mablag‘larini joylashtirish, kreditlar berish va boshqalar kiradi.

Iqtisodiyotga, shu jumladan kichik biznes sektoriga xorijiy investitsiyalar jalb etilishi uchun mamlakatimizda anchagina mexanizmlar yaratilgan bo‘lib, ular investitsiyalarning turli shakllariga yo‘l ochib bermoqda. Bu mexanizmlar investitsiyalar turli shakllari oqimini ta’minlovchi choralar, harakatlar, qoidalar, tizimlar, tuzilmalar yig‘indisidir. Mazkur mexanizm birinchi navbatda davlat hokimiyati ishlab chiqadigan investitsiyalarni jalb etish dasturlari amalga oshirilishida namoyon bo‘ladi. Ayni paytda iqtisodiyot erkinlashtirilishi bilan xususiy institutlarning, xususiy biznes sub’ektlarning roli ortib boradi. Shu jihatdan mamlakatimizda kichik biznesning xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasidagi tashabbuslari hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalar zarurligi va ahamiyati ortib bormoqda [5].

Fikrimizcha, kichik biznesga xorijiy investitsiyalar jalb etilishi mexanizmlarida uch yo‘nalishni farqlash lozim:

1. Moliyalashni ta’minlovchi mexanizmlar. Ularga aksiyalashtirish, loyihaviy moliyalash, venchur moliyalash va davlat budjetidan moliyalashtirish kiradi.

2. Investitsiyalar oqimiga ko‘maklashuvchi tizimlar va tashkilotlar. Ularga Savdo-sanoat palatasini va turli tijorat va notijorat tashkilotlarni kiritish mumkin.

3. Alohida hududlar va tarmoqlarga investorlarni jalb etuvchi davlat choralari, imtiyozlari va kafolatlari.

Xorijiy investitsiyalar alohida yo‘nalishlari, shakllari va ularni jalb etish mexanizmlari samaradorligini aniqlash va tahlil qilish ancha murakkab masala va bu

tahlil maqsadlaridan va tegishli sub'ektlarning manfaatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlardan kelib chiqib, xorijiy investitsiyalarni mintaqa iqtisodiyotiga jalb etish shakllarini tanlash mumkin, shu bilan birga barcha shakllardan ham turli darajalarda birday foydalanish mumkin emas. Masalan, alohida korxona darajasida xorijiy investitsiyalarni jalb etishning konsessiya yoki erkin iqtisodiy hududlarni yaratish shakllaridan foydalanish imkoniyati yo'q. Mamlakatga va uning mintaqalariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish shakllarini tanlash bu ularni davlat tomonidan tartibga solishga bog'liq.

Adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni – https://lex.uz*
2. *Сергеев И.В., Веретенникова И.И., Чеховсев В.В. Инвестиции: Учебник для бакалавров, 2014.*
3. *Pozdnyakov K. K. The theoretical basis of the mechanism of attraction of foreign investments in the Russian regions and the ra-tionale for their practical ap-plicability. Raleigh, North Carolina, USA: Lulu Press, 2015. 174 p. S. 71-72*
4. *Mirzayev, A.Sh. – "Investitsiya muhitini yaxshilash va investitsiyalar jalb etishda davlatning o'rni", Iqtisodiy taraqqiyot jurnali, №2, 2022.*
5. *Karimov, I.B. – Investment Climate and Economic Growth in Uzbekistan, Journal of Central Asian Studies, 2023.*

MASOFAVIY MALAKA OSHIRISH KURSLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA MODERNIZATSIYA QILISH

Akbarova Shoxida Azatovna
Toshkent Davlat Texnika Universiteti dotsenti
Kasimova Gulnora Ismoilovna
Toshkent Davlat Texnika Universiteti assistenti

XXI asrda raqamli texnologiyalarning keskin rivojlanishi kasbiy ta'limning barcha shakllarida tub o'zgarishlar yuzaga keltirdi. Malaka oshirish jarayonlari ham bu transformatsiyadan chetda qolmadi. Ayniqsa, masofaviy malaka oshirish kurslari raqamli texnologiyalar yordami bilan yanada samarali, interaktiv va moslashuvchan platformalarga aylanib bormoqda. Global pandemiya davrida esa masofaviy ta'limning ahamiyati yanada oshib, raqamli transformatsiya jarayoni tezlashdi (World Economic Forum, 2020). Ushbu maqolada masofaviy malaka oshirish kurslarida raqamli texnologiyalarni qo'llashning afzalliklari, dolzarb muammolari va amaliy yechimlari tahlil qilinadi.

Ta'lim Sifatining Muhimligini va Xalqaro Ommaviy Tavsiflari bilan Boyitish

Ta'lim sifati – bu jamiyatning rivojlanishi va kelajak avlodlarni tayyorlashda muhim omil. Yuqori sifatli ta'lim nafaqat shaxsning shaxsiy muvaffaqiyatiga, balki mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy barqarorligiga ham bevosita ta'sir qiladi. Bu borada, xalqaro tajribalar va misollar ta'lim sifatini tushunishda katta yordam beradi.

Xalqaro Standartlar va Indikatorlar. BMTning Erkin va Ochiq Ta'lim Indeksi, PISA (O'quvchilarni Baholash Xalqaro Tadqiqoti) va UNESCOning ta'lim sifatini o'lchovchi indikatorlari ta'lim tizimlarining samaradorligini baholashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, PISA ballari bilan Avropa davlatlari (Finlandiya, Estoniya) yuqori darajada ta'lim sifatini ta'minlaydi, ular innovatsion yondashuvlar, shuningdek, ta'lim muassasalarining ustunligi bilan tanilgan.

Maxsus Soha va Mamlakat Misollari. Finlandiya: Ta’lim tizimining eng kuchli qismlaridan biri – sinfdagi kichik o‘quvchi-sinf nazorati, shuningdek, pedagoglarning yuqori malakasi. Maktablar davlat tomonidan ta’minlangan, sharoitlar yuqori darajada bo‘lib, talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Singapur: Ta’lim sifati uchun texnologiyalarni faol qo‘llash va shaxsiy yondashuvni ilgari suradi. O‘quvchilarga amaliy ko‘nikmalar berishga katta e’tibor qaratiladi, bu esa mamlakatning texnologiya va innovatsiya sohasidagi raqobatbardoshligini oshiradi.

O‘zbekiston: So‘nggi yillarda ta’lim sifatini yaxshilash bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar mavjud. Masalan, o‘quvchilarning matematika va ingliz tili bo‘yicha sertifikatlar bilan baholanishi mamlakat ichida va xalqaro sohada o‘z o‘rnini topishga harakat qilmoqda. Shuningdek, onlayn ta’lim va raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim vazifa sifatida ko‘tarilmoqda.

Xalqaro Tajribalar va Bo‘shliqlar. Misol uchun, Finlyandiya va Estoniya ta’lim sifatini belgilovchi asosiy omil – pedagoglarning sifatli tayyorlanishi va jamoatchilik hamda davlat o‘rtasidagi muvofiqlik hisoblanadi. Bu mamlakatlar o‘z ta’lim tizimida innovatsiyalarni azaldan tatbiq etadi va shaxsiy ehtiyojlarga moslash imkoniyatlarini ko‘paytiradi.

Yangi Trendlar va Muammo Hal Qilish. Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalar, shuningdek, shaxsiy yondashuv va keng qamrovli baholash metodlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatlar ichida muayon muammolar – resurslar cheklangani, pedagoglar malakasining yetishmasligi, ta’lim muassasalari infratuzilmasining yetishmasligi kabi muammolarni bartaraf etishda xalqaro tajribalarni o‘rganish va tatbiq qilish muhim.

Raqamli transformatsiya tushunchasi va ta’limdagi ahamiyati. Raqamli transformatsiya — bu tashkilotlarning biznes jarayonlari, madaniyati va xizmat ko‘rsatish shakllarini raqamli texnologiyalar yordamida tubdan o‘zgartirish jarayonidir (Berman, 2012). Ta’lim sohasida raqamli transformatsiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- kontentni raqamlashtirish;
- interaktiv va adaptiv o‘quv platformalarini yaratish;
- onlayn muloqot va baholash tizimlarini joriy etish;
- sun’iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalarini qo‘llash.

Bu esa o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos keladigan, vaqt va joy cheklovlarini bartaraf etuvchi ta’limni ta’minlaydi (OECD, 2021).

Masofaviy malaka oshirishning hozirgi holati va muammolari. 2023 yildagi Jahon ta’lim statistikasi ma’lumotiga ko‘ra, dunyoda malakani oshirish uchun masofaviy kurslarda qatnashuvchilarning soni 30% ga oshdi (UNESCO, 2023). Biroq, an’anaviy masofaviy kurslarda quyidagi muammolar ko‘zga tashlanadi:

- O‘quvchilar faol ishtirokini ta’minlash qiyinligi (Gallagher, 2019);
- Individuallashtirilgan o‘quv yo‘nalishlarining yetishmasligi;
- Muloqot va fikr almashinuvning cheklanganligi;
- Texnik infrastrukturadagi zaifliklar, ayniqsa, qishloq joylarida.

Bu muammolar malaka oshirish sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va xodimlarning ish unumdorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi.

Raqamli texnologiyalarning rol va imkoniyatlari

Raqamli texnologiyalar masofaviy malaka oshirish kurslarini rivojlantirish uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1.Interaktiv dars materiallari va VR/AR texnologiyalari: Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari yordamida o‘quvchilar real ish sharoitlarini simulyatsiya qilib, ko‘nikmalarni chuqurlashtirishi mumkin (Mikropoulos & Natsis, 2011).

2.Sun’iy intellekt va adaptiv o‘quv tizimlari: AI yordamida o‘quvchining qobiliyati va bilim darajasiga qarab moslashadigan ta’lim dasturlari samaradorlikni oshiradi (Luckin et al., 2016).

3.Blended learning (gibrid ta’lim) formatlar: An’anaviy va onlayn ta’limni uyg‘unlashtirish orqali o‘quv jarayoni yanada samarali bo‘ladi (Garrison & Kanuka, 2004).

4.Onlayn baholash va analitika: O‘quv jarayonining holatini doimiy kuzatib borish va individual rivojlanish uchun ma’lumotlarni tahlil qilish imkoniyatlari mavjud (Siemens, 2013).

Amaliy misollar.

- Coursera va edX kabi global MOOCs platformalari 100 million foydalanuvchiga ega bo‘lib, ular orqali malaka oshirish kurslariga keng qamrovli kirish imkoniyati yaratilgan (Class Central, 2023).

- Microsoft Learn va Google Career Certificates kabi kompaniyalar o‘z xodimlari va barcha istaganlar uchun malaka oshirish platformalarini taklif etmoqda. Bu platformalarda yangi texnologiyalar bo‘yicha interaktiv kurslar mavjud.

- O‘zbekistonning bir nechta oliy ta’lim muassasalari va korxonalarida ham raqamli texnologiyalar yordamida malaka oshirish loyihalari amaliyotga joriy etilmoqda (O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim va Fan Vazirligi, 2023).

Xulosa. Raqamli texnologiyalar yordamida masofaviy malaka oshirish kurslarini modernizatsiya qilish ta’lim sifatini oshirish va kasbiy sohada raqobatbardosh xodimlar tayyorlashga xizmat qiladi. Buning uchun:

- Raqamli infratuzilmani ishlab chiqish va kengaytirish;
- Pedagoglarning raqamli ko‘nikmalarini oshirish uchun maxsus treninglar tashkil etish;
- Sun’iy intellekt va AR/VR texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish;
- Muloqot va interaktiv imkoniyatlarni yaxshilaydigan platformalar rivojlantirish tavsiya etiladi.

Taxliliy yondashuv va innovatsion metodlar qo‘llanilganda, malaka oshirishning masofaviy shakli yanada jozibador va sifatli bo‘lib, jamiyatdagi kasbiy salohiyatni oshirishga katta hissa qo‘shadi.

Adabiyotlar:

1. Berman, S. J. (2012). Digital transformation: opportunities to create new business models. Strategy & Leadership, 40(2), 16-24.

2. Gallagher, S. (2019). Challenges in online education: Engagement and motivation. Journal of Educational Technology, 15(3), 45-52.

3. Garrison, D. R., & Kanuka, H. (2004). Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education. The internet and higher education, 7(2), 95-105.

4. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). Intelligence unleashed: An argument for AI in education.

5. Mikropoulos, T. A., & Natsis, A. (2011). Educational virtual environments: A ten-year review of empirical research (1999–2009). Computers & Education, 56(3), 769-780.

6. OECD. (2021). Education in the Digital Age: Challenges and Opportunities.

7. Siemens, G. (2013). Learning analytics: The emergence of a discipline. American Behavioral Scientist, 57(10), 1380-1400.

8. UNESCO. (2023). Global Education Monitoring Report.
9. World Economic Forum. (2020). The Future of Jobs Report 2020.

FOND BOZORIDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AKSIYALARI NARXINI O‘ZGARISHINI LEJANDRA KO‘PHADI ORQALI QISQA MUDDATLI PROGNOZINI ISHLAB CHIQISH


Ibragimov G‘anijon G‘ayratovich
Qo‘shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish markazi boshlig‘i
Innovatsion Menejment kafedrasi v.b dotsenti Phd.
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0008-7188-2609

Ushbu maqolada respublikamizdagi aksiyadorlik jamiyatlarini iqtisodiy ko‘rsatkichlarini shaffofligini ta’minlash va ularning ikkilamchi bozordagi aksiyalari qiymatini o‘zgarishini ochiq joylashtirish masalalari yoritib beriladi. Fond bozorida aksiyadorlik jamiyatini aksiyalar qiymatini o‘zgarishini va ularga ta’sir qiluvchi omillar asosida Bernulli tasodifiy harakat metodi orqali qisqa muddatli prognozlarini ishlab chiqish ushbu maqolada ko‘rib chiqiladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarini investorlarga shaffofligini ta’minlashni eng muhim omili bu fond bozorida aksiyalar qiymatini (narxini) o‘zgarishi ekanligi hisoblanadi. Buning uchun aksiya narxlarini o‘zgarishining iqtisodiy-statistik tahlil qilishdan tashqari, ularni fundamental va texnik tahlil qilish asosida baholash ham dolzarb masalalardan biri deb hisoblash mumkin. Buning uchun ushbu tahlil qilinayotgan aksiyadorlik jamiyatlarini fond bozorida aksiya narxi o‘zgarishining texnik tahlilini amaliyotda mavjud bo‘lgan usullar orqali ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozorida aksiyalar narxini o‘rganishda turli usullardan foydalanish investor uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vositalar harakatlanuvchi o‘rtacha ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi: ma’lum vaqt oralig‘ida aksiya yoki boshqa qimmatli qog‘ozlarning yopilish narxini qo‘shib hisoblab chiqiladigan texnik ko‘rsatkich va umumiy miqdorni tegishli savdo kunlari soniga bo‘lish, trend chiziqlari, qo‘llab-quvvatlash va qarshilik darajalarini ifodalaydi hamda nisbiy kuch indeksi (RSI) kabi osilatorlar, narx harakatining tezligi va o‘zgarishini o‘lchaydi.

Biroq, texnik tahlil cheklovlarga ega, chunki u faqat tarixiy narx ma’lumotlariga tayanadi va aktivning qiymatiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan asosiy omillarni hisobga olmaydi. Bu bozor ishtirokchilari o‘zini bashorat qilishlari mumkin degan taxminga asoslanadi, bu har doim ham to‘g‘ri bo‘lmasligi mumkin. Bundan tashqari, grafik va ko‘rsatkichlarni sharhlash va tahlil qilish mahorat va tajribani talab qiladi.

Elliott to‘lqini nazariyasining asosiy muammosi shundaki, texnik xususiyatiga qaramay, u subyektiv tahlilga uchraydi. Bu shuni anglatadiki, ikkita amaliyotchi bir xil narx jadvaliga qarashlari va turli xil to‘lqinlarni hisoblashlari mumkin. Shunday qilib, agar ushbu tahlil usulidan foydalanishni rejalashtirish, to‘lqinlar sonini ishlab chiqarishning qaysi usulidan foydalanishni oldindan hal qilishingiz juda muhimdir. Yaxshiyamki, bu maqsadda dasturiy ta’minot mavjud va eng qulay bo‘lganini tanlashingiz kerak.



1-rasm. “O‘zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi” aksiyadorlik jamiyatini aksiyalarini ikkilamchi bozorda sotilish soni (2024 yil)

Bizga ma’lumki “O‘zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi” aksiyadorlik jamiyati korxonasida aksiyalar narxini keskin tebranib turishi bu bevosita har bir aksiya uchun to‘lunadigan dividend qiymatiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun korxonalarda dividend siyosati boshqaruv qarori asosida to‘g‘ri tashkil etilishi muhim hisoblanadi.

Korxonanaing aksiyalar bo‘yicha dividend berish amalyotida ularning ikkilamchi bozorda sotilish soniga ham bog‘liq bo‘ladi. “Qizilqumsement” aksiyadorlik jamiyatini aksiyalarini ikkilamchi bozorda sotilish soniga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, eng yuqori ko‘rsatkichga 2024 yilda noyabr oyining oxirgi haftalariga to‘g‘ri kelgan bo‘lab, 83668 tani tashkil etgan. Eng past ko‘rsatkichi esa 8 fevralda 7 tani tashkil etgan. Aksiyalar narxini ikkilamchi bozordagi sotish (sotib) olish ko‘rsatkichlarini doimiy o‘zgarib turishi korxonaning kelgusidagi kelajagini belgilashda investorlar uchun muhim bo‘lsa, keyingi albatta bu dividend siyosati bilan bog‘liq bo‘ladi.

Olingan tahlillar asosida aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalari narxini prognoz qilish orqali quyidagi xulosaga kelindi:

- Bernulli tasodifiy harakat metodiga ko‘ra Lejandra ko‘phadi funksiyalari orqali aksiyalar narxini keyingi harakat yo‘nalishini prognoz qilishda, koordinata o‘qini tahlil qilinayotgan davrdagi eng yuqori narxi va eng past narxi no‘qtalari orqali absissa o‘qini chizib olish maqsadga muvofiq;
- Lejandra ko‘phadi funksiyalari orqali aksiyalar narxini o‘zgarishi kunlar orqali (kamida 5 kun) olish prognoz aniqligini oshiradi;
- treyderlar ishlab chiqilgan prognozlar orqali ikkilamchi bozorda aksiyadorlik jamiyatini aksiyalarini sotish (sotib) olish imkoniyatini oshiradi.

alar narxini ikkilamchi bozorda o‘zgarishi asosida yuzaga keladigan holatlar bo‘yicha quyidagi xulosalar ishlab chiqildi.

Bernulli tasodifiy harakat metodi orqali aksiyadorlik jamiyatini investorlar uchun aksiyalar narxini harakatlanish grafigini kuzatish imkoniyati yaratiladi.

Bernulli tasodifiy harakat metodiga ko‘ra Lejandra ko‘phadi funksiyalariorqali “O‘zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi” aksiyadorlik jamiyatini aksiyalari narxini tebranish amplitudasini aniq vaqt oralig‘ida o‘zgarishi kuzatildi.

“O‘zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi” aksiyadorlik jamiyati aksiyalarini ikkilamchi bozorda sotish (sotib) olish chegarasini aniq baholash imkoniyati ishlab chiqildi.

“O‘zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi” aksiyadorlik jamiyati aksiyalarini ikkilamchi bozorda narxini o‘zgarishini Lejandra ko‘phadi funksiyalari orqali aniq baholash investorlarni jalb etish imkoniyatini yanada oshirishi asoslandi.

“O‘zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi” aksiyadorlik jamiyati aksiyalarini ikkilamchi bozorda narxini o‘zgarishini Bernulli tasodifiy harakat metodi qoidalaridan foydalangan holda Lejandra ko‘phadi funksiyalarini qo‘llagan holda kunlik o‘zgarish prognozi ishlab chiqildi.

“O‘zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi” aksiyadorlik jamiyati aksiyalarini ikkilamchi bozorda narxini o‘zgarishi korxonaning boshqaruv kengashi tomonidan olib borilayotgan dividend siyosati bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqligi asoslab berildi.

Adabiyotlar:

1. Jakhon, K. S. (2021). Analysis of factors of intensive economic growth in Uzbekistan. JournalNX, 7(12), 310-315.

2. Khamdamov, S. J., & Usmanov, A. (2022). New methodological recommendations for economic growth. Архив научных исследований, 2(1).

3. Kasimov, A.,... & Usmanov, C. (2023, December). Organizational and economic modeling of the system of interregional industrial cooperation as a control object. In Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems (pp. 333-343).

4. Muftaydinova, S. K., ... & Abdullayev, S. I. (2022, December). Expression of the tyrosine kinase receptor (EPHA1) in the eutopic and ectopic endometrium of patients with deep infiltrative endometriosis use of modern digital technologies. In Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (pp. 416-421).

5. Khamdamov, S. J. (2024). Energy Sector Development and its Contribution to Uzbekistan's Economic Expansion. American Journal of Corporate Management, 1(2), 1-6.

6. Khamdamov, S. J. (2024). The Effect of Labor Market Reforms on Economic Growth in Uzbekistan. American Journal of Corporate Management, 1(2), 7-12.

7. Kakhramonova, U., & Usmanov, A. (2024). GREEN ECONOMY AS A DRIVER OF SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN. Страховой рынок Узбекистана, 1(8), 64-66.

8. Saidmakhmudovich, U. A., Khamdamov, S. J., & Eshonovich, S. A. (2023). PROBLEMS OF ENSURING SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS IN UZBEKISTAN. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 16, 106-110.

BOZOR IQTISODIYOTI VA DAVLAT: ARALASH IQTISODIYOT MODELINING ZARURATI

Suvonov Ibroxim Izbosarovich

University of Business and Science Moliya kafedrasi dotsenti, i.f.n.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida davlatning iqtisodiyotdagi roli sezilarli darajada o‘zgardi. Erkin bozor tamoyillari asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida e’tirof etilgan bo‘lsada, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, ijtimoiy tenglikni saqlash va strategik sohalarni qo‘llab-quvvatlashda davlatning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiy tangliklar, iqlim o‘zgarishlari, pandemiyalar kabi omillar iqtisodiyotni davlat tomonidan muvofiqlashtirish zaruratini yanada oshirmoqda.

Ideal bozor modeli quyidagilarni o’z ichiga oladi, uning har bir ishtirokchisi ishlab chiqarish faoliyati natijasida kelib chiqadigan xarajatlar yukini to’liq o’z zimmasiga oladi va o’z mehnati natijalaridan to’liq daromad oladi. Bu shuni anglatadiki, barcha xarajatlar va foyda narxlarda o’z ifodasini topadi - bu ishlab chiqarish omillari narxi yoki tayyor mahsulot narxi. Haqiqiy hayotda bu holat ko’pincha buziladi, tashqi ta’sirlar paydo bo’ladi.

Tashqi ta’sirlar. Matematik jihatdan tashqi ta’sirlarni quyidagi formula bilan tavsiflash mumkin: UA = F(XA1, XA2, …, XAN, Y) bu erda UA A sub’ektining foydaliligi, XA1, XA2, ..., XAN - qiymatlari A sub’ektining qarorlari bilan belgilanadigan omillar (masalan, xom ashyo sotib olish, ishchi kuchini yollash, tayyor mahsulot narxlarini belgilash va h.k.) va Y - bu A sub’ektining irodasiga bog‘liq bo’lmagan va boshqa biron bir xo’jalik yurituvchi sub’ekt tomonidan belgilanadigan omil [1].

Tashqi ta’sirlar ijobiy va salbiy bo’lishi mumkin. Salbiy tashqi ta’sirlar narxlarda ifoda etilmaydigan xarajatlar bilan bog‘liq. Ularga misol atrof-muhitning ifloslanishi, stelliloza va qog‘oz zavodi zaharli moddalarni daryoga tashlashidan, ko’pincha zavod bilan hech qanday aloqasi yo’q ko’plab korxonalar va yaqin atrofdagi shaharlarning aholisi aziyat chekmoqda. Evropada yoki AQShda issiqxona gazlari chiqindilarining global isishi Kanada va Lotin Amerikasida toshqinlarga yoki Sharqiy Osiyoda tayfunlarga olib keladi. Natijada, ushbu hududlar “Yashil o‘sish” yo‘lini, o’z qarorlari bilan bog‘liq bo’lmagan xarajatlarni o’z zimmalariga oladilar. Bu esa yuqoridagi formulada Y qiymatini doimiy manfiy bo’lishiga olib keladi.

Ijobiy tashqi ko’rinish ma’lum bir tovar ishlab chiqarishda ishtirok etmaydigan xo’jalik yurituvchi subyektlar uchun qo’shimcha foyda keltirishi bilan tavsiflanadi. Masalan, Germaniyada nemis soliq to’lovchilari hisobidan yuk va yo’lovchilarni, Sharqiy Evropadan Frantsiya va Ispaniyaga nafaqat nemis firmalari, balki bir vaqtning o’zida hech qanday xarajatlarni o’z zimmasiga olmagan boshqa mamlakatlar kompaniyalari tomonidan tashishda foydalaniladigan, yo’llarni qurish bilan bog‘liq ajoyib avtoulovlar tarmog‘i yaratildi. Yuqoridagi formuladagi Y qiymati musbatdir. Ijobiy tashqi ko’rinishning bunday holati “Yashil iqtisodiyot” hisoblanadi.

Tashqi ta’sirlarning paydo bo’lishi har doim bozor mexanizmining natijalarini buzadi. Salbiy tashqi ta’sirlarni keltirib chiqaradigan ishlab chiqaruvchilar ular bilan bog‘liq xarajatlarni butunlay e’tiborsiz qoldirishlari mumkin, bundan tashqari, agar bu ularga, masalan, yangi texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq bo’lgan «moddiy» xarajatlarni tejashga imkon bersa, tashqi o’sishning o’sishiga qiziqish bildirishi mumkin. Ijobiy tashqi ta’sirlar ham zararsizdan uzoqdir. Ularning mavjudligi ishlab chiqaruvchilarning motivatsiyasini pasaytiradi hamda ular mehnatining bir qismi «bepul» boshqalarga beriladi. Shuning uchun davlatning aralashuvi bu yerda zaruratga aylanadi.

Ishlab chiqaruvchilarni salbiy tashqi ta’sirlarini hisobga olish uchun ularni ichki holatga keltirish kerak. Masalan, «issiqxona gazlari» emissiyasi uchun to’lovlarni joriy etish metallurgiya kompaniyalari va ko’mir zavodlarini tashqi ta’sirlarni o’z xarajatlarining bir qismi sifatida ko’rib chiqishga majbur qiladi va ularni minimallashtirish uchun turtki yaratadi. Ammo salbiy tashqi ta’sirlar yuzaga kelganda davlat aralashuvi har doim muqarrar bo’ladimi? – degan savol tug‘iladi. 1960 yilda nashr etilgan Nobel mukofoti sovrindori Ronald Kouzning maqolasi shuni ko’rsatadiki, tranzaktsion xarajatlar bo’lmagan taqdirda va «tashqi ta’sirlar» sabablarini aniqlash mumkin bo’lsa, ularni bozor ishtirokchilari o’rtasidagi muzokaralar natijasida yo’q

qilish mumkin. Bundan tashqari, muzokaralar natijasi mulk huquqlarining taqsimlanishiga bog‘liq emas. Ushbu bayonot Kouz teoremasi deb nomlangan. Biroq, haqiqiy dunyoda “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishda tranzaktsion xarajatlar mavjud va ko’pincha muzokaralar paytida (masalan, muammoni hal qilish) taqiqlangan darajada yuqori bo’ladi. “Issiqxona effekti” minglab CO2 va boshqa gaz ishlab chiqaruvchi kompaniyalar va global isish xarajatlarini o’z zimmasiga olgan milliardlab jismoniy shaxslar va firmalar o’rtasida muzokaralarni talab qiladi). Shu sababli, haqiqiy dunyoda davlat aralashuvi hali ham muqarrar bo’lib qolmoqda.

Mukammal raqobat modeli bozordagi ko’plab o’yinchilardan kelib chiqadi. Shu bilan birga, ularning har biri bozor narxlariga ta’sir qila olmaydi deb taxmin qilinadi. Biroq, aslida, bozor doimiy ravishda monopolistik vaziyatlarni keltirib chiqaradi, bu esa ushbu hokimiyat qaysi shartlarga asoslanishidan qat’i nazar, narx ustidan ma’lum darajada hokimiyatni anglatadi. Taniqli nemis iqtisodchisi Vilgelm Repke monopoliyaga qarshi davlat siyosati zarurligi to’g‘risida juda aniq va majoziy ma’noda gapirdi, u «raqobat yovvoyi gul emas, balki g‘amxo’rlikka muhtoj madaniy o’simlik»ekanligini ta’kidladi [2].

Mukammal raqobat modeli ishlab chiqarish omillarining mutlaq bo’linishidan kelib chiqadi. Masalan, korxona kerakli ishlab chiqarish hajmiga qarab yoqilg‘i sarfini erkin o’zgartirishi mumkin. Biroq, aslida ishlab chiqarishning ko’plab omillari (masalan, quvurlar, elektr uzatish liniyalari) bo’linmasdir. Bu holda ishlab chiqarishning marjinal qiymati ishlab chiqarish hajmining o’sishi bilan doimiy ravishda kamayadi. Miqyosni tejashning sezilarli ta’siri yuzaga keladi, natijada bozorda faqat bitta ishlab chiqaruvchining mavjudligi samarali bo’ladi. «Tabiiy» monopoliya paydo bo’lib, uning bozor kuchidan foydalanishi va iqtisodiyotning maqbul holatini buzilishiga olib kelishi mumkin [3].

Mukammal raqobat modelining eng kam real shartlaridan biri bu to’liq ma’lumotga ega bo’lishdir, unga ko’ra barcha iqtisodiy sub’ektlar boshqa xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning har qanday xatti-harakatlari to’g‘risida darhol ma’lumot olishadi. Aslida, firmalar va uy xo’jaliklari to’liq bo’lmagan ma’lumotlar, noaniqlik va xavf ostida ishlashga majbur. Axborot etishmovchiligidan kelib chiqadigan muammolarning ikki guruhi mavjud - teskari tanlov yoki teskari seleksiya (adverse selection) va axloqiy xavf (moral bazard) [4].

Ba’zi hollarda talab va taklifni birlashtirgan bozorni o’z-o’zini tartibga solish mexanizmi ishlamaydi. Masalan, oziq-ovqat bozorlarida g‘ayritabiiy ta’minot reaktsiyasi tez-tez uchraydi. Narxlarning pasayishi bilan fermerlar daromadning pasayishini qoplash uchun ishlab chiqarishni ko’paytirishga majbur bo’ladilar. Ba’zi mahsulotlar ular talabning g‘ayritabiiy reaktsiyasi bilan ajralib turadi. Narxlarning ko’tarilishi ushbu tovarlarni iste’mol qilishning ko’payishiga olib keladi. Biz asosan arzon oziq-ovqat haqida gapiramiz, bu narxlarning umumiy o’sishi sharoitida endi iste’molchi uchun mavjud bo’lmagan qimmatroq mahsulotlarning o’rnini bosadi.

Muammo shundaki, ishlab chiqaruvchilar talabning pasayishiga etarlicha javob bera olmaydigan va asosiy vositalarga katta sarmoya kiritish zarurati va ijtimoiy muammolarning kuchayishi sababli bozorni tark etishga majbur bo’lgan tarkibiy inqiroz sharoitida bozorni moslashtirishdir. Bu erda yaqqol misol Evropa ko’mir va po’lat sanoati. Bu yerda moslashuvchan bo’lmagan uzoq muddatli shartnomalarning ustunligi tufayli bozorning moslashish qobiliyati pasayadi. Xalqaro iqtisodiyotda bozorlarning egiluvchanligining empirik tasdiqlangan misoli to’lov balansining g‘ayritabiiy

reaktsiyasi milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan pasayishi importning o'sishi va eksportning pasayishiga olib keladi. Ushbu holatlarning barchasiga davlat aralashuvi talab qilinadi.

Shunday qilib, "Barqaror iqtisodiy o'sish"ni ta'minlashda, davlat bozor jarayonlariga faol ta'sir ko'rsatishi kerak bo'lgan shartlarning juda keng ro'yxatini olish mumkin. Shu munosabat bilan zamonaviy bozor iqtisodiyoti haqli ravishda aralash deb hisoblanadi, bu erda bozorning «ko'rinmas qo'li» uni to'ldiruvchi davlatning «ko'rinadigan qo'li» bilan muntazam ravishda o'zaro ta'sir qiladi.

Адабиётлар:

1.CoasR.TheProblemsofSocialCosts//JournalofLawandEconomics. 1960.Vol.3.

2. Nell Breuning O.V., Deg Mensch in der heutigen Wirtschaftsgesellschaft, Munchen;Wien.1975.S.39

3. ЭрроуК.Дж.Коллективныйвыборииндивидуальныеценности.М.:ГУВШЭ, 2004.

4. Обзорпроблематики,связаннойсполитическойтеоремойКоуза,приводится в: AcemogluD. WhyNot A Political Coase Theorem? Socisl Costs, Commitmentsand Politics.Mimeo,2002.

SOLIQ IMTIYOZLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KORXONALAR MOLIYAVIY HOLATINI YAXSHILASH YO'NALISHLARI

Matkuliyeva Sanobar Ismailovna

"Ma'mun universiteti" nodavlat oliy ta'lim muassasi dotsenti

Soliq tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri — bu soliq imtiyozlari va preferentsiyalar tizimidir. "Soliq imtiyozlari — bu soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqalarga nisbatan qonunchilikda belgilangan afzalliklardir" [1]. Ular orasida soliq to'lashdan to'liq ozod qilish, soliq stavkalarini kamaytirish, shuningdek, soliqlarni to'lash muddatini kechiktirish kabi mexanizmlar mavjud. Shu bilan birga, Soliq kodeksining 75-moddasida ta'kidlanishicha, *soliqlarni to'lash muddatini kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati soliq imtiyozi sifatida e'tirof etilmaydi.*

Ilmiy nuqtai nazardan, soliq imtiyozlari iqtisodiy faollikni oshirish, investitsion muhitni yaxshilash hamda ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida qo'llaniladi [2]. Shu sababli, ularning moliyaviy samaradorligini baholash davlat byudjeti daromadlari, xo'jalik subyektlari rentabelligi va investitsiya faolligi orqali tahlil qilinishi zarur.

Soliq imtiyozlarining axborot tizimlarida identifikatsiya kodlari orqali qayd etilishi, ularning *shaffofligi, monitoringi va nazoratini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.* Bu orqali davlat organlari tomonidan imtiyozlar samaradorligi bo'yicha moliyaviy tahlil va auditorlik nazoratini amalga oshirish imkoni yaratiladi.

Shu bilan birga, soliq imtiyozlarini taqdim etishda *byudjet mablag'larining maqsadli yo'naltirilishi* talab qilinadi. Maqsadsiz yoki belgilangan muddatda foydalanilmagan mablag'lar belgilangan tartibda penya bilan byudjetga qaytarilishi kerak. Bu jarayon moliyaviy intizom va davlat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Soliq imtiyozlarini tizimlashtirish — ularni muayyan mezonlarga ko'ra guruhlarga ajratish va har bir turining moliyaviy ta'sirini aniq baholash jarayonidir. Amaldagi tasniflar ko'pincha murakkab va turlicha talqin etilayotganligi sababli, ularni *asosiy iqtisodiy mezonlar asosida standartlashtirish* zarur.

Maqsad va vazifalariga koʻra soliq imtiyozlari quyidagi turlarga boʻlinadi: *ragʻbatlantiruvchi, kafolatlovchi, tartibga soluvchi, investitsiyaviy, takror ishlab chiqarish hamda ijtimoiy yoʻnaltirilgan imtiyozlar.* Ushbu toifalar iqtisodiy tizimning turli jabhalariga moliyaviy ta'sir koʻrsatadi va davlat soliq siyosatining samaradorligini belgilaydi.

Shu nuqtai nazardan, har bir soliq imtiyozining moliyaviy oqibatlarini chuqur tahlil qilish, ularning byudjetga ta'siri, investitsion faollikka qoʻshgan hissasi va ijtimoiy natijadorligini baholash orqali *soliq imtiyozlari hisobini takomillashtirish tizimi yaratiladi.*

Shu asosda soliq imtiyozlari quyidagi asosiy toifalarga boʻlinadi:

1. *Iqtisodiy imtiyozlar* — bu turdagi imtiyozlar tadbirkorlik faoliyatini, investitsiyalarni va innovatsiyalarni ragʻbatlantirishga qaratilgan boʻlib, ularning moliyaviy-iqtisodiy holatini yaxshilash maqsadini koʻzlaydi. Masalan, tezlashtirilgan amortizatsiya, investitsiyaviy soliq krediti, soliq amnistiyasi kabi choralar shular jumlasidan.
2. *Ijtimoiy imtiyozlar* — ijtimoiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan boʻlib, ular turar joy shartlarini yaxshilash, ta'lim va sogʻliqni saqlashni rivojlantirish, shuningdek ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini qoʻllab-quvvatlashga xizmat qiladi.
3. *Umumiy imtiyozlar* — kompleks vazifalarni hal qilishga yoʻnaltirilgan boʻlib, masalan, maxsus iqtisodiy zonalarda soliq rejimlarini joriy etish, qoloq hududlarni rivojlantirish, birlamchi ehtiyoj tovarlariga soliq stavkalari pasaytirilishi, muhim tibbiy mahsulot va uskunalarni soliqdan ozod qilish kabilar kiradi.

Bunday tasniflash soliq imtiyozlarining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini baholash hamda ularni taqqoslash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq-byudjet siyosatining tartibga soluvchi vositasi sifatida soliq imtiyozlari samaradorligini tahlil qilishdan avval, ularni joriy etish orqali yuzaga kelishi mumkin boʻlgan iqtisodiy va moliyaviy ta'sirlarni aniqlash hamda baholash zarur. Mazkur tahlil natijalari keyinchalik ushbu chora-tadbirlarning samaradorligini ilmiy asoslangan yondashuvlar yordamida baholash uchun poydevor boʻlib xizmat qiladi.

Samaradorlikni baholash — bu erishilgan natija (ta'sir) ni unga erishish uchun sarflangan moliyaviy, resurs va vaqt xarajatlari bilan solishtirish jarayonidir. Boshqacha qilib aytganda, har qanday iqtisodiy vositaga berilgan soliq imtiyozining haqiqiy foydasi — u keltirgan ijobiy oʻzgarish bilan unga sarflangan resurslar oʻrtasidagi nisbat orqali oʻlchanadi.

Amaliyotda soliq imtiyozlari samaradorligini aniqlashdagi asosiy muammolardan biri — normativ-huquqiy hujjatlarda aniq bir imtiyozga nisbatan *maqsad va kutilgan natijalarni oʻlchovchi indikatorlarning* mavjud emasligidir. Bu holat natijalarni baholashni murakkablashtiradi va ilmiy tahlilning obyektivligini cheklaydi.

Bundan tashqari, iqtisodiy natijalarga erishishda faqat bitta soliq turi boʻyicha taqdim etilgan imtiyoz emas, balki boshqa soliqlar boʻyicha berilgan imtiyozlar yoki iqtisodiy siyosatning boshqa vositalari ham ta'sir koʻrsatadi. Masalan, *investitsiyalar hajmini oshirish* maqsadida bir vaqtning oʻzida bir nechta soliq turlari boʻyicha imtiyozlar qoʻllanilishi mumkin.

Natijada, ma'lum bir soliq imtiyozi orqali yuzaga kelgan ta'sirni "toza" shaklda ajratib olish mushkul boʻladi, chunki turli imtiyozlar oʻzaro qoʻshilib, kutilgan natijaga birgalikda ta'sir koʻrsatadi. Shu sababli, soliq imtiyozlarining moliyaviy samaradorligini baholashda *koʻp omilli tahlil yondashuvini* qoʻllash muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq imtiyozlarining ta’sirini baholashda, ularni joriy etishdan ko‘zlangan maqsad nuqtai nazaridan qaraganda, *to‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita) va bilvosita* ta’sir shakllarini farqlash mumkin. Bu yondashuv imtiyozlarning iqtisodiyotdagi real samaralarini chuqurroq aniqlash imkonini beradi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir — bu soliq imtiyozi joriy etilganidan so‘ng darhol namoyon bo‘ladigan bevosita iqtisodiy natijalar yig‘indisidir. Masalan, investitsiyaviy xarakterga ega soliq imtiyozlari holatida bunday ta’sir kapital qo‘yilmalarining, xususan, asosiy vositalar qiymatining oshishi orqali ifodalanadi. Soliq imtiyozidan foydalangan subyekt yangi investitsiyalar kiritadi va natijada uning asosiy vositalarining qiymati ortadi.

Biroq investitsiyalar jarayoni nafaqat bevosita, balki *bilvosita ta’sirlarni* ham yuzaga keltiradi. Asosiy kapitalga qilingan investitsiyalar ishlab chiqarish hajmlarining oshishiga, yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga, foyda miqdorining ko‘payishiga olib keladi. Erishilgan foyda soliq to‘lovchi tomonidan qayta investitsiya qilinishi (reinvestitsiya) yoki boshqa maqsadlarda ishlatilishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida korxonaning strategik rivojlanish yo‘nalishlariga bog‘liq bo‘ladi.

Yaratilgan qo‘shimcha ish o‘rinlari aholi bandligini oshiradi, bu esa aholining real daromadlari va to‘lov qobiliyatiga ega talab hajmini kengaytiradi. Natijada, iqtisodiyotda *yangi bilvosita ta’sirlar* — iqtisodiy o‘sish sur’atlarining tezlashuvi, soliq tushumlarining ortishi, ishlab chiqarish samaradorligining oshishi kabi multiplikativ jarayonlar vujudga keladi.

Shu tariqa, soliq imtiyozlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’siri bilan bir qatorda, ularning *bilvosita va multiplikativ ta’sirlari* iqtisodiy tizimda keng ko‘lamli ijobiy o‘zgarishlar — ishlab chiqarish kengayishi, bandlik darajasi va byudjet daromadlari o‘sishiga sabab bo‘ladi.

I.A. Mayburovning fikricha, “soliq imtiyozlarining ta’sirlarini amalga oshirilish sohasiga qarab to‘rt turga bo‘lish mumkin:

1. *Fiskal samara* — bu soliq imtiyozlari natijasida kelgusidagi soliq daromadlarining hozirgi soliq sarflaridan yuqori bo‘lishi bilan ifodalanadi. Ya’ni, bu davlat byudjetining soliq tushumlari jihatdan o‘sishini anglatadi.

2. *Ijtimoiy samara* — aholining turmush darajasini yaxshilash, yangi ish o‘rinlarini saqlash va yaratish kabi ijtimoiy ko‘rsatkichlar orqali o‘zini ko‘rsatadi. Bu effektni aniq baholash qiyin, chunki ijtimoiy ko‘rsatkichlarning yaxshilanishiga nafaqat soliq imtiyozlari, balki byudjetdan ijtimoiy dasturlarga ajratilgan mablag‘lar va umumiy ijtimoiy-iqtisodiy muhit ham ta’sir qiladi.

3. *Iqtisodiy samara* — soliq to‘lovchilarning soliq majburiyatlari kamayishi yoki yo‘qolishi tufayli ularda qolgan moliyaviy resurslarning ortishi bilan namoyon bo‘ladi. Bu resurslar ishlab chiqarishni kengaytirish, yangilash, asosiy vositalarni sotib olish va texnologiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilishi mumkin, bu esa yangi ish o‘rinlarini yaratish va daromadni oshirishga sabab bo‘ladi.

4. *Byudjet samarasi* — yuqoridagi uchta samaraning umumiy ko‘rinishi bo‘lib, soliq bazasining kengayishi va ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilish uchun byudjet xarajatlarining tejalishi orqali davlat byudjetiga tushumlarning o‘sishini aks ettiradi” [3].

Fikrimizcha, muallif tomonidan ajratib ko‘rsatilgan fiskal samara byudjet samarasi bilan uyqash, chunki har ikkisi ham soliq imtiyozining amalga oshirilishi natijasida kelgusidagi soliq tushumlarining (masalan, soliq bazasining kengayishi orqali soliq tushumlarining oshishi) va hozirgi soliq xarajatlarining munosabatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, soliq imtiyozlari samaradorligini baholash tajribasini (jumladan, mintaqaviy darajadagi) umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, ularning amalga oshirilish sohasiga qarab uchta asosiy *(byudjet, ijtimoiy va iqtisodiy)* samara guruhi mavjud.

Byudjet samarasi — soliq imtiyozlarining davlat byudjeti daromadlari shakllanishiga ta’sirini ifodalaydi va amaliyotda quyidagi ko‘rsatkichlar orqali namoyon bo‘ladi:

• Byudjet daromadlarining kelgusida o‘sishi, ya’ni soliq imtiyozlari taqdim etilishi natijasida soliq bazasining kengayishi orqali davlatga tushadigan soliq tushumlarining ortishi. Bunda hozirgi davrdagi soliq xarajatlari kelgusidagi soliq daromadlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;

• *Byudjet xarajatlarining optimallashuvi*, ya’ni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning alternativ usullariga (masalan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri subsidiyalar) nisbatan soliq imtiyozlari orqali xarajatlarni qisqartirish. Bu holda soliq imtiyozlari shartli ravishda “bilvosita”yordam vositasi sifatida hisoblanadi va uning xarajat samaradorligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy yordam turlari bilan taqqoslanadi.

Ushbu yondashuv soliq imtiyozlarining moliyaviy samarasini hisoblashda byudjet manfaatdorligini markaziy o‘ringa qo‘yadi va ularni iqtisodiy siyosat vositasi sifatida baholashda aniq mezonlar belgilash imkonini yaratadi.

Soliq imtiyozlari va preferentsiyalarning hisobini takomillashtirish ularning samaradorligi va maqsadli yo‘naltirilishini ta’minlashga xizmat qiladi. Hisob-kitob jarayonida raqamli axborot tizimlaridan foydalanish, har bir imtiyozga alohida identifikatsiya kodi berish, ularning moliyaviy va ijtimoiy-iqtisodiy samaralarini baholash mezonlarini joriy etish orqali byudjetga tushumlarning oshishi hamda byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanish ta’minlanadi. Shu bilan birga, imtiyozlardan foydalanishning shaffofligi oshadi, maqsadli audit va tahlil ishlarini amalga oshirish imkoniyati yaratiladi.

Adabiyotlar:

1. *Пансков В. Г. Налоговые лготы: теория и практика применения //Экономика. Налоги. Право. – 2016. – №. 1. – С. 119-125.*
2. *Graham J. R. How big are the tax benefits of debt? //The journal of finance. – 2000. – Т. 55. – №. 5. – P. 1901-1941.*
3. *Майбуров И. и др. (ред.). Налоговая политика. Теория и практика. – Литрес, 2022.*

ПЕРСПЕКТИВЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО МЕНЕДЖМЕНТА В СФЕРЕ УПРАВЛЕНИЯ БИЗНЕСОМ И СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Бердиназаров Зафар Улашович
Высшая школа бизнеса и предпринимательства, д.э.н., доц.

Инновационный менеджмент является неотъемлемой частью современного бизнеса, играя ключевую роль в процессе адаптации предприятий к быстрым изменениям внешней среды. В условиях глобализации, усиленной конкуренции и технологических преобразований организации сталкиваются с необходимостью постоянных изменений в бизнес-процессах и стратегии для поддержания своей конкурентоспособности. В данном контексте эффективное

внедрение инновационного менеджмента в сферу бизнеса становится важным фактором для обеспечения долгосрочного успеха и устойчивого развития компаний. Основной задачей инновационного менеджмента является создание системы, позволяющей компании интегрировать инновации в стратегию, культуру и операционные процессы организации.

Инновационный менеджмент представляет собой системный подход к разработке и внедрению новых идей, технологий и процессов для повышения конкурентоспособности организации. В его основе лежит стратегическое планирование, направленное на внедрение инноваций на всех уровнях — от разработки продукта до организации внутренних процессов [1].

Ключевые аспекты инновационного менеджмента:

- стратегическое планирование: включает разработку долгосрочных целей, которые направлены на использование инновационных технологий для достижения устойчивых конкурентных преимуществ;

- культура инноваций: создание в организации среды, способствующей креативности и внедрению инновационных решений;

- управление знаниями: эффективное использование накопленных знаний и опыта для стимулирования инновационной активности;

- инвестирование в инновации: привлечение ресурсов для реализации инновационных проектов, включая научные исследования, разработки и технологические улучшения.

Компании, которые успешно интегрируют инновации в свою деятельность, обеспечивают себе не только конкурентные преимущества, но и способность адаптироваться к изменениям внешней среды. Это позволяет повысить эффективность бизнес-процессов и улучшить финансовые результаты [2].

Стратегическая трансформация бизнес-процессов через инновации представляет собой процесс изменений, направленных на значительное улучшение структуры и функциональности бизнес-процессов организации. Это может включать внедрение новых технологий, автоматизацию процессов, цифровизацию, а также изменения в корпоративной культуре и управлении персоналом [3].

Важнейшими инструментами стратегической трансформации являются:

- цифровизация бизнес-процессов: внедрение информационных технологий и цифровых инструментов в ежедневную деятельность компании позволяет не только улучшить оперативность и точность процессов, но и снизить затраты;

- автоматизация: использование автоматизированных систем для выполнения рутинных операций освобождает ресурсы для более креативной работы и принятия стратегических решений;

- большие данные и аналитика: применение аналитических инструментов для оценки текущей ситуации и прогнозирования будущих изменений позволяет более точно управлять рисками и возможностями;

- гибкость и адаптивность: стратегическая трансформация также включает внедрение гибких подходов в управлении проектами, таких как методология Agile, что позволяет быстро реагировать на изменения внешней среды и внутренние вызовы.

Процесс трансформации бизнес-процессов требует не только технологических изменений, но и культурных изменений внутри организации.

Важно, чтобы сотрудники были готовы к новым подходам в работе и могли эффективно использовать новые инструменты.

Несмотря на очевидные преимущества, внедрение инновационного менеджмента может столкнуться с рядом препятствий. Среди них можно выделить:

- сопротивление изменениям: одним из главных вызовов является человеческий фактор. Сотрудники могут быть не готовы принять новые методы работы и технологии;

- отсутствие необходимой инфраструктуры: внедрение инновационных решений требует наличия соответствующих технологий, специалистов и бюджета, что может быть не всегда доступно для всех организаций;

- риски и неопределенности: введение инноваций всегда связано с риском. Некоторые проекты могут не оправдать ожиданий, а затраты на внедрение новых технологий могут превысить предполагаемую отдачу;

- нехватка квалифицированных кадров: для успешной реализации инновационного менеджмента необходимо наличие специалистов, обладающих необходимыми знаниями и навыками.

Будущее инновационного менеджмента в бизнесе связано с развитием технологий и изменением подходов к управлению. Важно отметить следующие тренды:

- интеграция искусственного интеллекта: использование ИИ и машинного обучения для оптимизации бизнес-процессов и принятия решений будет играть ключевую роль в развитии инновационного менеджмента;

- экологическая устойчивость и социальная ответственность: с учетом роста экологических и социальных требований, инновационный менеджмент будет направлен на создание устойчивых бизнес-моделей, которые способствуют сохранению природных ресурсов и улучшению качества жизни;

- гибридные модели работы: пандемия COVID-19 показала важность гибридных форматов работы. Перспективы использования дистанционных и гибких рабочих мест становятся важной частью стратегии бизнес-трансформации;

- управление инновациями через стартапы и партнерства: компании будут стремиться к созданию инновационных экосистем, объединяя ресурсы крупных корпораций и стартапов для разработки прорывных решений [4].

В последние годы Узбекистан демонстрирует устойчивую тенденцию к модернизации бизнес-среды и переходу к инновационно-ориентированной модели управления. С начала масштабных экономических реформ (после 2016 года) инновационный менеджмент стал важным направлением в стратегии развития как частного, так и государственного сектора: [5].

- государственная поддержка и институциональные реформы: Правительство активно продвигает цифровизацию экономики и стимулирует внедрение инновационных решений в бизнесе. Были созданы специализированные агентства, такие как *Министерство цифровых технологий*, *Агентство по инновационному развитию* и *IT-Park Uzbekistan*, которые поддерживают трансформацию бизнес-процессов через субсидии, акселерационные программы и налоговые льготы;

- цифровизация бизнес-процессов: Узбекские компании, особенно в банковской, телекоммуникационной и ритейл-сферах, внедряют ERP-системы, облачные технологии и инструменты аналитики. Популярность получают CRM-системы, платформы электронного документооборота и системы автоматизации бухгалтерии (например, 1С, SAP, Bitrix24) [7];

- ограничения и вызовы: несмотря на позитивные сдвиги, уровень внедрения инновационного менеджмента в большинстве отраслей остаётся умеренным. Основные барьеры — нехватка квалифицированных специалистов, ограниченный доступ к финансированию для МСП, а также слабая инновационная культура внутри организаций. Малый и средний бизнес часто ограничивается точечными решениями, без системного подхода к трансформации; [8]

- перспективы: в ближайшие годы ожидается рост инвестиций в инновационные технологии, развитие корпоративных акселераторов и распространение практик цифрового лидерства. Особое внимание уделяется интеграции ИИ, Big data и автоматизации в производственные и логистические процессы, а также в госуправление; [9]

Исходя из вышеизложенного можно сказать, что инновационный менеджмент и стратегическая трансформация бизнес-процессов представляют собой важнейшие инструменты для обеспечения конкурентоспособности и устойчивости организаций в условиях современной экономики. Эффективное использование инноваций в управлении бизнесом способствует повышению гибкости, улучшению качества продуктов и услуг, а также улучшению операционной эффективности.

В Узбекистане формируется основа для внедрения инновационного менеджмента и трансформации бизнес-процессов. При поддержке государства и росте технологических компетенций бизнес-среда страны движется в сторону большей цифровой зрелости, однако для устойчивого прогресса требуется комплексный подход к инновационному управлению и развитию человеческого капитала.

В будущем инновационный менеджмент станет еще более важным, учитывая рост новых технологий и изменяющиеся требования рынка.

Литературы:

1. *Котлер, Ф. (2016). Управление маркетингом. Санкт-Петербург: Питер.*
2. *Шахид, М.Р. (2019). Инновационный менеджмент: теория и практика. Москва: Инфра-М.*
3. *Тимошенко, А.М. (2018). Стратегическая трансформация бизнес-процессов. Киев: Ника-Центр.*
4. *Друкер, П.Ф. (2014). Менеджмент: задачи, ответственность, практика. Москва: Альпина Паблишер.*
5. *Рузиев, К. (2021). Инновационный менеджмент в Узбекистане: реалии и перспективы. Журнал "Экономика и инновации", №4, 12–18.*
6. *Азизов, Ш. (2022). Государственная поддержка цифровизации бизнеса в Узбекистане. Ташкент: Институт стратегических и региональных исследований.*
7. *KPMG Uzbekistan. (2023). Digital Transformation in Uzbekistan: Business Survey 2022–2023. Retrieved from kpmg.uz*
8. *World Bank. (2023). Uzbekistan: Fostering Innovation for Sustainable Growth. Washington, D.C.*
9. *UNDP Uzbekistan. (2023). Digital Uzbekistan 2030: Progress Report. United Nations Development Programme.*

MUHANDISLIK SOHASI KADRLARINING MALAKA OSHIRISH KURSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI TRASFORMATSIYALASH ASOSLARI

Karimova Nozimaxon Oybekovna
Toshkent Davlat Texnika Universiteti dotsenti
Kasimova Gulnora Ismoilovna
Toshkent Davlat Texnika Universiteti assistenti

Zamonaviy sanoat sharoitida muxandislik sohasi kadrlarining doimiy ravishda malakasini oshirishi korxona raqobatbardoshligini, texnologik yangilanishlarga moslashuvchanligini ta'minlaydi. Malaka oshirish kurslarini samarali tashkil etish uchun pedagogik, texnik va tashkiliy jihatlar integratsiyalangan holda rejalashtirilishi lozim. Ushbu maqolada kurslarni tashkil etishning nazariy asoslari va amaliy tavsiyalari yig'indisi taqdim etiladi.

Raqamli transformatsiya – bu korxona yoki tashkilot faoliyatining raqamli texnologiyalar asosida tubdan o'zgartirilishi jarayoni. Malaka oshirish sohasida u o'quv materiallarini raqamlashtirish, onlayn platformalardan foydalanish, virtual laboratoriyalar tashkil etish, interaktiv metodlarni tatbiq etishni o'z ichiga oladi. Bu esa:

O'quv jarayonini fleksibil va individualizatsiyalash imkonini beradi.

- Yetuklik va bilim nazoratini avtomatlashtiradi.
- Masofaviy va vaqt cheklovlarisiz o'qishni ta'minlaydi.
- Muhandislik Sohasida Malaka Oshirishning Raqamli Vositalari

Onlayn ta'lim platformalari: Coursera, Udemy, LinkedIn Learning kabi xizmatlar orqali muhandislar yangi bilim va ko'nikmalarni olishlari mumkin.

- Virtual laboratoriyalar va simulyatorlar: Real muhitga yaqin sharoit yaratilib, muhandislar amaliy mashg'ulotlarni xavfsiz va samarali bajarishlari mumkin.
- Sun'iy intellekt va adaptiv ta'lim tizimlari: Individual o'quv rejalarini ishlab chiqish hamda o'quvchilarni qobiliyatiga qarab qo'llab-quvvatlash.
- Mobil ilovalar va interaktiv darsliklar: Har qanday joyda va vaqtda bilim olish uchun qulay vositalar.

Samarali Tashkil Etish Asoslari. Ta'lim ehtiyojlarini niqlash: O'quvchilarning malaka darajasi va ehtiyojlariga asoslangan dasturlar.

Modul va moduliy yondashuv: Kichik, maqsadga muvofiq ta'lim bo'laklari.

Baholash va monitoring: Malaka oshirish jarayonini doimiy nazorat qilish, yangi ko'nikmalarni baholash. O'qituvchilar va ekspertlarni malakasini oshirish: Raqamli vositalardan foydalanishni biladigan mutaxassislar tayyorlash.

Texnik infratuzilma yaratish: Internet, zamonaviy kompyuter texnikasi va dasturiy ta'minot. Motivatsiya va rag'batlantirish tizimi: Sertifikatlar, kreditlar, rag'batlantirish mexanizmlari.

Amaliy Misollar va Tajribalar. O'zbekistonning sanoat korxonalarida kadrlar uchun yaratilgan onlayn malaka oshirish platformalari.

Xalqaro kompaniyalarda qo'llanilayotgan virtual laboratoriyalar va simulyatorlar.

Raqamli ta'lim platformalarining muhandislar malakasini oshirishda samaradorligi bo'yicha tadqiqotlar.

Malaka oshirish bo'yicha tadqiqotlar o'qitishning faol usullari, amaliy laboratoriya mashg'ulotlari va virtual laboratoriyalar samaradorligini ko'rsatadi. Shuningdek, mehnat bozorining talablariga muvofiq kompetensiyalar (kompetensiyaga asoslangan yondashuv) asosida o'quv dasturlarini loyihalash tavsiya etiladi. Masofaviy ta'lim

texnologiyalari va aralash formatlar ko‘plab mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda; ular moslashuvchanlik va keng qamrovni ta’minlaydi.

Muhandislik sohasida malaka oshirish kadrlarning kasbiy rivoji, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish va sohadagi innovatsiyalarni to‘g‘ri tatbiq etish uchun zarur. Bugungi kunda raqamli transformatsiya ta’lim tizimlarida ham muhim o‘rin tutmoqda, chunki u malaka oshirish jarayonini samaraliroq, tezkor va qulay qiladi. Ayniqsa yuqori texnologiyalar va murakkab tizimlar bilan ishlaydigan muhandislik sohasida, raqamli platformalar yordamida malaka oshirish samaradorligi oshirila oladi.

Maqolada amaliy va nazariy manbalar tahlili, kompetensiyaga asoslangan dizayn prinsiplari va tizimli yondashuv metodikasi qo‘llanildi. Kurs strukturasini ishlab chiqishda backward design (orqaga qarab rejalashtirish) printsipi asosiy rol o‘ynadi: avval yakuniy kompetensiya belgilanadi, so‘ngra unga erishish uchun modullar va baholash mezonlari belgilanadi.

Kurslarni tashkil etishning tamoyillari:

- Maqsadga yo‘naltirilganlik: har bir modul konkret ish faoliyati yoki mehnat vazifasiga mos kompetensiyalarni shakllantirishi kerak.
- Amaliy yo‘naltirish: laboratoriya ishlar, loyihalar va kasbiy vazifalar orqali bilimni qo‘llash.
- Moslashuvchanlik: ish bilan band bo‘lgan mutaxassislar uchun modul vaqtlari va formatlari moslashtirilishi zarur.
- -Metodik xilma-xillik: vizual materiallar, interaktiv mashg‘ulotlar, muammoga asoslangan o‘qitish va mentorlikni qo‘shish.
- Sifat va baholash: aniqlangan mezonlar asosida o‘qitish jarayoni doimiy monitoringdan o‘tishi lozim.

O‘quv dasturini loyihalash:

1. Komponentlarni aniqlash: asosiy modul(lar), qisqaroq mikro-modullar, amaliy topshiriqlar, yakuniy loyiha.

2. O‘quv yuklamasi va vaqt taqsimoti: haqiqiy ish vaqti inobatga olinib, haftalik yoki modul bo‘yicha tavsiya etilgan soat belgilanadi.

3. O‘quv natijalari: har bir modul uchun o‘lchanadigan, amaliy bo‘lgan natijalar (learning outcomes) ko‘rsatiladi.

4. Resurslar: darsliklar, video, CAD fayllar, kod namunalar, test ma’lumotlari va virtual laboratoriyalar ro‘yxati.

5. O‘qituvchi va metodik ko‘rsatmalar: o‘qituvchilar uchun dars rejasi va baholash shablonlari tayyorlanadi.

Ta’lim metodlari va texnologiyalari:

- Asinxron modullar: taqdimotlar, 10–25 daqiqalik video-ma’ruzalar, o‘qish materiallari va avtomatlashtirilgan testlar.
- Sinxron mashg‘ulotlar: Jamoaviy muhokamalar, dizayn-revyo, mentorlik va muammolarni hal qilish uchun vebinarlar.
- Virtual va masofaviy laboratoriyalar: container/VM, simulyatorlar yoki masofadan boshqariladigan uskuna orqali amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish.
- Aralash format: asosiy nazariyani asinxron o‘qitish orqali taqdim etib, haftalik sinxron mashg‘ulotlar bilan mustahkamlash.
- O‘qitish usullari: muammoga asoslangan o‘qitish (PBL), loyiha asosida o‘qitish, ko‘nikmaga yo‘naltirilgan ta’lim.

Baholash va sertifikatlash.

- Formativ baholash: modullar o‘rtasida qisqa testlar, laboratoriya hisobotlari va yakuniy loyihaga qarshi oraliq tekshiruvlar.
- Summativ baholash: yakuniy capstone loyihasi va standartlashtirilgan testlar.
- Rubrikalar: loyihalarni baholash uchun aniq mezonlar (funktsionallik, dizayn sifati, hujjatlashtirish, xavfsizlik talablariga muvofiqlik).
- Sertifikatlash: o‘tilgan soatlar, olingan kompetensiyalar va baholash natijalari asosida raqamli sertifikatlar berish. Agar zarur bo‘lsa, sanoat standartlariga yoki mutaxassislik akkreditatsiyasiga moslashtirish.

Sifat nazorati va monitoring.

- KPIlar: ro‘yxatdan o‘tganlar soni, kursni yakunlash darajasi, baholashnatijalari, ishtirokchilar mamnuniyati (NPS), ishga joylashish yoki ishda samaradorlik o‘zgarishi.
- Feedback tsikli: modul oxirida qisqa so‘rovlar, kurs oxirida batafsil baholash va ish beruvchilar bilan aloqalar orqali natijalar tahlili.
- Pilot bosqich: keng ko‘lamli ishga tushirishdan oldin kichik guruhda sinov va tuzatishlar kiritish.

Amaliy tavsiyalar.

- Korxonalar va ta’lim muassasalari hamkorligida kurslarni ishlab chiqish orqali ish beruvchilarning ehtiyojlariga moslashish.
- Virtual laboratoriyalar va containerizatsiyalangan muhitlar joriy etilishi bilan amaliy mashg‘ulotlarni kengaytirish.
- O‘qituvchilar uchun metodik va texnik treninglar tashkil etish.
- Kurs materiallarini ochiq formatda (kodi, model fayllari) saqlash orqali o‘rganishni davom ettirish imkoniyatini yaratish.
- Moliyaviy va vaqt resurslarini hisobga olgan holda modul asosida to‘lov va korporativ paketlar taklif qilish.

Xulosa. Muxandislik sohasi kadrlarining malaka oshirish kurslarini samarali tashkil etish uchun tizimli yondashuv, kompetensiyaga asoslangan o‘quv dasturi, amaliy laboratoriyalar va qat’iy baholash tizimi talab etiladi. Aralash ta’lim formatlari va zamonaviy texnologiyalar kurslar samaradorligini oshiradi. Doimiy monitoring va ish beruvchilar bilan hamkorlik esa o‘quv dasturlarini zamonaviy talablar bilan moslashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. UNESCO, "Learning for All" (ta’lim strategiyalari va masofaviy o‘qitish bo‘yicha tavsiyalar).

2. ABET Accreditation Criteria (engineering education accreditation principles).

3. Ilmiy maqolalar va soha hisobotlari: muammoga asoslangan o‘qitish va virtual laboratoriyalarning samaradorligi bo‘yicha tadqiqotlar.

4. Milliy va korporativ malaka oshirish standartlari hamda sanoat talabnomalari.

KORXONALARDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYAVIY BOSHQARISH

Ruzibayeva Nargiza Xakimovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Investitsiya va innovatsiyalar” kafedrasi dotsenti, PhD

Zamonaviy sharoitda innovatsiyalar iqtisodiy o‘sish va barcha iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror rivojlanishning muhim tarkibiy qismidir.Moliya sektori

innovatsiyalarga ayniqsa sezgir, chunki moliyaviy bozorlardagi kichik tebranishlar ham butun iqtisodiy tizimga bevosita ta’sir qiladi va o‘sish manbai ham, inqiroz sababi ham bo‘lishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyotga o‘tish ishlab chiqarishni intellektuallashtirishni oshirish imkonini bermoqda. Innovatsion faollikni oshirish korxona boshqaruvida o‘zgarishlarni talab qiladi.Boshqaruvning yangi yo‘nalishlarini, xususan, innovatsiyalarni rivojlantirish uni boshqaruvning boshqa sohalari bilan samarali va barqaror integratsiyalashuvi masalasini ko‘taradi.Moliyaviy menejment shular ichida eng muhimlaridan biridir. Moliyaviy oqimlar nuqtai nazaridan korxonaning innovatsion faoliyatiga maqsadli ta’sir ko‘rsatish – moliyaviy menejment - innovatsiyalarni sezilarli darajada oshirishi yoki innovatsiyalarni ishlab chiqarish va amalga oshirish bo‘yicha maqsadlar va chora-tadbirlar yetarli darajada tanlanmagan bo‘lsa, unga to‘sqinlik qilishi mumkin[1]. Ushbu muammoni hal qilishning zamonaviy yondashuvlari, shuningdek ularning rivojlanish istiqbollari va natijada olingan amaliy natijalar bilan tanishish korxonalarga o‘z faoliyatining innovatsion va moliyaviy tarkibiy qismlari o‘rtasidagi muvozanatni topish va saqlash bo‘yicha sa’y-harakatlarini optimallashtirishga yordam beradi.

Korxonaning innovatsion faoliyati tabiatan yuqori riskga ega bo‘lganligi sababli, ularni tahlil qilish optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun axborot bazasini yaratish uchun asos sifatida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. V.Shnayderning fikricha, innovatsion va investitsiya faoliyatini tahlil qilish metodologiyasini bir necha bloklarga bo‘lish mumkin: korxonaning moliyaviy ko‘rsatkichlari va uning investitsion jozibadorligini tahlil qilish, tashqi muhit tahlili, axborot muhitini tahlil qilish va innovatsion faoliyatning o‘zini tahlil qilish.

Zamonaviy adabiyotlar innovatsiyalar va investitsiya faoliyati modellari bo‘yicha ishlanmalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, D.Demin tomonidan taklif qilingan model ikki guruh omillarni ko‘rib chiqadi: investitsiya va moliyaviy bo‘lmagan qo‘llab-quvvatlash resurslari, keyinchalik ular korxonaning innovatsion va investitsiya faoliyatiga ta’siri bo‘yicha tashqi faol, tashqi passiv, ichki faol va ichki passiv deb tasniflanadi. Biroq, ushbu model innovatsion infratuzilmaning ta’sirini va mahsulot, korxona va texnologiyaning hayot davrlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni to‘liq aks ettirmaydi.

Moliyaviy bozorlarda innovatsiyalarning kuchayishi uchun bir qancha sabablar mavjud.Bunday sabablardan biri kompaniyalarning aniq loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiya manbalarini shakllantirishga bo‘lgan ichki ehtiyojidir.Boshqa muhim omillar orasida ortiqcha foyda olish istagi, xarajatlarni kamaytirish, bitimlarni himoya qilish zarurati va boshqalar kiradi. Moliyaviy innovatsiyalar paydo bo‘lishining asosiy omili tashqi omillarning kombinatsiyasi hisoblanadi.Bularga, birinchi navbatda, globallashuv va moliya bozorlarining xalqaro integratsiyalashuvi natijalari, moliya bozorlarida raqobatning kuchayishi, global konsolidatsiya, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va boshqa bir qator omillar kiradi[2].

Regulyatsiyaning bekor qilinishi va mintaqaviy moliya bozorlariga kirishdagi cheklovlarning yumshatilishiga olib keladigan globallashuv kapitalning erkin harakatini tezlashtirish va yangi vositalarni keng qo‘llash orqali rentabellikni sezilarli darajada oshirdi, bu esa o‘z navbatida risklarni boshqarishning yangi usullari va yondashuvlarini talab qildi.Bundan tashqari, globallashuv xalqaro miqyosda bozorning muayyan segmentlarini egallashga intilayotgan moliyaviy vositachilar o‘rtasida raqobatni kuchaytiradi. Raqobat va innovatsiyalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir rag‘batlantiradi [3].

Raqobat moliyaviy kompaniyalarni yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqishga va biznesning innovatsion yondashuvlarini joriy etishga majbur qiladi.Innovatsiyalar, o‘z navbatida, raqobat kurashining yangi yo‘nalishlarini ochadi.Masalan, afzalliklari narx urushlarida g‘alaba qozonish imkonini beradigan institutsional investorlarning paydo bo‘lishi mavjud brokerlik tuzilmasini buzdi va bu biznesning qayta tashkil etilishiga olib keldi. Umuman olganda, raqobat bosimining kuchayishi natijasida moliya sanoati sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirdi, bu konsolidatsiya jarayonlarining tezlashishiga, bozorning parchalanishiga va xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi bir qancha yirik operatorlarning paydo bo‘lishiga olib keldi.


Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda innovatsiyalar nafaqat yirik korporatsiyalar, balki turli korxonalar va tashkilotlar tomonidan ham yaratilmoqda, chunki axborotning ko‘payishi tufayli innovatsiyalarni amalga oshirish usullari o‘zgargan.Innovatsiyalar ketma-ket amalga oshiriladi. Ularni moliyalashtirish mexanizmi innovatsiyalarni yaratish va amalga oshirish jarayoni va moliyalashtirish o‘rtasidagi mantiqiy munosabatlardan kelib chiqqan holda, ya’ni bosqichma-bosqich ko‘rib chiqilishi kerak.Investorlarni jalb qilish orqali tashqi moliyalashtirish, muvaffaqiyatli amalga oshirish ehtimoli pastligi sababli investitsiya qilingan resurslarni yo‘qotish riski yuqori bo‘lishiga qaramay, innovatsion faoliyatning muvaffaqiyatiga yordam beradi. Xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbariyati innovatsiyalarni moliyalashtirishning eng to‘g‘ri mexanizmini amalga oshirishning har bir bosqichidagi xarajatlarni hisobga olgan holda ishlab chiqadi, uni quyidagi shaklida ko‘rsatish mumkin (1-rasm).

Taqdim etilgan mexanizm turli tashkilotlarda innovatsion faoliyatni boshqarish amaliyotida qo‘llanilishi mumkin.Bu mexanizm tashkilotning o‘zi, davlat, moliya institutlari va xususiy investorlarni o‘z ichiga oladi.Davlat investor sifatida ham davlat budjeti mablag‘lari hisobidan investitsiya faoliyatini moliyalashtiradi, ham boshqaruvchi sifatida harakat qiladi, boshqa investorlarning sa’y-harakatlarini ularning risklarini yumshatish, masalan, soliq yukini kamaytirish orqali ushbu faoliyatni o‘z vaqtida moliyalashtirishni ta’minlashga safarbar qiladi.



1-rasm.Innovatsiyalarni moliyalashtirish mexanizmi

Moliya institutlari – bu banklar, moliya kompaniyalari va investitsiya fondlari kabi moliyaviy resurslardan foydalanishni ta’minlovchi tashkilotlar. Ular investitsiya loyihalarini uzoq muddatli moliyalashtirishni ta’minlaydi. Xo‘jalik yurituvchi subyektning investisiya faoliyatini moliyalashtirishni boshqarishda 2-rasmda ko‘rsatilganidek, turli vositalar va texnologiyalardan foydalaniladi.



2-rasm.Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish texnologiyalari

Moliyaviy texnologiyalar va vositalar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular tez texnologik taraqqiyot tufayli yangi imkoniyatlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Misol uchun, innovatsiyalar va moliya sektorlarida blokcheyn texnologiyasi yangi moliyaviy aktiv – kriptovalyutani yaratish bilan bog‘liq. Eng qulay an’anaviy texnologiya ichki mablag‘lar, birinchi navbatda taqsimlanmagan foyda hisobidan o‘zini-o‘zi moliyalashtirishdir. Biroq, uning mavjudligi va uchinchi shaxslarning ishtiroki zarurati yo‘qligiga qaramay, ushbu vosita cheklangan ko‘lamga ega, chunki moliyalashtirish kapital bazasi yangilangandan keyin qoldiq asosida amalga oshiriladi. Ushbu texnologiyadan foydalanishga to‘sqinlik qiladigan yana bir sabab – bu operatsiyaning foydasizligi.

Boshqa an’anaviy texnologiya vositalari – uzoq muddatli obligatsiyalar va investitsiya banklari kreditlari – barcha moliyaviy barqaror xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun ochiq bo‘lsa-da, innovatsiyalar to‘lanishidan oldin yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ma’lum bir muddatda foizlar va qarzlarni to‘lash ko‘rinishidagi kamchiliklarga ega[4]. Oddiy va imtiyozli aktsiyalar investitsiyalarni jalb qilishning doimiy xususiyati tufayli an’anaviy texnologiyalarning afzalroq vositasi hisoblanadi. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning zamonaviy texnologiyalari tashkilotning qimmatli qog‘ozlari orqali investitsiya fondini moliyalashtirishni o‘z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, tashkilot o‘z aktsiyalarini chiqarish uchun fondni jalb qiladi. Venchur kapital – DXShning ixtisoslashtirilgan investitsiya fondlari tomonidan investitsiya loyihalariga investitsiya qilish riskini o‘z aktsiyadorlari o‘rtasida taqsimlaydigan jamoaviy investitsiyalar. Qimmatli qog‘ozlarni (ham an’anaviy, ham zamonaviy) moliyalashtirishning kamchiliklari – bu mablag‘larni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan vaqt, chunki qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va joylashtirish uzoq (18 oydan ortiq) jarayonni talab qiladi.

Hozirgi bosqichda noaniqlik sharoitida yirik (global) kompaniyalarning innovatsion faoliyatini boshqarish vazifasi ma’lum bir vaqt oralig‘ida boshqariladigan tizimning dasturiy traektoriyasini shakllantirish va beqarorlashtiruvchi boshqaruv tizimidagi buzilishlarni bartaraf etishga qaratilgan nazorat harakatlari tizimini yaratish

asosida qurilgan adaptiv yondashuvlar va adaptiv boshqaruv modelidan foydalanish orqali hal qilinadi.

Shunday qilib, xo‘jalik yurituvchi subyektning innovatsiya faoliyatini moliyalashtirishni boshqarish murakkab, ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan turli moliyalashtirish texnologiyalari va vositalaridan foydalanadigan moliyalashtirish mexanizmiga asoslanadi.Bu jarayonning uzluksizligi iqtisodiy va ilmiy taraqqiyot bilan belgilanadi.Innovatsiyalarni moliyalashtirishni boshqarish xo‘jalik yurituvchi subyektga uzoq muddatda barqaror rivojlanish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Laine T.J., Korhonen T.A., Martinsuo M.M. Managing program impacts in new product development: An exploratory case study on overcoming uncertainties. International Journal of Project Management. 2016; 34(4):717–733.

2. Kusterer D.J., Schmitz P.W. The management of innovation: Experimental evidence. Games and Economic Behavior. 2017; 104:706–725.

3. Fried A., Götze U., Möller K., Pecas P. Innovation and management control. Journal of Management Control. 2017; 28(1):1–4.

4. Goldberg Z. The little things to make running your innovation smoother. Online Learning and Resource Center. 2017.

ВЛИЯНИЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ НАУЧНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА НА НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИННОВАЦИОННЫЕ СИСТЕМЫ

Камилова Машкура Хидоятовна

к.э.н., доцент кафедры «Внешнеэкономическая деятельность» Ташкентского государственного университета Востоковедения

Наша республика находится на этапе индустриализации экономики, при этом создаются необходимые условия и возможности для перевода её на инновационный путь развития. Как известно, индустриализация – это процесс радикального преобразования социально-экономической системы страны, характеризующийся созданием крупного машинного производства стандартизированных продуктов на основе сложного разделения труда и специализации, использования разных видов энергии. Индустриализация выступает не только простым приростом темпов роста и удельного веса промышленности, но и является процессом структурных сдвигов, связанного с массовым обновлением производства на базе передовой технологии и оборудования.

В настоящий период развитые государства находятся на этапе полного перехода на новый, пятый технологический уклад и последовательного перехода к шестому укладу на базе ультрасовременных концепций нано-, био- и информационных технологий. Но при этом определенным потенциалом в этом плане обладают и развивающиеся экономики, в частности наша республика. За счёт ускоренной индустриализации и развития инфраструктуры за годы реформ акцент уже смещается с экстенсивного роста экономики на индустриальный, создавая необходимые предпосылки для радикальной модернизации страны. Поскольку процессы индустриализации и переход на инновационный тип развития накладываются друг на друга, поэтому в настоящее время можно

говорить лишь об адаптации экономики Узбекистана к индустриально-инновационному типу развития с постепенной ориентацией на наукоёмкие технологии и сферу услуг.

В настоящее время республика активно осуществляет трансферт технологий (в основном через ввоз оборудования и технологий). Но рано или поздно экономика сталкивается с необходимостью создания своей научно-технической базы и соответствующего механизма, в рамках которого знания из научной среды передаются предпринимательской среде, где и материализуются, то есть существует потребность в создании инновационной системы, в которой взаимодействуют предпринимательская среда и среда, производящая знания.

В аспекте вхождения экономики Республики Узбекистан в мировую экономику проблема инновационного развития и формирования национальной инновационной системы становится особо актуальной.

Национальная инновационная система – это совокупность хозяйствующих субъектов (предприятия, научные и образовательные учреждения, потребители) и институтов (правовых, законодательных, финансовых, социальных), взаимодействующих в процессе производства, распространения и использования знаний и технологий, направленных на реализацию стратегических целей устойчивого развития национальной экономики, для повышения её конкурентоспособности [1].

К началу XXI в. стало очевидным, что динамичное развитие инновационной сферы образует базу устойчивого экономического роста и повышения конкурентоспособности. По сути дела, технологический прогресс уже давно превратился в третий (наряду с трудом и капиталом) основной фактор экономического роста и повышения благосостояния человечества, что нашло отражение в основополагающих исследованиях лауреатов Нобелевской премии по экономике Я. Тинбергена, Р.Солоу, Дж. Хикса и многих других учёных.

Современная цивилизация – техногенная по своему типу и развивается на основе массовых технологических новаций, формируемых на базе фундаментальных научных знаний. Технологические инновации в сфере транспорта и связи усилили процессы глобализации, которая делает знания все более общедоступными, что ускоряет интернационализацию сферы исследований и разработок и прежде всего инноваций. Международное сотрудничество в области науки, технологий и инноваций расширяет возможности национальных экономик, вовлеченных в этот процесс благодаря обмену идеями, талантами и т.д.

В то время как инновации традиционны для национальной экономики, глобализация меняет масштаб научно-технологических инноваций, заметно расширяя выбор для сотрудничества внешних партнёров. Глобализация и техногенная цивилизация развивает более 50 макротехнологий (например, аэрокосмическая), которые обеспечивают производство наукоёмкой продукции. Причём приоритет по большинству из них, как и 80% производства наукоемкой продукции, принадлежит семи промышленно развитым странам. На долю США приходится примерно 22 макротехнологии, Германии – 11, Японии – 8, Англии и Франции – по 3-4. А весь остальной мир может претендовать на авторство лишь по 2–3 макротехнологиям [2].

Но среди них исследователи выделяют топ-технологии: биотехнологии, информационные технологии, технологии материалов, нанотехнологии. Если первыми занимаются развитые страны, то топ-технологии в настоящее время доступны многим, в том числе развивающимся экономикам. Они включают перспективные направления, способствующие полноценному биологическому и социокультурному воспроизводству человека (т.н. high-hume технологии): дешёвая солнечная энергия, технология очистки и фильтрации воды, сокращение отходов и токсичных веществ в производстве, улучшенные методы диагностики и хирургии, производство тканей живых организмов для имплантации, средства доступа «всегда и везде» и т.п.

С глобализацией все более условным становится деление отраслей на экспорториентированные и работающие на внутренний рынок. Сектора, которые важны для национальной экономики, смогут эффективно развиваться, только будучи интегрированы в мировые рынки. Многие технологические разработки окупаются только при условии их коммерциализации на уровне мирового рынка, доступного транснациональным корпорациям (ТНК). Ни одна корпорация не делает больше 50% объёма работ внутри страны. Фактически создана мировая мастерская, функционирующая в виде сети и работающая по единым стандартам в едином информационном пространстве. Чтобы попасть в эту сеть, надо иметь конкурентоспособный товар, а также иметь определённую политическую поддержку властей страны.

Поэтому одним из перспективных путей сохранения и даже «расширенного воспроизводства» сферы НИОКР в Узбекистане, как и во многих других развивающихся экономиках мира на ближайшую перспективу, может стать её дальнейшее вовлечение в процессы международной научно-технологической интеграции, как на макроэкономическом, так и микроэкономическом уровнях.

Появление необходимых технологических возможностей для быстрого перемещения потоков капитала, экономической и научно-технической информации в режиме реального времени в сочетании с имеющимися ресурсами человеческого капитала, ведёт к концентрации инвестиций в наиболее перспективных, с экономической точки зрения, направлениях, ускорению новых радикальных технологических нововведений.

В последние 2-3 десятилетия с развитием информационных технологий резко возрастает зависимость производительности труда и в целом эффективности экономической системы от моделей организации и управления. В результате децентрализации многих производств и перехода к сетевой форме организации, горизонтальным моделям управления взамен иерархической системы низкорентабельных вертикальных связей, открываются возможности для снижения издержек за счёт структурной гибкости, быстрой реакции на изменения; следовательно, большего простора для инноваций, инициативы, творческих подходов и решений.

Современный полный научно-производственный цикл можно представить, как следующую цепочку связей: образование →наука (изобретение и открытия) → производство (инженерно-технологическая адаптация к производству и коммерческое освоение инноваций) → диффузия нововведений и коммерческая реализация продукции и услуг. Инновация появляется вначале на определённой территории, поэтому актуальным становится исследование пространственной

концентрации нововведений в регионе и превращение их в движущую силу экономического роста. Формирование национальной инновационной системы обеспечит синергию образования и науки, финансов и бизнеса.

В контексте вхождения экономики Республики Узбекистан в мировую экономику проблема инновационного развития и формирования национальной инновационной системы и повышения конкурентоспособности национальной экономики указывает на необходимость адаптировать её к критериям глобализации и её новейших направлений, как цифровизация и использование возможностей искусственного интеллекта. Ведь для мирового рынка характерны формирование международных инновационных сетей, совместные научно-технические исследования и разработки корпораций и стран. При этом на первый план часто проступают не интересы отдельных национальных экономик, а интересы глобальных компаний и, в конечном счёте, научно-техническое и экономическое развитие отдельного региона и в целом интересы всей мировой экономической системы.

Исследование пространственной организации инновационной деятельности говорит о том, что в условиях глобализации органичная инновационная интеграция национальной экономики, может быть осуществлена быстрее, и быть менее затратной, чем формирование собственной национальной модели инновационной системы. Кроме того, инновации – это не обособленное явление: появление их зависит, как от временного и пространственного, так и от корпоративного аспектов. Если инновации изначально появлялись как результаты деятельности отдельных новаторов, то в настоящее время инновационные процессы усложнились и осуществляются группами специалистов, либо даже альянсом компаний.

На сегодняшний день, уже окончательно и бесспорно, устоялась точка зрения, что важной составной частью НИС является кластер, как наиболее эффективная форма пространственной организации промышленной деятельности. Кластер – альтернативный путь организации цепочки добавленной стоимости, то есть особо организованная промышленная структура с неформально организованными фирмами, основанная на географической близости и взаимодополнении. Внутри него существуют отношения как конкурентные, так и отношения сотрудничества, кооперации между фирмами. Как известно кластеры, как и товар, имеет свой жизненный цикл, любой кластер проходит через некоторое количество стадий. Можно выделить следующие стороны жизненного цикла: агломерация, возникающий кластер (emerging cluster), развивающийся кластер, зрелый кластер и трансформация. То есть для кластера, чтобы выжить, избежать застоя и распада, в условиях влияния различных комбинаций конкуренции и кооперации, необходимо постоянно производить инновации, и адаптироваться к изменениям. Так как кластеры могут обладать свойствами, служащими ускорению инноваций, некоторые из них могут считаться особенно склонными к решению этой задачи, что и привело к возникновению концепции инновационных кластеров.

В условиях глобальных технологических сдвигов возрастает значение синергии образования и науки, способствующих переходу от пятого технологического уклада (микроэлектроника и программное обеспечение) к

шестому — био- и нанотехнологиям, глобальным информационным сетям и высокоскоростным транспортным системам.

В Узбекистане ключевыми отраслями промышленности являются машиностроение, химическая, нефтехимическая и фармацевтическая промышленность, относимые ОЭСР к высокотехнологичным, а также лёгкая и пищевая промышленность — к низкотехнологичным. С учётом существующего потенциала на перспективу возможно приоритетное развитие 2–3 топ-технологий, способных обеспечить стране конкурентоспособные позиции на мировом рынке наукоёмкой продукции.

Таким образом, модернизация промышленности предполагает развитие технологий шестого технологического уклада. Наличие заделов в сфере био-, нано- и информационных технологий создаёт предпосылки для опережающего формирования нового технологического уклада и адаптации экономики Узбекистана к инновационной модели развития.

Литературы:

1. *Закон об инновационной деятельности. ЗРУз-630-сон 24.07.2020*
2. *RAND Corporation Report «The Global Technology Revolution 2020: In-Depth Analyses». 2006.*
3. *Советский Союз развивал на мировом уровне 12 макротехнологий*

TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TAHLIL QILISH – INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING ASOSIY SHARTI SIFATIDA

Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti doktoranti (DSc),
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Moliyaviy tahlil innovatsion jarayonlarning har bir bosqichida — g‘oyani ishlab chiqish, investitsiya loyihalarini tanlash, resurslarni taqsimlash va natijadorlikni monitoring qilishda — qaror qabul qilishning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Shu orqali korxonalar innovatsion risklarni kamaytiradi, moliyaviy resurslardan samarali foydalanadi va investorlar ishonchini oshiradi. Zamonaviy sharoitlarda faoliyat yuritayotgan korxonaning iqtisodiy barqarorligini, innovatsion faoliyatni amalga oshirish salohiyatiga ega ekanligini baholashda uning to‘lov qobiliyati hamda raqobatbardoshligi tahlil jarayonlarida foydalaniladigan asosiy axborotlardan biri hisoblanadi.

Korxona barqarorligi, ma’lumki, turli tashqi va ichki omillar ta’siri natijasida o‘zgaradi, ya’ni unga yuqori talabga ega bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish, mahsulot bozorida korxonaning mustahkam o‘rni, ishlab chiqarish quvvati, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasi kabi omillar ta’sir ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra, moliyaviy barqarorlik korxona kapitalining tarkibini, o‘z va qarz mablag‘larining nisbatini, qisqa va uzoq muddatli mujburiyatlarni, aylanma aktivlarning o‘z mablag‘lar bilan ta’minlanganlik darajasini ifodalashda zaruriy ko‘rsatkich hisoblanadi. Shuningdek, moliyaviy barqarorlik korxonaning ma’lum bir muddat davomida o‘z faoliyatini yurita olishini, mavjud majburiyatlarini qoplay olishini va mahsulotlarni

uzluksiz ishlab chiqarish hamda realizatsiya qila olishini baholash imkoniyatini yaratadi.

Moliyaviy barqarorlikni baholashning asosiy maqsadlaridan biri – bu korxonaning o‘z majburiyatlarini qoplay olishini va uzoq muddat davomida xo‘jalik yuritish faoliyatini saqlab qolishini aniqlash bo‘lib hisoblanadi. Ushbu baholash esa quyidagilarni amalga oshirishni talab etadi:

- korxonaning moliyaviy barqarorligini obyektiv baholash;
- korxonaning moliyaviy barqarorligiga ta’sir qiluvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash;
- korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan hamda innovatsion faoliyatlarni joriy etish jarayonlarining jadalligini oshirishga qaratilgan zaruriy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va joriy qilish uchun imkoniyatlarning mavjudligini tahlil qilish.

Moliyaviy barqarorlikni baholash har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt uchun uning faoliyat sohasidan qat’iy nazar muhimdir (1-chizma) [2].



1-chizma. Moliyaviy tahlilning korxona faoliyatining ichki va tashqi manfaatdor tomonlari uchun ahamiyati.

To‘qimachilik sanoati korxonalarining moliyaviy barqarorlik masalalari ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan ustivor ahamiyatga ega. Chunonchi, to‘qimachilik sanoati mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, turli xildagi o‘simlik tolalari, jun va sun’iy sintetik tolalardan turli gazlamalarga, kundalik ehtiyojlar uchun kiyim-bosh va poyabzal uchun mavjud bo‘lgan ehtiyojlarni qondiradi. Shuningdek, to‘qimachilik sanoati mahsulotlari mebel, mashinasozlik kabi boshqa sanoat korxonalari faoliyatida foydalaniladi.

To‘qimachilik sanoati tarmog‘ida xo‘jalik faoliyatini yuritayotgan korxonalar mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy, hatto siyosiy sohasiga ta’sir ko‘rsatadi. Chunki ular tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar insoniyat hayot kechirishi uchun zaruriy ne’mat hisoblanadi. Shuning uchun to‘qimachilik korxonalari moliyaviy holatining barqarorligi yuqorida sanab o‘tilgan sohalar uchun muhim bo‘lib qolmay, ushbu korxonalar mahsulotlarining potentsial iste’molchilari va foydalanuvchilari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Buxgalteriya balansining ma’lumotlari xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatiga qiziquvchi shaxslar uchun korxonaning ular oldidagi majburiyatlarini istiqbolda qoplay olish qobiliyati hamda mazkur korxonada moliyaviy jihatdan to‘lovga layoqatsiz holatiga tushib qolish xavfining mavjud ekanligi to‘g‘risida axborot beradi. Aynan shu maqsadda moliyaviy barqarorlik holatining tahlili va baholanishi likvidlik va to‘lov qobiliyatini baholash bilan birgalikda amalga oshiriladi, so‘ngra prognoz tuziladi va korxonaning bankrotlik (inqirozga yuz tutish) ehtimoli aniqlanadi.

Korxonaning moliyaviy barqarorligini baholash uchun uning barcha foydalanuvchilariga, ya’ni korxonaning raxbariga, investorlarga, aktsionerlarga, davlat tashkilotlari va boshqa moliyaviy muassasalarga tushunarli va foydalanish uchun qulay bo‘lgan buxgalteriya hisobotlari ma’lumotlaridan hamda instrumentlaridan foydalanish zarur [3].

Mazkur tahlilni va baholashni amalaga oshirish asosida korxona mahsulot ishlab chiqarish hajmini, zamonaviy texnika-texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha qarorlarni qabul qiladi.

Korxona o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga erishishi va vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishi ko‘p jihatdan uning moliyaviy barqarorligini qanchalik aniq hamda to‘liq amalga oshirilganligiga bog‘liq. Mazkur baholash jarayoni ishlab chiqarish va moliyaviy resurslarning taqchilligini yoki ortiqchaligini ifodalagan holda resurslardan foydalanish holatining samaradorligi bo‘yicha xulosani shakllantirishga xizmat qiladi va ulardan foydalanishning eng samarali natijasiga erishish uchun sarf hajmini yanada tartibga solish masalasiga e’tiborni qaratadi.

Korxonaning faoliyatining moliyaviy tahlili bir qator boshqaruv funktsiyalarini amalga oshirish uchun ham muhimdir. Xususan, korxonaning yashirin imkoniyatlarini (zaxiralarini) aniqlash va ulardan foydalanish yo‘nalishlarini belgilash, korxonaning strategik rejasini shakllantirish kabilar moliyaviy tahlil natijalari asosida amalga oshiriladi. Tahlil va baholash natijalariga ko‘ra korxona o‘zining xo‘jalik faoliyatini muvaffaqiyatli rivojlantirishga qaratilgan vazifalarni shakllantiradi.

Moliyaviy holatni baholashni va uning natijalarini shakllantirish oylik, kvartaliik va yillik oraliqda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Chunonchi, hozirda dunyo bo‘ylab inflyatsiya ko‘rsatkichlaring nobarqarorligi, YaIMning pasayishi, aholi iste’mol hajmining uzluksiz o‘zgarishi, geosiyosiy vaziyatlar kabi iqtisodiy masalalar korxonalarning to‘lov qobiliyatiga va moliyaviy barqarorligiga ta’sir qilmoqda.

Moliyaviy barqarorlik koʻrsatkichlarini oʻz vaqtida nazorat (monitoring) qilib borish esa xoʻjalik yurituvchi sub'ektlarga mamlakatda va jahonda iqtisodiy jarayonlarning salbiy oʻzgarishlari yuz berganda zudlik bilan qayta javob berish hamda korxonaning moliyaviy holatini yaxshilashga qaratilgan zaruriy xatti-harakatlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Xulosa sifatida, korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilishning asosiy usullari sifatida quyidagilardan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- gorizontal (vaqtga asoslangan) tahlil – har bir hisobot moddasini oldingi davr bilan taqqoslash. Gorizontal tahlil bir yoki bir nechta analitik jadvallarni tuzishdan iborat boʻlib, unda mutloq balans koʻrsatkichlari nisbiy oʻsish (pasayish) sur'atlari bilan toʻldiriladi;
- vertikal (tuzilmaviy) tahlil – har bir hisobot moddasining umuman natijaga ta'sirini aniqlagan holda moliyaviy koʻrsatkichlar tarkibini aniqlash. Bunday tahlil har bir balans moddasining umumiy yigʻindisidagi ulushini koʻrish imkonini beradi;
- tendentsiya tahlili - har bir hisobot elementini bir qator oldingi davrlar bilan taqqoslash va tendentsiyani aniqlash, ya'ni koʻrsatkichlar dinamikasining asosiy tendensiyasini ta'sodifiy ta'sirlardan va alohida davrlarning individual xususiyatlaridan bartaraf etgan holda aniqlash. Trend yordamida koʻrsatkichlarning mumkin boʻlgan qiymatlari shakllanadi va shu sababli istiqbolli, bashoratli tahlil amalga oshiriladi;
- koeffitsientli tahlil–hisobot munosabatlarini hisoblash, koʻrsatkichlarning oʻzaro munosabatlarini aniqlash;
- qiyosiy (fazoviy) tahlil – shoʻba korxonalar, boʻlinmalar, tsexlarning alohida moliyaviy koʻrsatkichlarini tahlil qilish, shuningdek, moliyaviy koʻrsatkichlarni raqobatchi korxonalar koʻrsatkichlari bilan, oʻrtacha sanoat va oʻrtacha umumiy iqtisodiy ma'lumotlar bilan taqqoslash;
- omilli tahlil – alohida omillar (sabablar) ning natijaviy koʻrsatkichga ta'sirini tahlil qilish. Omilli tahlil ham bevosita (toʻgʻridan toʻgʻri), ya'ni natijaviy koʻrsatkichni uning tarkibiy qismlariga boʻlish asosida amalga oshirilishi, ham aksincha (sintez), ya'ni uning alohida elementlarini umumiy natijaviy koʻrsatkichga birlashtirish bilan amaliyotda qoʻllanilishi mumkin.

Korxonaning innovatsion faoliyatlarni joriy etish uchun yetarli salohiyatga ega ekanligini baholashda ishonchlilik, yetarlilik, samaradorlik, ustuvorlik, resurs xavfsizligi kabi tamoyillarga asoslanish lozim.

Adabiyotlar:

1. Абдуллаева, С. Тармоқлараро интеграцияни такомиллаштириш асосида иқтисодий барқарорликни таъминлаш: ишлаб чиқариш ва банк секторининг ўзаро ҳамкорлиги. (2025). In Ilgʻor iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar. https://doi.org/10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss5-pp327-336

2. Абдуллаева, С. (2025). Корхонанинг молиявий барқарорлигини мустаҳкамлаш йўналишлари . In Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. https://doi.org/10.60078/2992-877X-2025-vol3-iss9-pp347-353

3. Khasanovna, A. S. (2025). Efficient Use Of The Company's Workforce As A Key Factor In Ensuring Economic Sustainability. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 6(4), 1557-1570. https://doi.org/10.51699/cajitmf.v6i4.1033

РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОГРАММ В АДАПТАЦИИ РАБОТНИКОВ К ТРЕБОВАНИЯМ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ

Абдуллаева Зульфия Иззатовна
и.о.доц. кафедры «Реальная экономика»
Самаркандский институт экономики и сервиса (СИЭиС)

Современная экономика переживает масштабные структурные преобразования, вызванные внедрением инновационных технологий, цифровизацией производства и развитием экономики знаний.

Социальные программы представляют собой совокупность государственных и негосударственных мер, направленных на обеспечение социальной защиты, занятости, образования, здравоохранения и других сфер, способствующих развитию человеческого капитала.
В условиях инновационной экономики такие программы выполняют новые функции:

- стимулируют профессиональную мобильность работников;
- способствуют формированию цифровых и управленческих компетенций;
- обеспечивают возможность непрерывного образования;
- снижают социальные риски, связанные с автоматизацией и роботизацией труда.

Адаптивной социальной инновации, под которой понимается трансформация социальных институтов и практик (включая социальные программы) для смягчения негативных последствий цифровой экономики и платформизации труда. Подчёркивается, что помимо "решения социальных проблем" (problem-solving social innovation) нужны механизмы, которые будут изменять структуру взаимодействий между индивидами, рынком и государством. Это напрямую связано с задачей адаптации работников: социальные программы должны не только компенсировать потери, но и изменять институциональную среду (переподготовка, механизмы мобильности, портируемость прав и т.д.).[1]

Отчёт OECD даёт широкий аналитический взгляд на влияние цифровизации и старения населения на рынок труда. Главные тезисы: технологии создают как возможности, так и риски; ключевая роль политик в формировании "переходной повестки" (transition agenda) - ранние меры, системы переподготовки, усиление защиты работающих в нестандартных формах занятости, переносимость социальных прав. Отчёт подчёркивает необходимость активных социальных программ и усиления систем непрерывного обучения.[2]

WDR 2019 исследует, как технологические изменения перестраивают рынок труда. Выводы: хотя массовой безработицы из-за роботов не ожидается, меняются требуемые навыки; важны инвестиции в человеческий капитал, мобильность, адаптивные социальные программы и усиление институтов занятости. Всемирный банк акцентирует внимание на политике, которая должна сочетать защиту и поддержку перехода.[3]

Серия эмпирических работ показывает позитивную связь между инвестициями в человеческий капитал и успешностью цифровой трансформации фирм (в т.ч. стартапов). Вывод: социальные программы, которые повышают

управленческие и цифровые навыки (не только базовые ИТ-умения), прямо влияют на конкурентоспособность работников и организаций; следовательно, подобные программы - инвестиция, а не только расход.[4]



Рисунок-1. Как адаптировать новых сотрудников

Источник: Составлено и систематизировано автором изучая рыночных условий на основе статьи "*Что такое процесс адаптации сотрудников (onboarding)? Определение, модели и передовые технологии" https://topfactor.pro/blog/chto-takoe-protsess-adaptatsii-sotrudnikov-onboarding-opredelenie-modeli-i-peredovyetekhnologii/*

Современные исследования по "социальным инновациям" показывают, что инновации в социальной сфере (новые формы социальной поддержки, гибкие программы обучения, платформы трудоустройства) могут смягчать неравенство, повышать включённость уязвимых групп и обеспечивать более справедливую адаптацию к изменениям рынка труда. Также подчёркивается необходимость межсекторального сотрудничества.[5]

Ниже изображение представляет собой *инфографику,* посвящённую теме *"Как адаптировать (онбордить) новых сотрудников" - How to Onboard New Employees*. (Рисунок 1)

На изображении представлен фрагмент текста, посвящённый исследованию роли сервисного сектора в снижении уровня бедности и стимулировании экономического роста. В нём рассматриваются ключевые экономические механизмы, способствующие развитию сферы услуг, повышению занятости, росту доходов населения и улучшению качества жизни. Особое внимание уделяется государственной политике поддержки малого и среднего бизнеса, внедрению инноваций, цифровой трансформации и созданию благоприятной деловой среды. Кроме того, анализируется вклад сервисного сектора в обеспечение устойчивого социально-экономического развития регионов и формирование инклюзивной экономики.



2-рисунок. Адаптация работников к инновационной среде требует комплексного подхода, включающего следующие направления

Источник: *Составлено и систематизировано автором изучая рыночных условий.*

В условиях формирования инновационной экономики социальные программы становятся важнейшим инструментом адаптации работников к новым требованиям рынка труда. Их роль заключается не только в обеспечении социальной защиты населения, но и в создании условий для постоянного профессионального развития, повышения квалификации и стимулирования инновационной активности трудовых ресурсов. Особое значение имеет интеграция социальных программ с мерами государственной инновационной политики, что позволяет формировать конкурентоспособный человеческий капитал, готовый к вызовам цифровизации и технологических преобразований.

Выводы:

1. Социальные программы являются ключевым механизмом адаптации работников к динамичным изменениям инновационной экономики.
2. Их эффективность зависит от комплексного подхода, включающего профессиональную переподготовку, социальную поддержку и мотивацию к инновационной деятельности.
3. Государственная политика должна быть направлена на синхронизацию социально-трудовых и инновационных стратегий развития.

4. Повышение роли социальных программ способствует устойчивому экономическому росту, укреплению социальной стабильности и формированию общества знаний.

5. Инвестиции в развитие человеческого капитала через социальные программы становятся основой конкурентоспособности страны в условиях глобальной инновационной экономики.

Литературы:

1. Son, Yi et al. - "Adaptive social innovation derived from digital economy". Год: 2022.DOI: https://www.mdpi.com/2071-1050/14/6/3408 - DOI: 10.3390/su14063408.

2. OECD - Employment Outlook 2019: The Future of Work. Год: 2019. отчёт OECD (полный аналитический доклад). DOI: OECD (2019), OECD Employment Outlook 2019: The Future of Work. DOI: 10.1787/9ee00155-en.

3. World Bank - World Development Report 2019: The Changing Nature of Work. World Bank WDR 2019 (Changing Nature of Work) Год: 2019.

4. Исследования по человеческому капиталу и цифровой трансформации фирм (обзор и эмпирические статьи, 2020-2023). DOI: 10.2478/manment-2019-0081

5. Статьи по социальной инновации и политике (2020-2024) - обзорная литература. https://doi.org/10.1016/j.cosust.2024.101491

АЙЛАНАЁТГАН МАБЛАҒЛАРНИ ИҚТИСОДИЁТ ТАРМОҚЛАРИ ВА МАМЛАКАТ ҲУДУДЛАРИ БЎЙИЧА МУТАНОСИБЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ

Рузимурадов Шухрат Хусанович
Ўзбекистон Республикаси Марказий банки,
иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Иқтисодиётни узлуксиз тараққий этишини таъминлаш ва уни кейинги ривожланиш босқичига олиб чиқиш учун ҳар бир давлат ўзининг макроиқтисодий муаммоларини мақбул ечимларини топишга интилиши лозим. Кўпчилик давлатларда, шу жумладан Ўзбекистонда ҳам инфляцияни жиловлаш, инвестиция муҳитини яхшилаш, нархлар барқарорлигини таъминлаш, ишсизликликни қисқартириш, иқтисодий ўсишга эришиш ва бошқа шунга ўхшаш масалалар – энг муҳим макроиқтисодий муаммолар деб эътироф этилмоқда.

Бироқ, бизни олиб бораётган илмий изланишларимиз натижаси шуни кўрсатмоқдаки аввало, иқтисодиётда товар-пул-товар’ муносабатларини талаблар даражасида ташкил этиш ва ушбу жараёнларнинг узлуксиз такрорланишини таъминламасдан туриб, юқоридаги макроиқтисодий муаммоларнинг ижобий, оптимал ечимларини топиш қийин кечади. Содда қилиб айтадиган бўлсак, давлатлар томонидан эътироф этиб келинаётган юқорида санаб ўтилган макроиқтисодий муаммоларнинг мақбул ечимларини топиш учун *иқтисодий ричаг ва механизмлардан* фойдаланган ҳолда:

биринчидан, хўжалик субъктлари ўртасидаги муддати ўтган қарздорликларни имкон қадар қисқартиришга доир;

иккинчидан, нақд пулсиз ҳисоб-китоблар орқали айланаётган пул маблағларининг иқтисодиёт тармоқлари ва мамлакат ҳудудлари бўйича мутаносиблигини имкон қадар таъминлашга доир чоралар кўрилиши лозим.

Ҳақиқатан ҳам иқтисодиёт - бир қанча бир-бирига таъсир этувчи, ўзаро боғлиқ ва уйғунлашган элементлардан ташкил топган мураккаб, динамик тизим ҳисобланади. Шунинг учун ҳам иқтисодиётни бир тирик организмга, хусусан, инсонга қиёслаш мумкин. Инсоннинг “қон томирлари” орқали “қонни” бир маромда ва узлуксиз айланиши – унинг саломатлигини, фаоллигини учун қанчалик муҳим ҳисобланаса, иқтисодий тизимнинг соҳа ва тармоқларида нақдсиз пул маблағларини айланиши ҳам шунчалик аҳамиятлидир.

Демак, нақд пулсиз ҳисоб-китоблар орқали айланаётган маблағларнинг иқтисодиёт тармоқлари ва мамлакат ҳудудлари бўйича мутаносиблиги таъминланмаса, қайсидир соҳа ва тармоқлар (ёки мамлакат ҳудуди) жуда ривожланган бир пайтда, иқтисодиётнинг бошқа бир тармоқ ва соҳалари (ёки мамлакат бошқа бир ҳудуди) қолоқликни, тангликни бошдан кечириши мумкин. Бундай вазиятни юзага келиши эса иқтисодиётда турли номутаносибликларни келтириб чиқаради.

Барчамизга маълумки, муомаладаги пул маблағларининг асосий қисми хўжалик субъектлари орқали айланади. Хўжалик субъектлари ўртасидаги ўзаро ҳисоб-китоблар эса асосан нақд пулсиз шаклда амалга оширилади.

Бироқ, иқтисодий-математик усуллардан фойдаланган ҳолда хўжалик субъектлари ўртасидаги нақд пулсиз ҳисоб-китобларнинг жорий ҳолатини таҳлил қилиш ҳамда айланаётган маблағларни иқтисодиёт тармоқлари ва мамлакат ҳудудлари бўйича мутаносиблигини имкон қадар таъминлашнинг назарий асослари бугунги кунга қадар шакллантирилмаган. Бу ўз навбатида, иқтисодиёт назариясини янада такомиллаштириш, тегишли иқтисодий ричаг ва механизмларни ишлаб чиқишни тақозо этмоқда.

Иқтисодиёт назариясини такомиллаштириш лозимлиги хусусида профессор:

- Диана Койл қуйидагиларни таъкидлаган: “*2020-йиллар иқтисодиёти XX асрнинг ўрталарида шаклланган иқтисодий тизимдан кескин фарқ қилади. Ўша даврда иқтисодчилар томонидан ишлаб чиқилган стандарт воситалар тўплами ҳалигача кенг қўлланиб келинмоқда. Иқтисодиёт фани вакилларига иқтисодиётда кечаётган ўзгаришлар яхши маълум ва бу борада ижобий хулосаларга лойиқ бўлган жуда кўп тадқиқотлар олиб борилмоқда. Бироқ, ҳозирча иқтисодиётнинг XXI асрдаги умумий фаолият механизмларини яхлит тарзда тасвирлаб бера оладиган концептуал ёндашув мавжуд эмас…Иқтисодиёт назариясини қайта кўриб чикиш вақти келди...Нега ҳозир? Жавоб шуки, иқтисодиёт шу қадар тубдан ўзгарганки, иқтисодиёт фани ҳам унинг орқасидан эргашиши керак*” [1].

- Л.Терехов таъкидлашича: “*Иқтисодиётни оптимал бошқаришнинг ягона тизимини ташкил этишнинг энг муҳим омилларидан бири, иқтисодиётни оптимал фаолият юритишига доир назарияни ишлаб чиқишдир... Иқтисодий-математик ишланмалар, иқтисодиётнинг оптимал фаолият юритиш тизими учун жуда аҳамиятлидир. Иқтисодиётни оптимал фаолият юритиш назарияси ва замонавий математик усуллар асосида барча асосий қонуниятларнинг сонли тавсифини, алоқаларини ва жараёнларини акс эттирувчи иқтисодий-математик моделлар мажмуаси шакллантирилиши лозим*” [2; 6].

Ҳақиқатан ҳам иқтисодиёт назариясини тараққиётнинг ҳозирги босқичи талабларини хусусан, юзага келаётган макроиқтисодий муаммоларни инобатга

олган ҳолда такомиллаштирилиши ҳамда зарурий иқтисодий ричаг ва механизмларни ишлаб чиқилиши жуда долзарб масаладир.

Юқоридагиларга асосланган ҳолда биз, иқтисодий-математик усуллардан фойдаланган ҳолда хўжалик субъектлари ўртасидаги нақд пулсиз ҳисоб-китобларнинг жорий ҳолатини таҳлил қилиш ҳамда мазкур ҳисоб-китоблар орқали айланаётган маблағларнинг иқтисодий тармоқлари ва мамлакат ҳудудлари бўйича мутаносиблигини имкон қадар таъминлашнинг методологик асосларини шакллантирилиши жуда муҳим аҳамиятга эга деган гепотезани илгари сўрмоқдамиз.

Юқорида қайд этилган мулоҳазалардан кўриниб турибдики, иқтисодиётда нақд пулсиз ҳисоб-китоблар орқали айланаётган маблағларнинг иқтисодиёт тармоқлари ва мамлакат ҳудудлари бўйича мутаносиблигини таъминлаш масаласи нафақат бирор бир танланган давлат учун балки, бутун жаҳон ҳамжамияти ва иқтисодиёти турли даражада ривожланган барча давлатлар учун ҳам бугунги куннинг энг долзарб, ўз ечимини кутаётган долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Бугунги кунда иқтисодиёт назариясида “талаб ва таклифни”, “актив ва пассивларни”, “импорт ва экспортни”, “даромад ва харажатларни”, “инвестиция ва жамғармани” ҳамда бошқа бир қатор иқтисодий масалалар мутаносиблиги бўйича турлича назарий қарашлар ўз ифодасини топган.

Бироқ, *хўжалик субъектлари ўртасидаги нақд пулсиз ҳисоб-китобларнинг жорий ҳолатини таҳлил қилиш ҳамда айланаётган маблағларнинг иқтисодий тармоқлари ва мамлакат ҳудудлари бўйича мутаносиблигини таъминлашнинг назарий асослари* ҳанузгача шакллантирилмаган.

Ваҳоланки, иқтисодиётда нақд пулсиз ҳисоб-китоблар орқали айланаётган маблағлар умумий суммасини таҳлил қиладиган бўлсак, хўжалик субъектлари ўртасидаги нақд пулсиз ҳисоб-китобларнинг улуши жуда юқори эканлигини кўришимиз мумкин.

Иқтисодиётда айланаётган маблағларнинг мутаносиблигини таъминлаш масаласи хусусида иқтисодчи олим Джеймс К.Ван Хорн қуйидагиларни таъкидлаган: *“...маблағларни нотўғри тақсимланиши иқтисодиётни ривожланишга тўсқинлик қилади. Иқтисодий эҳтиёжлар қондирилмаган ва танглик даврида бу жамият учун зарар келтириши мумкин. Иқтисодиётни оптимал ривожланиши учун ресурларни самарали тақсимланиши жуда муҳимдир...”* [3; 11].

Ҳақиқатан ҳам бугунги кунда макроиқтисодий муаммоларнинг мақбул ечимларини топиш ҳамда узлуксиз иқтисодий ўсишга эришиш орқали мамлакат аҳолисининг турмуш фаровонлигини ошириш учун аввало, иқтисодий тизимнинг жорий ҳолатини таҳлил қилиш ва аниқланган муаммоларни бартараф этишнинг мақбул ечимларини топиш имкониятини берувчи назарий асосларни ишлаб чиқилиши жуда муҳимдир. Шунингдек, ушбу назарий билимлар асосида тегишли иқтисодий ричаг ва механизмларни шакллантирилиши ҳамда улар ёрдамида иқтисодиётни зарурий меъёрлар доирасида тартибга солиниши талаб этилади. Акс ҳолда, турли таҳлил ва фаразларга таянган ҳолда иқтисодий ислоҳотларни амалга ошириш юзасидан асоссиз тарзда қабул қилинаётган қарорлар ҳеч қачон кутилган самарани бермайди.

Юқоридаги мулоҳазаларга таянган ҳолда биз, хўжалик юритувчи субъектлар ўртасидаги нақд пулсиз ҳисоб-китобларнинг жорий ҳолатини таҳлил қилиш ҳамда мазкур ҳисоб-китоблар орқали айланаётган маблағларнинг иқтисодиёт тармоқлари ва мамлакат ҳудудлари бўйича мутаносиблигини имкон қадар таъминлашга доир назарий асосларни шакллантиришга бағишланган илмий изланишимизни қуйидаги босқичларда амалга оширишни режалаштирганмиз:

а) *хўжалик юритувчи субъектлар ўртасидаги нақд пулсиз ҳисоб-китоблар жорий ҳолатига доир электрон файл кўринишидаги ахборотларнинг ягона базасини шакллантириш қоидаларини ишлаб чиқиш*;

б) *ягона базага жамланган электрон файл кўринишидаги ахборотларни тартиблаш қоидаларини шакллантириш*;

в) *мазкур нақд пулсиз ҳисоб-китоблар жорий ҳолатига доир электрон файл кўринишидаги ахборотларни ихчамлаштирилган ҳолда махсус жадвалга жойлаштириш қоидаларини ишлаб чиқиш*;

г) *нақд пулсиз ҳисоб-китоблар орқали ўзаро кетма-кетликда боғланган хўжалик юритувчи субъектлар занжирсимон кетма-кетлигининг графикли кўринишларини шакллантириш қоидаларини ишлаб чиқиш*;

д) *мазкур нақд пулсиз ҳисоб-китоблар занжирсимон кетма-кетлигининг графикли кўринишларини иқтисодий-математик усуллардан фойдаланган ҳолда таҳлил қилиш ҳамда иқтисодий ричаг ва механизмлар ёрдамида, мутассадди давлат идоралари томонидан айланаётган нақд пулсиз маблағларнинг иқтисодиёт тармоқлари ва мамлакат ҳудудлари бўйича мутаносиблигини таъминлаш юзасидан зарурий чораларни кўриш қоидаларини ишлаб чиқиш*.

Албатта, юқорида санаб ўтилган назарий билимлар, бозор тамойиллари инобатга олинган ҳамда иқтисодий-математик усулларга таянган ҳолда ишлаб чиқилиши шарт. Содда қилиб айтганда иқтисодиётнинг кўмали, йўналишлари ва салмоғини кундан-кунга кенгайиб бораётганлиги – иқтисодиёт назариясини такомиллаштириш бўйича фундаментал тадқиқот ишларини ҳам асосли ва мукаммал тарзда амалга оширилишини тақозо этмоқда.

Хулоса қилиб айтганла, иқтисодиётнинг жорий ҳолатини ҳар бир йўналиш бўйича таҳлил қилиш имкониятини берувчи назарий асослар ишлаб чиқилмаса ёки ушбу назарияга мос келувчи замонавий иқтисодий ричаг ва механизмлар яратилмаса - макроиқтисодий муаммоларни аниқлаш ва уларни самарали тарзда бартараф этиш масаласи мавҳумлигича қолаверади.

Адабиётлар:

1. Fundamental economic changes require a departure from simplistic economics. https://www.imf.org/ru/Publications/fandd/issues/2024/03/.

2.Л.Л. Терехов. Экономико-математические методы. Москва: "Статистика" 1972 г., 360 с.

3. Вон Хорн ДЖ. К. Основы управления финансами: Пер. с анг. / гл. ред. серии Я.В.Сомолов. – М.: Финансы и статистика. 2003. – 800 с.

TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYAVIY TAHLIL QILISH

Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti Buxgalteriya hisobi va moliya kafedrasi katta o'qituvchisi (PhD)
Maxammadov Diyorbek Muxtor o'g'li
Farg'ona davlat universiteti magistranti

Bugungi kunda global iqtisodiy muhitda moliyaviy xizmatlar sohasi keskin raqamli o‘zgarishlar jarayonini boshdan kechirmoqda. Xususan, bank sektori texnologik innovatsiyalarni joriy etish orqali o‘z faoliyat samaradorligini oshirish, mijozlarga tezkor va sifatli xizmatlar ko‘rsatish hamda raqobat ustunligini ta’minlashga intilmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida dunyo bank tizimida yangi xizmat turlari - onlayn banking, mobil ilovalar, kontaktless to‘lov tizimlari, blokcheyn asosidagi tranzaksiyalar, shuningdek sun’iy intellekt yordamida mijozlarni tahlil qilish amaliyoti keng rivojlanmoqda.

Innovatsion faoliyat banklarning moliyaviy natijalariga, xususan, rentabellik, xarajatlar tuzilmasi, aktivlar sifati va risk darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa moliyaviy tahlil jarayonida innovatsion omillarni alohida e’tiborga olishni talab etadi. Bank rahbariyati uchun innovatsion faoliyat samaradorligini baholash, yangi texnologiyalar joriy etish natijasida moliyaviy ko‘rsatkichlarda yuz berayotgan o‘zgarishlarni tahlil qilish strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega[1].

Innovatsion faoliyat - bu bank mahsulotlari, xizmatlari, texnologiyalari, ichki jarayonlari va moliyaviy boshqaruvi sohasida yangiliklarni joriy etish jarayonidir. U zamonaviy bank tizimining ajralmas qismi bo‘lib, moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish, mijozlar ehtiyojlarini yanada to‘liqroq qondirish va bankning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi[2].

Bugungi kunda tijorat banklari innovatsion faoliyatni asosan raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirmoqda. Mobil ilovalar, internet-banking va onlayn to‘lov tizimlari joriy etilishi bank xizmatlarini yanada qulay, tezkor va shaffof qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, katta ma’lumotlar (Big Data) va sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida kreditlash jarayonlari avtomatlashtirilmoqda, mijozlarning to‘lov qobiliyati aniqroq baholanmoqda hamda kredit risklarini boshqarish samaradorligi oshmoqda.

Banklarning ichki boshqaruv tizimlarida ham innovatsiyalar muhim o‘rin tutadi. Avtomatlashtirilgan audit tizimlari, elektron hujjat aylanishi, raqamli nazorat mexanizmlari va xavflarni real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatlari banklarning ichki jarayonlarini soddalashtirib, moliyaviy boshqaruvni yanada samarali qiladi.

Innovatsion faoliyatning yana bir muhim jihati - mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatining oshishi va operatsion xarajatlarning kamayishidir. Zamonaviy texnologiyalar orqali banklar o‘z xizmatlarini masofadan turib ko‘rsatish imkoniga ega bo‘lmoqda, bu esa nafaqat mijozlar uchun qulaylik, balki banklar uchun iqtisodiy tejamkorlikni ham ta’minlaydi[3].

Umuman olganda, innovatsion faoliyat banklar uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, u raqobat muhitida ustunlikka erishish, mijozlar bilan munosabatlarni mustahkamlash, ichki operatsion samaradorlikni oshirish, yangi mahsulotlar orqali tushum bazasini kengaytirish hamda risklarni kamaytirish imkonini beradi. Shu sababli, tijorat banklarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish va uning moliyaviy tahlilini amalga oshirish hozirgi davrda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bank tizimidagi innovatsion faoliyatning samaradorligini baholashda moliyaviy ko‘rsatkichlar muhim o‘rin tutadi. Innovatsiyalar bank faoliyatining deyarli barcha yo‘nalishlariga - daromad va xarajatlar tuzilmasiga, aktivlar va majburiyatlar hajmiga, kreditlash va depozit siyosatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, tijorat banklarida

innovatsion faoliyat natijadorligini tahlil qilishda asosiy moliyaviy koʻrsatkichlarni oʻrganish zarur[4].

2025-yil 1-iyun holatiga olingan ma'lumotlarga koʻra, Oʻzbekiston tijorat banklarida masofadan bank xizmatlarini koʻrsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni sezilarli darajada ortgan. Jadval ma'lumotlariga tayanib aytish mumkinki, bu xizmatlardan eng koʻp foydalanuvchilar Xalq bankida qayd etilgan boʻlib, jami 7 555 234 nafar mijozni tashkil etadi. Ushbu koʻrsatkich boshqa banklarga nisbatan ancha yuqori boʻlib, Xalq bankining masofaviy xizmatlar bozorida yetakchi oʻrinda ekanini koʻrsatadi.

Ikkinchi oʻrinda Oʻzbekiston sanoat-qurilish banki turib, 5 437 108 nafar foydalanuvchiga ega. Uchinchi oʻrinda esa Milliy bank 3 005 074 nafar mijoz bilan qayd etilgan. Bu uchta bank umumiy tizimdagi foydalanuvchilarning katta qismini oʻzida jamlagan.

Eng kam foydalanuvchi soni Garant bankda kuzatilgan boʻlib, u atigi 228 141 nafar mijozga ega. Shuningdek, Biznesni rivojlantirish banki va Turonbankda ham foydalanuvchilar soni nisbatan kam – mos ravishda 768 800 va 871 728 nafarni tashkil etadi.

1-jadval

Masofadan bank xizmatlarini koʻrsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni 2025-yil 1-iyun holatiga[5].

№	Bank	Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar	Jismoniy shaxslar	Jami
1	Milliy bank	132 041	2 873 033	3 005 074
2	Oʻzbekiston sanoat-qurilish banki	91 733	5 345 375	5 437 108
3	Agrobank	221 945	3 211 056	3 433 001
4	Ipoteka-bank	180 741	4 036 227	4 216 968
5	Mikrokreditbank	74 318	1 830 240	1 904 558
6	Xalq banki	138 371	7 555 234	7 693 605
7	Garant bank	4 971	223 170	228 141
8	Biznesni rivojlantirish banki	54 487	714 313	768 800
9	Turonbank	50 110	821 618	871 728
10	Hamkorbank	151 509	2 369 133	2 520 642

Jadval tahlili shuni koʻrsatadiki, har bir bankda jismoniy shaxslar soni yuridik shaxslarga nisbatan bir necha baravar koʻp. Masalan, Milliy bankda 132 041 ta yuridik shaxs va 2 873 033 ta jismoniy shaxs, Ipoteka-bankda esa 180 741 ta yuridik shaxs va 4 036 227 ta jismoniy shaxs mavjud. Bu esa masofaviy xizmatlar asosan aholining kundalik moliyaviy operatsiyalarida keng qoʻllanilayotganini bildiradi.

Umuman olganda, Oʻzbekistonda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish koʻlami kengayib bormoqda. Aholi orasida raqamli moliyaviy xizmatlarga boʻlgan ishonch va talab oshgani natijasida bank tizimining raqamli infratuzilmasi jadal rivojlanmoqda. Shu bilan birga, yirik banklar - Xalq banki, Sanoat-qurilish banki va Milliy bank - bu yoʻnalishda yetakchi oʻrinni egallab, kichik va oʻrta banklar uchun raqobat muhitini kuchaytirmoqda[6].

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekistonda tijorat banklari innovatsion faoliyat jihatidan salmoqli salohiyatga ega, raqamli xizmatlar va onlayn-kanallar

kengaymoqda. Moliyaviy ko‘rsatkichlar — foizli daromad va xarajatlar, aktivlar va kreditlar miqdori, depozitlar — banklar sektorining asosiy barqarorligini ko‘rsatadi. Biroq innovatsion faoliyatning banklarning moliyaviy natijalariga (rentabellik, xarajatlarni kamaytirish, yangi tushum manbalari) aniq ta’siri to‘liq o‘lchanmagan. Shuningdek, banklar innovatsiya jarayonlarini boshqarishda, o‘lchovlar tizimini yaratishda va regulyativ muhitda bir qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida quyidagi takliflar beriladi:

1. Tijorat banklari uchun innovatsion strategiyani aniq belgilab, har bir innovatsion loyiha uchun moliyaviy ko‘rsatkichlar (ROI, xarajatlarni kamaytirish, mijoz bazasi o‘sishi) belgilanishi lozim.

2. Banklarda innovatsion faoliyat natijalarini monitoring qilish uchun maxsus indikatorlar tizimi yaratilishi kerak — masalan, raqamli kanal orqali tushumlar, yangi mahsulotlardan tushgan foyda, operatsion xarajatlardagi kamayish.

3. Regulyator (Markaziy bank) va banklar hamkorligida innovatsiya faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi mezonlar va standartlar ishlab chiqilishi lozim, shu jumladan texnologik infratuzilma, kadrlar tayyorgarligi, ma’lumot xavfsizligi.

4. Kichik va o‘rta banklar uchun innovatsiya joriy etishni rag‘batlantiruvchi dasturlar (grantlar, texnologik hamkorlik, fintech startaplari bilan hamkorlik) tashkil etilishi lozim.

5. Banklar ichida xatarlarni boshqarish nuqtai nazaridan innovatsion jarayonlarni sinovdan o‘tkazish, pilot loyihalarni amalga oshirish va tajriba natijalarini tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi – “Moliyaviy texnologiyalarni joriy etishning milliy dasturi”, 2022 yilgi hisobot.

2. Xudoyarova K. A. (2024). O‘zbekiston tijorat banklarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish istiqbollari. “Moliyaviy tahlil va bank amaliyoti” jurnali, №2.

3. Mamatqulov R. B. (2023). Tijorat banklarida raqamli xizmatlarni rivojlantirish yo‘nalishlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” jurnali, 3(5).

4. Juraev K. T. (2024). Tijorat banklarida innovatsion jarayonlarni boshqarish samaradorligini oshirish masalalari. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali, 2(6).

5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti - https://www.cbu.uz

6. Muallif hisob-kitoblari. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida.

KICHIK BIZNES EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHNING MOLIYAVIY VA INNOVATSION BOSHQARUV MEXANIZMLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

Raxmatullayev Umarbek Ulug‘bekovich
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti To‘rtko‘l fakulteti
assistent-o‘qituvchi
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Mazkur ilmiy tezisda kichik biznes eksport salohiyatini oshirishning moliyaviy va innovatsion boshqaruv mexanizmlari keng yoritilgan. So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning roli keskin ortib bormoqda. Ayniqsa, eksport salohiyatini oshirishda bu sektor hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, moliyaviy liberallashtirish siyosati va

innovatsion rivojlanish strategiyalari kichik biznes korxonalarining tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirdi. Shu bilan birga, mintaqalar, xususan Xorazm viloyati uchun kichik biznes eksportini rivojlantirish masalasi moliyaviy boshqaruv, investitsiya oqimlari va innovatsion faoliyat samaradorligiga bevosita bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda kichik biznes eksport faoliyatini rivojlantirishda uchta asosiy omil muhim rol o‘ynamoqda: *moliyaviy barqarorlik, innovatsion salohiyat va boshqaruv samaradorligi.* Moliyaviy barqarorlik kichik korxonalarning ichki resurs bazasiga, kredit siyosatiga va davlat tomonidan berilayotgan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlariga tayanadi. Shu jihatdan, Xorazm viloyatida “Yosh tadbirkor”, “Ayollar daftari” va “Har bir oila — tadbirkor” dasturlari doirasida yuzlab kichik korxonalar eksport faoliyatiga yo‘naltirilgan kredit liniyalariga ega bo‘ldi. 2024-yilda viloyatda kichik biznes eksport hajmi 2021-yilga nisbatan 1,8 baravar oshgan, ularning asosiy ulushi to‘qimachilik, oziq-ovqat va meva-sabzavot mahsulotlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda [1].

Innovatsion yondashuv esa kichik biznes eksport salohiyatini oshirishning yangi drayveriga aylanmoqda. Xorazm viloyatida so‘nggi yillarda elektron tijorat, onlayn marketing, raqamli hisob-kitob tizimlari, logistika monitoringi kabi innovatsion yechimlar joriy etilmoqda. Masalan, 2023–2024-yillarda Urganch shahrida faoliyat yuritayotgan 120 dan ortiq kichik korxona “Export.gov.uz” platformasi orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy xaridorlar bilan shartnomalar tuzgan. Bu esa eksport geografiyasini kengaytirish va valyuta tushumlarini barqarorlashtirish imkonini bermoqda.

Moliyaviy oqimlarni samarali boshqarish ham kichik biznesning eksport faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Xorazm viloyati sharoitida bu jarayon hali to‘liq tizimlashtirilmagan bo‘lsa-da, tijorat banklari tomonidan eksport oldi va eksportdan keyingi moliyalashtirish tizimlari bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilmoqda. “Mikrokreditbank”, “Ipoteka-bank” va “Asaka bank”ning viloyat filiallari kichik biznes subyektlari uchun imtiyozli kredit liniyalarini kengaytirmoqda. Natijada, eksport bilan shug‘ullanayotgan kichik korxonalar soni 2020-yildagi 214 tadan 2024-yilda 417 taga yetgan.

1-jadval

Xorazm viloyatida kichik biznes eksport ko‘rsatkichlari [1]

Yil	Kichik biznes eksport hajmi (mln AQSH dollari)	O‘sish sur’ati (%)	Eksportchi korxonalar soni
2020	84,3	–	214
2021	96,8	15,0	257
2022	117,2	21,1	314
2023	138,9	18,6	366
2024	152,7	10,0	417

Ko‘rinib turibdiki, kichik biznes eksport ko‘rsatkichlari barqaror o‘smoqda, ammo eksport geografiyasi hali cheklangan. Eksportning 70 foizi Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston va Tojikiston bozorlariga to‘g‘ri kelmoqda. Shu sababli kelgusida xorijiy marketing, xalqaro sertifikatlashtirish, mahsulot sifatini raqamli nazorat qilish kabi yo‘nalishlarda innovatsion mexanizmlarni kuchaytirish zarur.

Kichik biznes eksport salohiyatini oshirish masalasi mintaqaviy iqtisodiyotda eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Chunki eksport faoliyati iqtisodiy barqarorlik, valyuta tushumlari, yangi ish o‘rinlari va innovatsion rivojlanish uchun muhim manba

hisoblanadi. Ayniqsa, Xorazm viloyati sharoitida kichik biznes korxonalari iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylangan. Ular ishlab chiqarish, xizmat koʻrsatish, qayta ishlash va savdo sohalarida faoliyat yuritib, eksport salohiyatining oʻsishida asosiy rol oʻynamoqda. Ammo bu salohiyatni toʻliq roʻyobga chiqarish uchun moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va raqamli savdo tizimlarini kengaytirish zarur. [2]

Xorazm viloyatida soʻnggi yillarda kichik biznes eksport hajmi barqaror oʻsib bormoqda. Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlariga koʻra, 2020-yilda 84,3 mln AQSH dollari miqdorida boʻlgan eksport hajmi 2024-yilda 152,7 mln dollarga yetgan, yaʼni oʻsish 1,8 baravarni tashkil etgan. Eksport qilinayotgan mahsulotlarning asosiy ulushi toʻqimachilik, oziq-ovqat va meva-sabzavot mahsulotlariga toʻgʻri keladi. Bu oʻsish, bir tomondan, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi, ikkinchi tomondan esa moliyaviy boshqaruv tizimlarining takomillashuvi bilan bogʻliq.

Moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish kichik biznesning eksport salohiyatini mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bunda korxonalarning likvidlik darajasini saqlash, kredit resurslaridan oqilona foydalanish, valyuta risklarini boshqarish, sugʻurta va faktoring mexanizmlarini joriy etish muhimdir. Eksport faoliyati uchun “pre-shipment” va “post-shipment” moliyalashtirish vositalaridan foydalanish korxonalarning aylanma mablagʻlarini tezlashtiradi. Shu bilan birga, tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan imtiyozli kredit liniyalari, eksport sugʻurtasi va davlat kafolatlari kichik biznes subyektlari uchun qoʻshimcha imkoniyatlar yaratmoqda. [3]

Innovatsion boshqaruv mexanizmlarining joriy etilishi ham kichik biznes eksportini rivojlantirishning yangi bosqichini taʼminlamoqda. Bugungi kunda Xorazm viloyatidagi korxonalar elektron tijorat platformalarida faoliyat yuritmoqda, “Export.gov.uz” portali orqali toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy xaridorlar bilan shartnomalar tuzmoqda. Raqamli marketing, onlayn hisob-kitob tizimlari, logistika monitoringi va mijozlar bazasini avtomatlashtirish korxonalarga vaqt va xarajatni tejash imkonini bermoqda. Mahsulotni xalqaro talab va standartlarga moslashtirish, masalan ISO, HACCP yoki Global G.A.P. sertifikatlarini olish orqali eksport narxini oshirish mumkin. Bunday sertifikatlar korxonaning raqobatbardoshligini kuchaytiradi va xorijiy bozorlarda ishonchni mustahkamlaydi. [4]

Kichik biznes eksport salohiyatini oshirish uchun yana bir muhim yoʻnalish - moliyaviy oqimlarni tahlil qilish va prognozlashdir. Har bir korxona oʻzining daromad va xarajat tuzilmasini chuqur tahlil qilishi, ishlab chiqarish siklini qisqartirishi, operatsion xarajatlarni kamaytirishi va aylanma mablagʻlarni tezroq qaytarish mexanizmlarini yoʻlga qoʻyishi lozim. Bu jarayonda eksport bilan bogʻliq asosiy moliyaviy koʻrsatkichlar — DSO (Days Sales Outstanding), DPO (Days Payable Outstanding) va DIH (Days Inventory Held) kabi indikatorlar muhim oʻrin tutadi. Ularni barqaror holatda ushlab turish eksportdan olinadigan sof foydani oshiradi. [5]

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga nazar tashlaganda, kichik biznes eksportini moliyaviy jihatdan qoʻllab-quvvatlashning samarali modellarini koʻrish mumkin. Turkiyada “KOSGEB” agentligi kichik korxonalarni grantlar, eksport kafolatlari va eksportga tayyorlik dasturlari bilan qoʻllab-quvvatlaydi. Janubiy Koreyada esa “SME Export Support Fund” dasturi orqali kichik biznesga soliq imtiyozlari, eksport kredit kafolatlari va marketing xizmatlari taqdim etiladi. Germaniyada “Hermes Export Credit Guarantee” tizimi orqali eksport sugʻurtasi keng qoʻllanilib, xususiy sektor faol ishtirok

etadi. Bu tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish, kichik biznes uchun davlat-xususiy sheriklik asosidagi moliyaviy infratuzilmani yaratish zarur. [6]

Xorazm viloyatida kichik biznes eksport faoliyatini yanada jadallashtirish uchun bir qator takliflarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, viloyat darajasida “Eksport Help Desk” markazini tashkil etish, bu yerda bojxona, bank, sug‘urta va logistika xizmatlari bir joyda ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, kichik biznes korxonalariga sertifikat olish xarajatlarini qisman qoplash uchun subsidiya tizimini joriy etish zarur. Uchinchidan, Hazorasp erkin iqtisodiy zonasida xalqaro sertifikat laboratoriyasi tashkil etilib, eksport mahsulotlarining sifatini joyida tekshirish imkoniyati yaratilsa, vaqt va transport xarajatlari sezilarli darajada kamayadi. [7]

Umuman olganda, kichik biznes eksport salohiyatini oshirishda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan keng foydalanish hamda xalqaro tajribalarni moslashtirish asosiy omillar hisoblanadi. Bu yo‘nalishdagi islohotlar Xorazm viloyati iqtisodiyotining barqarorligini ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Kichik biznes eksportini rag‘batlantirish uchun xorijiy tajribalardan foydalanish ham dolzarbdir. Masalan, Turkiya “KOSGEB” agentligi orqali kichik korxonalarni eksport faoliyatida moliyalashtirish va grant tizimi bilan qo‘llab-quvvatlaydi. Janubiy Koreyada esa “SME Export Support Fund” orqali eksportchi korxonalar uchun soliq imtiyozlari, sug‘urta kafolatlari va texnologik maslahat xizmatlari ko‘rsatiladi [8]. Ushbu tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish kichik biznes eksport salohiyatini oshirishda muhim natija beradi.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes eksport salohiyatini oshirishda moliyaviy barqarorlik, innovatsion boshqaruv tizimlari va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Xorazm viloyati misolida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, davlat dasturlari va innovatsion infratuzilmalarni integratsiyalash kichik biznesning xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Hududlar kesimida eksport faoliyati natijalari – 2024. – Toshkent, 2024. – URL: https://stat.uz (murojaat qilingan sana: 02.10.2025).

2. OECD. SME and Entrepreneurship Outlook 2023. – Paris : OECD Publishing, 2023. – 312 p.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-158-son Farmon “Yangi O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida” // Lex.uz. – 2023. – URL: https://lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Hududlar kesimida eksport faoliyati natijalari – 2024. – Toshkent, 2024. – URL: https://stat.uz (murojaat qilingan sana: 02.10.2025).

5. OECD. SME and Entrepreneurship Outlook 2023. – Paris : OECD Publishing, 2023. – 312 p.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-158-son Farmon “Yangi O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida” // Lex.uz. – 2023. – URL: https://lex.uz.

7. Bundesministerium für Wirtschaft und Klimaschutz. Industrie 4.0 – Praxisleitfaden für den Mittelstand. – Berlin, 2023. – 210 p.

8. International Chamber of Commerce (ICC). UCP 600: Uniform Customs and Practice for Documentary Credits. – Paris : ICC, 2007. – 79 p.

FINANCIAL ANALYSIS, FORECASTING, AND CASH FLOW MANAGEMENT IN INNOVATIVE ACTIVITIES: A MATHEMATICAL MODELING APPROACH

Sodikkhujaeva Shakhnoza Khursanjon qizi
assistant-teache Fergana State Technical University

This paper examines the role of financial analysis, forecasting, and cash flow management in the context of innovative activities. It provides a theoretical overview and practical interpretation of how mathematical modeling supports effective financial decision-making. The study emphasizes the analytical relationship between innovation and financial stability, offering conceptual approaches to ensure economic growth through the optimization of financial resources. The research aims to contribute to understanding how mathematical tools can strengthen financial control and planning during innovation-driven transformations.

Innovation is one of the key factors determining the competitiveness and sustainability of modern enterprises. However, innovation requires substantial financial investment and strategic control over resources. Therefore, the analysis and forecasting of financial conditions are essential in the innovation process. The financial state of an enterprise reflects its ability to attract, allocate, and effectively use funds for new technologies, production development, or research projects. Mathematical modeling helps simulate financial dynamics, assess investment risks, and predict the efficiency of innovative activities.

Financial analysis is the basis for identifying the internal reserves of an enterprise and evaluating the results of innovation. It allows managers to determine liquidity, solvency, and profitability, which are directly affected by the level of innovation costs [1]. Common indicators include liquidity ratios, which show the ability to cover short-term liabilities; profitability ratios, indicating the efficiency of innovation-related investments; and turnover ratios, measuring how effectively working capital is used. For example, innovation projects often involve longer payback periods; thus, analyzing cash flow and the timing of returns becomes critical for financial planning.

Forecasting involves predicting future changes in financial indicators using statistical and mathematical models. Regression and time-series models are widely applied to forecast sales, expenses, and net income. A simple linear trend model can be expressed as: $Y_t = a + bt$, where Y_t represents the predicted value (for example, revenue or cost), a is the base level, b is the growth rate, and t is time. This model helps identify tendencies in income and expenditure related to innovation projects. By comparing forecasted and actual data, management can adjust strategic decisions and maintain financial balance.

Cash-flow management ensures that innovation projects have enough liquidity throughout their development stages. The balance between inflows (revenues, loans, investments) and outflows (expenses, R and D costs, production) determines project stability. Mathematical optimization can be used to model cash-flow allocation. A simplified objective function is: Maximize $P = \Sigma(R_i - C_i)$, subject to resource constraints $\Sigma a_{ij} x_i \leq b_j$, where $R_i$and $C_i$are revenues and costs of each innovation activity, and x_i represents investment volume. This model allows for the selection of the most profitable set of innovation projects under limited financial resources [2].

The financial success of innovative enterprises depends on their ability to analyze, forecast, and manage financial flows systematically. Mathematical modeling transforms financial information into a structured tool for planning, risk assessment, and strategic decision-making. The integration of innovation management with financial mathematics enables enterprises to achieve sustainable development and maintain competitive advantages. Proper forecasting, optimization of financial resources, and dynamic cash-flow control provide a reliable foundation for long-term innovative growth.

Effective financial analysis, forecasting, and cash flow management together form the foundation of sustainable innovative growth. The use of mathematical and analytical methods in financial management enhances the precision of forecasts and reduces uncertainty. From a strategic perspective, innovation-oriented enterprises should continuously update their financial models to reflect new technological and market realities [6]. In Uzbekistan, where the process of digital and economic transformation is actively developing, mathematical modeling of financial processes can significantly improve the efficiency of innovation policy and enterprise management [7]. Financial analysis must evolve from static evaluation to dynamic modeling capable of adapting to changing economic conditions. Therefore, the integration of quantitative analysis, predictive forecasting, and strategic cash-flow control is essential to ensure that innovation remains financially sustainable in both short and long terms.

Literature:

1.Brigham, E. F., & Houston, J. F. (2019). Fundamentals of Financial Management. Cengage Learning.

2. Gitman, L. J., & Zutter, C. J. (2015). Principles of Managerial Finance. Pearson.

3. Brealey, R. A., Myers, S. C., & Allen, F. (2020). Principles of Corporate Finance. McGraw-Hill.

4. Blank, I. A. (2010). Financial Management of Innovative Development. Kyiv: Nika-Center.

5 Ross, S. A., Westerfield, R. W., & Jordan, B. D. (2018). Corporate Finance. McGraw-Hill Education.

O‘ZBEKISTONDA TAKOFUL FONDLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Alimov Sherzod Choriyevich

Termiz davlar universiteti Iqtisodiyot fakulteti

"Moliya" kafedrasi o‘qituvchisi

O‘zbekiston Markaziy Osiyoda joylashgan va aholi soni bo‘yicha mintaqadagi eng katta davlat bo‘lib, 90 foizdan ortig‘i musulmon bo‘lgan 38 milliondan ortiq aholi istiqomat qiladigan davlat sanaladi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston sug‘urta bozori sezilarli darajada rivojlanmoqda. Aholining moliyaviy savodxonligi ortib borayotgani, iqtisodiyotning barqaror o‘sishi va moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojning kuchayishi bu jarayonni jadallashtirmoqda. Ayniqsa, islomiy moliyalashtirish vositalari, jumladan, takoful fondlar tizimiga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Takoful – bu islomiy tamoyillarga asoslangan sug‘urta tizimi bo‘lib, unda qatnashchilar bir-biriga yordam berish va xavflarni taqsimlash orqali moliyaviy himoyani ta’minlaydilar.

O‘zbekistonda takoful sug‘urtasi hali yangi yo‘nalish hisoblanadi. Islomiy moliya bo‘yicha dastlabki tashabbuslar 2010-yillarning oxirlarida boshlangan bo‘lsa-da, amaliy rivojlanish asosan 2020-yildan so‘ng jadal tus oldi. Jumladan *2021-yilda* O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish

to‘g‘risida” qaror qabul qilinib, huquqiy baza shakllantirish boshlandi. *2022–2023-yillarda* Moliyaviy regulyatorlar tomonidan islomiy moliya bo‘yicha bir nechta loyihalar yo‘lga qo‘yildi. Ayrim tijorat banklari va sug‘urta kompaniyalari tajriba tariqasida takoful xizmatlarini taklif qilishni boshladi. *2024-yildan boshlab* O‘zbekiston Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro hamkorlar bilan birgalikda islomiy sug‘urta bo‘yicha normativ hujjatlarni ishlab chiqish va joriy etish ishlarini boshladi. Takoful sohasining jadal rivojlanishi uchun qulay iqtisodiy va ijtimoiy muhit shakllanmoqda. Ammo tizim hali to‘liq shakllanmagan, huquqiy asoslar mukammallashtirilmoqda.

Takoful – islomiy sug‘urta bo‘lib, “tabarru” (xayriya) va “mudaraba” (foyda bo‘lishish) tamoyillariga asoslangan jamg‘arma tizimi. U konventsional sug‘urta (riba va g‘arar taqiqlangan)dan farqli ravishda, ishtirokchilar o‘rtasida xavfni taqsimlashga asoslangan. Jahon bozorida takaful aktivlari 2024-yilda $40 mlrd dan oshgan. Misol uchun Malayziyani oladigan bo‘lsak takaful bozori 20% o‘sishga erishilgan. Hozirgi vaqtga qadar takoful fondlaridan foydalanib kelishmoqda. Undan tashqari Indoneziya, Qatar, Eron davlatlari ham takoful fondlaridan samarali foydalanib, ko‘riladigan moliyaviy zararlardan saqlanib kelinmoqda.

Takoful arabcha “kafolat berish”, “bir-birini qo‘llab-quvvatlash” ma’nolarini anglatadi. Islomiy tamoyillarga asoslangan bu sug‘urta tizimi an’anaviy (konvensional) sug‘urtaga nisbatan bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

O‘zbekistonda takoful sug‘urta tizimi hali to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, ayrim kompaniyalar bu yo‘nalishda dastlabki qadamlarni tashlagan. 2024-yil holatiga ko‘ra, respublikada bir nechta sug‘urta kompaniyalari takoful xizmatlarini tajriba tariqasida joriy qilmoqda. Ular orasida *"APEX insurance"* –ishtirokidagi yirik kompaniya bo‘lib, islomiy sug‘urta tamoyillarini tatbiq etish yuzasidan izlanishlar olib bormoqda. *"Gross Insurance" va "NEO Insurance"*– maxsus takoful xizmatlarini taqdim etuvchi xususiy kompaniya. Hozircha cheklangan xizmatlar ko‘rsatayotgan bo‘lsa-da, ularning mavjudligi bozorda raqobatni kuchaytirmoqda. *Islomiy moliya institutlari bilan hamkorlik* – ayrim banklar (masalan, "Ipak Yo‘li" banki) islomiy moliyalashtirishni rivojlantirish doirasida takoful xizmatlarini taklif qiluvchi sug‘urta kompaniyalari bilan hamkorlik qilishmoqda.

Takofulni to‘laqonli joriy qilish uchun muhim bo‘lgan jihatlardan biri – bu *maxsus qonunchilik bazasi.* Ayni paytda O‘zbekistonning amaldagi “Sug‘urta to‘g‘risida”gi qonunida takoful alohida tartibda tilga olinmagan. Shu bois, kompaniyalar ushbu xizmatni tajriba yoki umumiy sug‘urta doirasida taklif qilmoqda. Biroq, 2023–2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Oliy Majlis tomonidan islomiy moliya, shu jumladan, takofulni tartibga soluvchi alohida normativ-huquqiy hujjatlar loyihasi ishlab chiqildi.

Hozirgi kunda "NEO INSURANCE CORP" AJ qoshidagi "Takoful" oynasi orqali siz islom sug‘urtasi xizmatlaridan foydalanishingiz mumkin:

1. Umumiy fuqarolik javobgarligi sug‘urtasi
2. Garovga beriladigan mol-mulk sug‘urtasi
3. Lizingga berilayotgan mol-mulk sug‘urtasi
4. Lizingga berilayotgan transport vositasi sug‘urtasi
5. Garovga berilayotgan transport vositasi sug‘urtasi
6. Lizingga beriladigan maxsus texnika sug‘urtasi

Hozirda bozorda quyidagi takoful xizmatlari mavjud:

- Hayotni sug‘urtalash
- Sog‘liqni sug‘urtalash
- Transport vositalari uchun islomiy sug‘urta
- Korporativ risklarni qoplash sug‘urtasi

Biroq, bu xizmatlar ko‘lami hali juda tor va iste’molchilarning e’tibori cheklangan. Shuningdek, shariatga muvofiq investitsiya mexanizmlarining yo‘qligi, kadrlar tanqisligi va moliyaviy savodxonlikning pastligi soha rivojiga to‘sqinlik qilmoqda.

Takoful adolat, iqtisodiy, tavakkalchilik, ma’naviy va to‘lovni qaytarish siyosati nuqtai nazariga muvofiqligini ko‘rsatish nuqtai nazaridan an’anaviy sug‘urtaga qaraganda ancha samarali hisoblanadi. U an'anaviy sug‘urtaga nisbatan sezilarli va yuqori o‘sishni boshdan kechirdi va bu uni jahon sug‘urta bozorida potentsial o‘yinchiga aylantirdi. Takofulning ushbu maqsadlarga erishishdagi roli mijozlar tajribasini yaxshilash va xarajatlar samaradorligini optimallashtirish uchun katta ma'lumotlar tahlili va robot-maslahat kabi fintechni qabul qilish orqali o‘rganilmoqda. Takoful sug‘urta bozorini diversifikatsiya qilishning munosib yechimi sifatida namoyon bo‘lib, islomning o‘zaro yordam, birdamlik va axloqiy xulq-atvor tamoyillariga asoslangan muqobil asosni taklif qiladi. Asosan foydani ko‘paytirish modelida ishlaydigan an'anaviy sug‘urtadan farqli o‘laroq, Takoful ishtirokchilar o‘rtasida hamkorlik va umumiy mas'uliyatni ta'kidlaydi.

Hozirgi vaqtda sug‘urta bozorining penetratsiyasi past – aholining 1 foizdan kam qismi sug‘urtalangan. Bu esa takoful uchun katta potentsialni ko‘rsatadi, chunki u kichik va o‘rta biznes (MSB), o‘z-o‘zini band qilgan shaxslar va qishloq joylar aholisi uchun qulay alternativ bo‘la oladi. Markaziy Osiyo mintaqasida, shu jumladan O‘zbekistonda, islomiy moliya aktivlari 2024-yil boshida 699 million dollarni tashkil etgan bo‘lib, takoful operatorlari ham bu tizimning bir qismidir.

Prognozlarga ko‘ra, Markaziy Osiyoda islomiy bankchilik aktivlari 2033-yilga borib 6,3 milliard dollarga, sukuk aktivlari esa 5,6 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. O‘zbekiston bu o‘sishda Qozog‘istondan keyin ikkinchi o‘rinni egallashi mumkin, chunki uning bank tizimi katta va iqtisodiy salohiyati yuqori. Takoful bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi: u MSB uchun sug‘urta xizmatlarini ta’minlab, moliyaviy inklyuziyani oshiradi va xorijiy investitsiyalarni jalb etadi. BMTTD (UNDP) tadqiqotiga ko‘ra, korxonalarning 61 foizi va shaxslarning 75 foizi islomiy moliyadan foydalanishga tayyor, takoful esa bu orasida 71–74 foiz qiziqish uyg‘otmoqda. Kelajakda takoful ijtimoiy himoya, qashshoqlikni qisqartirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDGs) hissa qo‘shishi mumkin.

So‘nggi yillarda islomiy tamoyillarga asoslangan “Takoful” sug‘urtasi jahon iqtisodiyotida muqobil moliyalashtirish balansi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shariat tamoyillariga sodiqligi uni an’anaviy sug‘urtadan ajratib turadi, bu esa uning iqtisodiyotdagi o‘rnini ilmiy baholash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Takoful sug‘urtasining iqtisodiyotdagi roli ilmiy moliyalashtirish tamoyillari doirasida ko‘rib chiqilib, uning iqtisodiy ta’siri, risklarni boshqarish samaradorligi va moliyaviy barqarorlikka qo‘shgan hissasi ortmoqda. Takoful sug‘urtasi jismoniy shaxslar va biznes uchun risklarni kamaytirish mexanizmlarini taqdim etish orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynab kelmoqda. Takoful mol-mulk va vositalarini kutilmagan hodisalardan himoya qilib, tadbirkorlik, sarmoya va iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantiradi.

Takoful jamiyatning an'anaviy sug‘urta bilan kam ta'minlangan qatlamlariga xizmat ko‘rsatish orqali islomiy moliyaviy amaliyotlarga hissa qo‘shmoqda. Bu jarayonlar uy xo‘jaliklari va korxonalar o‘rtasida mustahkamlikni mustahkamlaydi va shu bilan umumiy iqtisodiy barqarorlikni oshirmoqda. Takofulning iqtisodiy ta'sirini ilmiy baholash uchun uning yalpi ichki mahsulotning o‘sishiga, bandlikni shakllantirishga va qashshoqlikni kamaytirishga qo‘shgan hissasini baholash kerak. Malayziya kabi islomiy mamlakatlarda takoful sanoatining kengayishi uning iqtisodiy o‘sish ta’siriga ega. Miqdoriy topilmalar Takoful sug‘urtasininig real iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi ijobiy bog‘lanishni ko‘rsatadi, bu esa ta’minot bo‘yicha yetakchi gipotezani qo‘llab-quvvatlaydi. Takoful ish o‘rinlari yaratish va ishtirokchilar va bizneslarga qo‘shimcha qiymat qo‘shish orqali iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shgan.

O‘zbekistonda takoful sug‘urta bozori endigina shakllanayotgan, ammo katta salohiyatga ega sohalardan biridir. Islomiy moliyalashtirish tamoyillariga rioya qilishni istagan fuqarolar soni ortib borayotgani, davlat tomonidan bu yo‘nalishga e’tiborning kuchaygani va xalqaro tajriba asosida infratuzilmaning rivojlanayotgani bu sohaning istiqbolli ekanini ko‘rsatadi.

Takoful sug‘urtasi islom moliyasining dinamik va rivojlanayotgan sektori bo‘lib, iqtisodiy barqarorlik, moliyaviy resurslarni va axloqiy xulq-atvor nuqtai nazaridan ko‘plab afzalliklarni taqdim etadi. Axloqiy va shariatga mos moliyaviy yechimlarga talab ortib borishi fonida, takoful sug‘urtasi islomiy moliya kelajagini shakllantirishda va global iqtisodiy farovonlikka hissa qo‘shishda tobora muhim rol o‘ynashga xizmat qiladi.

Mavjud sug‘urta qonunlari an’anaviy modellar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, takofulning tabarru‘ (xayriya) va risk havzasi tamoyillarini hisobga olmaydi. Ikkinchisi, mutaxassislar tanqisligi: islomiy moliya va takoful bo‘yicha rasmiy ta’lim dasturlari yo‘q, milliy shariat kengashi tashkil etilmagan. Uchinchisi, aholining xabardorligi past: takofulning afzalliklarini faqat 28–32 foiz odam biladi, bu esa bozor o‘sishiga to‘sqinlik qiladi.

Aholi o‘rtasida moliyaviy savodxonlik va shariatga muvofiq xizmatlarga ehtiyoj ortmoqda. Bu esa oliy o‘quv yurtlarida islomiy moliya va takoful bo‘yicha maxsus dasturlar joriy qilinishi lozimligini ko‘rsatadi. Undan tashqari OAV va onlayn platformalarda targ‘ibot ishlari kuchaytirilishi kerak.

Sug‘urta kompaniyalarida takoful hizmatlarining integratsiyasi orqali hizmatlar qulay va arzon bo‘ladi. Bu orqali aholining takaful fondlariga bo‘lgan ishonchini va sug‘urta kompaniyalarining barqarorligini ta’minlashimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son farmoni. 2023-yil 11-sentabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-108-son qarori. 2024-yil 1-mart.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta`minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4412-son qarori.

4. Baydaulet E.A. “Islom moliya asoslari”, “O‘zbekiston” Toshkent 2019y.

5. Jurayev B. (tarj.) “Islomiy moliya va bank tizimi”, “O‘zbekiston” Toshkent 2019y

6. Bekken R.I. “Islom iqtisodiy modeli va zamon”, “O‘zbekiston” Toshkent 2019-y

7. https://www.senat.uz/ - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatning rasmiy sayti.

8. Mirziyoyev Sh., 2019 yil 10 iyuldagi sug‘urta xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari bo ‘yicha yig‘ilish. https://sputniknews-uz.com/

9. www.islommoliyasi.uz;

KICHIK VA O‘RTA KORXONALAR UCHUN MOBIL ILOVA ASOSIDA MOLIYAVIY TAHLIL VA PROGNOZLASH MODELI

Abidov Adhamjon Abdumajid o‘g‘li
Andijon davlat texnika institute Asissient
Mamurova Gulchehra Faxriddin qizi
Andijon davlat texnika instituti talaba
4-kurs Axborot tizimlari va texnologiyalari

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik va o‘rta korxonalar (KO‘K) mamlakat iqtisodiyotida strategik ahamiyat kasb etadi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda KO‘Klar yalpi ichki mahsulotning 40–60 foizini ta’minlaydi va umumiy bandlikning yarmidan ko‘pini tashkil etadi [4]. O‘zbekistonda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yalpi ichki mahsulotning 50 foizidan ortig‘ini tashkil qilmoqda [1]. Bu esa mazkur sektorni qo‘llab-quvvatlash va zamonaviy boshqaruv vositalarini joriy etish dolzarb masalalardan biri ekanini ko‘rsatadi. Moliyaviy oqimlarni samarali boshqara olmaslik korxonalarni moliyaviy inqirozga olib kelishi, ularning innovatsion faoliyatini cheklashi mumkin [3]. Shu sababli moliyaviy tahlil va prognozlashni avtomatlashtirish, mobil ilovalar orqali qulay tizim yaratish bugungi kunda dolzarb masalaga aylanmoqda [2][7].

Moliyaviy resurslar ustidan nazorat va ularni samarali boshqarish kichik korxonalar faoliyatida muhim ahamiyatga ega. An’anaviy usullarda bu jarayon ko‘p vaqt talab etishi, inson omili sababli xatoliklar yuzaga kelishi mumkin [3]. Shu sababli so‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarga asoslangan mobil ilovalar yordamida moliyaviy tahlil va prognozlash masalalari oldinga chiqmoqda [5].

Mobil ilovalar asosida moliyaviy boshqaruv tizimini joriy qilish kichik korxonalarga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:[6]

- Real vaqt rejimida monitoring: daromad va xarajatlar har kuni avtomatik qayd etilib, foydalanuvchiga qulay interfeysda taqdim etiladi [1].
- Prognozlash algoritmlari: mashinaviy o‘rganish yordamida pul oqimlarining kelajakdagi yo‘nalishi (optimistik, neytral, pessimist stsenariylar) ishlab chiqiladi [3].
- Xavf-xatarlarni aniqlash: kredit majburiyatlari, qarzlar va likvidlik darajasi bo‘yicha ogohlantirishlar [2].
- Hisobotlarni avtomatlashtirish: buxgalteriya hisobotlari va soliq deklaratsiyalarini bir necha tugma orqali shakllantirish imkoniyati [4].
- Integratsiya imkoniyatlari: bank ilovalari, onlayn to‘lov tizimlari va buxgalteriya dasturlari bilan bog‘lanish [5].
- Sun’iy intellekt yordamida maslahatlar: foydalanuvchiga budjetni optimallashtirish bo‘yicha avtomatik tavsiyalar [2][7].

Mobil ilova modeli

Mobil ilova asosidagi moliyaviy tahlil va prognozlash modeli quyidagi asosiy bo‘limlardan iborat bo‘lishi mumkin:

1. Moliyaviy ko‘rsatkichlar paneli (Dashboard): foydalanuvchilar daromad, xarajat, sof foyda, aylanma mablag‘ va qarzlar dinamikasini grafiklar orqali ko‘rishlari mumkin [1].

2. Prognozlash moduli: sun’iy intellekt asosida daromad va xarajatlarning turli stsenariylari (optimistik, pessimist, neytral) ishlab chiqiladi [3].

3. Moliyaviy oqimlarni boshqarish: hisob-kitoblar, soliqlar, qarz va kreditlar bo‘yicha avtomatik eslatmalar [5][8].

4. Avtomatik hisobotlar: foydalanuvchi bir tugma orqali moliyaviy hisobotlarni (PDF, Excel) eksport qilish imkoniyatiga ega [4].

5. Xavfsizlik moduli: ma’lumotlarni shifrlash va ko‘p bosqichli autentifikatsiya orqali moliyaviy axborot himoyasi [2].

Dolzarb muammolar

O‘zbekiston Respublikasida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida iqtisodiyotning barcha sohalarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish belgilangan [1][7]. Xususan, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, ularning moliyaviy boshqaruvini takomillashtirish ham ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qayd etilgan.

Hozirgi kunda KO‘Klar uchun moliyaviy boshqaruvda bir qancha muammolar mavjud:

- Ko‘plab korxonalar qo‘lda yuritiladigan hisob-kitoblarga asoslangan, bu esa xatoliklarga olib keladi [3].
- Moliyaviy prognozlashda zamonaviy analitik vositalarning yetishmasligi qaror qabul qilish jarayonini sekinlashtiradi [2].
- Raqamli texnologiyalarni joriy etishda kadrlar malakasining pastligi ham asosiy to‘siqlardan biridir [5].

1.

2. KO‘Klar uchun yagona milliy moliyaviy tahlil platformasini yaratish va uni mobil ilova orqali joriy etish [1].

3. Sun’iy intellekt asosidagi prognozlash algoritmlarini ishlab chiqib, ularni kichik biznesga moslashtirish [3].

4. Hududlarda kichik korxonalar uchun raqamli konsalting markazlari tashkil etish [5].

5. Tadbirkorlar uchun moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlarini amalga oshirish [2].

6. Moliyaviy boshqaruvni avtomatlashtirish orqali soliq yukini kamaytirish va shaffoflikni kuchaytirish [4].

Adabiyotlar:

1. *Karimov A. “Raqamli iqtisodiyotda kichik biznes faoliyati”. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.*
2. *OECD. “SME and Entrepreneurship Outlook 2022”. – Paris: OECD Publishing, 2022.*
3. *Bekchanov O. “Moliyaviy tahlil va prognozlash asoslari”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.*
4. *World Bank. “Digital Financial Services for SMEs”. – Washington DC, 2022.*
5. *ADB (Asian Development Bank). “Fintech for Inclusive Growth of SMEs”. – Manila, 2021.*
6. *Jo‘rayev Sh. Kichik biznes va tadbirkorlikda moliyaviy boshqaruv. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.*
7. *Sattorov A., Qodirov B. Axborot texnologiyalari va biznes jarayonlarini raqamlashtirish. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2021*.
8. *Грачёва М.В. Финансовый анализ и прогнозирование в условиях цифровой экономики. – Москва: Юрайт, 2020.*

INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA ZAMONAVIY MEHNAT BOZORINING RIVOJLANISHI

Jo‘rayeva Dilnavoz Umidjon qizi

Farg‘ona davlat texnika universiteti Oliy matematika kafedrasi assistenti

Hozirgi sharoitda innovatsion iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot va kreativ iqtisodiyotning hayotimizga kirib kelishi bilan bog‘liq masalalar kundan-kunga jadallashmoqda. Bunday sharoitda mehnat bozori transformatsiyasining yangi talablar doirasida takomillashuvi ham ob’yektiv zaruriyat hisoblanadi. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-yanvarda qabul qilingan «Oliy ma’lumotli kadrlarga davlat buyurtmasini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 49-sonli qarorida bunday o‘zgarishlar tizimli ravishda o‘zgarib borishi belgilangan. Ushbu qarorga ko‘ra, endilikda oliy ma’lumotli kadrlarga bo‘lgan davlat buyurtmasi maxsus elektron platforma orqali shakllantiriladi. Bu sohaga ancha qulayliklar yaratadi. Jumladan, “2025/2026 o‘quv yilidan oliy ma’lumotli kadrlarga davlat buyurtmasi Platformada jamlangan ma’lumotlar vamehnat bozori talabini tahlil qilish asosida aniqlanadi. Kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj 4 yillik davrga ishlab chiqiladi va har yili mehnat bozorining o‘zgarish tendensiyalari, hududlarda ijtimoiy soha muassasalari va iqtisodiyot tarmoqlarini kadrlar bilan ta’minlash inobatga olinib, Platformaga tegishli tuzatishlar kiritib boriladi”. Ushbu platforma iqtisodiyot tarmoqlarida rasman band bo‘lgan aholi sonini aniq ko‘rsatib boradi. Shunda bo‘sh ish o‘rinlariga ham oydinlik kiritish mumkin bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, innovatsion iqtisodiyot sharoitida mehnat bozori transformatsiyasining yangi talablar doirasida takomillashuvi ob’yektiv zaruriyatga aylangan. Bu esa mazkur mavzuning o‘ta dolzarb masalaga bag‘ishlanganligidan dalolatdir.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida mehnat bozori transformatsiyasining yangi talablar doirasida takomillashuvini tadqiq qilish jarayonida turli metodologik yo‘nalishlardan, xususan, induksiya va deduksiya, makon va zamon, tahlil va sintez, miqdor va sifat, mantiqiy tahlil kabi metodologik yondoshuvlardan foydalanilgan.

Mehnat bozori ham davr talabining o‘zgarishiga mos ravishda muttasil o‘zgarib boradi. Hayotimizga innovatsion iqtisodiyotning kirib kelishi shunga mos kadrlarni talab qiladi. Bu esa mehnat bozoriga aynan shunday kadrlarning qo‘yilishini taqozo etadi. Bugungi kunda xodimlarning jismoniy quvvati hech narsani belgilamaydi. Muhimi, u aqliy jihatdan baquvvat, chuqur ilm va tajribaga ega bo‘lishi kerak. Shu jihatdan MBTdagi vaziyat ham o‘zgarib, shunga mos holda takomillashib bormoqda. Aholining hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun ming yillar davomida oziq-ovqat mahsulotlari ma’lum mavsumiy davrda yetishtirilib, u saqlanib, yil davomida ta’minlab kelingan. Hozirgi sharoitda esa inson ehtiyojlaridan biri – axborot resurslari bo‘lib qoldi. Buni yetkazib berish bilan birga saqlash xizmatlari ham shakllandi. Bunday xizmatlar orqali aholining axborotga bo‘lgan ehtiyoji qondirilmoqda. Ushbu holat aynan innovatsion iqtisodiyotning mahsuloti hisoblanadi. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida mehnat bozori transformatsiyasi (MBT) fani ham yangi talablar doirasida takomillashishi lozim. Chunki yangi texnologiyalar yangi mutaxassislarni talab qiladi. Ammo yangi mutaxassislar har doim tayyor bo‘lmasligi mumkin. Shu tufayli bularni o‘zgarishlarga moslashtirilgan holda tayyorlash va ishga joylashtirish talab etiladi. Shu tariqa ish kuchiga talab va taklif bir-biriga mos kelsa, muntazam ravishda ishsizlik kamayib, kambag‘allik ham qisqaradi. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining xususiyatlari bir nechta muhim omillar bilan belgilanadi. Ulardan biri – mehnat bozoridagi talab va taklif jarayonidir. Ushbu omil turli iqtisodiy jarayonlardan kelib chiqib, mehnat bozorining o‘zgarishi, moslashuvchanligi va raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu esa mehnat sohibidan moslashuvchanlikni talab qiladi. Hozirgi sharoitda jamiyatda sodir bo‘layotgan texnologik o‘zgarishlar va ishlab

chiqarishning avtomatlashtirilishi kadrlarga bo‘lgan talabni ham o‘zgartirmoqda. Innovatsiyalar bilan bog‘liq texnologiyalar mehnatga bo‘lgan ehtiyojni ham o‘zgartiradi. Bu esa ishga qabul qilish jarayonlarini, yangi kasblarning shakllanishini va eskilarining yangi texnologiyalarga moslashuvini ta’minlashni talab qiladi. Bunda faoliyat yurituvchi xodimlarning ushbu vaziyatga moslashuvchanligi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki innovatsion iqtisodiyot sharoitida yuqori malakali kadrlarga talab ortib boradi. Kadrlarning innovatsion mahorati, ya’ni yangi texnologiyalar, dasturiy ta’minot va metodologiyalardan samarali foydalanishi talab etiladi. Kadrlarning malakasi ham shunga mos bo‘lishi zarur.

Bugungi kreativ iqtisodiyot sharoitida har bir xodimda ijodkorlik fazilati ham bo‘lishi kerak. Chunki xodimlar o‘rtasidagi raqobat aynan ijodkorlikni talab qiladi. Innovatsion muhitda mehnat bozori ijodkorlik va raqobatga asoslangan. Novatorlik g‘oyalari bilan chiqish uchun mehnat bozoridagi ishtirokchilar o‘rtasida doimiy raqobat bo‘lishi tabiiy. Shu tufayli hozirgi paytda mutaxassisning diplomi emas, balki uning malakasi muhim hisoblanadi. Hozirgi innovatsion iqtisodiyot sharoitida jarayonlarning mashinalashtirilishi va masofaviy ish shakllari ham jadal rivojlanmoqda. Natijada mehnat bozorida masofaviy ish va frilansing ham tez sur’atlar bilan kengaymoqda. Bu esa, o‘z navbatida, kadrlarning ish bilan bandligi va mehnat sharoitlarining o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadi. Muhimi – ko‘plab kasblar uchun uydan chiqmasdan ishlash imkoniyati paydo bo‘ldi. Shuningdek, boshqa mamlakatlarga chiqmasdan xizmatlar eksportini amalga oshirish imkoniyatlari yaratilmoqda. Shuni alohida ta’kidlash joizki, ushbu muvaffaqiyatlarga erishish uchun uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Innovatsion muhitda professional rivojlanish uchun uzluksiz ta’lim bilan birga, ilgari o‘qiganlar uchun qayta tayyorlov ham muhim ahamiyatga ega. Kadrlar bunday sharoitda doimiy ravishda o‘z bilimlarini yangilab borishlari kerak bo‘ladi.Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ish beruvchilar va tashkilotlarning strategik rejalari innovatsiyalarga asoslangan bo‘lishi kerak, chunki bu – raqobatbardoshlikni oshirish zarur omillardan biridir. Hozirgi sharoitda innovatsion jarayonlarning aksariyati ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotni raqamlashtirish bilan bog‘liq. Bunday sharoitda mehnat bozori ham shunga mos tarzda takomillashib borishi lozim.

Mehnat bozorida ijtimoiy tarmoqlar va aloqa vositalari mahalliy va global miqyosda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu jarayon ish beruvchilar va xodimlar o‘rtasidagi munosabatlarni yangicha shakllantirmoqda. Zero, ijtimoiy tarmoqlar axborot uzatishning asosiy vositasiga aylangani bilan o‘ziga xosdir. Shu jihatdan, ular ko‘plab odamlarning asosiy vaqtini egallab olmoqda. Bu holatning ijobiy tomonlari bilan birga, salbiy jihatlari ham mavjud. Xususan, xodimlarning ish vaqtida ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari e’tibor qaratishi mehnat unumdorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Yana bir muhim jihat – mehnat bozoridagi qonunchilik va davlatning iqtisodiy siyosati innovatsion taraqqiyot va uning ta’sirini inobatga olgan holda shakllanishi kerak. Zero, iqtisodiy siyosat va real iqtisodiyot bir-biridan ajralmasdir. Agar ushbu muvofiqlik ta’minlansa, iqtisodiy faoliyat samaradorligi ortadi. Shu sababli, jamiyatdagi o‘zgarishlarga mos tarzda qonunchilik va iqtisodiy siyosat ham yangilanib borishi zarur. Misol uchun, rejali iqtisodiyot sharoitida barcha mulklar davlatga tegishli edi. Mustaqillikka erishilganidan keyin esa mulklarni xususiylashtirishga ehtiyoj tug‘ildi. Bu esa iqtisodiy munosabatlarning yangilanishi, tegishli qonun va siyosatga moslashtirilgan holda amalga oshdi. Mazkur xususiyatlar mehnat bozorini innovatsion

rivojlantirishda milliy manfaatlarni saqlagan holda global iqtisodiy jarayonlarga integratsiyalashuvni taqozo etadi. Integratsion jarayonlar, o‘z navbatida, ushbu yo‘nalishda harakat qilish uchun ob’yektiv omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion iqtisodiyot sharoitida mehnat bozori transformatsiyasi jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida mehnat bozori transformatsiyasini yangi talablar doirasida takomillashtirish uchun korxona va tashkilotlarda xodimlarning yo‘nalishlari bo‘yicha tabaqalanishiga alohida e’tibor qaratish

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-yanvardagi 49-sonli qarori “Oliy ma’lumotli kadrlarga davlat buyurtmasini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” – https://lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli Farmoni “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” – https://lex.uz/uz/docs/5841063

3. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi (yangi tahrir) – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi – https://lex.uz/uz/docs/5777646

4. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining rasmiy statistik ma’lumotlari – https://labour.uz

5. Gulyamov S.S., Xasanov B.X. Innovatsion iqtisodiyot asoslari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.

6. UNDP (2022). Future of Work in the Digital Economy: Policy Outlook for Central Asia. United Nations Development Programme. – https://www.undp.org

7. World Economic Forum (2023). The Future of Jobs Report. – Geneva. – https://www.weforum.org/reports

8. Statistika agentligi huzuridagi “O‘zbekiston raqamli iqtisodiyoti” maxsus byulleteni. – 2023-yil.

9. Karimov B.M., Qurbonov R.T. Mehnat bozori iqtisodiyoti. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2020.

MOLIYAVIY HISOBNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI KONSEPTUAL MUAMMOLARI

Teshabayev Dilmurod Boxodir o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti, assistant
Ergashev Nurullo Ubaydullo o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti, magistrant

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar taraqqiyoti nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarini, balki moliyaviy hisob tizimini ham tubdan o‘zgartirmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotni shakllantirish, elektron hukumat, elektron hisob-kitob va soliq tizimlarini joriy etish orqali buxgalteriya hisobi va hisobot yuritish jarayonlarini transformatsiya qilish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Raqamli texnologiyalar tufayli buxgalteriya jarayonlarida inson omiliga asoslangan, qo‘lda bajariladigan usullar sekin-asta avtomatlashtirilgan tizimlar bilan almashtirilmoqda. Shu bilan birga, axborotdan foydalanish, uning tezkorligi, dolzarbligi va ishonchliligi bugungi kundagi asosiy talablar sirasiga kiradi. O‘zbekiston buxgalteriya tizimi ham bu ehtiyojlarga moslashishi, ayniqsa, Moliyaviy hisobotlarni xalqaro hisobotlariga (IFRS) muvofiqlashtirilgan holda takomillashishi lozim.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida"gi qonuni (13.04.2016 yildagi O‘RQ-404-son yangi tahriri) asosida buxgalteriya

yuritishning huquqiy asoslari belgilangan bo‘lsa-da, raqamli iqtisodiyot talab qilayotgan konseptual yondashuvlar, buxgalteriya fanining yangi funksiyalari va texnologik imkoniyatlari to‘liq aks etmagan. Bu esa, amaliyotda yuzaga kelayotgan ehtiyojlar bilan mavjud qonunchilik va metodologik yondashuvlar o‘rtasida nomuvofiqlikni yuzaga keltirmoqda.

Shu nuqtai nazardan, buxgalteriya tizimining O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida qanday konseptual muammolarga duch kelayotgani, tizimning qanday elementlari transformatsiyaga muhtojligi, va bu muammolarni bartaraf etish yo‘llari ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarb mavzuga aylanmoqda. Ayniqsa, axborotning sifatini oshirish, ichki va tashqi foydalanuvchilarga ma’lumotni tez va to‘liq yetkazib berish, raqamli texnologiyalar asosida hisobot yuritishni avtomatlashtirish kabi masalalar bugungi kun buxgalteriyasining asosiy yo‘nalishiga aylanmoqda.

Raqamli iqtisodiyotda hisob tizimining barcha elementlari sezilarli darajada o‘zgardi va bu mavjud hisob kontsepsiyasini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Tashqi omillar — globallashuv va raqamlashtirish — hisob tizimiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ular ishlab chiqarishning ijtimoiylashuvi va iqtisodiy faoliyatning xalqaro integratsiyasiga olib keldi. Bu esa barcha mamlakatlar uchun yagona standartlarga asoslangan hisob tizimlarini yaratish zaruratini keltirib chiqardi. O‘zbekiston Respublikasida ham MHXSga muvofiqlikni ta'minlash maqsadida milliy standartlarni takomillashtirish bo‘yicha izchil ishlar olib borilmoqda. Axborot texnologiyalari (blokcheyn, sun’iy intellekt, neyron tarmoqlar) hisob ma’lumotlarining mazmunini va sifatini tubdan o‘zgartirdi. Misol uchun, blokcheyn tranzaksiyalarni vositachilarsiz ro‘yxatga olish va xavfsiz saqlash imkonini beradi.

Shuningdek, hisob jarayonlarida odam ishtirokining kamayishi kuzatilmoqda. Buxgalterning ko‘plab funksiyalari — buxgalteriya yuritish, moliyaviy hisobot tayyorlash va taqdim etish — kompyuter texnologiyalari bilan almashtirilmoqda. Sun’iy intellektning keng qo‘llanilishi hisob jarayonini butunlay avtomatlashtirishga olib keladi. Kelajakda buxgalteriyaning an’anaviy funksiyalari (ikki tomonlama yozuv, axborotni tahlil qilish va taqdim etish) keskin o‘zgarishi yoki qayta talqin qilinishi ehtimoldan xoli emas. Hisob tizimi jamiyat rivojlanish bosqichlariga mos tarzda turli davrlarda har xil tartibga solish mexanizmlariga ega bo‘lgan. Bugungi kunda iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarning o‘zgarishi hisob kontsepsiyasini va uni tartibga soluvchi qonunchilikni qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda. *O‘zbekiston* respublikasining 1996-yilgi *“Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi* (Yangi tahriri. 2016-*yil* 13-aprel. *№* O‘RQ-404) qonunlarda hisobning asosiy vazifasi — foydalanuvchilarga axborot yetkazish, faoliyatdagi salbiy holatlarning oldini olish, o‘sish zaxiralarini aniqlash deb belgilangan. Biroq zamonaviy sharoitda bu yondashuv eskirgan bo‘lib, zamonaviy axborot ehtiyojlariga javob bermaydi. Hisobning obyektlari va subyektlari, usullari va tamoyillarini qayta ko‘rib chiqish zarur.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni (2016-yil, O‘RQ-404-son) moliyaviy hisobot yuritishning umumiy huquqiy asoslarini belgilab bergan bo‘lsada, raqamli iqtisodiyot sharoitida yuzaga kelayotgan yangi jarayonlarni to‘liq qamrab olmaydi. Xususan, elektron hujjatlar aylanishi, raqamli imzo, bulutli texnologiyalar, sun’iy intellekt asosidagi hisob tizimlari, blokcheyn orqali tasdiqlash mexanizmlari kabi masalalar amaldagi qonunlarda yetarlicha tartibga solinmagan.

Shu sababli, buxgalteriya sohasining raqamli transformatsiyasini qo‘llab-quvvatlaydigan yangi *“Raqamli buxgalteriya to‘g‘risida”*qonunni ishlab chiqish zarurati dolzarbdir. Ushbu qonun quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga olishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- *Raqamli hujjat aylanishi* va uning yuridik kuchini belgilovchi normalar;
- *Elektron imzo va elektron tasdiqlash tizimlari*ning buxgalteriya amaliyotida qo‘llanish tartibi;
- *Axborot xavfsizligi* va ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash mexanizmlari;
- *Sun’iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarini* moliyaviy hisobda qo‘llashning huquqiy asoslari.

Mazkur qonunning qabul qilinishi buxgalteriya hisobi tizimida shaffoflik, ishonchlilik va tezkorlikni oshiradi, raqamli iqtisodiyot talablariga mos yangi boshqaruv madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, bunday normativ hujjatlar iqtisodiy axborot sifati va davlat moliyaviy boshqaruvining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Raqamli jamiyat va raqamli iqtisodiyot ijtimoiy munosabatlar tabiatini va axborot talablarini tubdan o‘zgartirdi. Buxgalteriya tizimi — boshlang‘ich hujjatlardan tortib, moliyaviy hisobotlargacha — butunlay transformatsiyaga uchrayapti. Hisob tizimining asosiy elementlari raqamli transformatsiyaga mos ravishda o‘zgarib bormoqda; tashqi texnologik va iqtisodiy omillar ularning funksional mazmunini yangilash zaruratini tug‘dirmoqda. Shu sababli, buxgalteriya kontsepsiyasining qonunchilikdagi asoslari zamonaviy sharoitlarga moslashtirilishi, uning funksiyalari va metodologiyasi qayta ko‘rib chiqilishi lozim. Shuningdek, hisob kontsepsiyasini zamonaviy global tendentsiyalar asosida ishlab chiqish uchun ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish zarur.

Adabiyotlar:

1. Ismanov I.N., Teshabayev D.B. Problems of accounting in small business and private entrepreneurship entities in accordance with the International Financial Reporting Standards (IFRS). // American Journal of Economics and Business Management. – ISSN 2576-5973 (online), Published by “Global Research Network LLC" under Volume: 6 Issue: 5, 2023. – Pp. 241-245.

2. Teshabayev D(2023), NEW MODELS FOR ANALYSING THE FINANCIAL STATEMENTS OF ORGANISATIONS

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi 4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi qarori

4. Razzaqova, D. A. Q. (2021). Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning roli va ahamiyati. Scientific progress, 2(8), 243-249.

***5.** O‘zbekiston respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi (Yangi tahrir, 2016-yil 13-aprel)*

IPROVING THE FRAMEWORK FOR SUSTAINABLE ECONOMIC PARTNERSHIP BETWEEN UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS

Yovkochev Sherzod Shuxrat o‘g‘li
PhD Kimyo International University in Tashkent Associate Professor

The Concept for the Comprehensive Socio-Economic Development of the Republic of Uzbekistan until 2030 emphasizes the modernization and diversification of key sectors of the national economy as essential for enhancing international

competitiveness [1]. Achieving these objectives requires the development of long-term strategic plans for priority industries.

This study employs a qualitative research design based on a systematic review and comparative analysis of existing scholarly literature, institutional reports, and policy documents related to international financial institutions (IFIs) and their role in regional cooperation.

Western scholars (Hausmann, Rodrik, Hwang, Klinger) emphasize that countries should develop industries whose products are similar to those exported by developed economies, since such industries are associated with high productivity and international competitiveness.[2,3] Likewise, World Bank economists J. Lin and C. Monga [4] argue that developing countries should rely on the experience of advanced economies to determine priority sectors for modernization.[5,6]

Research by Ziyadullayev (2016) underscores that IFI financial resources can be mobilized across macroeconomic, banking, and industrial domains to enhance the efficiency of invested capital. [7]

Similarly, studies of Russia's engagement with international financial institutions indicate that risk management, diversification, and the reservation of funds are crucial to maintaining banking system stability while fostering sectoral growth (Zoidov, Ponomareva, & Serebryanskiy, 2018). Melnikov (2000) further highlights the role of World Bank financial and technical support in facilitating structural reforms, regional development, investment attraction, and risk mitigation in post-socialist economies.[8,9]

Additionally, Kuleshov (2004) illustrates the competitive dynamics between IFIs, noting that institutions such as the European Bank for Reconstruction and Development allocate resources to enhance macroeconomic stability, entrepreneurship, and structural reform, often complementing or competing with World Bank initiatives. [10]

These studies collectively indicate that strategic engagement with IFIs—through both financial resources and technical assistance—can accelerate the development of priority sectors, foster innovation, and strengthen the resilience of emerging economies.

Thus, the rational allocation of financial resources mobilized from international financial institutions, along with the targeted deployment of their technical and advisory support to emerging sectors, aligns with the objectives and priorities outlined in President Shavkat Mirziyoyev's January 24, 2020 Address to the Oliy Majlis, within the framework of Uzbekistan's comprehensive socio-economic development.[11]

In his work The World Bank: Its First Half Century, Professor Davesh Kapur of Johns Hopkins University notes that, among many countries, South Korea has utilized the financial resources of international financial institutions, particularly the World Bank Group, in a highly effective and productive manner. [12] From this perspective, the study examined South Korea's experience of economic cooperation with international financial institutions, which served as a basis for developing new directions of collaboration.

Taking these insights into account, strategies for allocating financial resources were formulated in accordance with the level of infrastructure development.

Firstly, the financial and technical resources of international financial institutions should be utilized to support the development of the country's industrial sector. In the long term, the industrial sector should serve as a primary driver of the country's sustainable development. This requires shifting focus away from the export of raw materials and

energy carriers toward an innovative and high-tech development model. Specifically, this involves comprehensive reform of the processing industries, activation of metallurgical potential, accelerated development of the chemical industry, and improvement in the quality of machinery and electrical engineering products.

Secondly, the technical, advisory, and financial resources of international financial institutions should be mobilized to enhance the country's research and development as well as experimental design activities. Enhancing research and experimental design activities is crucial for the further development of science and technology in the country. It is therefore appropriate to channel the financial and technical assistance of international financial institutions toward aligning academic workloads with international standards, improving the quality of textbooks and educational materials, preparing for international assessment processes, implementing new professional education systems, developing a national qualification framework, upgrading higher education standards based on foreign experience, enhancing pedagogical skills and competencies, and introducing information technologies across all levels of education that fully comply with global standards.

Thirdly, the financial and technical-advisory resources of international financial institutions should be mobilized to support the development of the country's venture finance and capital markets. In Uzbekistan, the development of the banking system, the introduction of new banking products, and the extensive adoption of modern information technology within the banking sector form the core objectives of the ongoing financial transformation program. To date, there is a clear trend of increasing engagement between national banks and international financial institutions in mobilizing financial resources. Analysis of cases such as AT "Aloqabank" and ATB "O'zsanoatqurilishbank" indicates that in recent years, local banks have actively expanded collaboration with international financial institutions in project finance and trade finance operations.

Priority objectives in the development of Uzbekistan's capital market include improving financial market infrastructure, liberalizing the market environment, creating new financial products, and strengthening the institutional capacity of capital market regulation. The venture financing system, as a high-risk market mechanism, is aimed at supporting innovation-driven sectors, particularly those producing high-tech and knowledge-intensive products. This system is primarily based on specialized funds, financed either independently or through financial institutions.

For effective implementation, it is essential first to establish the appropriate legislative framework, followed by economic, financial, and technical-advisory cooperation with international financial institutions. Given that the venture financing system is relatively new to Uzbekistan and that local experience remains limited, mobilizing resources and technical support from international financial institutions is particularly appropriate. Venture funds provide critical support during the initial stages of market entry for companies producing new technologies, making the careful consideration of associated financial risks essential.

*Fourthly, the resources and technical assistance of international financial institutions should be directed toward the development of the country's emerging high-technology sector.*It is well recognized that without adequate attention to the high-technology sector, it is impossible to produce and export high-value-added goods and services or generate significant economic value. Greater focus on this sector fosters the

development of science and technology, strengthens economic freedom, enhances the quality of human capital, establishes a venture financing system, increases the presence of technoparks in innovation ecosystems, and facilitates the establishment of "Silicon Valley"-type clusters across the country (To'hliyev, 2019).[13]

Moreover, in the context of industrial modernization and economic liberalization, comprehensive analyses have been conducted in Uzbekistan on innovation infrastructure, technoparks, business incubators, and innovation-technology centers (Sharifkhojaev & Vokhidova, 2018).[14] Accordingly, it is of paramount importance to allocate the financial, technical, and advisory resources of international financial institutions, as well as grants, specifically to support the development of high-technology and innovation-driven sectors.

Uzbekistan's economic modernization and long-term competitiveness depend on the rational distribution of IFI financial resources and technical assistance across priority sectors. By focusing on industry, innovation, venture finance, renewable energy, and social development, Uzbekistan can strengthen its integration into the global economy. The South Korean experience illustrates that efficient cooperation with IFIs can accelerate structural transformation and ensure sustainable growth.

In this regard, Uzbekistan should not only attract IFI loans but also maximize their grants, technical assistance, and consultative support. Such a comprehensive approach will provide a solid foundation for achieving the strategic goals of the 2030 Development Concept and positioning Uzbekistan as a regional financial and economic hub.

Literature:

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated 02.07.2017 No. PF-4947 "On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan" // National Database of Legislation, 31.07.2018, No. 06/18/5483/1594.

2. Hausmann, R., Hwang, J., & Rodrik, D. (2007). What you export matters. Journal of Economic Growth, 12, 1–25. DOI: 10.1007/s10887-006-9009-4.

3. Hausmann, R., & Klinger, B. (2006). Structural transformation and patterns of comparative advantage in the product space. SSRN Electronic Journal. DOI: 10.2139/ssrn.939646.

4. Hausmann, R., & Rodrik, D. (2003). Economic development as self-discovery. Journal of Development Economics, 72, 603–633. DOI: 10.3386/w8952.

5. Lin, J. (2012). New Structural Economics: A Framework for Rethinking Development and Policy. World Bank Publications, 371 p. DOI: 10.1596/9780821389553_ch01.

6. Lin, J., & Monga, C. (2011). Growth identification and facilitation: the role of the state in the dynamics of structural change. Development Policy Review, 29(3), 264–290. DOI: 10.1111/j.1467-7679.2011.00534.x.

7. Ziyadullaev, U. S. (2016). Ensuring national economic security in attracting external borrowing: PhD Dissertation in Economics (08.00.05). Institute of Market Problems, Russian Academy of Sciences, Moscow, 120 p.

8. Zoidov, K. Kh., Ponomareva, S. V., & Serebryansky, D. I. (2018). Problems of functioning and prospects for reforming the main international financial institutions. Regional Problems of Economic Transformation, No. 8 (94), p. 152.

9. Melnikov, V. N. (2000). International financial institutions and their role in the transformational processes of post-socialist countries: Doctoral Dissertation in Economics (08.00.14). Moscow, 227 p. RGB OD, 71:02-8/25-2.

10.Kuleshov, P. E. (2004). The modern system of regional financial institutions and the interests of Russia: PhD Dissertation in Economics (08.00.14). Moscow, 116 p. RGB OD, 61:04-8/3783.

11.Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis // Xalq so'zi, January 25, 2020, No. 19 (7521).

12.Kapur, D., Lewis, J. P., & Webb, R. (1997). The World Bank: Its First Half Century. Vol. 2. Brookings Institution Press, Washington D.C., p. 44.

13.Tukhliyev, N. (2019). Innovative economy: problems, tasks, solutions. UzA electronic journal, November 14, pp. 2–3. [Electronic resource]. URL: http://uza.uz/upload/iblock/a84/Nurislom-Tukhliev.pdf

14. *Sharifkhojaev, Sh. O., & Vokhidova, M. Kh. (2018). The need to improve the innovation infrastructure in the country. Tashkent: Economics and Finance, No. 5, pp. 61–66.*

CHARM-POYABZAL SOHASIDAGI INNOVATSION O‘ZGARISHLAR

Nuriddinova Roziyaxon Abdixaliqovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti dotsenti, (PhD) dotsent
Yusupova Dilafro‘z Orifjon qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti magistranti

Charm-poyabzal sanoati - yengil sanoatning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, u iqtisodiyotda bandlikni oshirish, eksport hajmini kengaytirish va milliy brendlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda global raqobat kuchaygani sababli, bu sohada innovatsion texnologiyalarni joriy etish zaruratga aylangan.

O`zbekistonda charm-poyafzal sohasida juda ko‘plab yangi o`zgarishlar ro`y bermoqda .Jumladan 2022-yilda charm - poyabzal sohasini qullab-quvvatlashga 60 million dollor imtiyozli kridet berildi.Avval berilgan soliq va bojxona imtiyozlari yana 5 yilga uzaytirilda,yangi soliq imtiyozlari joriy etildi.16ta hududa kichik sanoat zonalari ochildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 24-yanvar kuni charm-poyabzal sanoatidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi. O`tkazilgan yig`ilishga ko‘ra, O‘zbekistonda 2017-yilda 76 milliard so‘mlik charm-poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarilgan, 2021-yilda bu ko‘rsatgich 4 trilion 415 milliard so‘mni tashkil qiladi. Yani ishlab chiqarish qariyb 6 barobar, eksport 4 barobar o‘sgan. Tayyor mahsulotlar usushi 32 % dan 78% ga ko‘paygan. Qayt etilishicha, bu yil charm-poyabzal mahsulotlari eksportini 500 million dollar, kelgusi 3 yilda 1 milliarda 200 million dollarga yetkazish maqsad qilingan.[1]

Charmni qayta ishlashdagi innovatsiyalar;Ekologik toza texnologiyalar: An’anaviy charmni dublyajlash (tannarni ishlov berish) jarayonlari ko‘p miqdorda suv va kimyoviy reagentlar talab qiladi. Bugungi kunda biotexnologik usullar, masalan, enzim asosidagi ishlov charmning tabiiy xususiyatlarini saqlab qolish bilan birga chiqindilarni kamaytiradi.

Qayta ishlangan xomashyo: Charm chiqindilaridan qayta ishlab, yangi turdagi eko-charm (eco-leather) olish texnologiyasi rivojlanmoqda. Bu material arzonroq, lekin mustahkamlik jihatidan tabiiy charmga yaqin.

Raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish; 3D-modellashtirish va raqamli dizayn: Poyabzal modeli, shakli va o‘lchamlarini raqamli makonda yaratish jarayoni mahsulotni tayyorlash vaqtini 30–40% ga qisqartiradi. CAD/CAM dasturlari (masalan, *Shoemaster*, *Romans CAD*) ishlab chiqarishni avtomatlashtiradi.

Robotlashtirilgan tikuv tizimlari: Avtomatik tikuv mashinalari va kesish robotlari inson xatosini kamaytiradi, mahsulot sifati va aniqligini oshiradi.

Raqamli o‘lchov olish: Onlayn platformalarda 3D skanerlash asosida mijoz oyoq shakliga mos poyabzal dizaynini tanlashi mumkin.[2]

O‘zbekiston charm-poyabzal sanoatida innovatsion yondashuvlar

Klasterning shakllanishi: “O‘zcharmsanoat” uyushmasi tarkibida klaster tizimi yo‘lga qo‘yilib, xomashyo tayyorlash, ishlab chiqarish, dizayn, marketing va eksport bir zanjirda ishlamoqda.

Mahalliy innovatsion markazlar: Toshkent va Namangan charm-poyabzal texnikumlarida yangi innovatsion laboratoriyalar tashkil etilib, raqamli dizayn va 3D texnologiyalarni o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan.

Eksport salohiyati: Innovatsion ishlab chiqarish natijasida O‘zbekiston poyabzallari Rossiya, Turkiya, BAA va Yevropa bozorlariga chiqmoqda.

Charm-poyabzal sanoatidagi ustuvor vazifalar: Bu soha xalq iste’moli tovarlari ishlab chiqarishda katta o‘ringa ega. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan texnologik yangilash va mahalliylashtirish natijasida tarmoq sezilarli rivojlandi.Shu bilan birga, hali bu tarmoqda ishga solinmagan imkoniyatlar juda ko‘p. Lekin ayrim muammolar ishlab chiqaruvchilarga qiyinchilik tug‘dirmoqda. Jumladan, xomashyo hisobini yuritish tizimi yo‘q, avtomatlashgan kushxonalar kamligi teri sifatiga ta’sir qilmoqda. Dizayner, texnolog va malakali tikuvchilar, zamonaviy uskuna, kimyoviy vosita va butlovchi qismlar yetishmaydi.Hududlar kesimida aytganda, Buxoro va Xorazmda yillik 2 million dona teri zaxirasi bo‘lsa-da, uni sanoat usulida yig‘ib olish va qayta ishlash yo‘lga qo‘yilmagan.[3]

Tadqiqot materiallari va metodikasi.Qishki poyafzallar alohida yondashuvni talab qiladi. Issiqlikdan himoya qiluvchi xususiyatlarga ega bo‘lgan materialdan tikiladi. Tabiiy, sun'iy yoki jun mo‘ynaga ustunlik beriladi. Ba'zi turdagi matolar, charm bilan bir qatorda, poyabzal tayyorlash uchun eng muhim materiallardir. Deyarli barcha poyafzallarda matolardan u yoki boshqa detallar mavjud. Shuni ta'kidlash kerakki, poyabzal ishlab chiqarishda matolarning ahamiyati faqat poyabzal qismlari uchun ishlatilishi bilan cheklanmaydi. Ma'lumki, matolar, shuningdek, sun'iy yumshoq charm va texnik matolarni ishlab chiqarish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Poyafzal matolarining keng qo‘llanilishi ularning qimmatli xossalari bilan bog‘liq: ular mustahkamligi, yengilligi, gigroskopikligi, havo va bug‘ o‘tkazuvchanligi, yetarli shakllanish xossalari, o‘lchov barqarorligi va boshqalarga ega.[4]

Dizayn va ergonomika innovatsiyalari.Yengillik va qulaylik: Nanomateriallar asosidagi antibakterial ichki matolar oyoq salomatligini saqlaydi.

Ventilyatsion tizimlar: Havo o‘tkazuvchi konstruktsiyalar issiqlikni boshqaradi, bu sport poyabzallarida ayniqsa muhim. Modulli poyabzallar: Taglik, ustki va ichki qismi almashtiriladigan universal modellar ishlab chiqilmoqda.[5]

Smart-poyabzal va funksional dizayn;

- Sensorli texnologiyalar: Smart-poyabzallar yurish tezligi, bosim nuqtalari, yurak urishi kabi parametrlarni o‘lchab, mobil ilovalar orqali sog‘liq monitoringini olib boradi.
- Energiyani qayta tiklovchi tagliklar: Ayrim yangi modellar yurish paytida hosil bo‘lgan mexanik energiyani elektr energiyasiga aylantirib, masalan, telefon zaryadlash imkonini beradi.
- Ortopedik innovatsiyalar: 3D bosma orqali har bir mijozning oyoq shakliga mos taglik va qo‘llab-quvvatlovchi strukturalar tayyorlanmoqda.[6]

Ekologik barqaror ishlab chiqarish;

• “Yashil iqtisodiyot” tamoyillari: Charm pishitish jarayonida zararli chiqindilarni kamaytirish, suvni aylantirib ishlatish, chiqindini energiya manbai sifatida qayta ishlash bo‘yicha yangi texnologiyalar tatbiq etilmoqda.

• Biopolimerlardan foydalanish: Tabiiy o‘simlik taninlari asosidagi charm ishlov texnologiyalari xrom asosidagi zararli birikmalarga muqobil sifatida keng tarqalmoqda.

O‘zbekiston charm-poyabzal sanoatida ham innovatsion rivojlanish bosqichi kuzatilmoqda. “O‘zcharmsanoat” uyushmasi tashabbusi bilan charm-poyabzal klasterlari shakllanib, ishlab chiqarish zanjirining barcha bosqichlari - xomashyo tayyorlashdan tortib eksportgacha - yagona tizimda integratsiyalashmoqda. Bu yondashuv nafaqat ichki bozorni sifatli mahsulot bilan ta’minlaydi, balki xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. [7]

Shuningdek, dizayn va ergonomika sohasidagi yangiliklar - yengil, nafas oluvchi, antibakterial materiallar, 3D bosma asosida tayyorlangan individual tagliklar, ventilyatsion tizimlar - poyabzallarning qulayligi va sog‘lomligini yangi darajaga olib chiqmoqda. Bu esa iste’molchi talabini yanada yuqori sifat bilan qondirish imkonini beradi. Umuman olganda, charm-poyabzal sanoatidagi innovatsion o‘zgarishlar - bu faqat texnologik yangilanish emas, balki butun ishlab chiqarish falsafasining o‘zgarishidir. Innovatsiya bu yerda sifat, ekologiya, dizayn va raqamli texnologiyalar uyg‘unligini ifodalaydi.

Xulosa va takliflar. Bugungi globallashuv va raqobat sharoitida charm-poyabzal sanoatini zamonaviy talablarga mos tarzda rivojlantirish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda bu tarmoqda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan. Charm-poyabzal sohasidagi innovatsiyalar — bu faqat texnik yangiliklar emas, balki ekologiya, iqtisodiyot va dizaynning uyg‘unlashgan rivojlanishidir. Innovatsion yondashuvlar nafaqat mahsulot sifatini oshiradi, balki ishlab chiqarish samaradorligini ko‘paytirib, xalqaro raqobatda ustunlik beradi.

Adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoev 24 yanvar charm-poyabzal sanoatidagi ustuvor vazifalar muhokamasi 499 yuzasidan o‘tkazilgan yig’ilishdagi nutqi.

2. Charm va mo‘yna texnalogiyasi /M.Temirova; T.Qodirov; Toshkent “Turon-Iqbol”.: 2005.

3. https://uz.wikisko.ru/wiki/leather.

4. Цицеров В. Д. Анализ финансовой устойчивости предприятия // Молодой ученый. 2022. № 20 (415). С. 527–528. URL: https://moluch.ru/archive/415/91700/ (дата обращения: 10.06.2025).

5. Нармаматов И. Б. Обеспечение ликвидности и финансовой устойчивости компаний в Республике Узбекистан // Экономика и социум. 2024. № 4-2 (119). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/obespechenie-likvidnosti-i finansovoy-ustoychivosti-kompaniy-v-respublike-uzbekistan 10.06.2025).

6. (дата обращения: Хазраткулова Л. Н. Оценка эффективности управления денежными потоками на предприятии // Парадигмы управления, экономики и права. 2023. № 2. С. 68–77. URL: https://paradigmy34.ru/issues/2023_02/Hazratkulova.pdf (дата обращения: 10.06.2025).

7. Эргашева Ф. Экономическая сущность финансовой устойчивости страховых компаний в Республике Узбекистан: особенности её определения // Экономическое развитие и анализ. 2024. Т. 2, № 1. С. 579–585. URL: https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/45040 (дата обращения: 10.06.2025).

INNOVATSION FAOLIYAT JARAYONIDA MOLIYAVIY HOLATNI TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH, MOLIYAVIY OQIMLARNI BOSHQARISH

Umarova Nilufar Abdukaxor qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Innovatsion menejment kafedrasi Phd, katta o‘qituvchi

So‘nggi yillarda butun dunyoda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashda innovatsion faoliyatning ahamiyati keskin ortib bormoqda. Xususan, 2023–2025-yillarda ham global iqtisodiy siyosat, ham milliy rivojlanish strategiyalarida innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish masalalari ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Innovatsion faoliyatning samaradorligi bevosita moliyaviy resurslarning yetarliligi, ularning oqilona taqsimlanishi va barqaror boshqaruv tizimiga bog‘liqdir. Shu bois innovatsion menejment fanining alohida sohasi sifatida moliyaviy oqimlarni tahlil qilish va prognozlash muhim nazariy-amaliy yo‘nalishga aylangan.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ham innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish jarayoni jadallashmoqda. 2023-yilda qabul qilingan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Innovatsion rivojlanish strategiyasi”da innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, startaplarni qo‘llab-quvvatlash, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish alohida belgilab berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan 2024-yilda ishlab chiqilgan hisobotlarda milliy innovatsion tizimda moliyaviy barqarorlikni ta’minlash eng muhim ustuvor vazifalardan biri sifatida qayd etilgan.

Jahon tajribasi ham shuni ko‘rsatadiki, innovatsion faoliyatni moliyaviy jihatdan samarali boshqarish iqtisodiy o‘sishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, OECD 2024-yil ma’lumotlariga ko‘ra, innovatsion loyihalarga kiritilgan har bir 1 AQSH dollari o‘rtacha 2,5 AQSH dollarlik yalpi ichki mahsulot o‘sishini ta’minlaydi. Shu bois moliyaviy resurslarni oqilona boshqarish, risklarni kamaytirish va aniq prognozlash mexanizmlarini qo‘llash innovatsion rivojlanishning kafolati sifatida qaraladi.

Mavzuning dolzarbligi, avvalo, innovatsion faoliyatning moliyaviy ta’minotidagi ziddiyatli holatlar bilan belgilanadi. Bir tomondan, davlat innovatsion loyihalarga katta mablag‘ ajratmoqda, xalqaro kredit liniyalari va grantlar jalb qilinmoqda. Masalan, 2025-yilda Jahon banki tomonidan O‘zbekistonda innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun 200 million AQSH dollarlik yangi dastur e’lon qilingan. Ikkinchi tomondan esa, moliyaviy oqimlarni boshqarishda shaffoflik yetishmasligi, byudjet mablag‘larini samarasiz ishlatish yoki startaplarning moliyaviy savodxonligi pastligi kabi muammolar mavjud.

Innovatsion faoliyat jarayonida moliyaviy holatni tahlil qilish va prognozlashning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir. Bu, birinchi navbatda, moliyaviy resurslarning to‘g‘ri yo‘naltirilishini, risklarning minimallashtirilishini va bozor ehtiyojlariga mos keladigan innovatsion mahsulotlar yaratishni ta’minlaydi. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy oqimlarni boshqarish innovatsion menejment tizimining ajralmas bo‘lagi bo‘lib, zamonaviy iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyatini belgilovchi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ham innovatsion faoliyat moliyalashtirish mexanizmlariga yangicha yondashuvni talab etmoqda. 2023-yildan boshlab O‘zbekistonda “Digital Economy – 2030” dasturi doirasida raqamli moliyaviy xizmatlar keng joriy etilmoqda. Masalan, blokcheyn asosidagi investitsion platformalar, kraudfanding tizimlari va fintex kompaniyalari innovatsion loyihalarning moliyaviy oqimlarini yanada shaffof va samarali boshqarish imkonini bermoqda.

Xalqaro tajriba ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Germaniya, Janubiy Koreya va Singapurda 2023–2024-yillarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning yangi mexanizmlari joriy qilindi. Jumladan, Singapurda startaplar uchun “Government Venture Fund” orqali 500 million AQSH dollarlik investitsiya dasturi ishga tushirildi (OECD, 2024). Bu tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, davlat, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlarning hamkorlikdagi moliyaviy mexanizmlari innovatsion rivojlanishning eng samarali omili hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatda moliyaviy holatni tahlil qilish va prognozlash, shuningdek, moliyaviy oqimlarni samarali boshqarish iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. 2023–2025-yillarda O‘zbekistonda qabul qilingan islohotlar moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, shaffoflikni ta’minlash va davlat-xususiy sherikchiligini kengaytirishga qaratilgan bo‘lib, innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlashda muhim asos yaratmoqda.

Shu bilan birga, startaplarning moliyaviy savodxonligini oshirish, risklarni kamaytirish mexanizmlarini joriy etish va raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali mavjud muammolarni bartaraf etish zarur. Xalqaro tajribaga asoslangan holda, venchur kapital va kraudfanding kabi yangi moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish innovatsion iqtisodiyotni yanada kuchaytiradi.

Adabiyotlar:

1. *Rasulova, N. N. (2023). Innovatsion menejment – samaradorlikni oshirish tizimi sifatida. Science and Education, 4(2), 1568–1572.*
2. *Bahodir Goyibnazarov, Zarina Rustambekovna (2024). Mehnat bozorini axborot bazasini statistik hisobga olish jarayonlari. Torn 5 № 1 Special Issue, Eurasian Journal of Academic Research (EJAR), 19–22. In Academy*
3. *Ro‘zali Alixonov (2024). Davlat qarzi va uning xalqaro investitsiyalarga ta’siri. Torn 5 № 1 Special Issue, Eurasian Journal of Academic Research (EJAR), 14–15. In Academy*
4. *Gulmira Axmadjonova (2024). O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish zarurati: tahlil va istiqbollar. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(8), 9–17. sci-p.uz*
5. *Abbos Bekmurodov (2024). Tijorat banklarining xalqaro transformatsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirishda bank ekotizimini shakllantirishning dolzarb yo‘nalishlari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(8), 18–24. sci-p.uz*
6. *Ziyodullobek Bahodirov & Zafar Shukurov (2024). Moliiyaviy natijalarni tushunish: tahlil va audit nuqtai nazari. XXI asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta’lim taraqqiyotidagi dolzarb muammolar, konferensiya materiallari, 93–97.*
7. *www.lex.uz*
8. *https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsion-loyihalarni-moliyalashtirishning-mohiyati-va-mazmuni*
9. *https://documents1.worldbank.org/curated/en/099061525134522000/pdf/P170206-d58de1ba-b868-4160-b487-20f6388704f7.pdf?utm_source=chatgpt.com*

INNOVATSION FAOLIYATNING MOLIYAVIY OQIMLARINI PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK YONDASHUVNING AHAMIYATI

Baxodirov No‘monxon Kamolxonovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti
katta o‘qituvchisi, i.f.f.d., (PhD).

So‘nggi yillarda mamlakatimizda innovatsion faoliyatni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatimizda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, raqobatbardosh ishlab chiqarishni kengaytirish va yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlarni yaratishda ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish muhim o‘rin tutmoqda. Innovatsion loyihalar asosan energetika, qishloq xo‘jaligi, raqamli texnologiyalar, sog‘liqni saqlash va transport-logistika sohalarida amalga oshirilmoqda.

Bundan shuni tushunish mumkinki, innovatsion faoliyat zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning poydevori, milliy raqobatbardoshlikning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Har qanday innovatsion tashabbusning muvaffaqiyati, avvalo, uning moliyaviy ta’minoti va resurslardan oqilona foydalanish darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois, innovatsion faoliyatning moliyaviy oqimlarini tahlil qilish va ularni aniq prognozlash iqtisodiy siyosatni shakllantirish, investitsion qarorlar qabul qilish hamda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion loyihalar o‘z mohiyatiga ko‘ra yuqori tavakkalchilik, uzoq muddatli qaytish davri va noaniqlik darajasi bilan ajralib turadi. Bu esa ularning moliyaviy oqimlarini boshqarish va bashoratlashda an’anaviy statistik va deterministik modellarning imkoniyatlarini cheklaydi. Mazkur sharoitda iqtisodiy tizimlardagi murakkab, chiziqli bo‘lmagan va dinamik o‘zgarishlarni hisobga oluvchi ilg‘or modellashtirish yondashuvlariga ehtiyoj ortib bormoqda. Ayniqsa, innovatsion iqtisodiyot sharoitida moliyaviy oqimlarni prognozlash investitsion resurslarning samarali taqsimlanishini, innovatsion loyihalarning foydalilik darajasini va ularning iqtisodiyotga ta’sirini aniqlash uchun zarur vosita hisoblanadi.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida “bilimga asoslangan iqtisodiyot” konsepsiyasi rivojlanib, innovatsion jarayonlar iqtisodiy o‘sishning yangi drayveriga aylanib ulgurdi. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data) va bulutli hisoblash tizimlarining keng joriy etilishi iqtisodiy faoliyatning barcha sohalariga, jumladan, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish jarayonlariga ham o‘zining sezilarli ta’sirini ko‘rsatmoqda. Shunday bir sharoitda iqtisodiy modellar nafaqat statistik ma’lumotlarga, balki real vaqt rejimidagi o‘zgaruvchan sharoitlarga ham moslashuvchan bo‘lishi talab etiladi.

An’anaviy iqtisodiy tahlil usullari va regressiya, korrelyatsiya hamda trend modellari - ko‘plab holatlarda ma’lumotlardagi noaniqlik, beqarorlik va sub’ektiv omillarni to‘liq hisobga olmaydi. Shu sababli zamonaviy ilmiy izlanishlarda fuzzy regressiya, Bayes ehtimollik modellari, vektorli avtokorrelyatsiya (VAR) modellari, sistemali dinamik modellar tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda. Bunday yondashuvlar yordamida innovatsion faoliyatdagi moliyaviy oqimlarning vaqt bo‘yicha o‘zgarishi, ularning asosiy omillar bilan bog‘liqligi hamda bashoratdagi xatolik darajasi chuqur tahlil qilinadi.

Shuningdek, bugungi kundagi global iqtisodiy beqarorlik, valyuta kurslarining tebranishi, investitsion xavf omillari va texnologik innovatsiyalarning o‘zgarish tezligi moliyaviy oqimlarning noaniqligini yanada kuchaytirmoqda. Shu bois, innovatsion faoliyatda moliyaviy oqimlarni prognozlashda moslashuvchan, noaniqlikka chidamli va statistik barqaror modellarni qo‘llash zarurati tug‘iladi.

Ushbu maqolada innovatsion faoliyat moliyaviy oqimlarini prognozlash jarayonida iqtisodiy noaniqliklarni hisobga oluvchi, zamonaviy ekonometrik yondashuvlar asosida moslashuvchan modellarni taklif etish hamda ularning nazariy asoslarini va amaliy afzalliklarini tahlil qilishdan iboratdir. Mavzuning dolzarbligi shundaki, u nafaqat yangi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishning nazariy jihatlari, balki innovatsion iqtisodiyotga o‘tishda resurslardan oqilona foydalanish, risklarni kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash kabi amaliy masalalarga ham yechim taklif etiladi.

Moliyaviy oqimlarni prognozlashda qo‘llaniladigan metodologik asoslar odatda deterministik modelga tayanadi. Biroq, innovatsion faoliyat tabiatiga ko‘ra noaniq, dinamik, va ko‘p omilli tizim hisoblanadi. Shu sababli, an’anaviy regressiya tahlili bunday murakkab tizimlarni ifodalashda chegaralangan bo‘ladi.

Mazkur holatda noan’anaviy ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanish taklif etiladi. Bundan asosiy maqsadi – noaniqlik va o‘zgaruvchanlikni modellashtirishda moslashuvchanlikni ta’minlashdir. Bunda quyidagi usullar samarali natija beradi:

-fuzzy (noaniq) regressiya – bu yondashuv o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni aniq sonlar emas, balki ishonchlilik darajasi bilan ifodalaydi. Bu usul investitsiya oqimlarida mavjud bo‘lgan tavakkalchilik va sub’ektiv qarorlarni hisobga oladi;

-Bayes regressiyasi – ehtimollik asosida qurilib, yangi ma’lumotlar paydo bo‘lishi bilan prognoz natijasini yangilab boradi. Bu usul uzoq muddatli strategik rejalashtirish uchun qulaydir;

-vektorli avtokorrelyatsiya (VAR) – bu model moliyaviy oqimlar va ularni belgilovchi omillar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi nazariy jihatdan tavsiyalar ishlab chiqishga yo‘naltirilgan bo‘lib, modellashtirishning tamoyillarini umumlashtirish orqali iqtisodiy bashoratlash tizimini takomillashtirishni ko‘zda tutadi.

Tahliliy yondashuvlar asosida o‘rganilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion faoliyatning moliyaviy oqimlarini prognozlashda noan’anaviy ekonometrik modellar an’anaviy statistik yondashuvlarga nisbatan ancha yuqori aniqlik va moslashuvchanlik darajasini ta’minlaydi. Innovatsion faoliyatda ham moliyaviy oqimlar yuqori tavakkalchilik va noaniqlik ostida shakllanadi, shu sabab bu yondashuv prognoz aniqligini oshirish uchun mos keladi [1]. An’anaviy regressiya yoki korrelyatsion modellar ko‘pincha chiziqli bog‘liqliklarni tahlil qilish bilan cheklanadi va ma’lumotlardagi noaniqlik, risk yoki sub’ektiv baholarni inobatga olmaydi. Shunday ekan, innovatsion jarayonlar tabiatan noaniq, murakkab va ko‘p omilli tizim hisoblanadi. Shu sababli, fuzzy regressiya, Bayes yondashuvi, vektorli avtokorrelyatsiya (VAR) modellar iqtisodiy bashoratlashda yuqori natijalar beradi.

Empirik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘zgaruvchanlik darajasi yuqori bo‘lgan davrlarda, ayniqsa, fuzzy regressiya modellari eng barqaror prognozlarni ta’minlaydi. Innovatsion loyihalar investitsiyalari, grantlar yoki startaplar oqimi kabi turbulent moliyaviy muhitlarda fuzzy modellar samaraliroq natija beradi [2]. Bunday

holatlarda model parametrlarining aniqligi aniq raqamlar emas, balki ishonchlilik oralig‘i orqali ifodalanadi. Bu esa moliyaviy oqimlarning noaniqlik va tavakkalchilik darajasini tahlil qilishga imkon yaratadi. Masalan, innovatsion loyihalarning investitsiya oqimlari, foyda marjasi yoki qaytish muddati bo‘yicha “optimistik”, “realistik” va “pessimistik” ssenariylar fuzzy modelida bir vaqtning o‘zida baholanadi.

Shuningdek, Bayes yondashuvi natijalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu model qaror qabul qilish jarayonida yangi ma’lumotlar paydo bo‘lishi bilan o‘z parametrlarini doimiy ravishda yangilab boradi. Natijada, moliyaviy oqimlarni real vaqt rejimida moslashtirish, yangi iqtisodiy sharoitlarga tez javob berish va bashoratdagi xatolikni kamaytirish imkoniyati yuzaga keladi. Bayes modeli, ayniqsa, innovatsion siyosat doirasidagi resurs taqsimoti va investitsiya oqimlarini dinamik baholashda foydali hisoblanadi.

VAR (Vector Auto Regression) modeli esa tahlil jarayonida o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi vaqtli bog‘liqlikni aniqlash imkonini berdi. Moliyaviy oqimlar ko‘p hollarda vaqt qatorlari shaklida bo‘lganligi uchun, bu yondashuvlar moliyaviy oqimlarni bashoratlashda qo‘llanilishi mumkin [3]. Bu yondashuv orqali, masalan, davlat tomonidan innovatsion fondlarga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmining keyingi yillarda innovatsion mahsulot ishlab chiqarish yoki eksport ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘lchash mumkin bo‘ldi. VAR modeli innovatsion siyosatning kechikkan ta’sirlarini aniqlashda yuqori samaradorlik ko‘rsatdi. Bu esa innovatsion faoliyat natijalari qisqa muddatda emas, balki o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, tahlillar ko‘rsatdiki, ko‘p usulni integratsiyalashgan modellashtirish tizimlari – ya’ni fuzzy–Bayes, VAR–ANN yondashuvlari eng yuqori aniqlikdagi prognoz natijalarini bergan. Ushbu integratsion modellar bir-birining kamchiliklarini to‘ldiradi: fuzzy modellar noaniqlikni, Bayes usuli dinamik yangilanishni, VAR esa vaqt omilini, ANN esa ma’lumotlar orasidagi yashirin chiziqsiz bog‘liqliklarni aniqlaydi. Natijada, bu usullar yordamida nafaqat moliyaviy oqimlarning miqdoriy bashorati, balki ishonchlilik darajasi, risk ko‘rsatkichlari va iqtisodiy barqarorlik kabi sifat jihatlari ham baholanishi mumkin bo‘ladi. Tadqiqotlchilar tomonidan fuzzy yondashuvlari yordamida noaniqlik, risk va bozor tebranishlarini modelga kiritish orqali prognoz aniqligini 10–15 foizga oshirish mumkinligi aniqlangan [4]. Bu, o‘z navbatida, innovatsion siyosatni rejalashtirishda moliyaviy oqimlarni yanada aniqroq prognozlash, investitsion risklarni minimallashtirish va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Fuzzy va Bayes modellarining birgalikda qo‘llanilishi prognoz natijalarining ishonchliligini oshiradi, chunki biri noaniqlikni, ikkinchisi esa ehtimollikni modellashtiradi. VAR modellari esa vaqt bo‘yicha kechikkan ta’sirlarni aniqlashga yordam beradi, bu esa moliyaviy oqimlarni boshqarishda dolzarb hisoblanadi.

Shuningdek, innovatsion faoliyatni moliyalashtirishni samarali boshqarish uchun gibrid modellar yaratish tavsiya etiladi. Masalan, fuzzy regressiya va sun’iy neyron tarmoqlarni birlashtirish orqali inson qarorlari bilan mashina o‘rganish algoritmlarining ustun jihatlarini uyg‘unlashtirish mumkin. Bu model real vaqt rejimida o‘zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga moslashadi va strategik rejalashtirishga ilmiy asos yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘rganilgan tahlil natijalari innovatsion faoliyatning moliyaviy oqimlarini baholashda noan’anaviy, integratsion va moslashuvchan ekonometrik modellarni qo‘llashning ustunligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Bu

yondashuvlar kelgusida innovatsion iqtisodiyotda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, risklarni kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi hamda innovatsion faoliyat moliyaviy oqimlarini prognozlashda noan’anaviy, moslashuvchan va intellektual ekonometrik modellarni joriy etish iqtisodiy siyosatni yanada asosli, iqtisodiy xatarlarga bardoshli va barqaror holatini saqlashga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. *Moussa A. M., Sadefo-Kamdem J. (2022). A fuzzy multifactor asset pricing model. Annals of Operations Research, 313(2), 1221–1241.*
2. *Sanchez-Roger M., Martinez J. M., Llamazares-Redondo D. (2019). Fuzzy logic and its uses in finance: A systematic review. Mathematics, 7(11), 1091.*
3. *Alsharef A., Aggarwal K., Sonia S., Kumar M., Mishra A. (2022). Review of ML and AutoML solutions to forecast time-series data. Archives of Computational Methods in Engineering, 29, 5297–5311.*
4. *Jia Y., Chen L., Wu Z. (2024). Application of artificial intelligence based on fuzzy logic for market revenue forecasting. Scientific Reports, 14(1), Article 44171.*
5. *Medeiros M. C., Vasconcelos G. F. R., Veiga A., Zilberman E. (2021). Machine learning advances for time series forecasting. Journal of Economic Surveys, 35(5), 1022–1056.*

КОРПОРАТИВ ҚАРОР ҚАБУЛ ҚИЛИШ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН МЕХАНИЗМЛАРНИНГ РОЛИ

Исмаилов Аллаёр Рашидович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
“Инновацион менежмент” кафедраси PhD доцент

Замонавий глобал иқтисодий тизимда рақобат шароити йил сайин кучайиб бораётгани корпоратив бошқарув тизимлари олдига янги ва мураккаб вазифаларни қўймоқда. Хусусан, корпоратив тузилмаларда қарор қабул қилиш жараёни нафақат компаниянинг ички ривожланиш траекториясини белгилайди, балки унинг ташқи бозордаги мавқеини, молиявий барқарорлигини ва инвесторлар ишончини таъминлашда ҳал қилувчи омил ҳисобланади. Қарор қабул қилиш жараёни корпоратив бошқарувнинг марказий элементи сифатида компаниянинг стратегиясини шакллантириш, ресурслардан самарали фойдаланиш ва манфаатдор томонлар ўртасида мувозанатни таъминлашда муҳим аҳамиятга эга.

Бироқ анъанавий усулларда қабул қилинган қарорлар кўп ҳолларда тўлиқ таҳлил қилинмаган маълумотлар, субъектив баҳолашлар ёки ташқи омилларни инобатга олмаслик билан боғлиқ муаммоларни келтириб чиқаради. Шу нуқтаи назардан, инновацион механизмларни жорий этиш корпоратив қарор қабул қилиш жараёнида сифат жиҳатдан янги босқични англатади. Инновацион механизмлар қаторига интеллектуал таҳлил воситалари, сценарий моделлаштириш, прогнозлаштириш технологиялари, жамоавий фикрлар асосида ечим топиш ва инновацион ташкилий усуллар киради. Улар орқали раҳбарият қарор қабул қилишда тезкорликка, аниқликка ва хавф-хатарларни олдиндан баҳолаш имкониятига эга бўлади.

Корпоратив бошқарувнинг илғор халқаро амалиётида инновацион механизмлардан фойдаланиш орқали шаффофлик, ҳисобдорлик ва манфаатдор

томонларнинг иштирокини таъминлашга катта эътибор қаратилмоқда. Бу эса қарор қабул қилиш жараёнининг фақатгина раҳбарият даражасида эмас, балки барча иштирокчилар учун очиқ ва самарали бўлишини кафолатлайди. Шу билан бирга, миллий корпоратив бошқарув тизимида ҳам инновацион ёндашувларни жорий этиш орқали ички имкониятларни тўлиқ ишга солиш, инвестиция муҳитини яхшилаш ва халқаро корпоратив стандартларга мослашиш имкони яратилади.

Корпоратив қарор қабул қилиш — бу маълумот тўплашдан тортиб, муқобил вариантларни яратиш, баҳолаш, танлаш, амалга ошириш ва мониторинг қилишгача бўлган жараёндир. Қарор сифати ушбу босқичларнинг ҳар биридаги ахборотнинг тўлиқлиги, баҳолашнинг объективлиги, жавобгарликнинг аниқлиги ва бажарувнинг самарадорлигига боғлиқ. Инновацион механизмлар шу маҳаллий институтлар ва жараёнларни такомиллаштириш орқали қарорлар сифатини, уларнинг шаффофлигини ва амалга ошиши даражасини яхшилайди.

Инновацион механизмлар деб қарор қабул қилиш жараёнини стратегияга яқинлаштирувчи, жавобгарликни кучайтирувчи ва қарорларнинг самарадорлигини оширувчи янги институционал, ташкилий ва методологик ечимлар тушунилади. Улар тизимли равишда ташкилот маданияти, бошқарув структураси ва ички назорат тизимини ўзгартириш билан боғлиқ бўлади.

Асосий инновацион механизмлар ва уларнинг вазифалари

- Ҳозирги имкониятлардан келажак сценарийларини жорий этиш — қарор қабул қилишда турли шароитларга тез мослашадиган стратегиялар яратиш имконини беради. Мақсад — ноаниқликларга тайёргарлик ва стратегик таъсирни олдиндан баҳолаш.
- Қайси қарор ким томонидан ва қай тартибда қабул қилиниши аниқ белгиланган бўлиши керак. Бу тезкорликни оширади ва масъулиятни оптимал тақсимлайди.
- Манфаатдорлар, экспертлар ва ички ходимларнинг тизимли иштирокини таъминловчи кенгашлар, эксперт панеллар мухокама платформалари қарорлар сифатини бойитади ва ижтимоийликни кучайтиради.
- Қабул қилинган қарорларнинг охирги натижалари ва жараёнларини таҳлил қилувчи тизимли текширувлар — қайси жараёнларда хатога йўл қўйилганини аниқлайди ва жавобгарликни оширади.
- Қарорларнинг этик ва рисков жиҳатларини илгари сурган қўмита ёки кенгашлар компаниянинг жамоатчиликка жавобгарлигини оширади.
- Тезкор ва мураккаб муаммоларда доимий командадан кўра кросс-функционал, вақтинчалик топшириқ гуруҳлари самаралироқ ишлайди — бу янги масалаларга мослашувчанликни таъминлайди.
- Юридик, ижтимоий ва муҳандислик экспертларининг кузатуви ва ташаббуслари қарорларнинг барқарорлиги ва қабул қилиниши даражасини яхшилайди.
- Ҳар бир стратегик қарорнинг «кейинги ўрганиши» — тажрибани тизимлаштириш ва келажакда яна шунга ўхшаган хатоларни камайтиришга хизмат қилади.

Механизмларни жорий этиш бир вақтда институционал ўзгаришни, вазифалар ва мажбуриятлар қайта тақсимланишини ва кадрлар салоҳиятини оширишни талаб қилади. Жорий этиш жараёни одатда қуйидаги элементларни

ўз ичига олади. Ҳозирги қарор жараёнларини диагностика қилиш, мақсадлар белгиланиши, пилот лойиҳалар ўтказиш, натижаларни баҳолаш ва кенгайтириш. Ҳар бир босқичда аниқ KPIлар, масъул шахслар ва муддатлар белгиланиши керак.

Қарор сифатини баҳолаш учун метрикалар (KPI) ва ўлчовлар.Қарор жараёнини баҳолаш учун таклиф этиладиган индикаторлар; қарорни қабул қилиш вақти, қарорларнинг амалга оширилиши даражаси, қарорни қайта кўришлар сони, қарор натижаларига бағишланган молиявий/стратегик кўрсаткичларнинг мос келиши, стейкхолдерлар қониқиши, ички аудитда қайд этилган камчиликлар сони ва жавобгарликка тортиш ҳолатлари. Бу индикаторлар орқали жорий этилган механизмларнинг таъсири аниқланади.

Инновацион механизмларнинг таъсирини ўрганишда аралаш методология тавсия этилади. Регрессив таҳлил, интервьюлар, фокус-группа орқали нима учун ва қандай шароитларда механизмлар самарали бўлганини аниқлаш мумкин. Бундан ташқари, тармоқ таҳлили қарор қабул қилишдаги коммуникация моделларини такомиллаштиришда муҳим ўрин тутади.

Инновацион механизмларни жорий этишда рақобат шароити, манфаатлар тўқнашуви, меъёрий-ҳуқуқий асосларнинг мувофиқ бўлмаслиги, ҳамда ходимлар қаршилиги каби хавфлар мавжуд.

Ташкилотлар аввалambор ҳозирги қарор жараёнини объектив диагностика қилиб олиши, кейин эса лойиҳалар орқали механизмларни синовдан ўтказиши лозим. Бошқарув кенгаши ва юқори раҳбариятдан бошланган қўллаб-қувватлаш, очиқ коммуникация, малакали кадрларга инвестиция қилиш ва ички аудитнинг мустақиллиги инновацион механизмларни жорий этиш муваффақиятининг асосий омилларидир. Давлат миқёсида эса корпоратив бошқарув стандартлари ва корпоратив бошқарув кодексларини янгилаш, стейкхолдер иштирокини рағбатлантирувчи механизмларни жорий этиш мақсадга мувофиқ.

Хулосақилиб айтиш мумкинки,инновацион механизмлар корпоратив қарор қабул қилиш сифати ва самарадорлигини бир қатор жиҳатлардан яхшилайди: стратегия билан уйғунлик, жавобгарликнинг ошиши, рискларнинг олдиндан баҳоланиши ва стейкхолдерлар ишончининг кучайишини таъминлайди.

Корпоратив тузилмаларда қарор қабул қилишда ваколатлар, масъулият ва жавобгарлик аниқ тақсимланиши лозим.

Корхоналар стратегик қарорлар қабул қилишдан олдин турли сценарийларни таҳлил қилиши ва хавф-хатарларни олдиндан баҳолаши мақсадга мувофиқ. Бу корпоратив стратегияларнинг узоқ муддатли барқарорлигини таъминлайди.

Шаффофлик ва жавобгарликни ошириш учун акциядорлар, ходимлар ва ташқи стейкхолдерларнинг иштирокини таъминловчи механизмлар йўлга қўйилиши лозим. Масалан, корпоратив кенгаш таркибида мустақил аъзолар улушини ошириш.

Қабул қилинган қарорларнинг самарадорлиги ва уларнинг натижалари доимий равишда таҳлил қилиниши керак. Бу қайта хатоларга йўл қўймаслик ва қарор жараёнини такомиллаштиришга хизмат қилади.

Мураккаб ва тезкор қарорлар учун турли бўлим ва соҳалардан мутахассислар иштирокида жамоалар ташкил этиш самарадорликни оширади. Бу инновацион ечимларнинг амалий қўлланилишини тезлаштиради.

Қарор қабул қилиш жараёнида корпоратив қадриятлар, шаффофлик ва жавобгарлик асосий мезон сифатида белгиланиши керак. Қарор қабул қилиш жараёнида иштирок этувчи раҳбарлар ва мутахассислар инновацион усуллар, риск-менежмент ва сценарий таҳлили бўйича мунтазам равишда ўқитилиши керак.

Адабиётлар;

1. *Veselovsky, Mikhail Yakovlevich, et al. "System approach to achieving new quality of corporate governance in the context of innovation development." Calitatea 19.163 (2018): 30-36.*
2. *Brennan N. M., Solomon J. Corporate governance, accountability and mechanisms of accountability: an overview //Accounting, Auditing & Accountability Journal. – 2008. – Т. 21. – №. 7. – С. 885-906.*
3. *Ramanna, Karthik. "A framework for research on corporate accountability reporting." Accounting Horizons 27.2 (2013): 409-432.*
4. *Veselovsky, M. Y., Izmailov, M. A., Bogoviz, A. V., Lobova, S. V., & Alekseev, A. N. (2018). Innovative solutions for improving the quality of corporate governance in Russian companies. Calitatea, 19(162), 60-66.*
5. *Reich R. B. Corporate Accountability and Regulatory Reform //Hofstra L. Rev. – 1979. – Т. 8. – С. 5.*

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, RAQAMLI MONITORING VA EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA PUL BOZORI LIKVIDLIGINI PROGNOZLASH VA MOLIYAVIY OQIMLARNI BOSHQARISH: O‘ZBEKISTON BANK TIZIMIDA LIKVIDLIK PROFITSITI VA RISKLAR TAHLILI

Xoldorov Sardor Umarovich
PhD., TDIU katta o‘qituvchisi

O‘zbekiston iqtisodiyoti globalizatsiya va raqamli transformatsiya jarayonlarida barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu moliya sektori uchun yangi imkoniyatlar va muammolarni birgalikda keltirib chiqarmoqda. Bank tizimining likvidlik holati va pul bozori dinamikasi iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi, ayniqsa innovatsion faoliyat jarayonida moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi [1]. So‘nggi yillarda global iqtisodiy noaniqliklar, jumladan, inflyatsiya bosimi, valyuta kursi tebranishlari va geosiyosiy xavflar, bank tizimining likvidlik boshqaruviga qo‘shimcha yuklamalar qo‘ygan. 2025-yilda O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanish strategiyasi doirasida raqamli texnologiyalardan foydalanish va ekonometrik modellar orqali moliyaviy oqimlarni optimallashtirish dolzarb masalaga aylangan. Ushbu maqola O‘zbekiston bank tizimida likvidlik profitsitining dinamikasini tahlil qilish, raqamli monitoring va ekonometrik usullar yordamida 2025-yil istiqbollari uchun prognozlar ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – innovatsion yondashuvlar orqali bank tizimining chidamliligini oshirish va moliyaviy risklarni kamaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar taqdim etishdir. Maqola simulyatsiya natijalariga asoslangan holda akademik jihatdan chuqur tahlilni o‘z ichiga oladi va xalqaro tajribaga moslashtirilgan yechimlarni ko‘rib chiqadi.


Tadqiqotda raqamli monitoring usuli yordamida real vaqt rejimida likvidlik holatini kuzatish uchun sun’iy intellekt asosidagi algoritmlar, xususan, mashinaviy o‘qitish modullari sintez qilinib, navbatdagi operatsiyalar hajmi va foiz stavkalarini bashorat qilishda qo‘llanilgan bo‘lsa, ekonometrik modellar, jumladan Vector

Autoregression (VAR) va Autoregressive Integrated Moving Average (ARIMA) usullari yordamida likvidlik profitsiti va pul bozori dinamikasini tahlil qilish uchun vaqt seriyalari o‘rganilgan, bu modellar 2020-2024-yillarga oid takribiy ma’lumotlarga asoslanib kalibratsiya qilinib, 2025-yil uchun simulyatsiyalar o‘tkazilgan; shu bilan birga, risk baholash jarayonida Value-at-Risk (VaR) usuli orqali likvidlik va kredit risklari kvantitativ baholangan va stress-testlar amalga oshirilgan, bunda O‘zbekiston bank tizimining shartli ma’lumotlari (likvidlik profitsiti o‘rtacha 20 trln so‘m, foiz stavkalari 12-14% diapazoni) va xalqaro ma’lumotlar bazalari [1,2] asosida sintetik dataset ishlab chiqilgan; tahlil 95% ishonch oraliqda amalga oshirilib, regressiya modelidagi R^2 ko‘rsatkichi 0,87 ni tashkil etgan, garchi ma’lumotlarning shartli tabiati tufayli natijalarni real vaqt ma’lumotlari bilan tasdiqlash zarurati kabi cheklovlar mavjud.



1-rasm. Likvidlik ko‘rsatkichining 2025-yil oxirigacha prognoz qiymatlari

Manba: *Markaziy bank ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi*



2-rasm. Stress test orqali aniqlangan likvidlik ko‘rsatkichi dinamikasi o‘zgarishi

Manba: *Markaziy bank ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi*

VAR modeli natijalariga ko‘ra, likvidlik profitsiti 2025-yilda o‘rtacha 22 trln so‘mni tashkil etishi kutilmoqda, II chorakda mavsumiy omillardan naqd pullarga bo‘lgan talabning o‘sishi tufayli 20 trln so‘mga pasayishi bashorat qilinadi. ARIMA(1,1,1) modeli foiz stavkalarining tebranishlarini ko‘rsatib [5], UZONIA benchmark stavkasining o‘rtacha 12,5% darajasida barqarorlashishini tasdiqlaydi, ammo 2025-yilda taxminan

8-10% atrofidagi inflyatsiya bosimi tufayli qayta o‘sish xavfi mavjud. Raqamli monitoring tizimi orqali kunlik likvidlik o‘zgarishlari 1-2 soat oldindan aniqlanib, operatsiyalar hajmining 15% ga samarali boshqarilishi mumkin.

Simulyatsiya natijalari REPO operatsiyalarining hajmini 80 trln so‘mdan 75 trln so‘mga qisqartirishni va depozit operatsiyalarini 50 trln so‘mga oshirishni taklif qiladi [4]. VaR tahliliga ko‘ra, likvidlik risksizligi 99% darajada ta’minlangan bo‘lsa-da, valyuta oqimlaridagi dollar kursi o‘zgarishi 5-7% atrofidagi tebranishlar mavjudligi tufayli zaxira kapitali 10% ga oshirilishi lozim. Stress-testlar 2025-yilda neft narxi o‘sishikabi geosiyosiy shoklar ta’sirida likvidlik defitsitining 5 trln so‘mga yetish xavfini ko‘rsatdi [2].

Raqamli monitoring orqali operatsiyalar xarajatlarini 12% ga kamaytirish mumkinligi aniqlangan. Ekonometrik modellar yordamida prognoz xatolari o‘rtacha 3,5% ni tashkil etib, an’anaviy usullarga nisbatan 20% ga yuqori aniqlikni ta’minlaydi [5]. Ushbu usullar bank tizimining chidamliligini oshirishda 2025-yilda ROA ko‘rsatkichini 0,5% ga ya’ni 2,8% dan 3,3% ga oshirishga yordam beradi [4].

Likvidlik profitsitining o‘sishi pul bozori faolligini pasaytirib, foiz stavkalarini 12,5% ga kamaytirishi kutilmoqda, bu iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishi mumkin [4]. Ammo, inflyatsiya bosimi va valyuta xavflari likvidlikni boshqarishda qo‘shimcha choralarni talab qiladi. REPOdan depozitga o‘tish banklararo bozorda muvozanatni oshirsa-da, konsentratsiya indeksi (HH>1000) bozor risksizligiga ta’sir qilishi mumkin. Xalqaro tajribaga qaraydigan bo‘lsak Basel III standartlarida [3] keltirilishicha, LCR va NSFR ko‘rsatkichlari optimallashtirilgan bo‘lsa-da, valyuta intervensiyalari 30% ga kuchaytirish zarur [1]. Innovatsion usullar orqali risklarni oldindan aniqlash 2025-yilda bank tizimining stressga chidamliligini 15% ga oshirishi kutilmoqda [4].

Tadqiqot O‘zbekiston bank tizimida likvidlik va moliyaviy oqimlarni boshqarishda innovatsion texnologiyalarning muhim o‘rinini tasdiqlaydi, chunki raqamli monitoring tizimlari va ekonometrik modellar yordamida real vaqt rejimida aniq prognozlar ishlab chiqish, operatsiyalar samaradorligini oshirish va moliyaviy risklarni sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi; shu sababli, takliflar quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: (1) raqamli infratuzilma sifatida sun’iy intellekt asosidagi monitoring tizimini joriy etish, bu orqali kunlik likvidlik o‘zgarishlarini kamida 1 soat oldindan bashorat qilish; (2) ekonometrik optimallashtirish orqali VAR va ARIMA modellarini muntazam ravishda yangilab, stress-testlarni chorakma-chorak o‘tkazish; (3) kapital zaxiralari darajasini oshirish yo‘li bilan valyuta xavflariga qarshi zaxira kapitalini 10% ga ko‘tarish va likvidlik qoplash nisbatini (LCR) 120% gacha yetkazish; bu choralar birgalikda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qilib, innovatsion faoliyatni moliyaviy jihatdan mustahkamlashtirishga hissa qo‘shadi, shu bilan birga 2025-yil II chorakda simulyatsiya natijalarini real vaqt ma’lumotlari bilan tasdiqlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish kabi istiqbolli yo‘nalishlar kelajakda yanada chuqur o‘rganishni talab etadi.

Adabiyotlar:

1. International Monetary Fund. (2024). Global Financial Stability Report: October 2024. Washington, DC: IMF Publications.

2. World Bank. (2024). O‘zbekiston iqtisodiy monitoringi: 2025-yil prognozlari. Washington, DC: Jahon Banki nashriyoti.

3. Basel Committee on Banking Supervision. (2019). Basel III: The Liquidity Coverage Ratio and liquidity risk monitoring tools. Bank for International Settlements.

4. *O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki. (2024). Pul-kredit siyosati asoslari: 2024-2025 yillik hisobot. Toshkent: Markaziy Bank nashriyoti.*
5. *Gujarati, D. N., & Porter, D. C. (2009). Basic Econometrics. McGraw-Hill Education.*

СОВРЕМЕННЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ И ОПТИМИЗАЦИИ ФИНАНСОВЫХ ПОТОКОВ В УСЛОВИЯХ СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН-2030»

Туляганова Шахноза Самукджановна
PhD, доцент кафедры «Цифровая экономика и финансы»
Ташкентского филиала РЭУ им. Г. В. Плеханова

Цифровая трансформация национальной экономики становится фундаментальным условием развития современного общества. В условиях инновационной экономики особенно актуальным является анализ и прогнозирование финансового состояния предприятий, а также управление финансовыми потоками.

В Узбекистане в последние годы реализуются масштабные реформы, направленные на развитие цифровой инфраструктуры, повышение прозрачности финансовых процессов, внедрение современных ИТ-технологий и формирование инновационной среды. Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № ПФ-158 «О стратегии развития Узбекистана – 2030» определяет цифровизацию и инновационное развитие экономики как приоритетные задачи. В этой связи вопросы совершенствования методов анализа и прогнозирования финансового состояния, а также оптимизации управления финансовыми потоками приобретают особое значение.

Анализ финансового состояния традиционно предполагает оценку ликвидности, платежеспособности, финансовой устойчивости, деловой активности и рентабельности предприятия. Однако в условиях цифровой экономики эти подходы трансформируются. Сегодня используются такие инструменты, как большие данные (Big Data), искусственный интеллект и предиктивная аналитика, которые позволяют моделировать будущее развитие финансовых потоков с учетом изменяющейся рыночной конъюнктуры.

В международной практике широкое распространение получили технологии цифровых двойников предприятий, блокчейн-платформы для учета и контроля транзакций, а также интеллектуальные системы управления финансовыми потоками. Так, в странах ЕС активно используются «умные контракты» на основе блокчейна, позволяющие минимизировать риски и повысить прозрачность сделок.

Опыт Китая демонстрирует, что интеграция цифровых платежных платформ (например, WeChat Pay и Alipay) обеспечивает существенное ускорение финансового оборота и развитие инновационного предпринимательства.

В Узбекистане активно внедряются цифровые технологии в банковской сфере. В частности, развитие национальных платежных систем «UzCard» и «Humo» способствует росту безналичных расчетов. В 2024 году доля безналичных транзакций превысила 60% от общего объема расчетов, что свидетельствует о положительной динамике цифровизации финансового

сектора. Развитие QR-платежей, онлайн-кредитования, а также внедрение мобильных приложений в банковскую практику формируют новый уровень удобства и доступности финансовых услуг.

Несмотря на положительные тенденции, в процессе цифровизации сохраняются определенные проблемы. К ним относятся недостаточный уровень цифровой грамотности населения, ограниченные ресурсы для внедрения современных технологий в малом бизнесе, а также вопросы кибербезопасности. Кроме того, существует потребность в совершенствовании нормативно-правовой базы, регулирующей использование цифровых инструментов в финансовой сфере.

Среди них – недостаточный уровень кибербезопасности, ограниченность цифровой грамотности среди части населения, а также необходимость в дополнительных инвестициях в цифровую инфраструктуру. Кроме того, вопросы стандартизации цифровых решений и их интеграции в международную систему остаются актуальными.

В качестве примера можно привести внедрение QR-платежей в торговле и сфере услуг, что позволило увеличить скорость расчетов и снизить транзакционные издержки. Также можно отметить развитие онлайн кредитования и микрофинансирования через цифровые платформы, что особенно важно для поддержки малого и среднего бизнеса. Банки активно применяют технологии искусственного интеллекта для оценки кредитоспособности заемщиков, что повышает точность прогнозирования и снижает кредитные риски.

Для повышения эффективности анализа и прогнозирования финансового состояния предприятий Узбекистана в условиях цифровизации целесообразно:

-развивать национальные платформы больших данных для финансового анализа;

-внедрять блокчейн-технологии в учетно-отчетные процессы;

-стимулировать банки к использованию искусственного интеллекта для прогнозирования финансовых рисков;

-обеспечивать повышение цифровой грамотности населения;

-развивать партнерство между государственными органами, коммерческими банками и ИТ-компаниями для создания интегрированной цифровой экосистемы.

Цифровая трансформация экономики открывает новые возможности для анализа и прогнозирования финансового состояния предприятий. Опыт Узбекистана показывает, что внедрение цифровых технологий в банковско-финансовый сектор способствует повышению прозрачности, снижению рисков и росту конкурентоспособности. В то же время дальнейшее развитие требует системной государственной поддержки, повышения цифровой грамотности и активного участия бизнеса в инновационных процессах. Таким образом, цифровая трансформация становится не только фактором технологического прогресса, но и стратегическим направлением устойчивого развития национальной экономики.

Цифровая трансформация финансовой системы Узбекистана является важнейшим направлением реализации стратегии «Узбекистан-2030». Современные технологии позволяют существенно повысить

эффективность управления финансовыми потоками, обеспечить прозрачность и устойчивость экономики. При этом важное значение имеет гармонизация национальной политики с международными стандартами, а также разработка механизмов снижения рисков цифровизации. Научные и практические рекомендации, сформулированные в статье, могут быть использованы в процессе разработки государственных и корпоративных стратегий развития финансового сектора.

Литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № ПФ-158 «О стратегии развития Узбекистана – 2030».

2. Ахмедов А.А. Цифровизация экономики: теория и практика. – Ташкент: Фан, 2023.

3. Ходжиев У.Б. Банковская система Узбекистана в условиях цифровой трансформации. – Ташкент: ТГЭУ, 2024.

4. OECD Digital Economy Outlook 2022. – Paris: OECD Publishing, 2022.

5. World Bank. Digital Transformation of Financial Sector in Emerging Markets. – Washington, 2023.

BANK AKTIVLARI SAMARADORLIGI: MILLIY AMALIYOT VA XALQARO TAJRIBA


Xojibekova Zilola Shavkat qizi
TDIU "Bank hisobi va auditi" kafedrasi katta o'qituvchisi

Zamonaviy iqtisodiyotda banklar moliyaviy tizimning asosiy ustuni sifatida faoliyat yuritishi barchamizga ma'lum. Ular real sektor sub'ektlariga investisiya resurslari yetkazib beradi, aholi va biznes uchun esa turli moliyaviy xizmatlarni ko'rsatadi. Banklarning samarali faoliyat ko'rsatishi, eng avval, ularning aktivlaridan qay darajada samarali foydalana olishlari bilan belgilanadi. Shu sababdan, bank aktivlari samaradorligini baholash ilmiy-nazariy jihatdan ham, amaliyot nuqtai nazaridan ham dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Bank tizimida barqarorlik va shaffoflikni ta'minlamasdan turib, iqtisodiyotda samarali islohotlarni amalga oshirish mumkin emas". Ushbu fikrdan kelib chiqib, milliy bank tizimida aktivlarni samarali boshqarish masalasi strategik ahamiyatga ega.

Bank aktivlari – bu moliyaviy institutning iqtisodiy resurslari hisoblanib, ular bankning asosiy faoliyat yo'nalishlarida daromad keltiruvchi vositalardir. Boshqacha qilib aytganda, aktivlar bankning kredit berish, investisiya qilish, hisob-kitob xizmatlari ko'rsatish, shuningdek, likvidlikni ta'minlash jarayonlarida asosiy moliyaviy manba sifatida xizmat qiladi. Ular tarkibiga quyidagilar kiradi:

Kreditlar – bank aktivlarining eng katta qismini tashkil etadi. Ular tijorat banklari uchun asosiy daromad manbai hisoblanadi, ammo kredit risklari yuqori bo'lishi bilan tavsiflanadi.



1-rasm. Samaradorlikni baholashda keng qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar

Manba: *Muallif tadqiqotlari asosida shakllantirilgan*

Qimmatli qog‘ozlar – davlat va korporativ obligasiyalar, aksiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlar. Ular diversifikasiya orqali riskni pasaytiradi.

Pul mablag‘lari – naqd va hisob-kitobdagi mablag‘lar likvidlikni ta'minlaydi.

Moddiy va nomoddiy aktivlar – bank binolari, texnologiya vositalari va lisenziyalar. Ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri foyda keltirmasada, bankning infratuzilmasini ta'minlaydi.

Bank aktivlari samaradorligi – bu aktivlardan qanchalik unumli foydalanilayotganini ko‘rsatuvchi kompleks tushuncha bo‘lib, quyidagi jihatlarni qamrab oladi:

- Samaradorlik – aktivlardan qanchalik sof foyda olinayotgani.
- Likvidlik – aktivlarni tez va minimal yo‘qotishlar bilan pulga aylantirish imkoniyati.
- Xavfsizlik – aktivlarning kredit risklari va bozor o‘zgarishlariga chidamliligi.
- Sifat – aktivlar tarkibida muammoli kreditlar ulushi pastligi va yuqori likvidli aktivlarning ko‘pligi.

Mazkur ko‘rsatkichlar bank aktivlari qanchalik samarali boshqarilayotganini ko‘rsatib beradi.

ROA (Return on Assets) – aktivlardan olinayotgan foyda darajasi. Bu ko‘rsatkich bankning umumiy aktivlari qay darajada samara bilan ishlatilayotganini ko‘rsatadi. Masalan, agar bankning ROA ko‘rsatkichi 1% atrofida bo‘lsa, demak, har 100 so‘m aktivdan 1 so‘m sof foyda olinayotgani anglashiladi. Xalqaro amaliyotda ROA 0,5–2% atrofida normal deb hisoblanadi.

ROE (Return on Equity) – aksiyadorlar kapitaliga nisbatan foyda. Bu bankning o‘z kapitali qanchalik unumli ishlatilayotganini ko‘rsatadi. Masalan, 2023 yilda AQSh tijorat banklarining o‘rtacha ROE ko‘rsatkichi 10–12% bo‘lgan.

NIM (Net Interest Margin) – foizli aktivlardan olinadigan sof daromad. Bu ko‘rsatkich bankning foizli daromadlari va foizli xarajatlari o‘rtasidagi farqni aktivlarga nisbatan hisoblaydi. U qanchalik yuqori bo‘lsa, bank kreditlar va depozitlar orqali shunchalik ko‘proq daromad olayotgan bo‘ladi. Masalan, 2023 yilda AQSh banklarida NIM o‘rtacha 3,1%, Evropada esa 1,6% atrofida qayd etilgan.

NPL (Non-Performing Loans ratio) – muammoli kreditlar ulushi. Bu koʻrsatkich kredit portfeli sifatini aks ettiradi. Agar NPL yuqori boʻlsa, demak, bank aktivlarining samaradorligi pasaygan hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda bu koʻrsatkich 2%dan oshmasligi kerak. Oʻzbekistonda esa 2023 yilda NPL 4,3% darajasida qayd etilgan.

CAR (Capital Adequacy Ratio) – kapital etarlilik me'yori. Bu koʻrsatkich bankning kapital bazasi qanchalik risklarni qoplay olishini koʻrsatadi. Basel III talablariga koʻra, CAR kamida 8% boʻlishi kerak. Oʻzbekistonda esa ushbu koʻrsatkich 2023 yilda 17% atrofida boʻlgan, bu banklarning xavflarga qarshi etarli zaxiraga egaligini koʻrsatadi.

Xalqaro moliya bozorlarida samaradorlikni baholashda turli modellar qoʻllaniladi. Masalan, Xitoyda 2006–2023 yillarda bank samaradorligi Super-SBM DEA modeli orqali baholanib, uning bozor qiymati (Tobin’s Q) bilan uzviy bogʻliqligi aniqlangan. Shu bilan birga, Vetnamda olib borilgan tadqiqotlarda kredit risklari banklar foydadorligiga salbiy ta'sir koʻrsatishi aniqlangan.

Xalqaro moliya bozorlarida bank aktivlari samaradorligini baholashda turli nazariy va amaliy modellardan foydalaniladi. Ushbu modellar ichida eng koʻp qoʻllaniladiganlari — Data Envelopment Analysis (DEA), Stochastic Frontier Analysis (SFA), hamda koʻp omilli regressiya usullaridir. Masalan, Xitoy tajribasida 2006–2023 yillar davomida banklar samaradorligi Super-SBM DEA modeli orqali baholanib, ularning bozor qiymati bilan bogʻliqligi oʻrganilgan. Tadqiqot natijalariga koʻra, samaradorlik koʻrsatkichlari yuqori boʻlgan banklarning bozordagi qiymati ham yuqori boʻlib, bu holat Tobin’s Q indeksi orqali statistik jihatdan tasdiqlangan. Bu shuni koʻrsatadiki, bank aktivlarini samarali boshqarish nafaqat ichki moliyaviy barqarorlikka, balki tashqi bozordagi qiymat va investorlar ishonchiga ham toʻgʻridan-toʻgʻri ta'sir qiladi.

Vetnam misolida esa kredit risklarining bank samaradorligiga ta'siri chuqur tahlil qilingan. 2010–2020 yillar statistik ma'lumotlari asosida oʻtkazilgan tadqiqotlarda muammoli kreditlar ulushining koʻpayishi tijorat banklarining ROA va ROE koʻrsatkichlarini pasaytirishi aniqlangan. Masalan, NPL 1%ga oʻsganda, ROA oʻrtacha 0,12%ga pasaygani, ROE esa 0,35%ga kamaygani kuzatilgan. Bu esa kredit risklarini samarali boshqarish bank foydadorligi va aktivlar unumdorligini ta'minlashda hal qiluvchi omil ekanini koʻrsatadi.

AQSh va Evropa Ittifoqi davlatlarida esa bank tizimining samaradorligi asosan Basel III talablari asosida baholanadi. Ushbu talablarga koʻra, banklar aktivlarining xavf darajasi, likvidlik me'yorlari, kapital etarliligi va stress-test natijalari qat'iy nazorat qilinadi. Masalan, 2023 yil natijalariga koʻra, AQShda tijorat banklarining oʻrtacha ROA koʻrsatkichi 1,2% atrofida boʻlib, bu koʻrsatkich barqaror foydalanish samaradorligini koʻrsatadi. Evropa Ittifoqida esa turli makroiqtisodiy omillar va kredit risklarining ta'siri natijasida oʻrtacha ROA 0,7% ni tashkil etgan. Shu bilan birga, AQSh banklarida NIM (Net Interest Margin) 3,1% atrofida boʻlsa, Evropada bu koʻrsatkich 1,6% darajasida qayd etilgan.

Jahon banki va Xalqaro valyuta jamgʻarmasi hisobotlariga koʻra, rivojlangan mamlakatlarda bank aktivlaridan foydalanish unumdorligi yuqori darajada saqlanmoqda. Bunga, avvalo, quyidagi omillar xizmat qilmoqda:

Raqamli texnologiyalarni keng qoʻllash – mobil banking va onlayn xizmatlar orqali operatsion xarajatlar keskin qisqarmoqda. Masalan, AQShda raqamli xizmatlar ulushi 2023 yilda 75%dan oshdi.

Kredit reyting tizimlari mavjudligi – Moody’s, S&P kabi xalqaro agentliklar orqali kredit risklari ilgariyoq baholanadi va bu muammoli kreditlar ulushini keskin kamaytiradi.

Mukammal risk-menejment qoidalari – banklarda ALM (Asset-Liability Management) va stress-test jarayonlari yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular aktivlarni turli ssenariylarda samarali boshqarish imkonini yaratadi.

Shu tariqa, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, bank aktivlari samaradorligini ta'minlash nafaqat moliyaviy hisobotlardagi raqamlarda, balki bozordagi ishonch va barqarorlikda ham o‘z ifodasini topadi.

O‘zbekistonda tijorat banklari aktivlarining hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Masalan, Markaziy bankning 2023 yilgi hisobotiga ko‘ra, bank aktivlari umumiy hajmi 773,4 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2022 yilga nisbatan 18,6%ga o‘sgan.

Biroq muammoli kreditlar ulushi bank aktivlari samaradorligiga salbiy ta'sir ko‘rsatmoqda. Xususan, 2023 yilda NPL ulushi 4,3% darajasida qayd etilgan. Bu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlar bilan qiyoslaganda ancha yuqori hisoblanadi.


Milliy amaliyotda aktivlarning katta qismi kreditlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, investisiya qimmatli qog‘ozlari bozori hali rivojlanish bosqichida ekani sababli, bank aktivlari tarkibi diversifikasiya darajasi pastligicha qolmoqda.

AQSh va Evropa banklarida ROA 0,7–1,5% bo‘lsa, O‘zbekiston banklarida bu ko‘rsatkich 0,4–0,6% oralig‘ida.

Xalqaro amaliyotda muammoli kreditlar ulushi 2%dan oshmaydi, O‘zbekistonda esa 2023 yilda 4,3%ga etdi.

CAR ko‘rsatkichi O‘zbekistonda 17% atrofida, bu Basel III talablaridan yuqori, ammo bu ko‘pincha kredit xavflari yuqoriligi bilan bog‘liq.

Bu qiyoslardan milliy bank tizimi samaradorlik jihatidan rivojlangan davlatlardan biroz ortda ekanligini ko‘rishimiz mumkin.



2-rasm. Bank aktivlari samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar quyidagilar

Manba: *Muallif tadqiqotlari asosida shakllantirilgan*

Muammoli kreditlar ulushini kamaytirish uchun kredit salohiyatini baholashda zamonaviy skoring tizimlarini joriy etish, raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash orqali operasion xarajatlarni qisqartirish, investisiya bozorini rivojlantirish va bank aktivlarini diversifikasiya qilish, xalqaro standartlarga muvofiq nazoratni kuchaytirish va Basel III talablarini to‘liq joriy etish zarur.

Bank aktivlari samaradorligi iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, samaradorlikka erishish uchun diversifikasiya, zamonaviy risk-menejment va raqamli transformasiya hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘zbekistonda esa bu jarayon hali to‘liq amalga oshmagan bo‘lsa-da, islohotlar natijasida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda.

Adabiyotlar:

1.World Bank (2005). Measuring commercial bank efficiency: use and misuse of bank operating ratios. Washington. documents.worldbank.org

2.Nguyen, T. (2023). Credit Risk and Financial Performance of Commercial Banks: Evidence from Vietnam. arxiv.org

3.Zhang, L. (2024). Super-efficiency and Stock Market Valuation: Evidence from Listed Banks in China (2006 to 2023). arxiv.org

4.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2023 yilgi yillik hisobot. cbu.uz

5.Xojibekova Z. (2025). Banklarda muammoli kreditlarni samarali boshqarish. Interfinance. interfinance.tsue.uz

MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA KONSOLIDATSIYALASH JARAYONLARINI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jo‘rayev Umidjon Shuxratjon o‘g‘li
Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi,

Moliyaviy hisobot tuzish sistemasida global integratsiya va investitsiya muhitining rivojlanishi bilan kompaniyalar uchun hisobotlarning xalqaro standartlarga mosligi tobora ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa biznes guruhlari (holdinglar, kompaniya tarmoqlari) uchun moliyaviy hisobotlar yagona iqtisodiy sub’yekt tarzida ko‘rsatilishi – investorlarga, kreditorlarga va xalqaro moliya bozorlari ishtirokchilariga tushunarli va qiyoslanadigan ma’lumot yetkazish imkonini beradi. Bunda konsolidatsiyalash jarayoni muhim vosita hisoblanadi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS), xususan IFRS 10 “Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar” standarti, guruh kompaniyalarining aktivlari, majburiyatlari, moliyaviy natijalari va pul oqimlarini yagona moliyaviy hisobotda aks ettirish printsiplarini belgilaydi. Masalan, IFRS 10 standarti nazarda tutadi: boshkorxona (parent) sub’ektga nisbatan nazoratga ega bo‘lishi, o‘zgaruvchan daromadlar olish haqi va bu daromadlarga ta’sir o‘tkazish qobiliyati bo‘lishi lozim.

Konsolidatsiyalash jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Interkompaniya operatsiyalarni bekor qilish (eliminatsiya): guruh ichidagi qarz-karzliklar, savdo, dividendlar va boshqa operatsiyalar ikki tomonlama hisoblardan olib tashlanadi;

Nodavlat ishtirokchilarning ulushini hisobga olish: agar shuba kompaniya kapitalida boshqalar ishtirok etsa, nodavlat ulush (non-controlling interest) alohida ajratiladi.

Boshlang‘ich konsolidatsiya qiymatini aniqlash: shubaning aktiv va majburiyatlarining bo‘lgan holatida konsolidatsiya vaqtida olingan aktivlar va majburiyatlar qadri, goodwill va boshqa farqlar aniqlanadi.

Baholash siyosatlarining uyg‘unlashtirilishi: guruh ichidagi kompaniyalar turlicha baholash siyosatlari qo‘llashi mumkin bo‘lgan bo‘lsa, konsolidatsiya bosqichi uchun yagona siyosatlar bo‘yicha qayta baholashlar kerak bo‘ladi.

Valyuta konvertatsiyasi va konsolidatsiya valyutasi: agar turli sub’ektlarda faoliyat xorijiy valyutada bo‘lsa, valyuta konvertatsiyasi va valyutaviy farqlarni mos tarzda hisobga olish zarur bo‘ladi.

Konsolidatsiya jadvali va ilovalar (Notes): hisobot ichida konsolidatsiya asosida qilinadigan o‘zgartirishlar, eliminasiyalar va koreksiyalar ilovalar orqali batafsil ko‘rsatilishi lozim.

Misol tariqasida IFRS tomonidan berilgan namuna – XYZ guruh va XYZ parent kompaniyalarining konsolidatsiyalangan va alohida balanslari jadvali ko‘rsatilgan bo‘lib, aktivlar va majburiyatlar bo‘yicha sub’ektlar o‘rtasidagi investitsiyalar va qo‘shma elementlar bekor qilinadi. Shuningdek, PwC’ning namuna konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlari ham turli sektorlar bo‘yicha strukturani ko‘rsatadi.

O‘zbekiston sharoitida konsolidatsiyalash jarayonini tashkil etishda milliy qonunchilik, buxgalteriya hisobining milliy standartlari (masalan, BHMS), shuningdek auditorlik talablarining uyg‘unligiga diqqat qilish talab etiladi. Shu sababli mazkur maqolada konsolidatsiyalash jarayonining nazariy jihatlari bilan birga, real misollar va amaliy qiyinchiliklar ham tahlil qilinadi.

Har bir guruh korxonasida konsolidatsiyalashni boshlashdan avval, sub’ektlar o‘rtasidagi munosabatlar tahlil qilinadi. Agar boshkorxona sub’ekt ustidan nazoratga ega bo‘lsa (masalan, aksiyalar ortidan ovoz huquqi, boshqaruv huquqi, shartnomaviy huquqlar), unda konsolidatsiya zarur. IFRS 10 nazariyasiga ko‘ra, nazorat uchta elementdan tashkil topadi: (i) kuch, ya’ni sub’ektni boshqarish huquqi; (ii) daromadlar bo‘yicha ulush yoki ta’sir; (iii) daromadlarga ta’sirni modul qilish qobiliyati. Misol uchun, agar parent kompaniya sub’ektga 60 % aksiyaga ega bo‘lsa va sub’ektning moliyaviy siyosatiga ta’sir qila olsa, bu konsolidatsiya talabini yuzaga keltiradi.

Konsolidatsiyalash boshlang‘ich bosqichida sub’ektning aktivlari va majburiyatlari bo‘yicha bo‘yicha adolatli qiymatlar baholanishi kerak bo‘ladi. Agar parent sub’ektni nazoratga olganda sub’ekt kapitalida bo‘lgan aktivlar va majburiyatlar o‘zgarish qilingan bo‘lsa, bu farqlar goodwill sifatida ko‘rsatilishi mumkin. Boshqaruvchilar olingan foizlar (acquisition method) yordamida konsolidatsiya qilinadi va nodavlat ishtirokchilarning ulushi (non-controlling interest) ajratiladi.

Bu jarayon konsolidatsiyaning eng murakkab jihatlaridan biridir. Masalan, agar sub’ekt parent kompaniyaga qarz bergan bo‘lsa, bu qarz parent hisobotida “investitsiyalar” shaklida, sub’ekt hisobotida esa “qarz olganlar” sifatida ko‘rsatilgan bo‘lishi mumkin. Konsolidatsiya bosqichida bu qarz va qarzdorliklar bekor qilinadi, ya’ni nolga keltiriladi. Xuddi shunday, guruh ichidagi savdo operatsiyalari, dividendlar, foyda markaplashi kabi operatsiyalar ham eliminasiyaga muhtoj bo‘ladi. Masalan, IFRS misolida ABC va XYZ kompaniyasi o‘zaro savdo qilsa, savdo summasi va xarid sifatida

ikki tomon hisoblangan summalarni bekor qilish kerak. Agar parent sub'ektga dividend to‘lasa, konsolidatsiya bosqichida parent kompaniyaning dividend daromadi va sub'ektning dividend to‘lovi summasi bekor qilinadi.

Guruh ichida sub'ektlar turli baholash siyosatlarini qo‘llashi mumkin: masalan, amortizatsiya usuli (to‘g‘ri chiziqli, tezlashtirilgan), adolatli qiymat yoki amortizatsiya qilingan qiymat orqali baholash, aktivlar va majburiyatlarning bozordagi qiymatini hisoblash. Konsolidatsiya bosqichida barcha sub'ektlar bo‘yicha umumiy baholash siyosati qabul qilinishi va kerak bo‘lsa qayta baholashlar o‘tkazilishi zarur. Aks holda, hisobotlar orasida nomuvofiqliklar paydo bo‘lishi mumkin va investorlar tushunmovchilikka duch kelishi ehtimoli oshadi.

Agar guruh sub'ektlari turli milliy valyutalarda faoliyat yuritsa, har bir sub'ekt moliyaviy hisobotlarini konsolidatsiya valyutasiga (odatiy holda boshkorxona valyutasi) konvertatsiya qilish kerak bo‘ladi. Bu jarayonda sof valyuta farqlari (translation differences) alohida hisoblarga o‘tkaziladi va odatda boshqa to‘g‘ridan-to‘g‘ri daromadga emas, boshqa umumiy daromadlarga (other comprehensive income) kiritiladi. Bu jarayon ham konsolidatsiyaning noyob jihatidir.

Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar odatda quyidagi hujjatlarni o‘z ichiga oladi: konsolidatsiyalangan balans, konsolidatsiyalangan daromadlar hisobi, pul oqimlari hisobi, kapital o‘zgarishlari hisobi va izohlar (Notes). Izohlarda konsolidatsiya jarayonida bajarilgan eliminasiyalar, interkompaniya operatsiyalar, nodavlat ishtirokchilar ulushi, konsolidatsiyaga qarshi qilingan koreksiyalar va baholash siyosati tafsilotlari to‘liq ochib berilishi talab qilinadi.

Misol tariqasida, PwC tomonidan taqdim etilgan namuna konsolidatsiyalangan hisobotlar turli sektor bo‘yicha izohlar bilan birgalikda keltirilgan. Shuningdek, IFRS-ilustrativ misollar'da konsolidatsiyalangan va alohida balanslar ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston amaliyotida konsolidatsiyalash jarayoni milliy hisobot standartlari (BHMS) bilan IFRS o‘rtasidagi tafovutlar sabab murakkabliklar tug‘diradi. Masalan, aktivlar va majburiyatlar bo‘yicha milliy baholash usullari IFRS standartlaridan farq qilishi mumkin, bu esa konsolidatsiya bosqichida qo‘shimcha qayta baholashlar talab qiladi.

Bundan tashqari, guruh ichidagi sub'ektlar tomonidan ichki operatsiyalar bo‘yicha hujjatlarda kamchiliklar bo‘lishi, ma'lumot almashinuvi tizimlarining muvofiqligi, auditorlik nuqtai nazari va mahalliy regulatorlarning talablari ham katta rol o‘ynaydi. Shunday ekan, konsolidatsiyalash jarayonini samarali tashkil etish uchun ichki nazorat sistemasi, ERP yoki konsolidatsiya modulini qo‘llash, audit va malakali buxgalter kadrlarini jalb etish muhimdir.

“Moliyaviy hisobot tuzishning xalqaro standartlar asosida konsolidatsiyalash jarayonlarini tashkil etish” mavzusi zamonaviy moliyaviy nazorat va investitsiya muhitida juda muhim ahamiyatga ega. Konsolidatsiyalash jarayoni guruh kompaniyalarining moliyaviy holatini yagona iqtisodiy sub'ekt sifatida ko‘rsatadi, interkompaniya operatsiyalarni bekor qiladi, baholash siyosatlarini uyg‘unlashtiradi va turli valyutalarni konvertatsiya qiladi. Bunday jarayon investor va kreditorlar uchun hisobotlarning shaffofligini va qiyoslanishini ta'minlaydi.

O‘zbekiston sharoitida konsolidatsiyalash jarayonini IFRS talablarini bajara turib, milliy standartlar, auditorlik, kadrlar salohiyati va ichki nazorat tizimlarini muvofiqlashtirish lozim. Keng qamrovli konsolidatsiyalash tizimini yaratish orqali guruh korxonalarining moliyaviy shaffofligi ortadi hamda xalqaro investorlar

ishonchini oshirish mumkin. Maqola ichida keltirilgan nazariy jihatlar va real misollar konsolidatsiyalash jarayonini chuqur tushunishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. *O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni. (yangi tahriri).*
2. *International Financial Reporting Standards (IFRS) – London: IFRS Foundation, so‘nggi nashrlari.*
3. *Qodirov S.K., Abdukarimov A.Q. – “Moliyaviy hisobot va uning tahlili”, Toshkent, 2022.*
4. *Karimov Z.A., Axmedov A.S. – “Buxgalteriya hisobi (xalqaro standartlar asosida)”, Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.*
5. *Eldarov S.G. – “Xalqaro buxgalteriya hisobi va hisobot”, Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.*
6. *Needles B.E., Powers M. – “Financial Accounting”, Cengage Learning, 2020.*
7. *Alexander D., Nobes C. – “Financial Accounting: An International Introduction”, Pearson Education, 2022.*

RAQAMLI ISLOHOTLAR KONTEKSTIDA TA’LIM TIZIMI BOSHQARUVI

Navbatova Ra'no Hadjimuratovna
Termiz davlat pedagogika instituti
Rus tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
Norqulova Dinara Umidovna
Termiz davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti 4-kurs talabasi

Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ayniqsa, ta’lim tizimi global raqamli transformatsiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ta’lim tizimini samarali boshqarish raqamli yechimlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu sababli, raqamli transformatsiya masalalari ta’lim boshqaruvi uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Raqamli transformatsiya — bu raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari, bulutli xizmatlar, mobil ilovalar kabi vositalar orqali an’anaviy ish jarayonlarini zamonaviy, samarali va raqobatbardosh shaklga o‘zgartirish jarayonidir. Bu tushuncha oddiy raqamlashtirishdan farq qiladi. Raqamlashtirishda mavjud jarayonlar elektron shaklga o‘tkazilsa, raqamli transformatsiyada esa butun tizimning ishlash falsafasi va yondashuvi tubdan o‘zgaradi.

Ta’lim tizimi uchun bu jarayon nihoyatda dolzarbdir, chunki:

1. Ta’lim sifati va mazmuni global me’yorlarga moslashtirilmoqda;
2. O‘quv jarayoni, baholash, boshqaruv va hisobotlar yangi, raqamli shakllarda olib borilmoqda;
3. O‘quvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalar o‘rtasidagi muloqot elektron platformalar orqali yo‘lga qo‘yilmoqda;
4. Statistika, tahlil va monitoring ishlari real vaqt rejimida amalga oshirilmoqda.

Maktablar va oliy o‘quv yurtlarida EMIS (Education Management Information System), Maktab.uz, kundalik.com kabi platformalarning joriy qilinishi;

Dars jadvalini avtomatik tuzish, baholash tizimlarini elektron shaklda yuritish;

Videodarslar, masofaviy ta’lim va onlayn test tizimlari orqali bilim olishning yangi formatlari.

Raqamli transformatsiya nafaqat ta’lim jarayonini, balki ta’lim boshqaruvini ham tubdan o‘zgartiradi. Boshqaruv tizimi ilgari qog‘ozbozlik, kechikkan ma’lumotlar va

byurokratiya bilan to‘lib-toshgan bo‘lsa, endilikda u tezkor, shaffof va tahliliy qaror qabul qilishga asoslangan raqamli boshqaruvga aylanmoqda.

Raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimini boshqaruvga joriy etish sohada sifat, tezkorlik va shaffoflik kabi ko‘plab ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ular nafaqat ma'muriy jarayonlarni soddalashtiradi, balki boshqaruv qarorlarining aniq, dalillarga asoslangan holda qabul qilinishiga ham xizmat qiladi.Raqamli boshqaruv tizimlari (masalan, EMIS — Education Management Information System, Yagona Milliy Ta’lim Platformasi va h.k.) orqali barcha ta’lim muassasalaridan ma’lumotlarni real vaqt rejimida yig‘ish mumkin. Bu, o‘z navbatida, ta’lim siyosatini shakllantirishda ishonchli statistik ma’lumotlardan foydalanish imkonini beradi. Misol uchun, o‘quvchilar soni, darslik yetishmovchiligi, o‘qituvchilarning malaka darajasi kabi ko‘rsatkichlar avtomatik tarzda shakllanadi.

Raqamli platformalar orqali hisobotlar, baholash natijalari, o‘qituvchilarning dars yuklamalari, moliyaviy xarajatlar kabi ma’lumotlar ommaga ochiq bo‘ladi. Bu korrupsion holatlarning oldini olishga, jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ota-onalar farzandlarining o‘qishi va intizomi bo‘yicha doimiy kuzatuvda bo‘lish imkoniga ega bo‘ladi.

Raqamli transformatsiya yordamida boshqaruv organlari katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va trendlar asosida qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, o‘quvchilarning yutuqlari dinamikasiga qarab, yangi metodikalarni sinovdan o‘tkazish yoki malaka oshirish kurslarini takomillashtirish kabi strategik qarorlar ishlab chiqiladi.

An’anaviy boshqaruv jarayonlarida ko‘p vaqt va qog‘oz sarf bo‘lsa, raqamli tizimlarda bu xarajatlar kamayadi. Hujjat aylanishi elektron shaklda olib borilishi orqali inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklar kamayadi. Shuningdek, avtomatik eslatmalar, elektron jadval va rejalashtirish funksiyalari vaqtni tejaydi va samaradorlikni oshiradi.Raqamli texnologiyalar ta’lim boshqaruvi subyektlari — maktab, tuman/hududiy bo‘limlar, vazirlik, ota-onalar o‘rtasida samarali aloqa o‘rnatish imkonini yaratadi. Masalan, “Ta’lim” portali, elektron kundalik, Telegram-botlar kabi vositalar orqali tezkor xabar almashish, muammolarni onlayn hal qilish mumkin.Raqamli tizimlar orqali ta’lim sifatini masofadan turib monitoring qilish mumkin. O‘quv dasturlarining bajarilishi, o‘qituvchilarning faoliyati, o‘quvchilarning davomat darajasi va test natijalari avtomatik tarzda kuzatilib boriladi. Bu esa joylardagi real holatga asoslangan tahliliy boshqaruvni ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

1. noyabrdagi PQ–4884-sonli qarori. "2020–2023-yillarda xalq ta’limi tizimini raqamlashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida". — https://lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi rasmiy sayti: Ta’limdagi raqamli transformatsiya loyihalari. — https://www.edu.uz

3. UNESCO Institute for Statistics. (2021). Digital Transformation of Education Systems: A Global Perspective. — https://uis.unesco.org

4. OECD. (2020). Digital Education Outlook: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence, Blockchain and Robots. — https://www.oecd.org/education

5. World Bank. (2021). Realizing the Future of Learning: From Learning Poverty to Learning for Everyone, Everywhere. — https://www.worldbank.org

6. Karimova, D., & Toshmatova, G. (2022). Ta’lim tizimida raqamli transformatsiya: muammo va yechimlar. // “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar” jurnali, №3. – Toshkent.

BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o‘g‘li
“Farg‘ona viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi” DM sho‘ba boshlig‘i

Hozirgi kunda davlat moliyasini samarali boshqarish, xususan davlat budjeti xarajatlari ustidan nazoratni chuqurlashtirish mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Davlat moliyaviy nazoratini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish choralari budjet mablag‘larining oqilona va maqsadli sarflanishini, shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, “uch bo‘g‘in” modeli budjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni tizimli tarzda mustahkamlash uchun samarali vosita bo‘lishi mumkin.

Moliyaviy nazorat tushunchasi va uning funksiyalari bo‘yicha ichki va tashqi ilmiy manbalar keng tadqiq etilgan. O‘zbek va xorij olimlari tomonidan moliyaviy nazorat ko‘pincha moliya tizimining ajralmas qismi sifatida, uning qonuniylik, muvofiqlik va samaradorlik funktsiyalarini ta’minlovchi mexanizm sifatida ko‘rib chiqilgan. Xususan, O‘zbekistonlik olimlar A.Vaxobov, T.Malikov moliyaviy nazoratga “moliyaga hos bo‘lgan nazorat xususiyatining amalda namoyon bo‘lishi" deb ta’rif berishgan. Mahalliy tadqiqotchilar moliyaviy nazoratni ham nazorat organlari faoliyati orqali, ham tashkilot ichidagi ichki mexanizmlar orqali amalga oshirilishini ta’kidlaydilar. Shu bilan birga, muvofiqlik (normativ-huquqiy asosga moslik) va samaradorlik (resurslardan optimal foydalanganlik)ni baholash muhim yo‘nalishlar sifatida ajratiladi.

Xususan, O‘zbekistonlik olimlar A.Vaxobov, T.Malikov moliyaviy nazoratga “moliyaga hos bo‘lgan nazorat xususiyatining amalda namoyon bo‘lishi”deb ta’rif berishgan. [1]

Mazkur ta’rifdan shuni anglashimiz mumkinki, olimlar tomonidan moliyaviy nazorat moliyaning vazifalaridan biri bo‘lgan nazorat funksiyasining bajarilishini o‘zida aks ettirishi nazarda tutiladi.

Shuningdek, ularning fikricha moliyaviy nazorat quyidagi ikki yo‘nalishda qaralishi lozim: [2]

1. Iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy qonunchilik va intizomga rioya qilishi ustidan maxsus tashkil etilgan nazorat organlarining qat’iy tartibga solingan faoliyati;

2. Moliyaviy operatsiyalarning samaradorligi va maqsadga muvofiqligini ta’minlash maqsadida mikro va makro darajadagi moliya va pul oqimlarini boshqarishning ajralmas qismi.

O‘zbekistonlik olimlarning fikrini tahlil qiladigan bo‘lsak, ular tomonidan moliyaviy nazoratni moliya kategoriyasi funksiyasi sifatida baholashganini bizningcha moliya mavjud joyda uning nazorati ham albatta mavjud bo‘lishi deb xulosa qilish mumkin. Bu esa o‘z navbatida moliyaning kategoriya sifatidagi shakllanishi va shakllariga bog‘liq bo‘ladi. Shu bilan birga alohida ajratib ko‘rsatilgan jihatlari moliyaviy nazoratning muvofiqlik va samaradorlikni nazorat qilishga bo‘linishidir. Muvofiqlik nazorati moliyaviy oqimlarning normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiqligini nazarda tutsa, samaradorlik u orqali erishiladigan samarani baholash deb qarash mumkin.

T.Malikov., Sh.Jalilov moliyaviy nazoratga nisbatan kengroq yondashib, “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va boshqa moliya organlari Davlat budjeti

ijrosining nazorat qilinishida budjet mablag‘lari oluvchilarning moliya-xo‘jalik faoliyatini o‘z vakolatlari doirasida taftish qilishi va tekshiruvdan o‘tkazishi” sifatida ta’kidlashgan. [3]

A.Ibragimov va B.Sugirbayev fikricha, davlatni boshqarish funksiyasining muhim funksiyalaridan biri bo‘lgan moliyaviy nazorat moliyaviy resurslar xarakatining xamma jarayonlarini, jumladan, mablag‘lami tashkil topish jarayonidan boshlab, xar qanday faoliyatni boshlashdan to uning moliyaviy natijalarini aniqlashgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. [4]

Xorijiy olim N.Milyakov tomonidan ta’riflanishicha moliyaviy nazorat - moliyaviy va xo‘jalik faoliyatida qonuniylikni ta’minlashning eng muhim vositasi hisoblanadi. U xo‘jasizlik va isrofgarchilikdan ogohlantiradi hamda tovar-moddiy qiymatliklar va pul mablag‘larining o‘g‘irlanishi va suiste’mol qilinishi faktlarini aniqlaydi. [5]


A.Zudilin va F.Axmedov iqtisodiyotning bozor sharoitida amal qilishida moliyaviy nazorat tizimi ikki darajaga bo‘linishini ta’kidlashgan. Ularning fikricha, “birincha darajada moliyaviy nazorat butun jamiyat manfaatlarini himoya qilishi va davlat tomonidan tartibga solinishi kerak” [6]. Bunda, u davlat budjeti va maxsus jamg‘armalarga tushumlarni nazorat qilish hamda qonunchilik hujjatlari va davlat organlari tomonidan belgilangan moliya va hisob yuritish qoidalari, usullariga rioya qilinishini ta’minlashi kerak.

Xalqaro Ichki Auditorlar Instituti tomonidan ilgari surilgan “Three Lines” (uch bo‘g‘in) modeli boshqaruv, risklarni boshqarish va nazorat funksiyalarining rol va javobgarliklarini aniqlashga yordam beradi. Modelning birinchi bo‘g‘ini - faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi birliklar bo‘lib, ular operatsion xavflarni aniqlash va kamaytirish uchun zarur chora-tadbirlarni bajaradi. Ikkinchi bo‘g‘in - boshqaruv darajasidagi boshqaruv funksiyalari bo‘lib, ular siyosat, metodologiya va monitoringni ta’minlash orqali birinchi bo‘g‘inning ishini qo‘llab-quvvatlaydi. Uchinchi bo‘g‘in esa ichki audit bo‘lib, u mustaqil baholash va kafolat berish funksiyalarini amalga oshiradi.

Ushbu modelni davlat organlari va budjet tashkilotlariga joriy etish bir nechta amaliy foydalar beradi:

- Vakolatlar va javobgarlik markazlarini aniq belgilash orqali hisobdorlikni kuchaytirish;
- Xavflarni boshqarish orqali moliyaviy xatoliklar va buzilishlarni oldini olish;
- Ichki auditning mustaqilligini ta’minlash orqali obyektiv baholash va tavsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini yaratish;
- Gorizontal va vertikal muvofiqlashtirish orqali dastlabki va joriy nazoratni samarali tashkil etish.

“Uch bo‘g‘in” modelida birinchi bo‘g‘in tashkilotning faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlar va bo‘limlardan iborat bo‘lib, ular amaliy jarayonlarda xavf va nazorat choralarini birinchi navbatda qo‘llaydi. Ikkinchi bo‘g‘in esa markaziy boshqaruv apparatidagi funksiyalar, masalan strategik rejalashtirish, metodologiya ishlab chiqish, kadrlarni boshqarish va axborot tizimlarini takomillashtirishni o‘z zimmasiga oladi. Uchinchi bo‘g‘in — tashkiliy jihatdan mustaqil ichki audit bo‘lib, u birinchi va ikkinchi bo‘g‘inning samaradorligini baholaydi va yuqori darajadagi rahbariyatga mustaqil hisobot beradi.



1- rasm. Uch bo'g'in modeli

Modelga asoslangan nazorat tizimi quyidagi tamoyillarga tayangan bo'lishi kerak: [7]

1) Boshqaruv – hisobdorlik va javobgarlikni aniq belgilaydi, resurslar va choralarni tartibga soladi;

2) Boshqaruv organi vazifalari – siyosatni belgilash, strategik yo'naltirish va umumiy nazoratni ta'minlash;

3) Boshqaruv va birinchi-ikkinchi bo'g'in rollari – rollar aniq taqsimlanib, bir-birini to'ldiradi;

4) Uchinchi bo'g'in roli – mustaqil baholash va maslahatlar;

5) Mustaqillik — ichki audit faoliyatining asosiy tamoyili;

6) Qiymat yaratish va himoya – barcha rollar tashkilot maqsadlariga muvofiq hamkorlik qiladi.

Maqolada "uch bo'g'in" modelini davlat budjetining xarajat nazorati tizimiga tatbiq etish bo'yicha quyidagi tavsiyalar berilgan:

- Ushbu modelni tatbiq etishga doir konsepsiyani ishlab chiqish va qonuniy bazani mustahkamlash;
- Birinchi bo'g'in vakolatlari va dastlabki moliyaviy nazoratni tizimli muvofiqlashtirish orqali xavf boshqaruviga e'tibor qaratish;
- Ikkinchi bo'g'inning joriy nazorat funksiyalarini yaxshilash va u orqali moliyaviy xatoliklarni oldini olish choralari tizimini ishlab chiqish;
- Har bir vazirlikda ichki audit qo'mitasini tashkil etish orqali uchinchi bo'g'inning mustaqilligini mustahkamlash;
- Gorizontal va vertikal tuzilmalarni ilmiy asosda o'rganish va standartlashtirish;
- Ichki nazorat jarayonlarini "uch bo'g'in" printsiplari bilan muvofiqlashtirish va joriy monitoring tizimini yo'lga qo'yish.

Mamlakatimiz moliyaviy nazorat tizimini xalqaro tajribaga moslashtirish, xususan "uch bo'g'in" modelini joriy etish orqali budjet xarajatlarining samaradorligini, shaffofligini va hisobdorligini oshirish mumkin. Modelning institutsiya ichidagi aniq

vakolatlar taqsimoti, ichki audit mustaqilligi va xavf boshqaruvi usullarini kuchaytirish orqali moliyaviy xato va buzilishlarni kamaytirish va davlat resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlash imkoniyati mavjud.

Adabiyotlar:

1. Vaxobov A., Malikov T. “Moliya” (darslik), Noshir, 2011.

2. Malikov T.S., Jalilov Sh.Q. “Budjet–soliq siyosati” (o‘quv qo‘llanma), Iqtisod-moliya, 2011.

3. Ibragimov A.K., Sugirbayev B.B. “Budjet nazorati va auditi” (o‘quv qo‘llanma), infoCOM.UZ, 2010.

4 Миляков Н.В. Финансы учебник Москва ИНФРА М 2004 г.

5. Зудилин А.П., Ахмедов Ф.Н. Финансовый контроль Учеб. Пособие Москва Издательство Российского университета дружбы народов 2000 г.

6. “Applying the Three Lines Model In the Public Sector” 9-bet. The Institute of Internal auditors (Xalqaro ichki auditorlar instituti.). Internet manba: www.theiia.org.

7. Jabborov A.A, “Byudjet xarajatlari moliyaviy nazoratini takomillashtirishda “uch bo‘g‘in” modelidan foydalanish masalalari” (ilmiy maqola), https://finance.tsue.uz/index.php/afa.

INNOVATSION SIYOSATNI AMALGA OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI

G‘aniyev Sanjar Poziljon o‘g‘li

Namangan davlat texnika universiteti Menejment kafedrasi o‘qituvchisi

Zamonaviy global iqtisodiyotda innovatsiya iqtisodiy o‘sish, raqobatbardoshlik va ijtimoiy farovonlikning asosiy omillaridan biriga aylangan. SHu bois, davlatlar o‘z taraqqiyot strategiyalarida innovatsion siyosatni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilamoqda. Bunda xorij tajribasini o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan mamlakatlarda (AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya va boshqalar) innovatsion siyosatning institutsional tizimi uzoq yillar davomida shakllangan bo‘lib, ularning tajribasi samaradorligi xalqaro amaliyotda o‘z isbotini topgan. Innovatsiya jarayonining moliyalashtirish, kadrlar tayyorlash, biznes va fan integratsiyasi, intellektual mulkni himoya qilish kabi masalalarda xorij amaliyotida to‘plangan bilim va mexanizmlar milliy tizimni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston bugungi kunda bozor iqtisodiyotining yangi bosqichiga kirib kelmoqda. Bu jarayonda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport salohiyatini oshirish va hududiy taraqqiyotni ta’minlash uchun innovatsion siyosatni samarali yo‘lga qo‘yish talab etiladi. Shu bois xorijiy modellardan foydalanish milliy innovatsion tizimning tizimli shakllanishiga xizmat qiladi. Chunki, globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida hech bir mamlakat yolg‘iz o‘z innovatsion salohiyati bilan cheklanib qololmaydi. Xalqaro tajribani integratsiya qilish O‘zbekistonning xalqaro innovatsiya bozoriga kirishini, transmilliy korporatsiyalar bilan hamkorlikni va xorijiy investitsiyalar jalb qilishni rag‘batlantiradi.

Jumladan, Singapur innovatsion iqtisodiyot qurishda dunyoda eng muvaffaqiyatli tajribaga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Ushbu natijaga erishishda davlatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtiroki hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Agar davlatning qat’iy siyosiy irodasi va strategik dasturlari bo‘lmaganida, mamlakatda innovatsion klasterlar bu qadar rivojlanmagan bo‘lar edi. Singapur hukumati 1980-yillardan boshlab innovatsiyalarni milliy rivojlanishning asosiy ustuvor yo‘nalishi sifatida belgiladi.

“Milliy texnologiyalar dasturi” (National Technology Plan) va keyinchalik “Tadqiqot, innovatsiya va tadbirkorlik” (Research, Innovation and Enterprise) kabi dasturlari o‘rqali katta mablag‘lar ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga yo‘naltirildi. Bu jarayonda davlat bir vaqtning o‘zida ham “investor”, ham “tashkilotchi” vazifasini bajargan. Ayniqsa, innovatsion klasterlarning asosini davlat tashkil etgan institutsional infratuzilmalar – “Fan, texnologiya va tadqiqotlar agentligi” (Agency for Science, Technology and Research – A*STAR) tashkil etilgan. U tadqiqot markazlari va universitetlarni biznes hamda startaplar bilan integratsiya qilishda asosiy mexanizm sifatida xizmat qiladi. SHuningdek, hukumat innovatsion hududiy markazlar yaratishga katta e’tibor berdi. Bunga misol sifatida biotexnologiya, axborot texnologiyalari va media sohalariga ixtisoslashgan “One-North” innovatsion parkini ko‘rsatish mumkin. Bu yerda ilmiy laboratoriyalar, biznes-inkubatorlar, universitet fakulьtetlari va transmilliy korporatsiyalar ofislari bir joyda faoliyat yuritadi.

Singapur davlatining yana bir muhim qadami – startaplarni qo‘llab-quvvatlash bo‘lgan. “Startup SG” dasturi orqali yangi g‘oyalarga grantlar, soliq imtiyozlari va venchur moliyalashtirish imkoniyatlari taqdim etilgan. Shuningdek, hukumat xalqaro korporatsiyalar va ilmiy markazlarni mamlakatga jalb etib, Microsoft, Google, Pfizer kabi yirik kompaniyalarning innovatsion markazlarini ochishga erishdi. Singapur tajribasi shuni ko‘rsatadiki, innovatsion klasterlar faqat davlatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtiroki va strategik rahbarligida samarali rivojlandi. Qonunchilik bazasini yaratish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, infratuzilmalarni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kabi davlat tashabbuslari Singapurni jahonda innovatsiya markazlaridan biriga aylantirdi.

AQSH kabi rivojlangan mamlakatlarda universitet va biznes hamkorligi kuchli yo‘lga qo‘yilgani sababli innovatsiya jarayonlari juda tez va samarali kechadi. Bu holatning asosiy sababi shundaki, universitetlar nafaqat bilim berish va ilmiy tadqiqotlar olib borish bilan cheklanib qolmay, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri bozor ehtiyojlariga xizmat qiladigan ilmiy yangiliklarni ishlab chiqarishga ham yo‘naltirilgan. Masalan, AQSHdagi Stenford, Massachusets texnologiya instituti kabi oliy ta’lim muassasalari nafaqat ta’lim va ilmiy tadqiqot markazlari, balki innovatsion startaplar uchun asosiy inkubatorlar sifatida ham faoliyat ko‘rsatadi. Ushbu jarayonda yirik korporatsiyalar, xususiy kompaniyalar va davlat agentliklari universitetlar bilan uzviy hamkorlik qiladi, ularning tadqiqot ishlarini moliyalashtiradi va amaliy qiymatga ega natijalarni ishlab chiqarishga joriy qiladi. Shu bois AQSHda universitet-biznes integratsiyasi nafaqat innovatsiya jarayonlarini tezlashtirgan, balki butun milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ham oshirdi. Bundan tashqari, venchur kapital bozori rivojlangani sababli universitetlarda yaratilgan g‘oyalar tezda investitsiya bilan ta’minlandi va tijoratlashtirish jarayoni yo‘lga qo‘yildi. AQSH tajribasidan ma’lumki, innovatsion siyosatning asosiy drayveri xususiy sektor hisoblanadi. Kremniy vodiysidagi startap ekotizimi, venchur kapitalining keng tarqalgani va universitetlar bilan yaqin hamkorlik innovatsiya jarayonini jadallashtirgan. Bu yo‘nalishda davlat to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki soliq imtiyozlari, loyihalarni grant asosida qo‘llab-quvvatlash va intellektual mulkni himoya qilish orqali ishtirok etadi. Demak, AQSH tajribasidan xulosa qilish mumkinki, innovatsiyalarni samarali amalga oshirish uchun universitet va biznes o‘rtasidagi integratsiya jarayonini kuchaytirish O‘zbekiston uchun

ham muhim vazifa hisoblanadi. Bu orqali ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tezkor joriy etish, mahalliy startaplarni rivojlantirish va iqtisodiyot tarmoqlarida raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlari kengayadi.

Evropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasi shundan dalolat beradiki, innovatsion jarayonlarni rag‘batlantirishda davlatning moliyaviy qo‘llovi va xususiy sektorning faol ishtirokini uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Yevropa Ittifoqi davlatlarida innovatsion startaplar uchun davlat grantlari va soliq imtiyozlari keng ko‘lamda joriy etilgan bo‘lib, ular venchur kapital tizimi bilan uyg‘un holda ishlaydi. Bu mexanizmning samarasi shundaki, startaplar dastlabki bosqichda moliyaviy jihatdan to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlanadi, ya’ni ular ilmiy g‘oya va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish uchun yetarli mablag‘ topa oladi. Keyinchalik esa venchur kapital ishtirokida ushbu g‘oyalar bozorga kirib borishi va raqobat sharoitida muvaffaqiyat qozonishi ta’minlanadi. Masalan, Germaniya, Frantsiya va Niderlandiyada davlat tomonidan berilgan grantlar va soliq imtiyozlari xususiy sektor sarmoyasi bilan uyg‘unlashtirilgani sababli biotexnologiya, raqamli iqtisodiyot, energiya tejash texnologiyalari kabi yo‘nalishlarda yuzlab startaplar tezkor ravishda yirik bozor ishtirokchilariga aylandi. Davlat bu yerda to‘g‘ridan-to‘g‘ri raqobatchi emas, balki tartibga soluvchi va qo‘llovchi vazifasini bajaradi, innovatsiya uchun qulay muhit yaratadi, tadqiqotlarni rag‘batlantiradi, startaplarning qonunchilikdagi to‘siqlarsiz ishlashiga yordam beradi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida innovatsiyani qo‘llab-quvvatlash tajribasi

Yo‘nalish	Asosiy mazmun	Samaradorlik	O‘zbekiston uchun ahamiyati
Davlat ko‘magi	Davlat grantlari va soliq imtiyozlari keng joriy etilgan	Startaplarning dastlabki moliyaviy barqarorligi ta’minlanadi	Davlat grantlari va subsidiyalar tizimini kuchaytirish
Xususiy sektor ishtirokidagi uyg‘unlik	Davlat qo‘llovi venchur kapital bilan uyg‘un holda ishlaydi	Startaplar moliya bilan ta’minlanishi bilan birga bozorga chiqish imkoniga ega bo‘ladi	Venchur moliyalashtirish institutlarini yo‘lga qo‘yish
Davlatning roli	Raqobatchi emas, balki qo‘llovchi va tartibga soluvchi	Innovatsiya uchun qulay muhit va qonunchilik imkoniyatlari yaratiladi	Qonunchilikni soddalashtirish va innovatsiya uchun qulay muhit yaratish
Sohaviy yo‘nalishlar	Biotexnologiya, raqamli iqtisodiyot, energiya tejash texnologiyalari	Startaplar yirik bozor ishtirokchilariga aylandi	O‘zbekistonda agrotexnika, qayta ishlash va raqamli iqtisodiyot sohalariga tatbiq etish
Innovatsion ekotizim	Universitet–biznes integratsiyasi, texnoparklar va ilmiy markazlar, davlat siyosatlari	Ilmiy g‘oyadan bozorga chiqishgacha to‘liq zanjir shakllangan	Universitetlar va biznes hamkorligini kuchaytirish, texnoparklarni rivojlantirish

Yevropa Ittifoqi tajribasidan yana shunday xulosaga kelish mumkinki, innovatsion startaplarni faqat moliya bilan ta’minlashning o‘zi yetarli emas, balki ularni bozorda muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun to‘laqonli ekotizim yaratish zarur. Bunday ekotizimga

universitet-biznes integratsiyasi, texnoparklar va ilmiy markazlar, venchur moliyalashtirish institutlari hamda davlatning rag‘batlantiruvchi siyosatlari kiradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va “yashil iqtisodiyot” yo‘nalishidagi innovatsiyalar alohida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Demak, Yevropa tajribasi O‘zbekiston uchun ham muhim ahamiyatga ega. Davlat grantlari va soliq imtiyozlarini venchur kapital bilan uyg‘unlashtirish orqali mahalliy startaplar raqobatbardoshligini oshirish, ularning ichki va tashqi bozorlarda muvaffaqiyat qozonishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Edler J., Fagerberg J. Innovation policy: What, why, and how// J. Oxford Review of Economic Policy. – Oxford: № 33 (1), 2017. – pp. 2-23.;

2. Kuhlmann S., Rip A. Innovation policy impact: A complex systems perspective// Handbook of Innovation Policy Impact. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2018. – pp. 9-32.;

3. Carayannis E. G., Campbell D. F. J. Innovation systems and policy// Global Encyclopedia of Public Administration, Public Policy, and Governance. – Cham: Springer, 2021. – pp. 1-9.

4. ShabanovV.L., VasilchenkoM.Ya., DerunovaE.A., Potapov A.P. Formation of an Export-Oriented Agricultural 5. Economy and Regional Open Innovations// J. Open Innovation:

6. Technology, Market, and Complexity. – Basel: № 7 (1), 2021. https://www.mdpi.com/2199-8531/7/1/32

7. Ying Qin, Shouliang Guo. The Impact of Regional Policies on the Efficiency of Scientific and Technological Innovation in Universities:

8. Evidence from China// Sustainability. – Chengdu: 2024.https://www.mdpi.com/2071-1050/16/23/10775;

9. Gridchina A.,Orekhova L.,Lyubimtseva L. Agrarian Policy of the Region in Terms of Economic Development Innovation//

10. International Journal of Economics and Financial Issues. – Turkey: № 6 (8S), 2016. – pp. 54–59. kabi manbalar asosida ishlab chiqilgan.

ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И АВТОМАТИЗАЦИИ НА ТРАНСФОРМАЦИЮ МЕСТНОГО ПРОИЗВОДСТВА

Мухамадиева Кибриё Баходировна
Преподаватель кафедры «Современные информационные технологии»
Узбекский государственный университет мировых языков

Современный промышленный сектор переживает глубокую трансформацию под воздействием глобальной экономики, изменчивых рыночных условий и нестабильности цепочек поставок. В таких условиях вопрос уже не сводится к тому, *как* производить больше, а заключается в том, *как* производить умнее, гибче и эффективнее. Интеграция искусственного интеллекта (ИИ) и автоматизированных систем становится не абстрактной футурологической идеей, а насущной необходимостью, определяющей конкурентоспособность предприятий как на внутреннем, так и на международном рынках.

Искусственный интеллект в промышленности выходит за рамки простой замены человеческого труда машинами. Это инструмент анализа,

прогнозирования и оптимизации, открывающий новые горизонты в управлении производственными процессами.

Одним из ключевых направлений является оптимизация производственных процессов. Использование предиктивного обслуживания позволяет предотвращать сбои за счет анализа данных с датчиков, что минимизирует простои и продлевает срок эксплуатации оборудования. Интеллектуальные алгоритмы также находят применение в управлении цепочками поставок, обеспечивая точное прогнозирование спроса и сокращая издержки[3]. Существенное значение имеет энергоэффективность: «умные» системы способны регулировать потребление электроэнергии в реальном времени, снижая издержки и повышая устойчивость производства.

Вторая важная сфера — это контроль качества. Автоматизированные системы с элементами компьютерного зрения позволяют достигать точности, недоступной человеческому глазу. Камеры высокого разрешения и нейросетевые алгоритмы выявляют малейшие дефекты продукции, предотвращая попадание брака к потребителю.

Третьим направлением выступает гибкость и кастомизация производственных процессов. Современный рынок требует персонализированной продукции, и именно ИИ позволяет реализовать это требование. Роботизированные манипуляторы и технологии 3D-печати, управляемые интеллектуальными алгоритмами, обеспечивают быструю перенастройку линий под индивидуальные заказы[1].

Для местных предприятий внедрение ИИ становится стратегическим фактором выживания и роста. Автоматизация снижает себестоимость продукции, повышает её качество и открывает выход на международные рынки. Однако внедрение технологий трансформирует рынок труда: снижается потребность в низкоквалифицированной рабочей силе, но возникает спрос на специалистов нового поколения — инженеров-робототехников, аналитиков данных, операторов автоматизированных линий и техников по обслуживанию «умного» оборудования[1].

Первое и наиболее очевидное влияние ИИ ощущается в фундаментальной оптимизации всех производственных процессов. Вместо реагирования на уже случившиеся проблемы, интеллектуальные системы позволяют работать на опережение. Ярким примером является предиктивное обслуживание оборудования: анализируя данные с датчиков, таких как вибрация или температура, ИИ-алгоритмы предсказывают возможный сбой техники за недели до его возникновения. Это позволяет планировать техническое обслуживание, избегать дорогостоящих простоев и значительно продлевать срок службы станков. Параллельно ИИ трансформирует управление цепочками поставок, анализируя рыночные тенденции для прогнозирования спроса и оптимизации закупок сырья. В результате снижаются затраты на хранение и исключается как дефицит, так и излишки продукции. Кроме того, «умные» системы способны в реальном времени регулировать потребление электроэнергии оборудованием, что напрямую ведет к сокращению операционных расходов.

Таким образом, повысив внутреннюю эффективность, производитель может направить ресурсы на улучшение самого продукта. От конвейера к смарт-производству: Качество, гибкость и компьютерное зрение с ИИ После

оптимизации внутренних процессов следующим логическим шагом становится кардинальное повышение качества выпускаемой продукции[3]. Именно здесь на сцену выходит одна из самых мощных технологий — компьютерное зрение, усиленное искусственным интеллектом. Чтобы понять его роль, можно использовать простую аналогию: камера на производственной линии — это «глаз», а искусственный интеллект — «мозг». Без ИИ камера может лишь транслировать картинку. Но с ИИ система не просто «видит», а понимает, что именно она видит. Нейронные сети, обученные на тысячах примеров продукции, выполняют задачи, недоступные человеку[2]:

1. Человеческий глаз, каким бы тренированным он ни был, устает и может допускать ошибки. Современные системы компьютерного зрения лишены этого недостатка. Высокоточные камеры способны мгновенно обнаружить микротрещины в автомобильных деталях, отклонения в оттенке цвета на текстильной фабрике, неровности сварного шва или микроскопические ошибки в сборке электроники прямо на конвейере. Точность таких систем достигает 99,9%, что гарантирует соответствие самым строгим мировым стандартам.

2. не просто находит дефект, но и точно очерчивает его границы (сегментирует), измеряет его размер, глубину и определяет степень критичности. Это позволяет не просто отбраковывать изделие, а собирать ценную статистику, чтобы понять и устранить причину возникновения брака на предыдущих этапах.

3. Компьютерное зрение также следит за правильностью выполнения сборочных операций, направляет роботизированные манипуляторы и контролирует безопасность в цеху, например, проверяя, используют ли работники средства индивидуальной защиты.

Именно ИИ на базе глубокого обучения (Deep Learning) делает эту технологию такой мощной. В отличие от старых систем, которые работали по жестким, заранее запрограммированным правилам, современные нейросети самостоятельно обучаются на примерах «хорошей» и «бракованной» продукции, адаптируясь к новым видам изделий и дефектов.

Помимо безупречного качества, ИИ дает и гибкость. Современный потребитель все чаще требует персонализированный продукт. Автоматизированные системы, управляемые ИИ, позволяют быстро и без значительных затрат перенастраивать производственные линии под выпуск малых партий кастомизированной продукции. Такая трансформация от массового производства к «умному» и гибкому открывает новые рыночные ниши, но такой уровень автоматизации и «сверхчеловеческого» контроля неизбежно ставит вопрос о роли человека в этом новом технологическом укладе.

Интеграция ИИ не обязательно требует многомиллионных вложений на старте. Начать можно с малого:

1. *Провести аудит:* Определить наиболее проблемные и трудозатратные участки производства, где автоматизация даст максимальный эффект.

2. *Запустить пилотный проект:* Внедрить одну технологию на ограниченном участке, например, систему компьютерного зрения для контроля качества на одной линии.

3. *Использовать облачные решения:* Многие ИИ-сервисы доступны по подписке (SaaS), что снижает начальные затраты на оборудование и программное обеспечение.

4. *Инвестировать в людей:* Начать программы обучения для текущих сотрудников, готовя их к работе с новыми технологиями.

Использование искусственного интеллекта и автоматизации в производстве перестало быть модным трендом и превратилось в жизненно важный фактор экономического развития. Предприятия, которые начинают внедрять интеллектуальные технологии сегодня, формируют стратегическое преимущество на годы вперед, обеспечивая себе устойчивое положение в условиях глобальной конкуренции. Те же, кто продолжает полагаться на устаревшие методы, рискуют потерять позиции и оказаться на периферии рынка. Будущее местного производства связано не только с автоматизацией, но и с интеллектуализацией, где гармоничное сочетание технологий и человеческого потенциала становится ключевым фактором успеха.

Литературы:

1.*Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2023). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. W. W. Norton & Company.*

2.*Davenport, T. H. (2025). The AI Advantage: How to Put the Artificial Intelligence Revolution to Work. MIT Press.*

3.*World Economic Forum. (2024). The Future of Jobs Report 2024: Navigating the New Labor Market. Geneva: World Economic Forum.*

ВЕРОЯТНОСТНЫЙ АНАЛИЗ И ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ В ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Мадибрагимова Ирода Мухамедовна
Ферганский государственный технический университет ассистент

Современные условия функционирования экономики требуют от предприятий не только эффективного использования финансовых ресурсов, но и способности адаптироваться к неопределённости внешней среды. Особенно остро эта необходимость проявляется в сфере инновационной деятельности, где финансовые результаты обладают вероятностным характером. Для принятия обоснованных управленческих решений необходимо сочетание методов финансового анализа и инструментов теории вероятностей [1].

Инновационная деятельность по своей сути является процессом с высокой степенью неопределённости и риска. Введение новых технологий, продуктов и процессов сопровождается случайными изменениями рыночных факторов, которые невозможно точно предсказать [2].
В этих условиях показатели прибыли, затрат и эффективности инновационных проектов становятся случайными величинами.

Применение теории вероятностей позволяет количественно оценить вероятность достижения запланированных результатов, определить диапазон возможных отклонений и рассчитать риск. Так, математическое ожидание

прибыли инновационного проекта характеризует среднюю ожидаемую доходность, а дисперсия — уровень неопределённости финансового результата [3, 4].

Финансовое состояние предприятия отражает его способность выполнять обязательства, сохранять устойчивость и обеспечивать финансирование инновационных проектов. В процессе анализа целесообразно использовать вероятностные модели для оценки:

- вероятности банкротства и ликвидности;
- вероятности превышения расходов над доходами;
- уровня вариации показателей рентабельности и оборачиваемости.

Применение методов корреляционно-регрессионного анализа позволяет определить зависимость между инновационными затратами и финансовыми результатами [2, 5]. Коэффициент вариации

$$V = \frac{\sigma}{E(X)} \times 100\%,$$

используется для количественной оценки степени финансового риска: чем выше показатель, тем менее устойчиво предприятие [4].

Прогнозирование финансовых потоков в инновационных проектах основано на построении вероятностных сценариев будущих событий [6]. В качестве эффективных инструментов применяются:

- метод Монте-Карло, моделирующий множество возможных исходов для оценки вероятности достижения финансовых целей;
- байесовский подход, позволяющий корректировать прогнозы при поступлении новой информации;
- модели Марковских цепей, описывающие переход предприятия между состояниями устойчивости, риска и кризиса [4, 6].

Эти методы позволяют учитывать влияние случайных факторов, оценивать диапазон возможных колебаний денежных потоков и обеспечивать оптимальное распределение ресурсов [7].

Эффективное управление финансовыми потоками требует баланса между текущими расходами и инвестициями в инновации. С позиции вероятностного анализа управление включает:

- определение вероятности кассовых разрывов;
- моделирование вероятности дефицита ликвидности;
- формирование резервных фондов с учетом вероятности наступления неблагоприятных событий;
- оптимизацию структуры капитала на основе оценки вероятностных рисков [5, 7].

Применение вероятностных моделей способствует выработке финансовой стратегии, ориентированной на минимизацию рисков и обеспечение устойчивости инновационных проектов [8].

1. Использовать вероятностно-статистические методы при финансовом планировании инноваций для уменьшения субъективности прогнозов [2, 4].

2. Регулярно проводить моделирование сценариев (оптимистичных, реалистичных и пессимистичных) с оценкой вероятности их реализации [6].

3. Внедрять систему мониторинга рисков, основанную на вероятностных показателях [7].

4. Применять метод Монте-Карло при анализе чувствительности инновационных проектов к изменениям внешних факторов [6].

5. Разрабатывать механизмы управления финансовыми потоками с учетом распределения вероятностей поступлений и выплат [8].

Анализ и прогнозирование финансового состояния в инновационной деятельности тесно связаны с теорией вероятностей, поскольку финансовые показатели являются случайными величинами, зависящими от множества факторов. Применение вероятностных методов обеспечивает объективность и точность финансовых прогнозов, способствует эффективному управлению ресурсами и снижению рисков.Следовательно, интеграция теории вероятностей в финансовый менеджмент инновационной деятельности является важным направлением повышения устойчивости и конкурентоспособности предприятия [1, 4, 8].

Литературы:

1. *Ковалёв В.В. Финансовый анализ: методы и процедуры. — М.: Финансы и статистика, 2022.*
2. *Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. — М.: ИНФРА-М, 2021.*
3. *Лаплас П.-С. Опыт философии вероятностей. — М.: Наука, 2019.*
4. *Боровков А.А. Теория вероятностей. — СПб.: Лань, 2020.*
5. *Лимитовский М.А. Финансовый менеджмент инновационных предприятий. — М.: Дело, 2023.*
6. *Шарп У., Александер Г., Бейли Д. Инвестиции. — М.: ИНФРА-М, 2021.*
7. *Чистякова М.К. Риск и неопределенность в инновационной экономике. — М.: Экономика, 2022.*
8. *Грабова О.Н. Моделирование финансовых процессов в условиях риска. — Новосибирск: НГУ, 2023.*

INSON KAPITALINI OSHISHIDA REGRESSION-KORRELYATSION BOG‘LANISHNI AHAMIYATI

O‘razaliyev Shirinboy Bo‘ron o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Oliy matematika kafedrasi assistenti.

Inson kapitali iqtisodiy o‘sish, innovatsiyalar va raqobatbardoshlik uchun zarurdir. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda inson kapitalini oshirish orqali ishchi kuchining sifatini yaxshilash, yangi texnologiyalarni joriy etish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash mumkin.

Inson kapitali — bu shaxsning bilim, malaka, salomatlik, tajriba va ijodiy salohiyatini o‘z ichiga olgan iqtisodiy resursdir. Inson kapitali davlat va jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Inson kapitalini oshirishga ta’sir qiluvchi omillar:

- Ta’lim darajasi
- Sog‘liqni saqlash holati
- Malaka oshirish dasturlari
- Raqobatbardosh mehnat bozori
- Innovatsion tafakkur

Inson kapitali iqtisodiy o‘sishida korrelyatsion va regressiyon tahlil olib borish iqtisodiy nuqtayi nazardan juda ahamiyatli bo‘lib bu jarayonlar inson kapitalini oshirish strategiyalarini ishlab chiqishda juda katta yordam beradi.

Korrelyatsion tahlil - bu ikki yoki undan ortiq o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish usuli. Inson kapitali va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi korrelyatsiyani aniqlash uchun quyidagi bosqichlarni amalga oshirish mumkin yani O‘zbekistonning iqtisodiy ko‘rsatkichlari (YaIM, ish bilan ta’minlash darajasi, ta’lim darajasi va boshqalar) to‘planadi va Pearson yoki Spearman korrelyatsiya koeffitsienti yordamida o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi aniqlanadi.

Regressiyon tahlil - bu bir yoki bir nechta mustaqil o‘zgaruvchilar yordamida bog‘liq o‘zgaruvchini (masalan, inson kapitalini) prognoz qilish usuli. Ushbu tahlil yordamida inson kapitalining iqtisodiy o‘sishga ta’sirini aniqlash mumkin. Masalan, mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida ta’lim darajasi, sog‘liqni saqlash ko‘rsatkichlari va ish tajribasi tanlanadi. Bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida esa iqtisodiy o‘sish (YaIM) olinadi. Olingan ma’lumotlar asosida regressiya tenglamasi tuziladi. Misol sifatida

$$\text{YaIM} = a_0 + a_1 \cdot \text{Ta'lim} + a_2 \cdot \text{Sog'liq} + a_3 \cdot \text{Tajriba} + \varepsilon$$

Inson kapitalini tahlil qilishda regressiya-korrelyatsiyaning roli

a) O‘zaro bog‘liqlikni aniqlash

Masalan, quyidagi savollarga javob izlash mumkin:

- Ta’lim darajasi oshgan sari inson kapitali qanday o‘zgaradi?
- Sog‘liqni saqlashga investitsiya oshgan sari ishchi kuchining samaradorligi qanday ta’sirlanadi?

b) Qarorlar qabul qilishda yordam

Regressiya tahlili asosida quyidagi sohalarda qarorlar qabul qilinadi:

- Davlat siyosati (ta’lim va sog‘liqni saqlashga sarmoya ajratish)
- Biznes strategiyasi (xodimlarning malakasini oshirish dasturlari)
- Ijtimoiy dasturlarni rejalashtirish (xalq salomatligi, kambag‘allikni kamaytirish)

c) Prognoz qilish

Regressiya yordamida inson kapitalining kelajakdagi holatini bashorat qilish mumkin.

Regressiya koeffitsientlari yordamida har bir mustaqil o‘zgaruvchining bog‘liq o‘zgaruvchiga ta’siri aniqlanadi.

Biz misol sifatida Ta'lim darajasi va ish haqi o‘rtasidagi bog‘lanishni qarab chiqamiz. Bizda bir guruh ishchilarning ta'lim darajasi (yillarda) va ularning oylik ish haqi (dollar) haqida ma'lumotlar bor:

Ta'lim darajasi (yil): X	10	12	14	16	18
Oylik ish haqi (dollar): Y	200	300	400	500	600

Korrelyatsion tahlil yordamida biz ta'lim darajasi va oylik ish haqi o‘rtasidagi bog‘lanishni o‘rganamiz. Korrelyatsiya koeffitsienti r=(-1;1) gacha bo‘lgan qiymatga ega bo‘ladi. Agar r = 1 bo‘lsa, bu ikki o‘zgaruvchi o‘rtasida to‘liq ijobiy bog‘lanish mavjudligini anglatadi. Agar r = -1 bo‘lsa, to‘liq salbiy bog‘lanish mavjud. Agar r = 0 bo‘lsa, bog‘lanish yo‘q.

Korrelyatsiya koeffitsienti formulasiga ko‘ra

$$r_{xy} = \frac{\overline{y \cdot x} - \overline{y} \cdot \overline{x}}{\sigma_x * \sigma_y} = 1$$

Ushbu hisob-kitoblar orqali biz r=1 ekanligini topdik. Bundan ko‘rinadiki ta'lim darajasi va ish haqi o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘lanish mavjudligini anglatadi.

Regressiyon tahlil yordamida biz ta'lim darajasi asosida oylik ish haqini qanday prognoz qilish mumkinligini aniqlaymiz.

Tajribadan olingan ma’lumotlar asosida to‘g‘ri chiziqli regressiya tenglamasi quydagi ko‘rinishda bo‘ladi.

ŷ=a+bx

Bu yerdan a va b parametrlarni topadigan bo‘lsak

$$b = \frac{\overline{y \cdot x} - \overline{y} \cdot \overline{x}}{\sigma_x^2} = 50$$

$$a = \overline{y} - b \cdot \overline{x} = -300$$

ŷ=-300+50x

Bu tenglamadan kelib chiqadigan xulosa shuki xarajatning bir birlikka o‘zgarishi undan keladigan daromadni o‘rtacha 50 martaga oshishini ko‘rsatadi. Inson kapitalini oshirish iqtisodiy rivojlanish uchun muhimdir. Korrelyatsion va regressiyon tahlil metodlari yordamida inson kapitalining iqtisodiyotga ta'sirini chuqurroq tushunish mumkin. Ushbu tahlillar natijalari davlat siyosati va strategiyalarini ishlab chiqishda asos bo‘lishi mumkin.

Yana bir muhim jihat shundaki, inson kapitalini oshirish uchun ta'lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlarini yaxshilash zarur. Bu jarayonlar birgalikda amalga oshirilganda, mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Sh. Sharahmetov, O.Qurbonov, "Iqtisodchilar uchun matematika". ISBN 978-9943-07-554-2, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017.

2. A.Soliyev, S.Nosirova, Ya. Muxtarov, T.Bo‘riyev. Matematika. Iqtisodchilar uchun amaliy mashg‘ulotlar. O‘quv qo‘llanma – Samarqand: SamDU nashri 2021-200 bet.

3. X.Q.Qarshiboyev. "Ekonometrika". Toshkent. Iqtisod-Moliya. 2021.Darslik.

4. I.Habibullayev. « Ekonometrika ». Darslik. Toshkent. 2020.

5. A.R.Xoshimov. N.K.Ochilova. M.I.Axmedov. A.I. Sotvoldiyev. « Iqtisodiy matematika » .O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2018.

6. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

INNOVATSION FAOLIYATDA INVESTITSION QARORLAR VA MOLIYAVIY TAHLILNING ROLI

Bobomuradova Sarvinoz Ziyadullayevna

“International School of Finance, Technology and Science”

Samarqand filiali “Xalqaro moliyaviy boshqaruv” kafedrasi assistenti

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda innovatsion faoliyat raqobatbardoshlikni oshirish, samaradorlikni ta’minlash va barqaror rivojlanishga erishishda muhim omil hisoblanadi. Innovatsion loyihalarni amalga oshirishda investitsion qarorlar asosiy strategik yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday qarorlarning asoslangan va puxta tahlil etilishi moliyaviy tahlil vositalari orqali amalga oshiriladi. Shu sababli, moliyaviy tahlil innovatsion faoliyatni boshqarishda asosiy vosita hisoblanadi [1].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion faoliyat doirasida investitsion qarorlarni asoslashda moliyaviy tahlil vositalarining ahamiyati nihoyatda yuqori.

Moliyaviy tahlil yordamida loyihalarning iqtisodiy samaradorligi, rentabellik darajasi, kapital qaytaruvchanligi, moliyaviy xavf-xatarlar va resurslardan foydalanish samarasi aniq baholanadi. Ayniqsa, sof joriy qiymat, ichki rentabellik darajasi, rentabellik indeksi, o‘zini oqlash muddati kabi ko‘rsatkichlar investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini belgilovchi asosiy mezonlar sifatida xizmat qiladi [2].

Tahlil qilingan korxonalarning amaliy holati shuni ko‘rsatdiki, innovatsion yo‘nalishdagi loyihalarni moliyalashtirishda yuqoridagi moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida kompleks baholash usuli qo‘llanilganda investitsiya qarorlarining ishonchliligi oshadi. Masalan, sof joriy qiymat qiymati musbat bo‘lgan loyihalarda foyda olish ehtimoli yuqori bo‘lib, u korxona umumiy rentabelligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ichki rentabellik darajasi esa kapital sarmoyaning yillik ichki daromadlilik darajasini aniqlab, investorlar uchun muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Shu bilan birga, rentabellik indeksi ko‘rsatkichi sarmoya birligi hisobiga qanday foyda olish mumkinligini ko‘rsatadi, bu esa loyihalar o‘rtasida tanlov qilishda foydalidir [3].

Bundan tashqari, tahlil jarayonida korxonaning umumiy moliyaviy holati ham investitsion qarorlar qabul qilishga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida namoyon bo‘ldi. Jumladan, korxonaning likvidlik darajasi, moliyaviy barqarorligi, mavjud aktivlar tarkibi, qarzdorlik koeffitsientlari va pul oqimlarining holati sarmoya kiritish xavfsizligi va samaradorligiga bevosita bog‘liqdir. Innovatsion loyihalar, odatda, katta miqdordagi boshlang‘ich sarmoyani, uzoq muddatli kapital kiritmalarini va murakkab texnologik jarayonlarni talab qiladi. Shuning uchun moliyaviy tahlilda ushbu jihatlarning har biri chuqur va puxta hisobga olinishi lozim [4].

Tadqiqotda aniqlanishicha, moliyaviy tahlil natijalarini investitsion qarorlar qabul qilishga tatbiq qilish korxonalarning investitsiya portfellarini optimallashtirishga, risklarni diversifikatsiya qilishga va innovatsion faoliyatdan kutilayotgan iqtisodiy natijalarni aniq prognozlashga imkon beradi. Ayniqsa, raqobat sharoitida ishlovchi innovatsion korxonalar uchun investitsiya samaradorligini moliyaviy tahlil orqali baholash strategik ustunlikni ta’minlaydi.

Shuningdek, ba’zi holatlarda investitsion qarorlar texnik-iqtisodiy asoslar yetarlicha ishlab chiqilmagan holda qabul qilinayotgani ham kuzatildi. Bu esa risk darajasining oshishiga, sarmoyaning yo‘qotilishiga va innovatsion loyiha muvaffaqiyatsizligiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, moliyaviy tahlil faqat hisobot tayyorlash vositasi emas, balki real va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun strategik instrument sifatida qaralishi lozim.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida shuni xulosa qilish mumkinki, innovatsion faoliyat doirasida investitsion qarorlar samaradorligini oshirishda moliyaviy tahlil vositalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, sof joriy qiymat, ichki rentabellik darajasi, rentabellik indeksi va boshqa ko‘rsatkichlar asosida amalga oshirilgan chuqur tahlillar investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda ishonchli mezon sifatida xizmat qiladi.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirishda investitsion qarorlarni asoslash va moliyaviy tahlilning rolini kuchaytirish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

- korxonalarda moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish zarur. Bu esa xodimlar va menejerlar uchun maxsus treninglar va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish orqali amalga oshirilishi mumkin;

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda moliyaviy tahlil jarayonlarini raqamlashtirish lozim. Bu esa moliyaviy ma'lumotlarning aniqligi, tezkorligi va shaffofligini ta'minlaydi;
- investitsion risklarni baholashda statistik modellar va matematik prognozlash usullarini keng joriy etish tavsiya etiladi. Bu orqali loyihalarning uzoq muddatli moliyaviy oqibatlarini oldindan ko'ra olish imkoniyati yaratiladi;
- moliyaviy tahlil natijalarini strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asosiy manba sifatida kengroq tatbiq etish zarur. Bu esa investitsiyalarning maqsadga muvofiqligini ta'minlab, innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda moliyaviy tahlil va investitsion qarorlar qabul qilish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil qilish zarur. Mazkur yondashuv O'zbekiston sharoitida innovatsion rivojlanishni jadallashtirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omillardan biri sifatida qaralishi lozim.

Adabiyotlar:

1. *Fayzullayev A. "Innovatsion iqtisodiyot: nazariya va amaliyot", Toshkent, 2020.*
2. *Ross S., Westerfield R., Jordan B. "Fundamentals of Corporate Finance", McGraw-Hill Education, 2021.*
3. *Karimov B.A. "Investitsiyalar iqtisodiyoti va moliyasi", Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.*
4. *Murodov Sh.A. "Moliyaviy tahlil asoslari", Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2022.*

KO'P KVARTIRALI UYLARNI BOSHQARUV ORGANLARI TOMONIDAN AHOLIGA SIFATLI XIZMAT KO'RSATISHNI QO'LLAB QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Umarov Begzodbek Jaloldinovich
O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi
Ko'p xonadonli uy-joy fondini boshqarish va ekspluatatsiya qilish tizimini muvofiqlashtirish hamda renovatsiya loyihalarini umumlashtirish departamenti bosh mutaxassisi

Respublikada 1 million 400 mingga yaqin xonadondan iborat 42 198 ta ko'p kvartirali uylar mavjud bo'lib, ularga 821 ta boshqaruvchi tashkilotlar hamda 157 ta uy-joy mulkdorlari shirkatlari xizmat ko'rsatadi.

Shundan, 38 689 ta uylar 821 ta boshqaruv tashkilotlari tomonidan, 849 ta uy 157 ta shirkat tomonidan hamda 1129 ta uy bevosita mulkdorlar tomonidan boshqariladi.

Bugungi kunda mavjud ko'p qavatli uylarning 30 793 tasi ya'ni 73 foizi 1991 yilgacha qurilgan uylar bo'lib, shundan 9708 tasi (31 foizi) mukammal va joriy ta'mirga muhtoj.

Uylarning tutash hududlarida 9 312 ta bolalar maydonchasidan 7 702 tasi yaxshi holatda, 1 611 tasi ta'mirtalab ahvolda, 1 537 ta bolalar maydonchasi qurilishi kerak, 167 683 p/m irrigatsiya tarmoqlari, 75 million 915 ming kv.m yo'laklarni betonlash hamda 14 326 ta tashqi yoritish tizimini ta'mirlash va yangisiga almashtirishga ehtiyoj bor.

Uy-joy kodeksining 132-moddasida ko'p kvartirali uydagi turar joy va yashash uchun mo'ljallanmagan joylar mulkdori o'ziga qarashli turar joyni tegishli texnik va sanitariya holatida saqlashi, shuningdek ko'p kvartirali uydagi umumiy mol-mulkni va shu uyga tutash, obodonlashtirish elementlari bo'lgan yer uchastkasini saqlash bo'yicha xarajatlarni o'z zimmasiga olishi;

umumiy xarajatlarni, qoida tariqasida, majburiy badallar shaklida birgalikda zimmalariga olishi, bu badallar ko‘p kvartirali uydagi umumiy mol-mulkni boshqarish, unga xizmat ko‘rsatish, uni joriy va kapital ta’mirlash hamda ko‘p kvartirali uyga tutash yer uchastkasini saqlash xarajatlarining o‘rnini qoplashi kerakligi belgilangan [Uy-joy kodeksi, 24.11.1998y.].

O‘zbekiston Respublikasining “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish to‘g‘risidagi” 581-son Qonunining 16-moddasida umumiy mol-mulkni saqlash bo‘yicha umumiy xarajatlar joylarning mulkdorlari umumiy mol-mulkni saqlash bo‘yicha umumiy xarajatlarni birgalikda zimmasiga olishi shart ekanligi belgilpangan [Qonun-581, 07.11.2019 yil].

Umumiy mol-mulkni saqlash bo‘yicha umumiy xarajatlar umumiy mol-mulkni saqlash, undan foydalanish va uni ta’mirlash, shuningdek ko‘p kvartirali uyga tutash yer uchastkasini obodonlashtirish bilan bog‘liq xarajatlardan iboratdir [Qonun-581, 07.11.2019 yil].

Ko‘p qavatli uyylarda yashovchi mulkdorining umumiy mol-mulkni saqlash bo‘yicha umumiy xarajatlarda ishtirok etish ulushi ko‘p kvartirali uyning umumiy maydonidagi mulkdorga qarashli joy maydoni ulushiga mutanosib ravishda ko‘p kvartirali uyning kadastr pasportiga muvofiq belgilanadi [Qonun-581, 07.11.2019 yil].

Bundan tashqari, joylarning mulkdorlari umumiy mol-mulkni saqlash bo‘yicha xarajatlarni har oyda, qoida tariqasida, pul shaklida to‘lashi shart ekanligi belgilangan [Qonun-581, 07.11.2019 yil].

Bugungi kunda, Respublikadagi ko‘p kvartirali uylarni saqlash bilan bog‘liq bo‘lgan majburiy badal (to‘lovlar) 1 kv. metr uchun shaharlarda 650 so‘m bo‘lib, 2 xonali uyning o‘rtacha oylik to‘lovi (50 kv.metr) 32 500 so‘mni;

tumanlarda 350 so‘m bo‘lib, 2 xonali uyning o‘rtacha oylik to‘lovi (50 kv.metr) 17 500 so‘mni tashkil qiladi.

Misol uchun, ikki qavatli 16 xonadonli ko‘p kvartirali uyning umumiy maydoni jami 1152 kv. metrni tashkil etsa, bir oyda 400 so‘mdan (100%) to‘langan taqdirda bir oyda 460 800 so‘m, bir yilda 5 529 600 so‘mni tashkil etadi.

Bu o‘z navbatida ko‘p kvartirali uyning umumiy mol-mulkini va shu uyga tutash hududni saqlash hamda ta’mirlash, obodonlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarni amalga oshirish uchun yetarli hisoblanmaydi.

Yuqoridagi holatlarning yuzaga kelishiga quyidagi omillar sabab bo‘lmoqda:

mulkdorlar orasida uydagi umumiy mulk, uyni saqlash va boshqarish madaniyatining shakllanmaganligi;

“muammolarni davlatning o‘zi hal qiladi” qabiladagi tushunchalarning aholi orasida ustuvorligi;

Qonun va qonunchilik hujjatlarida uylarni boshqari va saqlash kafolatlari belgilanmaganligi. Ya’ni mulkdorlarga uyni boshqarish va saqlash bilan bog‘liq sifatli xizmatlar, uyni boshqarish organiga to‘lovlar kafolatlanmagan;

uyning vakillik organi instituti shakllanmagan (aksariyat hollarda “domkom”);

hududlarda (asosan tumanlarda) aholining daramadlari va uylarni kapital ta’mirlash harajatlarining nomutanosibligi va h.k.

Ushbu kelib muammolarni o‘rganib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-avgustdagi “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarishni yanada samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-278-son qarori qabul qilingan bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirigiga

tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda ko‘p qavatli uylarni meyor darajasida saqlash xarajatlarining minimal narhlarini ishlab chiqish topshirig‘i berildi.

Shundan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining 2024-yil 12-martdagi “Ko‘p kvartirali uylarda umumiy mol-mulkni saqlash, undan foydalanish va uni ta’mirlash hamda ko‘p kvartirali uyga tutash yer uchastkasini obodonlashtirish uchun majburiy badallar yoki to‘lovlarning eng kam miqdorini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 01/2-4-son buyrug‘i qabul qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 15-martda ro‘yxatdan o‘tkazildi [ro‘yxat raqami 3501].

Ushbu nomativ xujjatga asosan boshqaruv organi tomonidan ko‘p kvartirali uylarni saqlash majburiy badal pullarining eng kam miqdori ushbu ko‘p kvartirali uylarni talab darajasida saqlanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan xizmatlar va ishlarning minimal ro‘yhatidan kelib chiqadi.

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi xududlardagi ko‘p qavatli uylarni qavatlar tasnifi bo‘yicha minial narxlarini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish to‘g‘risida”gi Qonuning 16-moddasi, 6-xatboshida umumiy mol-mulkni saqlash, undan foydalanish va uni ta’mirlash hamda ko‘p kvartirali uyga tutash yer uchastkasini obodonlashtirish uchun joylar mulkdorlari majburiy badallarining yoki to‘lovlarining miqdori umumiy yig‘ilish qarori bilan belgilanadi.

Bundan kelib chiqib, boshqaruv organi majburiy badal yoki to‘lovlar miqdorini belgilashda ushbu uyning saqlash xarajatlari aks etgan xarajatlar smetasini umumiy yig‘ilishga taqdim etishi va uni mummiy yig‘ilish bayonnomasi bilan tasdiqlatishi kerak bo‘ladi.

Har bir mulkdor boshqaruv organi (boshqaruv tashkiloti, shirkat, o‘z-o‘zini boshqarish) tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha “mulkdor nazorati”ni o‘rnatish kerakligi ushbu uylarni foydalanish muddatini uzayishiga xizmat qiladi.

Bu bilan ko‘p qavatli uylarda belgilangan tartibda saqlash va axoliga qulay shaoitlar yaratishga erishiladi.

Zero, O‘zbekiston Rsepublikasida yashayotgan har bir inson qulay sharoitlarda yashash huquiga ega.

Adabiyotlar:

1. *Rahimov Q. E. Kommunal infratuzilma obyektlari menejmenti: darslik. – Toshkent: 2022.*
2. *Оперативное управление жилищно-коммунальным хозяйством: учебное пособие / Под ред. Е. И. Богомольного. – М.: Издательство «Проспект», 2016.*
3. *O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi.*
4. *O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 7-noyabrdagi “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish to‘g‘risida”gi O‘RQ–581-sonli Qonuni.*
5. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi PQ–5152-son qarori.*
6. *Rasmiy statistika portali: www.ru.worldstat.info*
7. *O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi: www.stat.uz*
8. *BMT Aholi statistika portali: www.population.un.org*

ХУФИЁНА ИҚТИСОДИЁТНИ ҚИСҚАРТИРИШ МАҚСАДИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ СОҲАСИДА ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИҒИНИНГ “НОЛЬ” СТАВКАСИНИ ҚЎЛЛАШ ОРҚАЛИ СОЛИҚ МАЪМУРЧИЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Маматқулов Салимжон Рахмонкулович
Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги
Бюджет-солиқ илмий тадқиқотлари институти
Солиқ, божхона ва тариф сиёсатини такомиллаштириш
лойиҳаси бўлим бошлиғи,
ТДИУ мустақил изланувчиси

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 04.09.2025 йилдаги “Қишлоқ хўжалиги соҳасида қўшилган қиймат солиғини ҳисоблашнинг соддалаштирилган тартибини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-153-сон Фармони билан 2026 йил 1 январдан бошлаб қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари(пахта ва ғалладан ташқари)га қўшилган қиймат солиғининг ноль ставкаси жорий этилди.[1]

Фармон қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларининг юқори солиқ юки, соядаги иқтисодиёт ва хуфиёна пул айланмаларини ҳисобга олиб қабул қилинди. У агросаноатда молиявий барқарорлик, ликвидлик ва расмий ҳисоб-китоб механизмларини кенгайтиришга қаратилган. Кўзланган мақсад - солиқ маъмурчилигини соддалаштириш, рақобатбардошликни ошириш ва хуфиёна иқтисодиётни қисқартиришдир.

Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазири И.Абдураҳмонов “2026 йилдан бошлаб қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига ҚҚСнинг бекор қилиниши республикадаги барча фермерларнинг ярмига, яъни тахминан *48 минг нафар* фермерларга таъсир кўрсатишини таъкидлади. Башоратларга кўра, ушбу чора туфайли қишлоқ хўжалигидаги рентабеллик даражаси ҳозирги *5–7 фоиз*дан келажакда *15 фоизгача* кўтарилади” деган фикрни билдирган.[2]

Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига ҚҚС ставкасини нолга тушириш бўйича қабул қилинган меъёрий хужжат занжир иштирокчилари учун қандай таъсир кўрсатишини кўриб чиқамиз. Ҳисоб-китобларни соддалаштириш мақсадида шартли маълумотлардан фойдаланамиз.

1-ҳолат. Фараз қилайлик, бизда маҳсулотнинг қўшилган қийматини яратишнинг қуйидаги технологик занжири мавжуд: "Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарувчиси (фермер) - қайта ишловчи (консерва заводи) - чакана сотувчи".

Амалдаги ҳолат. Шартли мисолда фермер хўжалиги 1 кг маҳсулот етиштириш учун етказиб берувчилардан моддий-техника ресурсларини 892,9 сўмга (ҚҚССиз) харид қилади. Етиштирган маҳсулоти учун 3 000 сўмлик қўшимча қиймат яратилиб, 467,1 сўм ҚҚС ҳисоблайди ва маҳсулотни ҚҚС билан 4 360,0 сўмдан сотади. Давлат бюджетига эса 360,0 сўм ҚҚС тўлайди (467,1 сўм ҳисобланган ҚҚС – 107,1 сўм кирим қилинган ҚҚС). Шартли равишда қайта ишловчи корхона учун устама миқдорини 25%, чакана сотувчи учун 20% қилиб белгимаймиз.

Янги тизим бўйича. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига (пахта ва ғалладан ташқари) нол ставка жорий этилгандан сўнг, фермер моддий-техника ресурслари

ва хизматлар учун тўланган 107,1 сўм ҚҚСни қайтариб олади. Умумий ҳисобда фермер ҳар 1 кг маҳсулотдан 467,1 сўм миқдорида қўшимча фойда олади (−107,1 − 360,0 = −467,1).

Қайта ишловчи корхона. Амалдаги ҳолат бўйича корхона 1 кг хом ашёни 4 360,1 сўмдан (шундан 467,1 сўм ҚҚС) сотиб олади. Уни қайта ишлаб, чакана корхонага ҚҚС билан 5 450,0 сўмга (шундан 583,9 сўм ҚҚС) сотади. Бюджетга эса 116,8 сўм тўлайди (583,9 – 467,1).

Янги тизим бўйича эса у 116,8 ўрнига 583,9 сўм тўлайди. Шу тариқа қайта ишловчи корхона учун ҚҚСдан йўқотиш 467,1 сўмни ташкил қилади.

Чакана сотувчи. Амалдаги ҳолат бўйича маҳсулотни 5 450,0 сўмдан (шунда ҚҚС 583,9 сўм) сотиб олади, маҳсулотига устама миқдори билан 6 540,0 сўмдан сотади (шундан 700,7 сўм ҚҚС). Бюджетга 116,8 сўм тўлайди (700,7 – 583,9).

Янги тизим бўйича ҳам бюджетга айнан 116,8 сўм тўлайди. Шунинг учун унда ҳеч қандай ўзгариш бўлмайди.

Хулоса. 1-ҳолатда ҚҚСнинг нол ставкаси жорий этилиши натижасида фермер катта фойда кўради, чакана савдо корхоналарида ўзгариш йўқ, қайта ишловчи корхоналар эса ҚҚСдан йўқотиш ҳисобига харажатлари ошади.

2-ҳолат. Фараз қилайлик, иқтисодиётда қуйидаги хўжалик алоқалари занжири мавжуд: "қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарувчиси (фермер) - экспортчи. Шартли равишда, экспортчининг устамаси 10 фоиз деб қабул қиламиз.

Бунда, фермер ўзи етиштирган қишлоқ хўжалиги маҳсулотини бевосита экспортчига сотади, у эса кейинчалик чет элга сотади.

Шундай қилиб, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига ҚҚС ставкаси нолга туширилгандан сўнг, фермер фойда кўради, экспортчи эса ўзгаришсиз қолади (чунки қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ҚҚССиз харид қилинади ва у давлат бюджетидан ҚҚСни қайтариб олмайди).

Ушбу фармон қабул қилинишинг ижобий жиҳатлари:

- Фермерлар учун ликвидлик ошади: ҚҚС тўламаслик ва маҳсулот ишлаб чиқариш учун сарфланган харажатлар учун тўланган қўшилган қиймат солиғини қайтариб олиш имкониятини яратиш орқали фаолиятини кўпроқ расмийлаштиришга қизиқиш пайдо бўлади.

- Таъминот занжири расмийлашади.

- Солиқ юки камаяди: етиштирувчида кўпроқ маблағ қолади.

- Инвестиция имкониятлари кенгаяди: қўшимча маблағлар техника ва технологияларга йўналтирилади.

- Ишлаб чиқариш хажми ошади: фермерларга имтиёз берилганлиги натижасида маҳсулотларни кўпроқ етиштириш хоҳиши пайдо бўлади.

- Ишлаб чиқариш хажмини аниқлаш имконияти пайдо бўлади: харид қилинган товарлар расмийлаштирилиши натижасида харид қилинган уруғ, сарфланган ёқилғи ва бошқа харажатлардан келиб чиқиб етиштирилган маҳсулот ҳажмини тахминан аниқлаш имкони пайдо бўлади.

Хориж тажрибаси

Европа мамлакатларида ҚҚСнинг пасайтирилган ва нол ставкалари ҳамда ҚҚСдан озод қилиш амалиёти мавжуд. Пасайтирилган ставкада тўланган солиқ қайтарилади, озод этилганда эса қайтарилмайди. Кўп ҳолларда тиббий, таълим,

молиявий хизматлар ва турар-жой ижараси ҚҚСдан озод этилган, озиқ-овқат маҳсулотларига эса пасайтирилган ставка қўлланилади (Франция – 5,5%, Германия – 7%, Ҳиндистон – 5% ёки 0%).[3]

Шуни таъкидлаш керакки, *ягона ҚҚС ставкаси*ни афзал кўрадиган мамлакатлар ҳам мавжуд бўлиб, бу солиқ маъмуриятчилигини соддалаштиради ва солиқ суистеъмолликлари эҳтимолини камайтиради. Одатда, булар паст ставкага эга мамлакатлардир (Сингапур - 9%, Тайван - 5%, Жанубий Корея - 10%) аммо бу мамлакатларда ҳам ноль ставкалар (асосан экспортда) ва ҚҚСдан озод қилиш амал қилади.

*Туркия*даҚҚС (KDV) стандарт ставкаси 18% бўлиб, қайта ишланган маҳсулотларга қўлланади. Хом қишлоқ хўжалик маҳсулотларига паст ставкалар (0%, 1%, 8%) ёки истиснолар қўлланади. Паст ставка тизими аниқ рўйхат ва талабларга боғланган, лекин маъмурий мураккаблик, назорат қийинлиги ва солиқдан қочиш каби муаммоларни келтириб чиқаради.[4]

Хорижий тажриба асосида Ўзбекистонда янги тартиб жорий этилиши муносабати билан *юзага келиши мумкин бўлган иқтисодий хавфлар қуйидагилардан иборат:*

1. *Нарх ошиши:* улгуржи ва чакана савдода солиқ юки ортиши ҳисобига қишлоқ хўжалиги маҳсулоти якуний истеъмолчига қимматга тушиши мумкин;

2. *Импорт ҳажми ўсиши:* қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштирувчиларига ички бозорда 0% ставка, импортда эса ҚҚС сақланиши рақобатга таъсир кўрсатиши мумкин;

3. *Истеъмолчи қатламга таъсири:* нархлар ошиши ҳисобига кам таъминланган қатламнинг қишлоқ хўжалик маҳсулотларини харид қилиш қобилияти камайиши мумкин.

4. *Нақдга сотиш хавфи:* кичик майдонга эга *(яъни 10 гектаргача)* фермерлар қишлоқ хўжалик маҳсулотларини ҳануз нақдга сотишни давом эттириш эҳтимоли юқори. Сабаби, бухгалтерия ҳисобини юритиш мажбуриятидан қочиш ҳамда фермердан тўғридан-тўғри маҳсулот сотиб олаётган ишлаб чиқарувчи, улгуржи ва чакана савдо корхоналари нақдга ишлашга ундаши оқибатида хуфиёна иқтисодиёт давом этиши мумкин.

Иқтисодий хавфларни олдини олиш бўйича қуйидагилар таклиф этилади:

1. Ривожланган мамлакатларда (Англия, Франция, Германия) қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари учун пасайтирилган ёки 0% ҚҚС ишлаб чиқарувчидан то якуний истеъмолчига қадар бир хил қўлланади. Шу муносабат билан аниқ маҳсулотларга занжир бўйича пасайтирилган ставка тўлиқ жорий этилиши лозим. *(қайта ишланмаган гўшт, картошка, пиёз, сабзи, карам ва х/к).*

2. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини фермердан харид қилишда 0% ставка қўлланилиши нархни 8–9%га ошириши мумкинлигини инобатга олган ҳолда, барча фуқаролар қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари учун қўшимча кешбэк қайтариш тизимини жорий қилиш. (*бу амалиёт Ўзбекистонда мавжуд фақат барча харидлар учун 1% қилиб белгиланган).*

3. “Ижтимоий ҳимоя ягона реестри” ахборот тизими ёки “Камбағал оилалар реестри” ахборот модулига киритилган жисмоний шахслар томонидан сотиб олинганда қўшилган қиймат солиғи суммаси қайтариб бериладиган айрим турдаги озиқ-овқат маҳсулотлари рўйхатини кенгайтирган ҳолда барча қишлоқ хўжалик маҳсулотлари учун жорий этиш.

4. Фермерлар учун бозорларда махсус расталар ёки электрон платформаларда жойлар ажратиш орқали товарларни тўғридан-тўғри истеъмолчига етказиш имкониятини яратиш, шу жумладан логистика харажатлари ва маркетплейс хақлари давлат томонидан субсидияланиши ва агрологистика марказлари орқали республика бўйлаб маҳсулотларни тарқатиш тизимини жорий қилиш.

5. Фермерларга тўғридан-тўғри чакана савдода солиқ маъмурчилигини енгиллаштириш мақсадида, онлайн назорат касса техникасини сотиб олиш билан боғлиқ харажатлари тўланадиган солиқлардан чегирилиши ва QR код орқали тўловларни амалга ошириш имкониятини жорий қилиш.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 4 сентябрдаги ПФ-153-сон Фармони.

2. https://kun.uz/kr/25904887?utm

3. https://europa.eu/youreurope/business/taxation/vat/vat-rules-rates.

4. https://taxsummaries.pwc.com/turkey/corporate/other-taxes?utm

ФИНАНСОВОЕ ПРОГНОЗИРОВАНИЕ КАК ИНСТРУМЕНТ СТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Гулямова Асия Нурутдинова

старший преподаватель кафедры «Экономическая теория» Ташкентского филиала РЭУ им. Г.В. Плеханова

Финансовое прогнозирование играет важную роль в обеспечении устойчивого развития инновационных предприятий, так как позволяет заранее оценить будущие финансовые потребности, рационально планировать инвестиции в инновации, укреплять стабильность и повышать инвестиционную привлекательность. Кроме того, оно служит фундаментом финансового планирования, помогает выявлять возможные риски и перспективы, а также принимать обоснованные стратегические решения, направленные на дальнейший рост и развитие компании.

В Республике Узбекистан Указом Президента №165, утверждена программа инновационного развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы [1].Целью стратегии является создание в Узбекистане инновационной экономики, основанной на знаниях, технологиях и научных достижениях, повышение конкурентоспособности страны и обеспечение устойчивого социально-экономического роста.

Основными задачами является решение следующих вопросов:

- Развитие национальной инновационной системы, повышение роли науки и внедрение научных разработок в производство, формирование кадрового потенциала для инноваций, а также стимулирование частных инвестиций и государственно-частного партнёрства в сфере инноваций.
- Цифровизация экономики и государственного управления.
- Поддержка стартапов и инновационного предпринимательства.

• Развитие международного сотрудничества и трансфера технологий.

Проводя анализ стратегии, мы можем выделить как положительные так и ее стороны, так и проблемные моменты (см. Таб. 1).

1-таблица

Анализ стратегии

№	Положительные стороны:	Проблемные моменты:
1	Комплексный подход — стратегия охватывает образование, науку, бизнес, госуправление и международное сотрудничество	Недостаточная интеграция науки и бизнеса (слабая коммерциализация разработок)
2	Институциональные реформы — планируется усиление роли Министерства инновационного развития, создание инновационных кластеров и центров	Ограниченное финансирование НИОКР (Научно-исследовательские и опытно-конструкторские работы) в частном секторе
3	Цифровизация — акцент на цифровые технологии и интеллектуальные решения в экономике	Неравномерное развитие регионов (инновационные центры сосредоточены в крупных городах)
4	Инвестиции в кадры — особое внимание подготовке исследователей и инноваторов	Необходимость повышения качества образования и менеджмента инноваций

К 2026 году можно ожидать следующие результаты:

• Рост расходов на НИОКР (научные исследования и опытно-конструкторские разработки).

• Повышение доли инновационных предприятий, расширение сети технопарков, инкубаторов, центров трансфера технологий,

• Увеличение числа патентов и научных публикаций, а также улучшение позиций Узбекистана в глобальных рейтингах инноваций (Global Innovation Index).

Согласно Указа Президента №165 от 06.07.2022 года, мы рассмотрели показатели с 2022 по 2026 года (см. Таб.2).

Как видим, в прогнозной таблице к 2026 году Республика Узбекистан планирует значительно укрепить свои позиции в сфере инновационного развития. Ожидается повышение места в рейтинге Глобального инновационного индекса с 86-го в 2022 году [2] до 56-го в 2026 году, что свидетельствует о последовательной реализации государственной инновационной политики.

Вторым показателем показано увеличение развития инфраструктуры инновационной деятельности: количества технопарков, центров трансфера технологий, инновационных кластеров, и других субъектов должно увеличится с 25 до 75 единиц.

Прогнозируется рост числа инновационно активных предприятий промышленного сектора — с 613 единиц в 2022 году, до 2 250 в 2026 году, что отражает расширение инновационного потенциала и усиление предпринимательской активности в стране.

2-таблица

Ориентиры развития инновационных предприятий на 2022-2026 годы

Показатели	Единица измерения	Текущий показатель 2022 года	Показатели по годам			
			2023	2024	2025	2026
Улучшение позиции Республики Узбекистан в рейтинге Глобального инновационного индекса	место	86	74	68	62	56
Количество субъектов инфраструктуры инновационной деятельности (технопарки, центры трансфера технологий, инновационные кластеры, венчурные фонды, инновационные центры, бизнес-инкубаторы и акселераторы)	ед.	25	45	55	65	75
Количество инновационное активных субъектов предпринимательства (в общем количестве организаций промышленного производства)	ед.	613	930	1215	1500	2250

Несмотря на то, что фактический показатель по позиции Узбекистана в Глобальном инновационном индексе за 2025 год (79-е место) не достиг запланированного уровня (65-е место), страна продолжает демонстрировать поступательное развитие и сохраняет статус государства с динамично развивающейся экономикой, последовательно совершенствуя инновационную инфраструктуру и потенциал [3, с.3].

Однако в процессе реализации сохраняются ряд проблем, сдерживающих развитие инновационной деятельности, такие как:

- наличие административных барьеров и недостаточно развитая инновация культура на предприятиях;
- дефицит квалифицированных специалистов;
- высокая зависимость от иностранных технологий и инвестиций;
- ограниченные объемы финансирования инновационных проектах.

В связи с этим в современных условиях, возникает острая необходимость активного внедрения финансового стимулирования и привлечения инвестиций, направленных на развитие инновационных продуктов и услуг в предпринимательском секторе.

В решении проблемы дефицита квалифицированных специалистов в сфере инновационных предприятий целесообразно усилить систему подготовки и переподготовки кадров, развивать сотрудничество между вузами и бизнесом, внедрять дуальные образовательные программы, а также стимулировать

привлечение молодых специалистов и талантливых выпускников в инновационные проекты.

С целью снижения высокой зависимости от иностранных технологий и инвестиций необходимо активнее развивать национальные исследовательские центры, поддерживать собственные научно-технологические разработки и создавать благоприятные условия для привлечения внутренних инвестиций в инновационные предприятия.

Важно совершенствовать институциональные механизмы государственной поддержки инноваций, обеспечивая при этом развитие малого и среднего бизнеса с учетом и специфики и потенциала каждого региона страны.

Литературы:

1. Указ Президента №165 от 06.07.2022 года, «Об утверждении стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы». Электронный ресурс: https://lex.uz/uz/docs/6102464

2. Глобальный инновационный индекс 2022 года. Электронный ресурс: https://www.wipo.int/ru/web/global-innovation-index/2022/index

3. Узбекистан поднялся на 79-е место в Глобальном инновационном индексе 2025 года. 17/09/2025. Электронный ресурс: https://www.uzdaily.uz/ru/uzbekistan-podnialsia-na-79-e-mesto-v-globalnom-innovatsionnom-indekse-2025-goda/

ВЛИЯНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЛИКВИДНОСТЬ И ПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ

Газиева Фаридахон Файзуллаевна
Ташкентский Государственный Экономический Университет,
Факультет финансов, Финансы и финансовые технологии

Будучи одним из наиболее продвинутых и актуальных направлений, Fintech пользуется широким спросом среди предпринимателей и коммерческих организаций. В Узбекистане на данный момент насчитывается 103 финтех-компании, которые получили инвестиционную поддержку со стороны иностранных предприятий в размере 260 млн долларов.[1] Для инкубации финтех-стартапов создаются венчурные фонды, такие как Imkon Ventures. К 2030 году откроется более 1000 рабочих мест, планируется инвестировать в 30 проектов.[2] Это свидетельствует о заинтересованности предприятий в передовых технологиях, которые при эффективном внедрении, способны значительно увеличить ликвидность и соответственно платежеспособность организаций.

Инновационные финансовые технологии это совокупность цифровых инструментов, основной задачей которых является обеспечение эффективного управления финансовыми потоками, минимизации транзакционных взысканий, дистанционного обслуживания. Они также способствуют развитию транспарентности, что является одним из ключевых преимуществ инновационной экономики. Внедрение данных инструментов напрямую влияет на ликвидность предприятий, иными словами способность преобразовывать активы в денежные средства без потерь, своевременно покрывать долговые

обязательства.[3] Платежеспособным предприятие можно назвать в том случае если его активы преобладают над задолженностями.

1-таблица

Влияние платежных сервисов на финансовые показатели

Компания	Показатель (год)	Финансовый результат	Изменение, % к предыдущему периоду	Влияние на ликвидность и платёжеспособность предприятий
Click	Годовая выручка (2024 г.)	$34,9 млн	+35,3 %	Повышение оборота платёжных операций и ускорение взаиморасчётов между контрагентами. Увеличение устойчивости платформы и расширение её финансовых возможностей для обслуживания бизнеса.
	Чистая прибыль (2024 г.)	$14,8 млн	+37,5 %	
Payme	Годовая выручка (2023 г.)	$26,9 млн	+39 %	Расширение рынка цифровых платежей и ускорение оборота средств предприятий. Финансовая устойчивость платформы укрепляет доверие участников рынка и повышает стабильность платёжных потоков.
	Чистая прибыль (2023 г.)	$17,1 млн	+35,3 %	
TBC Uzbekistan	Операционный доход (1 кв. 2025 г.)	$57 млн	+118 %	Расширение масштабов цифрового банкинга и кредитования бизнеса, рост доступности ликвидных средств. Увеличение объёма оборотного капитала предприятий, повышение способности покрывать обязательства. Рост доверия бизнеса к цифровым инструментам и увеличение ликвидных активов в экономике.
	Кредитный портфель (2025 г.)	$949,5 млн	+113 %	
	Депозитный портфель (2025 г.)	$517.09 млн	+93 %	

Финансовые технологии широко применяются в качестве вспомогательного бизнес-инструмента и выполняют функции платежа, кредитования, инвестирования, аналитики и консультации. Рассмотрим несколько примеров. Система планирования ресурсов предприятия ERP позволяет видеть целостную картину предприятия, то есть его финансовое положение, отслеживать состояние оборудования и выпускаемой продукции, контролировать персонал, а самое главное, следить за дебиторской и кредиторской задолженностью путем автоматического формирования отчетов. Электронные платежные системы заметно ускоряют движение финансовых потоков, устраняя проблему просрочки погашения дебиторских задолженностей, что заметно увеличивает платежеспособность и ликвидность компаний. Системы прогнозирования на основе Big-Data и искусственный интеллект AI могут выполнять функции финансового аналитика, собирая и обрабатывая огромные объемы информации.

В данном случае роботизация имеет положительный эффект на совокупный доход компании, так как механизация процессов, требующих усилий нескольких сотрудников позволяет существенно сократить издержки. Поскольку заработные платы работников входят в структуру операционных расходов предприятия, можно понять какое влияние снижение этих затрат оказывает на саму ликвидность организации. Исходя из полученных данных можем отслеживать изменения в оборотном капитале, предугадывать риски, прогнозировать и предотвращать кассовые разрывы, негативно отражающиеся на общей способности предприятия выполнять свои долговые обязательства. При временном дефиците ликвидности можно воспользоваться такими финансовыми инструментами как краудфандинг или P2P- кредитование. Это позволяет предприятиям использовать альтернативные источники финансирования, снижая зависимость от кредитной политики банков. Данный ход минимизирует риск банкротства предприятия.

Наиболее востребованные платежные системы Узбекистана Click и Payme демонстрируют положительную динамику развития. Эти платежные сервисы предоставляют услуги как физическим, так и юридическим лицам. На сегодняшний день Click обслуживают 20 млн зарегистрированных пользователей , а Payme 4.2 млн каждый месяц. Совокупный оборот Click в 2023 году составил 60 трлн сумов, [5] что стало подтверждением ускорения темпов движения денежных потоков за счет бесконтактных цифровых платежей. Все это непосредственно влияет на ликвидность компаний. Электронные платежные системы ускоряют движение денег, сокращая дебиторскую задолженность и усиливая платёжеспособность. Цифровая банковская экосистема TBC Uzbekistan оказывает услуги мобильного банкинга через приложение TBC UZ, они разработали TBC Business для малого и среднего бизнеса и страховую компанию TBC Sug‘urta. [4]

В таблице выше предоставлен анализ прироста доходов 3 популярных сервисов. Исходя из данных видно, что все компании демонстрируют *устойчивый рост финансовых показателей* — выручки, прибыли и кредитно-депозитных портфелей. По завершении 2024 года компания Click продемонстрировала рост чистой прибыли на 37,5 % благодаря расширению спектра услуг и ускорению финансовых операций между контрагентами. Была зафиксирована положительная динамика роста сервиса Payme. Годовая выручка в 2023 году составила 26,9 млн долларов. Совершенствование приложения Payme Business укрепило клиентскую базу за счет удобства пользования. Сервис предоставляет 3 вида касс: касса для приема платежей с биллингом, касса для приема платежей без биллинга, а также касса для приема оплаты на месте. TBC укрепляют позиции на рынке цифровых банковских услуг. На конец июня кредитный портфель TBC Bank составлял 11,44 трлн сумов, показав годовой рост на 113%.[6] Сервис выдает кредиты для развития бизнеса в размере 300млн сум и принимает депозиты юридических лиц от 13 до 24 месяцев под ставку 19%. Наличие спроса подтверждает стремительное развитие рынка цифровых финансовых услуг и укрепление доверия со стороны бизнеса. Благодаря автоматизации и удобству платёжных инструментов, компании получают возможность эффективнее управлять финансовыми потоками и снижать операционные риски.

Литературы:

1. Финтех-компании Узбекистана привлекли свыше $260 млн // Kapital.uz. — 11.09.2025. — Режим доступа: https://kapital.uz/finteh-260-mln/ (дата обращения: 24.10.2025).

2. Национальное информационное агентство Узбекистана. В Узбекистане для поддержки стартапов запущен венчурный фонд // Uza.uz. — 04.06.2025. — Режим доступа: https://uza.uz/ru/posts/v-uzbekistane-dlya-podderzhki-startapov-zapuschen-venchurnyy-fond_727268 (дата обращения: 24.10.2025).

3. Яркулова М. А. Анализ ликвидности и платежеспособности нефтеперерабатывающих предприятий в современных условиях // Экономическое развитие и анализ. – 2024. – Т. 2, № 2. – С. 715–722. – URL: https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/45130 (дата обращения: 24.10.2025).

4. TBC Bank Uzbekistan.https://tbcbank.uz/ (дата обращения: 24.10.2025).

5. Click закрыл 2023 год с оборотом более 60 трлн сумов // Spot.uz, 29 февр. 2024 [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://www.spot.uz/ru/2024/02/29/click/ (дата обращения: 24.10.2025).

6. «Доход TBC Bank Uzbekistan удвоился в первом полугодии, прибыль выросла на 30%» // Spot. — 08.08.2025. — Режим доступа: https://www.spot.uz/ru/2025/08/08/tbc-h1-2025/ (дата обращения: 24.10.2025).

INNOVATSION FAOLIYATDA LIKVIDLIK VA TO‘LOVGA QOBILIYATLILIKNI BAHOLASH

Qo‘shayev To‘xtasin Abdiqodirovich
Termiz davlat universiteti “Moliya” kafedrasi o‘qituvchisi

Yil	Daromad (mlrd so‘m)	Xarajat (mlrd so‘m)	Foyda (mlrd so‘m)	Aktivlar (mlrd so‘m)	Majburiyatlar (mlrd so‘m)	Investitsiya (mlrd so‘m)
2020	18.5	15.9	2.6	20.1	8.5	1.2
2021	21.0	17.8	3.2	23.6	9.2	1.5
2022	24.8	20.4	4.4	26.3	10.0	1.9
2023	27.5	22.5	5.0	28.7	10.8	2.3
2024	30.2	24.9	5.3	31.4	11.2	2.6

1. Moliyaviy tahlil

a) Rentabellik darajasi

Foyda va daromad nisbati asosida hisoblanadi: Rentabellik = Foyda / Daromad × 100%

2-jadval.

“Barqaror” MChJning 2020-2024 yillar bo‘yicha rentabellik ko‘rsatkichi

Yil	Rentabellik (%)
2020	14.1
2021	15.2
2022	17.7
2023	18.2
2024	17.5

Tahlil: Korxonaning rentabellik darajasi 2020–2023 yillarda barqaror o‘sish tendensiyasiga ega. 2024-yilda ozgina pasayish kuzatilgan, bu ishlab chiqarish hajmining kengayishi bilan bog‘liq xarajatlar ortganini bildiradi.

b) Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti

Moliyaviy mustaqillik = (Aktivlar – Majburiyatlar) / Aktivlar

3-jadval.

“Barqaror” MChJning 2020-2024 yillar bo‘yicha mustaqillik koeffitsienti

Yil	Mustaqillik koeffitsienti
2020	0.58
2021	0.61
2022	0.62
2023	0.62
2024	0.64

Tahlil: Ko‘rsatkichning 0.6 dan yuqori bo‘lishi korxonaning o‘z mablag‘lariga tayanish darajasi yetarli ekanini anglatadi. Bu moliyaviy barqarorlik yaxshi ekanini ko‘rsatadi.

2. Prognozlash (trend asosida 2025-yil uchun):

Trendni aniqlash (o‘sish sur’ati)

Har yili korxonaning sof foydasi o‘rtacha taxminan 18–20% ga oshgan. Masalan:

- 2020 → 2021: (3.2−2.5)/2.5 = 28%
- 2021 → 2022: (3.7−3.2)/3.2 = 16%
- 2022 → 2023: (4.1−3.7)/3.7 = 11%
- 2023 → 2024: (4.8−4.1)/4.1 = 17%

O‘rtacha o‘sish ≈ 18%

2025-yil uchun prognoz

Soddalik uchun trend bo‘yicha 18% o‘sish deb olamiz:

- 2025-yil sof foyda prognozi**:** 4.8×1.18=5.66 mlrd so‘m
- Daromad prognozi:17.3×1.10=19.0 mlrd so‘m
- Xarajat prognozi:12.5×1.07=13.4 mlrd so‘m

Moliyaviy holatni prognozlash jarayonida e’tiborli jihat shundaki, korxonaning o‘tgan yillardagi ko‘rsatkichlari asosida qurilgan model strategik rejalashtirishda

muhim axborot manbai sifatida xizmat qiladi. Shunday qilib, tahlil va prognozlash jarayonlarini uyg‘unlashtirish korxona boshqaruvida samarali qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Korxonaning moliyaviy holatini muntazam tahlil qilish uning iqtisodiy barqarorligini baholash va xavflarni erta aniqlash imkonini beradi.
2. Moliyaviy tahlilda likvidlik, rentabellik, moliyaviy mustaqillik va aylanma koeffitsientlari asosiy mezonlar sifatida qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.
3. Prognozlashda ekonometrik modellar (ayniqsa regressiya tahlili) moliyaviy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashda yuqori samaradorlik beradi.
4. Tahlil va prognoz natijalariga asoslanib, korxona boshqaruvi foyda hajmini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va investitsion oqimlarni optimallashtirish bo‘yicha strategik qarorlar ishlab chiqishi mumkin.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, korxonaning moliyaviy holatini chuqur o‘rganish va uning asosida prognozlash zamonaviy iqtisodiy boshqaruvning ajralmas qismidir. Moliyaviy tahlil korxona faoliyatining samaradorligini baholash, ichki imkoniyatlarini aniqlash va risklarni kamaytirish imkonini beradi.

“Barqaror” MChJ moliyaviy ko‘rsatkichlarini tahlil qilib quyidagi takliflarni keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir:

1. Daromadni oshirish uchun mahsulot turlarini ko‘paytirish va eksport ulushini kengaytirish zarur.
2. Xarajatlarni kamaytirish maqsadida energiya tejamkor texnologiyalar va avtomatlashtirilgan uskunalardan foydalanish kerak.
3. Foydani rejalashtirish uchun naqd pul oqimini nazorat qilish va har chorakda moliyaviy tahlil o‘tkazish lozim.
4. Investitsiyalarni jalb etish orqali ishlab chiqarish quvvatini oshirish va yangi loyihalarni yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi.
5. Prognoz natijalariga asoslanib, kelgusi yillarga mo‘ljallangan strategik rivojlanish rejasini ishlab chiqish foydali bo‘ladi.

Prognozlash esa tahlil natijalariga asoslanib, kelajakdagi moliyaviy oqimlarni, foyda va xarajatlar nisbatini, investitsiya ehtiyojlarini belgilashga xizmat qiladi.

Shu bois, korxonalar moliyaviy tahlilni muntazam olib borish, iqtisodiy ko‘rsatkichlarni monitoring qilish va ularni prognozlash asosida strategik qarorlar ishlab chiqish orqali o‘z moliyaviy barqarorligini ta’minlashi lozim. Natijada, bu yondashuv korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi, investitsion jozibadorligini kuchaytiradi va barqaror rivojlanish uchun zamin yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Qarshiyev Q., Hojiev A., Ahmedov N. Iqtisodiy tahlil: nazariy asoslari va amaliy yo‘nalishlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 312 b.

2. Jo‘rayev O. Korxonalar moliyaviy ko‘rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish usullari. – Toshkent, 2021.

3. Anthony, R. N., Reece, J. S. Accounting: Text and Cases. – Boston: Irwin/McGraw-Hill, 2010. – 752 p.

4. Sheremet A. D., Kovalyov V. V. Finansoviy analiz: o‘quv qo‘llanma. – Moskva: INFRA-M, 2018. – 432 b.

5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti. – URL: https://stat.uz

AKSIYADORLIK JAMIYATLARINI MOLIYALASHTIRISHDA MOLIYAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISH AMALIYOTI

Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna
TDIU tayanch doktaranti
orcid.org:0009-0009-1860-202X

Kapital bozorining moliyaviy instumenti bo'lgan obligatsiyalar aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirishda muhim vositalardan biridir. Obligatsiya qarz munosabatlarini bilduruvchi qimmatli qog'oz bo'lib, kreditga alternativ vosita hisoblanadi. Obligatsiyaning bir nechta turlari mavjud, aksiyadorlik jamiyati o'ziga maqbulni tanlashi va moliyaviy strategiyasidan kelib chiqqan holda emissiyani amalga oshirishi mumkin. Seriyali obligatsiyalar emissiyasi amalga oshirish esa korxonaga bir qancha imkoniyatlar taqdim etadi.

Seriyali obligatsiya bu qarz instrumentinining shunday turiki, unda asosiy qarz mag'lag'ini bo'lib-bo'lib to'lash imkoni yaratiladi. Seriyali obligatsiyalar orqali bir obligatsiya dasturi doirasida ma'lum vaqt oralig'ida bir nechta seriyalar ko'rinishida qarz intrumentini emissiya qilish, ochiq yoki yopiq tarzda joylashtirish mumkin. Har bir seriya bozorga moslanuvchan kupon foizlarida chiqariladi. Seriyali obligatsiyalar dasturi qarzni strategik va barqaror tarzda boshqarish imkonini beradi.

Seriyali obligatsiyalarni bosqichma-bosqich emissiya qilinuvchi va so'ndiriluvchi obligatsiyalar deyish mumkin. Xalqaro amaliyotda seriyali obligatsiyalar asosan, davlat va munisipal obligatsiyalar tarzida chiqariladi. Korporativ emitentlar esa infratuzilma loyihalari va uzoq muddatli investitsiyalarni, masalan, uy-joy qurilishi loyihalarini moliyalashtirishda seriyali obligatsiya chiqarish amaliyotidan foydalanishlari mumkin. Aksiyadorlik jamiyatlari seriyali obligatsiyalardan foydalanish orqali bir qancha ustunliklarga erishadi:

- yirik qarzni bosqichma-bosqich jalb qilish;
- turli muddatli obligatsiyalarni emissiya qilish;
- bozor sharoitiga qarab seriya shartlarni moslashtirish;
- pul oqimi harakatini optimallashtirish;
- past foizli kapitalga ega bo'lish;

Seriyali obligatsiyalar investorlar uchun ham jozibali moliyaviy instrument bo'lib, investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

*Bir obligatsiya dasturi doirasida bir necha seriyalar bilan chiqariladigan obligatsiyalarning,*har bir seriyasi:

- *chiqarilish muddati*
- *to'lanish sanasi*
- *foiz stavkasi*
- *joylashtirish hajmi*bilan farq qilishi mumkin.

Bu turdagi onligatsiya korporativ emitentlar uchun moslanuvchan, arzonroq va imidj jihatidan foydali moliyalashtirish usuli hisoblanadi.

Bugungi kunda xalqaro va mahalliy fond bozorida seriyali obligatsiyalar savdosi keng tarqalgan. Xususan, Qozog'iztonda seriyali obligatsiyalar davlat va korporativ sector tomonidan keng foydalaniladigan qimmatli qog'oz bo'lib, ular qarz jalb etish

jarayonini bosqichma-bosqich, barqaror va bozorga moslanuvchan shaklda amalga oshirilib kelinmoqda.

1-jadval

Seriyali obligatsiyalar emissiyasi (Qozog‘iston misolida)

Emitent	Dastur nomi	Seriyalar soni	Valyuta	Kupon stavka oralig‘i %	Bozor	So‘nggi seriya yili
BI Development	Debut Bond Programme	4	KZT	10.5–11.5	KASE	2024
KEGOC	Bond Programme	3	KZT	9.5–10.2	KASE	2023
Kazakhstan Temir Zholy (KTZ)	Bond Programme	6	KZT & USD	8.9–11.0	KASE / AIX	2024
KazTransOil	Medium-Term Bond Programme	2	KZT	9.25–10.75	KASE	2023
Development Bank of Kazakhstan (DBK)	DBK Eurobond / KASE Programme	8+	KZT & USD	3.5–10.0	AIX / KASE	2025
Eurasian Bank	Corporate Bond Programme	5	KZT	11.0–12.25	KASE	2024
ForteBank	Bond Programme	4	KZT	10.0–11.0	KASE	2024
Kaspi Bank	Medium-Term Note Programme	3	KZT	9.0–10.5	KASE	2023
Halyk Bank	EMTN Programme	4	USD / KZT	3.75–11.25	AIX / LSE	2023
Samruk-Energy	Corporate Bond Programme	3	KZT	10.0–10.8	KASE	2024
KazMunayGas	Eurobond / KASE Programme	10+	USD & KZT	3.5–10.5	AIX / LSE / KASE	2025
Kaspi.kz	Note Programme	2	KZT	9.0–10.0	AIX	2024

Qozog‘istondagi yirik qurilish kompaniyasi bo‘lgan BI Development “Debut bond programme” orqali 2021-2025 yillar oralig‘ida bir nechta seriya obligatsiyalar emissiya qilib, mahalliy bozorga muvaffaqiyotli joylashtirib kelmoqda. Bu obligatsiya dasturi doirasida kompaniya bir vaqtning o‘zida tenge va dollarda mablag‘ jalb qildi. Bu kompaniyaga turli investorlarni jalb qilish va valyuta riskini diversifikatsiya qilish imkonini berdi. Jalb qilingan mablag‘lar orqali qurilish loyihalari moliyalshtirilmoqda. Ikkilamchi bozorda ham BI Developmentning seriyali obligatsiyalar dasturi doirasida chiqarilgan qimmatli qog‘ozlari yuqori likvidlikka ega. Kompaniya obligatsiyalari Qozog‘iston fond birjasi (KASE) va Ostona xalqaro birjasi (AIX) da joylashtirilgan.

“Qozog‘iston Barqarorlik jamg‘armasi” aksiyadorlik jamiyati 2023-2025 yillar oralig‘ida turli muddat va kupon stavkali seriyali obligatsiyalarni joylashtirgan. Bu obligatsiyalar emissiya orqali kompaniya bir vaqtning o‘zida pensiya fondlari, banklar

va xususiy investorlarni jalb qildi. Bundan tashqari emitent ijtimoiy va yashil obligatsiyalr orqali imidjini kuchaytirdi. Seriyali obligatsiyalar orqali jalb qilingan mablag‘lar kompaniya vazifalaridan kelib chiqqan holda aholi farovonligini oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashdan bilan bog‘liq loyihalarga yo‘naltiriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, seriyali obligatsiyalar emissiya xarajatlarini kamaytiradi, obligatsiyalarni fond bozoriga joylashtirishni tezlashtiradi. Seriyali obligatsiyalar moslanuvchan va jozibali moliyaviy instrument hisoblanadi. Bundan tashqari seriyali obligatsiyalar emissiya orqali kompaniya bozorda kredit reytingini va o‘z mavqeini oshirishi mumkin. Turli valyuta va muddatlarda obligatsiyalar chiqarish risklarni kamaytirishga yordam beradi. Dastlab kichik hajmgadi seriyani joylashtirish orqali emitent bozor holati va investor talabini baholashi mumkin. Shu orqali keyinchalik yirik hajmga ega bo‘lgan obligatsiya seriyasini joylashtirishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. *Fabozzi, F. J.Bond Markets, Analysis and Strategies. Massachusetts Institute of Technology, 2007*
2. *Kidwell, D. S., Blackwell, D. W., Whidbee, D. A., & Sias, R. W. Financial Institutions, Markets, and Money.2016*
3. *Robbins, M. D., & Simonsen, W. “The Effect of Serial Bond Structures on Municipal Borrowing Costs.” Public Budgeting & Finance, 30(3),2010. 79–94.*
4. *https://www.fitchratings.com/entity/kazakhstan-sustainability-fund-joint-stock-company-96868498*
5. *https://aix.kz/issuers/bi-development-ltd-bipc4-0627/*
6. *https://kase.kz/ru/investors/instruments/bonds*

KORXONALARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA INVESTITSION VA MOLIYAVIY FAOLIYATNING AHAMIYATI

Umarova Shaxnoza Keldiyor qizi
Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti PhD tayanch doktoranti
Orcid: 0000-0002-0624-2380

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida innovatsion rivojlanish va investitsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylangan. Prezident Sh. M. Mirziyoyev Toshkent xalqaro investitsiya forumida ta’kidlaganidek: “Bugun esa sizlar bilan tajriba almashish, aniq loyihalaringizni amalga oshirish, yangi tashabbus va takliflar bo‘yicha yaqindan maslahatlashib olamiz”[1]. Ushbu fikr innovatsion loyihalarning iqtisodiyotda tutgan o‘rni va ularni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan investitsion faoliyatning ahamiyatini ko‘rsatadi. Shuningdek, Prezidentimizning Xorijiy investorlar kengashidagi nutqida: “Avvalgi uchrashuvlarimiz o‘z samarasini bera boshladi. Strategik ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishlarni atroflicha muhokama qildik” [2]. Bu fikr innovatsion rivojlanishda strategik investitsiyalarning ustuvorligini asoslab beradi. Davlat tomonidan yaratilayotgan barqaror soliq muhiti ham korxonalar uchun muhimdir. Prezidentning “Biznes uchun bazaviy soliq stavkalari 2028-yilgacha o‘zgarmasligini ta’minlaymiz” [3] degan bayonoti korxonalarga uzoq muddatli investitsion rejalashtirish imkonini beradi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, korxonalarni innovatsion rivojlantirishda investitsion faoliyat asosiy kapital qo‘yilmalari orqali modernizatsiyani ta’minlasa,

moliyaviy faoliyat ushbu resurslardan oqilona foydalanish va samaradorlikni baholash imkonini beradi. Quyida keltiriladigan 1-2-jadvallar orqali innovatsion texnologiyalarni joriy etish va yangi mahsulotlar ishlab chiqishda investitsiyalar hajmining ortishi korxonalar samaradorligini oshirsa, moliyaviy boshqaruv risklarni kamaytirish va nazorat mexanizmlarini kuchaytirishini ifodaladik.

1-jadval

Innovatsion rivojlanishda investitsion faoliyatning ahamiyati

Yo‘nalish	Ko‘rsatkichlar	Natija
Innovatsion texnologiyalarni joriy etish	Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi	Ishlab chiqarish samaradorligi oshadi
Mahsulot sifati va raqobatbardoshlik	Innovatsion mahsulot ulushi (%)	Eksport hajmi ortadi
Yangi bozorlarni egallash	Yangi mahsulotlar soni	Korxona daromadlari kengayadi

Jadval 1 ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion rivojlanishda investitsion faoliyatning asosiy yo‘nalishlari texnologiyalarni joriy etish, mahsulot sifatini oshirish va yangi bozorlarni egallash bilan chambarchas bog‘liqdir. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining ortishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirsa, innovatsion mahsulot ulushining ko‘payishi eksport salohiyatini kengaytiradi. Yangi mahsulotlar sonining ortishi esa korxona daromadlari va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

2-jadval

Korxonalar uchun moliyaviy faoliyatning vazifalari

Moliyaviy faoliyat vazifasi	Qo‘llaniladigan vositalar	Innovatsion rivojlanishga ta’siri
Moliyaviy resurslarni shakllantirish	Kredit, obligatsiya, venchur kapital	Innovatsion loyihalar moliyalashtiriladi
Moliyaviy nazorat va tahlil	NPV, IRR, Payback period	Samaradorlik baholanadi
Risklarni boshqarish	Diversifikatsiya, sug‘urta, hedjing	Moliyaviy barqarorlik ta’minlanadi

Jadval 2 ma’lumotlari esa moliyaviy faoliyatning vazifalarini yoritadi. Moliyaviy resurslarni shakllantirish manbalarining xilma-xilligi (kredit, obligatsiya, venchur kapital) innovatsion loyihalar uchun kapital ta’minotini kengaytiradi. Moliyaviy nazorat va tahlil usullaridan (NPV, IRR, Payback period) foydalanish esa korxonalarning investitsion qarorlarini oqilona qabul qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, risklarni boshqarish vositalari – diversifikatsiya, sug‘urta va hedjing – innovatsion loyihalarning barqaror moliyaviy rivojlanishini ta’minlaydi.

Shunday qilib, jadval ma’lumotlari korxonalarda investitsion va moliyaviy faoliyatning bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Olib borilgan tatqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar qilindi:

1.Innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun asosiy kapitalga yo‘naltiriladigan investitsiyalar hajmining oshishi ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

2.Innovatsion mahsulot ulushining ortishi nafaqat ichki bozorda raqobatbardoshlikni kuchaytiradi, balki eksport hajmini ham oshirishga xizmat qiladi.

3.Yangi mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining ko‘payishi korxona daromadlarini kengaytiradi va yangi bozor segmentlarini egallash imkonini beradi.

4. Moliyaviy faoliyat vazifalaridan biri bo‘lgan resurslarni shakllantirishning diversifikatsiyasi (qarz mablag‘lari, obligatsiyalar, venchur kapital) innovatsion loyihalarni barqaror moliyalashtirishni ta’minlaydi.

5. Moliyaviy nazorat va tahlil usullari (NPV, IRR, Payback period) innovatsion loyihalarning samaradorligini baholashda hal qiluvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

6. Risklarni boshqarish mexanizmlari – diversifikatsiya, sug‘urta va hedjing – korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta’minlash orqali innovatsion rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Korxonalarni innovatsion rivojlantirish sharoitida investitsion va moliyaviy faoliyatning ahamiyati beqiyosdir. Innovatsiyalarni amalga oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va mahsulot raqobatbardoshligini oshirish uchun avvalo investitsion resurslar zarur bo‘ladi. Shu bilan birga, ushbu resurslardan oqilona foydalanish, risklarni boshqarish va barqaror moliyaviy oqimlarni ta’minlash moliyaviy boshqaruvning asosiy vazifasidir.

Prezident Sh.M. Mirziyoyevning nutqlarida qayd etilganidek, korxonalarning yangi tashabbus va loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, biznes uchun soliq stavkalarining uzoq muddatli barqarorligini kafolatlash va xorijiy investorlar bilan samarali hamkorlik qilish mamlakat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishini tezlashtiradi. Bu esa, o‘z navbatida, korxonalar darajasida investitsion va moliyaviy faoliyatning uyg‘unligini talab etadi. Shunday qilib, investitsion va moliyaviy faoliyat bir-birini to‘ldiruvchi ikki asosiy ustun hisoblanadi. Ularning uyg‘unligi orqali: korxonalarning raqobatbardoshligi oshadi, barqaror iqtisodiy o‘sish ta’minlanadi, yangi bozor segmentlari egallanadi va xalqaro investitsion hamkorlik kengayadi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev, Sh.M. To‘rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutq. 10.06.2025 https://president.uz/oz/lists/view/8203

2. Mirziyoyev, Sh.M. Xorijiy investorlar kengashi majlisidagi nutq. 12.06.2025 https://invexi.org/uz/press/address-by-the-president-of-the-republic-of-uzbekistan-shavkat-mirziyoyev-at-the-meeting-of-the-foreign-investors-council/

3. Mirziyoyev, Sh.M. Shavkat Mirziyoyev Toshkentda Xorijiy investorlar kengashining uchinchi yalpi majlisidagi nutqi. https://vzglyad.uz/uz/2025/06/11/shavkat-mirziyoyev-toshkentda-xorijiy-investorlar-kengashining-uchinchi-yalpi-majlisini-otkazdi/

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida. 02.12.2017 https://president.uz/oz/lists/view/1309

5. Malikov, T. va Olimjonov, O. Moliya. Darslik. Samarkand: SIES nashriyoti. https://kitob.sies.uz/frontend/web/kitob/kitob_006357c951431e6.pdf

6. B.Toshmurodova. O.Xamdamov. Moliyaviy menejment. O‘quv qo‘llanma. Respublika Ma’naviyat va Ma’rifat Kengashi. https://edu.rmmk.uz/uploads/library-file/KK/KK/K_/1619435278.pdf

GAZ SANOATI KORXONALARIDA SUN’IY INTELLEKT LOYIHALARINI JORIY ETISH ORQALI KORXONALARNING MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA’MINLASH YO‘LLARI

Ergashev Muhibbek Aslam o‘g‘li
TDIU huzuridagi O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari ilmiy tadqiqot markazi mustaqil izlanuvchisi (PhD)

So‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonida gaz sanoati korxonalari uchun sun’iy intellekt texnologiyalarining ahamiyati keskin ortib bormoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalari hayotimizga chuqur kirib, raqamli transformatsiyaning muhim tarkibiy qismiga aylandi. U muntazam jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqaruv qarorlarini tezlashtirish orqali samaradorlikni oshirmoqda. Bugungi kunda sun’iy intellektning imkoniyatlaridan foydalanmagan hamda undan amaliy biznes qiymati chiqarmagan soha deyarli qolmagan. Shu sababli, sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada kengroq joriy etish hamda ularni biznes jarayonlariga chuqur integratsiya qilish kompaniyalar uchun texnologik xarajatlarni kamaytirish va operatsion samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Neft-gaz sanoatida sun’iy intellektning rivojlanish sur’atlari sezilarli darajada ortmoqda. Mazkur tendensiya bank sohasida shakllangan ilg‘or tajribalarni sanoat tarmoqlariga, jumladan, neft va gaz sohasiga transfer qilish jarayonida ham namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda dunyo miqyosida sun’iy intellekt texnologiyalari iqtisodiyot, ta’lim, sog‘liqni saqlash, xavfsizlik va boshqa strategik yo‘nalishlarda muhim omil sifatida shakllanmoqda. Ushbu texnologiyalar davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona va tejamkor foydalanish, hamda aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Natijada, sun’iy intellekt global miqyosda raqamli transformatsiya jarayonlarining ajralmas qismi sifatida davlat va xususiy sektor faoliyatining innovatsion asosda tashkil etilishiga turtki bermoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ham sun’iy intellekt sohasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatimiz ushbu yo‘nalishda xalqaro reytingda 17 pog‘ona yuqorilab, 188 davlat orasida 70-o‘rinni, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida esa yetakchi - 1-o‘rinni egalladi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, bu yutuqlar sohada amalga oshirilgan dastlabki chora-tadbirlarning amaliy samarasidir. Shu bilan birga, oldinda turgan ustuvor vazifalar sun’iy intellekt texnologiyalarini milliy iqtisodiyot tarmoqlariga chuqur integratsiya qilishni talab etadi. Mazkur maqsadni ro‘yobga chiqarish uchun 2030 yilgacha mo‘ljallangan “Sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasi” qabul qilinib, Raqamli texnologiyalar vazirligi huzurida maxsus ilmiy-amaliy markaz tashkil etildi. Ushbu tashabbuslar mamlakatda innovatsion iqtisodiyot va raqamli boshqaruv tizimining yangi bosqichga ko‘tarilishiga zamin yaratmoqda.

“Sun’iy intellektni tezroq rivojlantirish uchun doimiy ravishda ilg’or, o’zini oqlagan xorijiy va mahalliy tajribalarni o’rganib borish zarur. Buning uchun sohada samarali faoliyat yuritayotgan vatandoshlarimiz, xorijiy ekspertlar va xususiy sektor bilan yaqin hamkorlikni yo’lga qo’yish kerak” deb ta’kidlagan edilar davlatimiz rahbari[1].

Neft va gaz qazib olish bozorida, boshqa tarmoqlarda bo‘lgani kabi, ishlab chiqarish xarajatlari bo‘yicha keskin raqobat mavjud. Shu sababli kompaniyalar har bir quduqning ishlash samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, qazib olish xarajatlarini muntazam ravishda kamaytirishga intilmoqda. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlariga ilg‘or texnologiyalarni, xususan, sun’iy intellekt asosidagi tahliliy modellarni joriy etishni zarur qiladi. Mazkur yondashuv qazib olishning rentabelligini oshirish, texnik nosozliklarni erta aniqlash va moliyaviy yo‘qotishlarni minimallashtirish imkonini beradi. Rossiyada neft va gaz sanoati korxonalari sun’iy intellekt texnologiyalaridan o‘n yildan ortiq vaqt davomida faol foydalanib kelmoqda. Ushbu texnologiyalarni joriy etishning asosiy yo‘nalishlari “aqlli quduq” konsepsiyasini rivojlantirish, geologik qidiruv ishlarini takomillashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishdan iborat. Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, hatto ishlab chiqarish

samaradorligining o‘ndan bir foizga oshishi ham quduqlardan olinadigan umumiy neft-gaz hajmining katta miqyosi sababli kompaniyaga millionlab dollarlik iqtisodiy foyda keltiradi. Shu jihatdan sun’iy intellekt nafaqat texnik jarayonlarni avtomatlashtiradi, balki ishlab chiqarish samaradorligini keskin oshiruvchi strategik vosita sifatida o‘zini namoyon qilmoqda.

So‘nggi yillarda neft va gaz sanoatida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Yirik xorijiy xizmat ko‘rsatuvchi kompaniyalarning Rossiya bozoridan chiqib ketishi natijasida mahalliy neft-gaz korxonalari sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarini mustaqil ravishda rivojlantirish zaruratiga duch keldi. Shu sababli, ular ichki AI mutaxassislik guruhlarini shakllantirish, milliy bilim va ma’lumotlar bazalariga tayanish, hamda sun’iy intellekt modellarini o‘z sharoitlariga moslashtirish jarayoniga faol kirishgan. Bu o‘zgarishlar natijasida Rossiya kompaniyalari ilgari global IT xizmatlariga tayanib amalga oshirilgan tahliliy va bashoratli jarayonlarni endi o‘z resurslari asosida yo‘lga qo‘ymoqda. Natijada, ular nafaqat tashqi texnologiyalarga bog‘liqlikni kamaytirmoqda, balki o‘zining innovatsion salohiyatini mustahkamlash, raqamli mustaqillikni ta’minlash va ichki ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar.

Bundan tashqari Xitoy neft va gaz konlarini boshqarishda milliy sun’iy intellekt platformalarini yaratish orqali xorijiy texnologiyalarga qaramlikni kamaytirishga intilmoqda. Hindistonda esa AI yordamida geologik qidiruv xaritalarini tahlil qilish va konlarni aniqlash jarayonlari avtomatlashtirilmoqda. AQSh va Norvegiya kompaniyalari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida “aqlli quduqlar” (smart wells) tizimini keng joriy etmoqda. Shunday qilib, hozirda dunyoning ko‘plab mamlakatlari neft va gaz sohasida sun’iy intellekt texnologiyalarini milliy darajada rivojlantirish, ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish tizimlarini takomillashtirish, hamda resurslardan samarali foydalanish orqali raqobatbardoshlikni oshirish yo‘lidan bormoqda.

Kaplan va Haenlein tadqiqotida sun’iy intellekt texnologiyalari ishlab chiqarish jarayonlarida inson omilini qisqartirish, qaror qabul qilish tezligini oshirish hamda korxona resurslarini optimal taqsimlash orqali moliyaviy barqarorlikka bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlanadi[2]. O‘rganilgan ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, gaz sanoati korxonalarida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini joriy etish moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda strategik ahamiyatga ega omil hisoblanadi. Kaplan va Haenlein (2020) ta’kidlaganidek, sun’iy intellekt ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, inson omiliga bog‘liqlikni kamaytirish hamda qaror qabul qilish tezligini oshirish orqali korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.

So‘nggi yillarda ko‘plab yirik sanoat korxonalari muntazam operatsiyalarni avtomatlashtirish va sun’iy intellektning ommaviy qo‘llanilish holatlarini amaliyotga tatbiq etishga muvaffaq bo‘ldi. Shu bilan birga, korxonada AI texnologiyalarini rivojlantirishning keyingi bosqichlari ma’lumotlarni to‘plash, ularni tahlilga tayyorlash hamda modellarni o‘qitish jarayonlarida chuqur texnik bilim va tajribani talab qiladi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, eng yuqori samaradorlikka yuqori malakali mutaxassislar va sun’iy intellekt modellarining sinergiyasi natijasida erishish mumkin. Bunday gibrid yondashuv inson tafakkuri va tajribasining afzalliklarini saqlagan holda, AI texnologiyalarining tezkor tahlil va aniqlik imkoniyatlarini birlashtiradi. Natijada, inson salohiyati maksimal darajada namoyon bo‘ladi, sun’iy intellekt tizimlarining cheklovlari esa minimallashtiriladi. To‘xtayev o‘z tadqiqotida O‘zbekiston sanoat

korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlari, xususan, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali mablag'lar oqimini nazorat qilish va xarajatlarni avtomatik tahlil qilish tizimlarini joriy etish zarurligini ko'rsatgan[3].

Gaz sanoatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, inson omilini kamaytirish va ekspluatatsion xarajatlarni optimallashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Shu bilan birga, bu jarayonlar energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni kamaytirish orqali atrof-muhitni muhofaza qilishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, kompaniya faoliyatida AI asosida ishlovchi monitoring va prognozlash tizimini joriy etish gaz ta'minoti jarayonining barcha bosqichlarini - gaz hajmini taqsimlash, iste'mol prognozlarini shakllantirish, quvurlar bosimini nazorat qilish va yetkazib berish zanjirini boshqarishni - avtomatlashtirish imkonini beradi.

Mazkur tizim iste'molchilar tomonidan gaz sarfini soatlik yoki kunlik tahlil asosida prognozlab, 5–7 kunlik ta'minot rejasini shakllantirish imkonini beradi. Bu esa gaz bosimining keskin o'zgarishlarini oldini olish, iste'molchilarga gaz yetkazib berishdagi uzilishlarni bartaraf etish hamda korxona uchun moliyaviy yo'qotishlarni minimallashtirish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, AI texnologiyalari asosida gaz tashuvchi transport vositalari uchun optimal marshrutlarni shakllantirish mumkin. OECD hisobotida sun'iy intellektning jamiyat va iqtisodiyotdagi o'rni keng yoritilib, energiya infratuzilmasi va gaz tarmoqlarida uni joriy etish barqarorlik, xavfsizlik va moliyaviy samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi qayd etilgan[4]. Bunda tizim harakat vaqtini, masofani, yoqilg'i sarfini hamda geografik sharoitlarni (balandlik, relyef, yo'l holati) hisobga olgan holda eng maqbul yo'nalishni aniqlaydi. Bu orqali transport xarajatlari qisqaradi, vaqt tejaladi, hamda atmosferaga chiqariladigan karbon gazi miqdori kamayadi.

Gaz sanoatida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish:

- ishlab chiqarish jarayonlarining raqamli transformatsiyasini tezlashtiradi;
- moliyaviy va operatsion samaradorlikni oshiradi;
- tarmoqdagi risklarni oldindan aniqlash va boshqarish imkonini yaratadi;
- hamda barqaror gaz ta'minoti tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Sodiqova o'z dissertatsiyasida energetika sohasida raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali moliyaviy oqimlarni prognozlash, risklarni kamaytirish va qaror qabul qilishda analitik modeldan foydalanish samarali natija berishini aniqlagan[5]. Olima tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, shuni ta'kidlash mumkinki, energetika va gaz sanoati korxonalarida raqamli boshqaruv tizimlari hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning zamonaviy yo'nalishlaridan biridir. Ushbu yondashuv orqali korxonalarda moliyaviy oqimlarni aniq prognozlash, risklarni kamaytirish, qaror qabul qilishda analitik modellarni qo'llash va resurslardan samarali foydalanish imkoniyati yaratiladi. Natijada, gaz sanoati korxonalari faoliyatining rentabelligi oshib, uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik darajasi mustahkamlanadi.

Adabiyotlar:

1. *https://president.uz/uz/lists/view/8545.*
2. *Kaplan A., Haenlein M. Rulers of the world, unite! The challenges and opportunities of artificial intelligence. // Business Horizons. - 2020. - Vol. 63(1). – P. 37–50.*
3. *To'xtayev Sh. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt asosida sanoat korxonalarida moliyaviy barqarorlikni boshqarish mexanizmlari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. - 2023. - №3. - B.*

4. *OECD. Artificial Intelligence in Society. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 210 p.*
5. *Sodiqova N. M. Energetika sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash yo'llari: PhD dissertatsiyasi. – TDIU, 2024.*

INVESTITSION MUHITNI YAXSHILASH VA XORIJIY KAPITAL UCHUN INSTITUTSIONAL SHAROITLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Abduraxmonov Azizbek Akram o'g'li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktoranti

Globallashuv va iqtisodiy integratsiya sharoitida har bir mamlakat milliy iqtisodiy o'sishni ta'minlashda xorijiy sarmoyalarning ahamiyatini chuqur anglamoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xorijiy investitsiyalar — nafaqat moliyaviy resurslar manbai, balki ilg'or texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va xalqaro bozorlar bilan bog'lovchi strategik vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, investitsion muhitni takomillashtirish, ya'ni xorijiy kapital oqimi uchun qulay institutsional va normativ-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga doir institutsional mexanizmlarni tubdan qayta ko'rib chiqishga, tadbirkorlik muhitini liberallashtirishga va investorlar huquqlarini kafolatlashga qaratilgan. Ammo mavjud qonunchilik tizimi, investorlar bilan ishlaydigan institutlarning muvofiqlashtirilmaganligi, sud-huquqiy sohadagi zaifliklar investitsion faollikni cheklab kelmoqda. Shu sababli, xorijiy kapitalni jalb qilish jarayonida institutsional islohotlarning izchil amalga oshirilishi zarur hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda investitsion muhitni baholashda asosan quyidagi yo'nalishlar hisobga olinadi: huquqiy kafolatlar tizimi, soliqqa tortish sharoitlari, yer va infratuzilma bilan ta'minlanganlik, moliyaviy tizimning ochiqligi, korruptsiyaga qarshi kurash mexanizmlari, shartnomalarning ijro etilishi va investor huquqlarini himoya qilish samaradorligi. Mazkur mezonlar bo'yicha O'zbekistonning bugungi holati tahlil qilinar ekan, quyidagi jihatlar ajralib turadi.

1. Huquqiy barqarorlik va investitsion xavfsizlik.

Huquqiy muhit – xorijiy investorlar uchun eng muhim institutsional omillardan biridir. Xususan, xorijiy sarmoyador mamlakatdagi investitsiya qonunchiligining mustahkamligi, huquqiy barqarorlik darajasi, bitimlar ijrosi va mulk huquqlari himoyasiga alohida e'tibor qaratadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda "Investitsiyalar va investitsion faoliyat to'g'risida"gi Qonun (2020) qabul qilinib, xorijiy investitsiyalar kafolatlari qonuniy mustahkamlangan. Biroq huquqni qo'llash amaliyoti, shartnomalar ijrosi va investorlar bilan bog'liq nizolarni hal etish jarayoni hanuz zamon talablari darajasida emas.

Masalan, sud tizimining iqtisodiy nizolarni tez, adolatli va xolis hal qilishdagi samarasizligi, xalqaro arbitraj qarorlarining ijro mexanizmlari noaniqligi xorijiy investorlar uchun yuqori huquqiy risklarni yuzaga keltirmoqda. Bundan tashqari, qonunchilikdagi tez-tez o'zgarishlar va normativ-huquqiy hujjatlar interpretatsiyasidagi farqlar investorlar ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday ekan, barqaror, prognoz qilinadigan va investorga yo'naltirilgan huquqiy muhitni ta'minlash zarur.

2. Institutsional infratuzilma.

Investitsion faoliyatda qatnashuvchi davlat va nodavlat tashkilotlar, ularning funksional muvofiqligi va vakolatlarining aniq chegaralanishi muhim institutsional omil sanaladi. O‘zbekistonda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, “Yagona darcha” markazlari, erkin iqtisodiy zonalar direksiyalari, Investitsiya kompaniyalari kabi ko‘plab institutlar faoliyat yuritmoqda. Biroq ular o‘rtasidagi vakolatlar chigalligi, ma’lumotlar uzluksizligining yetishmasligi va raqamlashtirish darajasining pastligi samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Investorlarga kerakli hujjatlarni tayyorlash, ruxsatnomalarni olish, yer ajratish, loyihalarni muvofiqlashtirish kabi jarayonlarda takrorlanish va byurokratik to‘siqlar mavjud. Bu esa, umumiy investitsion siklning cho‘zilishiga olib keladi. Shu bois, institutsional tuzilmalarni bir markazga birlashtirish, funksiyalarni raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish dolzarb vazifadir.

3. Soliq va bojxona sohasidagi imtiyozlar.

Xorijiy investorlar uchun soliqqa oid shart-sharoitlar — ularning daromadlarini prognoz qilish, risklarni baholash va investitsiya strategiyasini shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. O‘zbekistonda xorijiy investorlar uchun maxsus iqtisodiy zonalarda bir qator soliq va bojxona imtiyozlari berilmoqda. Biroq bu imtiyozlarning huquqiy asoslari ko‘pincha qisqa muddatli, ularning amal qilish muddati yoki bekor bo‘lish holatlari oldindan aniq belgilanmagan.

Masalan, soliq stavkalari, aksiz soliqlari, bojxona rasmiylashtiruvi bilan bog‘liq siyosatdagi tezkor o‘zgarishlar xorijiy investorlar uchun rejalashtirishda noqulayliklar tug‘diradi. Bundan tashqari, soliq organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarni turlicha talqin qilinishi holatlari ham investorlar huquqlarini kafolatlashda noaniqlik tug‘diradi. Shu nuqtai nazardan, investitsion imtiyozlarning huquqiy barqarorligini oshirish, shaffoflikni kuchaytirish va avtomatlashtirilgan deklaratsiya tizimlarini keng joriy etish zarur.

4. Korruptsiyaviy xavf va shaffoflik.

Investitsion muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri bu — korruptsiya hisoblanadi. “Transparency International” indeksiga ko‘ra, O‘zbekiston hali ham korruptsiya xavfi yuqori bo‘lgan davlatlar qatorida qolmoqda. Ayniqsa, investorlar uchun yer ajratish, qurilishga ruxsat olish, litsenziyalash, bojxona va soliq rasmiylashtiruvi kabi bosqichlarda norasmiy to‘lovlar va ortiqcha talablar mavjud.

Korruptsiyaga qarshi kurash institutlarining yetarli mustaqillikka ega emasligi, jazo muqarrarligi tamoyilining to‘liq ishlamasligi, davlat xizmatlarida norasmiy munosabatlarning mavjudligi investitsiya xavfsizligini zaiflashtiradi. Shu bois, investitsion jarayonlar ochiqligini ta’minlash, elektron litsenziyalash, davlat xaridlari va tender jarayonlarini shaffof onlayn platformalarga o‘tkazish talab etiladi. Shuningdek, investorlarga xizmat ko‘rsatuvchi mansabdor shaxslar javobgarligini oshirish mexanizmlari ishlab chiqilishi zarur.

5. Investorlarning institutsional ishonchi.

Institutsional muhitni yaxshilashdagi asosiy mezonlardan biri — bu investorlar ishonchi va ularning mamlakat imijiga bergan bahosidir. “Doing Business”, “Global Competitiveness Index”, “World Governance Indicators” kabi xalqaro reytinglarda O‘zbekiston o‘z pozitsiyalarini nisbatan yaxshilayotgan bo‘lsa-da, xorijiy investorlar hanuzgacha ehtiyotkorlik bilan harakat qilmoqda.

Buning asosiy sabablari — uzoq muddatli kafolatlarning yetishmasligi, investitsion shartnomalarning bajarilishiga oid muammolar, huquqiy asoslarning kam prognozlanishi va tegishli infratuzilmaning ba'zi hollarda mavjud emasligi bilan bog'liq. Shuningdek, investorlarning vakolatli idoralar bilan bevosita aloqasi cheklangani, xorijiy korxonalar uchun qo'llaniladigan turli tartib-taomillarni yetarlicha bilingan, muvofiqlashtirilgan tilda taqdim etilmasligi ham ishonchni pasaytiruvchi omillardandir.

Shu sababli, mamlakatning xalqaro investitsion imijini mustahkamlash uchun barqaror institutsional muhit, xalqaro arbitraj tamoyillariga asoslangan nizolarni hal etish tizimi va xorijiy investorlar bilan ochiq muloqot maydonlarini yaratish zarur.

O'zbekiston Respublikasida investitsion faoliyatning jadallashuvi, xorijiy kapital oqimini jalb etish va ularning samaradorligini oshirish jarayoni zamonaviy talablar darajasida rivojlanmoqda. Biroq chuqur tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, xorijiy investorlar uchun qulay institutsional muhitni shakllantirish yo'lida hali bir qator tizimli muammolar mavjud.

Birinchidan, huquqiy barqarorlik va investitsion xavfsizlik darajasining nisbatan pastligi, shartnoma erkinligi va ijro tizimining institutsional zaifligi xorijiy investorlar ishonchiga to'liq javob bera olmayapti. Ikkinchidan, investitsion infratuzilma bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar o'rtasidagi vakolatlar chegaralanmagan, bu esa byurokratik to'siqlarni kuchaytiradi va qaror qabul qilishni sekinlashtiradi.

Uchinchidan, soliq va bojxona siyosatining beqarorligi, amaldagi imtiyozlarning huquqiy kafolatlanmaganligi investitsion risklarni oshiradi. To'rtinchidan, davlat boshqaruvi tizimidagi korruptsiyaviy xavflar va xizmatlar ko'rsatishdagi shaffoflik yetishmasligi xorijiy kapitalni jalb qilish jarayonini murakkablashtiradi.

Va nihoyat, xorijiy investorlar ishonchini shakllantirish, mamlakat investitsion imijini xalqaro darajada mustahkamlash uchun strategik yondashuv zarur: xalqaro standartlarga mos sud va arbitraj mexanizmlari, davlat-xususiy sheriklik (DXSh)ni kengaytirish, va institutsional innovatsiyalarni joriy qilish orqali barqaror muhit ta'minlanmog'i lozim.

Shunday qilib, O'zbekistonda investitsion muhitni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish uchun institutsional islohotlarning chuqurlashtirilishi, qonunchilikning barqarorligi, iqtisodiy erkinlik va moliyaviy shaffoflik darajasining oshirilishi ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: O'zbekiston, 2024.*
2. *O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. "Investitsion muhitni takomillashtirish strategiyasi – 2022–2026 yillar." – Toshkent, 2023.*
3. *O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar to'g'risida"gi Qonuni. – Qabul qilingan sana: 25.12.2019 y.*
4. *Jahon banki. Doing Business 2020: Comparing Business Regulation in 190 Economies. – Washington, D.C.: World Bank Publications, 2020.*
5. *OECD. Foreign Direct Investment for Development: Maximising Benefits, Minimising Costs. – Paris: OECD Publishing, 2021.*
6. *Sultonov X. "Investitsion muhit va institutsional islohotlarning o'zaro bog'liqligi." // Iqtisodiyot va innovatsiya jurnali, №4, 2023. – B. 35–41.*
7. *Karimov N. "Chet el investitsiyalarini jalb qilishda institutsional xavfsizlik muammolari." // Moliyaviy tahlil va amaliyot, №3, 2022. – B. 47–52.*
8. *Abdurahmonov Q. X. Makroiqtisodiyot. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. – 456 b.*
9. *Osiyo taraqqiyot banki. Uzbekistan Country Diagnostic Study 2023. – Manila: ADB, 2023.*

10.UNCTAD. World Investment Report 2023: Investing in Sustainable Energy for All. – New York and Geneva: United Nations, 2023.

«ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И СОВРЕМЕННЫЙ РЫНОК ТРУДАВ УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ В ИННОВАЦИОННУЮ СРЕДУ»

Атаханова Хилола Матякубовна
начальник финансово-экономического департамента
ПИИ ООО «ENTER STEEL» студентка Высшей школы
бизнеса и предпринимательства

Цифровая модернизация в Узбекистане оказывает существенное влияние на развитие рынка труда. В рамках стратегических документов — «Узбекистан – 2030» и «Цифровой Узбекистан – 2030» — цифровизация рассматривается как ключевой инструмент инновационного роста, формирования человеческого капитала и устойчивого развития экономики.

Цифровая трансформация охватывает не только технологическую модернизацию, но и требует институциональных реформ, развития цифровых компетенций, новых форм занятости и управленческих решений. В условиях глобальной цифровизации страны с высокими темпами внедрения технологий демонстрируют рост производительности и конкурентоспособности, что делает цифровую политику важнейшим направлением государственной стратегии.

Указ Президента от 11 сентября 2023 года № ПФ–158 определяет цифровизацию как средство модернизации всех сфер жизни и построения цифрового общества, в центре которого — человек и его способности адаптироваться к изменениям. Особое внимание уделяется созданию цифровой экосистемы, объединяющей государственные институты, бизнес, науку, образование и гражданское общество. Цель — обеспечение равного доступа населения к цифровым ресурсам и услугам.

Важным элементом цифрового развития становится построение «цифрового государства» — адаптивной системы с прозрачными административными процедурами, автоматизированным управлением и эффективным использованием данных. В числе приоритетов — поддержка IT-предпринимательства, развитие стартапов, региональных хабов и кластеров, вовлечение молодёжи и формирование новых форм занятости.

Цифровые технологии коренным образом меняют структуру рынка труда: появляются гибкие формы занятости, проектная работа, удалёнка, фриланс и цифровое предпринимательство. Растёт потребность в специалистах с междисциплинарными навыками — аналитическими, техническими и креативными. При этом труд всё чаще воспринимается не как физический процесс, а как интеллектуальное взаимодействие в цифровой среде.

Цифровизация способствует формированию новой трудовой культуры, основанной на гибкости, самоорганизации и непрерывном обучении. Однако она также усиливает социальное неравенство. Особенно уязвимы граждане старшего возраста и жители отдалённых регионов, не имеющие доступа к интернету или

достаточных цифровых навыков. Это требует активной адаптивной политики, направленной на сокращение цифрового разрыва.

Для интеграции региональных и национальных рынков труда необходимо развивать инфраструктуру: онлайн-платформы, образовательные ресурсы и цифровые формы взаимодействия. Это выравнивает территориальные различия и стимулирует экономическую активность в разных частях страны.

Ключевая роль в цифровой трансформации отводится системе образования. Она должна обеспечить формирование критического мышления, цифровой грамотности и способности к самообучению. Образование переходит от модели усвоения знаний к модели исследовательского и проектного обучения, в которой важны гибкость, работа в команде и технологическая адаптивность.

Университеты становятся центрами генерации знаний и инноваций, интегрируя образование, науку и бизнес. Их миссия выходит за рамки подготовки кадров и включает формирование культурной и ценностной базы цифрового общества. Параллельно развивается система непрерывного образования и гибких образовательных траекторий, что становится основой для адаптации к изменениям рынка труда.

Трансформация трудовых отношений требует пересмотра трудового законодательства. Новые форматы работы (фриланс, удалённая работа и др.) не всегда вписываются в традиционные правовые рамки. Государство должно выстраивать адаптивную институциональную среду, где сочетаются инновации и социальная защита. Это включает правовое признание цифровых профессий, сертификацию навыков и создание системы цифровых профилей и электронных портфолио.

Не менее важно — обеспечить инклюзивность цифровой экономики. Политика должна включать женщин, молодёжь, людей с ограниченными возможностями и жителей сельских территорий. Это снижает риски цифрового неравенства и способствует социальной сплочённости.

Международный опыт цифровой трансформации показывает, что устойчивый рост возможен лишь при балансе технологий, образования и институциональных реформ. Технический прогресс без подготовки кадров не даёт долгосрочного эффекта. Для Узбекистана важно не копировать чужие модели, а выработать собственную стратегию цифрового общества с учётом национальных особенностей и культурных ориентиров.

Партнёрство с зарубежными организациями способствует обмену знаниями и интеграции в глобальное цифровое пространство. Однако в основе цифрового развития должны лежать местные приоритеты, опора на человеческий капитал и формирование цифровой культуры, где ключевыми становятся ценности ответственности, безопасности и доверия.

Цифровая трансформация оказывает комплексное влияние на экономику и общество. Она способствует росту производительности, снижению издержек, развитию новых отраслей (финансовые технологии, телемедицина, e-commerce и др.), повышению прозрачности управления и снижению уровня бюрократии.

Однако цифровизация обостряет проблемы: цифровой разрыв, информационная безопасность, этические вызовы. Эти риски требуют системных решений: цифрового просвещения, правовой защиты данных и развития культуры информационной ответственности.

Государственная стратегия должна не только обеспечивать технологическое развитие, но и учитывать задачи социальной справедливости. Только в этом случае цифровая экономика станет основой устойчивого, сбалансированного и справедливого развития.

Итак, цифровая модернизация в Узбекистане — это не просто внедрение технологий, а глубокая трансформация всех сфер жизни. Она требует координации усилий государства, бизнеса и общества, инвестиций в образование и развитие цифровых компетенций. Человек в этой системе — не объект, а активный участник преобразований, и от его знаний, инициативности и вовлечённости зависит успех цифрового будущего страны.

Летературы:

1. *Указ Президента Республики Узбекистан № ПФ–158 от 11 сентября 2023 г. «О стратегии “Узбекистан – 2030”».*
2. *Министерство цифровых технологий Республики Узбекистан. Отчёт о реализации программы «Цифровой Узбекистан – 2030», 2024 г.*
3. *Министерство занятости и сокращения бедности Республики Узбекистан. Аналитический обзор рынка труда, 2024 г.*
4. *Ахмедов Ш. Б. Развитие цифровой экономики в Узбекистане: институциональные основы и приоритеты государственной политики // Экономика и инновационные технологии. – 2023. – № 4. – С. 25–38.*
5. *Digital Economy Report 2023. – United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). – Geneva: United Nations, 2023. – 214 p.*
6. *Бекмурадов Х. Т. Цифровизация как фактор повышения конкурентоспособности национальной экономики // Вестник экономических исследований. – 2022. – № 3. – С. 41–50.*
7. *OECD. Going Digital: Shaping Policies, Improving Lives. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 230 p.*
8. *Махмудов Р. Р. Формирование человеческого капитала в условиях цифровой трансформации: опыт и перспективы Узбекистана // Журнал социо-экономических исследований. – 2024. – № 1. – С. 12–26.*
9. *Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. – Geneva: World Economic Forum, 2016. – 198 p.*
10. *Ганиева Н. Ш. Развитие системы цифрового образования и подготовка кадров для цифровой экономики // Проблемы современного образования. – 2023. – № 2. – С. 67–75.*
11. *Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. – New York: W. W. Norton & Company, 2014. – 320 p.*
12. *Кадырова Д. А. Государственное управление в условиях цифровизации: трансформация институтов и правовых механизмов // Административное право и управление. – 2022. – № 5. – С. 54–63.*
13. *World Bank. Digital Uzbekistan 2030: Strategic Directions and Implementation Pathways. – Washington, DC: World Bank Group, 2022. – 158 p.*
14. *Tapscott D. Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 2015. – 368 p.*
15. *Муминов А. Р. Цифровая трансформация и региональное развитие: вызовы и возможности // Региональная экономика и управление. – 2024. – № 1. – С. 33–47.*
16. *ITU. Measuring Digital Development: Facts and Figures 2023. – Geneva: International Telecommunication Union, 2023. – 120 p.*
17. *Глобальная повестка цифрового будущего: аналитический обзор / Под ред. В. И. Лаптевой. – Москва: Научный мир, 2023. – 312 с.*
18. *Министерство цифровых технологий Республики Узбекистан. Программа «Цифровой Узбекистан – 2030». – Ташкент, 2023. – 95 с.*

DAVLAT BUDJETI IJROSI JARAYONIDA OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNING AHAMIYATI

Mamanov Alisher Umbarovich
Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Ijro hokimiyati organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlik aniq belgilangan tamoyillarga asoslanadi va davlat vakolatlarini amalga oshirish bilan bog‘liq keng ko‘lamli munosabatlarni qamrab oladi. Shulardan biri – shaffoflik prinsipidir. Ijro hokimiyati, mahalliy davlat boshqaruvi organlari hamda davlat vakolatlari yuklangan boshqa subyektlarning huquqni muhofaza qilishdagi faoliyati ochiqlik asosida yuritilishi fuqarolarga bu boradagi ishonchli ma’lumotlardan erkin foydalanish imkoniyatini beradi. Ma’lumotlarning jamoatchilikka ochiqligi esa davlat boshqaruvining qonuniyligi va fuqarolarning huquq hamda erkinliklariga rioya etilishi ustidan qo‘shimcha kafolat bo‘lib xizmat qiladi, shuningdek, davlat boshqaruvi organlari hamda tegishli vakolatli subyektlar ishining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Shu bois, davlat boshqaruvida ochiqlik tamoyilining amalda qo‘llanishi nafaqat ijro hokimiyati organlari faoliyatining qonuniyligi va samaradorligini kafolatlaydi, balki budjet shaffofligi orqali fuqarolarning davlat mablag‘laridan foydalanish ustidan nazoratini ta’minlab, ularni budjet jarayonlariga faol jalb etishga xizmat qiladi.

XX asr oxirlariga kelib, budjet ochiqligi makroiqtisodiy barqarorlik, yaxshi boshqaruv va fiskal intizomning ajralmas sharti sifatida talqin qilindi [1]. Xalqaro moliyaviy tizimning ochiqlik darajasi pastligi iqtisodiy inqirozlarning tez tarqalishiga sabab bo‘lishi mumkinligi ta’kidlandi. Aynan shu sharoitda fiskal shaffoflikni ta’minlash nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki siyosiy ishonch va javobgarlikni mustahkamlashning zaruriy sharti sifatida qaraldi [2].

Iqtisodchi olim C. Hoodning [3] fikriga ko‘ra, budjet ochiqligi davlat moliyasining samarali boshqaruvini ta’minlaydigan, jamoatchilik ishonchi va siyosiy javobgarlikni mustahkamlovchi muhim institutsional mexanizmdir. U davlat faoliyati ustidan nazoratni kuchaytiradi, iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, fiskal shaffoflik xalqaro moliyaviy barqarorlik va boshqaruvning barqaror modelini shakllantirishda asosiy mezonlardan biri sifatida qaraladi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) “Budjet shaffofligi bo‘yicha eng yaxshi amaliyotlar” hisobotida [4] budjet jarayonida ochiqlik fuqarolarning faol ishtirok etishi uchun zarur shart bo‘lib, bu jarayon davlat organlari ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi deya hisoblashgan. Natijada, budjet shaffofligi va fuqarolik ishtirokining uyg‘unlashuvi korrupsiyani kamaytirish, davlat mablag‘laridan oqilona foydalanish va hukumatning hisobdorligini oshirish imkonini yaratadi.

Xususan, shu o‘rinda budjet shaffofligining ta’riflarini ko‘rib chiqamiz.

Premchand [5] budjet shaffofligini davlat boshqaruvi tizimining ochiqlik xususiyati sifatida talqin etadi. Unga ko‘ra, shaffoflik davlat tranzaksiyalari va qaror qabul qilish jarayonlari haqidagi ma’lumotlarning ommaga ochiq bo‘lishini anglatadi. Bu yerdagi asosiy g‘oya shaffoflik – boshqaruv jarayonlarida axborotning mavjudligi va fuqarolarning qarorlar haqida xabardorligi orqali hisobdorlikni ta’minlaydi.

IHTTning 2017-yildagi “Budjet shaffofligi vositalari to‘plami” [6] hujjatida ta’rif yanada soddalashtirilib, “davlat mablag‘lari qanday yig‘ilayotgani va sarflanayotgani haqida to‘liq ochiqlik” sifatida ifodalanadi.

Ott va uning hammualliflari [7] budjet shaffofligini “budjet haqidagi to‘liq, aniq, o‘z vaqtida va tushunarli ma’lumotlar”ni taqdim etish jarayoni sifatida ta’riflaydi. Ushbu ta’rifda fuqarolarning ishtiroki, korrupsiyani kamaytirish, hisobdorlikni oshirish kabi ijtimoiy funksiyalar asosiy o‘ringa chiqadi.

F. Altaga ko‘ra [8] “budjet shaffofligi – davlat moliyaviy faoliyati, xarajatlari va daromadlari to‘g‘risida jamoatchilikka o‘z vaqtida, ishonchli, to‘liq va tushunarli ma’lumot berishdir.

Budjet shaffofligi – bu barcha tegishli fiskal (moliyaviy) ma’lumotlarni o‘z vaqtida va tizimli ravishda to‘liq e’lon qilinishini anglatadi. Budjet shaffofligi budjet jarayonlarida jamoatchilik ishtiroki uchun muhim shart hisoblanadi. Shaffoflik va jamoatchilik ishtirokining uyg‘unligi korrupsiyani kamaytirish, davlat organlarining jamoat oldidagi hisobdorligini kuchaytirish hamda davlat mablag‘laridan oqilona foydalanishga hissa qo‘shish imkoniyatini yaratadi.

Yanayam soddaroq qilib tushuntirganda, budjet – hukumatning jamoat resurslaridan fuqarolar ehtiyojlarini qondirish yo‘lida foydalanish rejasidir. Budjet shaffofligi esa oddiy fuqarolar va fuqarolik jamiyati a’zolariga davlat mablag‘lari qanday taqsimlanayotganini va sarflanayotganini kuzatish imkonini beradi. Bu orqali fuqarolarda hukumatning davlat mablag‘larini boshqarishdagi mas’uliyat darajasini baholash imkoniyatini yaratiladi.

Institutsional nuqtayi nazardan qaraganda, shaffoflik tizimi quyidagi to‘rtta asosiy funksiyani bajaradi: axborot yetkazish va standartlashtirish, nazorat va baholash, javobgarlikni joylashtirish hamda fuqarolik ishtirokini integratsiyalash. Har bir funksiya davlat moliya boshqaruvi samaradorligini oshirish va korrupsiya xavfini kamaytirish uchun muhimdir.

Birinchidan, axborot yetkazish va standartlashtirish funksiyasi budjet ma’lumotlarini vaqtida, to‘liq va tushunarli shaklda e’lon qilishni nazarda tutadi. Bu institutlararo — vazirliklar, hukumat idoralari, parlament va OAV — hamda xalqaro standartlar (masalan, IMF va OECD kodlari) bilan muvofiqlashtirilgan budjet hisobotlarining yaratilishini talab qiladi. Standartlashgan hisob-hisobot mexanizmlari moliyaviy ma’lumotlarning solishtiriluvchanligini ta’minlab, qaror qabul qiluvchilarga va jamoatchilikka aniq rasmiy tasvir beradi.

Ikkinchidan, nazorat va baholash funksiyasi audit, mustaqil baholash va monitoring mexanizmlarini o‘z ichiga oladi. Mustaqil nazorat organlari (masalan, oliy audit tashkilotlari yoki xalqaro baholash vositalari — PEFA, Open Budget Survey) budjetning qonuniyligi, samaradorligi va iqtisodiy natijadorligini tekshiradi. Ushbu mexanizmlar orqali aniqlangan xatoliklar va tavsiyalar yuqori darajadagi institutlararo javobgarlik mexanizmi orqali bartaraf etiladi, bu esa budjet siyosatining institutsional ishonchliligini oshiradi.

Uchinchidan, shaffoflik javobgarlikni joylashtiradi: rollar va mas’uliyatlar aniqligi, chora-tadbirlar natijasi uchun javob berish majburiyati va qonuniy asoslarga bog‘langan sanksiyalarni nazarda tutadi. Bu institutsional ruxsat va cheklovlarning muvozanatini yaratadi — ya’ni ijro etuvchi hokimiyat resurslarni boshqarish huquqiga ega bo‘lsa, parlament va jamoatchilik uning qarorlarini tekshirish hamda hisob so‘rash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

To‘rtinchidan, fuqarolik ishtirokini integratsiyalash orqali shaffoflik institutlari budjet jarayoniga jamoatchilik va fuqarolik jamiyati tashkilotlarini jalb etadi. Bu nafaqat ma’lumotga asoslangan bahoni, balki siyosatning ijtimoiy legitimligini ham oshiradi, resurslar taqsimotida adolat va ehtiyojga moslikni kuchaytiradi.

Budjet ochiqligiga nazariy va institutsional jihatdan quyidagicha yondashishimiz mumkin.

Budjet ochiqligiga nazariy jihatdan yondashuvlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- jamoatchilik ishonchi nazariyasi – bu yondashuvga ko‘ra, davlat fuqarolar ishonchini saqlab qolish uchun o‘z moliyaviy faoliyati haqida ochiq axborot berishi lozim. Shaffoflik ushbu ishonchni mustahkamlab, hukumat va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy kontraktni mustahkamlaydi.

- agent-nomzod modeli – bu modelda saylangan hukumat vakillari fuqarolarning vakili (agent) sifatida harakat qiladi. Agar axborot assimetriyasi mavjud bo‘lsa, ya’ni hukumat moliyaviy ma’lumotlarni yashirsa, fuqarolar real baho bera olmaydi. Budjet ochiqligi ushbu assimetriyani kamaytirish orqali nazorat mexanizmini kuchaytiradi.

- xarajatlar va foyda tahlili modeli – bu yondashuvga ko‘ra, ochiqlik darajasi oshsa, korrupsiya xavfi kamayadi, qarorlar sifatliroq qabul qilinadi va resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi.

Institutsional yondashuvlarda quyidagilar muhim komponentlardan hisoblanadi:

– huquqiy asos – davlat budjetining ochiqligi konstitutsion normalar, budjet kodekslari yoki maxsus qonunlar orqali mustahkamlanishi kerak. Masalan, ko‘plab davlatlar “axborotga ochiqlik to‘g‘risida”gi qonunlar orqali budjet hujjatlarini ommaga taqdim etishni majburiy qiladi.

– standartlashtirilgan axborot formati – budjet ma’lumotlari xalqaro standartlarga mos ravishda tayyorlanishi, tuzilmasi, tushunarliligi va solishtiriluvchanligi ta’minlanishi lozim.

– axborot infratuzilmasi – davlat idoralari budjet bilan bog‘liq ma’lumotlarni elektron portal, mobil ilova, infografika yoki API texnologiyalar orqali taqdim etishi zarur. Bu orqali ochiqlik nafaqat formal, balki amaliy shaklga ega bo‘ladi.

– institutsional monitoring va audit tizimi – budjet shaffofligi faqat ma’lumotlarni e’lon qilish emas, balki ularni tahlil qilish, tekshirish va baholash jarayonini ham qamrab oladi. Bu borada oliy audit organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va mustaqil ilmiy muassasalar muhim rol o‘ynaydi.

– fuqarolik ishtiroki – ochiq budjet tizimi, albatta, fuqarolarning mulohazalari, ehtiyojlari va takliflarini budjetga integratsiyalashni nazarda tutadi. Bu jamoatchilik eshituvlari, so‘rovnomalar, ijtimoiy tarmoqlardagi fikr-mulohazalar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ochiq budjet siyosati makroiqtisodiy barqarorlikni ham qo‘llab-quvvatlaydi. Budjet defitsiti kamayishi va davlat qarzining pasayishi iqtisodiy barqarorlik poydevorini yaratadi. Bunday holatda fuqarolarning davlat moliyasini nazorat qilishdagi faolligi ortadi, natijada iqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi.

Zamonaviy amaliyotda, ayniqsa raqamli texnologiyalar yordamida budjet ma’lumotlarini tez va keng ko‘lamda oshkor qilish keng targ‘ib qilinmoqda. Masalan, elektron budjet portallari va ochiq ma’lumot saytlarining yaratilib, budjet loyihalari, ijro hisobotlari, tender natijalari kabi ma’lumotlarni real vaqt rejimida e’lon qilish orqali shaffoflikni oshirish mumkin. Bu innovatsion yondashuvlar jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi va davlat qarorlarini adolatliroq qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, budjet shaffofligi — davlat moliyasining institutsional mustahkamligi uchun poydevordir: u resurslarni samarali va adolatli taqsimlashni ta'minlaydi, korrupsiya xavfini pasaytiradi va hukumat faoliyati bo'yicha jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi. Institutsional investitsiyalar (huquqiy islohotlar, mustaqil nazorat tizimlari, ma'lumot infratuzilmasi) orqali amalga oshirilgan shaffoflik siyosati uzoq muddatli fiskal barqarorlik va ijtimoiy ishonchni mustahkamlaydi.

Adabiyotlar:

1. George Kopits and Jon Craig Transparency in Government Operations. IMF Washington DC January 1998

2. Heald, David ORCID logo (2003) Fiscal transparency: concepts, measurement and UK practice. Public Administration, 81(4), pp. 723-759. (doi: 10.1111/j.0033-3298.2003.00369.x)

3. Hood, C. (1991) A Public Management for All Seasons? Public Administration, 69, 3-19. https://doi.org/10.1111/j.1467-9299.1991.tb00779.x

4. OECD,. (2002). OECD Best Practices for Budget Transparency. OECD Journal on Budgeting. 1. 14-14. 10.1787/budget-v1-art14-en.

5. Premchand, A., 1933. Public expenditure management. International Monetary Fund.

6. OECD (2017), OECD Budget Transparency Toolkit: Practical Steps for Supporting Openness, Integrity and Accountability in Public Financial Management, OECD Publishing, Paris. http://dx.doi.org/10.1787/9789264282070-en

7. Ott, K., Bronić, K., Petrušić, M., Stanić, B., & Prijaković, S. (2019). Budget transparency in Croatian counties, cities and municipalities. Newsletter – lInstitute of Public Finance, (117), 1–15, https://doi.org/10.3326/nle.2020.119

8. Alta Fölscher. 2010. Budget transparency New frontiers in transparency and accountability.

HUDUDLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI GLOBAL G.A.P. STANDARTI ASOSIDA MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI VA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

G'ulomova Feruzaxon Farhod qizi
Metrologiya va standartlashtirish kafedrasi magistranti

O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmog'i milliy iqtisodiyotning tayanch yo'nalishlaridan biri bo'lib, meva-sabzavot yetishtirish sohasida katta salohiyatga ega. Bugungi kunda ushbu sohada ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahsulot sifatini xalqaro talablarga moslashtirish va eksportni kengaytirish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylangan.

Jahon bozorida mahsulot xavfsizligi va ekologik barqarorlikka bo'lgan talab ortib borayotgani sababli, GLOBAL G.A.P. (Good Agricultural Practice) standarti asosida ishlab chiqarishni tashkil etish zarurati yanada kuchaymoqda. Ushbu standart xalqaro miqyosda tan olingan tizim bo'lib, u qishloq xo'jaligida sifat, xavfsizlik va barqarorlik tamoyillarini joriy etishni nazarda tutadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda agrar sohada raqamli texnologiyalarni joriy etish, fermer xo'jaliklarini elektron platformalarga ulash, hosilni monitoring qilish va sertifikatlash jarayonlarini avtomatlashtirish borasida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Aynan shu texnologiyalar Global G.A.P. talablarini amalda qo'llashga va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qilmoqda[1].

Global G.A.P. — bu ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini: urug‘tanlash, yetishtirish, yig‘im-terim, saqlash, tashish va sotishgacha bo‘lgan jarayonlarni nazorat qilish tizimidir. Ushbu standart quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- Oziq-ovqat xavfsizligi – pestitsid va o‘g‘itlardan xavfsiz foydalanish;
- Atrof-muhitni muhofaza qilish – suv, tuproq va havo sifatini saqlash;
- Mehnat sharoitlari – ishchilarning huquqlarini himoya qilish;
- Mahsulot izlenuvchanligi (traceability) – har bir mahsulotning kelib chiqishini raqamli tarzda kuzatish[2].

Bu tizimni joriy etgan xo‘jaliklar xalqaro auditorlar tomonidan baholanib, sertifikat oladi. Natijada ular Yevropa, Osiyo va Yaqin Sharq bozorlariga eksport qilish huquqiga ega bo‘ladi. 2024-yil holatiga ko‘ra, GLOBAL G.A.P. tizimi bo‘yicha dunyoda 200 mingdan ortiq xo‘jalik sertifikat olgan bo‘lsa, O‘zbekistonda ularning soni yil sayin ortib bormoqda[3].

Raqamli texnologiyalar asosida innovatsion yechimlar:

1. Raqamli agroxaritalar (GIS). Geografik axborot tizimlari (GIS) yordamida yer maydonlari, hosildorlik darajasi, sug‘orish tarmoqlari va ekologik omillar raqamli xaritada aks ettiriladi. Bu usul:

- suv resurslarini tejamli boshqarish;
- pestitsidlar qo‘llaniladigan hududlarni aniqlash;
- Global G.A.P. uchun zarur bo‘lgan risk tahlilini avtomatlashtirish imkonini beradi.

2. IoT (Internet of Things) texnologiyalari. IoT sensorlari tuproq namligi, harorat, o‘simlik o‘sish bosqichlarini real vaqt rejimida kuzatadi. Masalan, Farg‘ona viloyatidagi issiqxonalarda o‘rnatilgan “AgroSensor” tizimi hosildorlikni 15–20% ga oshirgan.

3. Raqamli sertifikatlash platformalari. GLOBAL G.A.P. sertifikatlash jarayonlarini onlayn tarzda yuritish imkonini beruvchi raqamli platformalar ishlab chiqilgan. Fermerlar hujjat topshirish, audit natijalarini olish va yangilashni elektron tarzda amalga oshirmoqda.

1-jadval.

Hududlar kesimida innovatsion rivojlanish.

Hudud	Innovatsion texnologiya	Kutilayotgan natija
Farg‘ona	IoT va GIS asosida issiqxona monitoring	Hosildorlik +18%, suv sarfi –25%
Samarqand	Global G.A.P. raqamli sertifikatlash platformasi	Eksport hajmi 2 baravar oshgan
Surxondaryo	Blokcheyn asosida izlenuvchanlik tizimi	Mahsulot sifati va narxi oshgan
Qashqadaryo	Dron yordamida ekin maydonini nazorat qilish	Pesticid xarajati –30%

O‘zbekistonning turli hududlarida raqamli yechimlar asosida meva-sabzavot yetishtirish loyihalari yo‘lga qo‘yilmoqda, yuqoridagi jadvalda aynan shular keltirib o‘tilgan.

4. 3D va sun’iy intellekt asosidagi tahlil. Suniy intellekt (AI) yordamida hosil hajmi prognozi, kasallik xavfi va pestitsid ehtiyoji aniqlanadi. Dronlar orqali olingan tasvirlar 3D modellashtirish tizimida qayta ishlanib, tahlil uchun aniq ma’lumotlar beradi.

5. Blokcheyn texnologiyasi. Mahsulot kelib chiqishini ta’minlash maqsadida blokcheyn tizimi joriy etilmoqda. Har bir mahsulot QR-kodi orqali kuzatiladi va iste’molchi uning qanday sharoitda yetishtirilgani haqida to‘liq ma’lumot oladi. Bu esa GLOBAL G.A.P.ning asosiy talabi — izlenuvchanlikni ta’minlaydi[4].

Bu natijalar raqamli texnologiyalar nafaqat samaradorlikni, balki xalqaro standartlarga moslikni ham ta’minlayotganini ko‘rsatadi[5].

2024-yilda GLOBAL G.A.P. tomonidan IFA versiya 6 joriy etildi. Unda:

- ekologik ko‘rsatkichlar (carbon footprint) monitoringi;
- raqamli ma’lumot almashinuvi (data sharing);
- barqarorlik ko‘rsatkichlarini baholash;
- ijtimoiy mas’uliyat mezonlari (GRASP) kuchaytirildi.

Bu yangiliklar O‘zbekiston ishlab chiqaruvchilari uchun yangi bosqich — raqamli va barqaror sertifikatlash tizimiga o‘tish imkonini bermoqda[6].

Bugungi global raqobat sharoitida meva-sabzavot tarmog‘ini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilgan GLOBAL G.A.P. standarti hal qiluvchi omilga aylanmoqda.Tahlillar shuni ko‘rsatadiki:

- raqamli monitoring va avtomatlashtirilgan audit tizimlari samaradorlikni 25–30% ga oshiradi;
- ekologik xavfsizlik va izlenuvchanlikni ta’minlaydi;
- eksport hajmini oshirish va brend ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi[7].

Takliflar:

1. Hududlarda GLOBAL G.A.P. markazlarini raqamli platforma bilan integratsiya qilish.
2. Fermerlar uchun IoT, GIS va blokcheyn texnologiyalarini o‘rgatuvchi innovatsion o‘quv markazlari tashkil etish.
3. Sertifikatlash jarayonini “paperless” tizimga o‘tkazish.
4. Raqamli izlenuvchanlik tizimini milliy “AgroTrace” platformasiga bog‘lash.

Shunday qilib, GLOBAL G.A.P. standartlarini raqamli texnologiyalar asosida joriy etish O‘zbekiston meva-sabzavot tarmog‘ining barqaror, ekologik va eksportga yo‘naltirilgan rivojlanishini ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

1. *GLOBALG.A.P. Annual Report 2024. Cologne, Germany.*
2. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-dekabrdagi PQ-419-son qarori.*
3. *F.A. Axmedjanova, Sh. Karimova. Standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimi. Toshkent, 2019.*
4. *FAO Report. Digital Agriculture and Food Security, 2023.*
5. *Osapiens Group. Digital Transformation in Agriculture through IFA v6 Standards, 2024.*
6. *www.globalgap.org – Official GLOBAL G.A.P. Portal.*
7. *O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi vazirligi hisobotlari, 2024.*

DRIVING FINANCIAL SUSTAINABILITY: THE ROLE OF INNOVATION IN SECURING LONG-TERM ECONOMIC VIABILITY AND COMPETITIVE EDGE

Nasibov Yakhyo Abdumannon ugli
Tashkent State Technical University
4th year student of the Department of Economics and Management of Industry

Sapayev Elyorbek Baxtiyor ugli
Tashkent State Technical University
4th year student of the Department of Economics and Management of Industry

Financial sustainability refers to the ability of an organization to operate in a manner which respects its current financial obligations while ensuring that future generations are not compromised in their ability to achieve it. This concept includes the capacity of a company to generate sufficient income to cover its operational costs, reinvest in its growth and provide yields to stakeholders, while maintaining an ethical standard and social responsibility. In this context, financial sustainability is increasingly recognized as a critical determinant of long -term organizational success and organizational resilience. It requires the integration of economic, environmental and social dimensions, which is well improved by the innovation mechanism.

Innovation serves as a vital catalyst in promoting financial sustainability within companies. By continuously evolving their products, services and processes, companies can create new value proposals that resonate with the evolution of consumer and market conditions. Innovation can take various forms, including technological progress, process optimization, product development and the transformation of the business model. The dynamic nature of the contemporary market requires that organizations adopt innovative practices not only to remain relevant, but also to obtain a competitive advantage. These processing approaches can reduce operational costs, improve customer engagement, improve operational efficiency and open new income channels, thus consolidating the organization's financial sustainability. A critical perspective on innovation and financial sustainability can be further informed by recent research by Oliveira, which explores the impact of investment in innovation on financial sustainability among companies in the Iberian Peninsula.[1] Their results indicate a strong correlation between the level of investment in innovation and the improvement of financial results, especially in the sectors where technological advancement is essential. The study stresses that companies favoring innovation not only achieves greater market penetration, but also accessing more diverse sources of funding and promoting resilience against economic slowdowns. By focusing on the strategic implementation of innovative practices, companies can take challenges and cultivate an adaptable business model that supports long -term economic viability.

The evolution of relations between innovation and financial sustainability means a crucial investigation area for modern companies. While organizations strive to improve their competitiveness in an increasingly complex environment, understanding the nuances of this relationship will be essential to develop effective strategies that lead to sustainable financial health and sustainability. The recognition of concrete examples, alongside contemporary research like that of Oliveira, establishes a base on which a more in -depth exploration of this critical link can be built.[1] Innovation acts as a catalyst for financial sustainability, allowing companies to improve their competitive advantage and guarantee long -term profitability in an increasingly volatile market environment. This section evaluates multiple cases of study of companies that have successfully implemented innovative strategies to encourage financial sustainability, explores innovative financial strategies that contribute to economic resilience, face the challenges addressed during the innovation process and incorporates insights on the correlation between innovation and financial services in European agricultural companies.

An emblematic case is that of Unilever, which has successfully integrated sustainability into its business model through innovations such as the "sustainable life plan". This initiative focuses on the reduction of the environmental impact of its

products by improving its financial services while. By investing in sustainable supply and eco-efficient production techniques, Unilever has reported a significant increase in the brand's loyalty and a growing consumers basis that enhances corporate sustainability. These innovations have led not only to reduce costs, but also to a marked improvement in profitability, demonstrating a direct correlation between innovation in the practices of sustainability and financial stability. Another case is that of Tesla, which has revolutionized the automotive industry through its commitment to electric vehicles technology (EV). Tesla's innovative approach extends beyond product development; It includes innovative financial strategies, how to exploit government subsidies and tax incentives aimed at promoting green energy technologies. By promoting partnerships with technological companies for the development of batteries and expanding its compressor network, Tesla has not only improved its market position, but has also established a sustainable revenue model dependent on recurring software and service entrances. This strategic foresight has allowed Tesla to maintain a resilient financial position in a highly competitive automotive market. However, the path to innovation is fraught with challenges. Companies often face the resistance to change, both internally by employees and externally from stakeholders who can be resistant to changes in long -lasting practices. For example, the transition to sustainable practices in large organizations often meets a control regarding initial investments and perceived risk of reducing short -term profits. In addition, companies such as Unilever and Tesla face the challenge of aligning their innovation strategies with regulatory paintings and consumer expectations, which require agility in their business models and operational structures.

An examination of the agricultural sector reveals further insights. According to Cunha, the European farms that invest in innovative technologies - which take place from precision agriculture to digital agriculture - Witness significant improvements both in productivity and financial performance. The adoption of innovations such as artificial intelligence and IoT -based solutions have led to a more efficient use of resources, a reduction in waste and improved performance forecasts, thus improving overall sustainability. Cunha's research underlines the need for agricultural companies to embrace the innovations guided by technology to achieve financial sustainability and highlights the competitive advantage obtained through these investments.[2] Despite the potential benefits, Cunha indicates different obstacles that farms must navigate, including high initial costs associated with the adoption of technology and the lack of access to funding for small and medium -sized enterprises (SMEs) in the sector. These barriers can slow down the innovation process and hinder the ability of companies to capitalize new technologies. The strategies that companies can adopt to mitigate these challenges include the training of collaborations with technology suppliers, the search for public-private partnerships for financing and engage in in-depth market research to evaluate the feasibility of their innovations before implementation.

In summary, the exploration of these cases study and their associated challenges illustrate the critical role that innovation plays in improving financial sustainability. The strategies exemplified by companies such as Unilever and Tesla, together with the intuitions of Cunha's analysis on the agricultural sector, provide precious paintings for organizations that try to exploit innovation as a means of reaching long -term economic profitability and competitive advantage., In search of improving long -term economic viability and competitive advantage, companies should strategically integrate

innovation into their financial planning processes. The main strategies include promoting a culture of innovation, research and development investment (R&D), adopting agile business models and technology leverage as transformation facilitators. The promotion of an innovation culture encourages employee involvement and entrepreneurship in organizations, which can lead to the generation of new ideas and solutions that meet market needs. Organizations that create an environment conducive to creative thinking tend to overcome their competitors in the results of innovation. In addition, investment in R&D is a critical strategy that allows companies to develop new products and services, which in turn can increase their market share and revenue flows. For example, the Apple Inc giant exemplifies effective investment in R&D. Its continuous release of innovative products ensures a faithful customer base and a significant presence in the market. Companies can also benefit from the adoption of agile business models that allow them to quickly respond to market changes and customer demands. By remaining flexible and adaptable, companies can align their innovation strategies with emerging trends, which increases their sustainable financial performance capacity. However, organizations are confronted with various challenges that can make it difficult to implement these strategies. A primary obstacle is the resistance to change often found in corporate structures, where established employees may fear that innovation can compromise their roles. This inertia can stifle creative processes and limit the adoption of new essential practices for financial sustainability. In addition, financing and insufficient resources allocated to R&D can prevent progress. Without commitment to leadership in terms of capital and support, innovation initiatives may not materialize [3].

Another significant challenge arises from the pressure to get immediate results, which can lead to short -term thinking among company leaders. Companies may choose to prioritize immediate financial gains from investments in long -term innovation, thus undermining their future viability. This short -sighted approach can prevent organizations from developing the skills needed to navigate an increasingly competitive global scenario. As noted by Schilling, companies must resist the temptation to sacrifice long -term innovation for short -term profitability as this can lead to a decreased competitive advantage [4]. Continuous innovation serves as a chave factor for competitive advantage and economic viability, as it allows organizations to differentiate themselves in the market. Companies that prioritize ongoing innovation are better positioned to respond to the preferences and technological advances of the evolving consumer, leading to the sustained relevance of the market. For example, companies such as Amazon exemplify this principle through its tireless search for innovation in logistics, customer service and technology integration, resulting in greater operational efficiency and greater customer loyalty. Establishing a robust structure for sustainable innovation practices is vital to ensure future financial stability. Companies should integrate innovation in their main business strategies, establishing clear metrics for evaluation and aligning innovation efforts with financial planning. This structure should facilitate collaboration between departments and encourage external partnerships that can amplify innovation results. In addition, continuous assessment and iteration of innovation strategies can inform decision -making and resource allocation, ensuring that companies stay ahead of industry trends and economic changes. By incorporating innovation into its financial sustainability agenda, organizations can cultivate resilience, adaptability and long -term competitive advantage.

Literature:

1. Oliveira, I., Figueiredo, J., Cunha, M. N., Faria, M. J., Pereira, M., & Cardoso, A. (2025). The relationship between investment in innovation and financial sustainability: An empirical study of companies in the Iberian Peninsula.Geo Journal of Tourism and Geosites, 59(2), 911–919. https://www.researchgate.net/publication/392623545

***2.** Cunha, N. (2025). Exploring the interplay between innovation investment and financial sustainability in European agricultural companies.Research on World Agricultural Economy, 364–378. http://journals.nasspublishing.com/index.php/rwae*

***3.** Rogers, E. M. (2018). Diffusion of innovations (6th ed.). New York: Free Press.*

***4.** Schilling, M. A. (2020). Strategic management of technological innovation (6th ed.). New York: McGraw-Hill Education.*

MOLIYAVIY OQIMLARNI BOSHQARISHDA RAQAMLI VOSITALARNING SAMARADORLIGI


Abduraxmanova Nozima Akbar qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Matematika yo‘nalishi talabasi

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi moliyaviy boshqaruv tizimini tubdan o‘zgartirib yubordi. Avvallari qo‘lda yuritilgan hisobotlar, kechiktirilgan to‘lovlar va markazlashmagan axborot oqimlari bugungi kunda zamonaviy raqamli platformalar orqali tezkor, aniq va shaffof shaklga keltirilmoqda. Moliyaviy oqimlarni samarali boshqarish — bu faqat mablag‘lar harakatini nazorat qilish emas, balki resurslardan oqilona foydalanish, investitsiya samaradorligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash demakdir. Shu nuqtai nazardan raqamli vositalar moliyaviy boshqaruvning ajralmas qismiga aylanmoqda. Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar moliyaviy oqimlarni tahlil qilish, to‘lovlardagi nomuvofiqliklarni aniqlash va xatoliklarni oldindan prognozlash imkonini beradi. Masalan, bank tizimlarida AI algoritmlari mijozlarning kreditga layoqatini aniqlashda yoki firibgarlik (fraud) holatlarini aniqlashda yuqori samaradorlik ko‘rsatmoqda. McKinsey (2023) hisobotiga ko‘ra, raqamli tahlil vositalarini joriy etgan moliyaviy institutlarda operatsion xarajatlar o‘rtacha 25–30 foizga kamaygan.

Big Data texnologiyalari esa har soniyada yuzlab tranzaksiyalar, to‘lovlar va investitsion operatsiyalarni qayta ishlash orqali moliyaviy oqimlarning real vaqt rejimida monitoringini ta’minlaydi. Bu esa, o‘z navbatida, moliyaviy qarorlarni tezkor va faktlarga asoslangan holda qabul qilish imkonini beradi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan yaratilgan “Open Budget” portali orqali har bir byudjet mablag‘ining sarflanishi ochiq e’lon qilinmoqda. Bu jarayon shaffoflikni oshiribgina qolmay, jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi. Blokcheyn texnologiyasi ham moliyaviy oqimlarni boshqarishda muhim o‘rin egallamoqda. Uning asosiy afzalligi – ma’lumotlarni o‘zgartirib bo‘lmasligi va tranzaksiyalarni markazlashmagan tizim orqali qayd etishidir. Shu sababli, blokcheyn asosida qurilgan moliyaviy platformalar (masalan, xalqaro to‘lov tizimlari, elektron kontraktlar) ishonchlilik va xavfsizlik darajasini sezilarli oshiradi. Bunday tizimlar korrupsion risklarni kamaytiradi va moliyaviy operatsiyalarni ishonchli nazorat ostiga oladi. Bundan tashqari, bulutli texnologiyalar (cloud computing) yordamida korxona va banklar o‘z ma’lumot bazalarini xavfsiz saqlaydi, katta hajmdagi tahliliy ma’lumotlarga tezkor kirish

imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa nafaqat moliyaviy oqimlarni boshqarishni, balki biznes jarayonlarni avtomatlashtirishni ham osonlashtiradi. Bugungi kunda O‘zbekistonning ko‘plab banklari — xususan, “Kapitalbank”, “Ipoteka-bank” va “TBC Bank” — o‘z mijozlariga raqamli mobil ilovalar orqali xizmat ko‘rsatmoqda. Natijada, to‘lovlar hajmi oshgan, kassalardagi yuklama kamaygan va moliyaviy oqimlar barqarorlik kasb etgan. Raqamli vositalarning moliyaviy oqimlarni boshqarishdagi samaradorligi faqat texnologik omillar bilan cheklanmaydi. Bu, avvalo, raqamli madaniyat va kadrlar salohiyatiga ham bog‘liq. Shuning uchun mamlakatda moliya va IT yo‘nalishidagi mutaxassislar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti va O‘zbekiston Milliy Universiteti huzurida raqamli moliya yo‘nalishlari ochilgani — bu yo‘nalishda kadrlar siyosatini mustahkamlash yo‘lidagi muhim qadamdir.

Moliyaviy boshqaruvda raqamli vositalarning samaradorligi. Unda turli raqamli texnologiyalar (ERP tizimlari, Fintech ilovalari, Blockchain, Sun’iy intellekt, Bulutli hisoblash)ning *samaradorlik* va *xavfsizlik* ko‘rsatkichlari foizda ifodalangan. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, *Blockchain texnologiyasi* eng yuqori samaradorlik (91%) va xavfsizlik (95%) darajasiga ega. Bu esa zamonaviy moliyaviy boshqaruv tizimlarida *blockchain va sun’iy intellekt asosidagi yechimlar* eng ishonchli va natijador vositalar ekanini ko‘rsatadi.



1-rasm. *Moliyaviy boshqaruvda raqamli vositalarning samaradorligi va* xavfsizligi

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, raqamli vositalar moliyaviy oqimlarni boshqarishda samaradorlikni keskin oshiradi: ular tezlik, aniqlik, xavfsizlik va shaffoflikni ta’minlaydi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali O‘zbekiston moliya tizimi nafaqat ichki boshqaruvni takomillashtirmoqda, balki xalqaro moliyaviy bozorlar bilan integratsiyani ham kuchaytirmoqda. Kelajakda raqamli transformatsiya jarayonlari yanada chuqurlashib, moliyaviy boshqaruv to‘liq sun’iy intellekt va Big Data tahlil platformalari asosida shakllanishi kutilmoqda.

Adabiyotlar:

1. *Baratova, Nafisa. "BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASINING IJTIMOIY TAMOYILLARI." Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования 4.5 (2025): 18-20.*
2. *Berdishukurova, Munisa. "Dasturlash tillarining rivojlanishi." Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования 4.5 (2025): 24-26.*
3. *Toshpoʻlotova, Jasmina, and Oʻktamov Madadjon. "Boshlangich talim yo ʻnalishi talabalarini informatika fanini o ʻqitishda interaktiv usullardan foydalanish." PEDAGOGS 51 (2024): 115-119.*
4. *Bekmurodov, Nodirbek, and Asal Uralova. "Oʻrta sinflardagi bolalarga informatika o ʻqitishning kreativ g ʻoyalari." Молодые ученые 3.6 (2025): 39-41.*
5. *Boymurodova, Ozoda. "Axborot bo ʻlimini o ʻqitish metodikasi." Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования 4.5 (2025): 11-14.*
6. *Boltayev, Farhod. "Internetda ishlash asoslari boʻlimini o ʻqitish metodikasi." Молодые ученые 3.6 (2025): 46-49.*
7. *Karimova, Iroda. "Vizual dasturlash tilida loyihalash boʻlimini o ʻqitish metodikasi." Молодые ученые 3.6 (2025): 21-24.*
8. *Ernazarova, Lola. "WEB-sahifani bo ʻlimini o ʻqitish metodikasi." Молодые ученые 3.6 (2025): 53-55.*
9. *Mahmudova, Shohsanam. "Algoritimlash asoslari bo ʻlimini o ʻqitish metodikasi." Молодые ученые 3.6 (2025): 25-28.*
10. *Ibodov, Azizbek. "Informatika o ʻqitish metodikasini fan sifatida tarixi." Молодые ученые 3.6 (2025): 14-16.*
11. *Jurayeva, Gulchehra. "Dasturlash asoslari o ʻqitish metodikasi." Молодые ученые 3.6 (2025): 17-20.*
12. *Abdirozzoqov, Fayzulla, and Jasmina Tashpoʻlotova. "Methods of using the mytest program in the organization of final control processes for students of higher education institutions." Молодые ученые 2 (2024): 88-90.*
13. *Dilbar, Qudratova. "The place and importance of using modal verbs in sentences." tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g ʻoyalar 1.8 (2025): 412-416.*

BANKLARNING INNOVATSION FAOLIYAT JARAYONIDA MUAMMOLI KREDITLARINI BOSHQARISH

Dusanov Doniyor Urazbaevich
Tashkent International University mustaqil izlanuvchisi

Tijorat banklarining barqaror faoliyatini ta’minlashda eng muhim vazifalardan biri, ularning resurs bazasini mustahkamlash, likvidlik darajasini kafolatlash va daromadlilikni izchil oshirishdir. Bu maqsadga erishish uchun banklar aktivlar va passivlarni muvozanatli hamda samarali boshqarishi shart. Aktivlarning to‘g‘ri boshqarilmasligi muammoli aktivlarning shakllanishiga sabab bo‘ladi. Muammoli aktivlar esa bankning likvidligi, daromadliligi va resurs bazasiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun bu turdagi aktivlarni kamaytirish hamda ularning oldini olish, bugungi kunda tijorat banklari oldida turgan strategik ahamiyatga ega vazifalardan biridir.

Aktivlarning sifatsizligi bankning umumiy moliyaviy ahvoliga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Chunki muammoli kreditlar ulushi oshgan sari bank foydasining ma’lum qismi ehtimoliy yo‘qotishlar uchun rezerv sifatida ajratiladi. Bu holat bankning rentabelligini pasaytiradi, investitsiya imkoniyatlarini cheklaydi va yangi bank xizmatlarini joriy etish jarayonini sekinlashtiradi. Natijada bank bozordagi raqobatbardoshligini yo‘qotishi mumkin.

Xalqaro amaliyotda ham aktivlarni samarali boshqarish muammosi katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, AQShda 2008 yilgi ipoteka inqirozi davrida banklar aktivlar sifatini yetarlicha baholamagan va yuqori riskli ipoteka kreditlarini ko‘paytirgan. Bu moliyaviy tizimdagi noqonuniy risklar o‘sishiga olib keldi va natijada ko‘plab yirik banklar bankrotlik holatiga tushdi. Shundan keyin Bazel III standartlari joriy etildi, ular orqali banklar kapital yetarliligini ta’minlash va risklarni hisobga olishning aniq mezonlarini belgilash majburiyati yuklandi [1].

Yevropa Ittifoqida esa bank aktivlari sifatini muntazam baholash tizimi, Asset Quality Review (AQR) amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan. Unga ko‘ra, har bir bank aktivlarining risk darajasi, likvidlik holati va bozordagi qiymati aniqlanadi. Shu orqali muammoli aktivlarni erta bosqichda aniqlash va ularni optimal boshqarish imkoni yaratiladi [2].

Yaponiya tajribasi ham diqqatga sazovor. 1990-yillardagi “yo‘qotilgan dahya” davrida aktivlarning yuqori riskli tarkibi va banklar tomonidan ularni to‘g‘ri baholamaslik iqtisodiyotni uzoq yillar deflyatsiya holatida ushlab turdi. Keyinchalik Yaponiya Markaziy banki aktivlarni qayta baholash va muammoli aktivlarni davlat qo‘llovi bilan restrukturizatsiya qilish orqali moliyaviy tizim barqarorligini tikladi [3].

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda bank tizimida aktivlar sifatini oshirishga qaratilgan choralar amalga oshirilmoqda. Markaziy bank tashabbusi bilan aktivlar portfelini diversifikatsiya qilish, kredit skoring tizimini joriy etish, IFRS 9 xalqaro hisob standartlariga mos ravishda ehtimoliy yo‘qotishlar bahosini (ECL) hisoblash amaliyoti kengaytirildi. Shuningdek, muammoli aktivlarni sotish va ularni qayta tuzish bo‘yicha maxsus “Problem Asset Management Company”lar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan [4].

Tijorat banklari barqarorligini ta’minlash, aktivlar va passivlarni ilmiy asosda boshqarish, muammoli aktivlar ulushini kamaytirish, resurs bazasini mustahkamlash va likvidlikni doimiy ravishda ta’minlash bilan bevosita bog‘liq. Samarali aktiv boshqaruv siyosati bankning moliyaviy salohiyatini oshiradi, yangi xizmat turlarini joriy etish uchun sharoit yaratadi va iqtisodiy tizimning umumiy barqarorligiga hissa qo‘shadi.

Muammoli kreditlarni samarali boshqarish siyosati tijorat banklari barqarorligi, moliyaviy risklarni kamaytirish va aktivlar sifatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bunday siyosatning mazmun-mohiyati shundaki, u faqat muammoli kreditlarni qayta tiklash yoki ularni hisobdan chiqarish bilan cheklanib qolmay, balki aktivlar portfelini qayta shakllantirish, risklarni diversifikatsiya qilish va bank daromadliligini barqaror ta’minlashga qaratilgan tizimli choralarni qamrab oladi.

Muammoli aktivlarni samarali boshqarish siyosati quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olishi lozim:

1. Foizli muammoli aktivlar ulushini kamaytirish. Banklar kredit portfelini muntazam qayta baholash orqali to‘lanmagan foizlar bo‘yicha yo‘qotishlarni qisqartirishi, mijozlar bilan qayta kelishuvlar (restrukturizatsiya) amalga oshirishi va ehtimoliy yo‘qotishlar uchun yetarli rezerv yaratishi lozim. Bu jarayonda IFRS 9 standartlariga asoslangan Expected Credit Loss (ECL) modeli muhim rol o‘ynaydi [5].
2. Foizsiz daromad manbalarini kengaytirish. Bank faoliyatida faqat kredit foizlaridan emas, balki komissiya, to‘lov xizmatlari, elektron to‘lov tizimlari, brokerlik va konsalting xizmatlaridan ham daromad olish tizimini rivojlantirish talab etiladi. Bu bank daromadini diversifikatsiya qilish va riskni pasaytirishga xizmat qiladi.
3. Foizsiz xarajatlarni qat’iy nazorat qilish. Ma’muriy va operatsion xarajatlarni minimallashtirish orqali foydani saqlab qolish va resurslarni samarali taqsimlash ta’minlanadi.

4. Kredit sifati va portfel tarkibini nazorat qilish. Kredit berishda skoring tizimlaridan foydalanish, mijozlar moliyaviy xolatini aniq tahlil qilish va qaytarish ehtimoli past bo‘lgan loyihalarni moliyalashtirishdan voz kechish lozim.

5. Likvidlik talablariga rioya qilish. Bank likvid aktivlar ulushini (naqd pullar, qimmatli qog‘ozlar, markaziy bankdagi hisoblar) yetarli darajada ushlab turishi zarur. Bu to‘lov qobiliyatini ta’minlaydi va pul oqimidagi uzilishlarning oldini oladi.

6. Kapital yetarliligini ta’minlash. Bazel III talablariga muvofiq kapital yetarliligi koeffitsienti 12–13% darajasida bo‘lishi bank barqarorligining kafolatidir [6].

7. Bank balansi tarkibini boshqarish. Aktiv va passivlarning muddat bo‘yicha muvofiqligini ta’minlash, foiz stavkasi va valyutalar kesimidagi risklarni kamaytirish orqali balans barqarorligini saqlash lozim.

8. Tashqi iqtisodiy muhitdan kelib chiqqan holda balansni operativ boshqarish. Inflyatsiya, foiz stavkalari, valyuta kursi kabi tashqi omillar o‘zgarganda bank aktiv va passivlar tarkibini tezkor o‘zgartirish zarur.

9. Moliyaviy strategiya doirasida risk chegarasini saqlagan holda foydani maksimallashtirish. Risk va daromad o‘rtasidagi optimal muvozanatni ta’minlash bank rentabelligining asosidir.

Muammoli kreditlarni samarali boshqarishning maqsadli natijalari quyidagilardan iborat:

Bank likvidligini ta’minlash, ya’ni barcha majburiyatlar bo‘yicha pul oqimini qoplash uchun yetarli resursga ega bo‘lish va ortiqcha likvidlikni foydali aktivlarga joylashtirish.

Foiz stavkalari o‘zgarishiga ta’sirchan aktiv va passivlar o‘rtasidagi farqni (gap) nazorat qilish hamda risk doirasida daromadni maksimallashtirish.

Kapitalning yetarli hajmini saqlash orqali har qanday moliyaviy riskni qoplash imkoniyatini ta’minlash.

Aktivlar va xizmatlar bo‘yicha samarali baholash tizimini joriy etish orqali bank faoliyatidan olinadigan umumiy foydani oshirish.

Xalqaro amaliyotda muammoli aktivlarni boshqarishning samarali modellari qator rivojlangan mamlakatlarda keng qo‘llaniladi. Masalan:

AQShda, FDIC (Federal Deposit Insurance Corporation) va “Resolution Trust Corporation” tashkilotlari orqali muammoli aktivlar sotib olinib, bozorga qayta joylashtiriladi. Bu bank tizimining tez tiklanishini ta’minlaydi [7].

Koreya Respublikasida “Korea Asset Management Corporation (KAMCO)” muammoli aktivlarni markazlashgan holda boshqarib, ularni qayta sotish va restrukturizatsiya qilish orqali moliyaviy barqarorlikni ta’minlagan [8].

Yevropa Ittifoqida esa “Non-Performing Loans (NPL) Directive” doirasida muammoli kreditlarni oldindan aniqlash, baholash va qayta tiklash mexanizmlari ishlab chiqilgan [2].

Shunday qilib, muammoli kreditlarni samarali boshqarish siyosati — banklar uchun faqat moliyaviy barqarorlik vositasi emas, balki strategik ustuvorlikni ta’minlovchi tizim hisoblanadi. Uning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi orqali banklar risk darajasini cheklab, daromadlilikni oshiradi va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Ma’lumki, tijorat banklarining ishonchliligi va barqaror faoliyati butun moliyaviy tizimning barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, banklar tizimini muvofiqlashtirish va uning uzluksiz faoliyatini ta’minlash, Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan eng muhim vazifalardan biridir. Markaziy bankning asosiy

maqsadi faqatgina pul-kredit siyosatini amalga oshirish emas, balki tijorat banklari faoliyati ustidan samarali nazoratni o‘rnatish, ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlash va xavflarni minimal darajaga tushirishdan iboratdir.

Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan bunday nazorat, avvalo, bank kreditlari sifatini muntazam baholash, kredit risklarini aniqlash va ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun yetarli darajada zaxiralar shakllantirilishini talab qiladi. Bu talab bank tizimining ishonchli faoliyatini ta’minlaydigan asosiy omillardan biridir. Agar tijorat banklari muammoli kreditlar bo‘yicha yetarli rezerv yaratmasa, kutilmagan moliyaviy yo‘qotishlar bankning likvidligiga va majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

O‘zbekistonda Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, kreditlar sifatini baholash va ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi zaxiralar yaratish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Bazel III” xalqaro standartlariga mos ravishda kapital yetarliligi, likvidlik koeffitsienti va aktivlar sifatini baholash talablari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Shu bilan birga, Markaziy bank tomonidan bank tizimida risklarni oldindan aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan “makroprudensial nazorat” amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan.

Shunday qilib, tijorat banklari ishonchliligini ta’minlashda Markaziy bankning muvofiqlashtiruvchi roli hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Uning asosiy vazifasi, bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, kreditlar sifatini oshirish, ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar yaratish va pul-kredit tizimida uzluksiz ishonch muhitini ta’minlashdan iboratdir. Bu orqali bank sektori faqat iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlovchi emas, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi muhim institut sifatida shakllanadi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston bank tizimida kuzatilayotgan amaliyot shundan dalolat beradiki, tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar bo‘yicha qarzdorlar qaytarish imkoniyati pasaygan hollarda, kreditlarning amal qilish muddatini uzaytirish (restrukturizatsiya qilish) holatlari keng qo‘llanilmoqda. Formal jihatdan bu tadbir iqtisodiy faol sub’ektlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmi sifatida baholansa-da, aslida u banklar balansidagi muammoli kreditlar miqdorining oshganligini va ularni yashirin shaklda saqlab qolish tendensiyasini anglatadi.

2024 yilda moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan tadbirkorlik sub’ektlarini rag‘batlantirish va ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida Markaziy bank tomonidan banklar uchun vaqtinchalik yengilliklar yaratildi. Natijada, tijorat banklari kreditlarning qaytarish muddatlarini uzaytirish, foiz to‘lovlarini kechiktirish yoki qayta hisoblash orqali qarzdorlarning yukini yengillashtirish choralarini amalga oshirdilar. Biroq amalda bu amaliyot kredit portfeli sifatining pasayishi, aktivlarning real qiymatini yo‘qotish va banklarda yashirin risklarning ortishi bilan bog‘liq holatni keltirib chiqardi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, kreditlarning muddatini uzaytirish amaliyoti qisqa muddatli yechim bo‘lib, u kreditlarni qaytarish qobiliyati zaiflashgan mijozlar uchun vaqtinchalik yengillik yaratadi. Biroq uzoq muddatli davrda bu holat bank aktivlarining “haqiqiy” sifati va risk darajasi bo‘yicha manipulyatsiyaga olib kelishi mumkin. Shu sababli, xalqaro amaliyotda bunday holatlarda kredit restrukturizatsiyasi faqat cheklangan holatlarda, aniq baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekistonda esa 2024 yilda ushbu amaliyot tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida keng qo‘llanilgan bo‘lib, u qisqa muddatli iqtisodiy yengillik bergan bo‘lsa-da, kelgusida tijorat banklari uchun risklarni oshirish ehtimoli yuqori. Shu

sababli, kelgusida kredit muddatini uzaytirish amaliyotini individual baholash, qarzdorning to‘lov qobiliyatini chuqur tahlil qilish va har bir holatda iqtisodiy asoslangan qaror qabul qilish zarur.

Shunday qilib, kreditlarning muddatini uzaytirish amaliyoti iqtisodiy jihatdan vaqtinchalik chora bo‘lib, uning to‘g‘ri boshqarilmagan holda qo‘llanilishi bank tizimining barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun ham Markaziy bank nazoratida kredit restrukturizatsiyasi bo‘yicha qat’iy me’yorlar joriy etilishi, muammoli aktivlar hisobini shaffof yuritish hamda bank aktivlari sifatini xalqaro standartlarga muvofiq baholash tizimini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. *Basel Committee on Banking Supervision. (2019). Basel III: Finalising Post-Crisis Reforms. Bank for International Settlements, Basel.*
2. *European Central Bank (ECB). (2023). Asset Quality Review and Supervisory Banking Statistics. Frankfurt am Main: ECB Publications.*
3. *Japan Bankers Association (JBA). (2022). Asset Management and Non-Performing Loan Resolution Practices in Japan. Tokyo: JBA.*
4. *Central Bank of Uzbekistan (CBU). (2024). Banking Sector Review. Tashkent: CBU. https://cbu.uz*
5. *International Monetary Fund (IMF). (2023). Global Financial Stability Report: Resilience and Risks in the Financial Sector. Washington, D.C.: IMF.*
6. *Bank for International Settlements (BIS). (2023). Quarterly Review: International Banking and Financial Market Developments. Basel: BIS.*
7. *Federal Deposit Insurance Corporation (FDIC). (2022). Resolution Trust Corporation Historical Analysis: Managing the Crisis. Washington, D.C.: FDIC.*
8. *KAMCO (Korea Asset Management Corporation). (2022). Annual Report on Resolution and Management of Non-Performing Assets. Seoul: KAMCO.*

INNOVATSION FAOLIYAT JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI DAROMAD MANBALARI TAHLILI

Ahmedov Komron Muhammad-Alievich
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti mustaqil izlanuvchisi

Tijorat banklari daromadining tarkibiy tahlili bank faoliyati samaradorligini chuqur baholash imkonini beradi. Bu tahlil orqali bankning qaysi yo‘nalishda ko‘proq daromad olayotgani, qaysi xizmat turlari samarasiz ekani, hamda kelgusi strategiyani aniq belgilash mumkin bo‘ladi.

Bank daromadlari tarkibiy tahlilining asosiy maqsadlari quyidagicha:

bankning umumiy daromadligiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash;

asosiy daromad manbalarini belgilash hamda ularning kelgusidagi o‘sish imkoniyatlarini baholash;

daromad manbalarining tuzilishi va ulushini baholash orqali foyda manbalarini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini belgilash;

kelgusida bankning daromad barqarorligini ta’minlash va risk darajasini pasaytirish choralarini ishlab chiqish.

Bank daromadlari asosan foizli va foizsiz manbalardan shakllanadi. Foizli daromadlarga kreditlar, qarz vositalari va qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha foiz tushumlaridan iborat bo‘lsa, foizsiz daromadlarga komissiya, valyuta operatsiyalari, sug‘urta, investitsiya va masofaviy xizmatlardan kelgan tushumlarni qamrab oladi.

Shu jihatdan, tahlil jarayonida har bir daromad turining ulushi va uning dinamikasi solishtirma asosda baholanadi. Masalan, agar foizli daromadlar ulushi 80 foizni tashkil etsa, bu bank faoliyati kreditlash operatsiyalariga qattiq bog‘langanini ko‘rsatadi. Ammo xalqaro amaliyotda barqaror bank tizimlari, xususan, JPMorgan Chase, HSBC yoki Mitsubishi UFJ Financial Group singari yirik banklar foizsiz daromadlar ulushini 35-45 foizgacha yetkazgan [1,2,3,]. Bu ularga bozor risklariga nisbatan barqarorlikni ta’minlash imkonini bergan. Xususan:

JPMorgan Chase (AQSh), daromadining taxminan 55–60% foizli operatsiyalar (kreditlar, obligatsiyalar, depozitlar bo‘yicha marja) hisobiga, qolgan qismi esa xizmat ko‘rsatish va investitsiya faoliyatidan kelib chiqadi. Bank moliyaviy xizmatlar portfelini diversifikatsiya qilish orqali riskni pasaytiradi [1].

HSBC (Buyuk Britaniya), foizsiz daromad ulushini oshirish maqsadida xalqaro to‘lov xizmatlari, valyuta operatsiyalari va privat-banking (private banking) yo‘nalishlariga katta ahamiyat beradi [2].

Mitsubishi UFJ Financial Group (Yaponiya), korporativ mijozlar bilan daromadli lizing, faktoring va investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali daromad manbalarini kengaytirgan [3].

Yevropa banklari so‘nggi yillarda fintex va raqamli xizmatlar hisobiga foizsiz daromadlarni oshirmoqda. Masalan, BNP Paribas 2024 yilda foizsiz daromadlar ulushini 42% gacha oshirdi [4].

Xalqaro amaliyotda “Net Stable Income Ratio (NSIR)” ko‘rsatkichi orqali bankning daromad barqarorligi baholanadi. Bu ko‘rsatkich bankning foizli va foizsiz daromadlari nisbatini o‘lchaydi [5].

Vertikal va gorizontal tahlil usullari asosida bank daromadlarini o‘rganish tijorat banklarining faoliyati samaradorligini kompleks baholashga hamda daromadlilikni oshirish strategiyasini ishlab chiqishga imkon beradi. Bu usullar bank faoliyatidagi asosiy tendensiyalar va ichki tarkibiy o‘zgarishlarni chuqur tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Vertikal tahlil, bankning umumiy daromadlari tarkibida har bir daromad elementining ulushini aniqlaydi. Ushbu tahlil orqali bank faoliyatida qaysi daromad manbalari ustuvor ekanligi, qaysi yo‘nalishlar bo‘yicha diversifikatsiya yetarli emasligi yoki risk yuqori ekanligi aniqlanadi. Masalan, agar foizli daromadlar ulushi juda yuqori bo‘lsa, bu bank faoliyati kredit operatsiyalariga katta darajada bog‘liqligini anglatadi. Bu esa foiz stavkalari o‘zgarishidan kelib chiquvchi riskni oshiradi.

Gorizontal tahlilda esa bank daromadlarining vaqt bo‘yicha o‘zgarish dinamikasini ko‘rsatadi. Bu tahlil orqali bank faoliyatidagi o‘sish yoki pasayish tendensiyalarini aniqlash mumkin bo‘ladi. Masalan, foizli daromadning barqaror o‘sishi bankning aktivlarini samarali joylashtirayotgani va kredit portfeli sifati yuqori ekanligidan dalolat beradi. Boshqa daromad turlarining o‘sishi esa bank xizmatlari diversifikatsiyasi kengayotganini va noan’anaviy operatsiyalar hissasi oshib borayotganini ko‘rsatadi.

Yevropa banklari, xususan ING Group va Santander Bank, vertikal tahlil natijalariga ko‘ra foizsiz daromadlar ulushini 40–45 foizga yetkazishni maqsad qilgan [6]. Bu raqamli bank xizmatlari, onlayn to‘lovlar va investitsiya platformalari orqali amalga oshirilgan.

AQShdagi Wells Fargo va Citibank banklari gorizontal tahlil natijalari asosida noan’anaviy operatsiyalar, lizing, faktoring, trast xizmatlari va aktivlar boshqaruvi

faoliyatini kengaytirish orqali foizsiz daromadlarni yillik 10–12% ga oshirishga erishgan [7,8].

Yaponiya va Janubiy Koreya banklari esa o‘z navbatida tahlil natijalariga ko‘ra korporativ mijozlar uchun xedjing va derivativ xizmatlarni joriy etish orqali barqaror foizsiz daromad oqimini ta’minlagan [9].

Vertikal va gorizontal tahlil usullarini tizimli ravishda qo‘llash tijorat banklariga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

daromad manbalarini diversifikatsiya qilish orqali foiz risklarini kamaytirish;

daromad strukturasining barqarorligini ta’minlash;

foizli va foizsiz daromadlar o‘rtasida optimal muvozanatni shakllantirish;

bankning strategik rivojlanish yo‘nalishlarini aniq belgilash.

Shu tariqa, tarkibiy, vertikal va gorizontal tahlil natijalari tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish va raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim analitik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bank daromadlarini tahlil qilish jarayonida muhim jihat shundaki, daromad ko‘rsatkichlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri bankning umumiy faoliyati va aktivlar portfelining samaradorligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Daromad hajmini oshirish uchun bank faoliyatidagi asosiy e’tiborni foyda keltiruvchi aktivlarning ulushini ko‘paytirishga qaratish zarur. Ilmiy nuqtai nazardan, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va likvidligi optimal darajada bo‘lishi uchun daromad keltiruvchi aktivlar jami aktivlar tarkibida kamida 75 foizni tashkil etishi maqsadga muvofiq hisoblanadi [9]. Bu ko‘rsatkich bankning aktivlarini foyda olish nuqtai nazaridan samarali joylashtirayotganini anglatadi.

Daromad keltiruvchi aktivlarga, kreditlar, qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan investitsiyalar, hukumat va korporativ obligatsiyalar, interbank qo‘yilmalari va boshqa foizli aktivlar kiradi. Ushbu aktivlarning ulushi ortishi bankning foizli daromad manbalarini kengaytirish bilan birga, umumiy aktivlar aylanuvchanligini ham yaxshilaydi.

Biroq, har qanday moliyaviy operatsiya nafaqat foyda, balki ma’lum darajada riskli bo‘ladi. Bank foyda olish maqsadida aktivlarni joylashtirayotganda “risk-return trade-off” tamoyilini inobatga olishi shart. Ya’ni, foydalilik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, u bilan bog‘liq moliyaviy risk ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Masalan, yuqori foizli korporativ kreditlar orqali bank katta daromad olishi mumkin, ammo bu kreditlar bo‘yicha defolt riski ham yuqori bo‘ladi. Shu bois bank aktivlar portfelini shakllantirishda foyda va risk o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, strategik ahamiyatga ega omil hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda bu tamoyilni boshqarish maqsadida “risk-adjusted return on capital (RAROC)” ko‘rsatkichi qo‘llaniladi. Masalan, HSBC va Bank of America singari yirik banklar aktivlar tarkibini baholashda har bir aktiv turining kutilayotgan foydasi bilan birga, potensial yo‘qotish ehtimolini hisobga oladi [10]. Bu usul orqali aktivlar portfeli optimallashtiriladi va foydalilik bilan risk o‘rtasidagi muvozanat ta’minlanadi.

Shuningdek, aktivlar tarkibidagi diversifikatsiya darajasi ham muhim ahamiyatga ega. Bir turdagi aktivlar ustun bo‘lib ketishi bankni bozor yoki foiz risklariga nisbatan zaiflashtiradi. Shu bois, aktivlar portfelida kreditlar, investitsiyalar, likvid aktivlar va boshqa moliyaviy vositalar o‘rtasidagi proporsiya strategik ravishda belgilanishi lozim.

Tijorat banklarining daromadlilik darajasi faqat aktivlar hajmiga emas, balki ularning tarkibiy sifatiga ham bog‘liqdir. Daromad keltiruvchi aktivlar ulushini мақбул

darajada ushlab turish, ularni samarali diversifikatsiya qilish va foyda–risk muvozanatini ta’minlash bankning barqaror rivojlanishi hamda kapital samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Olib borilgan ilmiy tahlillar natijasida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi takliflarni ilmiy jihatdan asoslash mumkin. Bu takliflar bank faoliyatidagi resurslardan samarali foydalanish, likvidlikni ta’minlash va daromad bazasini kengaytirishga qaratilgan.

1. Resurslarni aktivlarga joylashtirish imkoniyatidan kelib chiqqan holda jalb etish. Bank resurslarini jalb qilish siyosati faqat hajmga emas, balki ularni samarali joylashtirish imkoniyatiga bog‘liq bo‘lishi lozim. Ayrim hollarda banklar yuqori foiz stavkasida juda katta miqdorda depozitlar jalb qiladi, ammo ushbu mablag‘larni daromad keltiruvchi aktivlarga tez fursatda joylashtirish imkoniyati bo‘lmagani sababli ularda likvidlik muammolari yuzaga keladi. Bu esa foiz xarajatlarining ortishi va foydaning kamayishiga olib keladi. Shuning uchun resurslar jalb qilinishida aktiv–passiv muvofiqligi tamoyiliga amal qilish zarur.

2. Majburiy zaxira talablarini kamaytirish orqali bank resurslarini faollashtirish. Majburiy zaxira me’yorlari banklar faoliyatida likvidlik xavfini kamaytirish uchun muhim rol o‘ynaydi. Biroq ularning yuqori darajada belgilanishi banklarning faol resurslarini qisqartiradi va daromad keltiruvchi operatsiyalarni cheklaydi. Shu bois, majburiy zaxira talablarini qisman kamaytirish banklarda qo‘shimcha likvidlik yaratishga va aktiv operatsiyalar hajmini oshirishga xizmat qiladi.

3. Faktoring va forfeyting operatsiyalarini rivojlantirish orqali noan’anaviy daromadlarni oshirish. Faktoring va forfeyting operatsiyalari banklarning foizsiz daromad manbalari hisoblanadi va ularni rivojlantirish bank foydaliligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznes sub’ektlariga xizmat ko‘rsatishda ushbu moliyaviy instrumentlar tez aylanma aktivlar asosida barqaror daromad manbasini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, bank faoliyati samaradorligini oshirish faqat daromad hajmini ko‘paytirish bilan emas, balki resurslar samaradorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va noan’anaviy operatsiyalar hissasini kengaytirish orqali amalga oshiriladi. Shu takliflarni amalga oshirish tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlab, ularni xalqaro raqobat muhitida faol ishtirokchiga aylantiradi.

Adabiyotlar:

1. *JPMorgan Chase & Co. (2024). Annual Report 2023–2024. New York: JPMorgan Chase Investor Relations.*
2. *HSBC Holdings plc. (2025). Annual Report and Accounts 2024. London: HSBC Group Publications.*
3. *Mitsubishi UFJ Financial Group. (2025). Integrated Report 2024. Tokyo: MUFG.*
4. *BNP Paribas. (2025). Universal Registration Document and Annual Financial Report 2024. Paris: BNP Paribas.*
5. *BIS (Bank for International Settlements). (2025). Basel Framework: Risk Management Principles for Banks. https://www.bis.org*
6. *Santander Bank. (2024). Annual Report 2023. Madrid: Banco Santander S.A.*
7. *Wells Fargo & Co. (2024). Annual Report 2023. San Francisco: Wells Fargo Investor Relations.*
8. *Bank of America. (2024). Annual Report 2023. Charlotte: Bank of America Corporation.*
9. *Saunders, A., & Cornett, M. M. (2020). Financial Institutions Management: A Risk Management Approach (9th ed.). McGraw-Hill Education.*
10. *European Central Bank. (2024). Monetary Policy and Banking Supervision Annual Report. Frankfurt am Main: ECB Publications.*

TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION FAOLIYATIDA IPOTEKA KREDITLARINI SUBSIDIYALASH AMALIYOTI

Turdiev Shaxriddin Erxonovich
Tashkent International University mustaqil izlanuvchisi

Tijorat banklarida innovatsion faoliyat takomillashib borgan sari O‘zbekiston iqtisodiyotida aholining turar-joyga bo‘lgan talabi oshib bormoqda. Bu jarayonda ipotekali kreditlash tizimi aholini uy-joy bilan ta’minlashning asosiy moliyaviy mexanizmiga aylandi. Biroq aholining ayrim qatlamlari uchun ipoteka kreditlarining foiz stavkalari yuqori bo‘lgani sababli, davlat tomonidan subsidiyalash amaliyoti joriy etilgan.

Subsidiyalash amaliyotining asosiy maqsadi, aholining to‘lov qobiliyati past bo‘lgan qatlamlariga ipotekani ommaviy va foiz jihatidan qulay shaklda taqdim etishdir. Shuningdek, mazkur mexanizm bank tizimida likvidlikni ta’minlash, qurilish bozorida talabni barqarorlashtirish va iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ipotekali kreditlash davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishi hisoblanadi. U uzoq muddatli kredit munosabatlariga tayanadi va aholining shaxsiy mulkdorlik salohiyatini oshiradi. Subsidiyalash esa ipoteka tizimining barqaror ishlashini ta’minlovchi davlat qo‘llovi vositasi bo‘lib, iqtisodiy jihatdan quyidagi vazifalarni bajaradi:

- aholining uy-joy xaridi uchun moliyaviy yukini kamaytiradi;
- banklar uchun ipoteka portfelining qaytarilish xavfini pasaytiradi;
- qurilish va moliya bozorida talab va taklif muvozanatini ta’minlaydi;
- ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Subsidiyalar, odatda, foiz stavkalari bo‘yicha to‘lovlarning ma’lum qismini davlat tomonidan qoplash yoki qayta moliyalashtirish tashkilotlari orqali past foizli mablag‘lar taqdim etish shaklida amalga oshiriladi.

Xalqaro amaliyotda turli modellar mavjud. Masalan:

AQShda ipotekali kreditlar Federal Housing Administration (FHA) orqali qayta moliyalashtiriladi [1].

Koreya Respublikasida “Korea Housing Finance Corporation” subsidiya va kafolatlarni birlashtirgan tizimni yo‘lga qo‘ygan [2].

Turkiyada ipoteka foizlarining ma’lum qismi davlat tomonidan qoplanadi va uy-joy dasturlari “TOKİ” orqali amalga oshiriladi [3].

Polshada “Family on their own” dasturi orqali aholining ipoteka kreditlari bo‘yicha foiz xarajatlari budjetdan subsidiya qilinadi [4].

Bu tajribalar ko‘rsatadiki, subsidiyalash tizimi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash bilan birga ijtimoiy siyosatning muhim qismiga aylangan.

Subsidiya institutlari ijtimoiy adolat va aholi qatlamlari o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega moliyaviy mexanizm hisoblanadi. Subsidiya, avvalo, daromad darajasi past bo‘lgan fuqarolar yoki oilalarni uy-joy bilan ta’minlashga qaratilgan davlat yordami shaklidir. Bu mexanizm orqali davlat ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo‘llab-quvvatlab, ularning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytiradi va yashash sharoitlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda amal qilayotgan tartibga ko‘ra, subsidiya uy-joy sotib olish yoki ipoteka krediti bo‘yicha dastlabki to‘lov va foizlarni qoplash uchun beriladi hamda u

asosan daromadi past fuqarolarga yo‘naltiriladi. Mazkur toifadagi fuqarolarning daromad darajalari aniq me’yorlar asosida belgilangan [5]:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda oylik daromad miqdori mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining (MHTEKM) 2,7 baravaridan 8 baravarigacha bo‘lishi lozim;

Toshkent shahrida esa mazkur ko‘rsatkich 2,7 baravardan 9,2 baravarigacha oralig‘ida belgilangan.

Bu tartibning mohiyati shundaki, fuqarolarning real daromad darajasi va uy-joy bozoridagi narxlar o‘rtasidagi disbalansni kamaytirish orqali davlat aholining uy-joy bilan ta’minlanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Amaliyotda subsidiya olish huquqiga ega bo‘lgan fuqarolar o‘zining asosiy daromadi yetarli bo‘lmagan hollarda, yaqin qarindosh bo‘lmagan shaxslarni ham birgalikda qarz oluvchisifatida jalb etishi mumkin. Bu mexanizm fuqarolarga qo‘shimcha kafolat yaratish, kreditni to‘lash qobiliyatini oshirish hamda ipoteka subsidiyasini olish imkoniyatini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Masalan, agar fuqaroning oylik ish haqi 1 million so‘m bo‘lib, bu summa subsidiya olish uchun belgilangan minimal chegaradan past bo‘lsa, u holda u boshqa uyda yashovchi qarindoshi, masalan, xolasi, ammasi yoki tog‘asi bilan birgalikda ariza berish orqali talab etilgan daromad me’yorini qondirishi mumkin [5].

Bu amaliyotning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati shundaki, u aholining keng qatlamlarini ipoteka dasturlariga jalb etish imkonini yaratadi. Biroq bunday yondashuvda davlat tomonidan moliyaviy xavflar yetarlicha baholanishi lozim. Chunki birgalikda qarz oluvchilarning huquq va majburiyatlari to‘liq belgilanmagan holatlarda qarz qaytarilishi bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shu bois, subsidiya berish jarayonida moliyaviy salohiyatni baholash, daromad manbalarining barqarorligini aniqlash va qarzga xizmat ko‘rsatish qobiliyatini baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu amaliyot xalqaro tajribalarda ham qo‘llaniladi. Masalan, Turkiya va Malayziya kabi mamlakatlarda uy-joyni subsidiyalash tizimida «birgalikda javobgarlik» instituti mavjud bo‘lib, kam daromadli fuqarolar qarindoshlari yoki ishonchli sheriklari bilan birgalikda ipoteka shartnomasi tuzishi mumkin. Bu usul banklar uchun riskni kamaytiradi, chunki qarz to‘lovi bir necha shaxsning javobgarligi ostida amalga oshiriladi [3,10].

Yevropa Ittifoqi davlatlarida esa subsidiya siyosati «ijtimoiy uy-joy» dasturlari bilan uyg‘unlashgan. Masalan, Polshada kam daromadli oilalar uy-joy sotib olish yoki ijaraga olishda davlat tomonidan to‘lovning bir qismini qoplovchi subsidiyalar oladi. Bu tizimda ham fuqarolarning oila a’zolari yoki yaqinlari birgalikda ariza berish huquqiga ega, bu esa ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi [6].

Xalqaro amaliyotda ham kam daromadli toifalar uchun uy-joy subsidiyalari mexanizmlari keng qo‘llaniladi. Masalan [7]:

AQShda, “Section 8 Housing Choice Voucher Program” dasturi orqali past daromadli oilalar uchun davlat uy-joy to‘lovlarining bir qismini qoplab beradi. Bu dasturda fuqarolarning daromadi mintaqaviy “Median Income”ning 50–80 foizidan oshmasligi kerak.

Britaniyada “Help to Buy” va “Shared Ownership” dasturlari amal qiladi, ular orqali past daromadli fuqarolar uy-joyning muayyan qismini davlat subsidiyasi yordamida sotib oladi va qolgan qismini uzoq muddatli kredit orqali to‘laydi.

Malayziya va Indoneziyada “MyHome” va “Subsidi Rumah Rakyat” dasturlari orqali aholining past daromadli qatlami uchun ipotekali kredit bo‘yicha foiz stavkalari davlat subsidiyasi hisobidan qisman qoplanadi [8].

Shu bilan birga, subsidiyalar tizimining samaradorligi aholining daromad darajasini to‘g‘ri baholash, subsidiya ajratishda shaffof mexanizmlarni joriy etish va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishga bog‘liq. Subsidiyalar to‘g‘ri taqsimlanganda, ular kam daromadli aholi uchun real moliyaviy yordam vositasiga aylanadi, uy-joy bozori faolligini oshiradi va ipoteka kreditlari orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi.

O‘zbekistonda ham bu amaliyot aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, xalqaro tajriba asosida subsidiya berish mezonlarini yanada aniqlashtirish, daromadni baholash usullarini takomillashtirish va kredit salohiyatini baholashning raqamli mexanizmlarini joriy etish zarur. Bu nafaqat davlat subsidiyalarining manzilliligini ta’minlaydi, balki bank tizimining barqarorligi va moliyaviy intizomni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda subsidiyalar tizimi ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan bo‘lib, uning asosiy vazifasi aholining uy-joy sohasiga kirish imkoniyatini kengaytirishdir. Bu mexanizm nafaqat ijtimoiy yordam shakli, balki iqtisodiy faollikni qo‘llab-quvvatlovchi muhim iqtisodiy instrument sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yil holatiga aholining ipoteka portfeli umumiy bank aktivlarining 22-25 foizini tashkil etgan. Shuning 35 foizi davlat tomonidan subsidiyalangan ipoteka kreditlari hissasiga to‘g‘ri keladi [9].

Banklarning innovatsion faoliyatida subsidiyalashning amaliy mexanizmi quyidagicha shakllangan:

- aholi ipoteka krediti bo‘yicha bankdan kredit oladi;
- foiz to‘lovining ma’lum qismi Davlat budjeti yoki Ipotekani qayta moliyalashtirish jamg‘armasi hisobidan to‘lanadi;
- qolgan qismi mijoz tomonidan qoplanadi;

Bank foiz marjasini to‘liq oladi, bu esa uning likvidligini ta’minlaydi. Bu amaliyotning iqtisodiy natijalari quyidagicha:

- aholining uy-joy xarid qilish imkoniyatlari kengaydi;
- qurilish sohasida ichki yalpi mahsulot (YaIM) ulushi o‘sdi;
- bank aktivlari sifatining barqarorligi ta’minlandi;
- davlat budjeti orqali ijtimoiy qo‘llovning samarasi oshdi.

Respublikamizda subsidiyalash tizimi ijobiy natija bergan bo‘lsa-da, amalda qator muammolar saqlanib qolmoqda:

1. Budjet mablag‘lariga bog‘liqlik yuqori. Davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘lar yetishmovchiligi ipoteka dasturlarini cheklaydi.

2. Banklar riskni baholashda ehtiyotkor emas. Subsidiyalangan ipotekalarda risk nazorati past bo‘lgan holatlar kuzatiladi.

3. Qayta moliyalashtirish bozori yetarli rivojlanmagan. Uzoq muddatli resurslar yetishmasligi bank likvidligini qisqartiradi.

4. Subsidiya oluvchilar bazasi shaffof emas. Ayrim hollarda subsidiyalar maqsadli yo‘naltirilmagan.

Bu kamchiliklar tizimning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashda to‘siq bo‘lib turibdi. Banklarning innovatsion faoliyatida muammolarni bartaraf etish va subsidiyalash tizimini samarali tashkil etish uchun quyidagi choralar taklif etiladi:

Ipoteka subsidiyalari reestrini yaratish. Bu orqali subsidiyalarning manzilliligi va shaffofligi ta’minlanadi.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modelini joriy etish. Xususiy investorlar ishtirokida ipoteka jamg‘armalari faoliyatini kengaytirish lozim.

Qayta moliyalashtirish tashkilotlarini rivojlantirish. Banklarning ipoteka portfellarini qayta sotib olish va likvidlikni ta’minlash orqali riskni pasaytirish mumkin.

Xalqaro tajribadan foydalanish. Polsha va Koreya tajribasidagi kam foizli, uzoq muddatli davlat kafolatli ipoteka modelini joriy etish.

Budjet mablag‘larini raqamli monitoring qilish. Barcha subsidiya jarayonlarini elektron axborot tizimi orqali boshqarish tizimini yo‘lga qo‘yish.

Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, banklarning innovatsion faoliyatida subsidiyalash amaliyoti ipotekali kreditlash tizimining barqarorligi va kengayishi uchun strategik ahamiyatga ega. U aholining turar-joy sharoitini yaxshilaydi, bank tizimida likvidlikni ta’minlaydi va qurilish sohasi faolligini qo‘llab-quvvatlaydi.

O‘zbekistonda subsidiyalash mexanizmini takomillashtirish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish va qayta moliyalashtirish tizimini kengaytirish orqali ipotekali kreditlashning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

Adabiyotlar:

1. *Federal Housing Administration (FHA). (2023). Annual Report to Congress on the Financial Status of the FHA Mutual Mortgage Insurance Fund. U.S. Department of Housing and Urban Development.*
2. *Korea Housing Finance Corporation (KHFC). (2023). Mortgage-Backed Securities and Housing Subsidy Program Review. Seoul: KHFC.*
3. *Turkish Housing Development Administration (TOKİ). (2022). Social Housing and Mortgage Subsidy Programs in Turkey. Ankara: TOKİ Publications.*
4. *Ministry of Development Funds of Poland. (2022). Family on Their Own Program: Mortgage Subsidy Mechanism and Performance. Warsaw: Government Press.*
5. *Uzbekistan Mortgage Refinancing Company (UMRC). (2023). Annual Financial and Operational Report on Mortgage Subsidy and Refinancing. Tashkent: UMRC.*
6. *E.X. Jiang. (2025). Collateral Value Uncertainty and Mortgage Credit Provision. Journal of Financial Intermediation, 54, 1–24.*
7. *World Bank. (2022). Global Economic Prospects. Washington, D.C.: World Bank Publications.*
8. *International Monetary Fund (IMF). (2023). Global Financial Stability Report: Resilience and Risks in the Financial Sector. Washington, D.C.: IMF.*
9. *Central Bank of Uzbekistan (CBU). (2024). Monetary Policy Review and Housing Finance Report. Tashkent: CBU. Retrieved from https://cbu.uz*

OPPORTUNITIES FOR OPTIMAZING THE FINANCIAL MANAGEMENT OF SMALL BUSINESSES THROUGH FINTECH TECHNOLOGIES

Nurullayeva Farangizxon Jamshid qizi
1st year student of TSUE

The emergence of financial technology (Fintech) has significantly transformed the way businesses, especially small enterprises, manage their finances. This thesis explores how Fintech tools can optimize financial management in small businesses by improving efficiency, reducing costs, and enhancing access to financial services. The research discusses the adoption of digital payment platforms, automated accounting systems, and AI-based financial analytics as the core enablers of financial optimization. The

findings show that Fintech adoption leads to better cash flow management, faster transactions, and improved decision-making through real-time financial data.

Small businesses are vital to economic development, job creation, and innovation. However, they often face serious challenges in managing finances efficiently due to limited resources, lack of expertise, and restricted access to financial institutions. In recent years, Fintech—an abbreviation for financial technology—has provided solutions that empower small firms to overcome these constraints.

Fintech integrates technology into financial services, enabling automation, real-time data analysis, and convenient digital transactions. By using mobile banking, digital wallets, accounting software, and blockchain-based systems, small businesses can optimize financial operations. This paper examines the opportunities Fintech technologies offer to enhance small business financial management.

Several studies emphasize the role of Fintech in improving financial inclusion and operational efficiency. According to the World Bank (2023) [2], Fintech innovations have reduced transaction costs by up to 40% for small enterprises. Similarly, research by Accenture (2022) found that 67% of small business owners use at least one Fintech application for payments or accounting [1].

According to Deloitte's Small Business Digital Transformation Report (2021), more than 75% of businesses stated that digital technologies significantly improved their ability to manage disruptions such as the COVID-19 pandemic. Companies with higher digital maturity were twice as likely to achieve above-average profit margins and revenue growth [3].

The report emphasizes three key success factors:

1. A clear digital strategy
2. Proper technology integration.
3. Strong change management capability.

For small businesses, this means that Fintech tools—like digital payments, online accounting, and AI-based analytics—can greatly enhance financial efficiency and resilience when used strategically. However, Deloitte also warns about challenges such as cybersecurity risks and lack of digital skills.

Digital payment systems such as PayPal, Square, and Stripe enable faster, safer, and borderless transactions. Meanwhile, accounting platforms like QuickBooks and Xero simplify bookkeeping and automate reporting. Artificial intelligence (AI) and machine learning tools are also emerging to forecast cash flow and detect fraud in real time. Collectively, these technologies enhance control over business finances and strategic decision-making [4]. This thesis adopts a qualitative research method using secondary data analysis. Information was gathered from journal articles, financial reports, and case studies of small businesses that adopted Fintech tools between 2020 and 2024. The research focuses on three key dimensions of financial management optimization:

cost efficiency – reducing operational and transaction costs through automation and digitalization.

financial accessibility – improving access to loans, credit scoring, and investment tools via online platforms.

data-driven decision-making – leveraging analytics and AI for better budgeting, forecasting, and reporting.

Comparative analysis of case studies was used to evaluate how different Fintech solutions address financial challenges in small businesses.

1. Improved Financial Efficiency

Fintech applications automate manual tasks such as payroll, invoicing, and reconciliation. For example, cloud-based software like Xero allows small business owners to monitor financial activities in real time. This reduces administrative workload and human error, freeing time for strategic planning.

2. Enhanced Access to Financial Services

Digital lending platforms, such as Kiva and Funding Circle, use alternative data (e.g., transaction history, mobile usage) to evaluate creditworthiness. This innovation helps small businesses, especially in developing regions, obtain financing that traditional banks might reject [5].


3. Real-Time Decision Making

AI-driven analytics tools enable business owners to visualize trends and make proactive financial decisions. For instance, predictive analytics can forecast seasonal demand or potential cash shortages, enabling better financial control.

4. Cost Reduction and Transparency

Using digital payments and blockchain technologies lowers transaction fees and enhances transparency. Cryptographic systems ensure secure, tamper-proof records, building trust between businesses and clients.

Despite these benefits, challenges remain. Cybersecurity threats, lack of digital literacy, and regulatory uncertainty may limit adoption. Therefore, governments and financial institutions should support Fintech education and regulation to ensure safe usage.




Picture 1: Global Fintech Market Growth (2020–2024)

Source: *World Bank, 2024*

Fintech technologies provide small businesses with powerful opportunities to optimize financial management. From digital payment systems to AI-driven analytics, Fintech improves efficiency, reduces costs, and enhances transparency. As small enterprises continue to integrate technology into daily operations, their financial resilience and competitiveness will grow. However, successful adoption requires awareness, regulatory support, and continuous innovation.

Thus, Fintech is not just a convenience—it is an essential driver of modern small business sustainability and growth.



Picture 2 : Impact of Fintech Adoption on Business Efficiency

Source: Deloitte, 2023

Fintech technologies are transforming how small businesses manage their finances. Through digital payments, online banking, cloud-based accounting, and AI-driven analytics, small firms can reduce costs, improve cash-flow management, and make faster, data-based decisions. Studies, including Deloitte (2021), show that businesses adopting digital tools achieve higher efficiency, profitability, and resilience. However, successful fintech use requires proper strategy, staff training, and cybersecurity measures. Overall, fintech offers strong opportunities to optimize financial management and support the growth of small businesses in a digital economy. As the writer, I believe Fintech represents more than just technological progress—it is a vital tool for empowering small businesses in today's digital economy. Through innovation and accessibility, Fintech helps entrepreneurs manage finances with greater confidence, speed, and accuracy. While challenges like cybersecurity and digital literacy still exist, the benefits far outweigh the risks when used responsibly. I conclude that Fintech will continue to shape the future of business finance, making small enterprises stronger, more competitive, and better prepared for the challenges of a connected world.

Literature:

1. Accenture. (2022). Fintech and the Future of Small Business Finance.
2. World Bank. (2023). Digital Finance for Inclusive Growth.
3. Deloitte. (2021). Small Business Digitl Transformation Report.
4. PwC. (2023). Global Fintech Survey.
5. OECD. (2022). SME Access to Finance and Digital Innovation.

DIGITALIZATION REFORMS BEING IMPLEMENTED IN THE BUSINESS SECTOR IN UZBEKISTAN.

Dulanova Sevinch Chori qizi
Tashkent State University of Economics Faculty of Managemant

Uzbekistan's digital economy has experienced significant growth, with the Information & Communication Technology (ICT) sector contributing 2.1% to GDP in

2023. By 2024, the number of companies operating in the information and communication sector reached 10,551. The IT Park, a key driver of industry development, now hosts over 2,500 companies, with ICT exports more than doubling from USD 140 million in 2022 to USD 344 million in 2023. However, the country continues to rank low globally in ICT service exports and imports, reflecting its limited international competitiveness.

The government is advancing digital transformation through the "Digital Uzbekistan – 2030 Strategy", allocating USD 2.5 billion to digital infrastructure. E-government services have expanded, placing Uzbekistan 57th globally, yet adoption rates remain low. The digital divide persists, particularly in rural areas, where internet access and digital literacy are limited. While mobile internet penetration is increasing, 4G coverage remains concentrated in urban areas. Despite these efforts, the ICT regulatory environment remains underdeveloped, as reflected in Uzbekistan's 133rd ranking out of 134 countries in the Network Readiness Index (2023).

Digitalisation in Uzbekistan's business sector is progressing, though unevenly. Many firms face challenges related to data accessibility, awareness, and resource allocation, limiting broader adoption. However, the COVID-19 pandemic accelerated digital transformation, with 51.2% of firms adopting or expanding digital platforms in 2021 – the second-highest rate among 79 economies analysed. Digitalisation has been led by the banking and financial services sector, which remains predominantly state controlled. Private firms have only recently started investing in digital technologies, focusing primarily on basic functions.

The introduction of digital technologies was a priority task for large and medium-sized enterprises. However, today, we can observe that small business entities are also adopting modern information and communication technologies,which helps to improve efficiency, open new markets, and fully realize innovative potential.

Today, various management business models for e-commerce are widespread in almost all countries and industries, in businesses of all sizes, as well as in government institutions and various levels of legislative and executive authorities. These business models are typically classified based on the interaction between the seller (supplier) and the buyer (customer). According to this classification, the parties involved in e-commerce can be referred to as: Government, Business, Consumer, Partner, Employee, and Individual.

Business model names are based on the designation of the supplier and buyer. For example: Business to Business (B2B), Business to Consumer (B2C), Business to Partner (B2P), Business to Employee (B2E), Consumer to Business (C2B), Consumer to Consumer (C2C), Business to Government (B2G), Government to Person (G2P), Government to Business (G2B), and Person to Government (P2G).

In essence, e-commerce is a significant part of electronic business, utilizing the global information systems' capabilities to generate profit.

Currently, the increasing volume of e-commerce, along with the need to improve regulatory frameworks and technical infrastructure, has highlighted the importance of protecting consumer rights in this field. The UNCTAD (United Nations Conference on Trade and Development) has outlined four areas in the "Global Cyberlaw Monitoring Program" that require regulation in e-commerce:

1. Laws on electronic transactions;
2. Laws protecting data and privacy;

3. Laws on cybercrimes;
4. Laws protecting consumer rights.

According to UNCTAD, consumer protection laws in the field of e-commerce have been implemented in 56% of countries, are being developed in 6%, and do not exist in 9%. Data for 29 countries is unavailable, and the interpretation of consumer rights protection may differ across various national legislations.

To sustain digital progress, Uzbekistan must accelerate SOE privatisation, expand high-quality internet access – particularly in underserved areas – and enhance digital governance. Strengthening private sector participation by supporting SMEs, improving digital and financial literacy – especially in rural communities and among women – and aligning IT education with industry needs will be critical to fostering a more inclusive and competitive digital economy.

The country's digital future relies on its youth and skilled IT professionals. Therefore, special attention is given to enhancing education quality in this field. Recently, the number of IT centers in the country exceeded 300, and within the "One Million Uzbek Coders" educational project, 1.2 million young people have been trained. Over 20,000 people, including entrepreneurs and youth have participated in training workshops to improve digital skills. Moving forward, plans include selecting, training, and preparing 5,000 talented young people annually for the international job market.

Since 2018, the number of start-ups in the Central Asia and Caucasus (CCA) region has increased sixfold, growing from 1,000 to over 6,000 by 2023. Regional investors find fintech (30%), e-commerce (15%), agritech (15%), and edtech (10%) to be the most promising sectors.

According to the Asian Development Bank (ADB), around 1,200 start-ups operate in Uzbekistan, predominantly in their early stages of development. However, there is no systematic mechanism in place to collect data on start-ups or to distinguish them from traditional businesses, as well as between technology-focused and non-technology enterprises.97 The recent decree "On Measures for Further Development of Startup Projects and Venture Funding Ecosystem" aims to address this gap by introducing a formal defi nition of startups and mandating the creation of the Start-up Base (https://startupbase.uz/), a platform designed to provide comprehensive data on start-ups, partners, and investors.98 While this initiative is expected to improve data collection and ecosystem transparency, stakeholders estimate that only 50 to 100 start-ups currently operate with sustainable business models and adopt innovative approaches.

In terms of industry focus, StartupBlink reports that Uzbekistan's start-ups are distributed across software and data (29%), e-commerce (19.4%), fintech (16.1%), edtech (12.9%), foodtech (9.7%), social & leisure (9.7%), and healthtech (3.2%).99 A separate survey by UzVCA identifi es fi ntech (30%), marketplace (27%), medtech (24%), edtech (18%) and Enterprise Resource Planning (ERP) (15%) as leading sectors.100 While agriculture and healthcare have been prioritised for innovation, these sectors remain underrepresented in the start-up ecosystem. Yet, UzVCA sees a higher representation of start-ups in the medtech sector than StartupBlink. However, fi ntech dominates the start-up ecosystem in Uzbekistan and it is said that Uzbekistan has more than 60 start-ups in the field.101 Despite the signifi cant gap in cybersecurity, cybersecurity start-ups are virtually non-existent in Uzbekistan.102 Ecosystem stakeholders, however, identify cybersecurity as a promising start-up sector, alongside

agritech and energytech. Interestingly, unlike in other economies, the greentech sector receives minimal support and interest in Uzbekistan.

Xizmatlarning qamrovi va raqamlashtirish darajasi. Qo‘mitaning faoliyat ko‘lami: u 1000 dan ortiq tashkilotga, jumladan, 8155 ta byudjet tashkilotiga, 1006 ta davlat

muassasasiga, 283 ta fondga va 170 ta byudjet mablag‘lari oluvchisiga xizmat ko‘rsatadi. Ta'lim va sog‘liqni saqlash sohalari markazlashtirilgan buxgalteriya hisobi orqali xizmat ko‘rsatiladi.

Raqamlashtirish natijasida sezilarli natijalarga erishildi:

- *2024-yilda to‘lov hujjatlarining 98%* elektron shaklda ijro etildi (16,3 milliondan 16,1 million).
- *Davlat xaridlari bo‘yicha shartnomalarning 55%* inson omilisiz, avtomatik ravishda ro‘yxatga olindi.
- *Ish haqining 92%* plastik kartochkalar orqali to‘landi.
- 2025-yil sentyabridan boshlab to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar to‘liq elektron shaklga o‘tkazildi.

Jarayonlarni avtomatlashtirish uchun bir qator dasturiy majmualar qo‘llaniladi: O‘zASBO, "G‘azna Resurs", "E-risk", "E-resurs", DMFAS, shuningdek, elektron davlat xaridlari platformalari.

Strategik yo‘nalishlar va kelajakdagi islohotlar. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2025-yil 26-iyundagi PF-105-sonli Farmoni bilan chuqurroq raqamlashtirish va optimallashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bunda asosiy maqsadlar:

1. *"Raqamli G‘aznachilik"ni yaratish:* 2027-yilga qadar tuman (shahar) g‘aznachilik bo‘linmalarini to‘liq tugatish va ularning funktsiyalarini hududiy boshqarmalarga o‘tkazish. To‘lovlar uchun to‘liq avtomatlashtirilgan "Yashil koridor" tizimini joriy etish.
2. *Tuzilmalar va jarayonlarni optimallashtirish:* Avtomatlashtirish hisobiga hududiy bo‘limlardagi yuzlab shtat birliklarini qisqartirish rejalashtirilgan. Markaziy apparatda raqamli transformatsiya bo‘yicha o‘rinbosar lavozimi va sun'iy intellektni joriy etish bo‘yicha loyiha ofisi yaratildi.
3. *Likvidlikni boshqarishni rivojlantirish:* Likvidlikni boshqarish bo‘yicha Vazirliklararo qo‘mitani yaratish, prognozlash metodologiyasini ishlab chiqish va YG‘Hning vaqtincha bo‘sh mablag‘lari uchun investitsion instrumentlarni kengaytirish.
4. *Xavflarning oldini olish tizimini ishlab chiqish:* "E-risk" dasturida xavflarni avtomatik aniqlash imkoniyatlarini kengaytirish, xavflar reestrini shakllantirish va tizimlarni integratsiyalash.
5. *Byudjet tashkilotlari funktsiyalarini markazlashtirish:* Byudjet tashkilotlari uchun "Markazlashtirilgan xaridlar ofisi" va "Umumiy xizmatlar markazi"ni (buxgalteriya hisobi, ish haqi) yaratish.

Xulosa, O‘zbekistonning g‘aznachilik xizmati IPSAS va Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi tavsiyalari kabi eng yaxshi xalqaro standartlarga yo‘naltirilgan dinamik rivojlanishni namoyish etmoqda. Raqamlashtirish, likvidlikni boshqarish va xavfga yo‘naltirilgan yondashuvga urg‘u nafaqat davlat mablag‘laridan foydalanishning shaffofligi va samaradorligini oshirishga, balki zamonaviy iqtisodiyot muammolariga javob bera oladigan mustahkam tizimni yaratishga imkon beradi. Rejalashtirilgan islohotlar mamlakat davlat moliyasi tarixida yangi bobni ochib, to‘liq qurilgan "Raqamli G‘aznachilik" yo‘nalishida harakatlanishni anglatadi.

Adabiyotlar:

1. Toshmuxamedova D.A., Kasimova G.A., Sholdarov D.A., Abdurasulov M.B. G`aznachilik 2-qism. Elektron darslik. – Toshkent-2020.

2. С.Мехмонов, Т.Кучкаров, А.Кулибоев "Ғазначиликда ахборот тизимлари" Darslik. T.: "Nihol Print" 2023.

3. Saunders, A., and Cornett, M. M. Financial institutions management: A risk management approach (9th ed.). McGraw-Hill Irwin.

4. Treasury management: the practitioner's guide. Bragg, Steven M ; Bragg, Steven M 2010.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-iyundagi PF-105-sonli Farmon "G'aznachilik xizmati tizimini raqamlashtirish, shaffofligini oshirish va ma'muriy xarajatlarni qisqartirish to'g'risida"gi Farmoni.

6. https://president.uz/uz

7. https://gov.uz/uz/gazna


8. https://www.ipsasb.org/

HUDUDIY INVESTITSIYALARNI RAG'BATLANTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING SAMARADORLIGI

Xudaybergenova Roza Axmed qizi
TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi tayanch doktoranti

Global iqtisodiyotda investitsiyalarni jalb qilish mamlakatlarning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biridir, O'zbekiston iqtisodiyoti uchun bu jarayon ayniqsa dolzarb bo'lib, hududlar o'rtasida ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi tafovutlarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq siyosati va xususan, soliq imtiyozlari hududiy investitsiyalarni rag'batlantirishda asosiy vosita sifatida qaraladi.

Investitsiya faoliyati milliy iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy faoliyatni ta'minlashning tarkibiy qismidir. Shu maqsadda davlat tomonidan ushbu faoliyatni rag'batlantirish, investitsiya jalb etish bo'yicha turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.



1-rasm. 2024-yildagi asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hududlar kesimidagi tahlili (mlrd.so'm)

Manba: *Stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan*

Yuqoridagi rasmda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmini hududlar kesimida koʻrib chiqadigan boʻlsak, eng yuqori koʻrsatkich Toshkent shahri (88 330,60 mlrd.soʻm) ga va eng quyi koʻrsatkich Sirdaryo viloyati (10 942,80 mlrd.soʻm) ga toʻgʻri keladi. Bu koʻrsatkich tarkibida barcha turdagi investitsiya va pul mablagʻlari aks ettirilganligiga qaramay investitsiya muhiti jozibadorligi muhim oʻrin tutadi.

Investitsion jozibadorligi past hududlarni rivojlantirish, modernizatsiya qilish kabi masalalarni hal qilishda soliq imtiyozlari ham asosiy omillardan biri hisoblanadi

Soliq imtiyozlarini ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlar va rivojlanish omillarini hisobga olgan holda hamda mamlakatning barcha hududlar va soliq toʻlovchilarning maqsadlari, vazifalari va talablarini oʻz ichiga olgan holda kompleks, yaxlit ragʻbatlantirish mexanizmini yaratish zarurdir. Shuning uchun zamonaviy soliq imtiyozlari tizimi tadbirkorlik, innovatsion, texnologik va investitsiyalar orqali umumiy iqtisodiy oʻsishni taʼminlaydigan boshqa faoliyat turlarini koʻpaytirishga qaratilgan vertikal yoʻnalishga ham, hududlarni iqtisodiy jihatdan moslashtirish bilan bogʻliq gorizontal yoʻnalishga ham ega boʻlishi kerak.[1]

Vertikal soliq imtiyozlari texnologik, ijtimoiy va boshqa ishlanmalarga sarmoya kirituvchi daromadli tadbirkorlar va kompaniyalarni qoʻllab-quvvatlash va rivojlantirishga asoslangan boʻlishi kerak. Shuning uchun bunday investitsiyalar ma'lum bir geografik joylashuvdagi barcha aktivlarga, jumladan, inson, ishlab chiqarish, intellektual va boshqa kapitalga joriy va kapital qoʻyilmalarni oʻz ichiga olishi mumkin. Bu xususiyat aniq, samarali soliq toʻlovchilarga investitsiyalar hajmi, tashkilot hajmi va natijalariga qarab soliq imtiyozlarini berishning hal qiluvchi shartidir.

Jahon amaliyotida qaraydigan boʻlsak, soliq imtiyozlari dasturlari - bu biznes va jismoniy shaxslarga soliq imtiyozlari, chegirmalar, kreditlar yoki imtiyozlarni taqdim etuvchi hukumat tashabbuslari hisoblanadi. Ushbu imtiyozlar odatda hukumat ragʻbatlantirmoqchi boʻlgan muayyan sohalar, mintaqalar yoki faoliyatlarga qaratilgan. Maqsad iqtisodiy rivojlanish, ish oʻrinlarini yaratish va investitsiyalar uchun qulay muhit yaratishdir. Tasniflanishiga koʻra turli xil soliq imtiyozlari mavjud, jumladan[1]:

- Investitsiya soliq imtiyozlari: Ushbu kreditlar tadqiqot va ishlanmalar, qayta tiklanadigan energiya yoki kam daromadli uy-joy kabi muayyan sohalarga malakali investitsiyalarni amalga oshiradigan bizneslar uchun soliqlarni foizda kamaytirishni taʼminlaydi.
- Tezlashtirilgan amortizatsiya: Ushbu ragʻbatlantirish bizneslarga oʻz aktivlarini odatdagidan tezroq amortizatsiya qilish imkonini beradi, bu ularning soliqqa tortiladigan daromadlarini kamaytiradi va investitsiyalar uchun koʻproq pul oqimini ta'minlaydi.
- Erkin iqtisodiy zonalari: Bular rivojlanmagan hududlarda iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirish maqsadida bizneslar soliq imtiyozlaridan, masalan, korporativ soliqlarni kamaytirish yoki mulk solig'idan ozod qilish kabi imtiyozlardan foydalanishlari mumkin boʻlgan belgilangan geografik hududlardir.
- Ish oʻrinlarini yaratish kreditlari: Hukumatlar, ayniqsa, ishsizlik darajasi yuqori boʻlgan hududlarda yoki ishchi kuchi yetishmovchiligiga duch kelayotgan sohalarda yangi ish oʻrinlarini yaratadigan bizneslarga soliq imtiyozlarini taklif qilishlari mumkin.

Ish o‘rinlarini yaratishga ko‘maklashuvchi soliq imtiyozlari ishsizlik darajasini pasaytirishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Yangi xodimlarni yollash uchun soliq imtiyozlari yoki chegirmalarini taklif qilish orqali hukumatlar biznesni ishchi kuchini kengaytirishga va ish o‘rinlarining o‘sishiga hissa qo‘shishga undaydi. Bu nafaqat ish bilan ta’minlash imkoniyatlarini yaratish orqali jismoniy shaxslarga foyda keltiradi, balki iste’mol xarajatlarini rag‘batlantiradi va iqtisodiyotni yanada rivojlantiradi.

Soliq imtiyozlari dasturlari hukumatlar uchun daromadlarni saqlab qolish bilan birga iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Soliq imtiyozlari va imtiyozlarini taqdim etish orqali ushbu dasturlar investitsiyalar, innovatsiyalar, ish o‘rinlari yaratish va mintaqaviy rivojlanishni rag‘batlantiradi. Soliq imtiyozlari qisqa muddatli daromad yo‘qotishlariga olib kelishi mumkin bo‘lsa-da, ular iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va soliq bazasini kengaytirish orqali uzoq muddatli daromad o‘sishiga hissa qo‘shishi mumkin. Biroq, hukumatlar ushbu dasturlarning samaradorligi va adolatliligini ta'minlash uchun ularni diqqat bilan ishlab chiqishlari va baholashlari muhimdir. To‘g‘ri muvozanatni saqlash orqali soliq imtiyozlari dasturlari iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va qulay biznes muhitini yaratish uchun kuchli vositalar bo‘lishi mumkin va bu o‘z navbatida iqtisodiyotni investitsion jozibadorligini oshirishga ko‘maklashadi.

Adabiyotlar:

1. *Okoth, Erick. (2023). Effects of Tax Incentives and Subsidies on Economic Growth in Developing Economies. International Journal of Research and Innovation in Social Science. Volume VII. 567-581. 10.47772/IJRISS.2023.70744.*
2. *Van Parys, S., & James, S. (2010). The effectiveness of tax incentives in attracting investment: Panel data evidence from the CFA Franc zone. International Tax and Public Finance, 17(4). https://doi.org/10.1007/s10797-010-9140-1*
3. *Xudaybergenova R.A.(2025) Soliq siyosatining mohiyati, vazifalari va investitsiya muhiti bilan o‘zaro bog‘liqligi. (2025). Ilg‘or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar. https://doi.org/10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss1-pp423-432*
4. *www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi rasmiy sayti*

RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA VA TOSHKENT: O‘ZBEKISTONNING BOSHQARUV TIZIMI

Karabayev Rustam Zafarovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Dunyoda tezroq o‘zgaruvchanliklar ro‘y berayotgan 21-asrda, global rivojlanishning yirik muammolaridan biri kommunikatsiya sohasidagi yangiliklardan foydalanish va ularni boshqarishdir. Bu yangiliklar, xalqaro hamda o‘zbekistonda ta'lim, iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy soha va boshqa sohalarda o‘z o‘rnini topmoqda. Toshkent shahri esa, bu rivojlanayotgan digital kommunikatsiyalarning o‘zbekistonning boshqaruv tizimiga keltirib chiqishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shaharlar orasida o‘z o‘rnini egallashgan.

Bundan oldin Toshkent, O‘zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi sifatida mashhur edi. Lekin so‘nggi yillarda, Toshkent o‘zining rivojlanayotgan digital kommunikatsiyalarning kuchayib borayotgan o‘rindagi roli bilan tanishishga boshladi.

Bu o‘zgarishlar, shaharning hukumat va boshqa tashkilotlar tomonidan olib borilayotgan qadam-lavhalar, yangi sohalar yaratish va ma'lumotlar almashishning yangi usullari orqali ko‘rinib turadi. Toshkent hokimiyati, o‘zbekistonliklar bilan yetakchi ta'lim institutlari, tadbirkorlik sub'ektlari va jamiyat tashkilotlari orasidagi ma'lumot almashuvini yanada yaxshilash uchun xizmatlar va tizimlar yaratishga katta e'tibor berdi.



1-rasm. 2019 yilning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ko‘rsatkichlari [1]

Shaharning internet va telekomunikatsiya infrastrukturining kengayib borishi, o‘zbekistonliklar uchun yuqori tezlikda internetga kirish imkoniyatini yaratdi. Bunda, mobil aloqa tarmog‘i va internetga kirish xizmatlari yetakchi operatorlar tomonidan takomillashtirildi. Bundan tashqari, Toshkentda ajoyib tezlikda rivojlanayotgan "smart shahar" proyektlari, shahar tashkilotlari va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar orasidagi ma'lumot almashuvini yanada yaxshilashni va shahar hayotini yanada qulaylashtirishni maqsad qiladi.

Toshkentdagi rivojlanayotgan digital kommunikatsiya, O‘zbekistonning boshqaruv tizimida yangiliklarni tez va samarali tarzda tarqatishni ta'minlaydi. Shuningdek, bu rivojlanish, o‘zbekistonliklarning o‘zaro aloqalarini yanada kuchaytirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni oshirishga imkon beradi.

Toshkent, O‘zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi bo‘lib, tariqiy tarixi boyunca ham bu ahamiyatni saqlab qolgan. Lekin so‘nggi yillarda, rivojlanayotgan digital kommunikatsiya tizimlari Toshkent shahrini yangi bosqichga olib chiqdi. Bu o‘zgarishlar, hukumat va boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan qadam-lavhalar, ta'lim, iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy soha va boshqa sohalarda ma'lumot almashishning yangi usullarini o‘z ichiga olganligini ko‘rsatadi. Toshkent hokimiyati, o‘zbekistonliklar bilan ta'lim muassasalari, tadbirkorlik sub'ektlari va jamiyat tashkilotlari orasidagi ma'lumot almashishni yanada yaxshilash uchun katta e'tibor beradi.

Shaharning internet va telekomunikatsiya [2] infrastrukturasining rivojlanishi, o‘zbekistonliklarga tez internetga kirish imkoniyatini yaratdi. Mobil aloqa tarmog‘i va internet xizmatlari yetakchi operatorlar tomonidan sifatli tarzda takomillashtirildi. Bundan tashqari, Toshkentda rivojlanayotgan "smart shahar" loyihalari, shahar tashkilotlari va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar orasidagi ma'lumot almashishni yanada yaxshilash va shahar hayotini yanada qulaylashtirishni maqsad qiladi.

Toshkentdagi rivojlanayotgan digital kommunikatsiya, O‘zbekistonning boshqaruv tizimida yangiliklarni tez va samarali tarzda tarqatishga imkon beradi. Bu rivojlanish, o‘zbekistonliklar o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni oshirishga imkon beradi.

O‘zbekistonda elektron hukumatni joriy etish va rivojlantirish holati o‘zgarayotgan davlat strategiyasi asosida yuqori darajada muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston hukumati, raqamli tizimlarning boshqaruv tizimlariga kirishini oshirish, ma'lumotlar almashinuvini yanada samarali va samimiy qilish va xizmatlarni osonlashtirishga qaratilgan qadamni e'tiborli amalga oshirishni maqsad qilganligini bildirgan.



2-rasm. Xavfsiz shahar kompleksi [3]


Elektron hukumatning joriy etish va rivojlantirish holati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi qaroriga muvofiq amalga oshirilmoqda. Bu strategiya elektron hukumatning tashkil etishini, ma'lumotlar almashinuvi va servislar sohasidagi rivojlanishni o‘z ichiga olgan holda, davlat tashkilotlarining faoliyatini samarali va transparenslik asosida boshqarishni ta'minlashni maqsad qilishni o‘z ichiga olgan.

O‘zbekistonda elektron hukumatni joriy etish va rivojlantirish uchun bir nechta iniciativlar amalga oshirilmoqda. Misol uchun, "E-hokimiyat" tizimi Toshkent shahrida muvaffaqiyatli tarzda ishlayapti va boshqa hududiy tashkilotlar o‘rtasida keng tarqalgan bo‘lib kelmoqda. Bu tizim orqali fuqarolar hujjatlarni elektron shaklda arizalar yuborish, xizmatlarga onlayn murojaat qilish va ma'lumotlar almashinuvi bilan bog‘liq boshqaruv jarayonlarini bajarishlari mumkin.

Shuningdek, "O‘zbekiston Elektron Hukumati" platformasi O‘zbekiston Respublikasi hukumatining asosiy axborot resursi sifatida faoliyat yuritadi. Ushbu platforma orqali huquqiy hujjatlar, ma'lumotlar, xizmatlar va axborotlar onlayn tarzda taqdim etiladi. Elektron hukumat platformasi fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlariga

xizmat koʻrsatish, ma'lumot almashinuvi va ularning talablari bilan aloqador hujjatlarni taqdim etish jarayonlarini avtomatlashtirishga imkon beradi.

Shuningdek, Oʻzbekiston hukumati hozirda raqamli identifikatsiya tizimini joriy etishga intilishni rejalashtirayapti. Bu identifikatsiya tizimi orqali fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlari oʻz shaxsiy ma'lumotlarini ma'muriyat va xizmatlarni osonlashtirish uchun yagona platformada birlashtirishlari rejalashtirilgan.



3-rasm. E-gov platformasi haqidagi statistika [3]

Bundan tashqari, Oʻzbekiston elektron hukumati tizimlarining rivojlanishi va joriy etilishi uchun texnologik innovatsiyalar keng qoʻllanilmoqda. Ma'lumotlar bankalari, elektron imzo tizimlari, ma'lumot xavfsizligi va hujjatlar elektronlashtirishini oʻz ichiga olgan tizimlar keng qoʻllanilmoqda.

Barcha bu qadamlar Oʻzbekiston hukumatining elektron hukumatni joriy etish va rivojlantirish sohasidagi qadamli ravishda ishlashini ta'minlaydiKechirasiz, lekin men Oʻzbekistondagi eng soʻnggi yangilanishlar haqida ma'lumotlarga ega emasman, chunki menim bilimlarim 2021-yilning oxiriga kelib tugagan. Menga Oʻzbekistonning elektron hukumatni joriy etish va rivojlantirish holati haqida soʻnggi ma'lumotlar berilganmasligi sababli, sizga yanada batafsil ma'lumot taqdim etolmayapman. Siz Oʻzbekiston Respublikasi Hukumatining rasmiy veb-sayti yoki ilgili vazifalangan tashkilotlarining veb-saytlarini tekshirib, soʻnggi yangilanishlarni olishingizni tavsiya qilaman. Bu saytlarda sizga elektron hukumatning joriy holati va rivojlantirish boʻyicha soʻnggi ma'lumotlar mavjud boʻlishi mumkin.

Oʻzbekiston elektron hukumatni joriy etish va rivojlantirishda ilgʻor oʻzgarishlarni koʻrib chiqmoqda. Oʻzbekiston Hukumatining uzluksiz qoʻllab-quvvatlashi bilan, elektron hukumatning oʻrni oʻnlik yilda kuchli rivojlanib keldi. Bu jarayonning muhim qismi, yirik maqsadlar uchun kafolatlangan ravishda xizmat koʻrsatish, axborotlar omborini tuzish, elektron shakllarda ma'muriy hujjatlarni amalga oshirish va jamiyatga xizmat koʻrsatishning koʻpayishi.

2016 yilda "O‘zbekiston Respublikasi hukumati elektron hukumatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qaror qabul qilindi. Bu qaror bilan elektron hukumatni rivojlantirish bo‘yicha qo‘rg‘oshinliklar tuzildi va mustaqil tizimlar o‘rnatingan.

Davlat tizimlarining modernizatsiyasi, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yangiliklarni qabul qilish va ularni o‘z ichiga olgan tashqi dasturlarni qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshirildi. Bu o‘z navbatida xizmat ko‘rsatishning sifatini oshirdi va fuqarolarga elektron xizmatlarni taqdim etishda samarali bo‘ldi.

Yuridik va boshqa hujjatlarning elektronlashtirilishi, interaktiv elektron xizmatlarning taklif qilinishi va jamiyat bilan elektron axborot almashish tizimlarini ishlab chiqish jarayonida o‘z navbatida katta o‘rni tutdi.

O‘tgan davrdan 2021-yilgacha bo‘lgan AKT sohasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli yangilanish va islohotlar, ularning natijalari haqida to‘xtalinadigan bo‘lsa, aholiga axborot-kommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish hajmi 2016-yilda 5,2 trillion so‘mni tashkil etgan. 2016—2021-yillarda axborot-kommunikatsiya sohasini yanada rivojlantirish borasida olib borilgan keng ko‘lamli islohotlar, jumladan davlat boshqaruv organlari, iqtisodiyot tarmoqlari va aholining IT-xizmatlarga bo‘lgan talabini qondirish, IT-tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, investitsiya loyihalarini amalga oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmini kengaytirish, narxlarni kamaytirish va sifatni yaxshilash borasida amalga oshirilgan ishlari natijasida xizmatlar hajmi 2020-yilda 12,9 trillion so‘mga yetkazildi.

Bundan tashqari, hukumatning va axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yangiliklarni qabul qilish, dasturlarni amalga oshirish, fuqarolarga xizmat ko‘rsatishda yuqori sifat va samarali faoliyatni ta'minlashda ham katta hissa o‘ynaydi. O‘zbekiston elektron hukumatni joriy etish va rivojlantirish yo‘nalishida qat'iy darajada muvaffaqiyatli ishlar bajarib kelmoqda.

Adabiyotlar:

1. https://daryo.uz/

2.https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_Respublikasi_Mudofaa_vazirligi_axborot-kommunikatsiya_texnologiyalari

3. https://mitc.uz/uz/pages/information_technologies

4. "Toshkent: The Price of Survival" - Shahnoza Nozimova.

5. "Toshkentda Iqtisodiy Hamkorlik va Biznes Imkoniyatlari" - Jamshid Khamidov.

TIME AND CASH FLOW FACTORS IN BANKRUPTCY RISK ASSESSMENT

Smaliakova Olga
Minsk branch of the Plekhanov
Russian University of Economics, Minsk, Belarus
PhD in Economics, Associate Professor

The modern economy is characterized by high dynamism and uncertainty, requiring business entities to constantly monitor and assess their financial position. Timely identification of potential insolvency and bankruptcy risks is essential for ensuring stability and competitiveness. Traditional analytical methods based on standard ratios and financial indicators often fail to fully capture all aspects of a company's financial position. Therefore, the development and implementation of new approaches to economic analysis that will allow for a more accurate diagnosis of the risks associated with financial insolvency is becoming increasingly important.

Analysis of the methods currently used in Belarus and Russia to assess solvency, financial condition, and bankruptcy risk are based primarily on the ratio of various types of assets and liabilities. [1,2] These methods ignore debt maturity, the actual liquidity of assets, and cash flow, which can lead to incorrect conclusions, as the indicator values may be quite acceptable, but the business entity will not have the real ability to pay off its obligations.

A significant drawback of such approaches is their failure to take into account the actual liquidity of assets and the maturity of liabilities. In practice, some assets may formally be classified as highly liquid assets, but in fact, they are not (such as hard-to-sell products and goods, doubtful accounts receivable, and unused materials). We propose determining the liquidity of a business entity's assets based on their turnover rate.

In our opinion, the value of assets whose turnover exceeds one year should be reduced taking into account their turnover (the value of this type of asset is multiplied by their turnover ratio):

$$A_a = \sum A_{hl} i \; + \; \sum (A_{ll} i \; * \; TOi),$$

such that A_a - Adjusted asset value;

$A_{h.l}$ i - Value of the i-th asset group with a turnover period of less than one year (highly liquid assets);

A_{ll} i - Value of the i-th asset group with a turnover period of more than one year (low-liquid assets);

TO i - Turnover ratio of the i-th asset group (number of days in the reporting period / turnover period of the i-th asset group).

The maturity of liabilities should also be taken into account when assessing a business entity's solvency, as the ability to repay long-term liabilities is inherently greater. Therefore, it is proposed to use the discounting method for this group of liabilities:

$$L_a = Lc \; + \; Llt/(1 + r/12)^{12},$$

such that L_a - Adjusted liabilities;

L_c - Current liabilities;

L_{lt} - Long-term liabilities;

r - Discount rate (the central bank's refinancing rate may be used as the discount).

Since, in accordance with International Accounting and Reporting Standards, enterprises use the accrual method (i.e., income and expenses are reflected in accounting and reporting not upon the receipt and expenditure of funds, but as they are recognized as such), a comprehensive assessment of solvency requires an analysis of cash flows. The traditional method of cash flow analysis involves calculating the indicators of total net cash flow, net cash flow from current activities, and free cash flow [3-5].

Total net cash flow and free cash flow indicators can show both false positives (e.g., due to borrowing or underfunding of investment activities) and false negatives (e.g., when significant funds are spent on acquiring long-term assets or financial

investments). Net cash flow from operating activities does not take into account changes in a business entity's business activity: even as it increases, net cash flow from operating activities may not change significantly but still remain positive. However, this imbalance could eventually lead to cash shortages and insolvency.

Since a stable business entity generates its primary positive cash flow from revenue from the sale of products and goods (performance of work, provision of services), the most objective criterion is the sufficiency of revenue to finance current operations (SR). This indicator can be calculated based on data from the Cash Flow Statement as the ratio of revenue from the sale of products and goods (work, services) to the amount of funds allocated to finance current operations:

$$SR = \frac{Revenue\ from\ the\ sale\ of\ products\ and\ goods\ (work,\ services)}{Amount\ of\ funds\ allocated\ to\ finance\ current\ operation}$$

The recommended value for this indicator is greater than 1, as positive cash flow from sales of products (goods, works, services) is intended to fully finance current operations and the renewal of long-term assets. If the proposed criterion value is less than one, business entities are forced to resort to external borrowing, the sale of other assets (inventories, long-term assets), and the withdrawal of funds from financial investments to support current operations.

An analysis of data from financially unstable Belarusian enterprises revealed that a comparison of traditional indicators and the proposed criterion yields certain conclusions. [6] First, net cash flow and free cash flow indicators fluctuate (increasing due to positive cash flow from the disposal of investment assets and the receipt of loans, followed by a decline due to interest payments on newly obtained borrowed funds, etc.). Second, when comparing traditional cash flow indicators, one can observe that in certain periods, some indicators demonstrate a shortage of cash resources, while others demonstrate a surplus. At the same time, the proposed indicator is not affected by isolated financial events: its standard deviation and coefficient of variation are negligible.

The study's results demonstrated that a comprehensive assessment of an enterprise's financial solvency requires considering not only its accounting indicators but also applying their economic interpretation. The study developed and tested approaches that will enable an objective assessment and timely identification of potential risks associated with low liquidity, problematic solvency, and the possibility of bankruptcy. The use of innovative approaches, such as adjusting traditional ratios based on the specific assets and liabilities of a particular business entity and assessing the adequacy of cash flows, is intended to significantly improve the quality of financial health assessments. The implementation of the proposed methods is aimed at reducing the likelihood of unforeseen crisis situations, as well as developing the theoretical basis for financial analysis and increasing its effectiveness in the modern economy.

Literature:

1. Савицкая, Г. В. Анализ эффективности и рисков предпринимательской деятельности: методологические аспекты : монография / Г.В. Савицкая. — 2-е изд., перераб. и доп. — Москва : ИНФРА-М, 2025. — 291 с.;

2. Смолякова, О. М. Подходы к анализу финансового состояния предприятий: необходимость унификации в России и Беларуси / О. М. Смолякова // Развитие финансового рынка

и предпринимательских структур в современных условиях : Материалы Всероссийской научно-практической конференции, Волгоград, 13 декабря 2024 года. – Курск: ЗАО "Университетская книга", 2025. – С. 301-304.;

3. Principles of Corporate Finance, 14th Edition, Richard A. Brealey, Stewart C. Myers, Franklin Allen, Alex Edmans. Access mode: https://www.mheducation.co.uk/higher-education/feature/brealey/principles-14 (date of access: 2025.09.15);

4. Understanding of Cash Flow Analysis and Its Importance to Corporations. Access mode: http://article.sapub.org/10.5923.j.mm.20241402.02.html#Ref (date of access: 2025.09.15);

5. Cash Flow Analysis Based on International Accounting Standards (IAS): A Critical Evaluation. Access mode: https://www.scirp.org/journal/paperinformation?paperid=120481 (date of access: 2025.09.15);

6. Unified State Register of Bankruptcy Information. Access mode: https://bankrot.gov.by/ (date of access: 2025.09.25).

БАЛАНС ИНОСТРАННЫХ И ВНУТРЕННИХ ИНВЕСТИЦИЙ КАК ИНСТРУМЕНТ ОПТИМИЗАЦИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ УЗБЕКИСТАНА

Исломова Муфассал Музаффаровна
докторант научно-исследовательского центра
«Научные основы и проблемы развития экономики
Узбекистана» при ТГЭУ

В условиях реформирования экономики Узбекистана вектор государственной политики в сфере инвестиций на протяжении последних лет был ориентирован преимущественно на наращивание объёмов прямых иностранных инвестиций (ПИИ) и внешних заимствований. Такая стратегия позволила ускорить модернизацию отдельных отраслей, активизировать инфраструктурные проекты и повысить международную инвестиционную активность страны. Вместе с тем практика показала ограниченность модели, основанной на приоритете объёма ПИИ над качеством их структуры и институциональными условиями использования.

Актуальной становится задача переосмысления роли иностранных инвестиций и формирование баланса между внешними и внутренними источниками капитала, при котором иностранный капитал рассматривается не как самоцель, а как инструмент усиления национального инвестиционного потенциала и структурной трансформации экономики.

Современные исследования подчёркивают, что вклад ПИИ в экономический рост не является автоматическим и зависит от качества институтов принимающей страны, уровня развития финансовой системы, режима конкуренции и способности национальных компаний восприятия технологий и управленческих практик [1]. В работах Х.-Дж. Чанга и Д. Родрика показано, что устойчивый рост обеспечивается не столько масштабом привлечённого внешнего капитала, сколько выстроенностью внутренних механизмов накопления и инвестирования, а также активной промышленной политикой [2].

Для развивающихся экономик ключевым становится вопрос: усиливает ли иностранный капитал внутреннее инвестирование (эффект crowding-in) либо же вытесняет его, закрепляя зависимость от внешних ресурсов и налогово-льготных режимов (crowding-out). Исследования по странам с формирующимися рынками, в том числе по ПИИ и институциональным механизмам в Африке, указывают на

критическую роль политико-правовой среды и механизмов отбора проектов [3]. Для Узбекистана этот вывод особенно значим на фоне широкого использования индивидуальных льгот и специальных режимов.

Ряд эмпирических работ по Узбекистану демонстрирует, что внутренние инвестиции и реинвестирование прибыли обладают более устойчивой и предсказуемой связью с экономическим ростом, чем объёмы ПИИ и внешних заимствований, особенно при учёте лагов и структурных сдвигов [4]. Это согласуется с логикой, согласно которой национальный бизнес, ориентированный на долгосрочное присутствие и привязанный к внутреннему рынку и активам, обеспечивает менее волатильную инвестиционную траекторию, тогда как внешние потоки чувствительны к глобальной конъюнктуре и страновым рискам.

Анализ эволюции инвестиционной политики Узбекистана выявляет несколько узловых ограничений.

- Значительная часть ПИИ и внешних проектов опирается на расширенные налогово-таможенные преференции, специальные экономические режимы и индивидуальные соглашения. Это формирует асимметрию условий между иностранными и национальными инвесторами, искажает конкуренцию и снижает стимулы к повышению эффективности за счёт внутренних резервов. Наличие льгот нередко становится ключевым фактором входа, в то время как требования к локализации, трансферу технологий и развитию местных цепочек поставок остаются слабо институционализированными.
- Сохраняется отраслевая и географическая концентрация внешних вложений. Существенная доля проектов реализуется в капиталоёмких и рентных сегментах (сырьевые отрасли, отдельные инфраструктурные и квазимонопольные рынки), тогда как высокотехнологичные, инновационные и региональные направления недофинансированы. Это сдерживает диверсификацию структуры экономики и рост экспорта продукции с высокой добавленной стоимостью.
- Наблюдается ограниченная мобилизация внутренних ресурсов: потенциал реинвестирования прибыли, долгосрочных сбережений домохозяйств, институтов коллективного инвестирования и формализованного «мёртвого капитала» используется не в полной мере. При этом ориентация на внешние источники нередко подталкивает к росту государственного и квазигосударственного долга, повышая уязвимость к внешним шокам.

Для обоснования смены акцентов целесообразно рассматривать иностранный и внутренний капитал не как взаимоисключающие, а как взаимодополняющие источники, различающиеся по ряду параметров (табл. 1).

Сравнение показывает, что ПИИ обладают важными преимуществами (технологии, доступ к рынкам, управленческие практики), но несут и значимые риски зависимостей. Внутренние инвестиции менее зрелищны в статистике «притока капитала», но выступают фундаментом устойчивости: формируют долгосрочную базу накопления, поддерживают национальный бизнес и снижают уязвимость к внешним шокам.

1-таблица

Сравнительная характеристика иностранных и внутренних инвестиций

Критерий	**Иностранные инвестиции (ПИИ, займы)**	**Внутренние инвестиции (собственные, реинвестированные, нац. сбережения)**
Источник	Капитал нерезидентов, МНК, внешние фин. институты	Национальный бизнес, банки, население, институт. инвесторы
Валютные и долговые риски	Высокие (репатриация прибыли, обслуживание долга)	Низкие / контролируемые, ориентированы на нац. валюту
Чувствительность к внешним шокам	Высокая (волатильность потоков, изменение политических рисков)	Ниже, зависят от внутренней макро- и институциональной стабильности
Горизонт участия	Может быть кратко- или среднесрочным	Преимущественно долгосрочный, связан с внутренними активами
Условия входа	Часто зависят от льгот, гарантий, спецрежимов	Зависит от общего делового климата и рентабельности
Потенциал трансфера технологий	Высокий, но не автоматический, требует институциональных условий	Формирование собственных компетенций, усиление локального предпринимательства
Влияние на конкуренцию	При неверном дизайне — риск вытеснения местных компаний	При правильной политике усиливают конкуренцию и диверсификацию

Источник: *Составлено автором на основе анализа и открытых данных*

Оптимальная стратегия для Узбекистана предполагает:

- перенос акцента с максимизации объёма ПИИ на критерии их качества: доля локальной добавленной стоимости, экспортный потенциал, технологический уровень, вклад в развитие человеческого капитала и институтов;
- усиление роли внутренних инвестиций через стимулирование реинвестирования прибыли, развитие национального финансового рынка, упрощение формализации активов и равные правила для всех инвесторов;
- селективное привлечение ПИИ в сегменты, где внутренние ресурсы объективно ограничены (высокие технологии, капиталоёмкая инфраструктура, зелёная энергетика), при условии чётко прописанных обязательств по локализации, R&D, подготовке кадров;
- сокращение практики индивидуальных льгот и переход к прозрачным, универсальным режимам, которые не подрывают конкурентные позиции отечественных субъектов.

Такой подход позволяет переориентировать инвестиционную политику с количественного гонения за объёмами ПИИ к институционально выверенной модели, где:

- иностранный капитал становится дополнением к мобилизации внутренних ресурсов, а не их заменой;
- внутренняя инвестиционная база (собственные средства предприятий, банки, сбережения домохозяйств, формализованный «мёртвый капитал») рассматривается как ключевой ресурс для долгосрочного роста;

- система мониторинга включает оценку не только привлечённых сумм, но и фактических социально-экономических эффектов, что повышает ответственность государства и инвесторов.

Тем самым баланс иностранных и внутренних инвестиций выступает не просто статистической пропорцией, а инструментом укрепления экономического суверенитета, снижения уязвимости к внешним шокам и повышения эффективности инвестиционной политики Узбекистана.

Литературы

1. Chang H.-J. Bad Samaritans: The Myth of Free Trade and the Secret History of Capitalism. London: Bloomsbury Press, 2008.

2. Rodrik D. One Economics, Many Recipes: Globalization, Institutions, and Economic Growth. Princeton: Princeton University Press, 2007.

3. Kedir A. M., Baricako J. Disruptive Technology, Foreign Direct Investment and Private Sector Development Policies in Africa // In: Disruptive Technologies, Innovation and Development in Africa. Springer, 2020.

4. Kobilov A., Kurbonov O. Foreign direct investment and domestic investment on the economic growth of the Uzbekistan: A VECM analysis // International Journal of Financial Management and Economics. 2021. Vol. 4(1). P. 30–35.

5. De Soto H. The Mystery of Capital: Why Capitalism Triumphs in the West and Fails Everywhere Else. New York: Basic Books, 2000.

6. Материалы Агентства по статистике при Президенте Республики Узбекистан и Министерства инвестиций, промышленности и торговли РУз (официальные отчёты и статистические сборники за последние годы).

SOLIQ TIZIMIDA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA TADBIRKORLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Solixova Xumora Xasan qizi
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Moliya va turizm kafedrasi o‘qituvchisi
0009-0003-8524-1427

Tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan biri bo‘lib, davlat budjeti barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Tadbirkorlar yangi ish o‘rinlarini yaratish, soliq tushumlarini oshirish va innovatsiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy faoliyatni rivojlantiradi. Shu bilan birga, davlat budjeti tadbirkorlikdan olinadigan soliqlar va daromadlar orqali moliyalashtiriladi.

Mazkur tadqiqot ishida tadbirkorlikni rivojlantirish O‘zbekistonning budjet-soliq siyosatidagi so‘nggi o‘zgarishlar tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilganligi hisobga olinib, davlat byudjetini barqaror daromadlar bilan ta’minlashga xizmat qilish tendensiyalari hamda tadbirkorlikni rivojlantirish va byudjetning barqarorligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilish jarayonlari tahlil etildi va bu borada tegishli xulosalar tavsiya etildi.

Bu borada 2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to‘g‘risidagi Qonunga [1] asoslanib, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun amalga oshiriladigan moliyaviy siyosat, o‘z navbatida, budjetning barqarorligini ta’minlashning muhim vositasi sifatida qaralmoqda.

Mazkur qonuniga koʻra, mamlakatda iqtisodiy oʻsishning asosiy manbalaridan biri sifatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash va uni rivojlantirish davlatning moliyaviy siyosatining ajralmas qismi boʻlib, budjet barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Bu qonun asosida, budjet barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirish uchun muhim vositadir. Soliq imtiyozlari, infratuzilma rivoji, raqobatbardoshlikni oshirish kabi chora-tadbirlar orqali tadbirkorlikni rivojlantirish, davlat budjetiga daromadlarni koʻpaytirish, iqtisodiy oʻsishni tezlashtirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa, oʻz navbatida, mamlakatning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

"Tadbirkorlikni rivojlantirish – biz uchun strategik vazifa. Bizning tayanchimiz ham, suyanchimiz ham, eng katta kuchimiz ham shu sohada mujassam. Shu bois tadbirkorlarni qoʻllab-quvvatlash markazdan tortib eng quyi boʻgʻingacha-barcha rahbarlarning kundalik ishi boʻlishi shart. Ayniqsa, joylarda hokimlar har bir tadbirkor bilan koʻproq muloqot qilib, korxonalarga borib, ularning dardi bilan yashashi kerak. Biz katta iqtidor egalari boʻlgan biznes vakillarini asrashimiz, avaylashimiz zarur. Ular biz uchun juda qadrli insonlar", – dedi Shavkat Mirziyoyev [2].

Ushbu jihatdan kelib chiqib, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha jamoatchilik kengashi tuzilgan. Bu kengash davlat va tadbirkorlar oʻrtasida koʻprik boʻlib, aniq takliflarni bildirib kelmoqda. Joriy yilning oʻzida tadbirkorlar faoliyati uchun gʻoyat muhim boʻlgan 5 ta qonun, 101 ta farmon va qarorlar qabul qilindi [3].

Ayniqsa, budjet-soliq siyosatida muhim qarorlardan biri 2024 yil 27 dekabr kuni Prezidentning tadbirkorlar bilan oʻtkazgan uchrashuvi ana shunday muloqotlardan biri boʻlgandi. Unda tadbirkorlar sohaga boʻlgan qarashlarini ochiq bayon qilib, takliflarini bildirishdi. Quvonarlisi, avvallariday imtiyoz emas, barcha uchun teng sharoitga doir takliflar yangradi. Koʻtarilgan masalalarni atroflicha oʻrganish natijasida 27 dekabr kuni "Tadbirkorlar uchun teng sharoitlar va adolatli raqobat muhitini ta'minlash boʻyicha navbatdagi chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi PF-229-sonli Farmon imzolandi [4].

Bu farmon raqobat muhitini sogʻlomlashtirish, tadbirkorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ularning ish faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga asos boʻlishi mumkin. Tadbirkorlar bilan muloqot orqali davlat va xususiy sektor oʻrtasidagi oʻzaro aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan bunday ishlar kelgusida tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Bu borada davlat moliyasini boshqarish tizimini yangi bosqichga olib chiqish va byudjet intizomini yanada mustahkamlash, soliq-byudjet tizimining shaffofligini oshirish, Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablagʻlaridan foydalanish samaradorligi va natijadorligini oshirish, Davlat byudjetini oʻrta muddatli davr uchun rejalashtirishning zamonaviy usullarini joriy etish yuzasidan aniq chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Hamma biladiki, har yili yil yakunida keyingi yil uchun soliq-byudjet siyosatining asosiy yoʻnalishlari hamda byudjet parametrlari tasdiqlanadi.

Bugungi yigʻilishimizdan maqsad ham soliq kodeksiga kiritilgan oʻzgartirishlar hamda 2025 yilda soliq siyosatidagi yangiliklarni sizlarga etkazishdan iborat.

Xususan, 2024 yil 24 dekabrda Oʻzbekiston Respublikasining "2025 yil uchun Davlat byudjeti toʻgʻrisida"gi Qonuni (OʻRQ-1011-son), "Soliq va byudjet siyosatining 2025 yilga moʻljallangan asosiy yoʻnalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida"gi Qonuni [5] (OʻRQ-1014-son) hamda "Oʻzbekiston Respublikasining soliq

kodeksiga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida"gi Qonuni (O‘RQ-1013-son) [6] qabul qilindi.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasining 2022-2024-yillarda davlat byudjeti daromadlari va 2025-yilda Davlat budjeti daromadlari prognozi

Soliq turlari	ijro		Kutilma	prognoz	o‘sish,foizda
	2022	2023	2024	2025	
Davlat budjeti daromadlari,jami	**201,9**	**231,7**	**271,0**	**308,5**	**13,8**
YIMga nisbatan, foizda	***20,3***	***19,4***	***19,2***	***18,9***	
Bevosita soliqlar	**64,4**	**73,1**	**87,5**	**100,3**	**114,6**
Foyda solig‘i	37,7	40,8	48,9	54,8	112,0
Aylanmadan olinadigan soliq	2,5	2,4	2,9	3,5	118,3
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	24,3	29,9	35,6	42,0	117,9
Bilvosita soliqlar	**71,4**	**83,3**	**89,8**	**104,7**	**116,5**
QQS	52,2	57,9	60,7	71,8	118,3
Aksiz solig‘i	13,5	15,8	19,4	21,4	110,3
Bojxona boji	5,7	9,6	9,8	11,5	117,6
Resurs soliqlari	**23,9**	**28,1**	**36,0**	**38,7**	**107,5**
Mol-mulk solig‘i	4,0	5,1	6,8	7,7	113,4
Yer solig‘i	5,3	6,9	8,2	9,2	112,6
Yer qa’ridan foydalanganlikuchun soliq	13,9	15,3	20,0	20,7	103,1
Suv resurslaridan foydalanganlikuchun soliq	0,7	0,8	1,0	1,2	114,0
Boshqa daromadlar	**42,1**	**47,2**	**57,7**	**64,9**	**112,4**

Manba: *Muallif tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy web saytidan foydanilgan holda yaratilgan*

Mazkur 1-jadval bo‘yicha 2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasida soliq siyosatida ham bir qator o‘zgarishlar joriy etildi. Jumladan;

- *1-yo‘nalishda* aholi va tadbirkorlarga qo‘shimcha imtiyozlar berish, ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash va investision muhitni yaxshilash bo‘yicha;
- *2-yo‘nalishda* byudjet daromadlari barqarorligini ta’minlash bo‘yicha;
- *3-yo‘nalishda* ochiq muloqotdagi belgilangan vazifalar ijrosi;
- *4-yo‘nalishda* esa boshqa o‘zgarishlar sababli markur o‘zgartirishlar natijasida soliq qonunchiligiga kiritilgan mazkur o‘zgartirishlar mamlakatimizda tadbirkorlikka yanada erkinliklar berish hamda ularning rivojlanishi hisobiga soliq tushumlarini ko‘payishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlikni rivojlantirishga, investitsiyalarni jalb qilishga va barqaror soliq tizimini yaratishga qo‘yidagi xulosa hamda takiflarni tavsiya etamiz:

1. Soliq imtiyozlari va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash borasida aholi va tadbirkorlarga berilgan qo‘shimcha imtiyozlar ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi, yangi biznes boshlashni osonlashtiradi va kichik hamda o‘rta biznesning rivojlanishiga turtki beradi. Bu o‘zgarishlar iqtisodiyotda innovatsion faoliyatni rag‘batlantiradi va yangi ish o‘rinlari yaratadi.

2. Investitsiya muhiti yaxshilanishi borasida soliq siyosatidagi o‘zgarishlar investitsiya muhiti va biznes muhitining yanada yaxshilanishiga olib keladi. Soliq imtiyozlari va engillashtirilgan soliq qonunlari xalqaro investorlarni jalb qiladi, bu esa

to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimini oshiradi va mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

3. Byudjet daromadlarining barqarorligi borasida O‘zgarishlar davlat byudjetining barqarorligini ta’minlaydi va soliq yig‘imi samaradorligini oshiradi. Tadbirlar, shu jumladan, soliq bazasining kengayishi va yangi soliq to‘lovchilarni jalb qilish, davlatning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

4. Ochiq muloqot va soliq tizimidagi oshkoralik borasida ochiq muloqot va soliq tizimidagi oshkoralikni ta’minlash tadbirkorlarga o‘z faoliyatlarini yanada samarali boshqarishga imkon beradi. Bu, o‘z navbatida, soliq tizimiga bo‘lgan ishonchni oshiradi va biznesni qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi.

***Aadabiyotlar:*.**

1. O‘zbekiston Respublikasining "2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to‘g‘risida"gi 2024 yil 24 dekab O‘RQ-1011-sonli Qonuni.https://lex.uz/ru/docs/-7277618

2. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2024 yil 20-dekabr kuni mamlakatimizdagi faol tadbirkorlar bilan uchrashdi. Videoselektor shaklida o‘tgan muloqotda sohani qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yil yakunlari va 2025 yilga mo‘ljallangan rejalar muhokama qilindi. https://president.uz/oz/lists/view/7778

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha jamoatchilik kengashi. https://www.gazeta.uz/oz/ 2024/12/30/council-of-business/

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlar uchun teng sharoitlar va adolatli raqobat muhitini ta'minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi 2024 yil 27 dekabr PF-229-sonli Farmon. (https://t.me/uzchamber/15695)

5. O‘zbekiston Respublikasining "Soliq va byudjet siyosatining 2025 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida"gi 24.12.2024 yildagi O‘RQ-1014-sonli Qonuni. https://www.lex.uz/uz/docs/-7279923

6. O‘zbekiston Respublikasining "O‘zbekiston Respublikasining soliq kodeksiga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida"gi 24.12.2024 yildagi O‘RQ-1013-sonli Qonuni. https://www.lex.uz/uz/docs/-7279803

7. Internet saytlari;

8. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

9. www.imf.uz - O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti

10.www.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali

11.www.ach.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasi hisob palatasi sayti

12.www.soliq.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi sayti

13.www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti

INNOVATSION KORXONALARDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

Kochkarov Xudaybergen Atadjanovich

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti To‘rtko‘l fakulteti, assistent-o‘qituvchi

Hozirgi kunda innovatsion iqtisodiyot sharoitida korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash masalasi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Raqamli transformatsiya, sanoatning innovatsion modernizatsiyasi va yangi texnologiyalarning joriy etilishi sharoitida korxonalar faqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilangina emas, balki moliyaviy boshqaruv tizimini innovatsion asosda takomillashtirish orqali ham o‘z

barqarorligini saqlab qolishlari zarur. Moliyaviy barqarorlik – bu korxonaning o‘z majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish, ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz davom ettirish, foyda olish va investitsiyalarni kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘lgan holatini anglatadi. Shu bois, innovatsion faoliyat yuritayotgan korxonalarda moliyaviy boshqaruvni raqamli yondashuvlar asosida tashkil etish va moliyaviy oqimlarni to‘g‘ri yo‘naltirish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning eng muhim omiliga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, startap loyihalarni moliyalashtirish va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmoqlarini kengaytirish bo‘yicha davlat siyosati izchil davom ettirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmonida belgilangan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da iqtisodiyotda innovatsion texnologiyalarni joriy etish va moliyaviy boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish alohida ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rsatilgan [1]. Shuningdek, sanoat siyosatini yangi bosqichda amalga oshirish orqali korxonalar faoliyatida moliyaviy shaffoflikni oshirish, kredit va investitsiya resurslaridan samarali foydalanish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Ushbu islohotlar natijasida mamlakat miqyosida innovatsion korxonalar soni ortib, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yildan-yilga oshib bormoqda.

Moliyaviy barqarorlikni ta’minlashning zamonaviy mexanizmlari, avvalo, korxonada to‘liq raqamli tahlil tizimini yo‘lga qo‘yish, moliyaviy ko‘rsatkichlarni avtomatik tarzda monitoring qilish, risklarni prognozlash va strategik qarorlarni sun’iy intellekt asosida qabul qilishni o‘z ichiga oladi. Raqamli tahlil platformalari (masalan, Power BI, ERP, SAP) yordamida korxonaning likvidlik, rentabellik, kapital aylanishi, debitorlik va kreditorlik qarzlari dinamikasi real vaqt rejimida tahlil qilinmoqda. Bu esa moliyaviy oqimlarni optimallashtirish, foyda marjasini oshirish hamda kapital aylanish tezligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Innovatsion yondashuv sifatida moliyaviy oqimlarni boshqarishda FinTech yechimlaridan foydalanish ham alohida ahamiyatga ega. FinTech texnologiyalari orqali naqd pul oqimlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri raqamli platformalarda nazorat qilinib, har bir operatsiya bo‘yicha tahliliy hisobotlar shakllantiriladi.

Jahon banki va OECDning 2024-yilgi hisobotlarida qayd etilishicha, raqamli moliyaviy boshqaruv tizimini joriy etgan korxonalarda aktivlar aylanishi o‘rtacha 15–20 foizga tezlashadi, moliyaviy risklar esa 25 foizgacha kamayadi [2]. Bu esa innovatsion korxonalar uchun moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim strategik omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, xalqaro amaliyotda (AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya tajribasida) moliyaviy boshqaruvning markazlashtirilgan raqamli tizimlari orqali har bir korxona bo‘yicha moliyaviy prognoz modellarini ishlab chiqish keng yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekiston ham “Digital Economy 2030” dasturi doirasida bu yo‘nalishda bosqichma-bosqich islohotlarni amalga oshirmoqda.

1-jadval

O‘zbekistonda innovatsion faoliyat yurituvchi korxonalar moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari [3]

Yil	Innovatsion korxonalar soni (ta)	Moliyaviy barqaror korxonalar ulushi (%)	O‘rtacha rentabellik darajasi (%)	Qisqa muddatli majburiyatlarning ulushi (%)	Investitsiya hajmi (mlrd so‘m)
2022	2 870	64,3	7,2	42,1	9 850
2023	3 420	68,9	8,5	38,5	11 640
2024	4 050	73,6	9,8	35,2	13 720

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2022-2024-yillar oralig‘ida O‘zbekistonda innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanayotgan korxonalar soni 2 870 tadan 4 050 taga yetgan, ya’ni uch yil ichida 41 foizga o‘sish kuzatilgan. Bu esa mamlakatda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish va startaplarni qo‘llab-quvvatlash borasidagi davlat siyosatining amaliy samarasini ko‘rsatadi.

Moliyaviy barqaror korxonalar ulushi 2022-yildagi 64,3 foizdan 2024-yilda 73,6 foizgacha oshgani innovatsion sektorda moliyaviy boshqaruv mexanizmlarining takomillashganini bildiradi. Ayniqsa, rentabellik darajasining 7,2 foizdan 9,8 foizgacha ko‘tarilishi korxonalarning daromad manbalari kengayib borayotganini, ularning mahsulot va xizmatlari yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘layotganini anglatadi.

Aktivlar aylanish ko‘rsatkichi 1,25 martadan 1,54 martaga oshgan bo‘lib, bu moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligining sezilarli darajada oshganini bildiradi. Shu bilan birga, qisqa muddatli majburiyatlarning umumiy majburiyatlardagi ulushi 42,1 foizdan 35,2 foizgacha kamaygani korxonalarning moliyaviy mustaqilligi kuchayganini, uzoq muddatli investitsiyalar ulushi ortganini ko‘rsatadi.

Investitsiyalar hajmi esa 2022-yildagi 9,85 trillion so‘mdan 2024-yilda 13,72 trillion so‘mga yetib, 39,3 foizga oshgan. Bu esa innovatsion korxonalarga davlat va xususiy sektordan qo‘shimcha kapital oqimi yo‘naltirilayotganini bildiradi. Mazkur tendensiyalar moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda raqamli tahlil tizimlari, FinTech yechimlari va kapital manbalarining diversifikatsiyasi muhim rol o‘ynayotganini isbotlaydi. [3]

Umuman olganda, 2022–2024-yillarda innovatsion korxonalar moliyaviy holatining barqarorlashuvi quyidagi omillar bilan izohlanadi:

Raqamli moliyaviy tahlil tizimlarining joriy etilishi tufayli resurslardan foydalanish samaradorligi oshdi;

FinTech va elektron to‘lov texnologiyalari orqali moliyaviy oqimlar shaffof boshqarila boshlandi;

Davlat investitsiya dasturlari orqali innovatsion loyihalarga kapital jalb qilish imkoniyatlari kengaydi;

Kredit resurslarini qayta moliyalashtirish mexanizmlari soddalashtirildi, bu esa qisqa muddatli qarz yukini kamaytirdi.

Ushbu ko‘rsatkichlarning dinamikasi shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda innovatsion korxonalar moliyaviy boshqaruv tizimining zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha boshlangan islohotlar ijobiy natija bermoqda. Agar bu yo‘nalishdagi raqamli transformatsiya va xalqaro moliyaviy standartlarni tatbiq etish jarayoni izchil davom ettirilsa, 2025-2026-yillarda innovatsion sektordagi korxonalarning moliyaviy barqarorlik darajasi 80 foizdan oshishi kutilmoqda.

Innovatsion korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim yo‘nalishlardan yana biri – kapital tuzilmasini optimallashtirishdir. Amaldagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, korxona kapitalining 60-70 foizi qisqa muddatli kreditlar va qarz majburiyatlaridan tashkil topgan hollarda moliyaviy barqarorlik darajasi pasayadi. Shu sababli, kapital manbalarini diversifikatsiya qilish, uzoq muddatli investitsiyalarni jalb etish, aksiyalar chiqarish yoki davlat xususiy sheriklik asosida loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish lozim. Ayniqsa, innovatsion korxonalar uchun venchur moliyalashtirish mexanizmlarining rivojlantirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirda O‘zbekistonda Venchur jamg‘armalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash

mexanizmlari ishlab chiqilmoqda, bu esa texnologik startaplar uchun moliyaviy asos yaratadi. [4]

Moliyaviy barqarorlikka erishish uchun yana bir zamonaviy yo‘l - risklarni diversifikatsiya qilish va moliyaviy rejalashtirishni avtomatlashtirishdir. Sun’iy intellekt algoritmlari yordamida bozor o‘zgarishlarini prognoz qilish, xarajatlarni optimallashtirish va foyda rejalashtirish tizimlari ishlab chiqilishi korxona moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillariga asoslangan moliyaviy boshqaruv tizimlari ham jadal rivojlanmoqda. Bu yondashuv moliyaviy barqarorlikni nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. [5]

Natijada, innovatsion korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta’minlashning zamonaviy mexanizmlari kompleks yondashuvni talab qiladi. Bunga moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, investitsion oqimlarni tahlil qilish, kapital tuzilmasini diversifikatsiya qilish, shuningdek, xalqaro standartlarga mos moliyaviy hisobot tizimini shakllantirish kiradi. Shu jihatdan, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, moliyaviy boshqaruvda innovatsion mexanizmlarni keng joriy etish uchun mustahkam huquqiy asos yaratmoqda. [6]

Xulosa qilib aytganda, innovatsion korxonalarning moliyaviy barqarorligi - bu faqat moliyaviy ko‘rsatkichlarning barqarorligiga erishish emas, balki boshqaruvning zamonaviy, raqamli va ilg‘or tahlilga asoslangan mexanizmlarini shakllantirish jarayonidir. Raqamli moliya vositalaridan keng foydalanish, FinTech va sun’iy intellekt texnologiyalarini moliyaviy boshqaruv tizimiga integratsiya qilish, investitsion risklarni avtomatik tahlil qilish hamda xalqaro moliyaviy standartlarga moslashish innovatsion korxonalarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu yo‘nalishda iqtisodiyotning har bir subyekti o‘z moliyaviy strategiyasini zamonaviy mexanizmlar asosida shakllantirsa, milliy iqtisodiyotda innovatsion o‘sish, raqobatbardoshlik va barqarorlik darajasi sezilarli darajada oshadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF–60-son Farmon. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. – www.lex.uz, 2022.

2. World Bank. World Development Indicators 2024. – Washington, D.C.: World Bank, 2024.

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari www.stat.uz

4. OECD. Digital Economy Outlook 2024. – Paris: OECD Publishing, 2024.

5. Vohidov A., Hasanov M., Yusupov B. Hududiy iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish asoslari. – Toshkent: Fan, 2023.

6. Ergashev Sh. Raqamli iqtisodiyot va sanoatni diversifikatsiya qilish. – Toshkent: Innovation Press, 2024.

YOG‘-MOY SANOATI KORXONALARIDA SOLIQ AUDITINI AXBOROT TAHLILIY TA’MINOTI

A’zamova Aziza Olimjon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Auditorlik hujjatlarining ahamiyati qator omillar bilan izohlanadi. Eng avvalo, ular auditor xulosasini tasdiqlovchi dalillarni taqdim etish zarurati bilan bog‘liq. Shu bilan

birga, ushbu hujjatlar auditorlik tekshiruvi jarayonida amalga oshirilgan har bir bosqichni yoritib beradi. Auditorlik hujjatlarida, shuningdek, tekshiruvning amaldagi audit standartlariga muvofiq olib borilgani to‘g‘risida ma’lumotlar qayd etiladi. Bu ma’lumotlar ham tashqi, ham ichki sifat nazorati nuqtai nazaridan muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston amaliyotida auditorlik faoliyatida ishchi hujjatlarning tuzilishi, miqdori va shakli masalalari doimiy diqqat markazida turadi. Buning sababi — auditorlik xizmatlarining sifati va samaradorligini tashqi nazorat qilish jarayonida, shu jumladan, hujjatlarda ma’lumotlarni to‘liq va aniq aks ettirish talab qilinishidir.

“O‘zbekistonda ham auditorlik faoliyatini takomillashtirish va shaffofligini oshirish maqsadida, ishchi hujjatlarning standartlarga muvofiqligi va ulardagi ma’lumotlarning yetarliligi ustuvor vazifa sanaladi”[1].

Xalqaro auditorlik standartlarining (XAS) joriy etilishi yuqorida ta’kidlangan muammolarni yanada murakkablashtirdi, chunki ular nafaqat tashkilotchilik, balki metodologik jihatdan ham qo‘shimcha talab va topshiriqlarni oldiga qo‘ydi. Biroq, normativ-huquqiy bazaning takomillashishi va standartlarni amalda tatbiq etish audit hujjatlarini shakllantirish jarayonini soddalashtirdi hamda tashqi va ichki sifat nazoratini oshirishga xizmat qildi. Bu o‘z navbatida auditorlik faoliyatining shaffofligi va samaradorligini mustahkamlashga imkon berdi.

Ishchi hujjatlar quyidagi maqsadlarda qo‘llaniladi: auditni rejalashtirish va uni amalga oshirish jarayonida; bajarilgan ishlar ustidan joriy nazorat o‘tkazishda; auditor xulosasini tasdiqlovchi dalillarni yozishda.

Auditorning ishchi hujjatlariga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- ular audit jarayonining umumiy tushunishini ta’minlash uchun yetarlicha to‘liq va mufassal shaklda taqdim etilishi kerak;
- kelgusidagi tekshiruvlar uchun muhim auditorlik masalalari bo‘yicha ma’lumotlarni saqlab qolishi zarur;
- auditni samarali rejalashtirish va o‘tkazilishini qo‘llab-quvvatlashi lozim;
- auditorlik guruh a’zolarining mas’uliyatini ta’minlashi kerak;
- ichki va tashqi sifat nazoratini amalga oshirish uchun imkoniyat yaratishi kerak.

Auditorlik hujjatlariga, shuningdek, tekshirilayotgan tashkilotning hujjatlaridan muhim qismi yoki nusxalari kiritilishi mumkin. Biroq, ishchi hujjatlar iqtisodiy subyektning buxgalteriya yozuvlarining o‘rnini bosmasligi lozim. Masalan, xatosiz va o‘z vaqtida rasmiylashtirilgan boshlang‘ich hujjatlarning nusxalarini ishchi hujjatlar tarkibiga kiritish ma’noga ega emas.

Xalqaro tajribada ishchi hujjatlar uchun yagona standart shakllar belgilanmagan bo‘lib, har bir auditorlik kompaniyasi o‘zining hujjatlar ro‘yxatini mustaqil belgilaydi. Biroq, xalqaro audit standartlariga amal qilish audit jarayoniga, shu jumladan ishchi hujjatlarning tuzilishi va mazmuniga birxil va tizimli yondashuvni ta’minlaydi.

Auditorlik faylini shakllantirish tartibini xalqaro audit standartlariga muvofiq batafsil ko‘rib chiqishda bir qator afzalliklarini alohida ta’kidlash lozim. Xususan, ko‘pgina standartlarda “Auditorlik hujjatlari” nomli alohida bob mavjud bo‘lib, unda auditor belgilangan masala bo‘yicha qanday ishchi hujjatlarni tayyorlashi kerakligi batafsil yoritilgan. Auditorlik tekshiruvining asosiy bosqichlari shartli ravishda ajratilgan, chunki audit standartlari talablariga muvofiq auditorlik protseduralarini rejalashtirish va qayta ko‘rib chiqish butun audit jarayoni davomida izchil amalga oshirilishi zarur. Bu, o‘z navbatida, auditning sifatini ta’minlash hamda auditorlik faoliyatining mukammalligini oshirish imkonini beradi. Har bir auditorlik tashkiloti

ushbu hujjatlar roʻyxatini moliyaviy-xoʻjalik faoliyatning xususiyatlari, tekshirilayotgan subyektning sohasi va xususiyatlarini inobatga olgan holda oʻz talablari asosida kengaytirishi mumkin.

“Auditorlik hujjatlariga oxirgi bosqichda kiritiladigan oʻzgartirishlar odatda ma’muriy va texnik xususiyatga ega boʻlib, ularga eskirgan hujjatlarning chiqarilishi, hujjatlarning muvofiq tartibga keltirilishi, ishchi hujjatlarga tegishli manbalar va havolalarning aniq koʻrsatilishi kiradi”[2]. Bu jarayonlar audit hujjatlarining mukammalligini va ularning qonuniylik hamda sifat standartlariga mosligini ta’minlashga qaratilgan.

Auditor ishchi hujjatlarni yagona faylda jamlaydi va xulosa imzolangan sanadan soʻng belgilangan muddat ichida yakuniy faylni rasmiylashtirish jarayonini yakunlaydi.

“Auditorlik dalillarining zamonaviy tushunchasi XX asrning 30-yillarida shakllana boshlagan boʻlib, bu jarayon T. Li va M. Azemning ilmiy ishlarida oʻz aksini topgan. Oʻsha davrda auditorlar tashqi manbalardan olingan ma’lumotlar sifatiga baho berish, jismoniy kuzatuv amalga oshirish va ichki nazorat tizimini tahlil qilish vazifalarini bajarishlari lozim edi.

F. L. Defliz, G. R. Djenik va M. B. Xirshning ishlarida esa auditorlik dalillari — buxgalteriya hisobotlari bilan bogʻliq asosiy ma’lumotlar hamda auditor tomonidan toʻplangan, moliyaviy hujjatlar asosida chiqarilgan xulosalarni tasdiqlash yoki rad etish uchun zarur boʻlgan tasdiqlovchi axborot sifatida qaraladi”[3]. Bu dalillar auditorlik xulosasini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

I. Qoʻziyev “auditorlik dalillarini ma’lum bir faktning mavjudligini tasdiqlash yoki rad etishga xizmat qiluvchi faktlar sifatida qarab, shuningdek, buxgalteriya hisobotining ishonchliligi boʻyicha xulosa shakllantirish imkonini beruvchi ma’lumotlarni yigʻish jarayoni sifatida tushuntiradi”[4]. Bu yondashuv auditorlik amaliyotida dalillarning muhim vazifalarini va ular orqali olinadigan axborotning ahamiyatini yanada ochib beradi.

A. Xotamovning tadqiqotlarida “auditorlik dalillari turli manbalardan, jumladan tekshirilayotgan subyektivning buxgalteriya hujjatlaridan, xodimlaridan va uchinchi shaxslardan olingan ma’lumotlarni tahlil qilish natijasi sifatida tasvirlanadi. Shu asosda auditor buxgalteriya hisobotining ishonchliligi toʻgʻrisida xulosa chiqaradi”[5].

Xorijiy va mahalliy mualliflarning asarlarini monografiyaviy tahlil asosida “auditorlik dalillari” tushunchasining mohiyatiga uchta asosiy yondashuvni ajratish mumkin:

- Birinchidan, auditorlik dalillari — bu auditorning xulosasini toʻgʻri yoki notoʻgʻri deb asoslashga xizmat qiladigan faktlardir;
- Ikkinchidan, auditorlik dalillari — tekshirilayotgan subyektning moliyaviy-iqtisodiy faoliyati haqida tekshirish jarayonida olingan ma’lumotlar (ogʻzaki izohlar, mijoz va uchinchi shaxslar tomonidan berilgan ma’lumotlar, auditorlik hujjatlari)dir;
- Uchinchidan, auditorlik dalillari — ma’lum bir iddaoning ishonchliligini tasdiqlash maqsadida amalga oshirilishi kerak boʻlgan aniq qadamlar va chora-tadbirlardir.

“Xalqaro audit standartlarida auditorlik dalillarini olish jarayoni 11 ta alohida standartda muntazam tartibda yoritilgan boʻlib, bu uning audit jarayonidagi muhimligini va katta ahamiyatini koʻrsatadi. Bu standartlar auditorga dalillarni toʻplash, tahlil qilish va baholash boʻyicha aniq yoʻriqnomalarni taqdim etadi. Shu tariqa, dalillarning ishonchliligi va yetarliligini ta’minlash orqali auditorning xulosalari

moliyaviy hisobotlarning haqiqatga muvofiqligi va ishonchliligi haqidagi bahoga asos bo‘ladi”[6]. Audit kontseptsiyasida ham dalillarni to‘plash va ularga asoslangan qarorlar qabul qilish auditning eng muhim bosqichlaridan biri sifatida e’tirof etilgan.

Bundan tashqari, dalillarni olishning tizimli va metodologik yondashuvi audit sifatini oshirish, xatolarni va soxtalashtirishlarni aniqlash imkonini beradi. Shuning uchun, auditorlik dalillari va ularni to‘plash jarayoniga oid xalqaro standartlar auditorlik amaliyotining fundamental asoslaridan biri bo‘lib, har bir auditor bu normalarga qat’iy amal qilishi shart.

Auditor buxgalteriya hisobotini tuzishda qo‘llaniladigan asosiy xulosalar (ya’ni, hisobotni shakllantirishdagi belgilangan mulohazalar) ni tasdiqlash yoki rad etish maqsadida yetarli va ishonchli auditorlik dalillarini to‘plashi shart. Bu dalillar auditorlik tekshiruvi jarayonida qabul qilinadigan qarorlar va yakunda shakllantiriladigan xulosa uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Xalqaro standartlarga muvofiq, auditor ushbu dalillarni tekshirishning barcha bosqichlarida — rejalashtirish, amalga oshirish va baholash jarayonlarida — tizimli tarzda yig‘ishi lozim.

Iqtisodiy subyekt tomonidan auditorga taqdim etiladigan axborot ishonchliligi, to‘liqligi, aniqligi va dalillarni yig‘ish hamda auditorlik faylni shakllantirish uchun yetarli ekanligi nuqtai nazaridan baholanadi.

Agar turli manbalardan olingan dalillar bir-biri bilan muvofiq kelmasa yoki ma’lumotlar ishonchliligi yuzasidan shubhalar yuzaga kelsa, auditor bu ziddiyatlarni bartaraf etish uchun qanday qo‘shimcha auditorlik amallari talab etilishini aniqlashi va bunday ma’lumotlarning auditning boshqa jihatlariga ta’sirini tahlil qilishi lozim.

Auditorlik dalillarini olish jarayoni har bir auditorlik topshirig‘iga xos bo‘lib, bu jarayon tizimli, maqsadli va aniq yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak; ya’ni dalillarni yig‘ish tasodifiy yoki byetartib ravishda amalga oshirilmaydi.

Auditor tomonidan dalillar shaklida foydalaniladigan axborot belgilangan talablarga javob berishi lozim — hajm jihatidan dalillarning yetarliligini, sifat ko‘rsatkichlari jihatidan esa amalga oshirilgan auditorlik amallarining tegishliligi va ishonchliligini ta’minlashi shart.

“A. Arens va J. Lobbek tomonidan ishlab chiqilgan axborot xususiyatlarining tasnifi — mazmuni va ilmiy yondashuvi jihatidan xalqaro moliyaviy hisobot standartlari hamda axborot sifatini baholashga oid umume’tirof etilgan metodologik yondashuvlarga to‘la mos keladi. Ushbu klassifikatsiya axborotning turli xil tavsiflarini tizimlashtirish orqali uning amaliy ahamiyatini oshiradi va istiqbolda axborotdan foydalanuvchilar — auditorlar, tahlilchilar, boshqaruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun tushunarli va qabul qilinishi oson bo‘lgan shaklda taqdim etiladi. Shu jihatdan, Arens va Lobbek tomonidan taqdim etilgan model nafaqat nazariy jihatdan asoslangan, balki amaliyotda keng qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan qo‘llanma sifatida ham ahamiyat kasb etadi”[7].

Auditor dalillarning sifatini baholashda o‘zining kasbiy mulohazalariga tayanadi. Shu jihatdan, auditorning yuqori malakaligi va kasbiy tajribasi audit jarayonida talab etiladigan muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Auditorlik dalillarining sifatliligi, yetarliligi va o‘zaro muvofiqligi nafaqat auditorning o‘zi, balki audit guruhi a’zolari tomonidan ham maslahatlashuvlar orqali, shuningdek, topshiriqning bajarilish sifatini nazorat qiluvchi shaxs tomonidan ham baholanadi.

Shuningdek, auditorlik topshirig‘i natijalari bo‘yicha asosli auditorlik xulosasini shakllantirish maqsadida yetarli va to‘g‘ri auditorlik dalillarini to‘plash zarur bo‘ladi. Bu esa quyidagi muhim shartlarning bajarilishiga bog‘liq:

– Auditorlik dalillari turli tashqi va ichki manbalardan olingan ma’lumotlar asosida shakllanishi lozim. Axborotning ishonchliligi yoki to‘g‘riligi obyektiv va mustaqil shaxslarning guvohliklari bilan kafolatlanadi. Shu bilan birga, tekshirilayotgan korxonaning ichki manbalaridagi ma’lumotlarni baholashda auditor ichki nazorat tizimiga tayangan holda qaror qabul qilishi kerak;

– Auditorlik dalillari mazmunan maqbul va o‘z vaqtida bo‘lishi lozim, bu ularning sifatini tasdiqlaydi. Maqbullik dalillarning moliyaviy hisobotning muayyan sifat jihatlariga mosligi bilan ta’minlanadi. O‘z vaqtida bo‘lish esa amaliyotlarning bajarilgan vaqti va auditorlik o‘tkazilayotgan davrning vaqt doiralarini hisobga olishni nazarda tutadi. Dalillarning sifatini baholashda auditorning kasbiy mulohazasi muhim rol o‘ynaydi;

– Auditorlik dalillarini kollektiv ravishda baholash, ya’ni auditorning kasbiy mulohazasi asosida maslahatlashuvlar o‘tkazilishi ularning sifatini ta’minlashga xizmat qiladi;

– To‘plangan dalillarni tahlil qilar ekan, auditor ular orasida ziddiyatlarni aniqlashi, bu ziddiyatlarning sabablari va xususiyatini o‘rganishi lozim. Auditorlik xulosasini asoslash uchun ishonchli va yetarli dalillarni olish maqsadida tekshiruv rejasiga muvofiq maxsus auditorlik tartib-taomillari ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi, ular muayyan vaziyatlarda tegishli sifatga ega bo‘lishi talab etiladi.

Adabiyotlar

1. Isaev, Fakhriddin. "Солиқ текширувлари: аудит самарадорлиги таҳлили." Economics and Innovative Technologies 11.1 (2023): 394-401.

2. Инжинова, Г. Д., Л. Ц. Бадмахалгаев, and Б. Д. Басхамджиева. "Система аудита и налогового учета в организации и их взаимосвязь." Экономическая политика и финансовые ресурсы 3.3 (2024): 55-61.

3. Гурьева, Татьяна Михайловна. "Сущность налогового аудита." Налоги 4 (2007): 23-26.

4. Қўзиев, И., and Ф. Очилов. "АУДИТОРЛИК ХУЛОСАСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ТАҲЛИЛИЙ АМАЛЛАРНИ ҚЎЛЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ." Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting 4.04 (2024): 40-46.

5. Хотамов, А. "Аудитнинг халқаро стандартлар асосида молиявий ҳисобот аудити ҳисоботи ва хулосасини тайёрлаш, тузиш ва тақдим этишни такомиллаштириш." Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting 1.4 (2021): 1-9.

6. Moeckel C. L., Plumlee R. D. Auditors' confidence in recognition of audit evidence //Accounting Review. – 1989. – С. 653-666.

7. Kruglyak Z. I., Shvyreva O. I. Improving the Russian Regulatory Basis for International Financial Reporting Standards-based Qualitative Characteristics of Financial Information //Journal of Applied Economic Sciences. – 2017. – Т. 12. – №. 8.

SOLIQLAR AUDITINI RAQAMLASHTIRISH

Xasanov Baxodir Akramovich
TDIU professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Jamiyatning raqamlashtirilishi misli ko‘rilmagan tezlikda kechmoqda. Raqamli transformatsiya inson hayotining deyarli barcha jabhalariga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda

— bu aloqa qilish, xaridlar amalga oshirish, to‘lov tizimlaridan foydalanishdan tortib, kundalik faoliyatning barcha yo‘nalishlarini qamrab olmoqda. Ayniqsa, ishbilarmonlik muhitida raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlari — loyihalash, sinovdan o‘tkazish, ishlab chiqarish va hisob-kitob ishlarini uzviy bog‘liq holda tashkil etish imkonini bermoqda.

Raqamli texnologiyalarning hisob tizimlari va boshqa biznes jarayonlariga integratsiya qilinishi mavjud ma’lumotlarning chuqur tahlil qilinishi, ularning asosida esa boshqaruv qarorlarining yanada samarali qabul qilinishiga xizmat qilmoqda. Mazkur jarayon, ayniqsa, biznes subyektlarining soliq majburiyatlarini bajarish jarayonlarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Shu bois, soliq ma’muriyatlari tomonidan raqamlashtirish mexanizmlarini keng joriy etish, ayniqsa soliq to‘lovchilar bilan soliq organlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda yangi yondashuvlarni qo‘llash zarurati tobora ortib bormoqda.

Bugungi kunda dunyo miqyosida soliq organlari daromadlarni yig‘ish bo‘yicha mavjud modellarni global raqamli iqtisodiyot sharoitlariga moslashtirishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Davlat xizmatlarining bosqichma-bosqich raqamli tusga o‘tayotgani natijasida tadbirkorlik subyektlari yangi iqtisodiy tendensiyalar va strategik savollarga javob izlashga majbur bo‘lmoqda.

Ko‘plab davlatlarda soliq ma’muriyatlari soliq majburiyatlariga rioya etish sohasida raqamli inqilob jarayonini boshdan kechirmoqda. Bu transformatsiya soliq boshqaruvi samaradorligini oshirish va faoliyat natijadorligini kuchaytirishga yo‘naltirilgan. Natijada murakkab biznes tizimlari va ularning ichki operatsion jarayonlari davlat sektori tomonidan yaratilgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga moslashishga majbur bo‘lmoqda.

Natijada, davlat va xususiy sektor o‘rtasida o‘zaro axborot integratsiyasiga asoslangan yangi, innovatsion va moslashuvchan soliq boshqaruvi muhiti shakllanmoqda. Bu holat O‘zbekiston sharoitida ham raqamli soliq ma’muriyatchiligini joriy etish va uni takomillashtirishda ilg‘or xalqaro tajribalarni chuqur o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

Raqamli tizimlarning samaradorligini oshirish, shuningdek, ular orqali davlat va biznes manfaatlari o‘rtasida muvozanatni saqlab qolish uchun quyidagi tamoyillarni inobatga olish maqsadga muvofiq:

1. Samaradorlik tamoyillari (Efficiency Principles):

• “Ma’lumotni faqat bir marta taqdim etish” prinsipi: Raqamli tizimlar soliq to‘lovchilarning bir xil ma’lumotlarni turli idoralarga (soliq, bojxona, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqalar) bir necha bor topshirish majburiyatini kamaytirishga xizmat qilishi kerak. Raqamlashtirish ma’muriy yukni oshirish emas, balki uni optimallashtirish yoki to‘liq bartaraf etishga yo‘naltirilishi lozim.

• Izchillik (Consistency): Tizimlar vaqt o‘тан cari ham yuridik, texnik va amaliy jihatdan izchil ishlashi zarur. Qarorlar va talablar sohalar yoki hududlar bo‘yicha ziddiyatli holatlarni yuzaga keltirmasligi kerak.

• O‘zaro moslik (Interoperability): Raqamli tizimlar turli davlat idoralari, hududiy organlar va hatto xalqaro yurisdiktsiyalar o‘rtasida ham yuridik va texnik jihatdan muvofiqlikni ta’minlashi zarur.

• Uyg‘unlik (Harmonisation): Raqamli tizimlar mamlakat ichida ham, xalqaro miqyosda ham standartlashtirilgan formatlar, xavfsizlik talablari va uzatish protokollariga asoslangan holda faoliyat yuritishi kerak.

• Barqarorlik va uzluksizlik (Robustness and Continuity): Tizimlar yuqori darajada barqaror va uzluksiz ishlashi, foydalanuvchilarga xizmat darajasi (SLA) bo‘yicha aniq kafolatlar berilishi, yuzaga kelgan nosozliklar haqida tezkor va aniq axborot berilishi lozim. Bundan tashqari, topshirilgan ma’lumotlarga asoslangan tekshiruvlar ochiqligi ta’minlanishi kerak.

2. Muvozanat tamoyillari (Balance Principles): Raqamli tizimlar ishlab chiqilishida davlat manfaatlari va biznes ehtiyojlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash asosiy mezon bo‘lib xizmat qilishi lozim:

• Iqtisodiy samaradorlik (Economic Benefits): Raqamli tizimlar nafaqat davlat byudjetiga tushumlarni ta’minlashi, balki soliq to‘lovchilar zimmasidagi xarajatlarni ham kamaytirishga xizmat qilishi kerak. Yangi tizimlarni majburiy joriy etishdan oldin ularni ixtiyoriy asosda sinov tariqasida joriy qilish tavsiya etiladi. Bu bosqichda tizimlar orqali soliq imtiyozlari, hisobot topshirish chastotasining kamayishi, arxivlash muddati qisqarishi kabi real foydalarni taqdim etish lozim.

• Avtomatlashtirishni rag‘batlantirish (Encouraging Automation): Yangi tizimlar korxona ichki jarayonlarini avtomatlashtirishga xizmat qiladigan xalqaro va milliy standartlarga asoslangan bo‘lishi kerak.

• Moslashuvchanlik (Flexibility): Raqamli tizimlar turli yurisdiktsiyalar doirasida samarali ishlash imkoniyatiga ega bo‘lishi, mavjud tijorat amaliyotlariga zid kelmasligi, aksincha, ularga moslashishi lozim.

• Proportsionallik (Proportionality): Joriy qilinayotgan tizimlar biznesga ortiqcha xarajat va ma’muriy yuk yuklamasligi, raqobat muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi zarur. Har qanday talab kutilayotgan foyda bilan mutanosib bo‘lishi shart.

• Biznes bilan maslahatlashuv va tayyorgarlik muddati (Stakeholder Consultation & Lead Time): Yangi tizimlarni ishlab chiqish va joriy etish jarayonida tadbirkorlar va biznes vakillari bilan muntazam maslahatlashuvlar o‘tkazilishi kerak. Bundan tashqari, har qanday yangi tizimni sinovdan o‘tkazish va to‘liq tatbiq etish uchun yetarli vaqt ajratilishi muhimdir. Tizim qanchalik murakkab yoki innovatsion bo‘lsa, uning joriy etilishi uchun shunchalik puxta tayyorgarlik va bosqichma-bosqich amalga oshirish zarur bo‘ladi.

Soliq tizimi davlat moliyaviy barqarorligining asosi hisoblanadi. Korxonalarning qonuniy faoliyat yuritishi, soliq tushumlarining ortishi, shuningdek, iqtisodiyotni soya sektoridan chiqarish masalalari bevosita soliq ma’muriyatchiligi samaradorligiga bog‘liq. Shu bois zamonaviy sharoitda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali soliq munosabatlarini shaffof, izchil va kam xarajatli tarzda tashkil etish davlat siyosatining ustuvor йўналишларидан бири сифатида намоён бўлмоқда.

So‘nggi yillarda soliq ma’muriyatchiligi sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonlari jadal sur’atlarda amalga oshirilmoqda. “Bu o‘zgarishlar soliq organlari faoliyatining ikki muhim yo‘nalishida sezilarli ijobiy natijalarga olib kelmoqda: birinchidan, soliq to‘lovchilarga elektron shaklda qulay va sifatli xizmatlar ko‘rsatish imkoniyatlari kengaymoqda; ikkinchidan, soliq qonunchiligiga rioya etilishini samarali nazorat qilish tizimi shakllanmoqda. Ushbu ikki omilning uyg‘un tarzda rivojlanishi soliq tushumlarini ko‘paytirish va byudjetning barqaror daromad manbalarini ta’minlashga xizmat qilmoqda”[1].

Soliq organlari raqamlashtirish jarayonlariga strategik yondashuvni ta’minlash maqsadida uzoq muddatli raqamli transformatsiya yo‘l xaritalarini ishlab chiqishlari lozim. Bunday hujjatlar aniq maqsad va vazifalarga ega bo‘lib, soliq ma’muriyatchiligini

modernizatsiya qilish jarayonini tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish imkonini beradi. Shu bilan birga, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari soliq organlari faoliyatidagi ichki biznes-jarayonlarni avtomatlashtirish, operatsiya xarajatlarini kamaytirish va boshqaruv samaradorligini oshirishda katta salohiyatga ega.

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish nafaqat iqtisodiy faoliyatning barcha sohalari, balki davlat boshqaruvining muhim bo‘g‘ini bo‘lgan soliq tizimida ham innovatsion yondashuvlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni talab etmoqda. Xususan, “soliq tekshiruvlarida raqamlashtirish jarayonlari orqali elektron shakldagi nazorat mexanizmlaridan foydalanish, joriy amaliyotning samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini yaratmoqda” [2]. Elektron soliq tekshiruvlarining eng muhim ustunliklaridan biri — soliq tekshiruvlariga sarflanadigan vaqtni qisqartirish hamda soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlarini aniqlash imkoniyatini oshirishda namoyon bo‘ladi.

Raqamli vositalarni soliq nazoratida qo‘llash ayrim texnik, tashkiliy va huquqiy muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, ma’lumotlar xavfsizligi, huquqiy aniqlik, texnik jihatdan etarlicha ta’minlanmagan subyektlarning ishtiroki kabi muammolar elektron nazorat jarayonlarining samaradorligiga ta’sir ko‘rsatishi ehtimoldan xoli emas. O‘zbekiston Respublikasida soliq nazoratining zamonaviy modelini shakllantirish maqsadida xavflarga asoslangan yondashuv asosidagi tizim joriy etildi. Mazkur tizimga ko‘ra, “soliq to‘lovchilar faoliyati xavf darajasiga qarab uchta toifaga ajratiladi: yuqori xavf (qizil), o‘rta xavf (sariq) va past xavf (yashil). Yashil toifadagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar rejali soliq tekshiruvlaridan mustasno qilinsa, yuqori xavf guruhiga kiruvchi to‘lovchilar soliq auditi asosida batafsil o‘rganiladi” [3].

“Soliq auditi — bu soliq to‘lovchining soliq qonunchiligiga amal qilishi, buxgalteriya hisobi shaffofligi va moliyaviy hisobotlarining to‘g‘riligi bo‘yicha mukammal tahlilni o‘z ichiga oluvchi tekshiruv shakli hisoblanadi” [4]. Ushbu audit shakli davlat soliq organlariga fiskal risklarni boshqarish, soliqqa rioya qilish darajasini oshirish va soliqlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida aniq qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Soliq auditi nafaqat soliq siyosatining samaradorligini ta’minlaydi, balki soliq boshqaruvi tizimini ham isloh qilishga xizmat qiladi.

Soliq qonunchiligi va hisob-kitob standartlarida yuzaga kelayotgan yangiliklar raqamli muhitda ma’lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish, soliq risklarini prognozlash va strategik boshqarish imkoniyatlarini oshirmoqda. Bu esa, soliq ma’muriyatchilariga ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, aniq va shaffof audit jarayonlarini tashkil etish imkonini beradi.

Shu bilan bir qatorda, “soliq xarajatlarini soliq auditi orqali baholash metodologiyasi etarli darajada ilmiy o‘rganilmagan bo‘lib, bu yo‘nalishda kompleks tadqiqotlarni amalga oshirish” dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [5]. Soliq auditini tashkil etish va o‘tkazishda iqtisodiyot tarmoqlarining sohaviy xususiyatlari inobatga olinishi lozim. Bu esa auditorlik faoliyatining tizimliligi va obyektivligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan kelib chiqib, soliq auditiga oid ayrim nazariy va amaliy masalalarni batafsil tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Soliq ma’muriyatchiligini, bir tomondan, soliq munosabatlarini boshqarish tizimi, ikkinchi tomondan, soliq nazorati mexanizmi sifatida tushunish lozim. Shu bois, modernizatsiyalash maqsadida soliq ma’muriyatchiligini transformatsiya qilish hukumatning eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. 2026-2028 yillarga mo‘ljallangan Fiskal strategiyaga ko‘ra, “soliq ma’muriyatchiligi vositalaridan

foydalanish samaradorligini oshirish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi”[6]. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirishda raqamli texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xavflarni tahlil qilishga xizmat qiluvchi raqamli vositalar va masofaviy avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlarini joriy etish orqali soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarish darajasi oshishi hamda soliq to‘lovchilarning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanishi kutilmoqda. Bunday raqamlashtirish jarayonlari soliq munosabatlarida shaffoflikni kuchaytirish, ma’muriy xarajatlarni kamaytirish va soliq tizimining umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Шодмонов, Даврон. "Проблемы организации налогового аудита в условиях цифровой экономики." Экономическое развитие и анализ 3.1 (2025): 507-512.

2. Рахматов, Асатилло. "Вопросы совершенствования камеральной налоговой проверки." Экономическое развитие и анализ 2.2 (2024): 554-558.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud bo‘lgan soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash hamda soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida"gi qarori

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud bo‘lgan soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash hamda soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida"gi qarori

5. Чориев, Олимжон Орифжон Ўғли. "Солиқ хавфларини бошқариш доирасида солиқ тўловчиларни сегментлаш йўналишлари." Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика) 10 (2025): 1478-1484.

6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. O‘zbekiston Respublikasining 2026-2028-yillarga mo‘ljallangan Fiskal strategiyasi. - Toshkent: Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2025. - 142 b.

MILLIY IQTISODIYOTNI INNOVATSION SHAROITIGA O‘TISH DAVRIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA ZAMONAVIY MEHNAT BOZORI

MILLIY IQTISODIYOTNI INNOVATSION SHAROITIGA O‘TISH DAVRIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA ZAMONAVIY MEHNAT BOZORI

mavzusidagi
respublika ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLAR TO‘PLAMI
II qism
2025-yil 19-noyabr

8574

Mas’ul muharrir:
i.f.d., prof. S.K. Xudoyqulov

Kompyuterda sahifalovchi:
M.I. Asqarova

Bosishga ruxsat etildi 10.12.2025-y. Qog‘oz bichimi 60x80 1/16.
Shartli bosma tabog‘i 40,3b.t. Adadi 100 nusxa.

“Science and innovation” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: 100155, Toshkent shahri, Sergeli tumani, Quruvchi dahasi, 22/43,
+998993319654